

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

SH.MADAYEV., M. KASIMOVA

FALSAFA

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2019

- Taqrizchilar:** Fayzixo‘jayeva D. O‘zbekiston Milliy universiteti, “Falsafa va Mantiq” kafedrası professori, f.f.d. (*tayanch OTMdán*);
- Qahhorova M. Nizomiy nomidagi TDPU, "O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" kafedrası professori, f.f.d.

Mazkur darslikdan falsafa fani, uning predmeti va xususiyatlari, falsafiy dunyoqarash va uning tarixiy turlari, qadimgi Sharq va antik dunyodagi ilk falsafiy fikrlar, Markaziy Osiyo, G‘arbiy Yevropa, Rossiyadagi falsafiy fikrlaming rivojlanish tarixi, shuningdek, borliq hamda olamni falsafiy anglash muammolari, olamni bilish nazariyasi, jamiyatni falsafiy onglash asoslari, taraqqiyotining omillari, insoniyat istiqboli bilan bog‘liq dolzarb muammolar o‘rin olgan.

O‘quv qo‘llanma oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun mo‘ljallangan.

MUNDARIJA

№	Kirish	3-4
1.0	O'quv materiallari	
1.1	Falsafa fanining predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli	5-16
1.2	Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: Sharq falsafasi	17-31
1.3	Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: G'arb falsafasi	32-47
1.4	Borliq-falsafaning fundamental kategoriyasi	48-61
1.5	Olamning universal aloqalari va rivojlanish. Falsafaning qonun va kategoriyalari	62-83
1.6	Bilish nazariyasi: asosiy muammolari va yo'nalishlari	84-100
1.7	Tarixiy jarayonda jamiyatning madaniy va ma'naviy qadriyatlarini. Jamiyat va tarix falsafasi.	101-113
1.8	Falsafiy antropologiya (Inson falsafasi)	114-125
1.9	Globallashuv va global muammolarning falsafiy jihatlari	126-134
1.10	Mantiq ilmining predmeti, asosiy qonunlari. Tushuncha tafakkur shakli sifatida	135-157
1.11	Mulohaza. Xulosa chiqarish	158-170
1.12	Argumentlash va bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari	171-176
1.13	"Etika" fanining predmeti va jamiyat hayotidagi ahamiyati	177-208
1.14	Nikoh va oilaning axloqiy asoslari, uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni	209-218
1.15	Axloqiy madaniyat va qadriyatlar	219-230
1.16	Estetikaning predmeti, maqsadi va vazifalari	231-244
1.17	Tabiat va texnogen sivilizatsiya estetikasi	245-268
1.18	Estetikaning zamonaviy muammolari	269-288
2.0	Amaliy mashg'ulotlar materiallari	289-325
3.0	Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari	326-350
4.1	Glossariy	351-363
5.0	Ilovalar	
5.1	Fan dasturi	
5.2	Ishchi fan dasturi	
5.3	Tarqatma materiallar	
5.4	Testlar	
5.5	O'UMning elektron varianti.	

KIRISH

Insoniyat yaratgan ma'naviy boyliklar orasida falsafa ilmida to'plangan hikmatlar xazinasi, atoqli faylasuflar merosi, ularning asarlari muhim o'rin tutadi. Har bir davrning buyuk donishmandlari o'z yurti va xalqining tafakkuri, ruhiyati hamda orzu intilishlarini falsafiy ta'limotlarida ifoda etganlar, jamiyat farovonligi va millat ravnaqi uchun xizmat qiladigan yuksak g'oyalarni o'rta tashlaganlar. Xalqni buyuk maqsadlar sari yetaklovchi bu g'oyalarning muayyan davr mafkurasiga aylanishida falsafiy bilimlar katta ahamiyat kasb etadi. Insoniyat azalazaldan olam va odam nima, ular qanday paydo bo'lgan, voqelik qanday qonuniyatlar asosida yashaydi, o'zgaradi va taraqqiy etadi, degan savollarga javob izlaydi. Umrning mazmuni nimadan iborat, avlodlar ortidan avlodlar kelibketaverishida qanday ma'no bor kabi masalalar barchani o'ylantiradi. Falsafa ana shunday masalalar bilan shug'ullanadi. U nihoyatda qadimiy fan. Olam va odamlar o'rtasidagi munosabatlar. Inson qadri va umrning mazmuni, dunyodagi o'zgarishlar, o'zaro aloqadorlik va bog'liqlik hamda taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari falsafaning asosiy mavzulari hisoblanadi. Falsafa –insoniyatning bir necha ming yillik tarixiy taraqqiyoti davomida yaratilgan ilm va madaniyatning ajralmas tarkibiy qismidir. Inson bor ekan, olam va odam nima, ular qanday paydo bo'lgan, voqelik qanday qonuniyatlar asosida yashaydi, o'zgaradi va taraqqiy etadi, umrning mazmuni nimadan iborat, kabi masalalar barchani o'ylantiradi. Falsafa ana shunday masalalar bilan shug'ullanadi. Falsafaning asosiy vazifasi inson ongida sog'lom aqlga mos dunyoqarashni shakllantirishdan iborat.

Falsafa fanining dolzarbligi bugungi globallashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolarni hal etish, xalqimiz ma'naviy me'rosini asrash va yanada yuksaltirish, yoshlarning falsafiy tafakkurini shakllantirish, ongini turli zararli g'oyalardan saqlash, ularni falsafiy bilimlar bilan qurollantirish zarurligi bilan belgilanadi.

Ushbu fan barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida o'tilishi belgilangan bo'lib, o'zida turli davrlarning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy qarashlarini mujassamlashtirib, voqea va hodisalarning mohiyatini anglashni, unga munosabat bildirishni shakllantiradi hamda analitik, sintetik, kreativ tafakkurni hosil qiladi.

O'quv uslubiy majmua 5230600-Moliya, 5230700-Bank ishi, 5230800Soliqlar va soliqqa tortish, 5230900-Buxgalteriya hisobi va audit (real sektor bo'yicha)), 5231200-Sug'urta ishi, 5230200-Menejment (xizmatlar sohasi), 5231500-Baholash ishi, 5231300-Pensiya ishi, 5232100-Korporativ moliya, 5111000-Kasb ta'limi (5230600-Moliya), 5111000- Kasb ta'limi (5230700-Bank ishi), 5111000-Kasb ta'limi (5230900-Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)) yo'nalishi bazasida tayyorlanadigan talabalarga mo'ljallangan.

1-MAVZU: FALSAFA FANINING PREDMETI, MAZMUNI VA JAMIYATDAGI ROLI

REJA:

1. Falsafa tushunchasining kelib chiqishi.
2. Dunyoqarash tushunchasi, uning mohiyati. Dunyoqarashning tarixiy shakllari (mifologik, diniy, falsafiy).
3. Falsafaning predmeti va asosiy mazmuni.
4. Falsafaning jamiyat hayotidagi o'ri va asosiy vazifalari.

Tayanch tushunchalar: Falsafa, dunyoqarash, shaxs, idrok, dunyoqarashning tarixiy shakllari, fetishizm, animizm, totemizm, magiya, ontologiya, gnoseologiya, fan metodologiyasi, ijtimoiy falsafa, etika, aksiologiya, falsafiy antropologiya, metafizika, ong, tafakkur, ruh, materiya, tabiat, borliq, fan.

Mamlakatimiz fuqarolarida tafakkur erkinligi shakllanib bormoqda. Yurtimizda sodir bo'layotgan yaratuvchanlik tafakkur bilan uzviy bog'liq hodisadir. Mamlakat hayotini demokratlashtirish jarayoni qanchalik kengaysa va chuqurlashsa, fuqarolarimiz falsafiy iqtidoriga bo'lgan talab shuncha oshib boradi. SHuning uchun ham falsafa ilmi yoshlarga ham o'rta yoshlilarga ham, katta yoshdagilarga ham bab-barobar suv bilan havodek zarur bo'lgan hayotiy ehtiyojdir. Bu ilm o'zining tabiatiga ko'ra chegara bilmaydi. Mazkur chegara bilmas ilmni egallashning mohiyatini bilmaslikdan bilishga, bilishdan komillikka tomon yo'naltirilgan faoliyat tashkil qiladi. Falsafa ilmi milliy, ayni vaqtda umuminsoniy qadriyatdir. Mazkur qadriyat inson o'zini o'zi inson sifatida tanigan kunidan boshlab takomillashib, rivojlanib, chuqurlashib, murakkablashib, ilmiylashib va tobora insoniylashib borayotgan fandır.

Bugungi kunda mamlakatimizda 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha soha va tarmoqlarda ulkan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda, yoshlarimizning jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirishda falsafa fanining o'ri beqiyos ahamiyatga egadir.

Falsafa nihoyatda qadimiy fandır. Olam va odamlar o'rtasidagi munosabatlar, inson qadri va umrning mazmuni, dunyodagi o'zgarishlar, o'zaro aloqadorlik va bog'liqlik hamda taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari falsafaning asosiy mavzulari hisoblanadi. Falsafa esa — barcha fanlar rivojlanishiga asos bo'ladigan va ulardan oziqlanadigan, ayni paytda ularning rivojlanish yo'llarini belgilab beradigan umuminsoniy va universal fan. U qadim zamonlardayoq «barcha ilmlarning otasi» deb ta'riflangan. Uning hayotiyiligi xalq tabiatiga, turmush va tafakkur tarziga nechoqli mos ekani, jamiyat manfaatlari va ezgu intilishlarini qay darajada aks ettira olishiga bog'liq. Falsafiy mulohaza yuritish, fikrlash inson tabiatiga xos, demak, uning o'zi kabi qadimiydir. U olam va uning yashashi, rivojlanishi va taraqqiyoti, hayot va inson, umrning mohiyati, borliq va yo'qlik kabi ko'plab muammolar haqida bahs yuritadigan fandır.

Qadimgi yunon tilidan fanga kirib kelgan atama «filosofiya» so'zidan olingan va u «donishmandlikni sevish» («filo» — sevaman, «sofiya» — donolik) degan ma'noni anglatadi. Bu — ushbu so'zning, atamaning lug'aviy ma'nosi bo'lib hisoblanadi. Asrlar davomida filosofiya

1-MAVZU: FALSAFA FANINING PREDMETI, MAZMUNI VA JAMIYATDAGI ROLI

soʻzining maʼno-mazmuniga xilma-xil qarashlar, uning jamiyat, inson va fanlar tizimidagi oʻrniga nisbatan turlicha munosabat va yondashuvlar boʻlgan, bu atamaning mohiyatmazmuni ham oʻzgarib borgan. Qadimgi yunonlarda bu soʻz “tushunishga intilish”, “bilimga intilish” degan maʼnolarni ham anglatgan. Ushbu soʻz Fukidid, Suqrot va boshqa antik madaniyat vakillari tomonidan xuddi shunday maʼnoda qoʻllangan.

«Filosofiya» atamasi va u ifoda etadigan bilimlar majmui Qadimgi Yunoniston va Rimda eramizdan avvalgi VII-III asrlarda yuz bergan buyuk yuksalish natijasi sifatida yuzaga kelgan edi. oʻsha davrda endigina shakllanib kelayotgan nazariy fikrning ifodasi falsafiy tafakkur olamni yaxlit va bir butun holda tushunish mujassamiga aylangan edi.

Qadimgi Yunonistonda «Filosofiya» atamasini dastlab, matematika fani orqali barchamizga yaxshi maʼlum boʻlgan, buyuk alloma Pifagor ishlatgan. Evropa madaniyatiga esa, u buyuk yunon faylasufi Aflotun asarlari orqali kirib kelgan. Filofof soʻzini, yuqorida aytganimizdek ilk bor buyuk matematik va mutafakkir Pifagor qoʻllagan. Bu tushunchaning maʼnosini u Olimpiya oʻyinlari misolida quyidagicha tushuntirib bergan: anjumanga keladigan bir guruh kishilar bellashish, kuch sinashish, yaʼni oʻzi va oʻzligini namoyon etish uchun, ikkinchi bir guruh – savdo-sotiq qilish, boyligini koʻpaytirish uchun, uchinchi esa, oʻyindan maʼnaviy oziq olish, haqiqatni bilish va aniqlashni maqsad qilib oladi. Ana shu uchinchi guruhga mansub kishilar, Pifagor talqiniga koʻra, faylasuflar edi.

Bu, bir qarashda, oddiy va joʻn misolga oʻxshaydi. Ammo uning maʼnosi nihoyatda teran. Chunki, inson umrining oʻzi ham shunday. «Dunyo teatrga oʻxshaydi, unga kelgan har bir kishi sahnaga chiqadi va oʻz rolini oʻynab dunyoni tark etadi», degan fikr bejiz aytilmagan. Kimdir bu dunyoga uning sir-asrorlari toʻgʻrisida bosh ham qotirmasdan kelib ketadi, umrini eyish-ichish, uy-roʻzgʻor tashvishlari bilan oʻtkazadi. Boshqasi – nafs balosiga berilib, mol-mulkka ruju qoʻyadi. Uchinchi esa, olam hikmatlarini oʻrganadi, umrini xayrli va savob ishlarga sarflaydi, boshqalar uchun ibrat boʻlarli hayot kechiradi.

Qadimgi Sharq va Yunonistonda har tomonlama chuqur bilim va katta hayotiy tajribaga ega boʻlgan, inson maʼnaviyatini boyitish va haqiqatni bilishga intiluvchi kishilarni faylasuf deb ataganlar. Fozil va komil insonlargina falsafa bilan shugʻullanganlar. Aslida, oʻsha davrlarda falsafani oʻrganish deyilganda, ilmning asoslarini egallash koʻzda tutilgan. Grek mutafakkiri Geraklit (eramizdan avvalgi 520-460 yillarda yashagan) shogirdlariga murojaat qilib, «Doʻstim, sen hali yoshsan, umringni bekor oʻtkazmay desang, falsafani oʻrgan», deganda aynan ana shu haqiqatni nazarda tutgan.

Boshqa bir buyuk grek faylasufi Epikur (eramizdan avvalgi 470-399 yillarda yashagan) bu haqiqatni quyidagicha ifoda etgan: «oʻz-oʻzingni erga urish, tubanlashish nodonlikdan boshqa narsa emas, oʻzligingdan yuqori turish esa – faylasuflikdir».

Lev Tolstoy donishmand kishilarning uch xislatini alohida taʼkidlab, shunday yozgan: «Ular, avvalo, boshqalarga bergan maslahatlariga oʻzlari amal qiladilar; ikkinchidan, hech qachon haqiqatga qarshi bormaydilar; uchinchidan, atrofidagi kishilarning nuqsonlariga sabr-toqat bilan chidaydilar».

Xuddi shuningdek, Sharqda ham Konfutsiy va Moniy, Xorazmiy va Forobiy, imom Buxoriy va imom Termiziy, Beruniy va ibn Sino, Naqshband va Navoiy kabi donishmand bobolarimiz oʻz hayotiy kuzatishlari va tajribalarini umumlashtirish, insonga xos xato va kamchiliklardan saboq chiqarish, bashariyat tomonidan toʻplangan bilim va tajribalarni oʻzlashtirish orqali faylasuf darajasiga koʻtarilganlar.

1-MAVZU: FALSAFA FANINING PREDMETI, MAZMUNI VA JAMIYATDAGI ROLI

Jamiyat ma'naviy taraqqiyotining dastlabki davrlarida falsafa insonning olam haqidagi barcha bilimlarini o'z ichiga olgan. Keyinroq, falsafa kengroq mazmunga ega bo'lib, mustaqil fan sifatida shakllanadi va rivojlanadi. U tabiat, jamiyat va insonning mohiyati haqidagi eng umumiy bilimlarni o'zida ifodalab, insonni borliqqa bo'lgan munosabatining metodologik asoslarini belgilab beradi, tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining eng umumiy muammolarini o'rganadi va falsafiy dunyoqarashni shakllantiradi.

Kishilar qadim zamonlardan boshlab, borliq dunyo, tabiat nima, ular qanday tuzilgan, borliqning asosida nima yotadi, insonning o'zi nima, u dunyoga qanday qaraydi, kabi savollarga javob berishga harakat qilib kelganlar. Falsafiy tafakkur insonning o'z-o'zini anglashidan boshlanadi, uning olam haqidagi bilimlarini umumlashtirish asosida rivojlanib boradi. Inson bilishining ob'ekti bo'lgan olam cheksizligi sababli, bu savollarga javob berish imkoniyati ham cheksizdir. Kishilar borliqni va unga bo'lgan o'zlarining munosabatlarini o'rgana borishi, ularning o'z turmush tajribalari asosida ongli va ongsiz ravishda hosil qila borgan tasavvurlari va qarashlari miyalarida qayta ishlanib, o'ziga xos turli xil dunyoqarashni hosil qiladi.

Inson dunyoga kelar ekan, u yashashi, ulg'ayib borishi bilan o'z hayoti xaqida, kundalik ishlari xaqida, hayotdagi o'z quvonch va tashvishlari, baxti va baxtsizligi haqida, o'zining va o'z atrofidagi kishilarning tug'ilishi, yashashi, olamdan o'tishi haqida, narsa va hodisalarning esa o'zgarishi, rivojlanishi, boshqa yangi narsa va hodisalarning paydo bo'lishi haqida ma'lum tasavvurlarga, tushunchalarga ega bo'lib boradi. Bu tasavvurlar va tushunchalar uning borliqni, o'zi yashayotgan dunyoni qanday tushunishi, dunyodagi o'z o'rnini qanday anglashini ifodalaydi. Bular insonning dunyo to'g'risidagi oddiy ong darajasidagi qarashlaridir. Bu avvalo, inson o'zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi, tushunishi, bilishi va baholashi natijasida yuzaga kelgan xulosalari, bilimlari asosida shakllangan umumlashmalar tizimidir. Dunyoqarash, insonning o'ziga va uni qurshab turgan borliqqa bo'lgan munosabatlarini ifodalaydigan muayyan ko'nikmalari, bilimlari, malakalari hamda uning dunyoni amaliy va nazariy o'zlashtirishi hamdir.

Dunyoqarash tushunchasi. *har bir kishining dunyoga nisbatan o'z qarashi, o'zi va o'zgalar, hayot va olam to'g'risidagi tasavvurlari, xulosalari bo'ladi. Ana shu tasavvurlar, tushunchalar, qarash va xulosalar muayyan kishining boshqa odamlarga munosabati va kundalik faoliyatining mazmunini belgilaydi. SHu ma'noda, dunyoqarash - insonning tevarak atrofini qurshab turgan voqelik to'g'risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi, o'zining undagi o'rni haqidagi qarashlar, tasavvurlar, bilimlar tizimidir. Dunyoqarash - olamni eng umumiy tarzda tasavvur qilish, idrok etish va bilishdir. Dunyoqarashning bir kishiga yoki alohida shaxsga xos shakli individual dunyoqarash deyiladi.*

Dunyoqarash ijtimoiy-tarixiy shakllarga ega. Har bir davrning, har bir avlodning, har bir ijtimoiy guruhning, har bir kishining o'ziga xos dunyoqarashi mavjud. Dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda mifologiya, din, falsafa, fan, siyosat, huquq, san'at va axloq va shu kabi ijtimoiy-ma'naviy hodisalar sintezlashgan holda in'ikos etadi. Dunyoqarash insonning dunyoni va o'zini ma'lum ma'noda anglashi, tushunishi, bilishi va baholash usuli bo'lishi jihatdan uning har qanday moddiy va ma'naviy faoliyatida o'z ifodasini topadi.

Jamiyat taraqqiyoti bilan insonning amaliy va nazariy bilish faoliyati ham rivojlanib boradi. Dunyoqarash oddiy, kundalik ong holatidan tortib, dunyoni insonning o'ziga xos nisbatan murakkabroq va chuqurroq bilish va tushunishlariga oid mifologik, diniy va falsafiy dunyoqarashlarga tomon rivojlanib boradi.

Mifologik dunyoqarash. “Mif” tushunchasi yunoncha “mythos» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, afsona, rivoyat degan ma‘noni anglatadi. Mifologik dunyoqarash insoniyat tarixining dastlabki bosqichlariga xos bo‘lib, odamlar xulq-atvori va o‘zaro munosabatlarini tartibga solish funksiyasini bajargan. Mifologik dunyoqarash insonning dunyoni tushunishining o‘ziga xos oddiy usuli sifatida paydo bo‘lgan. Mifologik dunyoqarash voqelikning hayoliy in‘ikosi sifatida asosan qadimgi davr kishilari uchun xarakterlidir. Bu dunyoqarash o‘z ifodasini ko‘proq qadimgi davrlarda yaratilgan naqlarda, rivoyat va afsonalarda topgan. Qadimgi kishilar bu afsona va rivoyatlarda tabiat va jamiyatning turli hodisa va voqealarini umumlashtirib, ularni hayoliy shakllarda tasvirlaganlar. Mifologik dunyoqarashda hamma narsa va hodisalar bir-birining ishtirokchisi sifatida ifodalanadi. Tabiat kuchlarini hissiy qiyofalarda alohida jonli vujudlar ko‘rinishida jonlantirib tasvirlanadi. Mifologik dunyoqarash ifodalangan rivoyatlar va afsonalar o‘z mavzulari jihatdan turli tumandir. Ularning ba‘zilari dunyoning paydo bo‘lishi, uning tuzilishi, tabiat va jamiyat hodisalarining yuz berishi, dunyoning boshqarilishi, undagi predmetlar va hodisalarning o‘zaro munosabatlariga oid bo‘lsa, ikkinchi xillari esa insonning paydo bo‘lishi, uning yashashi, hayoti, insonning dunyodagi o‘rni, uning ishlari, tabiat kuchlari bilan olib borgan kurashlari, insonning ma‘naviy kamolot sari intilishlari, insonning o‘limi va shu kabilarga bag‘ishlangandir. Bu dunyoqarash qadimgi kishilarning o‘zlaricha o‘sha davrga xos dunyoni tushunish, idrok qilish, uni izohlash va baholash sifatida turli vazifalarni bajargan. Mifologik dunyoqarashning xususiyati shuki, unda hamma narsa va hodisalar birbirining ishtirokchisi sifatida tasvirlanadi. Buning natijasida bir xil buyumlarning sifatlarini ikkinchi xil buyumlarga bemalol ko‘chirish mumkin bo‘ladi. Mifologik dunyoqarashda tabiat kuchlari alohida jonli vujudlar ko‘rinishida jonlantirib tasvirlanadi. Mifologiyada bir xil narsalarning xossalari ikkinchi xil narsalarga bemalol ko‘chirilganligi sababli, u xayolotga keng yo‘l ochib beradi. Unda tasvirlangan obrazlar har qanday o‘zgarishlar qilishi va jasoratlar ko‘rsatishi mumkin.

Har bir xalqda o‘zining tarixiy o‘tmishiga oid juda ko‘p rivoyatlar va afsonalar mavjud. Ularda bu xalqning ijtimoiy hayoti, turmush va tafakkur tarzlari, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma‘naviy munosabatlari xayoliy tarzda aks ettiriladi, ular afsonaviy qahramonlar qiyofasida yovuz kuchlarga qarshi kurash olib boradilar. Bunday rivoyatlar va afsonalar dastlabki paytlarda xalq og‘zaki ijodi namunalarida, keyinchalik yozuvning paydo bo‘lishi bilan taraqqiy etgan xalqlarda o‘ziga xos adabiy-badiiy asarlarda o‘z ifodasini topadi.

Diniy dunyoqarash dunyoqarashning tarixan ikkinchi shakli dindir («din» so‘zi arabchadan tarjimada «e‘tiqod», «ishonch», «ishonmoq» degan ma‘nolarni anglatadi). Mif kabi, din zamirida ham e‘tiqod, tuyg‘ular va emotsiyalar yotadi. Garchi din kurtaklari «aqlli odam» dunyoqarashi shakllanishining dastlabki bosqichlarida, ya‘ni taxminan 40–60 ming yil muqaddam paydo bo‘lgan bo‘lsada, umuman olganda, u dunyoqarashning mustaqil shakli sifatida keyinroq, jumladan, mif ta‘sirida insonning mavhum fikrlash qobiliyati sezilarli darajada kuchaygan davrda vujudga kelgan. Diniy dunyoqarashning muhim jihatlarini diniy tuyg‘u, diniy aqidalarga ishonish, sig‘inish, diniy e‘tiqod va shu kabilar tashkil qiladi.

Din murakkab ma‘naviy tuzilma va ijtimoiy-tarixiy hodisa bo‘lib, unda e‘tiqod muqarrar tarzda birinchi o‘ringa qo‘yiladi va hamisha bilimdan ustun turadi.

Dinning asosiy funksiyalari. Mif bilan taqqoslaganda, din funksiyalari murakkabroqdir. Din funksiyalari orasida quyidagilarni farqlash mumkin:

- **dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi** *butun borliq qachon va nima uchun paydo bo‘lgan va bunda g‘ayritabiiy kuchning roli qanday namoyon bo‘lgan, degan savollarga javob*

beradi; • **kommunikativ funksiyasi** muloqot va shaxslararo aloqalarning muayyan tipini ta'minlaydi, jamiyatning jipslashuvi va yaxlitligiga ko'maklashadi;

• **tartibga solish funksiyasi** odamlar xulq-atvorini tartibga soluvchi tegishli me'yorlar va qoidalarni belgilaydi;

• **kompensatorlik funksiyasi** etishmayotgan axborot, diqqat-e'tibor, g'amxo'rlik o'rnini to'ldiradi, hayot ma'nosi, istiqbollar va shu kabilarning yo'qligini sezdirmaydi, ya'ni insonning kundalik hayotda qondirilmagan ehtiyojlari o'rnini to'ldiradi.

Dinning asosiy ildizlari. Din qonuniy hodisa sifatida vujudga kelgan bo'lib, u insonning g'ayritabiiy narsalar va hodisalarga bo'lgan e'tiqodini to'yintiruvchi chuqur ildizlarga egadir. *Dinning psixologik ildizi*, avvalo, inson tabiatida mavjud bo'lib, u inson intellektining rivojlanish darajasi va tanqidiy fikrlash qobiliyatidan qat'i nazar, nafaqat tushunish, anglash, balki e'tiqod qilish istagi va hattoki ehtiyojining hamisha namoyon bo'lishidir.

Dinning gnoseologik ildizlari oqilona bilim nuqtai nazaridan dunyo o'z rang-barangligida insonga cheksiz murakkab bo'lib tuyulishida namoyon bo'ladi.

Dinning ijtimoiy ildizlari jamiyatda doimo mavjud bo'lgan tengsizlik, qashshoqlik va adolatsizlikni, odamlar qancha urinmasin o'zgartira yoki engi olmaganligi bilan bog'liq. Adolatsizlik va foniy dunyoning nomukammalligi tuyg'usi chorasizlik va umidsizlikni yuzaga keltiradi, so'nggi zikr etilgan tuyg'ular osongina u dunyoda hayotning mavjudligiga bo'lgan ishonchga aylanadi. Vaholanki, har qanday din haqiqiy hayot u dunyodadir, deb o'rgatadi. Muammolar, qiyinchiliklarga duch kelgan va real hayotda o'ziga tayanch topa olmagan inson g'ayritabiiy kuchlarga umid bog'lab, narigi dunyoga murojaat etadi. Ularga e'tiqod qilib, odamzod taskin, tasalli topadi va oxir-oqibatda taqdirga tan beradi.

Dinning siyosiy ildizlari turli siyosiy kuchlarning dindan o'z mayda-chuyda manfaatlarida foydalanish imkoniyati va shu tariqa uni bevosita yoki bilvosita qo'llab-quvvatlashi orqali, uning jamiyatdagi roli va ta'sirini kuchaytirishida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda din va siyosat o'rtasida ham uzviy va doimiy aloqa mavjud.

Diniy e'tiqodlarning tarixiy shakllari. Insoniyat tarixiga ko'p sonly turli-tuman dinlar ma'lum. Xususan, madaniyat va bilimlar darajasi juda past bo'lgan inson o'ziga qudratli, yot va sirli bo'lib tuyulgan tabiatning favqulodda kuchlariga qarshilik ko'rsata olmagan ibtidoiy jamoa davrida dinning ancha sodda shakllari: fetishizm, animizm, totemizm, magiya va boshqalar yuzaga kelgan.

Fetishizm – u yoki bu predmetni mo'jizakor xislatlarga, odamlar hayotiga ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega deb hisoblaydi. Bunday predmet ilohiylashtiriladi, sig'inish va topinish ob'ektiga aylanadi.

Animizm (lot. «anima» – «jon») – nafaqat odamlar, balki hayvonlar, predmetlar va borliq hodisalarini ham ruh, jon boshqarib turishiga ishonishdir. Animizm nuqtai nazaridan butun dunyo ruhli va jonli.

Totemizm negizini muayyan odamlar guruhining totem, ya'ni sig'inish ob'ekti sanalgan ajdod deb e'lon qilinadigan u yoki bu hayvon, o'simlik, predmet bilan umumiy kelib chiqishiga bo'lgan ishonch tashkil etadi. Zero, totem mazkur jamoa yoki urug'ning qudratli homiysi, himoyachisi hisoblanadi, uni oziq-ovqat va shu kabilar bilan ta'minlaydi (Hindistonda Xonumon maymuni, sigir, Avstraliyada kenguru, turli qabilalarda u yoki bu ilohiy predmet).

Magiya (yunon. «mageia» – «sehrgarlik») ham ibtidoiy din shakllaridan biri bo'lib, uning zamirida tabiiy kuchlar yordamisiz sirli tarzda, rasm-rusumlar, o'ziga xos amallar majmui bilan narsalar, odamlar, hayvonlar va hatto g'ayritabiiy kuchlar – ruhlar, insu jinlar va shu kabilarga

ta'sir ko'rsatish mumkinligiga bo'lgan ishonch yotadi. Dinning ushbu qadimgi shakllari keyingi diniy e'tiqodlar negizini tashkil etdi va politeizm (ko'pxudolik)da ham, monoteizm (yakkaxudolik)da ham u yoki bu darajada o'z aksini topdi. Ular hozirda ham qisman mustaqil holda mavjuddir.

Miloddan avvalgi VII–VI asrlarga kelib, asosan, mif va din ta'sirida odamlar dunyoqarashi nafaqat kengaydi, balki ancha murakkablashdi. U mavhum nazariy fikrlash qobiliyati va (to'plangan bilimlar ko'rinishida) real asoslarga ega bo'lishi natijasida o'z rivojlanishining butunlay yangi darajasiga ko'tarildi. Bunga, hech shubhasiz, mehnat taqsimotiga olib kelgan rivojlangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, ma'lum miqdorda ortiqcha mavjudlik vositalari, bo'sh vaqtning paydo bo'lishi ham imkoniyat yaratdi. Bularning barchasi muayyan shaxslar doirasiga intellektual faoliyat bilan professional darajada shug'ullanish imkonini berdi. Shunday qilib, taxminan 2500 ming yil muqaddam dunyoqarashning uchinchi

shakli – falsafa paydo bo'lishi uchun zarur shart-sharoit Evropa va Osiyoda deyarli bir vaqtda yuzaga keldi. *Dunyoqarashning avvalgi shakllari – mif va dindan farqli o'laroq, falsafa dunyoni e'tiqod va tuyg'ularga tayanib emas, balki aql va bilimlarga tayangan holda tushuntiradi.*

Falsafa Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyo va Qadimgi Yunonistonda taxminan bir vaqtda, avvalo, dunyoni oqilona anglash usuli sifatida vujudga keldi. Bu vaqtga kelib mif va din o'zlarining tayyor va uzil-kesil javoblari bilan insonning bilimga nisbatan tinimsiz kuchayib borayotgan qiziqishini qondira olmadi. SHuningdek, ular sezilarli darajada o'sgan va murakkablashgan tajriba va bilimlarni umumlashtirish, tizimga solish va avlodlarga qoldirish vazifasining ham uddasidan chiqolmay qoldi. Yuz bergan o'zgarishlarning yana bir sababi shundaki, mifologiya olish, rivojlantirish va tushuntirish uchun navbatdagi miflar emas, balki tabiiy qonuniyatlar va tabiiy-sababiy bog'lanishlarga murojaat qilish talab etilgan ilmiy bilim kurtaklari bilan to'qnashdi. Pirovardida odamlar dunyoqarashida nisbatan qisqa vaqt ichida tub o'zgarishlar yuz berdi; unda bilim, tafakkur, tahliliy fikrlash tobora muhimroq rol o'ynay boshladi, ular sirtidan olingan axborotni sezgilar va emotsiyalar darajasida idrok etishga asoslangan har xil e'tiqodlarni chetga chiqarib qo'ydi.

Diniy dunyoqarashni teologiya deb ataladigan falsafiy fan o'rganadi. **Teologiya** olam va odam munosabati, umrning mazmuni, hayot va o'lim muammosi kabi masalalarni ilohiyot, diniy e'tiqod tushunchalari bilan bo'q'lab tahlil qilish hamda o'ziga xos mukammal tizimini yaratgan. Bugungi kunda diniy dunyoqarashning bir talay asosiy vazifalari orasida, uning hayot ziddiyatlarini bartaraf qilish bilan borliq regulativ faoliyati nihoyatda muhimdir. Umuman, dinning barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyati benihoyat ulkan va u tobora ortib bormoqda.

Falsafiy dunyoqarash. Bu tushunchaning mazmuni insonning olamga, voqea va hodisalarga, o'zgaralarga va ularning faoliyatiga, o'z umri va uning mazmuni kabi ko'pdan-ko'p tushunchalarga munosabati, ularni anglashi, tushunishi, qadrlashida namoyon bo'ladi.

Falsafiy dunyoqarash dunyoni, borliqni aqliy jihatdan umumlashtirib tushuntiruvchi nazariy qarashlar tizimidir. U insonning aqliy-intellektual faoliyatiga ko'proq e'tibor beradi. Falsafiy dunyoqarash shakllanishi va rivojlanishiga afsonaviy, diniy dunyoqarashning ta'siri bo'lganini inkor etib bo'lmaydi. Falsafiy dunyoqarash ana shu ikki irmoq negizida vujudga keldi.

Falsafiy dunyoqarash kundalik faoliyat, dunyoviy, diniy, ilmiy bilimlar, hayotiy kuzatishlar va ijtimoiy tarbiya ta'sirida shakllanadi hamda rivojlanadi. Fanda ijtimoiy borliqning barcha jihatlari aks etadi. Dunyoqarashning shakllanishida his-tuyqu, aql-idrok va tafakkur ham muhim o'rin tutishi tabiiy. Uning shakllanishi kishilarning hissiy kechinma va kayfiyatlariga ham bo'qliq

bo'lib, inson kayfiyatida uning hayot sharoitlari, ijtimoiy ahvoli, milliy xususiyati, madaniy saviyasi, shaxsiy taqdiri, yoshi va hokazolar aks etadi. Muayyan davr dunyoqarashida zamon ruhi, ijtimoiy kuchlarning kayfiyati, intilishi ham o'z ifodasini topadi. Masalan, bugungi o'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash zarurati istiqloq dunyoqarashini shakllantirishga ulkan ta'sir ko'rsatmoqda. Falsafiy dunyoqarash murakkab tuzilishga ega. U muayyan bilimlar, kelajakka qaratilgan G'oya va maqsadlar, tabiiy va ijtimoiy fan yutuqlari, diniy tasavvurlar, qadriyatlar, ishonch, e'tiqod, fikr, hissiyot kabi tarkibiy qismlardan iborat.

Bularning ichida e'tiqod muhim ahamiyat kasb etadi. U dunyoqarashning mazmunini tashkil etadigan asoslardan biridir. E'tiqod insonning o'z qarashlari va g'oyalari to'g'riligiga, orzuumidlarining asosli ekaniga, faoliyati va xatti-harakatining umumiy maqsadlarga va talablarga mosligiga bo'lgan chuqur ishonchidan paydo bo'ladi. U insonning hissiyoti, irodasi va faoliyatini belgilaydi, ularni boshqaradi, shaxsni omilkorlikka, samarali faoliyatga undaydi.

Falsafiy dunyoqarash tarkibida hissiyot va aql muhim o'rin tutadi. hissiyot dunyoqarashning emotsional-ruhiy jihati bo'lib, dunyoni tushunish esa, dunyoqarashning aqliy shaklidir. hissiyot – quvonch, shodlik, zavqlanish, hayot va kasb-kordan mamnunlik yoki norozilik, hayratlanish, xavotirlanish, asabiylashish, yolg'izlik, zaiflik, ruhiy tushkunlik, g'am-qussa, nadomat, o'z yaqinlari va vatani taqdirini o'ylash kabi xilma-xil shakllarda namoyon bo'ladi. Ana shular barchasining uyg'unligi dunyoni his etishga olib keladi. Dunyoni his qilish esa, uni aqliy tushunishga, muayyan dunyoqarashning shakllanishiga asos bo'ladi.

Inson aqli unga xos hissiyot va tasavvurlar asosida ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi va takomillashtiradi. har bir kishiga xos hissiyot va fikr, bilim va e'tiqod, intilish va kayfiyat, orzuumid va qadriyatlar dunyoqarash tarkibida yaxlitlashadi va olamni bir butun holda aks ettiradi. Bir butun, yaxlit dunyoqarashning shakllanishi bolalikdan boshlanib, inson hayotining oxirigacha davom etadi. Bu holat individual dunyoqarashning asosiy tamoyillaridan birini ifodalaydi.

Falsafiy dunyoqarashning shakllanishida bilim g'oyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bilimda dunyoqarashning barcha belgilari mavjud. Lekin, bilim va dunyoqarash aynan bir narsa emas. Olamni tushunish bilimlar paydo bo'lishi uchun asosdir. Bilim inson ongida hissiy va aqliy bilish jarayonida hosil bo'ladi, u dunyoqarashning asosi, uning uzviy qismidir.

Falsafa azal-azaldan dunyoqarash bo'lgan. Chunki, uning o'zi hayot nima uchun berilgan, dunyoga kelishdan maqsad nima, umrni mazmunli o'tkazishning qanday yo'llari bor, degan talay savollarga javob topish zarurati tufayli vujudga kelgan. Falsafiy dunyoqarash o'zining nazariy asoslangani va puxta ishlangani bilan ajralib turadi. Shu ma'noda, u boshqa fan yoki faoliyat sohasi uchun umumiy uslub vazifasini ham bajaradi.

Agar nazariya bilish jarayonining natijasi bo'lsa, usul (metod) shu bilimga erishish yoki uni amalga oshirish yo'lini anglatadi. Falsafiy nazariya esa, bir vaqtning o'zida usul vazifasini ham bajara oladi. Tarixning burilish davrlarida o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlari va maqsadlari nechog'li to'g'ri ekani falsafiy dunyoqarash tamoyillariga solishtirib aniqlanadi. Bunda muayyan falsafiy nazariya umumiy usul (metod) sifatida qabul qilinadi. Shu sababdan ham bunday davrlarda falsafiy nazariyalarga e'tibor kuchayadi, taraqqiyot yo'llaridan borish falsafiy modellarining ahamiyati ortadi.

Falsafiy dunyoqarashning asosiy yo'nalishlari. Dunyoqarash tizimi va unga xos nisbatan mustaqil yo'nalishlarning har birini falsafiy mulohazaning oydinlashgan (konkretlashgan) shakli sifatida qarash mumkin. Falsafiy dunyoqarash, sodda qilib aytadigan bo'lsak, insonning olam, odam va borliqqa munosabatini ifodalovchi bilimlar tizimidir. Unga inson borliqining mohiyati

nuqtai nazaridan yondashiladigan bo'lsa, moddiy yoki ma'naviy jihatlari nechoqlik mutlaqlashtirilishiga qarab, uning tarkibida materialistik va idealistik dunyoqarash yo'nalishlari mavjudligini ko'ramiz.

Agar borliq va uning xossalari mavjudlik, bog'liqlik, o'zgarish va taraqqiyot nuqtai nazaridan bildirilgan munosabatlarni umumlashtiradigan bo'lsak, uning tarkibida metafizik va dialektik, sofistika va sinergetik kabi qator dunyoqarashlar mavjudligini ko'ramiz. Bular sof nazariy-falsafiy masalalar bo'lib, ular to'g'risida «Olam va odam», «Dunyoni falsafiy tushunish» bo'limlarida maxsus to'xtalib o'tamiz.

Shu bilan birga, uning yana quyidagi tamoyillari bor:

1. *Falsafiy dunyoqarash ilmiydir*, chunki u narsa va hodisalar o'rtasidagi bo'lanish, aloqadorlik va munosabatlarni kundalik ong darajasidagina emas, balki nazariy ong darajasida ham ifodalaydi. har qanday falsafiy dunyoqarash shakli ob'ektiv olamdagi narsa va hodisalarning konkret munosabatlarini aks ettiradi.

2. *Falsafiy dunyoqarashning tarixiylik tamoyili* jamiyatning o'tmishi dunyoqarashlar tarixidan iboratligini va uzluksiz rivojlanishini ifodalaydi.

3. *Falsafiy dunyoqarashning mantiqiy izchilligi tamoyili* har qanday dunyoqarash shakli va darajasining mantiqiy birikmalar orqali ifodalanishi bilan izohlanadi. Agar mantiqiy izchillik buzilsa, dunyoqarashning tashqi olamni xolis, ilmiy, aniq-ravshan va izchil aks ettirishiga putur etadi.

4. *Falsafiy dunyoqarashning universalligi* boshqa dunyoqarash shakllarining mazmunini tashkil qilishi bilan sifatlanadi, ya'ni har qanday dunyoqarash shakli o'ziga xos falsafiy xususiyatga ega.

5. *Falsafiy dunyoqarash maqsadga mavofiq bo'lib*, inson manfaatlariga mos keladi. Chunki, inson muayyan maqsad, orzu-umidlar bilan yashaydi, ularni o'z dunyoqarashida aks ettiradi.

6. *Falsafiy dunyoqarashning G'oyaviylik tamoyili*, uning asosida muayyan G'oya yotgani bilan ifodalanadi. Xususan, bugungi o'zbek milliy falsafiy dunyoqarashi milliy mustaqillik, o'zlikni anglash, millatimiz kelajagini belgilaydigan istiqloq G'oyasiga tayanishi bilan xarakterlidir. Falsafiy dunyoqarash shu G'oyani e'tiqodga aylantirish va uning amalga oshishi uchun xizmat qiladi.

7. Falsafiy dunyoqarashning eng muhim tamoyillaridan biri *nazariya va amaliyot birligidir*. Dunyoqarashning nazariya sifatida mavjudligi ijtimoiy amaliyot tajribalarini ijodiy umumlashtirib, istiqbol rejalarini belgilashda qo'l kelishi bilan izohlanadi. SHuningdek, dunyoqarashning amaliyotga joriy etilish jarayonida uning usul va vositalari muhim ahamiyatga ega.

Falsafiy dunyoqarashning vazifalari (funksiyalari). Falsafiy dunyoqarashning zikr etilgan tamoyillari, uning vazifalarini belgilab beradi. YA'ni, bu vazifalar jamiyatning umumbashariy ruhdagi maqsad-muddolaridan, manfaatlaridan kelib chiqadi hamda boshqa dunyoqarash shakllari uchun uslubiy ahamiyat kasb etadi.

Dunyoqarash, avvalo insoniy munosabatlar ifodasidir. Shu nuqtai nazardan, u insonning borliqqa munosabatida, dastlab uning bahosi tarzida ko'zga tashlanadi.

Bu — falsafiy dunyoqarashning *baholash* vazifasini anglatadi. Ya'ni, inson, o'z ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqib, narsa-hodisalarni: yaxshi-yomon, foydali-zararli, savob-gunoh, oriyat-benomuslik kabi qarama-qarshi mezonlarga ajratadi.

Inson narsa-hodisalarga baho berar ekan, buning zamirida uning ijtimoiy hayoti, ya'ni ongli munosabatlari yotadi. Bunda inson yoki jamiyat munosabatlari dunyoqarashning o'zi tayanadigan omillarga (ideallariga) moslashtiriladi. Orzu-havaslarga erishishning usullari, vositalari, amaliy yo'nalishlari belgilanadi.

Dunyoqarash inson faoliyatini axloqiy me'yor, diniy qadriyat, xuquqiy hujjat va siyosiy mexanizmlar kabi usul-vositalar orqali *boshqarish* vazifasini ham ado etadi. Bunda falsafiy dunyoqarashning o'zicha nisbatan mustaqil bo'lgan har bir yo'nalishi o'ziga xos boshqarish usuliga ega bo'ladi. Masalan, insonni ezgulikka yo'naltirish uchun axloq uning aql-zakovatiga; din — iymon-e'tiqodiga; huquq — qonunlarga, jazo idoralariga; siyosat-davlat funksiyalariga tayanadi va o'ziga xos ta'sir yo'nalishlariga ega bo'ladi.

Falsafiy dunyoqarashning inson faoliyatini *nazorat qilish* vazifasi ham bor. Bunda dunyoqarashning jamoatchilik fikri tarzidagi ko'rinishi nazarda tutiladi. Masalan, o'zbek xalqining tarixiy rivojlanishi va ma'naviy hayot tarzida mahalla ijtimoiy nazoratning muhim instituti tarzida faoliyat ko'rsatgan.

Falsafiy dunyoqarashning *birlashtirish* (kommunikativ) vazifasi turli dunyoqarash yo'nalishlarini milliy va umuminsoniy G'oyalar atrofida uyg'unlashtirishi bilan xarakterlanadi. Turli manfaatlar bilan bog'liq bo'lgani bois dunyoqarashlar o'rtasida muayyan ziddiyatlar ro'y berishi tabiiy. Bunday sharoitda falsafiy dunyoqarash ularni murosaga keltirishga xizmat qiladi.

Falsafiy dunyoqarash, o'z mohiyatiga ko'ra, ijtimoiy-tarixiy tajribani umumlashtirish, jamiyat istiqbolini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lganligi uchun ham xalqni muayyan g'oya atrofida birlashtiradi. Falsafiy dunyoqarashning *tarbiyaviy* vazifasi — kishilarda keng va teran fikrlash qobiliyatini vujudga keltirish asosida bag'rikenglik, murosaga, har qanday ziddiyatlarni madaniy yo'l bilan hal qilish, kelajakka umid va ishonch ruhini shakllantirishdan iborat.

Falsafaning predmeti. Falsafa fani xuddi ijtimoiy, tabiiy fanlar singari mustaqil fandir. U o'zining mustaqil ob'ekti va predmetiga ega. Falsafaning predmetini "olam-odam-inson" tizimi tashkil etadi. Falsafa predmeti uning rivojlanish davri mobaynida uzluksiz o'zgarib turgan. Falsafa muammolari uning predmeti bilan belgilanadi. Ma'lumki, falsafa predmeti tarixiy rivojlanish jarayoni mobaynida sezilarli darajada o'zgargan. Falsafiy fanlarning har biri: ontologiya, gnoseologiya, etika, estetika, mantiq, siyosatshunoslik, falsafa tarixi ham o'z alohida predmetiga ega. Shu tufayli ham falsafa predmetini faqat o'ta abstrakt tushunchalar yordamida belgilash mumkin. Suu ma'noda «dunyo – inson» munosabatlari tizimidagi umumiylik falsafaning predmeti hisoblanadi, degan fikr mazkur talablarga javob beradi.

Endi «Falsafa nimani o'rganadi?» degan savolni berishimiz mumkin. In sonda bilishga qiziqish uyg'otadigan, mifologiya, din yoki fan javoblaridan qoniqmagan insonning o'ziga ma'lum bilimlar va tajribaga, muayyan e'tiqod, ishonch va intuitsiyaga tayangan holda oqilona asoslangan javoblar berishga harakat qiladigan, savollar tug'diradigan har qanday ob'ektiv va sub'ektiv borliq falsafaning predmeti hisoblanadi. Boshqacha aytganda, inson o'z qiziqishi ob'ekti haqida muayyan tasavvur hosil qilish maqsadida savol berishga asos bo'lishi mumkin bo'lgan hamma narsa falsafaning predmetidir.

Masalan, Qadimgi Yunonistonda kosmotsentrizm ilk falsafiy ta'limotlarning o'ziga xos xususiyati bo'lib, bunda asosiy e'tibor «kosmos», «tabiat»ni anglab etishga qaratilgan. Keyinchalik, qadimgi yunon shahar – polislari ravnaq topgan davrda faylasuflar diqqat markazidan ijtimoiy muammolar, axloq, davlat qurilishi masalalari o'rin oldi. Evropada xristianlikning, SHarqda islom dinining vujudga kelishi va mustahkamlanishi natijasida o'rta asrlar falsafasi teotsentrik (yunon. «theos» –

«markazdan o‘rin olgan xudo») xususiyat kasb etdi, ya‘ni, Xudo va u yaratgan olam falsafiy qiziqishlarning asosiy predmetiga aylandi. Uyg‘onish davrida falsafa san‘at (estetika)ga va ko‘p jihatdan insonga murojaat qilindi. Yangi davr deb nomlanuvchi XVII–XVIII asrlarda falsafa tobora kuchayib borayotgan fan bilan uzviy bog‘landi, natijada, falsafiy tadqiqotlarning diqqat markazidan bilish va ilmiy metodlar masalalari o‘rin oldi.

XIX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan «klassik falsafa» va ratsionallik inqirozi irratsionallik, intuitivlik, ongsizlik muammolarini namoyon etdi, XX asrning birinchi yarmida ular «noklassik falsafa» tahlilining asosiy predmetiga aylandi, bu esa, o‘z navbatida, matnlar mantig‘i, tili, ularni talqin qilish va sharhlashga alohida qiziqish uyg‘onishiga olib keldi. XX asrning so‘nggi o‘n yilliklarida hozirgi madaniyatdagi inqiroz hodisalarini va yangi axborot texnologiyalarining, shuningdek, ommaviy kommunikatsiya vositalarining jadal sur‘atlarda rivojlanishi bilan belgilangan muammolarni kun tartibiga qo‘ygan postnoklassik falsafa shakllandi. Bu falsafa vakillari «tarixiy rivojlanishning tugallanganligi», barcha ma‘nolar va g‘oyalar «aytib bo‘linganligi» haqida mushohada yuritib, inson o‘ziga yog‘ilayotgan axborotga ishlov berishga qodir emasligiga e‘tiborni qaratar ekan, notizimlilik, Evropa an‘anaviy-falsafiy bilimining negizlari, qadriyatlarini va chegaralarini o‘zgartirish g‘oyasini ilgari surdilar.

Nihoyat, XX–XXI asr chegarasida eng yangi falsafada birinchi o‘ringa chiqqan va eng muhim mavzular qatoridan o‘rin olgan yana bir mavzu globallashuv jarayonlarining mohiyatini va ularning rivojlanish yo‘nalishini aniqlashga alohida e‘tibor qaratildi. Bu jarayonlar hozirgi vaqtda jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab oldi va davrimizning olamshumul muammolarini yuzaga keltirdiki, ularning nazariy va amaliy echimini topish bu muammolarni shu jumladan, falsafiy darajada anglab etishni ham nazarda tutadi. Xalqaro miqyosda alohida e‘tibor berish va kelishilgan harakatlarni taqozo etuvchi eng muhim muammolar qatoriga ekologiya, demografiya, xavfsizlik, xalqaro jinoyatchilik, energetika resurslari, qashshoqlikka chek qo‘yish muammolarini kiritish mumkin.

Ko‘rib turganimizdek, falsafaning predmetini qandaydir bitta, qat‘iy cheklangan, muayyan masalalar doirasi bilan bog‘lash mumkin emas. U vaqt omiliga va ob‘ektiv sabablar to‘plamiga qarab, doim u yoki bu muammo yoki ularning muayyan majmui tarzida birinchi o‘ringa chiqadi.

Falsafaning strukturasi. Falsafa o‘z shakllanishi va rivojlanishining qadimgi davridayoq, tabiat, inson, jamiyat va ma‘naviyatni, shuningdek, sababiy bog‘lanishlar, qonunlar va shu kabilarni bilish sohasida yuksak natijalarga erishdi va ratsionallik nuqtai nazaridan odamlarning dunyo haqidagi umumiy tasavvuriga aylandi. Ammo olamning cheksiz darajada rang-barangligi va serqirraligi tufayli o‘sha davridayoq parchalanmagan falsafiy bilimlar va tasavvurlardan ayrim bo‘limlar ajralib chiqa boshladi, vaqt o‘tishi bilan rivojlanib, ancha aniq shakl-shamoyil kasb etdi va yangi bilimlar bilan to‘ldirildi.

Falsafaning asosiy masalasi strukturasi ikki tomon ajratiladi. Ruh birlamchimi yoki tabiatmi, degan savol mazkur masalaning ontologik tomonini tashkil qiladi. Dunyoni bilish imkoniyati to‘g‘risidagi masala, «inson tafakkuri dunyoni haqqoniy bilishga qodirmi, u o‘zining haqiqiy dunyo haqidagi tasavvurlarida voqelikni to‘g‘ri aks ettirishga qodirmi», degan savol falsafa asosiy masalasining gnoseologik tomonini o‘zida ifodalaydi.

«Dunyo – inson» tizimidagi munosabatlarning rang-barangligi predmetli

– amaliy, gnoseologik, akseologik, estetik, axloqiy va boshqa xil munosabatlar bilan belgilanadi.

Quyidagilar falsafiy bilimning strukturasi hisoblanadi:

- *ontologiya – mavjudlik, borliq haqidagi bilim;*

- gnoseologiya (boshqa bir terminologiyaga ko'ra – epistemologiya) – bilish nazariyasi;
- ijtimoiy falsafa – jamiyat haqidagi ta'limot;
- etika – axloq haqidagi ta'limot;
- aksiologiya – qadriyatlar haqidagi ta'limot;
- falsafiy antropologiya – inson haqidagi ta'limot va boshqalar.

Falsafa ularning muhim xususiyatlari, birinchi sabablari va asoslarini aniqlashdan manfaatdor. U yoki bu munosabatni dunyoga yondashuv mezonini sifatida tanlash (masalan, dunyoga uyg'unlik, go'zallik, mutanosiblik nuqtai nazaridan yondashish) u yoki bu falsafiy fanni (ayni holda estetikani) belgilaydi.

Dunyoga uni bilish imkoniyatlari va qonuniyatlari nuqtai nazaridan yondashish bilish nazariyasi – gnoseologiyani vujudga keltiradi. «Inson – dunyo» tizimiga hokimiyat munosabatlari nuqtai nazaridan yondashish siyosatshunoslikning predmetini tashkil etadi. Munosabatlar o'zagini axloqiy me'yorlar tashkil qilgan taqdirda esa tadqiqotchi etika sohasiga qadam qo'yadi.

SHunday qilib, falsafaning asosiy masalasi strukturasi falsafaning o'z strukturasi aks ettiradi, falsafa esa o'z asosiy masalasining keng nazariyasi sifatida namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, falsafaning asosiy masalasi xususida mulohaza yuritish jarayonida biz borliq nima, tafakkur nima degan savollarga turli xil javoblar olamiz. Vaqt o'tishi bilan bu javoblar o'z dalillar tizimi, metodologik tamoyillarini shakllantiradi va falsafiy yo'nalishlarga aylanadi. Falsafaning jamiyatdagi ahamiyati - falsafa insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida yaratilgan ma'naviy madaniyatning bir qismi bo'lib, insonning o'zi va borliq to'g'risidagi bir butun dunyoqarashi tizimidan iboratdir. Falsafa inson muammosini o'zining asosiy o'rganish mavzusi hisoblab, uning o'ziga, borliqqa munosabatini falsafaning bosh masalasi deb qaraydi. SHu sababli uning asosiy maqsadi ham inson manfaatlariga xizmat qilishdan iboratdir. Falsafa o'z tadqiqot mavzusi sifatida insonning mohiyati, jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy munosabatlarning asoslari va sabablari, borliq, materiya, tabiat taraqqiyotining eng umumiy muammolarini o'rganadi. Falsafa qadim davrlardan boshlab kishilarning aqliy salohiyati o'sishida, nazariy tafakkuri qaror topishida, axloqiy kamolatida muhim rol o'ynab kelgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha soha va tarmoqlarda ulkan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda falsafa fanining o'rni beqiyos ahamiyatga egadir. Yoshlarimizning jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirishda falsafa fanining ahamiyatini ko'rishimiz mumkin.

Falsafaning asosiy funksiyalari. Falsafa u yoki bu muammolarni hal qilar, qonunlar, muayyan tamoyillarni ta'riflar yoki gipotezalar, g'oyalar va nazariyalarni ilgari surar ekan, ayni vaqtda (ba'zan, shu tariqa), har xil funksiyalarni bajaradi. Falsafaning muhim funksiyalaridan dunyoqarashni shakllantirish, bilish, metodologik, integrativ, madaniy, aksiologik, axloqiy va tarbiyaviy funksiyalarni qayd etish mumkin. Ularning barchasi bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Bu funksiyalarning roli va ahamiyati falsafaning amal qilish sohasi, u hal qilayotgan vazifalar darajasi va xususiyati bilan belgilanadi.

Dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi *insonning o'z-o'zini va o'zini qurshagan borliqni tushunishi, shuningdek, turli voqealar, hodisalarni va o'z burchini qanday talqin qilishida namoyon bo'ladi.* Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, inson dunyoqarashida e'tiqodlar va bilimlar, tuyg'ular va emotsiyalar, oqilonalik va irratsionallik, tajriba, intuitsiya va hokazolar chambarchas bog'lanadi.

Falsafaning gnoseologik funksiyasi *tajribada sinash, tavsiflash yoki shak-shubhasiz inkor etish mumkin bo'lmagan, ya'ni fan ochib berish, tadqiq etish va tahlil qilishga qodir bo'lmagan narsalar va hodisalarni oqilona yo'l bilan tushuntirishga harakat qilishdir.* Falsafa u yoki bu mohiyati aniqlanmagan yoki kam o'rganilgan hodisalarni tushuntirishga nisbatan o'z yondashuvlari, nazariyalari va gipotezalarini taklif qilar ekan, ularni bilishga bo'lgan qondirilmagan qiziqish o'rnini muayyan darajada to'ldiradi, shu tariqa mifologik va diniy fantaziyalarga kamroq o'rin qoldiradi. Falsafa gnoseologiyada hal qiladigan boshqa bir muhim vazifa «Haqiqat nima?» «Uning mezonlari qanday?» degan masalalar bilan bog'liq, zero har qanday bilish jarayoni oxir-oqibatda, u yoki bu tarzda haqiqatning tagiga etishga qarab mo'ljal oladi, bu esa eng muhim masaladir.

Metodologik funksiyasi *u yoki bu maqsadga erishishning muayyan usulini, shuningdek, borliqni nazariy va amaliy o'zlashtirishga qaratilgan usullar yoki amallar majmuini anglatadi* (bu tushuncha yunoncha «methodos» – «yo'l», «tadqiqot», «tekshirish» so'zidan kelib chiqqan). Boshqacha qilib aytganda, bu faylasuf yoki olim o'zi o'rganayotgan predmetning tadqiqot yo'lidir.

Falsafaning integrativ funksiyasi *real borliqning yangi ob'ektlari va hodisalari insonning nazariy tadqiqotlari sohasidan o'rin olishi, shuningdek, ilgari ma'lum darajada anglab etilgan narsalar va hodisalarni yanada chuqurroq o'rganish uchun birlashishga ehtiyoj.*

Falsafaning madaniy funksiyasi *odamlar dunyoqarashini kengaytirish, ularda bilishga qiziqish uyg'otish, nazariy fikrlash madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish orqali namoyon bo'ladi.* U dunyoni o'zlashtirish va bilishning universal shakli sifatida, insoniyatning eng yaxshi yutuqlarini o'zidamujassamlashtiradi va ularni butun insoniyat mulkiga aylantiradi. Turli mamlakatlar va xalqlarning falsafa tarixini o'rganish ularning o'tmishdagi va hozirgi madaniyatini yaxshiroq tushunish imkonini beradi, g'oyalar almashinuvi va madaniy an'analarning o'zaro ta'siriga ko'maklashadiki, bu madaniy meros bilan uzviy bog'liq bo'lgan ko'pgina muammolarni echishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Falsafaning aksiologik funksiyasi *(yunon. «axia» – «qadriyat»)* hayotning ma'nosi, o'lim va umrboqiylik masalalarini kun tartibiga qo'yish, u yoki bu harakat, voqea, hodisaga «yaxshi», «yomon», «muhim», «foydali», «foydasiz» kategoriyalari bilan baho berish orqali namoyon bo'ladi.

Falsafaning axloqiy funksiyasi *odamlarning u yoki bu jamiyatda qaror topgan munosabatlar ta'sirida shakllanuvchi xulq-atvori.* Bunda, masalan, axloqiy qadriyatlar, ularning tabiati, asoslari va jamiyatdagi amaliy rolifalsafaning tadqiqot predmeti hisoblanadiki, bu jamiyatda yuzaga keladigan va tabiiy yo'l bilan, ya'ni real hayot amaliyotida o'rnatiladigan me'yorlar va qoidalarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Bunday me'yorlar ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim dastak hisoblanadi va odamlarning o'zaro aloqalari, ularning munosabatlari, o'zaro til topish darajasida namoyon bo'ladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, falsafa doimo axloqda, jamiyatning barcha a'zolari xulq-atvorida namoyon bo'ladi va shu tariqa yana bir muhim funksiya – axloqiy funksiyani bajaradi.

Falsafaning tarbiyaviy funksiyasi insonning o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘zi mansub bo‘lgan jamiyatning axloqiy normalariga rioya qilishdir. Bu masalaning xalqaro darajadagi keng va har tomonlama muhokamasi natijalarini hisobga olgan holda so‘z yuritish o‘rinli bo‘ladi. Bugungi kunda nafaqat ayrim xalqlar, balki butun jahon hamjamiyati o‘z-o‘zini anglab etishga yo‘naltirilgan falsafaga muhtojdir. Buni 2002 yildan YUNESKO qaroriga binoan, butun dunyoda har yili noyabr oyining uchinchi payshanbasida o‘tkaziladigan «Jahon falsafa kunlari» ham, hozirgi kunda dunyo uchun eng muhim masalalarga e‘tiborini qaratadigan Jahon falsafa Kongressi ham tasdiqlaydi. Darhaqiqat, bunday kongress birinchi marta 1900 yilda Fransiyada o‘tkazilgan, 1948 yildan boshlab uni har besh yilda bir marta o‘tkazish an‘anaga aylangan. Xususan, 1998 yilda Boston shahrida (AQSH) bo‘lib o‘tgan XX Jahon falsafa kongressi

«Paydeyya: insoniyatni tarbiyalashda falsafa» mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lsa, Turkiyaning Anqara shahrida o‘tkazilgan XXI Jahon falsafa kongressida «Falsafa jahon muammolari bilan yuzma-yuz» mavzusi atroflicha muhokama qilindi. XX jahon falsafa kongressi birinchi marta Osiyo mamlakati bo‘lmish Janubiy Koreya Respublikasining Seul shahrida «Hozirgi davrda falsafani qayta anglash» degan umumiy mavzu ostida bo‘lib o‘tdi.

Falsafaning jamiyatdagi ahamiyati - falsafa insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida yaratilgan ma‘naviy madaniyatning bir qismi bo‘lib, insonning o‘zi va borliq to‘g‘risidagi bir butun dunyoqarashi tizimidan iboratdir. Falsafa inson muammosini o‘zining asosiy o‘rganish mavzusi hisoblab, uning o‘ziga, borliqqa munosabatini falsafaning bosh masalasi deb qaraydi. SHu sababli uning asosiy maqsadi ham inson manfaatlariga xizmat qilishdan iboratdir.

Hozirgi dunyoda falsafaning ahamiyati. Bugungi kunda, tezliklar va yuksak texnologiyalar asrida falsafa kerakmi, u eskirgani yo‘qmi? Uzluksiz axborot oqimi va surunkali vaqt tanqisligi sharoitida muayyan bilim falsafani siqib chiqarmaydimi? Bunday savollar mutlaqo o‘rinlidir, lekin ularga javobni hayotning o‘zi beradi, u hozirgi zamon odami oldiga ko‘p sonli, shu jumladan, ilgari hech qachon mavjud bo‘lmagan, butunlay yangi falsafiy muammolarni qo‘yadi. Jahon hamjamiyati III ming yillikning boshlanishini, biosfera holati va yerda hayotning davom etishi uchun o‘z javobgarligini tobora teranroq anglagan holda qarshi oldi. Ayni shu sababli insonning barkamol rivojlanishi, odamlar, xalqlar o‘rtasida, shuningdek, jamiyat va tabiat o‘rtasida insoniy, yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini o‘rnatish masalalari azaliy falsafiy mavzular bilan bir qatorda falsafiy tadqiqotlarda birinchi o‘ringa chiqmoqda. SHu munosabat bilan faylasuflar, avvalo, yer yuzida ta‘limning holati va rivojlanish darajasidan qattiq tashvishda ekanliklarini bildirmoqdalar. Ko‘pgina faylasuflar fikriga ko‘ra, hozirgi muammolarning aksariyati zamirida aynan qoniqarsiz ta‘lim va lozim darajadagi tarbiyaning yo‘qligi yotadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida quyidagi takliflarni bildirib o‘tgan. “BMT Bosh Assambleyasining "Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyusiyasini qabul qilish, Bu hujjatning asosiy maqsadi – barchaning ta‘lim olish huquqini ta‘minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko‘maklashishdan iborat”¹. Bu muammolarni yechishda falsafa ham o‘z rolini o‘ynashi lozim.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 19 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi.

Xulosalar. Dunyoqarash bu insonning dunyoga, undagi voqealarga munosabatlari, undagi o‘rni va hayot mazmuni haqidagi eng umumiy qarashlari tizimi. Insoniyat tarixida dastlab mifologik dunyoqarash shakllangan bo‘lib, unda inson atrof-muhit bilan birlashadi hamda na tabiat va na o‘z urug‘idan ajralmagan holda namoyon bo‘ladi. Diniy dunyoqarashga olamni bu dunyo, u dunyo va g‘ayritabiiy dunyoga bo‘lish xos. Dinning asosi g‘ayritabiiy kuchlarga ishonch bilan yo‘g‘rilgan. Falsafa mifologik va diniy dunyoqarashdan o‘zining atrof-muhitga tanqidiy munosabati asosidagi dunyoqarashli funksiyasini bajaradi, gnoseologik va ontologik kategoriyalarga murojaat qilib mantiqiy xulosalar chiqaradi. Falsafa nazariy asoslangan dunyoqarash, umumiy kategoriyalar, insonning olamga fanning tabiat va jamiyat haqidagi yutuqlariga tayanilgan nazariy munosabati. Falsafaning ahamiyati, uning insonni o‘z-o‘zini, olamni anglashga, ijodiy barkamollikka yo‘naltira olishidadir.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.:“O‘zbekiston”, 2014. 24 b
2. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947sonli Farmoni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
5. Karimov I.A. Asarlar to‘plami. 1-24 jildlar.- T.: O‘zbekiston 1996-2016.
6. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. 2 nashr –T.:Ma’naviyat, 2016 176-b.
7. Falsafa. Axmedova M. Tahriri ostida. – T.: O‘FMJ, 2006. 339 b.
8. Shermuxamedova N.A. Falsafa. – T.: Noshir, 2012. 1214 b.

**2-MAVZU: FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI:
SHARQ FALSAFASI**

**2-MAVZU: FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI
BOSQICHLARI: SHARQ FALSAFASI REJA:**

1. Qadimgi Bobil, Misr, Hindiston va Markaziy Osiyo falsafiy tafakkuri.
2. Islom dinining vujudga kelishi va falsafiy ta'limoti.
3. O'rta asrlar Sharq Uyg'onish davri mutafakkirlari (Forobiy, Ibn Sino va Beruniy)ning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy ta'limotlari.
4. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ilg'or falsafiy, ijtimoiy-siyosiy fikrlar
5. XX-XXI o'zbek falsafasi

Tayanch tushunchalar. Qadimgi Sharq falsafasi, Daosizm, Konfutsiy ta'limoti, Veda, Ramayana, Mahobhorat, Avesto, Zardo'sht, Islom falsafasi, Abu Mansur Moturidiy, kubraviya, yassaviya, naqshbandiya tariqatlari, panteizm, Temuriylar davri falsafasi, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, shariat, tariqat, sezgi.

Qadimgi Bobil, Misr, Hindiston va Markaziy Osiyo falsafiy tafakkuri.

Oddiy tasavvurga ko'ra Quyosh Sharqdan chiqqani kabi, falsafiy qarashlarning paydo bo'lishi ham qadimiy Sharq xalqlari tafakkuriga borib taqaladi. Qadimgi Sharq xalqlarining tarixi va madaniyati, ularning afsonaviy, diniy, axloqiy, siyosiy va huquqiy badiiy-estetik va falsafiy tasavvur va qarashlari, ularga xos mazmunlar haqidagi bilimlar antiq davr mualliflari asarlarida, arxeologik manbalarda, xalq og'zaki ijodiyoti namunalari: afsonalar, dostonlar va rivoyatlarda aks etgan. Dastlabki falsafiy tasavvurlar va qarashlar Sharqning eng qadimgi mamlakatlaridan bo'lgan Bobilda eramizdan oldin 4-ming yillikning boshlarida paydo bo'ladi. Shu davrlardayoq odamlarning dunyoda ro'y berib turadigan xilma-xil hodisa va voqealarga bo'lgan munosabatlarlari va qiziqishlarini, garchi hali sodda va yuzaki, ibtidoiy shaklda bo'lsa-da, o'zida aks ettirgan falsafiy qarashlar paydo bo'la boshlagan. Buni biz qadimgi Bobil adabiyotining ko'zga kuringan mashhur asarlaridan biri «Gelgamish haqida doston»da, undagi tuproq, suv, havo, issiqlik va sovuqlikning inson hayoti va tirikchiligidan abadiy manbai ekanligi, Gelgamishning obihayot qidirib, boshidan kechirgan sarguzashtlari, chekkan azob-uqibatlarini, odamlarning tabiiy qonunlar asosida yashashlari zarurligi, kishilarning hayot va o'lim sirlarini bilishga azaldan intilib kelishlari haqida qilingan hikoyalardan yaqqol bilib olamiz.

«Adona haqida doston»da esa insoniyat hayotida yaxshilik bilan yomonlik, ezgulik bilan yovuzlik boylik bilan qashshoqlik bir-biriga tubdan qarama-qarshi va zid ekanligi haqidagi fikrlar ifodalangan. «Jafokash avliyo haqida doston», «Xo'jayinning quli bilan suhbatini» kabi asarlarda biz buning yaqqol guvohi bo'lamiz. Eslab o'tilgan birinchi doston baxt va baxtsizlik, adolat va adolatsizlik haqida, ularning sabablari va bartaraf etish usullari hamda yo'llari xususida dastlabki falsafiy tasavvurlar va g'oyalar bayon etilgan.

Jamiyat ishlab chiqarishi o'rta qo'ygan talablar, inson amaliy faoliyati tug'dirgan ehtiyojlar asosida Bobilda tabiat hodisalari haqida, ularning mazmunini tushunib olib, ulardan turmushda foydalanish zarurati, mahsulot va narsalarning miqdorini aniqlash, og'irligi va uzunligini o'lchash, ishchi kuchlarning samarasini belgilash, binolar hajmini topish dalalarning er satxini hisoblab chiqish zarurati dastlabki arifmetik va geometrik bilimlarning paydo bo'lishini taqozo etadi. Bu narsa o'sha davrlardayoq taqvimning paydo bo'lishiga olib kelgan va odamlardan astronomiya sohasida ma'lum bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi. Shu asosda Bobilliklar quyosh soati, Quyosh ko'rsatgichi va uning 12 bo'lakka bo'linishini azaldan bilishgan. Antik davr ma'lumotlariga ko'ra, Bobilda

2-MAVZU: FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: SHARQ FALSAFASI

matematika, geometriya, astronomiya bilan bir qatorda, tibbiyot, tarix, geografiya, filologiya, musiqa, tasviriy san'at, astrologiya kabi bilim sohalari asta-sekin kurtak yoza boshlagan.

Qadimgi Misr ham jahon madaniyatining eng qadimgi o'choqlaridan biri bo'lib, unda ham ilk madaniy yodgorliklar eramizdan avvalgi to'rt ming yillikning boshlarida vujudga kelgan. Babil madaniyati kabi qadimgi Misr madaniy yodgorliklarida ham xalq donishmandligining hamma turlarida o'sha davrdagi ijtimoiy, iqtisodiy hayot, tabiat hodisalariga munosabat, kishilarning ijtimoiy, siyosiy, ahloqiy, huquqiy, ularning sintezi bo'lgan falsafiy qarashlarida o'z ifodasini topgan. Qadimgi misrliklar suvni odamga oziq-ovqat etishtiruvchi, inson uchun dastlabki ulug' ne'mat, deb bilganlar. Suv ularga butun tabiatning, hayotning asosi bo'lib ko'ringan. Ular Nil daryosini ilohiy bir mo'jiza deb, tabiatdagi o'simlik va daraxtlarga talpinganlar. Qadimgi misrliklar astronomiya sohasida ba'zi bilimlarga ega bo'lib, sayyoralarni yulduzlardan ajrata bilganlar, alohida yulduzlar xaritasini va har xil taqvimlar tuzganlar. Qadimgi Misrda tibbiyot juda rivojlangan, misrliklar kasalliklarning juda ko'p turlaridan xabardor bo'lishib, tashhis qo'yish sohasida katta tajribalarni qo'lga kiritganlar. Qadimgi misrliklar, ayniqsa qurilish, arxitekturaga, san'atning juda ko'p turlariga, hisob-kitob, o'lcham va chizmachilik, matematik va astronomik bilimlarga egaligi jihatdan boshqalardan tubdan farq qilishgan. Haqiqiy ma'noda ular geometriya va astronomiyaga oid bilimlarning ilk yaratuvchilari bo'lishgan. Misr ehromlari-piramidalar buning rad qilib bo'lmas hayotiy guvohlaridir. Umuman, Qadimgi Babil va Misr xalqlarining madaniyati, urf odatlari, dunyoqarashlari, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, badiiy, ahloqiy va falsafiy qarashlari butun qadimiy SHarq xalqlari kabi diniy qarashlar bilan sug'orilgan bo'lgan. Ularning bu qarashlari nasldan-naslga, avlodlardan-avlodlarga o'tib, SHarqdagi boshqa ko'pchilik xalqlar madaniy ma'naviy taraqqiyotiga, ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivojiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatgan. Buni biz qadimiy Hindistonning madaniy ma'naviy taraqqiyoti misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Qadimgi Hindiston o'zining boy tarixi va madaniyatiga, diniy va falsafiy ma'lumotlariga ega bo'lgan. Hindistonda eramizdan 3 ming yil muqaddam erni sun'iy sug'orish, dehqonchilik taraqqiy etgan, anhorlar qazilgan, kulolchilik, yog'ochsozlik, to'qimachilik, zargarlik, hunarmandchilik, pishiq g'ishtlardan ko'p qavvatli binolar qurish, jun va zig'ir tolasidan matolar tayyorlash, mis va temir, qalay va qo'rg'oshindan qurol-aslahalar yasash taraqqiy etgan. Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston» asarida yozilishicha, eramizning birinchi asrlaridayoq Hindistonda tibbiyot, riyoziyot, ilmi nujum, kimyo, musiqa, po'ziya, tarix, san'at va falsafaga oid bilimlar keng rivojlangan bo'lgan. Ayniqsa, noyob tabiatga, sa'iy zaminga, ajoyib nabotot va hayvonot olamiga boy bo'lgan Qadimgi Hindistonda madaniyat va san'atga oid, diniy, falsafiy qarashlar keng rivojlangan. Bunga bizgacha etib kelgan «Ramayana», «Mahobhorat» («Maxayana»), «Kamila va Dimna» kabi buyuk asarlar to'liq guvohlik beradi. Bu buyuk nafosat va betimsol hikmat hazinasi bo'lgan asarlarda hind xalqining qadimiy urf-odatlari, an'analari, odobxloqi, madaniyati, dini va tarixi, milliy qadriyatlar bilan birga, ularning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy badiiy va falsafiy qarashlari yorqin ifodasini topgan. Bulardan tashqari, qadimiy Hindistonda falsafiy fikrlar to'rtta Vedalarda ham ifodalangan. Ular: Rigveda, Samaveda, Yajurveda, Atxarvavedalardir. Bu vedalardan eng muhimi Rigveda bo'lib, u eramizdan 1500 yil oldin paydo bo'lgan. Bu Vedalarda diniy qarashlar bilan birga olam, borliq fazo va vaqt inson, inson hayotining ruhiy va tabiiy asoslari, tabiat va jamiyat o'rtasidagi aloqadorlik, ilohiy kuchlar, ularning faoliyatlari haqida muhim falsafiy fikrlar va qarashlar ilgari suriladi. Keyinchalik bu vedalarni turlicha tushunish asosida ularni turlicha talqin etuvchi falsafiy maktablar vujudga keladi. Bu maktablar o'z g'oyaviy yo'nalishlariga ko'ra ikki oqimni tashkil qilishadi. Birinchi oqim tabiiy materialistik yo'nalishda bo'lib, uni buddizm, hinduizm, jaynizm, lokayata va chorvaka maktablari tashkil qiladi. Ikkinchi oqim esa diniy idealistik yo'nalishda bo'lib, unga vedanta, mimansa, sankxiya, yoge, n'yaya, vaysheshika, maktablari kiradi.

2-MAVZU: FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: SHARQ FALSAFASI

Bu yuqoridagi maktablardan lokayata va chorvaka maktablari haqiqiy real dunyo, deb insonlar yashaydigan dunyoni tushunadilar. Ularning tarafdorlari dunyoni, tabiat hodisalarini, ular qanday bo'lishsa, xuddi shunday tushunmoq va tushuntirmoq kerak, degan talabni ilgari suradilar. Ular nuqtai nazaricha, butun borliq: olov, suv, havo, tuproqning yig'indisidan iborat bo'lib, inson ham ana shu to'rt unsur birikmasidan tashkil topgan. Chorvakalar dunyoni hech kim yaratgan emas, balki uning asosida to'rt moddiy elementlar birligi yotadi, deb hisoblaydilar. Ular: «Olovni kim issiq qildi, suvni kim sovuq qildi?» va kabi savollar berib, «Ularning hammasini shu hodisalarning o'zidan qidirish kerak», - deb javob qaytaradilar.

Lokayata maktabi vakillari, hayotning murakkab shakllari uning oddiy shakllarining uzoq davom etgan evolyusiyasi tufayli vujudga keladi, deyishadi. Ularning fikricha, inson bir marta yashaydi. SHuning uchun u baxtli hayot kechirishga, o'zining oqilona ehtiyoj va manfaatlarini qondirishga intilishi kerak. Bunday falsafiy qarashlar qadimgi Xitoyda ham vujudga keladi.

Qadimgi Hindiston kabi, qadimgi Xitoy ham Sharqda yirik o'choqlardan biri bo'lgan. Eramizdan 2000 yil ilgari bu erda ham dehqonchilik keng taraqqiy etib, sug'orish ishlari ancha rivojlanadi. Bu erda ham metaldan, xususan, temirdan mehnat qurollari ishlab chiqarish avj oladi. Qishloq xo'jaligi, irrigatsiya, hunarmandchilik, savdo-sotiqning ravnaqi turli bilimlarning rivojlanishi uchun keng yo'l ochadi. Natijada, qadimgi Xitoyda, astronomiya, biologiya, tibbiyot, san'at va madaniyat sohalari katta yutuqlarga erishadi. Bu erda ham dastlabki falsafiy ta'limotlar paydo bo'lib, ularda dunyo abadiy, u 5 unsur – olov, suv, er, daraxt va metaldan tashkil topgan, degan qarashlar ilgari suriladi. Eramizdan oldingi XIX asrlarga kelib, Xitoyda daosizm falsafiy oqimi paydo buladi. Uning asoschisi Lao-Szi, birinchi Xitoy faylasufidir. Qadimgi Xitoyning ko'zga ko'ringan faylasuflaridan biri Lao-Szidir (VI-V asrlar). Uning ta'limotiga ko'ra, olam, jamiyat va inson hayoti Dao qonuniga bo'ysunmog'i lozim. Daosizm ta'limoti ana shu tariqa shakllangan. Dao qonuni — tabiatning yashash qonunidir, undagi rang-baranglik kurashi va uyg'unligi abadiyligining e'tirof etilishidir. Bu qonunga ko'ra, olamning asosini tashkil etuvchi «Si», ya'ni beshta unsur — olov, suv, havo, er va yog'och yoki metall olamdagi barcha jismlar asosini tashkil etadi hamda ularning yuzaga kelishini ta'minlaydi. Lao-Szining ta'kidlashicha, olamda hech bir narsa doimiy va o'zgarmas, harakatsiz holda bo'lishi mumkin emas.

Daosizmga binoan, dunyodagi hamma narsa bir holatdan ikkinchi holatga o'tib turadi. Qaramaqarshi kuchlar o'rtasidagi kurash, ya'ni in va Yan orasidagi munosabat — bizni o'rab turgan olamni harakatga keltiruvchi kuchlar manbaidir. In va YAn o'rtasidagi kurash daoni anglatadi. Odamzod bu kurash jarayonida doimo yaxshilik tomonida turishi, o'zini qurshab turgan tabiat va atrofdagi olamga mehr ko'rsatishi lozim. Bo'lmasa, Dao qonuni buziladi va bunday joyda baxtsizlik, fojia yuz beradi. Lao-Szi bu o'rinda ekologik falokatni nazarda tutgan. «Kishilar Dao qonunini buzmasliklari kerak, aks holda tabiat ulardan albatta o'ch oladi», degan edi Lao-Szi. Buni ekologik falokatlar avj olib borayotgan bugungi kun voqeligi ham tasdiqlaydi. U dunyo moddiy, u tabiiy qonunlar asosida to'xtovsiz harakat va o'zgarishda bo'ladi, deydi. Lao-Szi o'zi bu haqda shunday yozadi: «Ulug' dao hamma yoqqa qarab oqadi. U o'ngga ham, so'ngga ham yoyilgan. U tufayli jami mavjudod tug'iladi, ular hamisha o'zgarishda bo'lib, bir joyda to'xtab qolmaydi».

Daosizm falsafiy ta'limotiga ko'ra dunyodagi hamma narsalar qarama-qarshiliklarning bir-biriga bog'liqligi asosida, bir-biriga zid holda aylanib, o'tib turadi. Tabiatdagi go'zallik va xunuklik, balandlik va pastlik, yaxshilik va yomonlik, borliq va yo'g'lik, uzunlik va qisqalik birbiriga o'tadi, bir-birini tug'diradi, bir-biriga bog'liq. Tabiatdagi barcha hodisalar qaramaqarshiliklarni o'z ichiga oladi. «In» va «Yan» qarama-qarshi kuchlar va tabiatning «5 unsuri» haqidagi ta'limotni Szou Yan ishlab chiqadi.

2-MAVZU: FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: SHARQ FALSAFASI

Qadimgi Xitoy falsafiy qarashlarida Konfutsiyning (Er.avval 551-479 yillar) axloqiy ta'limoti ham muhim o'rin tutgan. U o'zining falsafiy qarashlarida kishilarni tarbiyalash masalasiga katta e'tibor qaratadi. Uning fikricha, odamlar o'z tabiyatiga ko'ra bir-biriga o'xshashdirlar, faqat ular o'z tarbiyalariga ko'ra bir-birlaridan farq qiladilar.

Konfutsiy (xitoycha 孔子, mil. avv. 551-479 yil) — Xitoy faylasufi, konfutsiychilik asoschisi va siyosiy arbob bo'lgan. Uning saboqlari va faylasufligi Xitoy, Koreya, Yaponiya va Vetnam halqlarining o'y-fikri va hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Konfutsiy kambag'allashib qolgan aristokrat va harbiylar oilasida tug'ilgan. 22 yoshida ta'lim berish bilan shug'ullanib, Xitoyning eng mashhur o'qituvchisi sifatida shuhrat qozongan. Konfutsiy o'zi ochgan maktabida 4 ta fan: axloq, til, siyosat va adabiyot o'qitilgan. 50 yoshida Konfutsiy siyosiy faoliyatini boshlab, Lu davlatida yuqori amaldor bo'lib xizmat qiladi. Fitnalar natijasida xizmatidan ketadi, 13 yil mobaynida Xitoyning turli o'lkalariga boradi, biroq u joylarda o'z g'oyalarini qo'llay olmagach, miloddan avvalgi 484-yilda Luga qaytib keladi. Ta'lim berishdan tashqari qadimiy Xitoyning 5 ta mumtoz asari — „Shudzin“, „Shidzin“,

„Idzin“, „Yuedzin“ va „Lidzi“ni to'plash, tahrir qilish, tarqatish bilan shug'ullanadi. Konfutsiy ta'limoti uning „Lun yuy“ („Suhbatlar va mulohazalar“) kitobida bayon etilgan. Bu kitob aslida Konfutsiyning fikrlari va suhbatlari asosida shogirdlari va izdoshlari tomonidan yaratilgan. Konfutsiy o'zi uchun, avlodlari, yaqin shogirdlari uchun alohida ajratilgan qabristonga dafn etilgan; uning uyi Konfutsiy ibodatxonasiga aylantirilgan, bu joy ziyoratgoh bo'lib qolgan. Konfutsiyning ta'limotida Li degan tushuncha alohida ahamiyatga ega. Bu tushuncha «Tartib», «Marom» degan ma'nolarni anglatadi. «Li» bo'lmasa, jamiyatda tartib bo'lmaydi, demak, jamiyat ravnaq topmaydi. SHuning uchun jamiyatda doimo tartib bo'lishi zarur», – deydi u. Konfutsiy Osmonga, uning ulug'vorligiga murojaat etib, ijtimoiy tuzilmalar ierarxiyasi, kishilar qat'iy subordinatsiyasining zarurligini ko'rsatishga harakat qiladi: «Osmon har bir insonga uning jamiyatdagi o'rnini belgilaydi, uni taqdirlaydi, unga jazo beradi»². Xullas, Qadimgi Xitoydagi falsafiy ta'limotlar tarixiga nazar tashlar ekanmiz, bu erda ham materialistik va idealistik tendensiyadagi falsafiy oqimlarning guvohi bo'lamiz. Masalan, ko'pchilik qadimgi Xitoy faylasuflari tushuncha, predmetning nomi bilan reallikdagi predmetning o'zaro munosabati to'g'risidagi muammoni hal qilishga qiziqqanlar. Mo Di (Mo-Szi), Syun-szi va boshqalar tushunchalar («nomlar») ob'ektiv hodisalar va narsalarning inson ongidagi in'ikoslari, desalar, Gunsun Lui tushunchalarni mutlaq mohiyat, deb qarab, ularni borliqdan uzib qo'yadilar. Umuman, Konfutsiy va Myan-Szining axloqiy siyosiy nazariyalari, Xan Fey-szi va «qonunchilar» maktablari vakillarining davlat va huquq to'g'risidagi fikrlari haqida ham ma'lum mulohazalar aytish mumkin. Bular Qadimgi Xitoy falsafasining «oltin davri»ni tashkil qiladi.

Markaziy Osiyo-qadimiy Turon jahon ilm-fani, madaniyati va ma'naviyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan mintaqalardan biri bo'lgan. Hozir O'zbekiston, deb ataluvchi bu xudud, ya'ni bizning Vatanimiz nafaqat SHarq balki butun jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini bugun jahon tan olmoqda. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy falsafiy fikri haqida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lishimizda qadimiy xalq og'zaki ijodiga oid afsona va rivoyatlar, qadimgi hind, xitoy va yunon tarixchilarining asarlari, „Avesto“, „Behistun“, „Bundaxshin“ va shular kabi yozma yodgorliklarda aks ettirilgan. Ayniqsa „Avesto“, shubhasiz, Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy ma'naviyat, madaniyat, xususan falsafiy qarashlarini o'rganish uchun bebaho manbadir. Bu asar bizga qadimgi Markaziy Osiyo xalqlarining ilk tabiiy-ilmii tasavvurlari, ijtimoiy-siyosiy, diniy va falsafiy fikrlarining shakllanishini aniqlash uchun juda boy manba bo'lib xizmat qiladi.

² Конфуций. Уроки мудрости. –М.: «ЭКМО», 2005 г. с. 46.

2-MAVZU: FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: SHARQ FALSAFASI

Mustaqillik yillarida bir qator olimlarimiz ushbu kitobni tadqiqot qilishdi (T.Maxmudov, G.Maxmudova, H.Homidiy, M.Ishokov va boshq.)

Tadqiqotchilarning yozishicha 21 kitobdan iborat bo‘lib, uning 7 kitobi dunyo va inson zotining o‘tmishi haqida, 7 kitobi inson axloqi, uning huquqlari haqida, 7 kitobi tibbiyot, ilmiy-hay‘at hamda aniq fanlarga oid bilimlar haqida bo‘lgan. Bu asar zardushtiylik diniy-falsafiy ta‘limotining muqaddas kitobi sifatida o‘zida ajdodlarimizning tabiat, borliq, olam, jamiyat, inson, uning hayoti, axloqi, huquqlari, burchi kabi masalalar yuzasidan dastlabki diniy falsafiy qarashlarini ifodalaydi.

Zardushtiylik diniy-falsafiy ta‘limotiga ko‘ra, olamda ikkita kuch: yaxshilik va yomonlik kuchlari bo‘lib, ular bir-birlariga qarshi kurash olib boradilar. Yaxshilik kuchlariga xudo Ahura Mazda, yomonlik kuchlariga Axriman boshchilik qilishadi. Insonning hayoti, uning taqdiri, baxti va baxtsizligi shu ikki kuch kurashi bilan bog‘liq holda ko‘rsatiladi. Bunda inson bu faoliyatining sub‘ekti sifatida emas, balki xudolar ta‘sir ko‘rsatadigan ob‘ekt sifatida namoyon bo‘ladi. Asarda kishilar o‘z amaliy ishlari va axloqiy fazilatlar bilan yaxshilikka moyil ekanliklari, ular yovuz kuchlarga qarshi kurashda ezgu ruhlarga ko‘maklashishlari lozim, aks holda yomonlik tantana qilib, ular abadul-abad azob-uqubatlarda yashashi mumkinligi aytiladi. Bunda kishilarning yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlari va qarashlari ularning amaliy faoliyati bilan bog‘langan holda ko‘rsatilib, ular kishilar faoliyatini rag‘batlantiruvchi, yo‘naltiruvchi kuchlar sifatida ifodalanadi.

“Avesto”da insoniyat tarixi haqida ham fikr yuritilib, unda aytilishicha, birinchi paydo bo‘lgan odam *Ilmadir*. Boshqa odamlar keyinchalik undan tarqalgan. Ilma yashagan davr insoniyatning oltin davri deb tasvirlanadi. Bu davrda odamlar o‘lmaydilar, ularga abadiy bahor yaratilgan bo‘ladi, ular baxtli va farovon yashaydilar. Biroq shunday bir paytda odamlar ta‘qiqilgan mol go‘shtini eb, gunoh qilib qo‘yishadi. Bundan g‘azabi kelgan Angra man‘yu (“Axriman”) xudosi ularga qor va sovuqni yuboradi. Ilma shunda uy qurib, odamlarni va bir juftan hayvonlarni saqlab qoladi. SHundan boshlab, insoniyat tarixining birinchi davri oltin davri tugab ikkinchi- yaxshilik va yomonlikning kurash davri boshlanadi. Bu davrda yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi keskin kurashlar so‘ngida xudo Ahura Mazda xudo Axriman ustidan g‘olib chiqadi va baxtli hayot saltanati qaror topadi. Bu insoniyat tarixining uchinchi davri bo‘lib, insoniyatning kelajagi davridir. Bu davrda kishilarning baxt-saodati, adolatli jamiyat haqidagi orzu-umidlari ushaladi. Bu davrda oldin o‘lganlar tiriladi gunohkorlar jazolanadi. Jamiyatda mehnatsevarlik, adolat, halollik, poklik, yaxshilik asosiy o‘rinni egallaydi. Masalan, «Avesto»da keltirilgan «Zabardast va qudratli bo‘lish uchun hamisha haqiqat va rostlikka muvofiq amal qilsang, zabardast va qudratli bo‘lasan», «Haq so‘zdan o‘zga hech narsa bilan shug‘ullanma», «Dunyoni taraqqiyot va kamolot sari harakatga soladigan kishi lar bo‘lmog‘i lozim», «YOlg‘on gapirib tirik qolgandan ko‘ra, rost gapirib o‘lgan yaxshi», «O‘z nafsini engib, jilovlab olmagan kishi, hech narsa ustidan g‘olib chiqa olmaydi³» kabi fikrlar hozirgi kunda ham ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

“Avesto”da quyidagi uch jihat insonning insoniyligini ta‘minlovchi asosiy fazilatlar ekanligi aytiladi. Bular: 1) Ezgu fikr; 2) Ezgu so‘z; 3) Ezgu ish (amal)dir. Mana shu fazilatlarga ega bo‘lgan inson oliy haqiqatga musharraf bo‘ladi. Bularga erishishning asosiy vositasi mehnat qilish, o‘rganish, izlash, o‘z ustida tinmay ishlashdir. Avestodagi ilgari surilgan diniy-falsafiy ta‘limot, zardushtiylik g‘oyalari keyingi davrlar SHarq va Evropa diniy-falsafiy ta‘limotlarining shakllanishi va paydo bo‘lishida juda katta o‘rin tutgan va rol o‘ynagan.

³ Umarzoda M. Ovesto sirlari // «Jahon adabiyoti». 1997 y. №4. 19–20-b

2. Islom dinining vujudga kelishi va falsafiy ta'limoti.

Markaziy Osiyo – sivilizatsiyaning qadimgi o'choqlaridan biri. VIII–IX asrlarda Markaziy Osiyo arab xalifaligi tarkibiga kirgan. Qadimiy boy an'analarga ega bo'lgan Misr, Suriya, Mesopotamiya, Eron, O'rta Osiyo kabi madaniyat o'choqlari istilo etilib, bir davlat ichiga birlashtirildi. Natijada, tarixiy sivilizatsiyalar o'rtasida bevosita muloqot boshlanib, yangi islom madaniyati shakllana boshladi. Ichki Arabiston hududida shaharlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, hajmi va ahamiyati jihatdan yangi bo'lgan markazlar vujudga kela boshladi. Ularning shakllanishida arablar bilan bir qatorda boshqa xalq vakillari ham faol qatnashdilar. Yangi shaharlar qurilishi davlatning harbiy-siyosiy mavqeini mustahkamlashda muhim o'rin egalladi.

Qur'on – islom dinining asosiy manbasi va qadimiy adabiy-tarixiy va madaniy yodgorlik hisoblanadi. U VII asrdagi arablar hayoti va ijtimoiy holatini o'zida aks ettiradi. Unda diniy-falsafiy tasavvurlar va rivoyatlar, qabila-urug'chilik hayot tarziga xos an'ana, urf-odat va marosimlar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy qonunqoidalar, oila-nikoh, ajdod va avlodlarga munosabat, mulkchilik va vorislik, savdo-sotiq va qarzmuomalalariga xos ko'rsatmalar o'z ifodasini topgan.

Qur'oni karim xalifa Abu Bakr davrida to'planib, Usmon davrida yozma holga keltirilgan ekan, uning holati Muhammad payg'ambar davrida qanday holatda bo'lganligi masalasi muhimdir. Ba'zi tadqiqotlarda ilk davrda Qur'onni musulmonlar yodlab olar, yozma nusxalari esa, hijratdan so'ng paydo bo'la boshladi, degan xulosalar uchraydi. Ammo, tarixiy ma'lumotlar Qur'onning nozil etilgan oyatlarini sahobalar yozib yurganliklari va uni boshqalarga tarqatganliklari haqida Umar ibn al-Xattobning Qur'on oyatlari bitilgan matnni o'qiganligi va islom dinini qabul qilganligi (615 yil) dalil bo'ladi. Demak, Qur'on oyatlarini musulmonlar hijratdan oldin ham yozma holga keltira boshlaganlar. Qur'on va hadislarda islomiy ta'limotning asosi bayon qilingan. Qur'on — muqaddas kitob. Unda islom qonun-qoidalari, imon-e'tiqod talablari, huquqiy va axloqiy me'yorlar o'z ifodasini topgan. U 114 sura va ular tarkibidagi oyatlardan tashkil topgan.

«Sunna» esa hadislar majmui bo'lib, Qur'ondan keyin turadi va uni to'ldiradi. Unda Muhammad payg'ambarning so'zlari, xatti-harakatlari naqlar va hadis shaklida jamlangan. Qur'on va sunnadan keyingi muhim manba — shariatdir. SHariat (to'g'ri yo'l, ilohiy yo'l demakdir) — islomda huquqiy, axloqiy me'yor va amaliy talablar tizimidir. Islomdagi asosiy yo'nalishlar — sunniylik, shialik va xorijiylik. Ular diniy ta'limot, marosimchilik, axloqiy-huquqiy me'yorlarga oid masalalarda o'zaro farqlanib turadi. Sunniylik va shialik hokimiyat masalasida (sunnaylik xalifalik hokimiyati, shialik esa imomat hokimiyati tarafdori), ayrim diniy marosim va an'analarda bir-biridan farq qiladi.

Islomda hanafiylik, ash'ariylar, jabariylar, qadariylar, sifatiylar, murji'iyalar, mu'taziliylar kabi mazhablar mavjud. Qadariylar inson iroda erkinligini yoqlab chiqib, uni tan olmagan jabariylarga qarshi chiqqan. Mutakallimlar aristotelchilik falsafasi usul va vositalaridan foydalanib, islomning diniy-aqidaviy ta'limotini asoslab berishga uringan.

Tasavvuf va uning tariqatlari. Tasavvuf falsafiy oqim va diniy-ma'naviy hodisa sifatida islom dini doirasida (ko'pgina ichki sabablar va ba'zi tashqi unsurlar — buddaviylik va hindiylikning ilk diniy tasavvurlari, sharqiy xristian tarkidunyochiligi, neoplatonizm kabilarning ta'siri ostida) paydo bo'ldi. Tasavvuf uchun vahdoniyat — Ollohning birligi, Olloh va olamning porlab turishi, fano bo'lish, orif shaxsining tangri taolo bilan ruhan birlashib ketishi kabi mushohadalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu oqim namoyandalari va tarafdorlarini so'fiylar, deb ataganlar va «so'fizm» atamasi shundan paydo bo'lgan. Ilk so'fiylar aholining kambag'al toifasi

2-MAVZU: FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: SHARQ FALSAFASI

orasida shakllangan. Ularning qarashlari istilochilar zulmi, adolatsizlik, ijtimoiy tengsizlikka qarshi norozilik belgisi sifatida ham yuzaga kelgan.

Tasavvufning muhim jihatlari yirik musulmon ilohiyotchisi Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-Fazzoliyning (1059-1111) «Diniy ilmlarning tiriltirilishi» asarida bayon etilgan. Ul zot dunyo qonuniyatlarini aql orqali bilishni e'tirof etgan, lekin Ollohni aql bilan anglash mumkin emasligini ta'kidlaganlar. U faqat qalb, maxsus ruhiy harakatlar — iltijo-ibodatlar ko'magida bilib boriladi. Mantiq, tabiatni bilish Ollohni tanishga xalal bermasa, ular ahamiyatlidir, agar aksincha bo'lsa, ularning maqomi chegaralanadi.

Rasmiyatchilik, aqidachilikni tasavvuf ahli qabul qilmagan. Ularning fikricha, iymone'tiqodning mohiyati Ollohdan boshqa narsaga muhtoj bo'lmaslik, hech qanday mulkning quliga aylanmaslik, boriga sabr-qanoat qilib yashashdir. Ollohga etishish uchun qalbni poklash, nafs balosidan ozod bo'lish darkor. Ana shundagina inson dili nur bilan to'ladi, nuqsonlarni boshqalardan emas, o'zidan izlaydigan darajaga ko'tariladi, Haq sari yaqinlashadi, bema'ni qarash va tushunchalarning qullik kishanidan o'zini ozod qiladi, chunki inson qalbi hurdir.

Tasavvufda **kubraviya, yassaviya, naqshbandiya** tariqat-suluklari keng tarqalgan.

Kubraviya tariqatining asoschisi **Najmiddin Kubro**dir (1154-1226). Xivada tug'ilgan, yozgan asarlari orasida «SHarhus-sunna val-masolih», «Usuli ashara», «Favoihul-jamol» kabilar mashhurdir. Kubraviya tariqatining mohiyati o'nta usulda mujassamlashgan. Bular — tangriga o'z xohishi bilan yuzlashish, zuhd fi dunyo — har qanday lazzatdan o'zini tiyish, tavakkul — Ollohga e'tiqodi pokligi uchun barcha narsalardan voz kechish, qanoat, uzlat — xilvatni ixtiyor qilish, mulozamat az-zikr — uzluksiz zikr, tavajjuh — Haqqa muhabbat qo'yish, sabr — nafs balosidan ozod bo'lish, muroqaba — tafakkurga g'arq bo'lish, rizo — tangri xushnudligini qozonishdan iborat.

Kubro mo'g'ullar bilan bo'lgan janglarda jasorat ko'rsatgan va shahid bo'lgan. Mo'g'ullar Kubroning nomi ulug'ligi, obro'si balandligini hisobga olib, unga ozod bo'lishi, omon qolishi mumkinligini, buning uchun esa qamal qilingan qal'adan chiqib ketishi kifoya ekanini bildirgan. Ammo Kubro bunday jon saqlagandan ko'ra, o'z xalqi bilan birga yurt himoyasi yo'lida jon berishni afzal ko'rgan. Rivoyat qilishlaricha, ul zot qartayib qolganiga qaramay, jangchilarga faol ko'mak bergan. Buni ko'rgan shogirdlaridan biri «Ustoz, anchadan beri bayroq ko'tarib charchadingiz, uni menga bering», deganida, u «Agar kuchim bo'lganida qilich yoki kamon olgan bo'lar edim. Bayroqni bizga qo'yingda, siz yo qilich yoki nayza bilan yog'iyga qarshi kurashing», degan ekan. U bayroqni shunchalik mahkam ushlagan ekanki, xalok bo'lganidan keyin qo'lidan bayroqni olishning iloji bo'lmaganidan, bir mo'g'ul Kubroning qo'lini kesib olgan ekan.

YAssaviya tariqatining asoschisi **Xoja Ahmad YAssaviy**dir (1166 yilda vafot etgan). U Turkistonning Sayram muzofotida tug'ilgan, mashhur mutasavvif YUsof Hamadoniyni (1140 yilda vafot etgan) ta'lim-tarbiyasi bilan voyaga etgan, orif maqomiga erishgan. YAssaviy ustozining vafotidan keyin muayyan bir muddat uning maqomida turgan, so'ng esa bu maqomni Abduxoliq Fijduvoniya qoldirib, YAssi — Turkiston shahriga qaytadi va o'z tariqati, yo'l-yo'riqlarini tashviq etish bilan mashg'ul bo'ladi.

YAssaviyning oddiy xalq tushunadigan uslubda yozilgan, tasavvufiy qarashlarini aks ettirgan hikmatlari devonida o'z aksini topgan. Unda ilohiy ishq, Haq vasliga etishish, uning ishqida parvona bo'lish, undan boshqa narsaga ko'ngil qo'yimaslik haqida fikr yuritilgan. Yassaviy riyozat, chilli, zikrga alohida ahamiyat berib, hayotining aksariyatini chillaxonada o'tkazgan. Yassaviy tariqati Turkiston o'lkasi, Ozarboyjon, Turkiya, SHimolda — Qozongacha, Farbda — Bolqongacha keng tarqalgan.

2-MAVZU: FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: SHARQ FALSAFASI

Bahouddin Naqshband (1318-1389 yillar) naqshbandiya tariqatining asoschisidir. Bu ta'limotning mohiyati «Dil — ba yoru dast — ba kor» shiorida yaqqol ifodasini topgan. Inson Olloh inoyati natijasi bo'lib, bu dunyoni unutilib qo'yimasligi lozim, uning qalbi doimo Ollohda, qo'li esa mehnatda bo'lmog'i lozim. U tasavvufning barcha tariqatlari singari shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat maqomlarini e'tirof etadi.

Naqshbandning ta'kidlashicha, shariat — ahdga vafo, islomning beshta asosiy talabiga rioya qilish, dil va til birligi. Tariqat esa, o'zidan kechish, fano bo'lishdir. Haqiqat — behuda ishlardan uzoqlashish, haq ishlarga bog'lanish. Demak, shariat — qonun, tariqat — yo'l. Qonun vujud va qalbni tarbiyalaydi. Yo'l esa ko'ngilni poklab, ruhni ilohiy quvvatdan bahramand qiladi.

Kubraviya, yassaviya va naqshbandiya ta'limotlari ma'naviyatimiz tarixida juda katta o'rin tutgan. Ular ma'naviy taraqqiyotda muhim ahamiyatga molik bo'lib, o'z ta'sirini haligacha yo'qotmagan.

Vatanimiz sivilizatsiyasining sharq xalqlari, arab madaniyati va islom falsafasi rivojiga ta'siri nihoyatda katta bo'lgan. Uning hududida arab xalifaligidan nisbiy mustaqillikka erishgan davlatlarning tashkil topishi, xalqimizning bag'rikengligi tufayli yangi marralarga erishildi. Dunyoviy va diniy sohalaridagi madaniy-ma'naviy yuksalish mazkur uyg'onish davrining yorqin timsolidir. «Avesto» an'analari, tabiatni o'rganishdagi yutuqlar, gumanitar sohadagi ijobiy siljishlar, SHarq xalqlari, arab madaniyati va islom falsafasi rivojiga samarali ta'sir ko'rsatdi. O'sha davrda jahon miqyosida Vatanimizning ma'naviy-intellektual nufuzi ortib bordi. U jahondagi yirik madaniyat va ilm-fan markaziga aylandi.

Abu Mansur Moturidiy (melodiy 944 yilda vafot etgan) kalom ilmining aql maqomiga alohida e'tibor qaratgan Samarqandda Moturidiya maktabini yaratgan. Mu'taziliylar (ajralib chiqqanlar) yakka xudolikning adolatli ekanini, Qur'onning tangri tomonidan yaratilganligini, iroda erkinligini yoqlab chiqqan. Uning asoschisi Vosil ibn Atodir (699-748 yillar). Uning oxirgi vakillaridan biri Zamahshariydir.

Kalom islom ilohiyotining o'ziga xos falsafiy ta'limotidir. U diniy aqidalarni asoslab berishga uringan. U Qur'onga tayanib, jannat va do'zaxning azaliy ekanligini, insonda iroda erkinligining yo'qligini, lekin insonning Olloh oldida o'z qilmishlari uchun mas'ul ekanligini asoslab berishga xarakat qilgan.

Diniy bag'rikenglik va dunyoviy bilimlar takomili. Musulmon SHarqi, jumladan islom joriy etilganidan keyin Vatanimiz hududidan etishib chiqqan buyuk mutafakkirlar ijodida Olloh, inson va tabiat masalalari ilohiyot va dunyoviy falsafaning muhim muammolaridan biri bo'lib kelgan. Birona buyuk alloma va mutafakkir islomiy qadriyatlar mavzuini chetlab o'tmagan.

Imom Buxoriy (810-870yillar) Muhaddislar sultoni, Rasululloh s.a.v. hadislarining sahihlarini ajratib, Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi ishonchli manba sanalmish "Sahihi Buxoriy" nomli hadislar to'plamini tuzgan 60 mingga yaqin hadis to'plagan ulug' alloma, imomud-dunyo, olimlar peshvosining nomi butun dunyoda mashhur va ma'lum Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn Mug'iyra ibn Ahnaf ibn Bardazbih al-Jo'fiy alBuxoriydir. Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarimizga e'tibor qaratildi, yurtimizdan etishib chiqqan o'nlab ulug' olimlar qatorida hadis ilmining sultoni Imom Buxoriy hazratlarining hayotlari va boy ilmiy meroslarini o'rganishga kirishildi. U kishining "Al-jomeus-sahih", "Aladab al-mufrad" kabi asarlari o'zbek tiliga o'girilib, katta nusxada nashr qilindi. Ayniqsa, 1998 yili Imom Buxoriy tavalludining 1225 yillik to'yi keng nishonlanishi munosabati bilan u zotga bo'lgan ulkan ehtirom sifatida Imom Buxoriy dafn etilgan go'shada muhtasham majmuaning barpo etilishi bo'ldi.

2-MAVZU: FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: SHARQ FALSAFASI

2017 yilda Imom Buxoriy majmuasi yonida Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi qurilishi boshlandi. 6 gektar maydonni egallagan markaz binosida hadis, kalom va qiroat ilmini o'rganishga mo'ljallangan xonalar, qo'lyozmalar kutubxonasi, muzey tashkil etiladi. 2017 yilning 19 sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zlab, jumladan shunday dedi: "Markaziy Osiyo Uyg'onish davrining ko'plab yorqin namoyandalarining islom va jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan bebaho hissasini alohida qayd etmoqchiman. Ana shunday buyuk allomalardan biri Imom Buxoriy o'z ahamiyatiga ko'ra islom dinida Qur'oni karimdan keyingi eng mo'tabar kitob hisoblangan "Sahihi Buxoriy"ning muallifi sifatida butun dunyoda tan olingan. Bu ulug' zotning g'oyat boy merosini asrab-avaylash va o'rganish, ma'rifiy islom to'g'risidagi ta'limotini keng yoyish maqsadida biz Samarqand shahrida Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildik. Toshkentda tashkil etilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazining faoliyati ham shu maqsadga xizmat qiladi⁴". O'z navbatida muhtaram yurtboshimizning bu chiqishlarini barcha musulmon aholisi diqqat bilan kuzatdi va katta qiziqish bildirdi.

IX asr boshlarida, dastlab, Somoniylar davlati vujudga kelgan bo'lsa, XIII asrning 20-yillarida Xorazmiylar davlati mo'g'ullarning uzluksiz hujumi ostida qoldi. Biroq, ko'p asrlik urushlarga qaramay, Markaziy Osiyoda madaniyat, fan, san'at va adabiyot rivojlanishda davom etdi.

Bu davrda al-Xorazmiy, Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, va boshqa buyuk allomalar yashab ijod qildilar. Ular yaratgan asarlar ahamiyatiga ko'ra o'sha davrni Markaziy Osiyoda uyg'onish davri deb nomlash mumkin. Uyg'onish davri fani va madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- 1) barcha odamlarni ma'rifatli qilishga intilish, bu yo'lda o'tmish merosidan va qo'shni mamlakatlarning fan, madaniyat yutuqlaridan foydalanish, tabiiy-falsafiy va ijtimoiy fanlarni rivojlantirish;
- 2) tabiatni o'rganish, tabiiy-ilmiy bilimlarni oqilonalikka tayanib rivojlantirish, aqlning kuchiga ishonish, asosiy e'tiborni haqiqatni bilishga qaratish, haqiqatni inson bilimining negizi deb bilish;
- 3) insonga xos tabiiy, badiiy, ma'naviy fazilatlarini yuksaltirish, insonparvarlikni ulug'lash, barkamol avlodni tarbiyalashda oliy ma'naviy qonunlarga rioya qilish;
- 4) universalizm – borliq va ijtimoiy hayotning barcha muammolariga qiziqish, bu davr madaniyatining muhim jihatlaridir.

Bu davr madaniyati umuminsoniy qadriyatlarining rivojlanishiga xizmat qilgan. Savdo-sotiqning rivojlanishi, iqtisodiy aloqalarning kengayishi, xalifalikning turli viloyatlari o'rtasida madaniy qadriyatlar almashinuvi va uning boshqa mamlakatlar bilan aloqalarining kuchayishi, tabiiy va madaniy bo'liklar, turli xalqlarning an'analari, tili va tarixini o'rganish bilishning eng to'g'ri yo'llari va usullarini yaratish, bilish jarayonining butun apparatini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Fanning optika, matematika, astronomiya kabi tarmoqlarining jadal rivojlanishi tabiatni chuqur o'rganish va tadqiqot metodlarini kengaytirishga imkoniyat yaratdi. O'rta asrlarda Sharq falsafasi mifologiya va din qo'ynidagina emas, balki fan qo'ynida ham rivojlanadi. Sharq olimlari matematika, astronomiya, geografiya, tibbiyot, tarix, alximiya sohasida qo'lga kiritgan yutuqlar ma'lum. Odatda, tabib, munajjim, sayyoh bo'lgan Sharq faylasuflari asbtrakt mulohazalardan ko'ra ko'proq tabiatshunoslik va tajribaga tayanganlar. Sharq falsafiy

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 19 sentyabr Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi.

2-MAVZU: FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: SHARQ FALSAFASI

tafakkurining yirik namoyandalari orasida Markaziy Osiyolik mashhur faylasuf, qomuschi-olim, Yaqin va O'rta Sharqda aristotelizm asoschilaridan biri Forobiy, buyuk faylasuf va tabib Ibn Sino (Avitsenna), atoqli astronom, matematik, shoir va mutafakkir Umar Xayyom, tabib va faylasuf Ibn Rushd (Averroes) bor.

Abu Nasr Muhammad ibn Tarxon al-Forobiy (870–950, asarlari: «Kitob ul-Xuruf», «Fozil odamlar shahri», «Siyosat falsafasi», «Fuqarolik siyosati») falsafa va tabiiy fanlar tarixiga oid yuzga yaqin asar muallifidir. U fanlar bilish vositalari ekanligidan kelib chiqqan. Bunda mutafakkir nazariy (mantiq, falsafa, tabiiy fanlar) va amaliy (axloq, siyosat) fanlarni farqlagan. Fanlar tizimida u insonga haqiqiy bilimni soxta bilimdan farqlash imkonini beruvchi mantiqni birinchi o'ringa qo'ygan. Ayni shu sababli faylasuf inson tafakkuriga alohida e'tibor bergan. Aynan falsafa insonga borliqning mohiyatini tushunish imkonini beradi. Borliq «yagona» va ayni vaqtda «ko'p»dir. Borliqning mazkur holati emanatsiya, ya'ni «yagona» muhitdan borliqning turli muhitlari kelib chiqishi mahsulidir. Forobiy asarlarida dunyo bir-biriga kiruvchi to'qqiz gumbaz ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu gumbazlarda ularning Yer atrofida aylanishi sababi hisoblangan jonlar yashaydi. Gumbazlar o'z harakatini dastlabki turtkidan boshlagan. Forobiy dunyoning rang-barangligini tushuntirish uchun Aristotelning shakl va materiya haqidagi ta'limotidan foydalangan. U jonning umrboqiyiligi haqidagi masalada Platon fikriga qo'shilmagan, chunki, uning paydo bo'lishi va o'limi tananing paydo bo'lishi va o'limi bilan bir vaqtda yuz beradi, deb hisoblagan. Ayni shu sababli Forobiy ijodida bilish nazariyasi Platondagi kabi xotirlash nazariyasi emas, balki dunyoni sezgi va aql birligi sifatida anglab etish nazariyasidir. Bunda aqlli jon narsalar tabiatini sezgilar idrokidan foydalanib anglab etadi. Narsalarning mohiyati aql bilan anglab etiladi. Bunda aql, avvalo, mantiqqa tayanishi, lekin sezgi a'zolari beruvchi materialdan foydalanishi lozim.

Forobiy borliqning birinchi sababi va harakat manbai sifatida Xudo mavjud deb hisoblagan bo'lsa-da, uning falsafasi bilish va borliqning murakkab masalalarini echishga intilish bilan tavsiflanadi. Ayni shu sababli faylasuf borliqning holatlarini, uning shakllarini: oddiy elementlar – havo, olov, er, suvni; shuningdek, minerallar, o'simliklar, hayvonlar, inson va osmon jismlarini sinchiklab o'rganadi. Shu tariqa u tashqi dunyoning ob'ektiv mavjudligiga urg'u beradi. Forobiyning falsafiy qarashlari Sharq falsafasining rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Forobiyning gnoseologiyasi tabiatshunoslik, matematika, musiqa, tilshunoslik va boshqa fanlar sohasidagi bilimlarga asoslanadi. U tabiat insondan tashqarida va unga bog'liq bo'lmagan holda mavjuddir, deb hisoblaydi. Forobiy fikricha, ob'ekt sub'ektga qadar mavjud bo'lgan. Seziladigan narsalar sezgilardan oldin paydo bo'lganidek, bilish mumkin bo'lgan narsalar ham bilishdan oldin paydo bo'lgan⁵.

Forobiy fikricha, inson bilimlarni tashqi dunyodagi hodisalarni bilish jarayonida o'zlashtiradi. Bu jarayon sezish, idrok etish, xotirlash, tasavvur qilish va eng muhimi – mantiqiy mulohaza yuritish, tafakkur kabi usullarni qamrab oladi. Bu vositalar yordamida inson fanni o'rganadi. Forobiy «Fan va san'atning o'ziga xos xususiyatlari» asarida tabiatni bilishning uzluksizligini, bilish – bu bilishdan bilimga, sababni bilishdan oqibatni bilishga, hodisani bilishdan mohiyatni bilishga eltuvchi yo'l ekanligini qayd etadi.

Forobiy inson ruhining bir tanadan boshqa tanaga o'tishini qat'iy rad etadi va ruh ham, tana kabi substansiyalarning individual birligidan iborat, deb hisoblaydi. Uning bu fikri noizchil bo'lgan. Bunday noizchilik Aristotelning bilish nazariyasida ham kuzatiladi. Aristotelga ergashib Forobiy

⁵ Фараби. Комментарии к категориям Аристотеля // Избранные произведения мыслителей стран Ближнего и Среднего Востока. –М.: 1961 г. с. 191.

2-MAVZU: FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: SHARQ FALSAFASI

ham ayrim narsalar birlamchi, mavjud tushunchalar va g'oyalari – ikkilamchidir va ular aqlda muayyan narsalarning mavhumlashishi natijasida paydo bo'ladi, deb hisoblaydi. Forobiyning bu g'oyalari universalialar va umumiy tushunchalar haqidagi qarashlarida yanada aniqroq namoyon bo'ladi. Universalialar mavjud bo'lgani uchun ham umumiy tushunchalar mavjuddir, deb hisoblaydi buyuk mutafakkir.

Bilish bosqichlari o'rtasidagi farqlarni tushunish Forobiyga bilish yo'llari to'g'risida mulohaza yuritish imkonini beradi. Bilishning fiziklar foydalanuvchi birinchi yo'li sezishdan boshlanishi lozim, chunki tana sezgiga yaqinroqdir. Bu hol sezgilar muayyan narsalarni aks ettirishi bilan izohlanadi. Narsalar sezgi organlarida aks etgach, jismni va uning yuzasi, chiziqlari va nuqtalarini mavhum o'rganishga o'tishi lozim. Matematiklar jismning u yoki bu jihatlarini teranroq bilish uchun foydalanuvchi bilishning ikkinchi yo'li mavhumlashtirishdan boshlanishi darkor. Bilishni mavhum nuqtadan boshlagan aql muayyan jism bo'ylab harakatlana boshlaydi, mavhum chiziq, yuza, jismni ang'laydi va so'ngra muayyan jismni tushunib etadi. Ilmiy bilim va falsafiy tafakkurning rivojlanishi bilish yo'llariga boshqacha nazar tashlash imkonini beradi, biroq Forobiy ilgari surgan g'oya Gegel falsafasida o'zining yanada barkamolroq ifodasini topadi. «Vazifa bilishdan iborat bo'lgani tufayli, kuzatish bilan taqqoslash haqidagi masala undan voz kechish ma'nosida echilgan. Endilikda masala faqat bilish doirasida nima birinchi bo'lishi va undan keyin nimalar ang'lab etilishi lozimligi haqida bo'lishi mumkin. Endi tabiatga muvofiq yo'l emas, balki bilishga muvofiq yo'l talab etiladi. Bilish fikrning muayyan mazmunidan ko'ra, mavhum mazmunni ang'lab etishi osonroqdir»⁶. Binobarin, bilish masalasi borliqning qaysi jihati biluvchi sub'ektning ob'ekti hisoblanishidan kelib chiqib hal qilinadi. Umuman, Forobiy g'oyalari nafaqat SHarq fanining, balki G'arb ijtimoiy-falsafiy tafakkurining rivojida ham muhim rol o'ynadi.

Abu Rayhon Beruniy (973–1048 yillar, asarlari: «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Minerologiya»), tabiat va uning ob'ektiv qonunlari mavjudligiga shubha qilmagan. U tabiat muttasil o'zgarish va rivojlanishda bo'ladi, materiya narsalar shaklini o'zi yaratadi va o'zgartiradi, jon (tafakkur, ma'naviy hodisalar) tananing muhim xossasidir, deb ta'kidlagan. Ma'lumki, tajriba, eksperiment borliqni bilish usullaridan biri hisoblanadi. Beruniy shunday deb yozadi: «Mendagi ishtibohni faqat tajriba va takroriy sinov bartaraf etishi mumkin, ... so'zlovchilarning yakdilligiga qaramay, buning haqiqiyliги tajribada o'z tasdig'ini topmagan»⁷. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, «Beruniyni etarli asos bilan o'rta asr fanida empirik metod yaratuvchilaridan biri deb hisoblash mumkin. U metallar va minerallarning xossalari va solishtirma og'irligini aniqlash bo'yicha bir qancha tajribalar o'tkazdi»⁸. Tajribada olingan bilimni mutafakkir ayrim me'yorlarga muvofiq ishonchli bilim deb talqin qiladi. Ularning orasida ob'ektlarning kuzatuvchanligi, tajribalarning qayta o'tkaziluvchanligi va kuzatishlarning tekshiriluvchanligini qayd etish mumkin. Bu mulohazalar tajriba, bilim olish va uning haqiqiyliğini tekshirish metodi sifatida, o'rta asr sharoitida ham ancha keng tarqalgan, deb aytish imkonini beradi. Beruniy astronomik kuzatishlar vositasida Oy va Quyoshning tutilishi, ularning Erdagi hayotga ta'siri, iqlim, tabiiy va sun'iy tanlanish, saqlanish, rivojlanish anomaliyasi kabi murakkab muammolarni yangi ilg'or metod va nazariy tamoyillar yordamida echishga harakat qildi. Beruniy Sharqda astronomiya kuzatish asboblarini yaratish texnikasining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixida ham etakchi o'rinlardan birini egallaydi. U o'sha davrda ilmiy izlanishlar olib

⁶ Фараби. Книга ал-Хуруф. Душанбе. «Илим», 1972 г. с. 25.

⁷ Абу Райхон ал-Беруни. Избранные произведения в 6 т. Т. 3. –Т.: 1963 г. с. 44.

⁸ Хайруллаев М. Философское наследие народов Средней Азии и борьба идей. Фергана, 1988 г. с. 39.

2-MAVZU: FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: SHARQ FALSAFASI

borishda foydalanilgan eski asboblarni takomillashtirish va yangilarini yaratishga alohida e'tibor bergan. Olimni o'ta aniqligi va mukammalligi bilan ajralib turuvchi kuzatish asboblarini yaratish imkoniyati masalasi qiziqtirgan. Shunday qilib, samo jismlarining holatlarini nafaqat asboblar vositasida, balki o'rganilayotgan ob'ekt xususiyatiga muvofiq amalga oshirishni allomaning ulkan xizmatlaridan biri deb hisoblash mumkin. Bunday metodologik mo'ljal, ilmiy-tadqiqotlar jabhasi cheklanganligiga qaramay, ilmiy bilishning yangi yo'llari va vositalarini topish borasidagi izlanishlarda muhim rol o'ynadi. Beruniy astronomik kuzatishlar vositasida Oy va Quyoshning tutilishi, ularning yerdagi hayotga ta'siri, iqlim, tabiiy va sun'iy tanlanish, saqlanish, rivojlanish anomaliyasi kabi murakkab muammolarni yangi ilg'or metod va nazariy tamoyillar yordamida echishga harakat qildi.

Beruniy Sharqda astronomiya kuzatish asboblarini yaratish texnikasining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixida ham etakchi o'rinlardan birini egallaydi. U o'sha davrda ilmiy izlanishlar olib borishda foydalanilgan eski asboblarni takomillashtirish va yangilarini yaratishga alohida e'tibor bergan. Olimni o'ta aniqligi va mukammalligi bilan ajralib turuvchi kuzatish asboblarini yaratish imkoniyati masalasi qiziqtirgan. Shunday qilib, samo jismlarining holatlarini nafaqat asboblar vositasida, balki o'rganilayotgan ob'ekt xususiyatiga muvofiq amalga oshirishni allomaning ulkan xizmatlaridan biri deb hisoblash mumkin. Bunday metodologik mo'ljal, ilmiy-tadqiqotlar jabhasi cheklanganligiga qaramay, ilmiy bilishning yangi yo'llari va vositalarini topish borasidagi izlanishlarda muhim rol o'ynadi.

Abu Ali ibn Sino (980–1037, buxorolik Ibn Sino (Avitsenna) 300 dan ortiq asar muallifidir. Ularning orasida «Tib qonunlari» va «Bilim kitobi», «Donishnoma», «Hayy ibn YAkzon», ayniqsa, keng dovuq qozongan). O'rta Osiyoning mashhur qomusiy allomasi va faylasufidir. Ibn Sino merosining tahlili uning ilmiy qiziqishlari doirasi benihoyat keng, u tom ma'noda qomusiy bilimlar egasi bo'lganidan dalolat beradi. Ibn Sino fanlarning tadqiqot ob'ektlariga ko'ra ajratishga asoslangan tasnifini taklif qilgan. Ibn Sino tabiat azaliy va abadiydir, uning qonunlari o'z-o'zidan o'zgarmaydi va inson ularni anglab etishga qodir, jon tana faoliyati bilan belgilanadi va uning individual umrboqiyliigi mumkin emas, degan fikrni ilgari surgan. O'sha davrda u shug'ullanmagan fanning o'zi bo'lmagan. Tibbiyot bilan bir qatorda, Ibn Sino falsafa, xususan bilish nazariyasini ham faol tadqiq etgan. Ibn Sino moddiy dunyo predmetlarini sezgilar manbai deb hisoblab, ularning ob'ektiv tabiatini tashqi moddiy dunyo in'ikosi sifatida yoritadi. Bundan tashqari, u sezgini materiyaning xossalaridan biri deb e'tirof etadi. Alloma sezgini materiyaning oliy shakllari bilan bog'laydi. Ibn Sino mavjud narsalarni tasniflar ekan, sezgi hayvonlar deb ataluvchi jismlarga xosligini qayd etadi⁹.

Ibn Sino neoplatoniklarning jon hissiy narsalarni tananing biron-bir a'zosisiz idrok etadi, degan ta'limotini asossiz deb hisoblaydi. «Qadimda ayrim olimlar (neoplatoniklar) jon hissiy idrok etiluvchi narsalarni hech qanday organlarsiz bevosita sezadi, deb faraz qilganlar. Muhitga kelsak, bu, masalan, ko'rish uchun muhit bo'lib xizmat qiluvchi havo, organlarga kelsak, bu ko'rish organi bo'lib xizmat qiluvchi ko'zdir. Biroq ular haqiqatdan uzoqdir, chunki hissiy idrok etish jonning o'zida bu organlarsiz yuz berganida, mazkur organlar behuda yaratilgan bo'lib chiqar, ulardan hech qanday naf bo'lmas edi», deb yozadi va so'zining davomida neoplatoniklarning qarashlari asossiz ekanligini ta'kidlab, haqiqat sezgilar tana a'zolariga muhtojligidadir degan xulosaga keladi.

4. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ilg'or falsafiy, ijtimoiy–siyosiy fikrlar.

⁹ Ибн Сино. Трактат о разделении существующих вещей. – Т.: «Шарк», 1983 г. с. 128.

2-MAVZU: FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: SHARQ FALSAFASI

5. XX–XXI asr o‘zbek falsafasi. XX asr o‘zbek falsafasi kam o‘rganilgan ziddiyatli davrni qamrab oladi. Chunki hozirgi davr tanqidchilarida sovet davrida falsafa bo‘lmagan, u davrda intellektual hayot o‘lgan va uzoq muddatga qotib qolgan, faqat ayrim hollarda ba‘zi mardlargina o‘zlarining g‘oya va qarashlarini ayta olganlar, degan fikr shakllangan. Biroq bu noto‘g‘ri. Chunki aynan XX asr boshlarida shakllangan jadidchilar harakati «jamiyatni ma‘rifat orqali yangi-lash» g‘oyasini ilgari surganlar, Behbudiy, A.Avloniy, A.Fitrat kabilar bir guruh yoshlarni chet elga o‘qishga yuborib, yangi avlod ziyolilarini tarbiyalashga o‘zlarining munosib hissasini qo‘shganlar. Shu bois, 1917 yilda bolsheviklar partiyasi g‘alaba qozonib, dunyo xaritasini katta Sovet Ittifoqi degan mamlakat egallab, unda partiyaviylik mafkurasi hukmronlik qilsada, O‘zbekistonda falsafiy fikr rivoji to‘xtab qolgan emas. Falsafaning fidoyilari yangi qaror topgan siyosiy tizimda yashash, ishlash va juda ko‘p sinovlardan o‘tishlari lozim bo‘ldi. Ayrim ziyolilar chet elga qochib ketdilar, ko‘pchilikda esa marksizm g‘oyasining haqiqiy insonparvarligiga qat‘iy ishonch shakllandi va shu bois, shu yo‘nalishda faoliyat olib bordilar. Biroq muayyan darajada sovet mafkurasi ta‘siri bo‘lsada, o‘tgan asrda o‘zbek falsafasi to‘rt yo‘nalishda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti falsafa fakulteti, O‘zbekiston Fanlar

Akademiyasining falsafa va huquq instituti, viloyatlar oliy o‘quv yurtlari falsafa bo‘limlari, O‘zbekiston Falsafa jamiyati va O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati faoliyatida namoyon bo‘ldi va olimlar o‘z falsafiy qarashlarida inson omilining ma‘naviy ruhini ifoda eta oldilar. Darhaqiqat, I.A.Karimov aytganlaridek, «Odam qancha chuqur bilimga ega bo‘lsa, dunyoni yaxshi bilsa, yon atrofda bo‘layotgan voqealarni to‘g‘ri anglay olsa, shundan keyingina unda g‘urur-iftixor bo‘ladi. Shundagina, juda murakkab, tahlikali davlarda ham ko‘pchilik unga murojaat qilib, maslahatlashadi. Maslahat kimdan so‘raladi – avvalombor, salohiyatli odamdan, katta falsafiy bilim va intellektual bilimga ega bo‘lgan kishidan.»¹⁰. SHunday ekan, O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tushunishda va ularning mohiyatini tushuntirishda yurtimiz faylasuf-olimlarining xizmati ham katta.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti falsafa fakulteti.

1922 yilda O‘rta Osiyo Davlat universiteti (hozirgi O‘zMU) ijtimoiy-gumanitar fanlar fakultetida falsafa fanidan o‘quv mashg‘ulotlarining olib borilishi, bu boradagi dastlabki qadam bo‘ldi. 1935 yilda birinchi «Dialektika va tarixiy materializm» kafedrasini tashkil qilingan. 1944 yilda Dialektika va tarixiy materializm kafedrasini tarkibidan «Falsafa» kafedrasini ajralib chiqqan. Aynan «Falsafa» kafedrasini negizida 1962 yilda «Ilmiy kommunizm», 1967 yilda «Tabiiy va gumanitar fakultetlar falsafa» kafedralari tashkil qilingan. Kafedralar tarkibi milliy kadrlar bilan boyib borgan. 1960-yillarda «Falsafa» kafedrasida 45 ta professor-o‘qituvchi faoliyat olib borgan. Bu davrda falsafa mutaxassisligi bo‘yicha universitetning o‘zida milliy kadrlar tayyorlash imkoniyati paydo bo‘lgan. Professor A.Ayupov, H.Umarov sa‘y-harakatlari bilan oliy ta‘lim vazirligida bu masalaga ijobiy yondashilib, universitetning tarix fakultetida 1963–1964-o‘quv yilidan boshlab «Falsafa» bo‘limi tashkil qilingan va unga H.Umarov rahbar etib tayinlangan. O‘quv jarayoning respublikaning yirik olimlari jalb qilinib, falsafa bo‘yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash faoliyati boshlangan. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi E.YU.YUsupov, professorlar M.V.Vohidov, I.R.Rahimovlar 1980-2005 yillarda O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy taraqqiyotining falsafiy muammolari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish bilan birga, darslik va o‘quv qo‘llanmalari yozganlar, yosh kadrlarni tayyorlashga o‘zlarining munosib hissasini qo‘shganlar. SHu yillar davomida J.Babaevning «Falsafa asoslari» o‘quv

¹⁰ Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. 14-jild. –T.: «O‘zbekiston», 2006 y. 108–109-b.

2-MAVZU: FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: SHARQ FALSAFASI

qo‘llanmasi, E.YUsupovning tahririda «Falsafa» (1985) darsligi, I Raximovning «Mantiq fanidan seminar mashg‘ulotlari» (1984) o‘quv qo‘llanmalari nashr qilingan.

Bu esa o‘sha davrda falsafa fanining yanada chuqur va keng o‘rganilishi yo‘lidagi dadil qadam bo‘ldi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.:“O‘zbekiston”, 2014. 24 b
2. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947sonli Farmoni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
5. Karimov I.A. Asarlar to‘plami. 1-24 jildlar.- T.: O‘zbekiston 1996-2016.
6. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. 2 nashr –T.:Ma’naviyat, 2016 176-b.
7. Falsafa. Axmedova M. Tahriri ostida. – T.: O‘FMJ, 2006. 339 b.
8. Shermuxamedova N.A. Falsafa. – T.: Noshir, 2012. 1214 b.
9. Falsafa asoslari. Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: «SHarq», 2005 y.

**3-MAVZU. FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: G'ARB
FALSAFASI**

**3-MAVZU. FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI:
G'ARB FALSAFASI**

REJA:

1. Qadimgi Yunon falsafasining jahon falsafasi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi (Milet maktabi, Suqrot, Aflotun, Arastu).
2. O'rta asr G'arb falsafasi rivojlanishining umumiy belgilari (apologetika va patristika, sxolastika. Nominalizm va realizm. Foma Akvinskiy ta'limoti).
3. G'arb Uyg'onish davri va falsafiy tafakkurning rivojlanish xususiyatlari.
4. Yangi va eng yangi davr falsafasining ustuvor yo'nalishlari (F.Bekon, R.Dekart, B.Spinoza, I.Kant, L.Feyyerbax, V.Gegel).
5. XX-XXI asr G'arb faylasuflari ijodida fan falsafasining rivoji.

Tayanch so'z va iboralar: Fales, Anaksimandr, Anaksimen matyeriya Gnostiklar. Patristika Sxolastika Realizm Eley falsafiy maktabi Suqrot Pifagor, Aflotun, Arastu

Qadimgi Yunoniston va Rim falsafasi. Qadimgi davr falsafasining yana bir silsilasi Yunoniston va Rimga tegishlidir. Bu davrdagi falsafiy qarashlar — antik davr falsafasi deb yuritiladi. Unda Milet falsafiy maktabi, Eley falsafiy maktabi, Suqrot, Pifagor, Aflotun, Arastu va boshqalarning falsafiy, tabiiy — ilmiy, ijtimoiy — ahloqiy ta'limotlari o'rganiladi.

Yunonistonda dastlabki falsafiy ta'limotlar yeramizdan avvalgi VII-VI asrlar o'rtasida Milet shahrida yuzaga kelgan va rivojlangan. Milet maktabi vakillari Fales, Anaksimandr, Anaksimenlardir. Uning asoschisi Fales (yeramizdan avvalgi 624 — 547 yillarda yashagan). U Yunon fani va falsafasining asoschisi bo'lib, o'z davrining etuk siyosiy arbobi, jo'g'rofi, faylasufi bo'lgan. Fales ta'limotiga ko'ra, tabiatdagi turli-tuman jism va hodisalar dastlabki ibtido — suvdan paydo bo'lgan va yana suvga aylanadi va bu moddiy birlik doimo o'zgarishda bo'ladi. Anaksimandr (Falesning shogirdi) yeramizdan avvalgi VII asr oxiri va VI o'rtalarida yashab ijod etgan. U «Tabiat haqida» asarini yozgan, biroq asar bizgacha yotib kelmagan. Fales olamning asosiga suvni qo'ygan bo'lsa, Anaksimandr dunyo — cheksiz, gazzimon apeyrondan iborat, issiqlik va sovuqlik, quruqlik va namlik apeyrondan ajralib chiqib, moddaning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini ta'minlaydi, deb hisoblagan. Uning ta'limotini zamondoshi, shogirdi Anaksimen davom ettirdi. Anaksimen (yeramizdan avvalgi 588-525 yillar) havo — olamning asosi, deb bilgan. Uningcha, havoning quyuvlashishidan suv, yer, tosh kabi moddalar tashkil topgan, siyraklashishidan esa olov paydo bo'lgan.

Yana bir yunon faylasufi Gyeraklit (yeramizdan avvalgi 520-460 yillar) Kichik Osiyoning g'arbiy qirg'og'idagi Efes shahrida zargar oilasida dunyoga kelgan. U stixiyali dialektikaga asos solgan, olov — olamning asosi, deb bilgan. uning fikricha, olamda hamma narsa harakatda. «Oqar suvga bir soniyada ikki marta tushish mumkin emas, chunki suv har daqiqada yangilanib turadi». Olamda turg'unlik yo'q. Harakat butun tabiatga, barcha jism va hodisalarga xosdir. Abadiy harakat — abadiy o'zgarishdir. Harakat qarama-qarshilik asosida sodir bo'ladi. «Kurash hamma narsaning otasi, hamma narsaning podshosidir», degan ekan Gyeraklit. Bundan Gyeraklit kishilar o'rtasida urushlarni targ'ib qilgan ekan-da, deya xulosa chiqarish noto'g'ri. Gyeraklitning fikricha, doimiy o'zgarish, harakat va o'zaro qarama-qarshi tomonlarga o'tish — jismlar sifatining nisbiyligi bilan

3-MAVZU. FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: G'ARB FALSAFASI

bog'liq. Masalan, dengiz suvi inson iste'moli uchun yaroqsiz bo'lsa, baliqlar uchun ayni muddaodir. Gyeraklitning qarashlari falsafiy tafakkur rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Pifagor (yeramizdan avvalgi 580-500 yillar) Yunonistonning Samos orolida yashab o'tgan. u qadimgi Yunonistonda diniy-mafkuraviy falsafiy maktab, ya'ni pifagorchilikka asos solgan. Pifagor o'zining siyosiy qarashlari tufayli podsho Polikret bilan chiqisha olmagan va Samosni tark etib, janubiy Italiyaga ko'chib ketgan, o'sha yerda o'z uyushmasini tashkil etgan. Uningcha, dunyoni bilish jarayoni, avvalo, raqamlarni bilishdan boshlanishi kerak. Pifagorchilarning ta'limotiga ko'ra, olamning asosida modda ham, tabiat ham emas, balki ideallashtirilgan raqamlar yotadi; narsa va hodisalar aynan ana shu raqamlar mahsulidir. Pifagorchilar birinchi bo'lib Yunonistonda tabiatdagi narsa va hodisalarni izohlashda miqdor kategoriyasini ilgari suradi. Pifagor zodagonlar oilasiga mansub bo'lgani bois aristokratiyani himoya qilgan. U «tartib» to'g'risidagi ta'limotini yaratib, faqat aristokratlar o'rnatgan tartib ijtimoiy hayotda muhim rol o'ynaydi, degan. Uning fikricha, demokratiya bu tartibotning buzilishidir.

Eley falsafiy maktabi namoyandasi Ksenofan (yeramizdan avvalgi VI — V asr) shoir va faylasuf bo'lgan. U Kichik Osiyoda dunyoga kelgan. Ilm olish maqsadida Yunonistonga, janubiy Italiyaga sayohat qilib, umrining so'nggi yillarini Eley shahrida o'tkazgan. Tarixchi Diogen Layertskiyning yozishicha, Ksenofant «Tabiat haqida» asarining muallifidir. Afsuski, ushbu asarning yarmigina omon qolgan, xolos. u ko'pxudolikka hamda insonlarga xos sifatlarni hayvonlarga, o'simlik dunyosiga daxldor deb biluvchi ta'limotga qarshi chiqib, mifologiyani rad etishga harakat qilgan. uning falsafiy ta'limotiga ko'ra, tabiat - o'zgarmas va harakatsizdir, «Hamma narsa yerdan unib chiqadi va pirovardida yana yerga qaytadi». Biz hammamiz yerdan tug'ilganmiz va yerga aylanamiz». Ksenofan qadimgi yunon faylasuflaridan birinchi bo'lib, bilishning imkoniyati va chegarasi haqida fikr yuritgan. Bu qadimgi yunon gnoseologiyasining rivojiga turtki bo'ldi.

Ksenofant ilgari surgan g'oyalar uning shogirdi Eley falsafiy maktabining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri, yeramizdan avvalgi 504 yili tug'ilgan Parmenid tomonidan rivojlantirilgan. Eley falsafiy maktabining namoyandalaridan biri Parmenidning shogirdi va do'sti Zenon (490-430 yillar) o'z ustozining ta'limotini himoya qildi va uni rivojlantirdi.

Qadimgi Yunon madaniyatida s sofistlar falsafasi katta o'rin tutadi. Sofistlar antropologiya (inson haqidagi fan) va gnoseologiya (bilish to'g'risidagi fan) muammolari bilan shug'ullangan. Sofistlar yangi kasblarning mohir ustalari, ya'ni o'qituvchilar, diplomatlar, notiqalar, sud mahkamalarida ishlovchi mutaxassislardan iborat bo'lib, haqiqat, osoyishtalik, adolat o'rnatishga xizmat qilgan. ularning ta'limoti Suqrot falsafasiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan.

Suqrot (yeramizdan oldingi 469-399 yillar.) (asli — Sokrat) — qadimgi Yunon faylasufi. «Afinaning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etgan, yoshlar tarbiyasi bilan shug'ullangan, hurfikrli inson, kambag'aldan chiqqan, tosh yo'nuvchining o'g'li, o'ta bilimdon kishi sifatida mashhur bo'lgan. Uning hayoti fojiali tugagani to'g'risidagi misol falsafiy afsonaga aylanib ketgan. O'z davrida Afinadagi hukmron tuzum tartib-qoidaloriga qarshi chiqib, yangi fikrlarni ilgari surgani uchun ruhoniylar uni dahriylikda hamda yoshlarni axloqan buzishda ayblaganlar. Unga shunchaki ayb emas, siyosiy ayb qo'yilgan. Garchand qutilish imkoni bo'lsa-da, qonun va jamiyat tartiblarini nihoyatda qattiq hurmat qilganligi bois, u jazodan qochishni istamagan va bir qadah zahar ichib o'lgan. Suqrot va uning tarafdorlari jamiyat qonunlariga, ular qanday bo'lishidan qat'i nazar, so'zsiz itoat etishni targ'ib etganlari g'oyatda ibratlidir. Holbuki, Suqrot va uning shogirdlari Afinada amal qilgan qonunlarni noto'g'ri va adolatsiz deb hisoblagan hamda ularni qattiq tanqid qilgan, ammo, shunday bo'lsa-da, ularga bo'ysungan. Shu ma'noda, Suqrot o'zini aybdor deb

3-MAVZU. FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: G'ARB FALSAFASI

topgan sud hukmiga itoat etgan va o'zini uning ixtiyoriga topshirgan. «Aflotun mening do'stim, ammo qonun do'stlikdan ustun turadi» degan hikmatli ibora o'sha davr ma'naviyatining yaqqol ifodasidir.

Suqrot o'z ta'limotini og'zaki ravishda ko'cha-ko'ya, maydonlarda, xiyobonlarda shogirdlari va izdoshlari bilan birga shakllantirgan va xalq ongiga singdirishga harakat qilgan, lekin bironta ham asar yozmagan. Uning falsafiy, axloqiy ta'limotlari mohiyatini shogirdlari Ksenofant, Aristofan va Aflotunlarning asarlaridan bilib olishimiz mumkin. Ksenofant «Suqrot haqida esdaliklar» asarida o'z ustozini haqida iliq so'zlar aytib, uni olijanob, axloq-odob borasida haqqoniy fikr yuritgan inson sifatida ta'riflagan. Yoshlarning axloqini buzgan deb unga siyosiy ayb qo'yish — tuhmat ekanini alohida ta'kidlagan. Aflotun esa uni chuqur mulohazali, insonni ulug'lovchi donishmand, deya ta'riflagan, uning falsafiy qarashlarini o'z asarlarida Suqrot nomidan bayon etgan. Suqrotning fikricha, falsafaning markazida axloq masalalari turmog'i lozim. Jamiyatning ravnaqi, tinchlik va osoyishtaligi, farovon hayoti axloq va odobning ahvoriga bog'liq. Bu masalalar Sharq falsafasida ham katta o'rin tutganli bois xalqimiz, buyuk allomalarimiz Suqrot nomini benihoya hurmat bilan tilga olgan, uning axloq-odob haqidagi pand-nasihatlariga amal qilgan.

Suqrotning shogirdi Aflotun (asli — Platon) jahon falsafasi tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk allomadir. U nafaqat faylasuf olim, balki san'atkor, shoir va dramaturg bo'lgan, o'z g'oyalarini dialoglar tarzida bayon qilgan. Aflotun 428 yil 21 mayda Delos orolida tug'ilgan. O'zidan keyin 35 dan ziyod dialog shaklidagi asarlar yozib qoldirgan. Arastuning u haqdagi ma'lumotlarini birdan-bir to'g'ri dalil deb qarash mumkin. Chunki Arastu Aflotunning eng yaqin do'sti va shogirdi bo'lgan.

Aflotun «G'oyalar dunyosi va soyalar dunyosi» ta'limotining asoschisidir. Uningcha, g'oya haqiqiy borliq, biz biladigan va yashaydigan dunyo esa uning soyasidir. Haqiqiy o'zgarish va taraqqiyot g'oyalar dunyosiga xos, soyalar dunyosidagi harakat esa uning aksidir. G'oyalar dunyosining qonuniyatlarini hamma ham bilolmaydi. Ularni biladigan zotlar nihoyatda kam uchraydi, ular ulkan aql egasi bo'ladi va tarixda chuqur nom qoldiradi. Aksariyat kishilar esa, soyalar dunyosi bilan kifoyalanadi.

Aflotunning jamiyat va davlat to'g'risidagi ta'limoti uning dunyoqarashida markaziy o'rinlardan birini tashkil etadi. U faqat antik davr falsafasi — ontologiya va gnoseologiyaning klassigi bo'lib qolmay, mumtoz antik siyosiy nazariya va pedagogikaning bilimdoni ham bo'lgan. Aflotun ijtimoiy-siyosiy masalalarga doir «Davlat», «Qonunlar», «Siyosat» va «Kritiy» nomli asarlar yozib qoldirgan. «Davlat» asarida jamiyat haqida, uning ideal siyosiy tuzumi to'g'risidagi qarashlarini markaziy ta'limoti — g'oyalar nazariyasi bilan uzviy bog'liq holda ilgari surgan. Uning fikricha, davlatning to'rtta shakli mavjud: teokratiya; oligarxiya; demokratiya; tiraniya. Aflotunning ideal davlat to'g'risidagi orzulari negizida adolat g'oyasi yotadi. Aflotun aytganidek, jamiyat barcha a'zolarining odil jamiyatdagi qonunlarga bo'ysunishi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy garovidir.

Aflotunning shogirdi va safdoshi Arastu (384 — 322 yillar) (asli — Aristotel) qadimgi Yunonistonning buyuk faylasufi, o'zining betakror, jahonni lol qoldirgan ilmiy myerosi bilan mashhurdir. O'n etti yoshida o'z ilmini oshirish maqsadida Afinaga kelib, Aflotun asos solgan akademiya o'qishga kirgan va 20 yil davomida (Aflotunning o'limiga qadar) shu yerda tahsil olgan. Keyinchalik Makedoniya podshosi Filippning II taklifiga binoan, uning o'g'li Aleksandrda 3 yil muntazam ustozlik qilgan. Binobarin, keyinchalik dunyoni zabt etib, jahongirlik maqomiga ko'tarilgan iskandarning kamolotida Arastuning xizmatlari beqiyos bo'lgan. Filippning o'limidan

3-MAVZU. FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: G'ARB FALSAFASI

keyin Aleksandr taxtga o'tirgach, Arastu Afinaga qaytib kelib, 50 yoshlarida «Likkey» nomli maktab ochgan. Ilmiy faoliyatining samarali bo'lishida, umuman, Yunonistondagi ilm-fan rivojida Aleksandr tomonidan ko'rsatilgan himmat va rag'batlar muhim ahamiyat kasb etgan. Iskandar vafotidan keyin unga qarshi kuchlar bosh ko'tarib, Arastuni dahriylikda ayblashgan va sudga tortishgan. Suddan oldin Evbey oroliga ko'chib ketgan Arastu ko'p o'tmay o'sha yerda vafot etgan.

Arastu zabardast olim bo'lib, mantiq, psixologiya, falsafa, axloq, notiqlik san'ati, tabiiy fanlar bo'yicha o'lmas, bebaho asarlar yozib qoldirgan. Uning barcha asarlari borliqni o'rganishga qartilgan. Mantiqqa oid asarlarining barchasini «Organon» («Qurol») nomli asariga jamlagan. Faylasuf barcha fanlarni ikki turga — nazariy va amaliy fanlarga bo'lgan. Amaliy fanlar shogirdlarga yo'l-yo'riq ko'rsatishga, biror bir foydali ishni amalga oshirishga yo'naltirilgan. U nazariy fanlarni uch qismga - falsafa (metafizika), matematika va fizikaga ajratgan.

Faylasuf olamdagi narsa va hodisalar to'rtta sababga ega. Bular — moddiy sabab, ya'ni modda (materiya); shakliy sabab yoki shakl; yaratuvchi sabab; pirovard sabab yoki maqsad sabablardir. Yaratuvchi sabab, Arastu talqinicha, harakat manbaidir. Masalan, ota va ona bolaning ulg'ayishi sababchisidir. Arastu pirovard sabab (maqsad sabab) vositasida insonga xos bo'lgan maqsadni tabiat hodisalariga ham tatbiq etmoqchi bo'lgan. Harakat olam singari abadiydir. Ayni paytda, olam o'zining abadiy sababi, ya'ni harakatlantiruvchi kuchiga ega.

Arastuning jamiyat va davlat to'g'risidagi ta'limoti «Davlat», «Siyosat» kabi asarlarida bayon etilgan. Uning fikricha, davlat boshqaruvi jamiyatning yerkin va farovon hayoti uchun xizmat qilishi lozim. Baxtli hayot mazmuni faqat moddiy mo'l-ko'lhilik bilan belgilanmaydi, balki syeroblik ma'naviy boylik bilan uyg'un bo'lgandagina, jamiyat baxtli hayot kechiradi. Davlatning boyligi, asosan, o'rtacha mulkka ega bo'lgan fuqarolarning mehnati bilan ta'minlanadi. Arastuning bu boradagi qarashlari bugungi kunda Vatanimizda kichik va o'rta biznes sohasini rivojlantirish yo'lida olib borilayotgan islohotlar mohiyatiga juda hamohangdir.

Yunon falsafasida Demokritning qarashlari ham muhim o'rin tutadi. U haqiqiy borliq — moddiy dunyo, abadiy va poyonsiz, cheksiz-chegarasiz reallikdir, olam mayda moddiy zarrachalardan, ya'ni atomlardan va bo'shliqdan iborat deya ta'lim byeradi. Atomlar va bo'shliq o'zaro yaxlit abadiy ibtidodir. Atomlar — bo'linmas va o'zgarimas, sifat jihatdan bir xil, uning miqdori shakli singari behisobdir. Harakat, degan edi Demokrit, atomlardan iborat moddaning abadiy, tabiiy holatidir. Demokrit tasodifiyatni inkor etgan. U «na tabiatda na jamiyatda xech bir narsa tasodifan paydo bo'lmaydi», deb yozgan. Demokritning falsafiy qarashlarida axloqiy ta'limot muhim o'rin tutadi. Uning bu boradagi qarashlari siyosiy qarashlari bilan uzviy bog'liqdir. Yaxshi boshqarilayotgan davlat — buyuk qo'rg'ondir. Davlat manfaatlari qolgan barcha narsalardan ustun turmog'i lozim.

Me'yor, deydi faylasuf, axloqning tabiat insonlarga in'om etgan kuch va qobiliyatga mos kelishadadir. Donolik uchta hosil keltiradi: yaxshi fikrlash; yaxshi so'zlash; yaxshi harakat qilish. Demokritning axloqiy qarashlari o'z davridagi amaliy ma'naviy munosabatlarning umumlashmasidir. Uning ta'limoti bugungi kunda insonlarni axloq-odobga, diyonatga da'vat etadi.

Epikur (341-270 yillar) — qadimgi Yunon mutafakkiri. Demokrit ilgari surgan atomchilik ta'limotini yanada takomillashtirib, uni yuqori pog'onaga ko'targan va tegishli qarashlar bilan boyitgan faylasuf. Epikur ta'limoticha, olam — moddiy, abadiy va cheksiz. Atomlar — bo'linmas, olam — jism va bo'shliqdan iborat, deb yozgan edi u. Barcha jismlarni Epikur ikki guruhga bo'lgan. Birinchi guruhga jismlarni tashkil etuvchi atomlarni kiritgan bo'lsa, ikkinchi guruhga atomlarning birlashishidan tashkil topgan jismlarni kiritgan. Epikur ichki harakat qonuniyatini

3-MAVZU. FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: G'ARB FALSAFASI

kashf etib, Demokrit ilgari surgan atomchilik ta'limotiga ulkan hissa qo'shgan. Epikurning falsafiy-axloqiy ta'limoti o'z zamonasida ilg'or ahamiyatga ega bo'lgan. Rohatfarog'at, xursandchilik deganda, kayf-safo, maishat, shohona hayotni emas, balki jismoniy ezilish hamda ruhiy tashvishlardan xalos bo'lishni, ozodlikni tushunamiz, deydi Epikur. uning fikricha, davlat kishilarning o'zaro kelishuvi asosida tuzilishi lozim. Epikur ilgari surgan ijtimoiy kelishuv g'oyasi keyinchalik XVIII asr fransuz ma'rifatparvarlari hamda XX asr faylasuflari tomonidan davom ettirilgan.

Epikur ta'limotini rimlik Lukretsiy Kar (yeramizdan avvalgi 99-55 yillar) davom ettirgan. U «Narsalarning tabiati to'g'risida» nomli asari bilan mashhur bo'lgan. YAshashdan maqsad, deb yozgan Lukretsiy, baxtli hayot kechirishdan iboratdir. Jamiyat ham, xuddi tabiat singari, o'z qonunlariga ega hamda tabiat qonuniyatlariga tayangan holda rivoj topadi, deydi u. Uning falsafiy qarashlari o'z davri va o'rta asr falsafasiga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Uning fikricha, modda (materiya) — abadiy, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib, shaklini o'zgartirib yashash — uning xossasi. Olamdagi barcha narsalar ikkiga — oddiy va murakkab turga bo'linadi. Lukretsiy Kar atom harakatining uchta turini sanab o'tgan. Bular — narsaning og'irlikka ega bo'lgani uchun to'g'ri chiziqli harakati, narsaning o'zicha og'ish harakati, narsaga turtki bo'lgan asosga qaratilgan harakat. Lukretsiyning nazariyasi mohiyatan sodda bo'lsa-da, tabiatshunoslikka ulkan ta'sir ko'rsatgan.

Biz xorijiy Sharq va antik dunyo falsafasi haqida juda qisqa ma'lumot byerdik. Ularga mansub ayrim oqim va mashhur faylasuflar ta'limoti to'g'risida nihoyatda muxtasar fikr yuritdik. Aslida bu mavzular o'ta keng qamrovli bo'lib, ularning mohiyatiga etib borish uchun ko'p va xo'bo' o'qib-o'rganishga to'g'ri keladi. Ishonchimiz komilki, siz, aziz talabalar ularni mustaqil o'qib-o'rganish jarayonida to'liq o'zlashtirib olasiz. Yevropada Qadimgi Yunon va Rimdan o'rta asrlar falsafasigacha, ya'ni miloddan ilgarigi 1 asrdan milodning XIV asrigacha, bir yarim ming yil davomida bir qancha oqimlar paydo bo'ldi va amal qildi. Bu davr falsafasida ikki xil jarayonni ko'rish mumkin: 1. Xiristianlikning shakllanib davlat dini va mafkurasiga aylanishi; 2. O'rta asrlarga kelib inkvizitsiyaning ustivor yo'nalishga aylanishi. Gnostika, apologetika, patristika, realizm, nominalizm va boshqa oqimlar o'sha davr falsafasining qiyofasini belgilaydi.

Gnostiklar. Bu davr falsafasida o'z o'rniga ega bo'lgan gnostitsizm eramizning 150 yillarida o'zining yuksak ravnaqiga yerishadi. Ular shunday falsafiy ta'limot yaratdilarki, ularning fikricha Xudo ruh sifatida yovuzlikda mutlaqo sof, inson esa o'z tabiatinnig ruhiy jihati bilan xudoga moslashgan. Bu masalada gnostitsizm faylasuflari xristianlikni yunon falsafasi bilan birlashtirishga harakat qildilar. Agar bu urinishda gnostitsizm g'alaba qilsa, xristianlik qadimgi dunyoning navbatdagi falsafiy dini bo'lib qolar edi va shunday bo'ldi ham. 354 yilda Pompey sobori xristianlikni Rim imperiyasining asosiy dini deb e'lon qildi.

Dualizm — gnostitsizmning asosiy yo'nalishi, bu oqim tarafdorlari moddiy va ruhiy dunyo o'rtasida mustahkam chegara mavjud deb ta'kidlaydilar. Ular ta'limotida matyeriya hamma vaqt yovuzlik timsolidir. Bundan ular xudo hech mahal moddiy dunyoni yaratishi mumkin emas, deb hisoblaydilar. Gnostiklar tomonidan e'lon qilingan darveshlik (asketizm) o'rta asrlarda monaxchilikning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Apologetlar xristianlik tarixida I va III asrlarda vujudga keldi.

«Patristika»- so'zi «ota» («padre») so'zidan kelib chiqqan. Bu nom bilan odatda G'arbda episkoplarni ularga hurmat sifatida ataganlar. Sharqda mashhur bo'lgan chyerkov otalaridan biri Ioan

3-MAVZU. FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: G'ARB FALSAFASI

Zlatoust (347-407) edi. Uning 640ta da'vatlaridan ko'pchiligi avliyo Pavel nomalarining sharhi edi. Uning asarlarida injilni amaliy qo'llash sof ahloqiy masalalar bilan qorishib ketgan.

G'arbda eng yirik cherkov otalaridan biri «Pok» degan unvonga sazovor bo'lgan Avreliy Avgustin (354-430) bo'lib hisoblanadi. U faylasuf va islohiyotchi bo'lgan. Avgustin o'z hayotini episkoplikka, tadqiqotchilikka, adabiyotga bag'ishlaydi. U 100 ga yaqin kitob, 500 ta da'vat va 200 ga yaqin nomalar yozadi. Uning o'sha davrdagi eng mashhur asarlaridan biri «Sig'inish» 401 yilda yozilgan. Bu asarda u o'zining xristianlikka bo'lgan hayotini yozadi. Muqaddas kitob «Bibliya» oyatlari ramziy — timsoliy bayon qilinadi. U mushriklik falsafasini qoralaydi. Uningcha, bu falsafa insonni xristian dinichalik hech mahal haqiqatga olib kelmaydi. Avgustin bahs shaklida boshqa (dialog) falsafiy asarlar yozgan.

«Sxolastika»- so'zi yunoncha «shkola»dan («shola») olingan bo'lib, «o'qish joyi», «maktab» ma'nolarini anglatadi. Buyuk Karl saroyida o'qituvchilik qilganlarni, yoki umuman saroy maktabidagi o'qituvchilarni sxolastlar deb ataganlar. Shuningdek, dinni o'rganishda falsafani tatbiq qilgan o'rta asr olimlarini ham sxolastlar deb ataganlar. Sxolastikani ma'lum darajada ilohiyotni aqlga moslashtirish, dinni tafakkur yordamida quvvatlashga bo'lgan intilish deb ham baholash mumkin. O'sha davrda ilohiyotni muqaddas kitoblar aqidalari asosida emas, balki falsafiy nuqtai nazardan tadqiq qilish toqozo qilinardi. Sxolastlarning maqsadi e'tiqod aqlga muvofiqmi degan savolga javob berish bo'lgan.

Realizm. Uning yirik vakillaridan biri Angelm Ketterberyskiy (1038-1109) dir. U Shimoliy Italiyada tug'ilgan, 1093 yilda Ketterberysk shahrining arxiepiskopi etib tayinlanadi. Angelm o'zining ikki asari bilan mashhur.

Birinchisi «Monopoliya» — xudoning borligini sabab oqibat munosabatlari tizimida isbot qilish. Bu isbot — kosmologik isbotning shakli sifatida shunday talqin qilinadi: inson hayotda ko'p ne'matlardan foydalanadi. Bu ne'matlar esa eng oliy ilohiy ne'matlarning aksidir. Ular orqali hamma narsalar mavjuddir. Uzluksiz tanazzulni tasavvur qilib bo'lmagani sababli, hamma narsaning bir sababchisi bo'lishi kyerakki, biz uni xudo deb ataymiz.

Britaniyada tug'ilgan P. Abelyar (1079-1142) juda yoshligidanoq o'z bilimi bilan mashhur edi. Abelyar — mo'tadil realistdir. Uning ta'kidlashicha, reallik yoki univversaliy dastlab xudo aqlida mavjuddir, undan keyin narsalarning o'zida mavjuddir va nihoyat, odamlarning ongida mavjuddir. Abelyar «Men e'tiqod qilish uchun bilaman» degan g'oyani ilgari surgan. Ya'ni bilmaydigan, bilimsiz kishidan ko'ra, din va uning asosiy tamoyillarini yaxshi o'rgangan kishi abzal. Bunday kishi aqidaparast emas, balki o'zi bilgan narsaning qadrini biladigan insondir.

Foma Akvinskiy (1224-1292) mo'tadil realizmning yana bir yirik vakili bo'lib hisoblanadi. Foma o'sha davr uchun Arastu natur falsafasini ilohiyot bilan birlashtirishga harakat qilgan. Bunda u mo'tadil realizm pozitsiyasida turgan va sxolastikaning eng yirik namoyandasi bo'lgan. Uning fikricha, natural falsafada tafakkur va Arastu mantiqiy ta'limoti yordamida xudo mavjudligi haqidagi haqiqatga yerishishi mumkin.

Fomaning «Ilohiy summalar» asari 3000 maqoladan iborat bo'lib, 600 masalani yoritishga bag'ishlangan. U ilohiyotning sistemali bayon qilinishi vazifasini bajaradi. «Ilohiy summalar»ning birinchi qismi xudoning mavjudligi va borlig'i masalasida bahs yuritadi. Ikkinchi qismi «xudoga qarab harakat» haqida hikoya qiladi.

Akvinskiy ta'limoticha, dunyo erarxik narvondan iboratdir. Uning eng quyi qismida yer va 4 elementdan iborat bo'lgan hamma narsalar mavjuddir. Odam ruhi xudo va moddiy dunyo o'rtasidagi joyni egallaydi. Dunyoviy jamiyat tepasida esa, papa boshchiligidagi ilohiy davlat turadi. Yerdan uzoqlashgan sari u ilohiylashib boradi. Sayyoramiz dunyosinning tepasida

3-MAVZU. FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: G'ARB FALSAFASI

farishtalar dunyosi mavjuddir. Butun koinot tuzilishi uch shaxsni birlashtirgan yagona xudo tomonidan boshqarilib turadi. Akvinskiy ta'limotidan keyinchalik «tomizm» oqimi shakllandi va u «neotomizm» tarzida g'arbda hozir ham saqlanib qolgan.

O'sha davrning mashhur faylasuflaridan biri Vilyam Okkamdir (1309-1349). Uning fikricha, ilohiyot aqidalari ratsional (aql) yo'l bilan isbotlanishi mumkin emas. Ular faqat Muqaddas kitob nufuzi tufayligina qabul qilinishi mumkin. Bu qarash e'tiqod va tafakkurni birbiridan ajratardi, ularni omuxta qilishni qoralardi. Okkam, shuningdek, univyersaliylarning ob'ektiv mavjudligini inkor qiladi. Uningcha, univyersaliylar tafakkur tushunchalari uchun faqat ismdirlar. Bu tushunchalarni odam o'z ongida yaratgan. Uningcha, alohida odam insonga nisbatan realroq va muhimroqdir.

Rodjyer Bekon (1214-1292) ham Okkam mansub bo'lgan oqim vakillaridandir. U o'z hayotini ilmiy tajribalarga bag'ishlagan. Ular yordamida u tajribaviy fanga asos soldi. Bunday metodni XYII asrda Frensis Bekon ishlab chiqdi. Haqiqatni topishda tabiatni tajribaviy o'rganish metodini qo'llash nominalistlar qarashlariga to'liq mos kelardi. Nominalistlar va realistlar o'rtasidagi qarama-qarshilik o'rta asr sxolastikasining muhim muammolaridan biri edi. Butun o'rta asrlarda sxolastikaning bu ikki oqimi o'rtasida kurash ketgan. Sxolastikaning avjga chiqqan davri — 1150 va 1300 yillarda — Foma Akviniyskiyning mo''tadil realizmi nominalizm ustidan g'alaba qozondi. Lekin 1300 yildan keyin chyerkov ilohiyotchilari tafakkurida nominalizm yuqori mavqeni egallay boshladi. Bu ko'p jihatdan uyg'onish davri falsafasiga ta'sir ko'rsatdi. SHuningdek, haqiqatga yerishishning tajribaviy metodini (ratsionalizm) vujudga kelishida katta xizmat qildi.

Yevropa falsafasining rivojida univyersitetlar muhim o'rin tutadi. Ular bilim va ma'rifatning o'chog'i sifatida 1200 yillarda vujudga keldi. 1400 yillarga kelib, Yevropada 23 ta univyersitet mavjud bo'lgan. Univyersitet dasturining juda katta qismini sxolastika bilan shug'ullanish tashkil etar edi. Univyersitetlarning vujudga kelishining sababi mashhur olimlarning faoliyatidir. XII asrda Ityeriy Rim huquqining buyuk tadqiqotchisi sifatida mashhur bo'ladi va talabalar uni eshitish uchun Bolonya shahriga oqib kela boshlaydilar. Natijada Bolonya shahri univyersiteti muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata boshlaydi. Abelyarning o'qituvchi sifatidagi shuhrati ko'p jihatdan Parij univyersitetining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Univyersitetlar, shuningdek, talabalarining chiqishlari natijasida ham vujudga kelgan. Masalan, XII asrda Angliya va Fransiya qirollari orasidagi nizo oqibatida, Angliya talabalariga yaxshi munosabat bildirilmaganligi ularning Parijdan Angliyaning Oksford shahriga ko'chib o'tishlariga sabab bo'ldi. Buning natijasida mashhur Oksford univyersiteti tashkil topdi. Kembridj univyersiteti esa Oksford universiteti talabalarining qo'zg'olon ko'tarishi va 1209 yilda ularning Oksforddan Kembridjga ko'chib o'tishlari natijasida vujudga keldi.

Uyg'onish davri falsafasi. Bu insoniyat tarixida yuz bergan eng buyuk ilg'or taraqqiyot davrlaridan biri edi. Uyg'onish davrida hayotning hamma tarmog'ida muhim, ilg'or, hatto aytish mumkinki, inqilobiy o'zgarishlar yuz berayotgan edi.

Uyg'onish davrida Yevropada falsafaning rivojlanishiga katta hissa qo'shganlardan biri nemis Nikolay Kuzanskiydir (1401-1464). Kuzanskiy ta'limoticha, xudo hamma narsalarda mavjud, shuningdek, hamma narsalar xudoda mavjud. Eng oliy haqiqatlarni bilish, sxolastik fikrlash bilan emas, balki, tajriba asosida amalga oshadi.

U xudoni borliqning oliy va yagona asosi deb hisoblaydi. Bu masalada Kuzanskiy shunday muhim kosmologik fikrlarni bayon qiladiki, hatto ma'lum darajada uni Kopyernik va Brunolarning o'tmishdoshi deb hisoblash mumkin. Ikkinchi masala esa bilish nazariyasiga nisbatan uning

3-MAVZU. FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: G'ARB FALSAFASI

butunlay yangicha yondoshishidir. Ushbu masalalar bo'yicha Kuzanskiy tomonidan ilgari surilgan g'oyalar ayrim hollarda XVIII asr oxiri va XIX asr boshidagi nemis filosoflari tomonidan bayon qilingan fikrlarning debochasi edi.

Filosofiya va fan rivojlanishiga eng katta hissa qo'shgan uyg'onish davrining mutafakkirlaridan biri polyak olimi Nikolay Kopernikdir (1473-1543). Ma'lumki, fan tarixida Kopyernik o'zining fanda tub o'zgarish yasagan geliotsentrik ta'limoti bilan mashhur bo'lgan. Uning ta'limoticha, insonlar tomonidan kuzatiladigan quyosh va yulduzlarning harakatlari aslida Yerning o'z o'qi atrofida kundalik aylanishidan va quyosh atrofida yillik aylanishidan iborat. Bizning planetamizning markazi Yer emas, quyoshdir. Kopernikning buyuk kashfiyoti dunyoga teologik qarashga zarba byerib, tabiatshunoslikda to'ntarish yasadi. Bu kashfiyot Bibliyaning dunyo tuzilishi haqidagi va o'zgarimas deb tanilgan ta'limotiga zarba byerdi. Agar yer olamning markazi emas, balki Quyosh atrofida aylanuvchi planetalarning biri bo'lsa, unda dunyoni, koinotni maqsadga muvofiq xudo tomonidan odamlar uchun yaratilganligi haqidagi talimot asossiz bo'lib qolardi.

Bruno geliotsentrik nazariyani himoya qilish va targ'ib qilish bilan cheklanib qolmaydi. U tabiatshunoslik tajribalarini hisobga olib, bir necha muhim nazariy xulosalar qildiki, ular filosofiyani yana ham boyitdilar. Bruno ta'limoticha, haqiqiy filosofiya ilmiy tajribaga suyanishi kyerak, sxolastikani tugatish kyerak. uning ta'limoticha, koinot yagona, moddiy, cheksiz va abadiy. Juda ko'p dunyolar bizning quyosh sistemasidan tashqarida mavjuddir. Biz ko'rib turgan narsalar koinotning eng kichik bir qismidir. Yulduzlar — bu boshqa planeta sistemalarining quyoshi. Yer — cheksiz dunyoning kichik bir zarrasi. Demak, Bruno tabiiy — ilmiy qarashlarida Kopyernikdan ilgarilab ketib, koinotning cheksizligi haqidagi fikrni aytadi, Kopyernik esa koinotni chekli deb hisoblagan edi. Bruno Kopyernik ta'limotini quyosh sistemasining tuzilishi haqidagi yangi qarashlar bilan boyitdi.

Uyg'onish davrining natijasi sifatida namoyon bo'lgan G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi tub ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar Nidyerlandiyada XYI asrning 60-70 yillarida, Angliyada XYII asrning 40-50 - yillarida bo'lib o'tdi. Bu davrga kelib, Yevropada alohida millatlarning shakllanishi yuz byerdi, milliy davlatlar paydo bo'ldi. Endi monarxiya tuzumi jamiyatning ilg'or tabaqalari nazarida faqat tarixan o'z umrini o'tab qolmasdan, balki g'ayritabiiy, g'ayriaqliy bo'lib ko'rina boshladi. O'sha davrning ideologlari ilgari tan olinmagan insonning tabiiy huquqlari masalasini o'rta qo'yidilar. Ular ijtimoiy tartiblar inson tabiatiga mos kelishini talab qila boshladilar. Bor-yo'g'i 50-60 yil ilgari inkvizitorlar Jordano Brunoni yoqib yuborganlarida lom-mim demagan YYevropa, endi o'zining hayotida markaziy o'rinni inson huquqlari egallashi kerakligini his eta boshladi. Hatto xudoning nomidan bo'lsa-da, inson umriga zomin bo'lishga hech kimning haqqi yo'qligi, odamzodning yashash, fikr yuritish erkinligining tabiiyligi anglab olina boshladi. Albatta, bungacha ikvizitsiya bir necha asrlar bu hududni aqidaparstlik changalida ushlab turgan, ne-ne aqlli kishilarni o'z domiga tortib ulgurgan edi.

Ma'naviy uyg'onayotgan millat va hududda hech qachon aqidaparastlik o'z ta'sirini to'la — to'kis saqlab qola olmaydi. YYevropada ham xuddi shunday bo'ldi. Ma'nan kamolga etgan, milliy davlatchiligiga ega bo'lgan va endi ana shu mustaqil davlatlarini kamolga etishi uchun qarzdor ekanligini anglab olgan YYevropa millatlari o'zlarining komil insonlarini endi inkvizitsiyaning, aqidaparastlarning hukmiga topshirishga sira ham haqlari yo'q ekanligini angladilar.

Yevropada Rim imperiyasidan keyin bir necha asrlar o'tib, aynan ana shu davrda ilgarigi, butun mintaqa hayoti uchun xristianlik va uning xilma-xil oqimlari umumiy mafkura rolini o'tab kelgan davr tugadi. Endi diniy oqimlararo kurash, xristianlikning sofligini saqlashga urinishning

3-MAVZU. FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: G'ARB FALSAFASI

mutlaqlashtirilishi natijasida vujudga kelgan inkvizitsiya ham o'z davrini o'tab bo'ldi. Butun Yevropani boshqarib kelgan qon-qardosh va bir-biriga dushman qirollar davri ham o'tmishga aylana boshladi. Yevropa uyg'ondi. Ilm-fan sohasida chuqur o'zgarishlar ro'y byerdi. Odamlarning dunyoqarashi keskin o'zgara boshladi. Endilikda milliy davlatlarning har biri uchun muhim bo'lgan mafkuraning shakllanishi zaruriyatga aylanib qoldi. Albatta bunda biz sanab o'tgan omillar, ya'ni qirollik an'analari, xristianlik va uning oqimlari ta'siri, umumYevropaga xos xususiyatlar, Rim imperiyasi davrida bir oila bo'lib yashagan xalqlar o'rtasidagi hududiy va ma'naviy yaqinlik o'z ta'sirini o'tkazdi. Ammo, asosiysi, bu davrda milliy g'oyalar to'la-to'kis amalga oshishi uchun ijtimoiy sharoit etildi, italiya, ingliz, fransuz va boshqa xalqlar o'z davlatchilik an'analarini to'la-to'kis tikladilar. Bu davlatlarda shakllangan falsafiy maktablar faqat milliy qobiqqa o'ralib qolmadilar, balki umumYevropa va butun jahon taraqqiyotining umumbashariy muammolarini falsafiy jihatdan izohlash, ilmiy o'rganish va asoslashga harakat qila boshladilar. ushbu davr falsafasi ham oldingiga nisbatan katta qadam tashladi. Fanda qo'lga kiritilgan yutuqlarning falsafiy izohlanishi, kashf etilayotgan ilmiy usul va uslublarning falsafaga tadbiiq etilishi, falsafiy qonunlarni fanning turli sohalarida sinab ko'rinishi o'sha davr faylasuflari uchun odatiy holga aylandi. Bu tamoyillar esa milliy chegaralarni bilmaydigan, umuminsoniy qadriyatlar xususiyatiga egadir. Uyg'onish davri Yevropa fani va falsafasi ham insoniyat tarixida eng buyuk ko'tarilish davrlaridan biri bo'lib qoldi.

Ingliz falsafasi. O'sha davr falsafasining asosiy vakillaridan biri F. Bekon (1561-1626) yuqoridagi masala haqida shunday degan edi: «Moddiy dunyo, mamlakatlar, dengizlar, planeta juda keng bo'lgani holda insonlarning ma'naviy dunyosini eski chegaralar bilan o'rab qo'yilishi sharmandalikdan boshqa narsa emas» («Yangi Organon» kitobi). Bekon ingliz falsafasining o'rta asrlardagi taraqqiyotiga eng katta hissa qo'shgan olimlardan biridir. Uning ta'limoticha, fanning yangi binosini ko'rish uchun, to'g'ri fikrlashga o'rganish kyerak. Bekon ta'limoticha, tabiatni bilishda bir necha «idollar» insonga halaqit byeradi. Ular inson aqlini o'rab tashlaydi. Ular asosan to'rtta. Birinchisi urug' idollari, bular inson zotiga, butun odamlarga xosdir. Masalan, Bekon shunday deydi: «insonning aqli qiyshiq ko'zguga o'xshaydi. U narsalarning tabiati bilan o'z tabiatini aralastirib yuborib narsalarni qiyshiq, buzuq ko'rsatadi. Ikkinchisi, g'or idollari. Bu har bir odamning o'z spetsifik xususiyatlari natijasida yanglishishi. Ular fikrlash ufqining cheklanishidan tug'iladi. Bu narsa hamma narsani o'z nuqtai-nazari bilan ifodalash, o'zinnig tor doirasi bilan o'lchash natijasida vujudga keladi. Uchinchisi, maydon idollari, bo'lib, u ma'lum bo'lgan tasavvurlarga tayanish odati, noto'g'ri yoki noaniq tyermonologiyalarga tanqidiy yondoshmaslik oqibatida vujudga keladi. Bu masalaga Bekon juda ham katta ahamiyat byeradi. Masalan, u shuni ta'kidlaydiki, real borliqni ifodalamaydigan yoki uni noaniq, mavhum ifodalaydigan so'zlar soxta tushunchalarni tug'diradiki, ular tafakkurga teskari ta'sir qiladi. To'rtinchisi, teatr idollari: ular avtoritetlar fikriga ko'r-ko'rona yergashib qadimgilarning falsafiy sistemalarini davom ettiravyeradilar.

Bekon tomonidan sxolastikaga qarshi qaratilgan idollarning tanqidi katta metotologik ahamiyatga egadir. Bekon bilish nazariyasining birinchi bosqichi esa tajribadir, ikkinchi bosqichi aqlidir. U tajriba ma'lumotlarini ratsional qayta ishlaydi va umumlashtiradi. Bekon ta'limoticha, olim chumoliga o'xshab faqat yig'ish va yig'ilganlar bilan kifoyalanmasligi kyerak, o'rgimchakka o'xshab hayotdan ajrab, faqat o'zining shaxsiy aqli bilan o'zining makrli falsafasini to'qimasligi kyerak. Bekon ta'limoticha, olim asalariga o'xshab gullardan olib keyin ularni asalga aylantirishi lozim. Bekon o'zining ijtimoiy-siyosiy qarashlari bo'yicha kuchli markazlashgan davlat tarafdori bo'lgan. Jamiyat hayotida asosiy rolni Bekon fikricha san'at va savdo rivojlanishi o'ynaydi.

3-MAVZU. FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: G'ARB FALSAFASI

Uning ta'limotini Tomas Gobbs (1588-1679) takomillashtirgan va rivojlashtirgan. Gobbs moddiylikni asosiy substansiya deb hisoblagan, matyeriyaning abadiyligi, harakatning esa mexanistik tarzda amalga oshirishining tarafdori bo'lgan olimdir. U matematik sifatida borliqning namoyon bo'lishini geometriya fani nuqtai nazaridan tushuntirgan. Bilish nazariyasida Gobbs ko'proq empirik jihatlariga o'z e'tiborini qaratgan, sezgilarning bilimlar hosil qilish jarayonidagi ahamiyatini tahlil qilgan. Jamiyat taraqqiyoti va unda davlatning o'rni hamda kelib chiqishi masalasida Gobbs ko'proq xususiy mulkchilikka asoslanadi. Shu bilan birga uning fikricha davlatning monarxiya shakli maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi.

Ingliz falsafasida Jon Lokk (1632-1704) qarashlari alohida o'rin tutadi. U tajribani bilishning asosiy manbai deb hisoblaydi. Bunda ichki va tashqi tajriba ajratib ko'rsatiladi. 1690 yilda Lokk tomonidan yozilgan «Inson aqli haqida tajriba» nomli asarida R. Dekartning «tug'ma g'oyalar» to'g'risidagi qarashlariga qarshi chiqadi. Lokkning fikricha bilish tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlardan iborat bo'lib, haqiqatlar esa kishilarning bu jarayonda hosil qilgan tushunchalari, g'oyalari va xulosalarining olamga mos kelishidan iboratdir.

Ijtimoiy-siyosiy qarashlariga ko'ra Lokk davlatning o'ziga xos quyidagi tamoyillarini ta'riflaydi: 1. Hokimiyatni qonun chiqaruvchi tizimi; 2. Hokimiyatning ijro etuvchi organlari; 3. Ittifoq fedyerativ hokimiyati. Ana shu tamoyillar uyg'un bo'lganida davlatning faoliyati samarali amalga oshadi. Fransuz falsafasi. O'rta asrlardagi Yevropa falsafasi taraqqiyotida Fransiyada shakllangan milliy falsafa maktabi nihoyatda katta o'rin tutadi. Bu borada R. Dekart, Lametri, Gelvetsiy, Didro, Golbax va Russolarning qarashlari nihoyatda muhim.

R. Dekart (1596-1650) falsafasida dualizm asosiy o'rin tutadi. Uning fikricha matyeriya va ruh borliqning asosida yotadi va xudoga bo'ysunadi. Olam, Dekart fikricha cheksiz va abadiy, u inson tafakkuriga bog'liq bo'lmagan holda rivojlanadi va takomillashadi. R. Dekartning «Men fikr qilayapman, demak men mavjudman» degan fikri faylasuflar orasida mashhur bo'lib hisoblanadi. Bilishda fikr va sezgilarning ahamiyatini nihoyatda ortiqcha deb bilgan R. Dekart ratsionalizm ta'limotining asoschisi bo'lib hisoblanadi. Uningcha insonning fikrlashi va mulohaza qilishi shubha ostiga olib bo'lmaydigan jarayondir, undan boshqa hamma narsani tekshirish shubha ostiga olish mumkin. Dekart o'sha zamonning eng buyuk matematiklaridan biri bo'lib, o'z davrida aniq fanlar sohasida katta ahamiyat kasb etgan deduksiya usulini falsafaga kiritgan olim bo'lib hisoblanadi.

Lametri va Gelvetsiy, Didro va Golbax o'z davrida fransuz hayotida nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lgan milliy davlatchilik, inson erkinligi va haq-huquqlari muammolariga alohida e'tibor qaratganlar. Fransuz millatini ma'naviy jihatdan yuksaklikka ko'tarish va ma'rifatli xalqqa aylantirish uchun o'z asarlarida ana shu qadriyatlariga yerishishning yo'llari va usullarini ko'satib byerganlar.

Ular tomonidan yaratilgan ko'p tomlik «Ensiklopediya» o'sha zamonning ma'naviy muammolarini ma'rifatli yo'l bilan hal qilish usullari va imkoniyatlari ko'rsatib byerilgan «YYevropa qomusi» darajasiga ko'tarilgan edi. Bu kitobni yaratishda boshqa ko'pgina ma'rifatparvar fransuz olim va mutaxassislari ham qatnashgan bo'lib, o'zining ahamiyati, muammolarining umuminsoniy nuqtai nazaridan echilishi, xalqchilligi va tilining fransuz millati hayot tarziga yaqinligi bilan ensiklopediya XVIII asr Yevropasining tengi yo'q kitobi edi. Aynan ana shu kitob mualliflari o'zlarining boshqa asarlari va faoliyatlari bilan 1789-1884 yillardagi Fransuz inqilobi qabul qilgan «Inson va grajdanlar huquqlar deklaratsiyasi»da ilgari surilgan umuminsoniy qadriyatlarni jamiyat taraqqiyotining eng ustivor ma'naviy mezonlariga aylantirdilar.

3-MAVZU. FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: G'ARB FALSAFASI

Nemis falsafasi. XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida Germaniya boshqa g'arbiy YEvropa mamlakatlariga nisbatan iqtisodiy va siyosiy jihatdan qoloq edi. Ammo fransuz inqilobining kuchli ta'siri ostida shunday falsafiy ta'limot vujudga keldiki, uning shakllanishida tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlarning rivoji asosiy o'rinni egalladi. Fizika va ximiya fanlari yutuqlarga yerishdi, tabiatni o'rganishga katta e'tibor byerila boshlandi. Matematika fanida yangi ixtirolar qilindi. Bu ixtiro va yutuqlar hamda insoniyat jamiyatining rivoji haqidagi nazariyalar borliqni o'rganishning uslubi va nazariyasi bo'lib xizmat qiladigan rivojlanish haqidagi g'oyalarni ishlab chiqishni tarixiy bir zaruriyat qilib qo'ydi. Mana shunday tarixiy sharoitlar taqazosi bilan XVIII asrning II yarmi va XIX asr boshlarida nemis falsafasi vujudga keldi.

Nemis falsafasining asoschilaridan biri Immanuel Kant (1724-1804) faqat mashhur faylasufgina bo'lib qolmasdan, yirik tabiatshunos olim hamdir. Kant tomonidan yaratilgan gaz holatidagi ulkan tumanlikdan quyosh sistemasining kelib chiqishi haqidagi nazariya hozirgi davrda ham astronomiya sohasidagi eng muhim ta'limotlardan biridir. Kantning tabiiy-ilmiy qarashlari tabiat hodisalarini metafizik ruhda tushuntiruvchi ta'limotlarga zarba byerdi. Kant o'z davri tabiatshunosligi yerishgan yutuqlarni faqat Koinot tuzilishi masalasiga emas, shu bilan birga Koinot genezisi va rivojlanishi masalalariga ham tatbiq qildi. Kantning inson irqalarining tabiiy kelib chiqishi haqidagi nazariyasi ham muhim ahamiyatga ega.

Kant ta'limoti bo'yicha, falsafaning eng muhim muammolari bo'lmish — borliq, axloq, degan masalalarini tahlil qilish uchun eng avvalo, inson bilimining imkoniyatlari va chegaralarini aniqlamoq kerak. Bizning bilimlarimiz narsaning hodisasini, ya'ni bizga qanday holatda namoyon bo'la olishini (fenomen) bila oladi. Ular bizning tajribamiz mazmunini tashkil qiladi. «Narsa o'zida»ning bizning sezgi a'zolarimizga ta'siri natijasida sezgilar xaosi vujudga keladi. Bu kaos bizning aqlimiz quvvati bilan tartibga solinadi va bir butunga aylantiriladi. Biz tabiat qonunlari deb bilgan narsalar aslida aql tomonidan hodisalar dunyosiga kiritilgan aloqadir. Boshqacha qilib aytganda, bizning aqlimiz tabiatga qonunlar kiritadi. Lekin hodisalar dunyosiga inson ongiga bog'liq bo'lmagan narsalarning mohiyati, ya'ni «narsa o'zida» mos keladi. Ularni mutlaq bilish mumkin emas. «Narsa o'zida» biz uchun faqat aql bilan bilish mumkin bo'lgan, lekin tajribadan kelib chiqmaydigan mohiyatdir. Kant inson aqlining cheksiz qudratiga ishonchsiz qaraydi. Inson bilimining nisbatan cheklanganligiga u ma'lum axloqiy ma'no byeradi. Uningcha, agar inson mutlaq bilimga ega bo'lsa, unda axloqiy burchni bajarishi uchun kurash ham, intilish ham bo'lmasdi.

Kant ta'limoti bo'yicha, makon va zamon g'oyalari insonga uning tasavvurlaridan oldin ma'lumdur. Makon va zamon real emas, balki faqat tushunchada, g'oyalardadir.

Bilish nazariyasida Kant dialektikaga katta o'rin byeradi. Qarama-qarshilikni bilishning zaruriy omili sifatida qaraydi.

Kant falsafada katta o'rin qoldirdi. Uning vafotidan keyin nemis falsafasining rivoji Hegel (1770-1831) ijodida o'zining yuksak cho'qqisiga yerishadi. Hegel dialektikaning qonunlari va kategoriyalari haqidagi ta'limotni rivojlantirdi. Falsafa tarixida birinchi marta bir tizimga solgan holda dialektik logikaning asosiy qoidalarini ishlab chiqdi. O'sha davrlarda hukmron bo'lgan metafizik fikrlash uslubini tanqid qildi. Kantning «narsa o'zida» haqidagi ta'limotiga qaramaqarshi qilib, shunday ta'limotni ilgari surdi: «Mohiyat namoyon bo'ladi, hodisa mohiyatdan ajralmasdir». Hegelning ta'kidlashicha, kategoriyalar borliqning ob'ektiv shakllaridir. Borliqning asosida esa, «dunyoviy aql», «mutlaq g'oya» yoki «dunyo ruhi» yotadi. O'z-o'zini anglash jarayonida dunyoviy aql uch bosqichni bosib o'tadi:

3-MAVZU. FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: G'ARB FALSAFASI

1. O'z-o'zini anglovchi mutlaq g'oyaning o'z xususiy qobig'ida bo'lish bosqichi; tafakkur jarayonida, ya'ni bu holatda g'oya dialektika kategoriyalari va qonunlari tizimida o'z mazmunini, mohiyatini namoyon qiladi. Bu bosqich Hegel falsafasining mantiq bosqichidir;

2. Foyanning o'zidan «begonalashuvi» ya'ni tabiat hodisalari shaklida namoyon bo'lish bosqichi, ya'ni bu bosqichda tabiatning o'zi rivojlanmaydi, faqat kategoriyalar sifatida rivojlanadi. Bu bosqich Hegelning tabiat falsafa bosqichidir;

3. Foyaning tafakkurda va insoniyat tarixida rivojlanish bosqichi. Bu bosqich Hegel falsafasida ruh falsafasi bosqichidir. Mana shu yakuniy bosqichda mutlaq g'oya o'ziga qaytadi va o'zining inson ongi va o'z-o'zini anglash shaklida o'z mohiyatiga qaytadi.

Rivojlanish g'oyasi Hegel falsafasini qamrab olgan. Uning ta'kidlashicha, rivojlanish tor doira ichida emas, doimiy, quyidan yuqoriga qarab boradi. Mana shu jarayonda miqdor o'zgarishlarining tub sifat o'zgarishlariga o'tishi yuz beradi. Rivojlanishning manbai esa har qanday o'z-o'zidan harakatning sababi bo'lgan qarama-qarshilikdir. Hegel falsafasida borliq dialektik o'tishlar zanjiri sifatida bayon qilingan.

Hegel fikricha, tarix dunyoviy ruhning yoki mutlaq g'oyaning rivoji sifatida namoyon bo'ladi. Umuman tarix bu mohiyatan fikrning, aqlning o'z-o'zidan rivoji tarixidir. Hegel ta'limoticha, aql tarixda shunday namoyon bo'ladiki, unda har bir xalq ruh o'z-o'zini anglab, tobora yuqorilab borishiga o'z hissasini qo'shish huquqini oladi. Lekin bu jarayon qandaydir tartibsiz (xaotik) amalga oshmaydi. Hegel umumjahon tarixini to'rt bosqichga bo'ladi: 1. Sharq dunyosi; 2. Yunon dunyosi; 3. Rumo dunyosi; 4. German dunyosi:

Insoniyat tarixini mana shunday bosqichlarga bo'lib, ularga baho byerishda Hegel ochiqdan-ochiq irqchilik ruhida ta'limotga yuz tutadi. Uningcha, sharq xalqlarida yerkinlik bo'lgan, faqat yagona zo'ravon hukmronning yerkinligi tan olingan. Shuning uchun bu xalqlardagi yerkinlik — bir tomondan hukmronning zulmi, hirslarning keng quloq yoyishi, ikkinchi tomondan ko'r-ko'rona, so'zsiz bo'ysunish xalq ruhiga xos bo'lgan bir xususiyat bo'lgan. U yunon-rumo dunyosida esa, erkinlik bo'lgan, lekin ular juda cheklangan, faqat ayrim kishilar uchun amal qilgan. Shuning uchun yunon-rumo dunyosining davlatchiligi qullikni inkor qilmagan. Lekin yunon va rumo dunyosi xalq ruhi har xil yo'nalishda bo'lgan. Agar yunon dunyosiga xos bo'lgan narsa «go'zal shaxslilik» prinsipi bo'lsa, rumo dunyosiga xos bo'lgan prinsip mavhum umumiylikdir. Hegelning da'vosicha, faqat german xalqlarida to'liq erkinlik bo'lgan. Bu xalqlar o'z tarixiy rivojlanishlarida islohotchilik (reformatsiya), 1789 yil Fransuz inqilobi mevalaridan bahramand bo'lganlar. Faqat ulargina umumiy fuqarolik va siyosiy yerkinlikka yerishganlar. Hegelning ta'kidlashicha, aqlga muvofiq davlatchilikni o'rnatgan faqat g'erman xalqigina umumjahon — tarixiy jarayonning haqiqiy timsolidir.

Hegel umumiy falsafiy sistemasi ham, uning yaratgan metodi ham boshqa kamchiliklardan, ichki qarama-qarshiliklardan holi emas edi. Chunki uning falsafiy ta'limotida bilimning ob'ektiv asosi mutlaq ruhdur, maqsadi esa shu mutlaq ruhning o'z-o'zini anglashidir, oxirgi bosqich o'z-o'zini anglash bilan yakunlanadi. Hegel falsafasi mana shu masalani amalga oshirishga qaratilgan. Shunday qilib Hegelning sistemasi va metodi o'rtasidagi qarama-qarshilik cheklanganlik va cheksizlik o'rtasidagi qarama-qarshilikdir.

XIX asrning oxiridan boshlab g'arb mamlakatlarida Hegel falsafasi atrofida turli falsafiy maktablar va oqimlar vujudga keladi. Bu falsafiy maktablar ichida ma'lum nufuz va ta'sirga ega bo'lgan oqim «yosh hegelchilar» oqimi edi. Bu oqimning o'sha davrdagi asosiy namoyandalari orasida aka-uka Bruno va Edgar Bauyerlar alohida ajralib turar edi.

3-MAVZU. FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: G'ARB FALSAFASI

Dastlab mana shu oqimga mansub bo'lgan K. Marks (1818-1883) va F. Engels (1820-1895) keyinchalik materialistik jihat va ateistik tamoyillar ustuvor bo'lgan, qaramaqarshiliklarning kurashi tamoyili mutlaqlashtirilgan o'z ta'limotini ishlab chiqdilar. Uning asosiy nazariyalarini hayotga tatbiq qilishga da'vat qildilar. Ularning ta'limoti marksizm falsafasi degan nom oldi. Keyinchalik bu falsafa sotsialistik lager deb atalgan mamlakatlarda davlatning mafkuraviy doktrinasiga aylandi, «ilmiy kommunizm» g'oyalari asosida insoniyat tarixining tabiiy jarayonini proletariyat diktaturasi deb atalgan davlat va hokimiyat yuritish usuli orqali zo'rlik bilan o'zgartirish ta'limotini ko'pchilik ommaga, siyosiy partiyalarga, mafkuraga singdirishga harakat qildi.

Yangicha falsafiy tafakkurga asos solgan olimlar orasida ko'pchilik nemis olimi Artur Shopengauer (1788 — 1860) qarashlarini tilga oladi. Shopengauer olamdagi barcha mavjud narsalarni irodaning namoyon bo'lishi, irodani esa ongsiz ko'r-ko'rona intilish tarzida tushunadi. Maxluqotlarning instinktlari, xatti-harakatlari — irodaning namoyon bo'lishidir. Inson faoliyati ham aqldan begona bo'lgan irodaning natijasidir. Shuning uchun inson mohiyati irrotsional asosga ega. Aql esa tasodifiydir. Inson hayoti doimo aylanib turgan iroda g'ildiragiga bog'liqdir.

Shopengauer ta'limotini davom ettirgan nemis faylasufi Fridrix Nitsshe (1844-1900) fikricha, «borliqning eng chuqur mohiyati hokimiyatga erishish uchun bo'lgan irodadir.» Nitsshe inson borlig'ida maxluqlik va xoliqlikni birlashib ketganini asoslab byerishga harakat qildi. Uning diyorimizda bundan ikki yarim ming yil muqaddam shakllangan zardushtiylik ta'limotini o'rganib yaratgan «Zardusht tavallosi» asarida kuchli shaxslarni tarbiyalash g'oyasi ilgari surilgan. U o'z ortidan irodasiz kishilar ommasini yetaklashga qodir bo'lgan irodasi kuchli shaxslarni tarbiyalash tarafdori bo'lgan. Nitsshening sivilizatsiya va madaniyatning so'nishi va barham topishi to'g'risidagi g'oyasiga asoslanib, 1918 yilda G. Shpenglyer «YYevropaning so'nishi» degan asarini yozadi.

O'tgan asr oxiri olimlari ijtimoiy inqiroz va ma'naviy turg'unlikdan chiqishning yo'lini Farbda klassik falsafiy myerosga murojaat etishda va uni qayta tiklashda ko'rdilar. Shu zaylda «Orqaga Kantga» shiori ostida neokantchilik, «Orqaga Hegelga» shiori ostida esa neohegelchilik paydo bo'ldi.

Neotomizm — XX asrdagi eng yirik diniy-falsafiy oqim bo'lib, u o'rta asrlardagi (XIII asr) Foma Akvinskiyning ta'limotini qaytadan tikladi. U (neo — yangi, tomizm — «foma», transkripsiyada «toma» bo'lib o'zgargan) Foma Akvinskiyning yangi, zamonaviy ta'limoti demakdir. Bu ta'limotga ko'ra, ilm va e'tiqod o'rtasida to'la muvofiqlik, uyg'unlik bor. Ular birbirini to'ldirib turadi, har ikkisi ham xudo tomonidan byerilgan haqiqat.

Neotomizm vakillari fikricha, ilm etmagan joyda e'tiqod qo'llanishi kyerak. Lekin bu e'tiqod ko'r-ko'rona, shunchaki ishonch bo'lmay, balki mantiqan tyeran anglangan e'tiqod bo'lishi kyerak. Xudoning mavjudligini falsafa turli mantiqiy usullar orqali isbot qilishi lozim. Shunday qilib, falsafaning vazifasi dinga xizmat qilishdan iboratdir.

Neotomistlar dunyoni, jamiyatni xudo yaratgan, jamiyat taraqqiyoti xudoning rejasi asosida boradi, deyдилar. Diniy teologiya oqimi bo'lganligidan neotomizm albatta, ilohiy qadriyatlarni ustuvor qo'yadi. Ammo u din va uning jamiyatdagi o'rniga, o'zining nomi kelib chiqishiga sabab bo'lgan, Foma Akvinskiy zamonidan farqli yondoshadi. Fomadani keyingi davr Yevropada xristianlikning sofligini saqlash g'oyasi, asta-sekin mutlaqlashib, o'rta asr aqidaparastligining ma'lum ko'rinishlaridan biri-inkvizitsiyaga olib kelgan edi. Bu esa hurfikrlilik, ilm-fandagi yangilikka qarshi kurashga aylanib ketgan edi. Lekin inson huquqlari, fikr yerkinligi demokratiya belgisiga aylangan XX asrda bunday o'taketgan aqidaparstlikka o'rin yo'q. Neotomizm hozirgi

3-MAVZU. FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: G'ARB FALSAFASI

sivilizatsiyali dunyoda sivilizatsiyalashgan ta'limot sifatida maydonga chiqmoqda. O'z navbatida bu demokratiya ustivor bo'lgan hayot tarziga muayyan darajada mos keladi.

Neokantchilik XIX asr o'rtalarida shakllangan va XX asr boshlarida rivojlangan edi. Uning vakillari I. Kant o'z davrida qo'ygan ilmiy bilishning umumiyligi va zaruriyati haqidagi hamda tajribaviy aql haqidagi muammolarni tahlil etadilar. Bu ta'limotga ko'ra, inson dunyoga bir marta keladi, shuning uchun har bir insonning hayoti o'zi uchun eng oliy maqsaddir. Shunday ekan, inson hayotidan kimdir o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun vosita sifatida foydalanishi mumkin emas. erkin mavjudot deganda, Kant izdoshlari o'zi xohlagan ishlarni qiluvchi kishini emas, balki jamotchilik manfaatiga qarshi yurmaydigan, unga zid ish qilmaydigan, ammo o'z haququqlarini yaxshi biladigan insonni nazarda tutadilar.

XX asrga kelib, fan va texnika taraqqiyoti bilan ilmiy tafakkur va til muammolarini falsafiy tahlil qilishga qiziqish nihoyatda ortdi. Bu yo'nalishda ishlayotgan eng yirik oqimlarga neopozitivizm, strukturalizm va germenevtika kabi falsafiy qarash namoyondalari misol bo'ladi.

Neopozitivizm oqimining yirik namoyandalari Karnap, Ayyer, Rassel, Vitgenshteyn va boshqalardir. Neo — yangi; pozitiv — ijobiy degan ma'noni anglatadi. Neopozitivizm G'arbda XIX asrning 20 — yillarida paydo bo'lgan, asoschisi XIX asrda yashagan Ogyust Kontdir. Uning fikricha, falsafa aniq fanlar taraqqiyotsiz mavjud bo'la olmaydi. Falsafa — ob'ektiv reallikni emas, balki aniq fanlar qilayotgan ilmiy, ya'ni ijobiy (pozitiv) xulosalarni o'rganib, tahlil qilib ularni mantiqan bir tartibga, sistemaga solishi kyerak.

Kont falsafaning o'zi mustaqil ravishda ob'ektiv dunyo to'g'risida hech qanday aniq bilimlar byerishi mumkin emas, u shu paytgacha yig'ilgan bilimlarni formal logika qonunlari asosida tahlil etishi va qayta baholashi, uni «absolyut g'oya, ruh» to'g'risidagi ortiqcha fikrlardan tozalashi kyerak va yangi falsafani yaratishi kyerak, deb ta'lim byergan.

Neopozitivistlar verifikatsiya prinsipini ilgari suradilar (lot. Vyeritas — xaqiqat.) ularning fikricha, faqat tajribada o'z tasdig'ini topgan bilimgina haqiqiydir. Lekin nazariy, mavhum bilimlarning hammasini ham tajribada ekvivalentini topish, aynan shunday ekanligini isbot qilish mumkin emasligi tufayli bu prinsip keyinchalik inkor etildi.

Shundan so'ng postpozitivizm (ya'ni keyingi pozitivizm) vakili K. Poppyer falsifikatsiyalash metodini ilgari surdi. Bunga ko'ra, inson ba'zi nazariy bilimlarning xaqiqatligini emas, xato ekanligini isbotlashi kyerak. Oxir-oqibatda neopozitivizm vakillari falsafa bilimlarning xaqiqiyiligini mantiqiy — lingvistik usul orqali isbotlashi va sistemalashtirishi kyerak, degan xulosaga keldilar. XX asrning 60 — 70 yillariga kelib, neopozitivizmning mavqei kamayib, asosiy o'ringa strukturalizm va gyermenevtika chiqdi.

Strukturalizm (asosiy vakillari Levi — Stross va Fuko) bilishda strukturaviy usulning ahamiyatini mutlaqlashtiradi. Bu oqim tarafdorlari narsa va hodisaning strukturasi bilish uning ob'ektiv mohiyatini bilish demakdir, deb hisoblaydilar. Masalan Levi-Stross mifologik tafakkurni tahlil etib, turli joylarda yashagan qadimgi qabilalar va xalqlar yaratgan afsonalarning umumiy strukturaga ega ekanligini isbot qildi. Uning fikricha, bu afsonalarning asosiy mazmuni bir-biriga to'la muvofiq keladi. Insoniyatning ilmiy tafakkuri ham bu ta'limotga ko'ra shunday prinsipga, umumiy mantiqqa ega.

Germenevtika — qadimgi yunon afsonalaridagi xudolarning xohish va irodasini insoniyatga tushuntirib berish uchun yerga yuborilgan elchisi — Germes nomi bilan ataladi. Demak, germenevtika — tushunish, tushuntirish, tahlil etish g'oyalariga asosiy diqqatini qaratadi.

3-MAVZU. FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: G'ARB FALSAFASI

Jamiyat, bu ta'limotga ko'ra, kishilar o'rtasidagi muloqotga asoslanadi. Muloqot jarayonida madaniy, tarixiy va ilmiy qadriyatlar yaratiladi. Shuning uchun falsafaning asosiy vazifasi hayotning ma'nosini, mohiyatini kishilar o'rtasidagi muloqotdan qidirishdan iborat.

Bu oqim vaqillari Shleyermaxyer va Diltey fikricha, biror bir tarixiy manbaning to'g'ri tahlil etilishi tadqiqotchining davr xususiyatlarini to'la his etishi, tushunishi bilan bog'liq.

Hozirgi davrda bu ta'limotning ko'plab tarafdorlari mavjud.

XX asrning 30 — yillariga kelib «ekzistensial falsafa» rivojlandi. Ekzistensiya — tom ma'noda mavjud bo'lmoq demakdir. Ekzistensializm nihoyatda xilma-xil yo'nalishdagi ta'limotlarni insonning ma'naviy dunyosi, inson taqdiri, yerkinligi g'oyalari asosida umumlashtirdi.

Bu muammolarning talqini, ayniqsa, ijodkor ziyolilar o'rtasida ommaviy tus oldi. Shuning uchun ekzistensial falsafa bu davrda eng keng tarqalgan oqim bo'lib qoldi.

Ekzistensializm vakillari asosan ikki yo'nalishga bo'linadilar. Biri — dunyoviy (Xaydegyer, Sartr, Kamyu) va ikkinchisi diniy (Yaspyers, Marsel) bo'lib bunday bo'linish nisbiydir.

Xaydegyer, Sartr, Kamyularning ta'limotiga ko'ra, inson o'zining yaratish jarayonini o'zi yerkin amalga oshiradi. Insoniyat oldida ulkan imkoniyatlar mavjud bo'lib, ulardan qaysi birini tanlashda u yerkindir. Demak, inson o'z mohiyatini o'zi yerkin belgilaydi, uning kim bo'lib etishishi faqat uning o'ziga bog'liq. Shu ma'noda, inson doimo rivojlanib boradigan, tugallanmagan loyihaga o'xshatiladi. Yerkinlik insonning o'zi tomonidan yaratiladigan ichki ruhiy holati tarzida talqin etiladi. Insonga byerilgan imkoniyatlarni tanlash nihoyatda mas'uliyatlidir, chunki bunda inson o'zi, boshqalarni hamda uni o'rab turgan olamni ham qayta yaratadi.

Diniy ekzistensializm vakillari Yaspyers va Marsel fikricha, inson o'z yerkin faoliyati davomida xudoga qarab unga etishish uchun, kamolot tomon harakat qiladi. Haqiqiy yerkinlik insonga tahlkali onlarda, tashvishda, yolg'izlikda namoyon bo'ladi. «ahlika, mas'uliyat sof yerkinlikning o'zidir, faqat shunday sharoitda inson o'zini to'laligicha anglaydi. Hayot va o'lim, qo'rqinch, dahshat tushunchalari bu ta'limotning markaziy tushunchalaridir. Ekzistensialistlar fikricha, olam ma'nosiz va uni bilib bo'lmasligi abadiy, inson umri o'tkinchi bo'lganligi uchun ham dahshatlidir.

Yangi zamon falsafasining yana bir oqimi pragmatizm AQSHda keng tarqalgan. Umuman olganda, «pragmatizm» foydali faoliyatga undovchi, «foydaga» qanday qilib yerishish yo'llari va usullari haqida mulohaza yurituvchi ta'limotdir. Bunda «foydaga» tushunchasi «tajriba», «haqiqat» tushunchalari bilan aynanlashtiriladi.

Pragmatizm ta'limotining yirik namoyandalari CH. Pirs, U. Djems, J. Dyui va boshqalardir. Ularning ta'limotida olamning o'zgaruvchanligi o'z ifodasini topgan. Ular tajribani turli tasodif va kutilmagan vaziyatlarni o'zida mujassamlashtirgan, ongimizdan tezkor qarorlarni qabul qilishni talab etuvchi hodisalar majmui sifatida ta'riflaydilar.

Insonning xatosiz faoliyat ko'rsatishi uchun uning xatti-harakatlarini boshqarib turuvchi vosita — intellektdir. J. Dyui fikricha, intellekt insonni o'rab turgan olamdan nusxa oladi, hamda unga muhitga moslashishga yordam byeradi. Pragmatizm falsafasining maqsadi insonga olamda o'z o'rnini topishga yordam byerishdan iborat. Dyui tajriba natijasining «foydali» tomoniga e'tiborini qaratadi. Djems fikricha, haqiqat foydali bo'lgan narsa yoki hodisadir.

Pragmatizm AQSH ijtimoiy-madaniy hayotining qadriyatlarini ifoda etib, u yerdagi ishbilarmonlar, menedjyerlar, siyosatchilar va davlat arboblari o'rtasida keng tarqalgan. Amerikaliklar bu ta'limotning nazariyotchilarini halqning dunyoqarashi o'zgarishida, hozirgi

3-MAVZU. FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI: G'ARB FALSAFASI

amyerikacha hayot tamoyillarini keng ommaga singdirishda katta xizmat qilgan faylasuflar sifatida qadrlaydilar. Masalan, J. Dyuni «Amyerikaning Arastusi» deya hurmat bilan tilga oladilar.

Jamiyat taraqqiyotiga oid g'oyalar tahlili falsafada antik davrlardan, Suqrot va Aflotun zamonlaridan boshlab shakllana boshlagan. Bu g'oyalarning rivojida XVII-XVIII asrlarda yashagan italiyalik faylasuf Dj. Viko, XVIII asrda yashagan I.G. Gyerdyer va ayniqsa, nemis falsafasining yirik namoyondasi Xegel katta hissa qo'shganlar. Jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi ta'limotlar orasida tadrijiy taraqqiyot va inqilobiy sakrashlar yo'lidan borishni ilgari suradigan ta'limotlar talaygina. Ko'pchilik tadrijiy yo'lni ma'qul ko'radi va biz yuqorida tilga olgan faylasuflarning aksariyati ana shunday qarash tarafdori.

Keyinchalik sobiq ittifoqda hukmron mafkuraga aylangan bu ta'limot dastlab K. Marks va F. Engels yozgan «Kommunistik partiya manifesti»da bayon qilingan. Uning nazariy asoslari K. Marksning «Kapital», F. Engelsning «Anti-Dyuring» va «Tabiat dialektikasi» asarlarida ta'riflab byerilgan bo'lib, ijtimoiy hayotda salbiy oqibatlarga olib keldi. U borliq tushunchasini matyeriya bilan aynanlashtirgan, ruhni butunlay inkor qilgan, matyerializm va ateizmni mutlaqlashtirgan.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.:“O'zbekiston”, 2014. 24 b
2. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947sonli Farmoni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yerkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
5. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-24 jildlar.- T.: O'zbekiston 1996-2016.
6. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. 2 nashr –T.:Ma'naviyat, 2016 176-b.
7. Falsafa. Axmedova M. Tahriri ostida. – T.: O'FMJ, 2006. 339 b.
8. Shyermuxamedova N.A. Falsafa. – T.: Noshir, 2012. 1214 b.
9. Falsafa asoslari. Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: «SHarq», 2005 y.

4-MAVZU. BORLIQ – FALSAFANING FUNDAMENTAL KATEGORIYASI

REJA:

1. Borliq tushunchasi va uning mohiyati.
2. Falsafa tarixida borliq muammosi.
3. Borliq shakllarining tasnifi: tabiat borlig'i va ma'naviy borliq, ijtimoiy borliq va inson borlig'i.
4. Harakat - materiyaning yashash sharti.
5. Makon va vaqt - borliqning fundamental shakllari.

Tayanch tushunchalar: Makon, virtual borliq, ijtimoiy borliq, inson borlig'i, borliq shakllari «borliq» kategoriyasi, «vujudi vojib», «vujudi mumkin», borliq va yo'qlik, olam va odam evolyutsiyasi, olamning paydo bo'lishi, substansiya, intellektual intuitsiya, deduksiya, monizm, plyuralizm, dualizm, olamning chekliligi va cheksizligi, harakat, rivojlanish, o'zgarish, o'zgaruvchanlik, harakat va harakatsizlik, taraqqiyot, o'z-o'zidan harakat, barqarorlik, muvozanat, mexanik harakat.

Borliq tushunchasi va uning mohiyati. Biz dunyo, materiya tuzilishi, makon, vaqt, harakat, hayot, ong va shu kabilar haqida tasavvur hosil qilish uchun asosan fizika, astronomiya va biologiya kabi tabiatshunoslik fanlariga murojaat etamiz. Lekin bu falsafada borliq muammolari o'rganilmaydi, degan ma'noni anglatmaydi. O'quv kurslarida asosiy falsafiy muammolarni o'rganish odatda ontologiyadan boshlanadi. Ontologiya falsafiy bilimlarning alohida sohasi bo'lib, unda borliq va yo'qlik, mavjudlik va nomavjudlik muammolariga doir masalalarning keng doirasi o'rganiladi, shuningdek, mavjudlik sifatiga ega bo'lgan barcha narsalarning mohiyati aniqlanadi. «Ontologiya» atamasi falsafada faqat XVII asrdan beri ishlatiladi, lekin u yunoncha o'zaklarga ega bo'lib («ontos» – «borliq», «logos» – «so'z», «ta'limot»), borliq haqidagi ta'limot degan ma'noni anglatadi. Ontologiya falsafada alohida o'rin egallaydi. Ikki yarim ming yillik faol falsafiy izlanishlar natijasida falsafiy bilim tizimida ontologiyadan tashqari falsafaning muhim falsafiy mazmun kasb etadigan gnoseologiya, aksiologiya, ijtimoiy falsafa, axloq, estetika, mantiq kabi tarkibiy qismlari paydo bo'ldi. Lekin ularning barchasi zamirida ontologiya yotadi. O'z navbatida, ontologiya har qanday falsafiy dunyoqarashning negizi hisoblanadi va shu tariqa o'z tarkibiga kirmaydigan boshqa falsafiy muammolar talqinini ko'p jihatdan belgilaydi.

«Borliq» kategoriyasi. Aksariyat falsafiy tizimlarning kategoriyalar apparatini tashkil etadigan ko'p sonli falsafiy kategoriyalar orasida «borliq» kategoriyasi doimo markaziy o'rinni egallaydi. Chunki u har qanday predmet, hodisa, voqea va shu kabilarning eng muhim xususiyatini, ularning mavjud bo'lish, bevosita yoki bilvosita namoyon bo'lish, o'zaro ta'sirga kirishish qobiliyatini aks ettiradi. Bu inson o'zligini va o'zini qurshagan borliqni anglashga ilk urinishlaridayoq duch keladigan har qanday ob'ektning, borliq har qanday qismining umumiy xossasidir.

Inson aqlli jonot sifatida shakllanish jarayonining ilk bosqichlaridayoq o'z dunyoqarashining negizini tashkil etadigan muhim savollarga javob topish zaruriyati bilan to'qnash keladi:

1. «Men kimman?»
2. «Meni qurshagan borliqning mohiyati nimada?»
3. «Borliq qanday va qerdan paydo bo'lgan?»
4. «Dunyoni nima yoki kim harakatlantiradi?»
5. «Dunyoning rivojlanishida biron-bir maqsad, maqsadga muvofiqlik, mo'ljal bormi?»

Inson bunday savollarga javob berishga kirishar ekan, uning ongi, avvalo, o'zi nima bilan bevosita ish ko'rayotganini qayd etadi. Buni aniq anglamasdan, u o'zining dunyo haqidagi mulohazalarini aniq-

ravshan narsalarni qayd etishdan boshlaydi. SHu tariqa inson va uning ongi o‘zini qurshagan barcha narsalar, avvalo, mavjud bo‘lish qobiliyatiga ega ekanligiga ishonch hosil qiladi.

Borliq kategoriyasi esa xuddi shunday eng umumiy tomonni; ya’ni hamma moddiy va ma’naviy predmet va hodisalarni realligini ifodalaydi. Ikkinchi yo‘nalish vakillari esa, borliq avvalo, mavjudlik orkali ifodalanar ekan borliq kategoriyasini ishlatishda ehtiyoj yo‘q, chunki borliq tushunchasi mavjudlik tushunchasiga nisbatan hech bir yangilik bermaydi deyishadi. Gap shundaki, borliq falsafiy kategoriya sifatida faqat mavjudliknigina ifodalab qolmasdan, balki mavjudlikka nisbatan umumiyroq va kengroq mazmunga ega bo‘lgan reallikni bildiradi.



Shunday qilib, borliq masalasi insonning dunyoni oqilona anglash yo‘lidagi ilk urinishlaridayoq duch kelgan barcha masalalarning negizi hisoblanadi. Muayyan narsalar mavjudligi yoki mavjud emasligi masalasi inson falsafiy mulohaza yurita boshlagani zahotiyoyoq uning diqqat markazidan o‘rin oldi. Mifologiyaning bosh vazifasi – «borliqni kim yaratgani» haqida gapirib berishni falsafa «borliqning nimaligi, u qaerdan paydo bo‘lgani va qaerga yo‘qolishi»ni oqilona tushuntirish bilan almashtirgani tasodifiy emas. Bunday tushuntirishga urinish jarayonida faylasuflar barcha zamonlarda quyidagi savollarga javob topish zaruriyati bilan to‘qnash kelganlar:

- falsafiy kategoriya sifatidagi «borliq» nima?
- bu atama nimaga nisbatan tatbiq etilishi mumkin?
- unga qanday falsafiy ma’no yuklanadi?

Bu savollarga keng javob berish falsafa tarixiga ham, mazkur tushunchaning etimologiyasiga ham murojaat etishni nazarda tutadi. Mazkur dastur bo‘yicha ta’lim oluvchilar tarixiy-falsafiy kurs bilan tanish bo‘lishlari lozimligini hisobga olib, bu erda faqat falsafiy tafakkur tarixiga qisqacha to‘xtalamiz va mazkur muammoni anglab etish jarayonidagi muhim bosqichlarinigina qayd etamiz. **Borliq tushunchaning etimologiyasi.** «Borliq» falsafiy kategoriyasi na faqat eng muhim, balki boshqa kategoriyalar orasida ayniqsa, ko‘p ishlatiladigan kategoriya hisoblanadi. Bu holni shu bilan izohlash mumkinki, uning kelib chiqishi dunyoning ayniqsa, keng tarqalgan tillarida ayni bir ma’no –

«bo‘lish», «mavjud bo‘lish», «hozirlik», «hozir bo‘lish», «mavjudlik» ma‘nolarini anglatadi. Jahonning aksariyat tillarida yuqorida sanab o‘tilgan va ma‘no jihatidan unga yaqin fe‘llar negizini tashkil etadigan «bo‘lmoq» fe‘li, o‘zining bevosita ma‘nosidan tashqari, yordamchi fe‘l sifatida ham faol ishlatiladi. Bu dalilga izohni inson tafakkuri tabiatidan izlash lozim bo‘lib, uning mantig‘i va qonunlari fikrni bayon etishning til shakliga bog‘liq bo‘lmaydi, lekin, albatta, fikrlash mumkin bo‘lgan, universal va o‘zgarmas sifatida amal qiladigan va shu sababli har qanday mulohazaning tayanch nuqtasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin bo‘lgan nimagadir tayanishi lozim. Fikr qaratilgan narsa mavjudligi (yoki mavjud emasligi)ning ayni shu dalili har qanday tilning ilk jumlaridayoq tom ma‘noda universal fe‘l (yoki uning modifikatsiyalari) bilan aks ettiriladi: o‘zbek tilida – «bo‘lmoq», «bor», ingliz tilida – «is», nemis tilida – «ist» va hokazo.

Shunday qilib, «borliq» va «yo‘qlik» kategoriyalarining o‘ziga xosligi, betakrorligi va universal ahamiyati shundan iboratki, ularning falsafiy ma‘nosi tavsiflanadigan turli tillarda ular fe‘ldan, aniqroq aytgan da, «bo‘lmoq» fe‘ldan (yoki uning inkoridan) hosil bo‘lgan tushunchalar hisob lanadi va narsaning o‘zini emas, balki uning mavjudligi yoki yo‘qligini ko‘r satadi. Masalan, stol bor, yomg‘ir yo‘q, oqlik bor, aks yo‘q, miya bor, g‘oyalar yo‘q va hokazo. Borliq tabiiy tillarda otlar, ravishlar yoki ravishdoshlar bilan ifodalanadigan, ya‘ni bilishda uning ob‘ekti yoki sub‘ekti sifatida amal qiladigan tushunchalar bilan tenglashtirilishi mumkin emas. Ayni zamonda bu ob‘ektlyoki sub‘ektlarning birortasi ham uning borligi yoki yo‘qligini qayd etmasdan fikrlanishi mumkin emas. **Borliq va yo‘qlik dialektikasi.** «Borliq bor, yo‘qlik esa – yo‘q», deganida, Parmenid ayni shu holga e‘tiborni qaratgan. Binobarin, yaxshi, yomon, to‘g‘ri, noto‘g‘ri, quvnoq, sho‘r, oq, qora, katta, kichkina kabi va shunga o‘xshash sifatlar borliqqa nisbatan qo‘llanilishi mumkin emas. Borliqni biron-bir koordinatalar tizimiga joylashtirib bo‘lmaydi, uni faqat vaqtda fikrlash mumkin. Muxtasar qilib aytganda, borliqni har qanday voqelik ega bo‘ladigan umumiy, universal va betakror mavjudlik qobiliyati, deb tavsiflash mumkin. Bu fikr esa amalda mavjud narsagina borliqqa ega bo‘lishi mumkin, degan xulosa chiqarish imkonini beradi.

«Yo‘qlik» har qanday tilda amalda mavjud bo‘lmagan narsa bilan tenglashtiriladi va boshqacha tushunilishi mumkin ham emas. Boshqacha aytganda, yo‘qlik borliqni inkor etadi va narsa, jism, hodisa, ong... (ya‘ni amalda mavjud bo‘lishim mumkin bo‘lgan narsalar) o‘zligini yo‘qotgan holda «yo‘qlik» atamasi ayni shu ma‘noda ishlatiladi va ular haqida ular «yo‘qlikka chekindi», mavjud emas deyiladi. Lekin, sof falsafiy ma‘noda bu fikrni to‘g‘ri deb bo‘lmaydi. Borliq va yo‘qlik o‘rtasida dialektik o‘zaro aloqa mavjud.

Birinchidan, dunyo haqidagi hozirgi tasavvurlarga ko‘ra, biz yashayotgan Olam bo‘shliqdan bino bo‘lgan. Bo‘shliq materiyaning alohida holati. Bo‘shliq fizik borliqning eng boy tipi, o‘ziga xos potensial borliq sifatida namoyon bo‘ladi, zero unda mumkin bo‘lgan barcha zarralar va holatlar mavjud, biroq ayni vaqtda unda aktual tarzda hech narsa yo‘q. Yana shuni ham e‘tiborga olish lozimki, fiziklar (D.A.Landau va boshqalar) nuqtai nazaridan biz yashayotgan Olam ham dunyoda yagona emas, chunki u rivojlanishning turli sikllarini boshidan kechirayotgan turli Olamlarning cheksiz sonidan tashkil topadi. Shu ma‘noda borliq va yo‘qlikning o‘zaro aloqasi ham nisbiy xususiyat kasb etadi¹¹.

Ikkinchidan, amalda mavjud bo‘lgan narsaning ob‘ektiv borlig‘i yo‘qlikka chekinadi, lekin, shunga qaramay u haqda gapirilayotgan, ya‘ni u muayyan narsa sifatida fikrlanayotgan bo‘lsa, bu narsa ongda mavjud bo‘ladi va o‘zining «ikkinchi» borlig‘ini saqlaydi, ayni holda u dastlabki ob‘ektning nusxasi, ideal obrazi bo‘lib qoladi. Shunday qilib, o‘tgan zamondagi borliq yo‘qlikdir, deb aytish mumkin. Borliq doim hozirgi zamonda mavjud bo‘ladi, u faqat hozirgi zamonda o‘zini namoyon etadi, basharti

¹¹ Малукова О.В. Материя, пространство и время с точки зрения физики XX века // Онтология, гносеология, логика и аналитическая философия. –СП(6): 1997 г. с. 93.

u dolzarb va amalda namoyon bo'lish imkoniyatiga ega bo'lsa, agar upotensial, ya'ni axborot manbalarida mavjud yoki uning paydo bo'lishi ob'ektivrivojlanish mantig'i bilan belgilangan bo'lsa. Amalda yo'q bo'lgan narsa haqida ideal obraz sifatida fikrlash mumkin. Boshqacha aytganda, unga ideal obraz tarzidagi ideal borliq shakl-shamoyilini berish mumkin. O'tmishga tatbiqan biz borliq haqida faqat shu ma'noda so'z yuritishimiz mumkin. Ayni shu ma'noda biz g'oyalar, narsalar, voqealar, tarixiy shaxslar yoki o'zimizga yaqin odamlar to'g'risida so'z yuritimiz, bunda ular yo'qlikka aylanmagani, balki yangicha mavjudlik, xotira tarzidagi o'zgacha borliq kasb etganini nazarda tutamiz. Shunday qilib, borliq falsafiy kategoriya sifatida dunyoni butun rang-barangligi va turli-tuman namoyon bo'lish shakllari bilan yaxlit aks ettirish imkonini beradi. Bunda narsalar, predmetlar, hodisalar o'z xususiyatlari, xossalari bilan jamuljam holda aks etadi. Dunyoni va uning tarkibiy qismi bo'lmish insonni bilish yo'lidagi bu muhim qadam bilan dunyoning tabiati va mohiyati, uning rangbarangligi, turli darajalari, ko'rsatkichlari, ramz-alomatlari, shakllari va hokozolar haqidagi mulohazalarning asosiy koordinatalar tizimi belgilanadi. Buning uchun mohiyat, hodisa, substansiya, materiya, ong, makon, vaqt, qonun kabi yangi falsafiy kategoriyalar muomalaga kiritiladi. Inson o'zi va umuman dunyo haqida o'ylar ekan, odatda, muayyan narsalar va ayrim tabiiy hodisalar bilan ish ko'radi. Ayni vaqtda, u o'zini qurshagan dunyoni sinchiklab o'rganish va uning butun rangbarangligini tushunib etish uchun muayyan tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qiladigan qandaydir asosning shaklshubhasiz mavjudligini qayd etadi. Falsafa tarixidan biz bunday asos sifatida, masalan, Suqrot dan oldingi qadimgi yunon faylasuflarida tabiat elementlari, o'rta asrlar falsafasida Xudo, Dekartda: «Men fikrlayapman, demak mavjudman», degan ongli inson amal qilganini ko'ramiz. Ammo inson bilishning bu birinchi bosqichida to'xtab qolmagan va o'zini qurshagan borliqning ko'p sonli turli-tuman holatlari orasida qolgan barcha narsalardan sezilarli darajada farq qiladigan narsalarni, borliqning ayni shu shakli voqelikning boshqa shakllari va holatlaridan nima bilan farq qilishini aniqlashga harakat qilgan.

2. Falsafa tarixida borliq muammosi. Borliq muammosini falsafiy Borliq muammosini falsafiy anglab etishga ilk urinishlar miloddan avvalgi birinchi ming yillikda vujudga kelgan qadimgi hind va qadimgi xitoy falsafalaridayoq kuzatiladi. Xususan, «Veda»lar (Qadimgi hind tafakkurining ilk yodgorliklari) va ularga diniy-falsafiy sharhlar – «Upanishada»larda yaxlit ma'naviy substansiya, o'lmas jon haqidagi g'oyalar, shuningdek, dunyo haqidagi materialistik va ateistik tasavvurlar o'z aksini topgan. So'nggi zikr etilgan tasavvurlarga muvofiq butun borliqning negizini tabiiy asoslar – olov, havo, suv, yorug'lik, makon, vaqt tashkil etadi. Qadimgi Hindiston mutafakkirlari borliq sirining tagiga etishga harakat qilar ekanlar, quyosh tunda qaerga ketadi, yulduzlar kunduzi qayoqqa yo'qoladi kabi savollarga javob topishga uringanlar va bu tasavvurlarni eng qadimgi kitob – «Rigveda»larda aks ettirganlar.

Qadimgi Xitoy falsafasi, avvalo, ijtimoiy muammolarga qarab mo'ljal olgani bois, unda inson borlig'iga, shuningdek, ijtimoiy borliqqa ko'proq e'tibor berilgan. Ayni vaqtda, tabiatning birinchi asoslari ham e'tibordan chetda qolmagan. Bu qiziqish, xususan narsalar va hodisalarning butun rangbarangligini belgilovchi besh stixiya (suv, er, daraxt, temir, olov) haqidagi ta'limotda o'z aksini topgan. Keyinroq «O'zgarishlar kitobi»da borliqning butun rang-barangligini tashkil etuvchi bunday birinchi asoslarning sakkiztasi qay etiladi.

Xudolarning kelib chiqishi, ularning hayoti, ishlari, o'zaro kurashi haqida hikoya qiladigan va shu tariqa qadimgi odamlarning dunyoning vujudga kelishi va evolyusiyasi haqidagi tasavvurlarini aks ettirgan kosmogonik miflar Suqrotga qadar, avvalo, tabiat falsafasi sifatida yuzaga kelgan va rivojlangan yunon falsafasining birinchi manbai bo'lib xizmat qildi. Ilk yunon faylasuflari o'z asarlarini odatda «Tabiat haqida» deb nomlaganlari, ularning o'zlari esa naturalistlar, «fiziklar» deb atalishi bu fikrni tasdiqlaydi. Sharq donishmandlari kabi, antik mutafakkirlarni ham borliqning manbalari qiziqtirgan. Qadimgi yunon falsafasi vujudga kelgan paytdan boshlab ular butun borliqning birinchi sababini mavjud voqelikning o'zidan izlaganlar, uni dam suv (Fales) yoki havo (Anaksimen)

deb, dam hamma narsani boshqaradigan boqiy va cheksiz asos – «apeyron» (Anaksimandr taxminan miloddan avvalgi 611–545-yillar) deb tavsiflaganlar. Anaksimandr hatto jonli mavjudotlarning tabiiy kelib chiqishi g‘oyasini ilgari surgan. Uning fikricha, mazkur mavjudotlar dengiz suvida vujudga kelgan va suv o‘tlaridan paydo bo‘lgan. So‘ngra baliqsimon mavjudotlar quruqlikka chiqqan va ulardan odamlar rivojlangan. Shunga o‘xshash fikrlarni Ksenofan (mil. av. 580–490-yillar) ham ilgari suradi. U hamma narsa er va suvdan vujudga keladi va rivojlanadi, hatto «biz ham er va suvdan paydo bo‘lganmiz», deb hisoblaydi. O‘sha davrning bosh falsafiy masalasi – «hamma narsa nima», degan savolga javob berar ekan, Pifagor (mil. av. 580–500yillar) «hamma narsa sondir», degan xulosaga keladi. U Erning sharsimonligi haqidagi g‘oyani birinchi bo‘lib ilgari suradi. Keyinchalik bu g‘oyani Parmenid (mil. av. 540-480-yillar) qo‘llabquvvatladi va unga yozma ta’rif beradi. Parmenid faylasuflar orasida birinchi bo‘lib borliqni kategoriya sifatida tavsifladi va uni maxsus falsafiy tahlil predmetiga aylantirdi. U haqiqiy borliq mohiyatining o‘zgarimasligi haqidagi g‘oyani ilgari suradi. Parmenid fikricha, borliq paydo bo‘lmagan va u yo‘q ham bo‘lmaydi, chunki undan boshqa hech narsa yo‘q va bo‘lishi mumkin ham emas. Borliq yagona (uzluksiz), harakatsiz va barkamoldir. U o‘z chegaralariga ega bo‘lib, «ulkan mutlaqo yumaloq sharga» o‘xshaydi. Parmenidning yagona, ajralmas, o‘zgarimas va harakatsiz borliq haqidagi ta’limoti ellinlar dunyosida shuhrat qozondi va eleatlar maktabi vakili bo‘lgan (samoslik) Melit «Tabiat yoki borliq haqida» deb nomlangan asarida borliq chegarasiz ekanligini qayd etadi. Uning fikricha, agar borliqning chegarasi borligini tan olsak, bu borliq yo‘qlik bilan chegaradosh ekanligini anglatadi. Biroq, hamonki yo‘qlik mavjud emas ekan, borliq ham chegarali bo‘lishi mumkin emas. Shunday qilib, qadimgi yunon falsafasining Suqrotga qadar bo‘lgan davrida ontologiya sezilarli darajada rivojlanadi: o‘sha davr atoqli faylasuflarining deyarli barchasi borliq muammosini bevosita yoki bilvosita o‘rganadi, uni, odatda, boqiy va barkamol kosmos, «yagona tabiat», ya’ni moddiy-hissiy dunyo bilan tenglashtiradi. Masalan, Empedokl (mil. av. 484–421-yillar) «borliq» atamasini bevosita ishlatmagan bo‘lsa ham, «barcha narsalarning to‘rt negizi» (olov, havo, suv va er) haqida so‘z yuritir ekan, dunyo (kosmos) tuxumsimon ko‘rinishga ega deb hisoblagan, hayot nam va issiq suv o‘tlaridan kelib chiqqani haqida mulohaza yuritgan. Demokrit va Levkipp atomlarni muayyan modda sifatida tavsiflab, ularni «bo‘shliq» – yo‘qlikka zid o‘laroq, «to‘la» yoki «qattiq» borliq bilan tenglashtirgan. Shu davrda borliqni tushunishga nisbatan dialektik yondashuv ilk bor namoyon bo‘ladi. U, butun dunyo muttasil harakat va o‘zgarish jarayonini boshdan kechiradi, deb hisoblagan va shu munosabat bilan «ayni bir narsa mavjud va nomavjuddir» deb qayd etgan Geraklit (mil. av. 544–483-yillar) ta’limotida, ayniqsa, bo‘rtib ko‘rinadi. Borliq tushunchasini Platon (mil. av. 427–347-yillar) sezilarli darajada kengaytirdi. U nafaqat moddiy, balki ideal narsalar ham borliqqa ega ekanligini falsafa tarixida birinchi bo‘lib ko‘rsatib berdi. Platon «haqiqiy borliq» bo‘lishi «ob‘ektiv mavjud g‘oyalar dunyosi»ni «hissiy borliq»qa qarama-qarshi qo‘ydi. Bunda u inson ongida mustaqil mavjud bo‘lgan tushunchalar borlig‘ini ham ko‘rsatib o‘tdi va shu tariqa ilk bor «borliq» tushunchasiga amalda mavjud bo‘lgan barcha narsalarni kiritdi.

Markaziy Osiyoning eng qadimiy kitobi «Avesto»da, borliq harakatdagi dunyo, butun jonli va jonsiz narsalarning uyg‘unligidagi mavjudlik, deb ifodalanadi. Keyinchalik falsafa tarixida borliqning ko‘p sonli har xil talqinlari shakllandi, lekin ularning barchasi borliq haqidagi hissiy va oqilona tasavvurlar atrofida u yoki bu tarzda tiziladi. Bunda fikrlar va yondashuvlar rang-barangligi namoyon bo‘ladi. Xususan, o‘rta asrlar Evropa falsafasida, «haqiqiy borliq – «Xudoning borlig‘i» va «haqiqiy bo‘lmagan», ya’ni Xudo yaratgan borliq farqlanadi. Sharqning buyuk mutafakkiri Forobiy borliq muammosini hal qilishda, «vujudi vojib» va «vujudi mumkin»ning o‘zaro nisbatiga murojaat qiladi. Uning fikricha, «vujudi vojib» barcha mavjud yoki paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsalarning birinchi sababi. Birinchi sabab sifatida u o‘zga turtkiga muhtoj emas. U mutlaq borliq va donishmandlik ifodasi. «Vujudi mumkin» esa doimo o‘zgarishda, ziddiyatli munosabatlarda bo‘lib, unda barcha narsalar oddiydan murakkabga, tartibsizlikdan tartiblilikka qarab harakat qiladi. «vujudi

vojib» yaratgan eng buyuk voqelikdan biri inson aqlidir. U «Fuqarolik siyosati» asarida borliqni olti darajaga bo'ladi:

1. Birinchi holatdagi sabab.
2. Ikkinchi holatdagi sabab.
3. Uchinchi holatdagi aqli faol.
4. To'rtinchi holatdagi instinkt.
5. Beshinchi holatdagi shakl.
6. Oltinchi holatdagi materiya.

Forobiy bu darajalarning har biriga ta'rif beradi. Keyin u, «uchinchi aql» – aqli faolni ta'riflaydi. Unga ko'ra, aynan «aqli faol»ga ko'ra, insonning tabiiy, ma'naviy va ruhiy hayoti shakllanadi. Ibn Sino fikricha ham borliqning asosi «vujudi vojib», ya'ni Allohdir. Vujudi vojib bu birinchi mohiyat.

Uning mavjudligi sababini boshqa narsalardan qidirish noo'rin. Chunki, birinchi sabab uning natijasi bo'lgan xilma-xil jarayonlarning mohiyatiga bog'liq bo'la olmaydi. Zero, vujudi vojibning mavjudligi uning o'ziga bog'liq.

XVII–XVIII asrlarning materialist faylasuflari Golbax, Gelvetsiy, Lametri borliq tushunchasini fizik borliq bilan bog'laydi. Bu faylasuflarning naturalistik qarashlari mexanikaning faol rivojlanishi bilan belgilangan va ularning tabiat haqidagi tabiiy-ilmiy tasavvurlarini aks ettirgan. Bundan borliqni «naturallashtirish» g'oyasi kelib chiqqan. Yangi davr va nemis klassik falsafasi davri «substansiya» (dunyoni tushunish zamirida yotuvchi, nisbatan barqaror va mustaqil holda mavjud mohiyat), «mutlaq «Men»ning erkin, sof faoliyati» (Fixte), «ob'ektiv rivojlanuvchi g'oya» (Gegel) kabi falsafiy kategoriyalarni qayd etib, borliq muammolari talqiniga yanada teranroq mazmun baxsh etdi. XX asr borliqni tushunishni tarixiylik, insonning mavjudligi, qadriyatlar va til bilan bog'lab, uning talqinini o'ta kengaytirdi. Neopozitivizm falsafiy yo'nalishi esa, avvalgi ontologiya falsafaning emas, balki ayrim fanlarning predmeti deb hisoblab, falsafadagi borliq muammosini soxta muammo sifatida talqin qildi.

Noklassik borliq. Noklassik falsafa dunyoning aqlga muvofiqligi, shu ning dek, inson ongining mustaqilligiga shubha bildirdi. Pozitivistlar, umuman, ontologiyani yaratishdan bosh tortdilar. Irratsionalizm, marksizm va ekzistensializm da ontologik konsepsiyalar hayot, jamiyat va inson tushunchalari rivojlantirildi, ular borliqning noyob usullari sifatida tavsiflandi. Quyida, noklassik falsafada, borliqqa munosabatni tahlil qilamiz.

Borliq va hayot: borliqning irratsionalistik konsepsiyasi. Falsafiy irratsionalizm asoschisi A. Shopengauer olamning aqlga muvofiqligi haqidagi tezisga shubha ko'zi bilan qaraydi. Uning fikricha, borliqning o'zi emas, balki bizning u haqdagi tasavvurimiz aqlga muvofiqdir, zero, tasavvur – bu inson aqlining mahsulidir. Ammo tasavvur – bu hodisa, mohiyat darajasida esa dunyoni aqliy idrok etish mumkin emas. Shopengauer o'zining «Dunyo intilish va tasavvur sifatida» deb nomlangan bosh falsafiy asarida dunyoning borlig'ini ikki tarkibiy qismga – «yashashga intilish sifatidagi dunyo» va «inson tasavvuri sifatidagi dunyo»ga ajratadi. Uning fikricha, yashashga intilish haqiqiy borliqdir. Yashashga intilish ko'r-ko'rona va nooqilonadir, zero, uning asosiy niyati – o'zo'zini asrashdir. O'z-o'zini asrash instinkti – butun tiriklikning tabiiy xossasidir. Ammo Shopengauer romantiklarga ergashib, yashashga intilish dunyoning barcha narsalariga va umuman, dunyoning o'ziga xosdir, deb hisoblaydi. Dunyo haqidagi bunday mifopoetik tasavvur hayotda yana ta'riflar va tushunchalar tilida ifodalab bo'lmaydigan o'ziga xos tabiiy stixiyani ko'rish imkoniyatini beradi. Fan dunyoni umumiy qonunlar va nazariyalar yordamida anglab etishga harakat qiladi. Ammo hayot har doim betakror bo'lib, uni ta'riflar yordamida ifodalash mumkin emas, faqat hayot faoliyati mahsullaridagi moddiy ifodalarnigina o'rganish mumkin. Bu, eng avvalo, ijodga tegishli, kreativ faoliyatning barcha turlaridan intilishga eng yaqini esa musiqadir (intilishning birinchi moddiy ifodasi). So'zlar va obrazlar hayotga intilishning izlarini ma'lum darajada ko'zdan yashiradi. Shopengauerning izdoshi F. Nitsche hayotga

intilishning mohiyati hokimiyatga intilishda namoyon bo‘ladi, deb hisoblaydi. Ammo bu nuqtai nazar haqiqiy borliqning anglab etish mumkin bo‘lmagan hodisa sifatidagi talqiniga daxl etmaydi. Nitsche insonda, eng avvalo, o‘z hayoti uchun kurashishi lozim bo‘lgan biologik mavjudotni ko‘radi. Inson o‘z hayot kuchlari va instinktlarini axloqiy taqiqlar va jamiyat me‘yorlari hukmiga bo‘ysundirish yo‘li bilan kurashdan bo‘yin tovlamasligi kerak. Axloq insonni o‘rtacha andozalarga yaqinlashtiradi va uning qayta tug‘ilishiga sabab bo‘ladi: inson xavfsizlik hissini saqlash yo‘lida to‘laqonli, lekin xavfli hayotdan voz kechadi. Bunday qayta tug‘ilishning yo‘llaridan biri – Iso Masihning diniy axloqi, ikkinchi yo‘l – Suqrotning ratsionalistik axloqi. Ikkala ta‘limot ham narigi dunyo g‘oyasiga asoslanadi, ularning ikkalasi ham real hayotning qimmatini kamsitishga qaratilgan.

Fridrix Nitsche (1844–1900) borliqning ikki asosi: dionisiycha hayotiy asos va apolloncha bir yoqlama-intellektual asosni ajratgan va haqiqiy madaniyat bu asoslarni muvozanatga solishga harakat qilishi lozim, deb hisoblagan. Evropa madaniyati mazkur idealni ro‘yobga chiqara olmadi va inson borliq deganda stixiyali shakllanishni emas, balki tartibga solinganlikni tushunib, o‘z mavjudligining asosiy negizlaridan uzoqlasha boshladi. Vaholanki, hayot abadiy harakat va shakllanishdan iboratdir. Hayotning mazmun va mohiyati hokimiyatga intilishda namoyon bo‘ladi. Bunday intilish butun tiriklikka xosdir. Unga intellektning hukmronligi, o‘z yaqiniga muhabbatni targ‘ib qiluvchi axloq va tenglikni e‘lon qiluvchi sotsializm monelik qiladi. Bularning barchasi qullar axloqini tashkil etadi. To‘ralar axloqi esa hayotning qimmatini, odamlar o‘rtasidagi tengsizlik hamda kuchning hukmronligiga asoslanishi lozim. Nitsche «Xudo o‘ldi» degan tezisni ilgari suradi. Ushbu tezis yangicha axloqni shakllantirish zarurligini anglatadi. To‘ralar axloqining sub‘ekti sifatida o‘ta qudratli inson amal qiladi. U oliy biologik tur hisoblanadi. Odam maymundan qanday tarqalgan bo‘lsa, o‘ta qudratli inson ham odamdan shunday tarqaladi. U tayyor tur sifatidagi inson tabiatiga xos bo‘lgan jihatlarni o‘zidan soqit etadi. O‘ta qudratli inson hayotni kurash sifatida idrok etishga va o‘zini tinimsiz o‘zgartirish yo‘lida harakat qilishga qodir. Nemis faylasufi, irratsionalizm vakili, hayot falsafasi asoschisi. O‘ta qudratli inson g‘oyasiga «abadiy qaytish» konsepsiyasi qarshi turadi. Nitsche fikriga ko‘ra, voqealarning ehtimol tutilgan kombinatsiyalari soni cheklangan, vaqt esa cheksizdir, shu sababli barcha voqealar takrorlanishi lozim. Umuman olganda, Nitschening falsafiy tizimi o‘zining ziddiyatlarga to‘laligi bilan ajralib turadi, shu tufayli ham u turlicha tushuniladi va talqin qilinadi. Nitsche falsafasi XX asr falsafasining turli yo‘nalishlari: hayot falsafasi, pragmatizm va ekzistensializmga ulkan ta‘sir ko‘rsatdi.

3. Borliq shakllari. Inson barcha jonli narsalar jonsiz narsalardan butunlay farq qilishiga qadimdayoq e‘tibor bergan, lekin buni ancha keyin tushunib tgan. Jonli narsalar dunyosida inson alohida o‘rin egallaydi. U barcha jonli narsalardan butunlay farq qiladi. Insonning bu asosiy farqi uning ongida, ideal obrazlar bilan ish ko‘rish, ya‘ni mavhum fikrlash va o‘zini fikrlovchi jonzot sifatida anglash qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, borliqning umumiy manzarasini yaratish zaminidan notirik tabiat o‘rin oladigan o‘ziga xos piramida hosil bo‘ladi. ***Borliqning shakllari notirik tabiat, tirik tabiat, ijtimoiy borliq va inson borlig‘i kabilardir.*** So‘nggi yillarda virtual borliq shakli haqida fikr yuritilmoqda.

Borliqning bu umumiy shakllari o‘ziga xos xususiyatga, o‘zining betakror mohiyatiga egadir. Borliqning turli shakllarini jonsiz tabiatdan boshlab mufassalroq ko‘rib chiqamiz, zero u hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan jonli va ijtimoiy tabiatning negizi hisoblanadi. *Tabiat borlig‘i birlamchi (ya‘ni inson va uning faoliyatidan qat‘i nazar mavjud bo‘lgan narsalar va jarayonlar borlig‘i) va ikkilamchi (yoki odamlar tomonidan yaratilgan narsalar va jarayonlar borlig‘i) tabiat borlig‘iga bo‘linadi.* Birlamchi tabiat notirik tabiat narsalari va jarayonlarining borlig‘i – butun tabiiy va sun‘iy dunyo, shuningdek, tabiatning barcha holatlari va hodisalari (yulduzlar, sayyoralar, er, suv, havo, binolar, mashinalar, aks sado, kamalak, ko‘zgudagi aks va sh.k.)dir. Birlamchi tabiat borlig‘i ikki darajani o‘z ichiga oladi. Birlamchi daraja jonli ruhsiz jismlardan, ya‘ni ko‘payish qobiliyatiga ega bo‘lgan, atrof-muhit bilan moddalar va energiya almashinuvini amalga oshiradigan, lekin onga ega bo‘lmagan barcha narsalar, ya‘ni sayyoramiz hayvonot va o‘simliklar dunyosini o‘z ichiga olgan butun biosferadan

iborat. Ikkilamchi daraja – bu inson va inson ongining borlig‘i bo‘lib, bu inson yaratgan yoki o‘zgartirgan tabiatdir. Tabiat makon va vaqtda cheksiz hamda abadiydir. Ikkilamchi yoki inson tomonidan yaratilgan tabiat birinchi tabiatga bog‘liq. Bir tomondan, ikkilamchi tabiatda birlamchi tabiat materiali, boshqacha aytganda, ob‘ektiv birlamchi borliq mujassamlashgan, boshqa tomondan esa –unda insonning mehnati, irodasi va bilimlari, uning qalbi o‘z ifodasini topgan. Ikkilamchi tabiat – bu mehnat qurollari va sharoitlari, aloqa vositalari, inson ruhining ehtiyojlari, ma‘rifatli borliq, moddiy va ma‘naviy madaniyatni belgilovchi barcha narsalar va jarayonlardir. *Inson borlig‘ining tahlilida uning tabiatning bir qismi sifatida jismoniy mavjudligini va alohida inson borlig‘ini farqlash o‘rinli bo‘ladi.* Inson tabiatning bir qismi hisoblanadi va shu ma‘noda uning qonunlariga bo‘ysunadi. Tananing mavjudligi inson o‘limga mahkum ekanligini belgilaydi. Inson borliq va yo‘qlik dialektikasi bilan bog‘lanadi, barcha tabiat jismlari kabi vujudga kelish, shakllanish va halok bo‘lish holatlaridan o‘tadi. Barcha tabiat jismlari kabi, inson tanasiga ham modda va energiyaning saqlanish qonunlari o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi, ya‘ni uning tarkibiy qismlari tabiatning boshqa holatlariga o‘tadi. Inson tanasi mavjud bo‘lishi uchun uni muttasil quvvatlash (ovqatlanish,

sovuqdan va boshqa xavf-xatarlardan saqlash) talab etiladi. Fikrlash uchun inson tanasining tirikligini ta‘minlash zarur. Bundan hayotni saqlash, insonning o‘z-o‘zini saqlashi va insoniyatning yashovchanligini ta‘minlash zaruriyati kelib chiqadi, bu oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, turarjoy, sof atrof-muhitga ega bo‘lish ehtiyojida o‘z ifodasini topadi. *Ma‘naviy borliq sub‘ektiv individuallashgan va ob‘ektiv (noindividual) ma‘naviy borliq sifatida mavjud.* Individuallashgan ma‘naviy borliq –bu insonning ichki dunyosi, u ongillik va ongsizlikni qamrab oladi. Bunday yondashuvga ko‘ra, ruh – individual ong bilan ayniy tushuncha, tor ma‘noda esa u tafakkurdir. Ong – inson bosh miyasining dunyo borlig‘ini izchil aks ettirish, uni obrazlar va tushunchalarga aylantirish qobiliyati. U taassurotlar, sezgilar, kechinmalar, fikrlar, shuningdek, g‘oyalar, e‘tiqodlar, qadriyatlar, mo‘ljallar, andozalarning ko‘rinmas jarayoni sifatida mavjud. Ong tez oqadigan va bir xil bo‘lmagan orqaga qaytmaydigan xususiyatga ega. SHaklan bu jarayon tartibsiz, lekin shu bilan bir vaqtda unda muayyan tartib, barqarorlik, struktura, muayyan darajada intizom va iroda mavjud. Inson ongi ayni vaqtda uning o‘z-o‘zini anglashi, ya‘ni o‘z tanasi, fikrlari va tuyg‘ularini, o‘zining boshqa odamlarga bo‘lgan munosabatini va o‘zining jamiyatdagi o‘rnini anglab etishi, ya‘ni o‘zini o‘zi bilishdir. O‘zlikni anglash – bu ongimizning o‘ziga xos asosidir. Individual ong o‘zining o‘limga mahkumligi bilan tavsiflanadi, lekin uning ayrim qismlari noindividual ma‘naviy shakl-shamoyil kasb etadi, shuningdek, boshqa kishilar mulkiga aylanadi. Xatti-harakatlarda inson ongining fragmentlari moddiylashadi, ularga qarab odamlarning niyatlari, mo‘ljallari, maqsadlari, g‘oyalari haqida xulosa chiqariladi. Noindividual ma‘naviy borliqning o‘ziga xos xususiyati shundaki, uning elementlari saqlanadi, takomillashadi va ijtimoiy makon va vaqtda erkin harakatlanadi.

Ijtimoiy borliq ayrim insonning jamiyatdagi borlig‘i va jamiyatning borlig‘iga bo‘linadi. Har bir inson boshqa odamlar bilan muttasil aloqa qiladi, turli ijtimoiy guruhlar: oila, ishlab chiqarish jamoasi, millatning a‘zosi hisoblanadi. U boshqa individlar bilan yaqin aloqa qilib yashaydi. Odamlarning barcha faoliyati mazkur sotsiumga xos bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar, chunonchi: siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, axloqiy va boshqa munosabatlar doirasida amalga oshiriladi. *Virtual borliq texnologiyasi zamirida birinchi marta XX asr 60-yillarining o‘rtalarida paydo bo‘lgan kompyuterlar yordamida dunyolar modelini yaratish mumkin,* degan g‘oya yotadi. Virtual (lotincha «virtualis» – «mumkin bo‘lgan») – narsalar va hodisalarning vaqt va makonda moddiy mavjudligiga qarama-qarshi o‘laroq, ob‘ektiv narsalar yoki sub‘ektiv obrazlar mavjudligining nomoddiy turi.

«Virtual borliq» atamasi 1970-yillarning oxirida Massachuset texnologiya institutida Jeron Lener tomonidan o‘ylab topilgan. U 1984 yilda dunyoda birinchi virtual borliq firmasini tashkil etdi. Bu atama kompyuterda yaratiladigan muhitda insonning mavjudligi g‘oyasini ifoda etadi. «Virtual borliq» atamasi muomalaga amerikalik kinematograflar tomonidan kiritilgan. Ular muayyan sabablarga ko‘ra tabiiy yo‘l bilan amalga oshirib bo‘lmaydigan xayoliy imkoniyatlarni belgisi – grafik shaklda

sun'iy amalga oshirish mumkinligi haqidagi kinolentani shu nom bilan chiqarganlar. *Virtual borliq – inson real borliqda harakat qilayotgani illyuziyasini kompyuterda yaratish imkonini beruvchi interaktiv texnologiya.* Bunda ob'ektiv borliqni tabiiy sezgi organlari yordamida idrok etish o'rnini maxsus interfeys, kompyuter grafikasi va ovoz vositasida sun'iy yaratilgan kompyuter axboroti egallaydi. Virtual borliq amalda yo'q narsa, uni qo'l bilan tutish, uning ta'mi va hidini his qilish mumkin emas. SHunga qaramay, u mavjud va inson bu xayoliy olamga kirib, uni nafaqat kuzatadi va boshdan kechiradi, balki unga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ham ega bo'ladi, ushbu olamda mustaqil harakat qiladi, uni o'zgartira oladi. *Virtual olam – inson borlig'ining o'ziga xos shakli va odamlar ma'naviy aloqasining alohida madaniy ifodasidir.*

Ammo virtual borliq real fizik borliqdek lazzat baxsh eta olmaydi, chunki bu borliq ta'sirida vujudga keluvchi his-tuyg'ular ko'p jihatdan uning o'zi bilan emas, balki uni biz qanday idrok etishimiz bilan belgilanadi. Biz virtual dengizda cho'milishimiz mumkin, ammo bunda paydo bo'luvchi histuyg'ularimiz bu dengizni biz qanday idrok etishimizga bog'liq bo'ladi. Virtual tarvuz haqiqiy tarvuzdan shirin emas, virtual kolbasa haqiqiy kolbasa o'rnini bosa olmaydi va hokazo. Virtual borliqni odamlar yaratadi. Shu bois virtual borliqda mavjud barcha narsalarning manbai inson ongidir. Binobarin, virtual borliq ong, ong osti sohasi va fantaziya chig'irig'idan o'tuvchi fizik borliqdan shakllanadi. Virtual borliq ob'ektiv tarzda, ya'ni inson miyasida emas, balki kompyuterda mavjud bo'ladi. Ayni vaqtda, u inson ongining mahsulidir. Inson tomonidan yaratilganidan keyin u inson ongidan qat'i nazar yashashda davom etadi, bu ongga har xil ta'sir ko'rsatadi, mazkur ongning mazmuniga – bilimlar, emotsiyalar, kayfiyat hamda ongning boshqa unsurlariga qarab, har xil idrok etiladi. Bugungi kunda virtual borliq inson madaniy faoliyatining turli sohalarida qo'llanilmoqda. Virtual borliqdan, eng avvalo, u vujudga kelgan sohada, fanda – fizikada suyuqlik va gazlar dinamikasini modellashtirishda, kimyoda kimyoviy reaksiyalar modelini tuzishda, geologiya va geografiya fanlarida foydalanilmoqda. Muhandislik sohasida, ayniqsa, xavfli sharoitlarda: ochiq kosmosda, dengiz va okeanlarning chuqur joylarida, yadro muhandisligida robotlarni masofadan turib boshqarishda virtual borliq keng qo'llanilmoqda. Muhandislik dizaynini avtomatlashtirish jarayonida virtual borliq texnologiyasi, ayniqsa, qo'l kelmoqda. Kompyuter dizayni va uning ajralmas hamrohi – kompyuter ishlab chiqarishi raketalar va samolyotlar, avtomobillar katta binolar konstruksiyalarini sinovdan o'tkazishda yagona jarayonga birlashtirildi. Virtual borliq texnologiyasidan harbiylar ham keng foydalanmoqdalar. Masalan, AQSH armiyasida harbiy xizmatchilarda merganlik ko'nikmalarini shakllantirishda imitatorlardan, jang sharoitida tez va to'g'ri qarorlar qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish uchun esa harbiy doktorlardan foydalaniladi. Juda qimmatga tushadigan va atrof-muhitga katta zarar etkazadigan harbiy mashqlar imitatsiya qilinmoqda. Tank qismlarida tankdan o'q uzishni hamda tank jangida askarlar va ofitserlarning shaxsiy ishtirokini imitatsiya qiluvchi harbiy o'yinlardan foydalanilmoqda. Loyihalashtirilgan, lekin hali yasalmagan qurol-aslaha turlari sinovdan o'tkazilmoqda. Harbiylar olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va ularga baho berish uchun ham kompyuter imitatsiyasidan foydalanmoqdalar. Ta'lim sohasida mashq trenajyorlarini yaratishda virtual borliq texnologiyasidan foydalanilmoqda. YAqinda virtual kutubxonalar va muzeylar tashkil etish konsepsiyasi taklif qilindi. Masalan, virtual kutubxonalarda foydalanuvchi kompyuter yordamida kitob javonlarining vizual tasviri bo'ylab harakatlanishi, kerakli adabiyotlarni topishi va olib ko'zdan kechirishi, zarur holda esa, ulardan nusxa ko'chirishi mumkin. Virtual muzey konsepsiyasi bir qadar boshqacha. Virtual muzey foydalanuvchilarga kolleksiyadagi istalgan eksponatni uning tabiiy, uch o'lchovli ko'rinishida ko'rish imkonini beradi. Ammo bu tasviriy echish qobiliyati ancha yuqori bo'lgan displeylarni taqozo etadi. Shunday qilib, virtual borliq nazariy izlanishlardan ommaviy axborot vositalari va telekommunikatsiyalar ajralmas qismi bo'lgan hozirgi zamon madaniyatining tarkibiy qismiga aylandi. Yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga intilish bizga rivojlangan jamiyatlarda tobora katta rol o'ynayotgan yangi tajribaning cheksiz imkoniyatlarini qo'lga kiritish imkonini beradi, degan umid bilan bog'liqdir. *Virtual borliq tizimlari bu tajribadan va insonning*

«yangi o'ziga xos xususiyati»dan foydalanish imkonini amalda ta'minlaydi. Inson faqat o'z tasavvuri bilan cheklanadigan sun'iy tarzda yaratiluvchi virtual olamlar orasida yashay boshlaydi. Bunday dunyoni yaratish mumkinmi? Biz o'zimizda kiborglarni kashf etamizmi yoki faqat ongning kompyuterlar modellashtiruvchi muhit doirasidagi hozircha ifodalash mumkin bo'lmagan holatlarining tajribasini – buni kelajak ko'rsatadi. Bu yaqinlashayotgan va kompyuter ekranlari yorug'i bilan o'ziga chorlayotgan holatlarni qanday baholash hamda tavsiflash mumkin? Hozirgi zamon odamining haqiqiy bo'lmagan, g'ayriinsoniy zombi holatidagi mavjudligi borliqni inkor etish demakdir. U shaklan boshqacha borliq, mazmunan esa yo'qlik sifatida amal qiladi. Borliqning yuqorida sanab o'tilgan turli shakllari bugungi kunda fanga aniq ma'lum bo'lgan, kuzatish, o'rganish, tahlil, nazorat va hokazolar predme bo'lishi mumkin bo'lgan barcha narsalarni o'z ichiga oladi. Ayni vaqtda dunyo fan va inson aqli anglab etmagan jumboqlar va mo'jizalarga to'ladir. Ammo bu hol borliq haqidagi hozirgi tasavvurlar o'z kuchini yo'qotadigan qandaydir o'zga dunyolar mavjudligidan dalolat beradi, deb aytish uchun etarli asoslar mavjud emas.

Xullas, «borliq» kategoriyasi o'ta umumiy falsafiy abstraksiya bo'lib, u turli-tuman tabiat hodisalari va jarayonlarini, odamlar jamoalari va ayrim kishilarni, ijtimoiy institutlarni, inson ongining darajalari, shakllari va holatlarini mavjudlik belgisiga ko'ra birlashtiradi. Garchi bu hodisalar va jarayonlar borliqning turli sohalariga taalluqli bo'lsa-da, ularning barchasini umumiy asos birlashtiradi. Ammo cheksiz darajada rang-barang dunyoning yagonaligi to'g'risida so'z yuritish mumkinmi? Bu savolga «ha» deb javob berish orqali biz butun borliqning umumiy asosi haqida tasavvur hosil qilamiz. Bu haqda quyida so'z yuritiladi.

Olamning paydo bo'lishi va evolyusiyasi. Notirik tabiat o'z shakllari va holatlarining sonsanoqsizligi va rang-barangligi bilan aqlni lol qoldiradi. U turli jismlar, predmetlar, zarralar, gazlar, maydonlar, xossalar, hodisalar ko'rinishida amal qilar ekan, muttasil harakat va o'zgarishlar jarayonini boshdan kechiradi. Dunyoning paydo bo'lishi va evolyusiyasi haqidagi hozirgi ilmiy tasavvurlar so'nggi 400 yil ichida vujudga keldi, galaktikalar va ularning to'dalari, makro va mikro-dunyoning hayratomuz rang-barangligi haqida odamlar XX asrdagina xabar topdilar. Olamning cheksiz bo'shlig'i qarshisida bizning dunyo haqidagi tasavvurlarimiz hozir ham dengizdan bir tomchi bo'lib tuyuladi. Lekin, shunga qaramay, bugungi kunda biz bilgan va tushungan narsalar butun Olam va uning ayrim qismlari evolyusiyasi va muttasil o'zgaruvchanligi haqida ancha asosli xulosa chiqarish imkonini beradi. Boshqacha aytganda, dunyo u yoki bu bosqichda ma'lum narsalar vujudga kelib, o'z borlig'ini kasb etadigan va qachondir yo'q bo'ladigan, ya'ni o'zining avvalgi borlig'ini yo'qotib, modda va energiyaning saqlanish qonuniga binoan boshqa narsaga aylanadigan muttasil davom etuvchi jarayondir. Notirik tabiatning hozirda mavjud bo'lgan butun rang-barangligi o'z asosiga ega, ya'ni u qachondir vujudga kelgan. Bu fikrni kengayib borayotgan Olam haqidagi hozirgi ilmiy tasavvurlar ham tasdiqlaydi. Biroq, olimlar fikriga ko'ra, biz yashayotgan Olam tarixi boshlanishiga asos bo'lgan «Katta portlash» nazariyasi dunyoning mohiyati va uning tuzilishi xususida yangi va yangi masalalarni kun tartibiga qo'yimoqda. Tabiiy fanlarning ma'lumotlari taxminan 15 milliard yil muqaddam *ayrim osmon jismlari mavjud bo'lmagani, bizning Olam deyarli bir jinsli kengayib borayotgan plazmadan tashkil topganidan dalolat beradi.* Endilikda bir-biridan uzoqlashayotgan galaktikalar tarkibiga kiruvchi yulduzlar, sayyoralar, asteroidlar va boshqa ko'plab kosmik jismlar mavjud bo'lib, bu galaktikalarning to'dalarida vaqti-vaqti bilan fanga ma'lum bo'lmagan sabablarga ko'ra ulkan tadrijiy va inqilobiy o'zgarishlar yuz beradi.

Yer tarixi. Ilmiy tasavvurlarga ko'ra, biz yashayotgan sayyora taxminan 4,5 milliard yil muqaddam Quyosh tizimida sochilib yotgan gzsimon-changsimon moddadan paydo bo'lgan, muayyan moddiy jism sifatida o'z borlig'ini kasb etgan, oradan yana bir milliard yilcha vaqt o'tgach, Erning geologik tarixi boshlangan. Hozirgi zamon fani aniqlagan eng qadimgi tog' jinslarining yoshi shundan dalolat beradi. Shunday qilib, Yer jonsiz tabiatining moddiy dunyosi o'zining aniq geologik yil hisobiga ega va uning borlig'i sayyoramizning umumiy evolyusion jarayonlari bilan bog'liq. Erning tabiiy kosmik

jism sifatidagi evolyusiyasini esa nafaqat tog‘ jinslari yoki qit‘alar tarixi, balki minerallar, foydali qazilmalar, keyinroq esa, oliy shakllar darajasigacha rivojlangan jonli mavjudodlarning paydo bo‘lishi ham tasdiqlaydi.

4. Substansiya tushunchasining mohiyati. *Falsafa tarixida o‘zining mavjudligi uchun o‘zidan boshqa hech narsaga muhtoj bo‘lmagan birinchi asosni ifodalash uchun «substansiya» (lot.*

«substantia» – «mohiyat», «asos») kategoriyasi qo‘llaniladi. Ilk falsafiy yo‘nalishlarning vakillari barcha narsalar asosini tashkil etuvchi moddani birinchi asos sifatida tushunganlar. Odatda, bunday asos sifatida o‘sha davrda umumiy e‘tirof etilgan birinchi stixiyalar: er,suv, havo, olov yoki fikriy konstruksiyalar, «birinchi g‘ishtlar» – apeyron, atomlar qaralgan. «Avesto»da birlamchi substansiya olov deb atalgan. Keyinchalik substansiya kategoriyasi o‘zgarimas, nisbatan barqaror va hech narsa bilan bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud o‘ta keng asosga aylandi. Inson idrok etadigan dunyoning butun rang-barangligi va o‘zgaruvchanligi substansiya bilan bog‘lana boshladi. Bunday asoslar sifatida falsafada asosan materiya, Xudo, ong, g‘oya, flogiston, efir va shu kabilar amal qilgan. Substansiya g‘oyasidan turli falsafiy ta‘limotlar dunyoning birligi va uning kelib chiqishi haqidagi masalaga o‘zlari qanday javob berishiga qarab har xil foydalanadilar.

Monizm (yunon. «monos» – «bitta», «yagona») *dunyoning narsalar va hodisalar rang-barangligi bir substansiyadan iborat degan ta‘limot. Dunyoning kelib chiqishi va mohiyati haqidagi hozirgi ilmiy tasavvurlar, shuningdek, birinchi asos muammosiga nisbatan falsafa tarixidagi eng salmoqli yondashuvlar kurashi nuqtai nazaridan substansiya tabiatini tushunishga nisbatan ancha keng tarqalgan ikki yondashuv – materialis tik va idealistik monizmni qayd etish lozim.*

Materialistik monizm *dunyo yagona, uzviy, u azaldan moddiy va dunyoning birligi zamirida ayni shu moddiylik yotadi, deb hisoblaydi. Bu konsepsiyada olam ong va ideallikdan emas, balki moddiylikdan keltirib chiqariladi. Bunday yondashuvlarning o‘ta rivojlangan ko‘rinishlariga biz Fales, Geraklit, Spinoza va uning izdoshlari asarlarida duch kelamiz.*

Idealistik monizm *esa, materiyani har qanday borliqning boqiy mavjudligi, yo‘q bo‘lmasligi va birinchi asosiga ega bo‘lgan qandaydir ideal narsaning mahsuli deb hisoblaydi. Bunda ob‘ektividealistik monizmni (masalan, Platonda – bu o‘lmas g‘oyalar, zardo‘stiylikda olov, o‘rta asr falsafasida – Xudo, Gegelda – yaratilmaydigan va o‘z-o‘zidan rivojlanadigan «mutlaq g‘oya») va sub‘ektiv-idealistik monizmni (masalan, borliqning barcha jismoniy va ruhiy holatlarini «neytral» asosdan – dunyoning qandaydir mavhum konstruksiyalari, «elementlari» dan keltirib chiqargan Max) farqlash mumkin.*

Dualizm (lot. «dualis» – «ikki yoqlama») *birinchi asos sifatida ikkita substansiya tan olingan falsafiy yondashuv. Nemis faylasufi X.Volf XVIII asr boshida «dualizm» atamasini falsafiy muomalaga kiritgan. X.Volf dunyoda barqaror tartibning shakllanishida tafakkur, g‘oyalar va aqlidroknning alohida o‘rnini aniqlashga harakat qilgan. Falsafa tarixida Rene Dekart dualizmning yorqin vakili sifatida o‘rinoldi. R.Dekartning radikal mexanitsizmi uni materiyaning butunlay ruhsizligi haqidagi yondashuvga olib keldi.*

Plyuralizm (lot. – «ko‘plik», «ko‘p xillik», «ko‘p sonlik») *dunyoning negizida ikkita emas, balki undan ko‘proq mohiyat borligini tan oluvchi ta‘limotdir atamasini ham X.Volf 1712 yilda taklif qilgan. Bu Ayni shu ta‘limot borliqning ko‘p sonli mustaqil va o‘zaro bog‘lanmaydigan asoslari borligi haqidagi g‘oya ham ilgari surilgan. Leybnitsning monadalar haqidagi ta‘limoti*

(monadologiya) plyuralizmning klassik ko‘rinishi hisoblanadi. Ushbu ta‘limotga ko‘ra, dunyo sonsanoqsiz ruhiy substansiyalardan tashkil topadi. Plyuralistik yondashuvning bundan oldinroq ilgari surilgan ko‘rinishlari ham mavjud. Masalan, Empedokl yaratgan dunyoning to‘rt asosi haqidagi ta‘limot plyuralistik ontologiyaning turlaridan biri sifatida amal qiladi. Falsafada materiya tushunchasining vujudga kelishi.

«Materiya» atamasi lotincha «materia» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, «modda» degan ma‘noni anglatadi. SHunga qaramay, falsafa tarixida «materiya» tushunchasining mazmuni, tabiatshunoslik va

falsafaning rivojlanishiga muvofiq necha marta o'zgargan. Qadimgi yunon falsafasida materiyaning etimologik talqinidan keng foydalanilgan. «Materiya» tushunchasini asosiy falsafiy kategoriya sifatida ilk bor Platon ishlatgan. U hyle atamasini muomalaga kiritgan va u bilan kattaligi va shakl-shamoyili har xil jismlar paydo bo'lishiga asos bo'lib xizmat qiladigan sifatlardan mahrum substrat (material)ni ifodalagan. Platon talqinida materiya shaklsiz va nomuayyan bo'lib, har qanday geometrik shakl ko'rinishini kasb etishi mumkin bo'lgan makon bilan tenglashtiriladi.

Falsafa tarixida harakat haqidagi tasavvurlar. Harakatni dialektik tushunish kurtaklariga Geraklit asarlaridayoq duch kelamiz. U olovni barcha o'zgarishlar substansiyasi sifatida tavsiflab, birinchi moddiy asos doimo o'zi bilan birga, ayni vaqtda, doimiy o'zgarish holatida bo'lishi haqidagi fikrni sodda obrazli shaklda ifodalagan. Geraklit harakatni miqdor jihatidan joydan-joyga ko'chish sifatida emas, balki uzlukli va uzluksiz, barqaror va o'zgaruvchan narsa va jarayonlarning o'zaro nisbati nuqtai nazaridan tushuntirishga harakat qilgan. Antik davridayoq Geraklit, undan keyin Epikur har qanday harakat manbaini ichki jarayonlarning qarama-qarshiligidan topgan. Ayni shu antik davrda tushunchalar mantiq'ida harakat jarayonini mantiqiy dalillar yordamida tushunib etish bilan bog'liq qiyinchiliklar qadimgi faylasuf Zenonni mashhur aporiyalarni ta'riflashiga turtki berdi. *Aporiya – muhokamalardagi ziddiyat tufayli hal etib bo'lmaydigan yoki hal etilishi mushkul bo'lgan holat, mantiqiy qiyinchilik, muammo.* Zenonning «Axilles va toshbaqa», «Uchayotgan kamon o'qi» kabi aporiyalari, hissiy tasavvurlarga zid o'laroq, harakat materiyaning atributi ekanligiga shubhalanishga majbur qilgan. «Axilles va toshbaqa» aporiyasi mazmuniga ko'ra, chopqir Axilles hayvonot olamining eng uquvsiz yuguruvchisi toshbaqani quvib boradi, deb faraz qilinadi. Bundan Zenon Axilles hech qachon toshbaqaga eta olmaydi, degan mantiqiy xulosa chiqaradi. Zenon bu aporiyasida quyidagicha fikr yuritadi: «Biror odam A nuqtadan V nuqtaga borishi lozim bo'lsin. U V nuqtaga eta oladimi?» Zenon bu savolga yo'q, deb javob qiladi. Chunki A nuqtadan V nuqtaga qarab yo'l olgan odam, avvalo, shu masofaning teng yarmidan o'tishi zarur. Bu masofaning teng yarmiga etishi uchun esa, shu yarim masofaning yana yarmini o'tishi zarur. Yarim masofaning yarmiga etishi uchun esa, qolgan masofaning yarmidan o'tishiga to'g'ri keladi. Xullas, oraliq masofa cheksiz miqdordagi yarim bo'laklarga bo'linib ketadi. Cheksiz yarim bo'laklarni bosib o'tish uchun esa cheksiz vaqt lozim.

Hech kim cheksiz vaqt yashay olmaydi. Shunday ekan, hech qachon u A nuqtadan V nuqtaga etib bora olmaydi. Bularning hammasi harakat jarayonini formal-mantiqiy tavsiflash mushkulligini ko'rsatadi. Ayrim faylasuflar Zenon aporiyalarini rad etish uchun sezgi organlariga suyanlarida, bunda ham ancha asosli e'tirozlar topilgan. Sezgi harakatni «ko'rishi» qadimgi falsafa vakillari – eleatlar tomonidan tan olingan, lekin aql uni «tushunish»ni xohlashi va tushuna olmasligi qayd etilgan. Aql mohiyatni, sezgilar esa hodisalar va ko'z ilg'aydigan narsalarni o'rganishini hisobga olsak, eleatlar mantiq'iga ko'ra, aynan mohiyatda harakat mavjud emas. Zenon harakatni ziddiyatsiz tarzda tavsiflash mumkin emasligini ko'rsata olgani e'tirof etilgan. Binobarin, harakat qaramaqarshilik demakdir. Zenon aporiyalarining alohida qimmat shundaki, ular amalda mavjud qaramaqarshiliklarni ko'rsata olgan. Balki, shuning uchun bo'lsa kerak, ko'plab qadimgi manbalarda Zenon dialektika asoschisi sifatida qayd etiladi. Zenon o'zi asarlarini Parmenidning «Hamma narsa bir» degan shiorini «Hamma narsa ko'pdir» degan qarama-qarshi yondashuvdan himoya qilish uchun yozganini ta'kidlagan. Harakatni o'rganishning muhimligini barcha faylasuflar teran anglagan. Aristotel harakatni bilmaslik sabablarni bilmaslikka olib keladi, deb hisoblagan va borliqning turlari qancha bo'lsa, harakat va o'zgarishlarning turlari ham shuncha, deb qayd etgan. Uning fikricha, «Miqdor uchun ko'payish va kamayish, sifat uchun – o'zgarish, makon uchun – ko'chib yurish, mohiyat uchun – vujudga kelish va yo'q bo'lish mavjud»¹². Harakatning vujudga kelish, yo'q bo'lish, o'zgarish,

¹² Аристотель. Органон. –М.: 1990 г. с. 159Аристотель. Органон. –М.: 1990 г. с. 159

³ Forobiy // Falsafa qomusiy lug'at. –Т.: «Sharq», 2005 й. 431-b.

ko‘payish, kamayish, ko‘chib yurish kabi turlarini farqlash lozim. Ammo Aristotel jonsiz, passiv materiya konsepsiyasini rivojlantirib, pirovard natijada, muayyan birinchi harakatlantirgich – har qanday faollikning negizi sifatidagi sof shakl harakat manbaidir, degan xulosaga keldi. Binobarin, harakat materiyaning atributi emas, balki uning modusi, ayrim xossasi va belgisidir, u faqat birinchi turtki vositasida beriladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, falsafiy tafakkur rivojlanishining keyingi ancha uzoq davri mobaynida harakat materiyaning atributi sifatida qaralmadi, balki uning ayrim va qo‘shimcha xossasi hisoblandi. O‘rta asr Sharq mutafakkiri Forobiy fikricha, harakat va sukunatning ibtidosi, biron-bir narsaga yoki irodaga borib taqalmasa, uni tabiat deb atash mumkin. Harakat vaqt bilan belgilangan. Harakat ibtido va intiho bilan chegaralanmagan³. Ibn Sino fikricha, harakat vujudi mumkinning ichki mohiyatidan kelib chiqadi va osoyishtalik bilan mavjud bo‘ladi. Harakat bu ashyolar, voqealarda sodir bo‘ladigan o‘zgarishdir³.

Uyg‘onish davri mutafakkirlari har qanday borliq – olamdan tortib mayda zarragacha – unga xos bo‘lgan ruh tomonidan harakatga keltiriladi, degan fikrni ilgari surdilar. Ular panpsixizm – butun olamni ilohiylashtirish ta‘limotiga asoslandilar. Yangi davr mexanikasi mazkur yondashuv mutlaqo asossizligini ko‘rsatdi. Mexanika nuqtai nazaridan, biron-bir jismni harakatga keltirish uchun unga qandaydir tashqi kuch ta‘sir ko‘rsatishi lozim. XVII–XVIII asrlarda mexanikaning jadal rivojlanishi, u ayrim nomexanik hodisalarni (masalan, issiqlik hodisalari, hattoki, fiziologik hodisalarni) tushuntirishda erishgan yutuqlar shunga olib keldiki, harakatga ancha tor ma‘noda mexanik harakat, ya‘ni makonda oddiy ko‘chib yurish sifatida qarala boshlandi. Umuman olganda, metafizik yondashuvlarning nomukammalligi so‘zning o‘z ma‘nosidagi harakatni, uning alohida turi – ko‘chib yurish bilan tenglashtirish; harakatga atribut emas, balki modus sifatida qarash; birinchi turtkning zarurligiga ishonch bilan bog‘liq edi. Bunday yondashuvlarning nomukammalligini ko‘pgina mutafakkirlar tan olgan. Masalan, ingliz faylasufi Jon Toland (1670–1722) dinni tanqid qilar ekan, harakatni materiya atributi, deb hisoblaydi. U, «Men harakatni materiyaning muhim xossasi, deb bilaman. Boshqacha aytganda, o‘tkazmaslik va ko‘lamlilik materiya tabiatiga qanday xos va u bilan uzviy bo‘lsa, harakat ham materiya tabiatiga shunday xos va u bilan uzviydir. Binobarin, harakat materiya ta‘rifidan uning tarkibiy qismi sifatida o‘rin olishi lozim»⁴, deb yozgan.

Harakat tiplari. Fanda ob‘ektiv borliq narsalari va hodisalari *harakatining ikki asosiy tipi: progress va regress* farqlanadi. Ularning biri materiya, energiya, axborotning makonda siljishi bilan bog‘liq bo‘lib, harakatlanuvchi narsalar o‘z muhim xossalarini o‘zgartirmasligi, ya‘ni o‘z sifatini yo‘qotmasligi bilan tavsiflanadi. Bular miqdor o‘zgarishlari, makondagi ko‘chishlar yoki o‘rin almashuvidir. Bunga yurib ketayotgan odam, qorong‘i osmon fonida proyektor nurining harakati va hatto xayolda ayrim ob‘ektlardan boshqa ob‘ektlarga o‘tish misol bo‘lishi mumkin. So‘nggi zikr etilgan holda fikrning muayyan (masalan, formal mantiq nuqtai nazardan to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri) yo‘nalishdagi harakati to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Ammo harakatning qayd etilgan tipi dunyoda yuz berayotgan o‘zgarishlarning butun rang-barangligini qamrab olmaydi. Aksariyat hollarda ular narsalarning ichki strukturasi qayta qurish bilan birga kechadiki, bu dastlabki narsa sifatlarining o‘zgarishi va u butunlay boshqa narsaga aylanishiga sabab bo‘ladi.

Harakat shakllari. Harakat shakllarini tasniflashda qaysi tamoyillarga rioya qilinishiga qarab bunday shakllarning har xil miqdori farqlanadi. Masalan, *XIX asrda materiya tashkil topishining turli darajalariga asoslanib, materiya harakatining besh asosiy shakli: mexanik, fizik, kimyoviy, biologik va ijtimoiy harakat qayd etilgan.* Harakatning mazkur shakllari bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bunda har bir keyingi harakat o‘zidan oldingi harakatdan kelib chiqadi, unga asoslanadi, biroq, shunga qaramay, quyi shakl bilan bog‘lanmaydi. *Harakatning murakkab shakllarini soddaroq shakllarga bunday bog‘lashga urinishlar falsafa tarixida «mexanitsizm», «reduksionizm» (lot. «reductio» – «ortga surish») degan nom olgan, harakat ijtimoiy shakllarini biologik shakllar darajasigacha soddalashtirish biologizatorlik konsepsiyalarida mavjud.*

Materiya harakatining uch shakli: asosiy, xususiy va kompleks shakllari mavjud degan boshqacha yondashuv ham bo‘lib, u dunyoni butun rang-barangligini ifodalaydi. *Asosiy shakllarga fizik, kimyoviy, biologik va ijtimoiy shakllar kiradi.* Ular materiya harakatining eng keng shakllaridir. Ayrim mualliflar materiya harakatining yagona fizik shakli mavjudligiga shubha bildiradilar. Ammo bu fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi. Barcha fizik ob‘ektlar ikki eng umumiy fizik xossa – massa va energiyaga ega. Fizik narsalar dunyosiga keng qamrovli umumiy energiya ning saqlanish qonuni xosdir. *Materiya harakatining xususiy shakllari asosiy shakllar tarkibiga kiradi.* Masalan, fizik materiya bo‘shliq, maydonlar, elementar zarralar, yadrolar, atomlar, molekulalar, makrojismlar, yulduzlar, galaktikalar, metagalaktikani o‘z ichiga oladi.

Materiya harakatining kompleks shakllariga (astronomik metagalaktika – galaktika – yulduzlar – sayyoralar), geologik (planetar jism sharoitidagi materiya harakatining fizik va kimyoviy shakllaridan iborat), geografik (litosfera, gidrosfera va atmosfera doirasidagi materiya harakatining fizik, kimyoviy, biologik 1470 TD. va ijtimoiy shakllarini o‘z ichiga oladi) shakllar kiradi. Materiya harakati kompleks shakllarining muhim xususiyatlaridan biri shundan iboratki, ularda pirovard natijada materiyaning quyi shakli –fizik materiya etakchilik qiladi; geologik jarayonlar fizik kuchlar, chunonchi, gravitatsiya, bosim, issiqlik bilan tavsiflanadi, geografik qonunlar fizik va kimyoviy shartlar hamda Er yuqori qatlamlarining o‘zaro nisbatlari bilan belgilanadi.

Makon va vaqt falsafa tarixida. Bizni qurshagan dunyo mazmuni, borliqning umumiy xossasi bo‘lgan borliq haqida so‘z yuritir ekanmiz, makon va vaqt tushunchalarini chetlab o‘tishimiz mumkin emas. Zero, har qanday jism, narsa, hodisa doim borliqning boshqa predmetlari va hodisalari bilan yonma-yon keladi, ko‘lamlilik xususiyatiga ega bo‘ladi. SHuningdek, ular o‘z ichki va tashqi holatlarini bir-biriga nisbatan o‘zgartiradi va bu turli hollarda har xil tezlik, marom, sur‘at va davomlilik bilan yuz beradi. Alohida holda, ayrim yagona deb qaraladigan bu ko‘rsatkichlar majmui bizga vaqt haqida tasavvur beradi. Makon va vaqt o‘z rang-barangligida cheksiz borliqning shakllari sifatida amal qiladi. Makon va vaqt mohiyati haqida odamlar o‘z rivojlanishining dastlabki bosqichlaridayoq fikr yuritganlar va o‘tmishning aksariyat mutafakkirlari ularning tabiatini aniqlashga harakat qilganlar. Bu, avvalo, inson amaliyoti va bilishining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Zero, ular kengayib va takomillashib, mazkur kategoriyalarni yanada aniqroq va teranroq tushunishni talab qilgan. Xususan, antik davrdayoq falsafadan ko‘lamli shakllar va ularni o‘lchash usullari haqidagi fan sifatida ajralib chiqqan geometriya dastlabki aniq fanlardan biriga aylandi. Vaqtga astronomik kuzatishlar hamda koinotning boqiyiligi va inson hayotining tezoqarligi haqidagi mulohazalar nuqtai nazaridan ham alohida e‘tibor qaratilgan. Keyinchalik «makon» va «vaqt» kategoriyalariga qiziqish hech qachon susaymagan. Ular bilan bog‘liq ko‘p sonli masalalar yuzaga kelgan. Ularning eng muhimlaridan biri quyidagicha yangraydi: makon va vaqt mustaqil mohiyatlarmi yoki ular faqat nimagadir bog‘liq holda keladimi? SHu munosabat bilan falsafa tarixida shakllangan ikki muhim va bir-biridan butunlay farq qiladigan yo‘nalish – substansional va relyasion yo‘nalishlarni farqlash mumkin.

Substansional yo‘nalishda makon va vaqt materiya va ongga bog‘liq bo‘lmagan mustaqil mohiyatlar sifatida amal qiladi. Substansional konsepsiya asoschilari Demokrit (makon muammosi bo‘yicha) va Platon (vaqtga nisbatan yondashuvlarda) Demokrit atomlar harakatlanuvchi bo‘shliq amalda mavjudligi haqidagi yondashuvni ilgari surgan. Uning fikricha, bo‘shliqsiz atomlar harakatlanish imkoniyatidan mahrumdir. Demokrit va Epikur makonni atomlardan iborat joy, deb tasavvur qilgan va uni bo‘shliq bilan tenglashtirgan. Makon mutlaq, bir jinsli va harakatsiz bo‘ladi, vaqt esa bir tekis oqadi, deb hisoblangan. *Makon ob‘ektiv, bir xil va cheksiz. U atomlar joylashadigan joy. Vaqt (zamon)ni abadiyat bilan tenglashtirish mumkin, u o‘tmishdan kelajak sari bir maromda kechuvchi sof davomlilikdan iborat. Vaqt – voqealar yuz beruvchi joy.*

Makonning uch o‘lchovligi. Makonning uch o‘lchovliligi hanuzgacha ilmiy-nazariy jihatdan aniq isbotlanmagan. Makon va vaqtning cheksizligi hamda tunganmasligi, makonning uch o‘lchovliligi,

vaqtning bir yo‘nalishligi, orqaga qaytmasligi makon va vaqtning asosiy xossalari sifatida qaralishi lozim. Biz makroskopik tajribada ko‘radigan ob‘ektlar uch o‘lchovli ko‘lamlilikka – uch o‘lchovdagi o‘lchamlilikka ega.

Xulosalar. Hozirgi zamon olimlari materiya harakatining texnik, kibernetik va informatsion shakllari to‘g‘risida so‘z yuritmoqdalar. Bu masalalar ko‘p jihatdan bahs lidir. Ammo shu narsa shubhasizki, ob‘ektiv borliqni yanada chuqurroq o‘rganish na faqat mavjud tasniflarning mufassallashuvi va takomillashuviga, balki materiya harakatining yangi shakllari to‘g‘risidagi g‘oyalar va nazariyalar paydo bo‘lishiga ham olib keladi. Zero, har bir shakl butun olam universal rivojlanish jarayonining imkoniyatlaridan birini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.:“O‘zbekiston”, 2014. 24 b
2. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
5. Karimov I.A. Asarlar to‘plami. 1-24 jildlar.- T.: O‘zbekiston 1996-2016.
6. Karimov I. A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. 2 nashr –T.:Ma‘naviyat, 2016 176-b.
7. Falsafa. Axmedova M. Tahriri ostida. – T.: O‘FMJ, 2006. 339 b.
8. Shermuxamedova N.A. Falsafa. – T.: Noshir, 2012. 1214 b.
9. Falsafa asoslari. Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: «SHarq», 2005 y.

5-MAVZU. OLAMNING UNIVERSAL ALOQALARI VA RIVOJLANISH. FALSAFANING QONUN VA KATEGORIYALARI

REJA:

1. Falsafa tarixida rivojlanish haqidagi qarashlar evolyusiyasi.
2. Umumiy o'zaro aloqa va rivojlanishning dialektik tamoyillari.
3. Qonun va uning tasnifi.
4. Falsafaning asosiy qonunlari.
5. Kategoriya tushunchasi va ularning turlari.

Tayanch tushunchalar: Rivojlanish, dialektika, ob'ektiv dialektika, sub'ektiv dialektika, stixiyali dialektika, materialistik dialektika, idealistik dialektika, ziddiyat, sakrash, ayniyat, tafovut, inkor, vorisiylik, miqdor, sifat, me'yor, xossa, qonun, voqelik qonunlari, fan qonunlari, falsafa qonunlari.

Falsafa tarixida rivojlanish haqidagi qarashlar evolyutsiyasi. Harakat, taraqqiyot, umumiy bog'lanish va aloqadorlik to'g'risidagi falsafiy ta'limotlar ham falsafa fani bilan birga paydo bo'lgan. Bu muammolar tahlili falsafada «dialektika» tushunchasi orqali ifodalangan. Bu tushuncha falsafa tarixida turli davrlarda turli ma'nolarni ifodalab kelgan. Dialektika dastlabki davrlarda o'zaro bahs, munozara olib boruvchi mutafakkirlarning muhokamalaridagi qaramaqarshi, zid fikrlarning to'qnashuvi va shular asosida haqiqatni aniqlash ma'nosini ifodalagan. Antik davr mutafakkirlarining ma'lumotiga ko'ra, munozarada ishtirok etuvchilar, o'z muhokamalarida bir-birlariga muqobil savollarni berib, bu savollarga har tomonlama yondoshib, ulardagi bir tomonlamaliklarni bartaraf qilishga uringanlar. Bunda, ular, o'z muhokamalarida har xil nuqtai nazarlarni hisobga olgan holda, ilmiy, nazariy, ahloqiy, siyosiy, huquqiy va shu kabi voqea-hodisalar to'g'risida o'z qarashlarini ishlab chiqqanlar. Ular shundan kelib chiqib, dialektika deganda o'zaro bahslashuv san'atini, munozara asosida haqiqatga erishish usulini tushunganlar. Masalan, antik davr mutafakkiri Suqrot dialektikani bahslarda yo'l qo'yiladigan qarama-qarshi fikrlar o'rtasidagi ziddiyatlarni ochish orqali haqiqatga erishish san'ati, deb tushungan. Dialektikani bahs san'ati sifatida tushunish hatto o'rta asrlarda ham davom etgan. Buni o'rta asrlar mutafakkiri Per Abelyarning «Ha va yo'q» nomli asari yaqqol tasdiqlaydi.

Dialektikaga munozara san'ati sifatida qarash o'rta asrlarda yashagan O'rta Osiyo mutafakkirlariga ham xos bo'lib, hatto bu narsa Uyg'onish davrlarida ham davom etgan. Bu davr mutafakkirlarida ham dialektika savol-javob san'ati sifatida o'zgacha fikrlarni rad qilish usuli bo'lib xizmat qiladi. Bunga misol qilib G.Galileyning «Dunyoning ikki sistemasi to'g'risidagi bahs» asarini ko'rsatish mumkin. Umuman, dialektika tushunchasining paydo bo'lishi, u o'zining dastlabki davrlardagi tor ma'noni ifodalashiga qaramasdan, o'sha davrlardan to bizning kunlarimizgacha qo'llanib kelingan sermazmun falsafiy suhbat usulining paydo bo'lishida muhim rol o'ynadi va insoniyat madaniyatining rivojlanishiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

Asrlar davomida to'planib borgan dialektik munozara madaniyati murakkab muammolarni muhokama qilish, ulardagi turli qarama-qarshi nuqtai nazarlarni ochish, aniqlash va tushunish mahoratining qaror topishi inkor qilib bo'lmaz ahamiyat kasb etdi. Bora-bora dialektika qarama-qarshi nuqtai nazarlar, ular o'rtasidagi ziddiyatlarni ochish usuli sifatida qaraladigan bo'ldi.

Shunday qilib, sekin-asta inson ijodiy tafakkuri o'z tabiati bilan dialektik ekanligi haqidagi tasavvur paydo bo'ldi. Lekin ma'lum vaqt o'tishi bilan dialektika faqat kishilarning o'zaro munozaralarigagina xos emasligi ma'lum bo'la bordi. Oqibatda, dialektika faqat inson fikrlash jarayonigagina xos bo'lmasdan, balki u tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarga ham xos, deb qarala boshlandi. Ayniqsa, bu qarash borliq shakllari va turlari o'rtasidagi bog'lanish va

5-MAVZU. OLAMNING UNIVERSAL ALOQALARI VA RIVOJLANISH. FALSAFANING QONUN VA KATEGORIYALARI

aloqadorliklarning, ular doim o'zgarib, rivojlanib, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib turishlarining aniqlanishi bilan yanada rivojlandi. Natijada, «dialektika» tushunchasi insonni, uni qurshab turgan dunyoni bilish, uni tushunish va izohlashning umumiy usuli ma'nosini ifodalay boshlaydi.

Vaqt o'tishi bilan «dialektika» tushunchasi hamma narsalar: xoh katta, xoh kichik bo'lishiga qaramasdan, o'zgarib, o'zining oldingi xususiyatlarini o'zgartirib, ilgari ega bo'lmagan yangi xususiyatlar hosil qilib borishlarini ham ifodalay boshlaydi. Shu asosda astasekin dunyoni dialektik tushunish, borliq va bilishga dialektik qarash qaror topa boshlaydi. Lekin dunyodagi barcha o'zgarish, aloqadorlik va rivojlanishlarni falsafiy jihatdan tushunib etish juda qiyinlik bilan kechdi. Sababi: insoniyat taraqqiyotining juda uzoq davrlarigacha kishilar kosmosni, o'simliklar, hayvonot dunyosini, hatto kishilarning o'zlarini ham o'zgarmas, doimo bir xilda turadi, deb bilishgan. Dunyoning o'zgaruvchanligi, undagi narsa va hodisalarning birbirlariga bog'liqligi to'g'risidagi tasavvurlarning paydo bo'lishi insoniyatning dunyoni bilishi jarayonida juda katta kashfiyot bo'lgan.

Dunyoning o'zgaruvchanligi to'g'risidagi dastlabki fikrlar ham qadimgi Xitoy, Hindiston hamda Yunonistonning falsafiy ta'limotlarida ilgari suriladi. Qadimgi davr faylasuflari, garchi hali harakatning turli ko'rinishlari va xillari to'g'risida ilmiy dalillarga ega bo'lishmasa ham, borliqning umumiy o'zgaruvchi xarakteri haqida o'z davrlari uchun yangi fikrlarni ilgari surishadi.

Kishilar dastlabki vaqtlardan boshlab o'z tajribalarida narsa, hodisalardagi o'zgaruvchan xususiyatlar bilan birga, ularda ma'lum barqaror, o'zgarmas xususiyatlarning ham mavjudligini anglay boshlaganlar. Nihoyat, dunyo o'zgaruvchanmi, yoki o'zgarmasmi? degan savollar paydo bo'lib, bu savollarga mutafakkirlar turli xil javob berganlar. Amaliyot bergan ko'pdan-ko'p ma'lumotlarga va o'z kundalik tajribalariga tayangan ko'pchilik mutafakkirlar dunyo o'zgaruvchan, deyishgan. Lekin bunga qarama-qarshi bo'lgan, dunyo o'zgarmas, barqaror, deyvuchi mutafakkirlar ham o'zlarining muayyan asoslariga ega bo'lishgan. Natijada, dunyoning, undagi narsa va hodisalarning ham o'zgaruvchan, ham barqaror o'zgarmas xossalari haqidagi qarashlar kelib chiqadi. Haqiqatan ham, narsa va hodisalar ma'lum vaqt ichida har qancha o'zgarsa ham, ayni vaqtda ularning ma'lum tomonlari o'zgarmay qolaveradi. Xullas, bunday qarashlar to'plana borib, narsa va hodisalarning qarama-qarshi tomonlari, ular o'rtasidagi ziddiyatlar haqidagi qarashlar tufayli falsafada rivojlanish g'oyasi kelib chiqadi.

Rivojlanish g'oyasi inson ongida uzoq asrlar davomida shakllanib boradi. Dastlab kishilar rivojlanish to'g'risida hech bir tasavvurga ega bo'lmagan. Lekin keyinchalik ular dunyodagi narsa va hodisalarda yuz beradigan turli xil o'zgarishlarni anglay borib, dunyoning uzluksiz harakatda, o'zgarish va rivojlanishda ekanligini tushuna boshlaganlar. Ular, shu bilan birga, tabiat va jamiyat voqea-hodisalarida juda ko'p davriy, takrorlanuvchi hodisalarni ham bila borganlar. Masalan, yil fasllari, kun bilan tunning o'rin almashishi va shular kabi. Lekin dastlabki davrlarda mutafakkirlar rivojlanishni butunlay yangi narsaning, yangi bosqichning paydo bo'lishi, deb tushunish darajasiga ko'tarila olmaganlar. Rivojlanishni butunlay yangi sifat o'zgarishi, eskiga nisbatan jiddiy yangining paydo bo'lishi, deb tushunishda Uyg'onish davri Sharq va O'rta Osiyo mutafakkirlari, keyinchalik esa o'rta asr xristian, diniy va tarix falsafasi mutafakkirlari bir qadar oldinga ketadilar. Ularning qarashlarida rivojlanish g'oyasini insoniyat jamiyati tarixiga tatbiq etishga urinishlarni uchratamiz.

Rivojlanish g'oyasini bir butun dunyo rivojlanishi bilan bog'lab tushunishda muhim qadamni birinchi bo'lib fransuz faylasufi Rene Dekart qo'yadi. U, dunyoni xudo yaratayotib, unga dastlabki turtkini kiritgan va uni harakatga keltirgan, deydi. XVIII asr fransuz ma'rifatparvarlari Volter va Russo inqilobiy qayta qurishni o'z ichiga olgan tarixiy rivojlanish g'oyasini ilgari surishadi. Ularning izdoshi Kondorse esa o'zining jamiyatning ilgarilama harakati, uzluksiz taraqqiyot to'g'risidagi ta'limotini yaratadi. Bu mutafakkirlar o'z qarashlarida g'oyaviy omillar

5-MAVZU. OLAMNING UNIVERSAL ALOQALARI VA RIVOJLANISH. FALSAFANING QONUN VA KATEGORIYALARI

(masalan: ahloq, din, huquq va shu kabilar) jamiyatni harakatga keltiruvchi, rivojlantiruvchi asosiy kuchlardir, degan g'oyani ilgari suradilar.

Nihoyat, rivojlanish to'g'risidagi har xil qarashlarning sintezi sifatida bir butun taraqqiyot nazariyasi faqat nemis klassik falsafasidagina paydo bo'ldi. Bu falsafaning asoschilaridan biri **Immanuel Kant** rivojlanish g'oyasini quyosh sistemasi va barcha yulduzlar dunyosini izohlashga tatbiq etib, uni hatto insonning ijtimoiy rivojlanishiga, xususan, insonning ahloqiy rivojlanishiga ham joriy etishga urinadi. Kantning shogirdi Gerder esa rivojlanish g'oyasini butun xalqlarning tarixi taraqqiyotiga va insoniyat madaniyati taraqqiyotiga birinchi bo'lib tatbiq etadi. Bu davrga kelganda, dialektika tushunchasi endi rivojlanish g'oyasini ifodalay boshlaydi.

Dialektikani rivojlanish haqidagi har taraflama, mazmun jihatdan boy va chuqur ta'limot sifatida birinchi marta nemis klassik falsafasining buyuk vakili Hegel ishlab chiqdi. Hegelning ulug' xizmati shu bo'ldiki, u birinchi bo'lib, butun tabiiy, tarixiy va ma'naviy dunyoni bir jarayon shaklida, ya'ni uzluksiz harakat qilib, o'zgarib, qaytadan tuzilib, taraqqiy qilib turadigan holda ko'rsatdi va bu harakat bilan taraqqiyotning ichki bog'lanishini ochib berishga urindi. Natijada, insoniyat tarixi insoniyatning o'zining taraqqiyot jarayoni sifatida maydonga chiqdi va endilikda tafakkurning vazifasi bu jarayonning barcha yanglishib yurishlari ichida uning izchil bosqichlarini kuzatib borish va zohiriy tasodiflar orasida bu jarayonning ichki qonuniyatlarini isbot etishdan iborat bo'lib qoldi.

Hegelning taraqqiyot to'g'risidagi bu qarashi dialektika haqidagi falsafiy ta'limotni yanada boyitadi. Hegel birinchi bo'lib dialektikaning barcha kategoriyalari va qonunlarini ta'riflab bergan edi. Lekin dialektika Hegelga mistiklashtirilgan, bir tomonlama, boshi bilan turgan dialektika edi. Chunki Hegelning fikricha, dialektika «fikrning har qanday ilmiy kengaytirilishining harakatlantiruvchi jonidir va u shunday bir prinsipdan iboratdirki, bu prinsip yolg'iz o'zi fanning mazmuniga immanent aloqa va zaruriyat kiritadi».

Keyingi davrlarda fan va amaliyot rivoji natijasida dialektika tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining, ulardagi aloqadorlik va bog'lanishlarning eng umumiy qonunlari haqidagi fan; voqelikdagi narsa va hodisalar, ularning fikriy in'ikoslari o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi prinsiplar, ularni doimo o'zgarish va rivojlanishda, ichki ziddiyatlar taqozosi bilan yuz beradigai «o'z harakati»da, deb qaraydigan bilish nazariyasi; har tomonlama boy, ziddiyatlarga to'la tarixiy taraqqiyot haqidagi ta'limot sifatida maydonga chiqadi.

Bu dialektika bir butun borliqning eng umumiy aloqadorligi, o'zgarishi va taraqqiyoti to'g'risidagi ta'limot sifatida ham moddiy dunyoga, ham uning in'ikosi bo'lgan inson bilishiga xos ta'limotdir. Shunga ko'ra bu dialektika o'z ichiga ob'ektiv va sub'ektiv dialektikani oladi. Bunda moddiy dunyoning, undagi narsa va hodisalarning aloqadorlik va bog'lanishlari, ularning harakati, o'zgarish va rivojlanishlari ob'ektiv dialektikani tashkil etadi. Moddiy dunyoning inson miyasidagi in'ikosiga xos bo'lgan bilish jarayonining dialektikasi sub'ektiv dialektika — ob'ektiv dialektikaning kishilar miyasidagi in'ikosidir. Demak, ob'ektiv dialektika — bu narsalar, buyumlar dialektikasidir; sub'ektiv dialektika esa, ob'ektiv dialektikaning inson ongidagi in'ikosi — ya'ni, tafakkur dialektikasidir.

Ob'ektiv dialektika sub'ektiv dialektikani vujudga keltiradi. Bu jihatdan dialektikaga yangicha yondoshish Hegel dialektikasidan tubdan farq qiladi. Hegel dialektikasiga ko'ra fikr, tafakkur dialektikasi narsalar, buyumlar dialektikasini yaratadi, ya'ni sub'ektiv dialektika ob'ektiv dialektikani tug'diradi. Boshqa faylasuflarning ta'limotiga ko'ra esa, aksincha, narsalar, buyumlar dialektikasi fikr, tafakkur dialektikasini yaratadi.

Dialektika borliq, ya'ni tabiat, jamiyat va inson tafakkuridagi aloqadorliklar va rivojlanishlarning umumiy qonuniyatlari haqida bizga to'g'ri yo'nalish berib, dunyoni o'zlashtirish va o'zgartirish yo'llarini ko'rsatib beruvchi nazariyadir, usuldir. Dialektika dunyoning haqiqiy ilmiy manzarasini yaratib, kishilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga

yordam beradi. Chunki ilmiy asoslangan dialektika, birinchidan, dunyodagi har bir narsa yoki hodisaning hamma tomonlarining bir-birlariga bog‘liq bo‘lishi va bir-birlari bilan juda mustahkam aloqador ekanligi to‘g‘risida chuqur ma‘lumot bersa, ikkinchidan, u bosib o‘tilgan bosqichlarni takrorlanayotgandek bo‘lib ko‘rinadigan, lekin ularni boshqacha, yanada yuqoriroq negizda takrorlaydigan taraqqiyot, to‘g‘ri chiziq bilan emas, balki spiral tarzda boradigan, ma‘lum holatlarda boshlang‘ich holga go‘yo qaytganday bo‘lib ko‘ringan, ma‘lum tanazzullar va bo‘hronlar bilan bo‘ladigan ilg‘or taraqqiyot to‘g‘risidagi ta‘limot hisoblanadi. Dialektika kishilarning, ularni qurshab turgan dunyoni bilishining umumiy usuli sifatida dunyoga dialektik qarashni vujudga keltirgan. Dunyoga dialektik qarash — bu barcha narsa va hodisalarni, ularning inson miyasidagi in‘ikoslari — inson bilishini ham o‘zaro aloqadorlikda va bog‘lanishda, qarama-qarshiliklar birligi va kurashida, miqdor va sifat o‘zgarishlarining bir-biriga o‘tishida, eskining o‘rnini yangi egallashida, xullas, ularni «o‘z harakati»da, o‘zgarib va rivojlanib turishida, paydo bo‘lib va yo‘q bo‘lib turishida, va ayni vaqtda hamma narsa o‘zaro bog‘liqlik va aloqadorlikda va o‘zaro munosabatda, deb tushunishdir. Bunday tushunish dialektik qarashni vujudga keltiradi. Dunyoga dialektik qarash dialektik tafakkurni yuzaga keltiradi.

Dialektik tafakkur sub‘ekt tafakkurining rivojlanish darajasiga ham bog‘liqdir. Tabiat va jamiyatda pirovard natijada hamma narsa dialektik tarzda yuz beradi. Bu dialektik jarayon sub‘ekt miyasida in‘ikos etganda, paydo bo‘lgan tasavvur va tafakkur yo metafizik yoki dialektik yo‘l bilan hosil qilinishi mumkin. Dialektik tafakkur shu jihatdan inson tafakkuri taraqqiyotining nisbatan yuqori bosqichiga xosdir. Dialektik tafakkur borliqdagi narsa va hodisalar asli qanday bo‘lsa, ularning sub‘ekt miyasida muayyan fikr shaklida xuddi shunday aks etishidir. Dialektik tafakkur — bu dialektik fikrlash usuli. Dialektik tafakkur ham tabiatshunoslik va ijtimoiy fikr taraqqiyoti bilan o‘zgarib, rivojlanib boradi. Uning keyingi davr ijtimoiy taraqqiyot bilan, jahon xalqlari hamjamiyatlarining vujudga kelishi bilan bog‘liq yuzaga kelgan shakli, bu — yangicha tafakkurdir. Yangicha tafakkurning asosini jamiyatni dialektik tushunish tashkil qiladi. Dialektik tafakkur usuli o‘z mohiyati bilan sofistlik, eklektik va dogmatik tafakkur usullaridan tubdan farq qiladi. Tafakkurning sofistlik, eklektik, metafizik-dogmatik usullari dialektik tafakkur usulining muqobillaridir. Ular inson tafakkuri faoliyatining turli qirralari sifatida bir-birlariga ham qaramaqarshi, ham, ayni vaqtda, bir-birlarini to‘ldiradilar. Ularning har birining inson tafakkuri jarayonida o‘z o‘rni bor. Biz ularning har biri bilan qisqacha tanishib chiqamiz.

Sofistika¹³. Sofistik tafakkur usuli dastlab qadimgi yunon falsafasida paydo bo‘lib, o‘rta asrlarda, ayniqsa keng tarqaladi va rivojlanadi.

Qadimgi davr yunon falsafasida biron-bir xunarni yoki biron bir bilim sohasini mukammal egallagan kishilar sofistlar, deb atalgan bo‘lsa, keyinchalik o‘rta asrlarga kelib, notiqlik, donishmandlik, bilimdonlik bilan nom chiqargan kishilar ham, turli omonim so‘zlar asosiga ko‘rilgan turli fikrlar bilan kishilarning boshini qotiradigan, ustamonlik bilan ular fikrlarini chalg‘itadigan kishilar ham sofistlar, deb atala boshlanadi.

Sofistik tafakkur usuli yoki sofistika muhokama jarayonida bilib turib, ataylab yolg‘on asoslardan yolg‘on xulosalar chiqarish asosida fikr yuritish usulidir. Shu sababli sofistkani Forobiy «yolg‘ondakam donolik» deb, izohlaydi. Uning fikricha, sofistlik tafakkur usuli bilan fikr yurituvchi kishi o‘rganilishi lozim bo‘lgan narsalarni o‘rganishda aqlni to‘g‘ri yo‘ldan chalkashtiradi va yolg‘onni rost shaklda tasavvur qilishga majbur qilib, kishini to‘g‘ri fikrlashdan adashtiradi.

Sofistika ijtimoiy ildizlarga ega. Sofistik tafakkur usuli haqiqatni ataylab buzib, yolg‘on fikrni haqiqat sifatida ko‘rsatishga asoslanadi. Bu narsa doimo ma‘lum manfaatdan kelib chiqib

¹³ Софистики (юнoнчa: sopism — ataylab xato asoslar asosida, ko‘p ma’noli so‘zlarga asoslanib fikr yuritish) — bilib turib, xato asoslardan yolg‘on xulosa chiqarishdir. Bu yerda sufiylik falsafasi emas, balki o‘rta asrlarda Yevropada keng tarqalgan alohida falsafiy ta‘limot nazarda tutiladi.

qilinadi. Bunga odatda formal mantiq qonunlarining talablaridan kelib chiqib yondashish ham imkon tug'diradi. Sofistik tafakkur usulida kishi rasmiy formal ta'riflar bilan cheklanadi va shu asosda fikr yuritadi. Lekin sofistik tafakkur usulini ham faqat salbiy jihatdan qarash to'g'ri emas. Sababi: sofistik tafakkur usuli ilmiy bilishda, haqiqatni aniqlashda salbiy rol o'ynasa ham, biroq u san'atda, har xil komik vaziyatni yaratishda, badiiy tasvirda ijobiy rol o'ynaydi. Sofistik tafakkur usuli ham inson tafakkurining bir qirrasini, bir tomoni sifatida tafakkurning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Dialektik tafakkurning qaror topishida sofistik tafakkurning o'ziga xos muhim o'rni ham bor. Forobiy yozganidek, mantiq qonunlariga qat'iy bo'ysuniladigan fikr jarayoni sofistik tafakkur usulidan kishini xalos qiladi. Fikrning mantiqiy bo'lishi uchun u formal mantiq qonunlaridan dialektik mantiq qonunlari darajasiga ko'tarilishi lozim.

Eklektika.¹⁴ Dialektik tafakkur usuliga muqobil bo'lgan tafakkur usullaridan yana biri bu eklektikadir. Eklektik tafakkur usuli ham dastlab qadimgi yunon falsafasida yuzaga keladi. Eklektik tafakkur usuli, ayniqsa, O'rta asr falsafasi va yangi zamon falsafasi sxolastiklari qarashlarida keng qo'llaniladi. Eklektik tafakkur usulida narsa va hodisalarning muhim va nomuhim, asosiy va asosiy bo'lmagan xususiyatlari, ular o'rtasidagi bog'lanishlar mexanik ravishda birlashtirilib, qorishtirilib ifodalanadi. Narsa va hodisalarga, ularning bog'lanishlariga konkret (aniq), muayyan makon va zamonda, muayyan vaziyat va shart-sharoitda yondashmaslik, ulardagi asosiy va ikkinchi darajali tomonlarni hisobga olmaslik asosida eklektik tafakkur usuli paydo bo'ladi. Eklektik tafakkur usuli, ayniqsa, rahbarlikda rahbarning amaliy va nazariy faoliyatida, uning turmush ilgari surayotgan masalalarni to'g'ri hal qilishiga katta xalaqit beradi. U bunda narsa va hodisalarni, ularni tug'dirgan hayotiy muammolarning qaysi biri muhim, qaysi birini birinchi navbatda hal qilishni bilmaydi, u voqealar zanjiridagi asosiy xalqalarni asosiy bo'lmaganlardan ajrata olmaydi. Eklektik tafakkur usuli turli sohalarida turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Eklektik tafakkur usuli asosida ham formal mantiq qonunlaridan noto'g'ri foydalanish, narsa va hodisalar mohiyatiga yuzaki yondashish yotadi. Natijada, dogmatik tafakkur qaror topadi.

Dogmatika.¹⁵ Dogmatik tafakkur falsafadagi amaliyot va fanning yangi ma'lumotlarini hisobga olmay, konkret makon va zamon bilan bog'liq bo'lmagan, o'zgarmas tushunchalar va qoidalar bilan ish ko'ruvchi tafakkur usulidir. Dogmatik tafakkurning asosini metafizika tashkil qilib, u dastlab sofistik tafakkur usuliga qarama-qarshi o'laroq, vujudga keladi. Dogmatik tafakkurning paydo bo'lishi tarixan metafizik usulning qaror topishi va rivojlanib borishi bilan bog'liqdir. Dastlab tabiatshunoslik fanlari sohasida tabiatni tekshirish usuli sifatida paydo bo'lgan metafizika «tabiatdagi buyumlar va jarayonlarni bir-biridan ajratilgan holda, ular o'rtasidagi umumiy bog'lanishdan tashqarida tekshirishga va shuning natijasida, ularni harakat holatida emas, balki harakatsiz holatida - muhim darajada o'zgaradigan narsa sifatida emas, balki o'lik narsalar sifatida tekshirishga» kishilarni odatlantirib qo'ya boshlaydi. Bunday tekshirish va tushunish bora-bora o'ziga xos dogmatik tafakkur usulini vujudga keltiradi.

Metafizik-dogmatik fikr qiluvchi kishi nazarida, buyumlar va ularning fikrdagi in'ikoslari, ya'ni tushunchalar bir-biridan keyin va bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda tekshirilishi lozim bo'lgan ayrim-ayrim, o'zgarmas, qotib qolgan, hamisha bir zaylda turadigan narsalardir. Uning nazarida, buyum yo mavjuddir, yoki mavjud emasdir va xuddi shuningdek, bir narsa ayni zamonda shu buyumning o'zi va yana boshqacha bo'la olmaydi. Musbat narsa bilan manfiy narsa bir-birini

¹⁴ Эклектика (**юнунча:** eklegein — tanlayman, degani) — turli qarama-qarshi nazariyalarni qarashlarni aralashquralash qilib yuboruvchi tafakkur usuli.

¹⁵ Dogmatika (yunoncha so'z bo'lib o'zgarmas, qotib qolgan, aqida degani) — konkret shart-sharoitlarni hisobga olmay qo'llaniladigan qoida, prinsip, fikrdir.

5-MAVZU. OLAMNING UNIVERSAL ALOQALARI VA RIVOJLANISH. FALSAFANING QONUN VA KATEGORIYALARI

mutlaqo istisno qiladi... Bu tafakkur usuli, daf'atan qaraganda, bizga tamomila maqbul bo'lib ko'rinadi.

O'rta asr falsafasida metafizika teologiyaning falsafiy asosi qilib olinishi bilan diniy aqidalarga ishonish talablari kuchayadi. Bu o'z navbatida dogmatik tafakkurning yanada keng tarqalishiga sabab bo'ladi. Faqat dialektikaning paydo bo'lishi bilan, metafizik tafakkurning ilmiy jihatdan asossizligi ma'lum bo'lgandan keyingina, dogmatik tafakkur o'zining falsafiy asosidan mahrum bo'ladi. Lekin dogmatik tafakkur hozir ham mavjud. Dogmatik tafakkurning mavjudligi, avvalo, inson o'z bilish jarayonida ba'zan bilishning biron bir tomoni yoki biron holatini noo'rin mutlaqlashtirishi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bilan birga, dogmatik tafakkurning mavjudligi hozirgi zamon falsafasida olamning o'zgaruvchanligi va rivojlanishi g'oyasini inkor etuvchi antidialektik (ya'ni metafizik) konsepsiyalarning mavjudligi bilan hamda dialektikani bilmaslik yoki tushunmaslik bilan ham bog'liqdir.

Dogmatik tafakkur, ayniqsa, siyosatda juda xavflidir, u bunda sektantlikka, sub'ektivizmga, amaliyotdan uzilishga, ijodiy jarayonlarni to'xtatishga, ijodiy g'oyalar, nazariya va ta'limotlardan voz kechishga, hamma sohada sodir bo'ladigan yangiliklarni o'z vaqtida payqamaslikka, istiqbolni oldindan ko'rishga to'sqinlik qiladi. Dogmatik tafakkurga ega kishilar, ayniqsa, rahbarlik sohalarida jamiyatga juda katta zarar keltiradilar, ular jahon (jamiyat) taraqqiyotining o'zgarigan sharoitlarini hisobga olmasdan, o'zlari ko'nikkan vaziyatga muvofiq eski qarashlarga qattiq yopishib olib, ish tutadilar va fikr yuritadilar. Buni biz O'zbekistonning o'z mustaqil taraqqiyotini boshlab yangicha rivojlanish yo'liga o'tgan davrda ba'zi o'rta bo'g'in rahbar kishilar faoliyatlarida yaqqol uchratdik. Umuman, dogmatik tafakkurning hamma xildagi ko'rinishlariga qarshi kurash olib borib, dialektik tafakkurni hamma sohada keng qaror toptirish lozim. Faqat dialektik tafakkurgina ijtimoiy taraqqiyotning tarixiy ehtiyojlarini, eski shakllarning yangi rivojlangan mazmunga muvofiq kelmasligini, insoniyatning taraqqiyotini ta'minlovchi yangi shakl va mazmunga o'tishning zarurligini to'g'ri hisobga olishga yordam beradi. Hozirgi kunda shakllanayotgan sinergetika ham dialektika muammolariga yangicha yondoshish kerakligini ko'rsatmoqda.

Dialektika o'z mohiyati jihatdan umumiy aloqadorlik, bog'lanish, harakat, o'zgarish to'g'risidagi ta'limot sifatida tabiat, jamiyat va inson tafakkuriga xos eng umumiy aloqadorlik va bog'lanishlarni to'g'ri ochib borish asosida kishilarga dunyoni o'zlashtirish va o'zgartirish yo'llarini ko'rsatuvchi metodologik qurol bo'lib xizmat qiladi.

Dialektika, avvalo, umumiy aloqadorlik va bog'lanishlar haqidagi fandır. Chunki borliqdagi barcha narsa va hodisalarni umumiy aloqadorlikda va o'zaro bog'lanishda olib qarash borliq haqida dialektik fikr yuritishdir. Haqiqatan ham, borliqdagi hamma narsalar, hodisa va jarayonlar o'zaro bog'liq bo'lib, ular umumiy aloqadorlikda bir-birlariga ta'sir va aks ta'sir qilib turadilar, bir-birlarini taqozo qiladilar. Xoh tabiat va jamiyatda, xoh inson hayoti va tafakkurida bo'lsin, hech bir hodisa yoki voqea, o'zgarish yoki jarayon boshqa hodisa yoki voqealardan, boshqa o'zgarish va jarayonlardan alohida, ulardan ajralgan, ularga bog'liq, bo'lmagan, ular bilan aloqadorliksiz mavjud bo'lmaydi, aksincha, ular bilan doimo o'zaro aloqadorlikda bo'ladi.

Borliqning turli tomonlari, materiyaning turli ko'rinishlari, uning asosiy mavjudlik usullari, harakatning turli shakllari bir-birlari bilan o'zaro umumiy aloqadorlikda bo'lib, birbirlariga ta'sir va aks ta'sirida, lekin o'zaro bog'lanishda bir-birlarini taqozo qilib turadi.

Dialektikaning o'zaro aloqadorlik prinsipi yalpi umumiy xarakterga egadir. Uning bu yalpi umumiyliги shundaki, birinchidan, bu aloqadorlik bir butun borliqqa, ya'ni tabiat, jamiyat, inson, inson tafakkuri va bilishga xosdir; ikkinchidan, bu aloqadorlik borliqning hamma ko'rinishlariga oid barcha narsa va hodisalarni, ularga xos hamma narsa va holatlarni, bir butun inson bilish jarayonini, xullas, bir butun moddiy va ma'naviy olamning hamma bog'lanishlarini o'z ichiga oladi.

5-MAVZU. OLAMNING UNIVERSAL ALOQALARI VA RIVOJLANISH. FALSAFANING QONUN VA KATEGORIYALARI

Dunyoda boshqa narsalar, hodisalar va jarayonlar bilan tabiiy aloqadorlikda bo‘lmagan hech bir narsa, jarayon yo‘q. Lekin biz o‘z bilish jarayonimizda biron narsa yoki hodisani o‘rganar ekanmiz, dastlab uni boshqa narsalar yoki hodisalarning umumiy bog‘lanishlaridan ajratamiz. Bu jarayonda biz uning o‘ziga xos tomonlari va xususiyatlarini ochib berish uchun bu narsa yoki hodisaning boshqa narsalar va hodisalar bilan bo‘lgan hamma aloqa va bog‘lanishlarini, hamma aloqadorliklarini aniqlab, bilib boramiz. Narsa va hodisalarni haqiqatdan bilish uchun ularning barcha tomonlarini, barcha aloqalarini va bog‘lanishlarini birga olib o‘rganmoq, lozim. Biz garchi bunga hech qachon to‘la-to‘kis erisha olmasak ham, lekin har tamonlama o‘rganish talabi bizni xatolardan, noto‘g‘ri xulosa chiqarishlardan saqlab qoladi. SHu asosdagina biz bu narsa yoki hodisaning bir butun tabiati va mohiyatini to‘g‘ri bilib olishga erishamiz.

Dialektik aloqadorlik va bog‘lanishlar bir butun borliqning turli tomonlari va materiyaning turli ko‘rinishlari o‘rtasidagina mavjud bo‘lmasdan, balki har bir narsa yoki hodisaning ham o‘zidagi barcha tomonlari, hamma belgi va xususiyatlari o‘rtasida ham mavjuddir. Chunki har bir narsa yoki hodisaning hamma tomonlari bir-biriga bog‘liq bo‘lishi va bir-birlari bilan juda mahkam va chambarchas aloqadorligi qonuniy va tabiiy holdir.

Aloqadorlik va bog‘lanishlar borliqning turli sohalarida turli-tuman shakllarda namoyon bo‘ladi. Bular quyidagilardir: a) «elementar» zarralarning bir-birini taqozo qilishi va aks ta’siri shaklida; b) planetalarning bir-birini tortib va itarib turishlari shaklida. Organik tabiatda: a) tirik organizmlarning modda almashinuvi shaklida; b) tirik organizmlar bilan tabiiy muhit o‘rtasidagi bog‘lanishlar; v) o‘simlik va hayvonot dunyosining o‘zaro aloqadorligida; g) hayvonlar va odamlar o‘rtasidagi munosabatlarda va h. k. Jamiyatda bo‘lsa: a) jamiyat bilan tabiat o‘rtasida; b) jamiyatning moddiy va ma’naviy hayoti o‘rtasida; v) jamiyat ishlab chiqarish usulining tomonlari: ishlab chiqaruvchi kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari o‘rtasida; g) jamiyatning iqtisodiy bazisi bilan ustqurmasi o‘rtasida; d) jamiyat iqtisodiy strukturasi elementlari o‘rtasida; e) jamiyat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlarda ko‘rinadi. Tafakkurda bo‘lsa: a) bir butun tafakkur jarayonida, tafakkur shakllari o‘rtasida: b) tafakkur shakllari va qonunlari o‘rtasida; v) tafakkur va borliq o‘rtasida. Bilish jarayonida esa: a) hissiy bilish va aqliy bilish o‘rtasida; b) bilish bosqichlari va bilish shakllari o‘rtasida; v) bilish bilan borliq o‘rtasidagi aloqalar va bog‘lanishlarda ifodalanadi.

2. Umumiy o‘zaro aloqa va rivojlanishning dialektik tamoyillari. Har qanday konsepsiyaning mazmunini yoritishda uning tamoyillarini tahlil qilish, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. Dialektika ham bundan mustasno emas. Tamoyillar nima?

Falsafiy ma’nodagi «tamoyil»(prinsip) tushunchasi fundamental qoida, birinchi asosni, biron-bir konsepsiya yoki nazariyaning eng muhim asosini anglatadi. Falsafiy nazariya sifatidagi dialektikaga tamoyillar yaxlit tus beradi, uning qonunlari va kategoriyalarini izchil tizimga soladi. Dialektikaning hozirgi konsepsiyalarida umumiy aloqadorlik va rivojlanish, tarixiylik, sababiylik, tizimlilik kabi tamoyillar muhim rol o‘ynaydi. Quyida bu tamoyillarni tahlil qilamiz. **Umumiy aloqadorlik tamoyili.** Rang-barang dunyoda har bir ob’ekt ko‘p sonli xossalarga ega bo‘lib, ular boshqa ob’ektlar bilan o‘zaro aloqa jarayonida namoyon bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, har qanday tuzilma boshqa tuzilmalar bilan aloqaga kirishish orqali namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, har bir ob’ekt o‘ziga ob’ektlar bilan qonuniy bog‘lanadi va bu ob’ektlar bilan o‘zaro ta’sirga kirishish jarayonida ishtirok etadi.

Aloqa. Falsafada aloqa deganda makon yo vaqtda bir-biridan muayyan masofada uzoqlikda joylashgan ikki yoki bir necha hodisa yoki ob’ektning o‘zaro aloqa jarayoni tushuniladi. Ob’ektlar diskretlik, shakllanganlik va nisbatan mustaqillikdan mahrum bo‘lgan joyda aloqalar mavjud bo‘lishi mumkinmi? O‘z-o‘zidan ravshanki, shakllangan, nisbatan mustaqil narsalar mavjud bo‘lmagan joyda aloqa mavjudligini taxmin qilish ham mumkin emas. SHu sababli umumiy aloqa kategoriyasi «narsa», «uzluklilik», «uzluksizlik», «cheksizlik», «tuganmaslik» tushunchalari bilan

5-MAVZU. OLAMNING UNIVERSAL ALOQALARI VA RIVOJLANISH. FALSAFANING QONUN VA KATEGORIYALARI

tavsiflanadi. Hozirgi ilmiy bilimga tayanuvchi borliqning falsafiy talqini olamning universal yaxlitligini, dunyoning birligini ochib beradi. Dialektika kategoriyalari borliqning universal aloqalarini bilish shakli hisoblanadi.

Aloqalarning universalligi ularning tiplari va turlarining rang-barangligida namoyon bo'ladi. Aloqalarni tasniflash turli asoslarga ko'ra amalga oshiriladi. Xususan, bir tomonlama va o'zaro aloqalar, to'g'ri va egri aloqalar, bevosita va bilvosita aloqalar, ichki va tashqi aloqalar farqlanadi. Hajm jihatidan aloqalar umumiy, alohida va xususiy bo'lishi mumkin. Mazmun jihatidan genetik, funksional, strukturaviy, energetik, moddiy, informatsion va boshqa aloqalar farqlanadi. Aloqalarning butun rang-barangligi fanning qaysidir bir tarmog'i doirasida tadqiq etilishi mumkin emas. Ularning muayyan turlari maxsus fanlarning predmeti hisoblanadi.

Dialektika borliqning barcha jarayonlariga xos bo'lgan umumiy, muhim, universal aloqalarni o'rganadi. Fan borliqning universal qonunlarini tashkil etadigan ichki, zaruriy, muhim, barqaror, takrorlanuvchi aloqalarga alohida e'tibor beradi. Umumiy aloqalar dialektika kategoriyalarida yoritiladi.

O'zaro aloqa. Real voqelikda har bir muayyan ob'ekt ko'p sonli sababiy zanjirlarning murakkab «tuguni» hisoblanadi. U boshqa ob'ektlardan ta'sirlanish bilan bir vaqtda o'zi ham ularga aks (reaktiv) ta'sir ko'rsatadi. «Tashqi» va «ichki» sababiy zanjirlar unda uyg'unlashadi, kesishadi va tarmoqlanadi. Ular bir-biri bilan o'zaro aloqaga kirishadi va bu o'zaro aloqa ob'ektda yuz beruvchi barcha jarayonlarning negiziga aylanadi. Ob'ektni bilish uchun pirovard natijada unda vujudga kelgan sababiy aloqalar «tuguni»ni echish talab etiladi. Barcha hodisalar mohiyatiga izohni o'zaro aloqadan izlash kerak. U hodisalarning barcha xossalari va xususiyatlarini belgilaydi, amalda mavjud bo'lgan barcha imkoniyatlar, tasodiflar va zaruriyatlarning manbalarini o'zida mujassamlashtiradi. O'zaro aloqani tushunish umuman ob'ektni tushunish demakdir. Ammo har qanday ob'ekt boshqa ob'ektlar bilan o'zaro aloqa qilgani bois, uning barcha o'zaro aloqalarini bilish uchun undan boshqa ob'ektlarni o'rganishga, ulardan – uchinchi ob'ektlarga o'tishga to'g'ri keladi va hokazo. Ayrim ob'ektning tabiatini belgilovchi o'zaro aloqani bilish jarayoni cheksizdir. Paskal ta'biri bilan aytganda, to'g'nag'ich kallagini bilish uchun butun Olamni bilish talab etiladi.

Aloqa uchun asos. Aloqa, aloqa uchun asos va aloqa shart-sharoitlari tushunchalarini farqlash lozim. Aloqa yuzaga kelishiga imkoniyat yaratuvchi ayrim xossa, belgi yoki munosabat aloqa uchun asos bo'ladi. Asosning mavjudligi aloqa o'rnatish uchun zarur, lekin etarli emas, chunki uning o'rnatilishi doim emas, balki muayyan sharoitdagina yuz beradi. SHart-sharoitlar – bu avvalo predmet mavjud bo'lgan muhitdir. U aloqa o'rnatish uchun qulay yoki noqulay bo'lishi mumkin. SHart-sharoitlar o'z holicha aloqa o'rnatish omili bo'lishi mumkin emas, ular faqat aloqa yuzaga kelishiga ko'maklashadi yoki monelik qiladi.

Narsalar o'rtasida aloqa biron-bir muayyan asosga ko'ra yuzaga keladi. Umumiy asos ayrim umumiy asosga ega bo'lgan turli ob'ektlar o'rtasida umumiy aloqa yo'lini ham vujudga keltiradi. Masalan, muayyan manfaat guruhlari o'z manfaatlarini himoya qilish uchun siyosiy guruhlariga birlashadilar, mamlakatdagi siyosiy muhitga kuchli ta'sir ko'rsatadilar. Ammo boshqa, masalan, etnik, diniy va boshqa asoslarga ko'ra ular o'zaro bog'liq bo'lmasligi ham mumkin. SHunday qilib, mazkur misolda aloqa yo'li aloqa yuzaga kelishi uchun asos, boshqa belgilar – buning shartlaridir. O'zaro aloqa umumiy xususiyat kasb etadi, u butun borliqqa xosdir. SHu sababli aloqa tushunchasi dialektikada eng umumiy tushunchalardan biri hisoblanadi. Boshqa barcha kategoriyalar o'zaro aloqaning muayyan turlari bilan tavsiflanadi.

Munosabat. Aloqa tushunchasi o'zaro aloqa, harakat, munosabat tushunchalari orqali yoritiladi. «Hozirgi zamon falsafa lug'ati»da munosabat tushunchasi «narsalarning o'zaro mavjudlik usuli, ularda yashirin xossalarning namoyon bo'lish omili» sifatida ta'riflangan. Bu ta'rifda munosabatni tavsiflovchi quyidagi jihatlar farqlanadi: birinchidan, narsalarning o'zaro mavjudligi, yaqinlashuvi, birlashuvi. Ikkinchidan, munosabat narsaning xossalari namoyon etish, ya'ni

harakatga keltirish usuli sifatida amal qiladi. Uchinchidan, narsalarning birlashuvi sifatidagi munosabat ta'sirida kooperativ effekt, ya'ni narsalar holatlarining bir-birini o'zgartirishi yuz beradi. Bunda munosabat yuzaga kelgunga qadar yashirin holda mavjud bo'lgan narsalarning xossalari bir- biriga o'tadi va namoyon bo'ladi. Xullas, munosabat, bir tomondan, narsalarning o'zaro aloqasini, boshqa tomondan esa – ularning alohida-alohida mavjudligini nazarda tutadi.

O'zaro ta'sir narsalarning o'zaro aloqadorligini, ular bir-biriga ta'sir ko'rsatishi va bir-birini o'zgartirishini anglatadi. Ammo o'zgarish – harakat falsafiy tushunchasining sinonimidir. Binobarin, umumiy aloqaning tan olinishi bizni muqarrar tarzda borliqning o'zgaruvchanligi umumiy xususiyatini tan olishga olib keladi. Umuman o'zgarish sifatida tushuniladigan harakat butun olamni qamrab oladi, dunyoda hamma narsa muayyan paytda vujudga keladi, tadrijiy rivojlanadi, o'zgaradi va g'oyib bo'ladi (o'ladi, halok bo'ladi, barham topadi). Demak, har qanday hodisa o'z tarixiga ega. Ayni shu sababli tabiat va jamiyat hodisalarini o'rganishga nisbatan tarixiy yondashuv zarur. O'zgarishlar o'z xususiyati va yo'nalishiga ko'ra tartibsiz o'zgarishlar, aylanma harakatlar, jismlarning makonda bir joydan boshqa joyga mexanik ko'chishida namoyon bo'lishi mumkin. Rivojlanish o'zgarishning alohida tipi hisoblanadi. Dialektika kategoriyalari umumiy aloqalarning o'zgarish va rivojlanish manbai sifatidagi tavsifini to'ldiradi, harakatlanayotgan, tadrijiy rivojlanayotgan dunyoning keng manzarasini yaratish imkonini beradi. Biron-bir aloqalar va o'zaro ta'sirlarsiz mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan ob'ektlar amalda mavjud emas. Dialektikaning muhim belgilaridan biri va umumiy aloqa tamoyilining mazmuni aynan ob'ektlarning har tomonlama o'zaro aloqalari va o'zaro ta'sirlarini hisobga olishdan iborat.

3. Qonun va uning tasnifi. Rivojlanishning umumiy qonunlari. Hodisalarni tavsiflashdan ularning mohiyatini anglab etishga o'tish hodisalarda umumiy jihatlarni topishni talab etadi. Bunda vazifa turli hodisalar o'rtasida umumiy jihatlarni topishdangina iborat emas. Hodisalarni birlashtiruvchi va ularning birligini belgilovchi asosni tushunib etish zarur. Bu asos – hodisalarni «biriktiruvchi» va ularni bir-biriga yo'ldosh bo'lish, uyg'unlashish va muvofiqlashishga majbur qiluvchi amalda mavjud bo'lgan barqaror aloqani aks ettiruvchi qonundir. Qonunlarni bilishga hodisalarni ilmiy o'rganish natijasida erishiladi. Odatda, bu olimlarning tafakkurdan uzoq zahmat chekishni talab etuvchi juda og'ir ishdir. Voqelikning biron-bir qonunini aniqlash uchun olim o'rganilayotgan hodisalar haqidagi dastlabki ma'lumotlarning ko'p sonli to'plamlariga tayanishiga to'g'ri keladi. Bu ma'lumotlar shunday tartibga solinishi va umumlashtirilishi lozimki, hodi salarning mazkur sohasi asosiy elementlar va munosabatlarni farqlash imkonini beradigan tizim sifatida namoyon bo'lsin.

4. Falsafa qonunlari tabiat va jamiyatda insonning ongiga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan biri ikkinchisini taqozo qiluvchi qonunlardir. Falsafa qonunlari tizimida dialektik ziddiyatlilik qonuni markaziy o'rinni egallaydi. Qonunning muhim jihatlarni aniqlash uchun uning asosiy kategoriyalarini ko'rib chiqish kerak. Tahlilni qarama-qarshilik tushunchasidan boshlaymiz.

Qarama-qarshiliklar birligi qonuni. *Qarama-qarshilik – narsalar va hodisa lardagi bir-birini taqozo qiluvchi va bir-birini istisno etuvchi tomonlar, xossalalar, tendensiyalar, jarayonlarni aks ettiruvchi falsafiy kategoriya (assimilyasiya – dissimilyasiya, o'zgaruvchanlik – tug'malik, ishlab chiqarish – iste'mol qilish, yaxshilik – yomonlik va sh.k.).* Qarama-qarshiliklar – o'zaro bog'lanishli bo'lgan tushunchalar. Turli jihatlardan olingan taqdirda, ular o'zaro birlikni tashkil etmaydi va bir-biriga zid bo'lmashligi mumkin. *Qarama-qarshiliklar o'rtasida ikki xil munosabat mavjud: yagonalik munosabati va qarshi harakatga doir munosabat.* (qonunning klassik ta'rifida «kurash» atamasi ishlatiladiki, u qonunning mohiyatini soddalashtiradi, chunki mazkur atama ko'proq jamiyatga tegishlidir.)

Qarama-qarshilik birligi nima? *Birinchiidan, qarama-qarshiliklar birligi – bu ularning uzviyligi.* Har bir qarama-qarshilik boshqa bir qarama-qarshilikning mavjudlik sharti hisoblanadi. Ular

5-MAVZU. OLAMNING UNIVERSAL ALOQALARI VA RIVOJLANISH. FALSAFANING QONUN VA KATEGORIYALARI

alohida-alohida mavjud bo'lishi mumkin emas (agar qarama-qarshiliklardan biri yo'q bo'lsa, ularning ikkinchisi ham yo'q bo'ladi). Ikkinchidan, qarama-qarshiliklar birligi ular bir-birini taqozo etgan va bir-biriga o'tgan holdagina muayyan mazmun kasb etadi. Har qanday qarama-qarshilik o'zida mavjud bo'lmagan, lekin boshqa qarama-qarshilikda mavjud bo'lgan jihatga muhtoj bo'ladi. Ular bir-biri bilan o'zaro ta'sirga kirishadi. Qarama-qarshiliklar bir-biriga ta'sir ko'rsatish orqali bir-biriga o'tadi. Bu qarama-qarshiliklar makonda bir-biridan ajratilgan, turli jinsli hodisalar sifatida mavjud bo'lmashini, ularning har biri o'zida boshqasining muayyan jihatini mujassamlashtirishini anglatadi (masalan, o'quv jarayoni o'qituvchi va talablar mavjudligini nazarda tutadi). Qarama-qarshiliklarning qarshi harakat («kurash»)ga doir munosabati nima? Qarama-qarshiliklar bir-birini taqozo etar va rivojlanar ekan, biri boshqasiga «beparvo» bo'lmaydi, balki bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Ularning o'rtasida qarshi harakat, kurash boradi. Uning mohiyati yagonalikka barham berishdan iborat. Qarama-qarshiliklarning har biri ikkinchisini o'zidan itarib chiqaradi, undan xalos bo'lishga harakat qiladi. SHunday qilib, qarama-qarshiliklar kurashi qarama-qarshiliklar bir-birini inkor etgan, bir-birini istisno qilgan holda yuz beradi. Qarama-qarshiliklar birligi narsaning barqarorligini aks ettiradi va nisbiy, o'tkinchi hisoblanadi. Qarama-qarshiliklarning kurashi mutlaq xususiyat kasb etadi, u hech qachon to'xtamaydi.

Ziddiyatlar – narsa yoki hodisa qarama-qarshi tomonlarining bir-birini istisno etish va bir-biriga o'tish munosabatlaridir. Ziddiyatlar borliqning barcha hodisalari va jarayonlariga xos bo'lib, o'zgarish va rivojlanishning manbai, harakatlantiruvchi kuchi sifatida amal qiladi. Ayni shu sababli ziddiyat dialektik ziddiyatlik qonunining mohiyatini yoritib beruvchi bosh kategoriya hisoblanadi. Ziddiyat – bu qarama-qarshiliklar munosabatigina emas, balki ularning tarqalish jarayoni hamdir. SHu tufayli ham, Gegel g'oyalariga asoslanib, ziddiyat tarqalishining quyidagi bosqichlari (fazalari) farqlanadi: ayniyat, tafovut, qarama-qarshilik, ziddiyat va asos (ya'ni ziddiyatning echilishi).

Dialektik ziddiyat – bir-birini istisno etuvchi qarama-qarshiliklarning bilvosita birligidir. Qarama-qarshiliklar – ziddiyatlarning negizi, bog'lovchi bo'g'inlar esa – ularni echish mexanizmidir. Quyidagi dalillar bog'lovchi bo'g'inlar roli va qarama-qarshiliklar tushunchasiga misol bo'lishi mumkin: Irsiyat va o'zgaruvchanlik qutblarida nafaqat organizmning avvalgi holati, balki o'zlashtirilgan yangi belgilari ham saqlanishini ta'minlovchi genetik kod bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi. Ijtimoiy hayotda jamiyatning o'ta boy va o'ta qashshoq qatlamlari qarama-qarshiliklari o'rtasida bog'lovchi bo'g'in vazifasini o'rta sinf bajaradi. O'rta sinf mamlakat aholisining aksariyat qismini tashkil etishi lozimligi, aks holda jamiyat holati doimo beqaror bo'lishini Aristotel qadim zamonlardayoq qayd etgan. Zero, mayda mulkdorlar olgan daromadining bir qismini o'z ishini rivojlantirishga yo'naltiradi, bozor kon'yunkturasi o'rganadi va unga juda tez moslashadi, bozorni zarur tovarlar va xizmatlar bilan boyitadi. Yana bir misol – shaxs va jamiyat munosabatlari. Ma'lumki, shaxs va jamiyat qarama-qarshiliklar hisoblanadi, shaxs a'zo bo'lgan ijtimoiy guruhlar ularning o'rtasida bog'lovchi bo'g'in sifatida amal qiladi. Bu va boshqa dalillar bilishda *ichki qarama-qarshiliklar mavjudligini ham, bog'lovchi bo'g'inlarni ham hisobga olish muhim ekanligini ko'rsatadi*. XX asr 30-yillarining boshida ingliz fizigi Pol Dirak pozitronlar, ya'ni elektronlarga o'xshash, lekin musbat zaryadga ega bo'lgan zarralar mavjudligini bashorat qildi. Garchi olim o'z nazariyasida biron-bir xato topmagan bo'lsa-da, aksilzarralar mavjudligiga uning ishonchi yuq edi. SHunday qilib, qarama-qarshiliklar aloqasi va ziddiyatlarni echishning bir-biri bilan bilvosita bog'liqligi umumiy xususiyat kasb etadi, aloqa usuli esa bog'lanish xususiyati bilan belgilanadi. Bog'lovchi bo'g'inlarning o'zi ziddiyat qarama-qarshi a'zolari xossalari uchun uyg'unligidan tashkil topadi. **Tafovut** – *avvalgi holatdan saqlanib qolgan xossalarning ustunlik qilgani holda, ayni bir predmet xossalari mos kelmasligidir*. «Tafovut» – har xillik, o'z-o'ziga, boshqa narsalar, hodisalar, jihatlariga mos kelmaslik

5-MAVZU. OLAMNING UNIVERSAL ALOQALARI VA RIVOJLANISH. FALSAFANING QONUN VA KATEGORIYALARI

munosabati. Tafovut kuchli yoki ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. *Kuchli tafovut – predmetning o'z-o'zi bilan ziddiyatga kirishish omili.* Bu qarama-qarshilik bosqichi bo'lib, uning echilishi predmetning butunlay o'zgarishiga olib keladi. SHunday qilib, ziddiyatlarning kuchayishi va o'z echimini topishi rivojlanish manbai hisoblanadi. Rivojlanish manbai va rivojlanishni harakatlantiruvchi kuchni farqlash lozim. Rivojlanish manbai – ichki hodisa, predmetning ichki ziddiyatlaridir. Vaholanki, tashqi ziddiyat ham rivojlanishni harakatlantiruvchi kuch bo'lishi mumkin. Masalan, siz shamollab qoldingiz. Ayni holda tashqi muhit sizning holatingiz o'zgarishini harakatlantiruvchi kuch bo'ldi. Dialektik ziddiyat tarkibida asosiy tomon manfiy xususiyatga ega, chunki u mazkur ziddiyatni bartaraf etish, inkor qilishga qaratilgan. Musbat tomon mazkur ziddiyatni saqlashga qaratilgan.

Ayniyat – *predmet umumiy belgilarning muayyan davrda o'z-o'ziga mosligi.* Predmetning rivojlanishi va ziddiyatlarning echilishi bir necha bosqichdan o'tadi. Dastlabki bosqich – predmetning o'z-o'zi bilan nisbiy ayniqlik holati. Tabiatda mutlaq ayniyat mavjud emas.

Masalan, har bir organizm hatto oqsil molekulasining tuzilishi darajasida ham o'ziga xos belgilarga egadir. Har qanday predmet hech qachon o'z-o'zi bilan ayniy bo'lmaydi. Masalan, ko'zguga kelar ekansiz, siz o'z qiyofangizda hech qanday farq ko'rmaysiz. O'z do'stingiz bilan oradan besh yil o'tib uchrashgach, ikkalangiz ham: «U juda o'zgarib ketibdi!» deb o'ylasangiz kerak. *SHu bois, «ayniyat» tushunchasi ziddiyat tarqalishining dastlabki bosqichini anglatadi. Bu bir xillik, narsa, hodisa, jihatning o'z-o'ziga yoki boshqa narsalar, hodisalar, jihatlariga o'xshashlik munosabati.* Ziddiyatning vujudga kelishi yagonaning ikkilanishi sifatida, yagonaning o'z-o'zini qarama-qarshiliklarga differentsiatsiya qilishi sifatida yuz beradi. Ikkilanish chog'ida bir vaqtning o'zida ayni shu munosabatda qarama-qarshiliklar birligi ham, ularning kurashi ham vujudga keladi. Ziddiyatning shakllanish jarayonida qarama-qarshiliklar kurashi birinchi o'ringa chiqadi va rivojlanishning ichki, teran manbaiga aylanadi. Ziddiyatning o'zida qarama-qarshiliklar har xil rol o'ynaydi. Faolroq, harakatchanroq qarama-qarshilik ziddiyatning etakchi tomoni hisoblanadi. Qarama-qarshiliklar kurashi oxir-oqibatda yangi sifat holatiga olib keladi. Paydo bo'luvchi yangi hodisalar o'zlariga xos bo'lgan yangi ziddiyatlarga ega bo'ladi. Bu ziddiyatlar mazkur hodisalar rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Ziddiyatlarning rivojlanish jarayoniga yanada chuqurroq kirish uchun ularning tarqalish bosqichlari (fazalari)dan tashqari, ularning holatlarini ham farqlash zarur. Predmetlimoddiy, «etilgan» ziddiyatning holati deganda, qarama-qarshiliklarning amal qilish usuli, «birligi va kurashi»ning namoyon bo'lish xususiyati tushuniladi. Ayni shu xususiyat bu qaramaqarshiliklarning rivojlanish xususiyati va faollik darajasini belgilaydi. Ziddiyatning rivojlanish jarayonida bosqichlarni yoki tarqalgan, «etilgan» ziddiyatni tavsiflovchi holatlarni ham farqlash mumkin. Ijtimoiy tizimlarga tatbiqan ziddiyatlarning rivojlanish bosqichlariga nisbatan bunday yondashuv ularning quyidagi holatlarini aniqlash imkonini beradi: garmoniya, disgarmoniya, konflikt. SHuni qayd etish muhimki, ziddiyatlar rivojlanayotgan har qanday tizimda mazkur tizim mavjudligining boshidan oxiriga qadar mavjud bo'ladi. Holatlar, miqdor ko'rsatkichlari, qarama-qarshiliklarning o'zaro aloqasi xususiyati, ularning tizimdagi roligina o'zgaradi. **Ziddiyatlarning turlari.** Ziddiyatlarning butun rang-barangligi turli asoslarga ko'ra tasniflanadi.

Xususan,

- 1) namoyon bo'lish shakliga ko'ra – ichki va tashqi ziddiyatlar;
- 2) rivojlanishdagi roliga ko'ra – asosiy va ikkinchi darajali ziddiyatlar;
- 3) vujudga kelish xususiyatiga ko'ra – zaruriy va tasodifiy ziddiyatlar;
- 4) jamiyatdagi tipiga ko'ra – antagonistik va noantagonistik ziddiyatlar farqlanadi.

Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi qonuni. Hodisalarga ma'kon–vaqt mezonini nuqtai nazaridan tavsif berish jarayonida «qaerda?» va «qachon?» savollari birinchi o'ringa chiqadi. Ularni bilishga nisbatan boshqa bir yondashuv «nima?» savoli bilan bog'liq. Ma'lum

5-MAVZU. OLAMNING UNIVERSAL ALOQALARI VA RIVOJLANISH. FALSAFANING QONUN VA KATEGORIYALARI

joyda va ma'lum vaqtda mavjud bo'lgan mazkur hodisa nimadan iborat? U qanday xossalar bilan tavsiflanadi? Boshqa hodisalardan uning farqi nimada va qay jihatdan ularga o'xshash? Bunday savollarga javob hodisalarni sifat va miqdor jihatidan tavsiflash orqali beriladi. Mazkur tavsif predmeti sifat va miqdor kategoriyalari bilan ifodalanadi. Eng sinchkov tahlil ham hodisada sifat yoki miqdor jihatidan tavsiflash mumkin bo'lmagan narsani aniqlash imkonini bermaydi. Binobarin, sifat va miqdor – hodisaning qoldiqsiz «parchalanuvchi» ikki tomonidir. Miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishi qonuni rivojlanish jarayonining mexanizmini yoritadi, u qay tarzda va qanday shakllarda amalga oshirilishini ko'rsatadi. Bu qonunning xususiyatini, u qanday namoyon bo'lishi va amal qilishini aniqlash uchun uning asosiy tushunchalari: sifat, miqdor, me'yor, sakrashning mazmunini yoritish talab etiladi.

Sifat narsalarga xos va ularning borlig'i bilan ayniy bo'lgan hamda ular- ni muayyan aloqalar tizimidagi boshqa narsalardan farqlash imkonini beradigan o'ziga xos xususiyatni aks ettiradi. Narsalarning sifati ularning chekliligi bilan uyg'un bog'liq, zero mazkur sifat yo'q bo'lishi bilan narsaning o'zi ham yo'q bo'ladi, u boshqa narsaga aylanadi. Sifat – narsaning ichki xususiyati, predmetni mazkur jihatdan farqlash uchun zarur va etarli bo'lgan xossalar majmui.

Sifat – xossalarning oddiy majmui emas, balki ularning muayyan yaxlitlikdan o'rin olgan va predmetning alohida mohiyat sifatida mavjudligini belgilovchi tizimdir. Predmetlarning munosabatlari va aloqalarining rang-barangligi ayni bir predmetda qarama-qarshi xossalar va sifatlar mavjudligini izohlaydi. Bir jihatdan engil narsa boshqa bir jihatdan og'ir bo'ladi, bir aloqada oq narsa boshqa bir aloqada qora bo'ladi va hokazo. Masalan, suv va bug' bir-biridan sifat jihatidan farq qiladimi yoki miqdor jihatidanmi? Moddaning agregat holatini taqqoslaydigan bo'lsak, suv va bug' sifat jihatidan farq qiladi. Taqqoslash suv va bug'ning kimyoviy tarkibini aniqlashni nazarda tutsa, ularning o'rtasida miqdoriy farq mavjud bo'ladi. Ammo har qanday narsa bir jihatdan bitta sifatga va turli jihatlardan ko'plab sifatlarga ega bo'ladi.

Xossa – predmetning jihati bo'lib, uning boshqa predmetlardan farqi yoki ular bilan o'xshashligini belgilaydi va ular bilan o'zaro aloqada namoyon bo'ladi. Xossalar muhim va ikkinchi darajali bo'lishi mumkin. Muhim xossalar predmetning sifatini belgilaydi. Ularning yo'qolishi mohiyatini mazkur xossalar tashkil etgan predmetning ham yo'qolishini anglatadi. Ikkinchi darajali xossalar o'zlashtirilishi yoki predmetning sifatini o'zgartirmasdan yo'qolishi mumkin. Har qanday xossa (temperatura, hajm, energiya va sh.k.) muayyan miqdor va sifatga ega bo'ladi. Har qanday predmet o'zining mavjudligini belgilovchi barcha xossalar majmuidir.

Miqdor – predmet muayyan xossasining namoyon bo'lishi, intensivligi darajasi. Barcha narsalar, jarayonlar, hodisalar sifat bilan bir qatorda muayyan miqdorga ham ega. Ular muqarrar tarzda muayyan o'lcham, hajm, massa va shu kabilar bilan tavsiflanadi. U sifat jihatidan o'xshash xossalar yoki butunning qismlarini taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi. Miqdoriy munosabatlar sifatgabog'lanmasdan aniqlanishi mumkin. SHuningdek, miqdor turli predmetlarning ayrim umumiy xossasi sifatida, predmetlarni sifat jihatidan tenglashtiradi. SHu ma'noda miqdor sifatning ziddidir. Ammo predmetning sifat xususiyatini mavhumlashtirish sifat jihatidan har xil tuzilmalarni o'rganishga tadqiqotning miqdoriy metodlarini jalb qilish imkonini beradi. Masalan, o'lchash taqqoslashning o'rganilayotgan ob'ektning miqdor ko'rsatkichlarini *predmet muayyan xossasining namoyon bo'lishi, intensivligi dara* aniqlovchi ayrim ko'rinishi sifatida, sifat haqida aniqroq xulosa chiqarish imkonini beradi. Matematikada miqdoriy munosabatlar son, qiymat, funksiya, to'plam tushunchalarida ifodalanadi. Hozirgi zamon fani matematik apparatdan foydalanib, mikro dunyoning teran qatlamlariga kiradi, Olamning cheksiz makonlarini tadqiq etadi. Matematika tabiat va jamiyatni o'rganishning samarali vositalaridan biriga aylangan. *Har qanday predmet miqdor va sifat qarama-qarshiliklarining muayyan sintezidir.* Uning borlig'i ob'ektga xos bo'lgan muhim xossalarni saqlashni nazarda tutadi. Olamning ko'p sifatliligi uning elementlari nisbatan barqarorligi va mustaqilligi bilan ta'minlanadi. Ammo olam, shu jumladan,

har qanday predmet muttasil o'zgarishda bo'ladi. Hech narsa boqiy emas. Butun borliq qachondir paydo bo'lgan va qachondir halok bo'ladi. Dunyo o'zgaradi va ayni zamonda o'zligini saqlab qoladi, o'z-o'ziga nisbatan ayniy bo'ladi.

Me'yor – predmet borlig'ining chegarasi. U *miqdor va sifatning shunday bir birligiki, bunda muayyan sifat faqat muayyan miqdor bilan bog'liq*. Me'yor –bu miqdor ko'rsatkichlari yoki o'zgarishlarining tegishli sifat mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan muayyan oralig'i hamdir. Me'yor – bu shunday bir chegaraki, unda miqdor o'zgarishlari narsaning sifatiga putur etkazmaydi. Gegel fikricha, «Hamma narsa o'z me'yoriga ega, ya'ni miqdor jihatidan aniqdir¹⁶» Masalan, vodorod peroksidi va suv bir-biridan molekullardagi kislorod atomlarining miqdoriga ko'ra farq qiladi. Huquqiy, axloqiy va estetik hodisalar tavsifida me'yor tushunchasi normativlik xususiyatini kasb etadi. «Aynan «ko'proq» va «kamroq» orqali engiltaklik me'yori buziladi va butunlay boshqa narsa – jinoyat namoyon bo'ladi, aynan «ko'proq» va «kamroq» orqali adolat haqsizlikka, fazilat nuqsonga o'tadi⁵». Masalan, huquqda qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasi va jazo chorasi o'rtasidagi muvofiqlikka rioya etiladi. Me'yor tushunchasida miqdor va sifat xossalarning o'zaro aloqasi aks etadi. Tabiatda kuzatiladigan narsalarning bir holatdan boshqa holatga o'tishi dunyo evolyusiyasining muhim va keng tarqalgan mexanizmlaridan birini aks ettiradi. Me'yor tushunchasi evolyusiya tendensiyalarini aniqlash, turli tizimlarning o'tmishi va kelajagi xususida gipotezalar tuzish imkonini beradi. Miqdor sifat jihatidan bir jinsli hodisalarning muayyan ob'ektiv ko'rsatkichi bo'lib, u mazkur hodisalarning kattaligini, mavjudlik muddatini va umuman hodisa yoki uning ayrim tomonlari rivojlanishining faollik darajasini tavsiflaydi. SHunday qilib, narsa va hodisalar sifat va miqdor xususiyatlariga ega bo'ladi. Ammo narsalar va hodisalarning bu tomonlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud emasdek, ularning biri ikkinchisiga bog'liq emasdek bo'lib tuyulishi mumkin. Lekin amalda bunday emas. Miqdor va sifat o'rtasida dialektik aloqa mavjud: muayyan sifatni aks ettirmaydigan miqdor mavjud emas va shu bilan bir vaqtda miqdorsiz sifat ham yo'q. Mazkur sifatga qo'shimcha tarzda doim qandaydir emas, balki muayyan miqdor javob beradi. Biz, masalan, uzunligi

Amudaryo ustida qurilgan ko'priknig uzunligiga teng bo'lgan stolni ko'rmaganmiz.

Miqdor va sifat o'zgarishlarining o'zaro bog'liqligi haqidagi qoida umumiy ahamiyat kasb etadi. U atrof borliqning barcha narsalari va hodisalariga nisbatan o'rinli, ya'ni dialektika qonuni kuchiga ega. U quyidagicha ta'riflanadi: *miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishi qonuni narsaning miqdor va sifat tomonlarining shunday bir o'zaro aloqasini aks ettiradiki, uning ta'sirida miqdor o'zgarishlari me'yor chegarasidan chetga chiqib, albatta tub sifat o'zgarishlariga sabab bo'ladi, bu sifat o'zgarishlari esa, o'z navbatida, yangi miqdor ko'rsatkichlariga olib keladi*. Bu qonunga muvofiq rivojlanish bir-biridan farq qiladigan, lekin o'zaro bog'langan ikki bosqich – uzluksizlik va uzluksizlikning birligi sifatida yuz beradi.

Rivojlanishda uzluksizlik – bu juda sust, ko'zga ko'rinmas miqdor o'zgarishlari bosqichi. Rivojlanishda uzluksizlik sakrash deb ataladi.

Sakrash – bu bir sifatning boshqa sifatga aylanish vaqti, shakli, usuli, miqdor o'zgarishlarining uzluksizligi, bosqichma-bosqichligidagi uzilishdir. Masalan, sakrash – bu Erda hayotning paydo bo'lishi, hayvonlar dunyosidan insonning ajralib chiqishi, bir ijtimoiy tuzum o'rniga boshqa ijtimoiy tuzum kelishi, buyuk ilmiy va texnikaviy kashfiyotlardir. Har qanday sakrash rivojlanishda o'tish davrini tavsiflaydi. O'z tabiatiga ko'ra u doim ziddiyatlidir, chunki yangining tug'ilishidan ham, eskining qarshiligidan ham dalolat beradi.

Inkorni-inkor. Inkorni-inkor qonunining mohiyati nimadan iborat? Ayni bir atama bunday ketma-ket qo'llanilishining ma'nosi nimada? Inkor kategoriyasi rivojlanayotgan ob'ekt tarixidagi bir

¹⁶ Гегель Г.В. Энциклопедия философских наук. Соч. Т. 1. –М.: с.145.

⁵ Гегель Г.В. Наука логики. Т. 1. –М.: 1970 й. с. 467.

5-MAVZU. OLAMNING UNIVERSAL ALOQALARI VA RIVOJLANISH. FALSAFANING QONUN VA KATEGORIYALARI

lahzanigina tavsiflaydi. Bitta inkor harakati o'zgarish qaysi yo'nalishda yuz berayotgani, oldingi va keyingi voqealar oqimida u qanday ahamiyatga ega ekanligini, yuz bergan voqeaning mazmunini aniqlash uchun doim ham imkoniyat yaratavermaydi. Boshqacha aytganda, inkorniinkor tushunchasi rivojlanish jarayonining muhim xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. «Inkor» va «inkorni-inkor» kategoriyalari dialektikaga Gegel tomonidan kiritilgan bo'lib, ayni shu mutafakkirning sa'y-harakatlari bilan ular umumiy falsafiy kategoriyalar maqomini olgan. Inkor va inkorni-inkor kategoriyalaridan Gegel rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini yoritish vositasi sifatida foydalangan. Gegel, shuningdek, uning o'tmishdoshlari va izdoshlari ko'rsatib bergan ba'zi bir o'ziga xos xususiyatlarni ko'rib chiqamiz.

Birinchidan, inkorni-inkor rivojlanish yo'nalishini ko'rish uchun imkoniyat yaratadi. Mazkur hodisa taraqqiyot yoki tanazzul alomati ekanligini bir inkor harakatining o'zidan aniqlash mushkul. SHu bois, masalan, qabul qilingan muayyan qonun, saylov natijalari va shu kabilar haqida xulosa chiqarishga shoshilmaslik kerak.

Ikkinchidan, inkorni-inkor rivojlanish shaklining tavsifi bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, Gegelning dialektika tizimida rivojlanish mantiqiy ziddiyatning yuzaga kelishi va uning bartaraf etilishi sifatida tavsiflanadi. Bu jarayon «tezis–antitezis–sintez» formulasiga muvofiq yuz beradi. Dialektika kontekstida rivojlanishning uch bosqichi ijtimoiy va tabiiy tizimlar rivojlanishining ko'p sonli ssenariylaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ammo, Gegel qayd etgan rivojlanishning siklligi, uning chiziqsizligi tabiat va jamiyatda jarayonlar kechishining ancha keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Uchinchidan, tabiiy va ijtimoiy sikllarda rivojlanish ham, tanazzul ham bo'lmasligi mumkin: o'zgarish aylanma harakat qiladi. Inkorni-inkorda rivojlanish quyi bosqichining o'ziga xos xususiyatlari yuqoriroq bosqichda takrorlanishi yuz beradi.

Inkorni-inkor qonuni – bu shunday bir qonunki, unga muvofiq rivojlanish jarayoni yangining eskini dialektik inkor etish cheksiz zanjiridan iborat bo'ladi, bunda rivojlanish avvalgi bosqichlarining barcha muhim jihatlari yangida saqlanadi va umuman bu jarayon hujumkor, yuksalib boruvchi yo'nalishga ega bo'ladi. Ayni vaqtda rivojlanish jarayonida uning oliy bosqichlarida avvalgi bosqichlarning ayrim jihatlari va tomonlari sifat jihatidan yangicha asosda takrorlanadi va ayni hol to'g'ri chiziq, tutash doira bo'ylab emas, balki spiralga yaqinlashuvchi egri chiziq bo'ylab yuksalishni belgilaydi. Harakatning spiralsimonligi rivojlanishning siklligini aks ettiradi.

Xulosalar. Dialektika rivojlanish falsafasining puxta ishlab chiqilgan konsepsiyasidir. Hodisalar rivojlanishining umumiy nazariyasi sifatida u rivojlanishning mohiyatini anglab etishga yo'l ochadi, tabiat, jamiyat va tafakkurdagi real jarayonlarni ular amalda qanday bo'lsa, shunday aks ettiradi. Dialektika narsalar va hodisalarni o'rganishga ularning vujudga kelishi, harakati va rivojlanishi nuqtai nazaridan yondashadi, shu sababli u ob'ektiv jarayonlarni konkret, har tomonlama o'rganishga yo'l ko'rsatadi. Dialektika bilan bir qatorda rivojlanishning metafizik konsepsiyasi, sofistika, eklektika, ekzistensial dialektika, sinergetika va boshqa konsepsiyalar mavjud.

5.Kategoriya tushunchasi va uning tasnifi. Kategoriya nima? Bu savolga javob berish uchun biz qanday fikrlashimiz va o'z fikrlarimizni boshqa odamlarga qanday etkazishimizni ko'rib chiqamiz. Biz tushunchalar, mulohazalar va mushohadalar ko'rinishida fikrlaymiz. Fikrlash jarayonining asosiy materiali tushunchalar bo'lib, predmetlar umumiy va muhim belgilarida ular orqali fikrlanadi. Tushunchalar yordamida biz voqea va hodisalar ma'nosini anglaymiz, ularning o'zimiz uchun ahamiyatini aniqlaymiz. Tushuncha va tushunish o'zakdosh so'zlardir, shu sababli bizning dunyoni tushunishimiz, dunyoga ongli munosabatimiz inson ixtiyorida mavjud bo'lgan tushunchalar apparati bilan belgilanadi. Biz o'z fikrlarimizni so'zlar yordamida ifodalaymiz. *So'z –fikir va dunyo o'rtasidagi vositachi.* U fikrlash omili, fikrni ifodalash, uni boshqalarga etkazish

5-MAVZU. OLAMNING UNIVERSAL ALOQALARI VA RIVOJLANISH. FALSAFANING QONUN VA KATEGORIYALARI

vositasi hisoblanadi. Soʻz boyligimiz qancha katta boʻlsa, bizning dunyoni anglash borasidagi imkoniyatlarimiz shuncha keng boʻladi. Obʻektiv borliqni aniqroq va teranroq aks ettirish uchun inson fikrlash mantiqiy vositalarining muayyan majmuini, tushunchalarning muayyan doirasini yaratadi. *Tushuncha – bu shunday bir fikrki, unda narsaning takrorlanuvchi xossalari, aloqalari va tomonlari aks etadi. Tilda tushuncha soʻz bilan ifodalanadi.* Masalan, «talaba», «universitet», «auditoriya» soʻzlari muayyan darajada umumiy va mavhumdir. Ammo shunday tushunchalar ham borki, ularda shunchaki umumiy emas, balki oʻta umumiy narsalar va hodisalar qayd etiladi. Bunday tushunchalar juda yuqori darajadagi mavhumlashtirish (muayyandan uzoqlashish) mahsuli hisoblanadi. Mana bunday mavhumlashtirishning taxminiy yoʻli: «bu atirgul» («bu» soʻzi bilan aniq belgilangan); «atirgul» (bu erda «bu» ishorasi mavhumlashtirilgan); «atirgul» soʻzi «bu atirgul» iborasidagidan umumiyroq narsani qayd etadi. SHundan soʻng bu iboraga «gul» soʻzini qoʻshamiz va u amalda mavjud barcha gullarni qamrab oladi. SHunday qilib biz gullarning muayyan rang-barangligidan fikran uzoqlashamiz, chunki eʼtibor barcha gullarda mavjud boʻlgan umumiy jihatga qaratiladi. «Oʻsimlik» soʻzi butun oʻsimliklar dunyosini oʻz ichiga oladi va yanada kengroq mavhumlik hisoblanadi. Mavhumlashtirish (muayyandan uzoqlashish) yoʻlida harakatni davom ettiramiz. Bu yoʻlda «tirik» tushunchasi yanada umumiyroq boʻladi, chunki oʻsimliklar dunyosinigina emas, balki hayvonot dunyosini ham oʻz ichiga oladi. «Tiriklik» tushunchasi mavhumlashtirishning yanada yuqoriroq darajasida turadi. Bunday tushunchalar – kategoriyalar (yunon. –«asos», «umumiy baho») deb ataladi. Fikr bizning dunyo bilan oʻzaro aloqa qilish tajribamizni u yoki bu darajada umumlashtiradi. Dunyo oʻz xossalari, narsalari va munosabatlarining rang-barangligi jihatidan cheksiz darajada boydir. Bizning soʻz boyligimiz oʻzimiz yashayotgan dunyodan qashshoqroqdir. *Falsafiy kategoriyalar – borliqning umumiy, muhim tomonlari, xossalari, aloqalari va munosabatlari haqida fikrlash uchun qoʻllaniladigan oʻta keng tushunchalar majmuidir.* Falsafa kategoriyalari muayyan fanlarning kategoriyalaridan ancha farq qiladi. Bu farq shundan iboratki, dialektika kategoriyalari obʻektiv dunyo hodisalari turkumlarining muhim xossalari va aloqalarinigina emas, balki barcha moddiy jarayonlarga xos boʻlgan eng umumiy xossalar va aloqalarni aks ettiradi. Shunday qilib, dialektika kategoriyalari obʻektiv dunyoni ideal aks ettirishning oʻta keng shakllari boʻlib, ular voqelikni bilish va maʼnaviy-amaliy oʻzgartirishning asosiy tamoyillari boʻlib xizmat qiladi. Baʼzi hollarda, *umumiy kategoriyalar, yaʼni borliq kategoriyalari* dialektika kategoriyalari deb ham nomlanadi. *Dialektika kategoriyalarini ikki turga ajratish mumkin: substansion kategoriyalar va munosabatdosh kategoriyalar.*

Substansion kategoriya lar – bu boshqa kategoriyalardan qatʼi nazar, alohida-alohida qoʻllaniladigan kategoriyalar. Bunday kategoriyalar qatoriga «borliq», «materiya», «harakat», «rivojlanish», «makon», «vaqt», «ziddiyat» va hokazolar kiradi. Ular obʻektiv voqelikning muayyan umumiy xossalarni qayd etadi, lekin bu kategoriyalarning boshqa kategoriyalar bilan aloqalari haqida bevosita tasavvur hosil qilish imkonini bermaydi. *Munosabatdosh kategoriyalar biri ikkinchisi bilan uygʻun bogʻliq boʻlib, bilish jarayonida biri ikkinchisini nazarda tutadi;* ularning biri haqida tasavvur hosil qilganda, boshqasini hisobga olmaslik mumkin emas. **Bunday kategoriyalar qatoriga quyidagilar kiradi: yakkalik va umumiylik; hodisa va mohiyat; shakl va mazmun; qism va butun; sabab va oqibat; tasodif va zaruriyat; imkoniyat va voqelik.**

a) YAKKALIK, XUSUSIYLIK VA UMUMIYLIK.

YAKKALIK, xususiylik va umumiylik borliqdagi narsa va hodisalarning har biriga xos alohida, maʼlum guruhiga xos maxsus va hammasiga xos umumiy tomonlari, xususiyatlari hamda ular oʻrtasidagi bogʻlanish va aloqadorlikni ifodalaydi.

Alohida narsa va hodisagagina xos boʻlib, bu narsa va hodisani boshqa narsa va hodisadan farq qiluvchi, takrorlanmaydigan, individual belgi va xususiyatlar birligi **yakkalik** deyiladi. Yakkalik alohida narsa va hodisalarni ham, ulardagi alohida tomon, belgi va xossalarni ham aks ettiradi.

5-MAVZU. OLAMNING UNIVERSAL ALOQALARI VA RIVOJLANISH. FALSAFANING QONUN VA KATEGORIYALARI

Ko'pchilik narsa va hodisalarga (yoki ularning turlariga hamda tomonlariga) xos bo'lgan o'zaro o'xshash, bir xil, takrorlanuvchi belgi va xususiyatlar birligini aks ettiruvchi tushuncha **umumiylik** deb ataladi. Umumiylik borliqdagi ko'pchilik narsa va hodisalarga (yoki ularning tomonlariga) xos bo'lgan umumiy belgi va xususiyatlarning fikriy in'ikosidir. Umumiylik bir sinf yoki bir turga kirgan narsa va hodisalarni ham ifodalaydi. Chunki borliqda har bir narsa va hodisa boshqa narsa va hodisalar bilan albatta, biror umumiy tomonga, xossaga, belgi va xususiyatga egadir.

Narsa va hodisalarga xos maxsus tomonlar, xususiyatlar birligi **xususiylik** kategoriyasida ifodalanadi. Xususiylik kategoriyasi narsa va hodisalardagi alohidalik va umumiylik kabi tomonlar o'rtasidagi alohidalikka nisbatan umumiy, umumiylikka nisbatan alohida bo'lgan tomonlar, belgilar, xususiyatlar va aloqadorliklarni ifodalaydi.

Bir butun borliqdagi hamma narsa va hodisalarga xos bo'lgan tomonlar, belgi va xususiyatlar eng umumiylikdir. Eng umumiylik hajm jihatdan boshqa kengaytirib bo'lmaydigan universal tushunchadir. Masalan: Ahmad □ odam □ tirik mavjudot, nihoyat □ materiya □ borliq. «Borliq» tushunchasi bu erda eng umumiylikdir.

Yakkalik, xususiylik va umumiylik bir-biri bilan o'zaro dialektik munosabatda bo'ladi. Binobarin, yakkalik bilan umumiylik xususiylik orqali bog'langan bo'lib, ular o'zaro aloqadorlikdadir. Xususiylik yakkaliklardan tashkil topib, umumiylikni alohidalik bilan bog'laydi. Umumiylik esa yakkaliklardan ajralgan holda bo'lmaydi, balki yakkaliklarning umumiy xususiyatlari, belgilari, tomonlari, bog'lanishlari shaklida har bir yakkalikning o'zida mavjud bo'ladi. Demak, har bir konkret narsa va hodisa yakkalik, xususiylik va umumiylikning birligidan iboratdir.

Yakkalik, xususiylik va umumiylik dialektikasi shundan iboratki, ma'lum sharoitda yakkalik xususiylikka, xususiylik umumiylikka va aksincha, ular bir-biriga o'tishi mumkin. Ob'ektiv olamda har qanday yangilik dastlab yakkalik sifatida paydo bo'lib, so'ngra u o'sib, rivojlanib xususiylik va umumiylik xarakterini kasb etadi.

Lekin bundan har qanday yakkalik xususiylikka, xususiylik esa umumiylikka o'taverar ekan, degan fikr yuritmaslik kerak. Bunday bo'lishi uchun ular taraqqiyotning asosiy tendensiyasiga mos kelishi shart. Yakkalik, xususiylik va umumiyliklarning o'zaro bog'lanishlarini dialektik nuqtai nazardan tushunish ob'ektiv voqelikni to'g'ri bilish uchun juda muhimdir. Chunki, insonning borliqni bilishi ham yakkalikdan xususiylikka va undan umumiylikka borishdan iboratdir. Bu umumiylikni biz narsa va hodisalarni va ularda ifodalanuvchi yakkaliklar va xususiyliklarni bilish orqali anglab etamiz. Biz, dastavval, sezgi a'zolarimiz yordamida yakkalikni, yakka narsa va hodisalarni idrok qilamiz. So'ngra tafakkurimizda shu hissiy idrokimizda vujudga kelgan mavjud faktlarni analiz va sintez qilib, ularning muhim tomonlarini nomuhim tomonlaridan, umumiy tomonlarini alohida tomonlaridan ajratamiz, ularni o'zaro bir-biri bilan birlashtiramiz, bir-biriga taqqoslaymiz, shular asosida fikrimizda ularni ifodalovchi tushunchalarni hosil qilamiz. Bu hosil qilgan tushunchalarda narsa va hodisalarning ham yakka tomonlari, ham ularning muayyan turkumiga xos bo'lgan xususiyl tomonlari, hamda shu narsa va hodisalarning butun bir sinfiga oid bo'lgan umumiy tomonlari ifodalanadi.

b) Mohiyat va hodisa.

Mohiyat narsa va hodisalarning ichki, eng muhim o'zaro bog'lanishlari, shu bog'lanishlarning qonuniy aloqadorliklarini ifodalaydi. Hodisa esa shu narsa va jarayonlarni tashkil etuvchi tomonlar, xususiyatlar va bog'lanishlarning namoyon bo'lish shakli, mohiyatning ifodalanishidir. Masalan, hamma tirik mavjudotlarning mohiyati ulardagi modda almashish jarayoni bo'lmasa, tiriklik jarayoni — hayot ham bo'lmaydi. Modda almashish jarayoni butun hayot jarayonining asosiy mohiyatini tashkil etadi. Lekin bu modda almashuv jarayoni har bir tirik

5-MAVZU. OLAMNING UNIVERSAL ALOQALARI VA RIVOJLANISH. FALSAFANING QONUN VA KATEGORIYALARI

organizmda juda xilma-xil ko‘rinishlarda sodir bo‘ladi. Bu ko‘rinishlar — hodisalar. Mohiyat va hodisa o‘zaro umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Bu xususiyatlar quyidagilardan iboratdir:

1. Mohiyat ichki aloqalarni, hodisa esa tashqi aloqalarni ifodalaydi. Masalan, inson daraxtning shitirlashini, qushlarning sayrashini eshitadi. Bu hodisalarning sababi turlicha bo‘lsada, ularning mohiyati bittadir, ya’ni havo zarralarining tebranishidir. Biroq inson buni birdan payqay olmaydi. Dastlab u hodisa sifatida yuz bergan narsani faxmlaydi, so‘ng uning mohiyatini bila boshlaydi.

Mohiyat narsalarning ichki aloqadorligi bo‘lgani sababli, u chuqur tahlil qilish va izlanish natijasida, amaliyot jarayonida bilib boriladi. Hodisa esa aksincha, hissiy organlar orqali bevosita idrok etiladi. U hissiy organlarimizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etib, u yoki bu sezgi va idroklarimizni hosil qiladi.

2. Mohiyat bilan hodisa o‘zaro birlikda bo‘lishi bilan, ular bir-biriga qarama-qarshi ham, shu sababli ular hech vaqt bir-biriga aynan mos kelmaydi. Ularning qarama-qarshiligi borliqdagi narsalarning o‘z tabiatidan kelib chiqadi. Mohiyat hodisada yashirin bo‘ladi va uni bevosita hissiy organlar orqali bilish mumkin emas. Hodisa — narsalarning namoyon bo‘lishi shakli sifatida mohiyat bilan hech vaqt mos kelmaydi. Agar narsalarning namoyon bo‘lish shakli bo‘lgan hodisa mohiyat bilan bevosita mos kelganda edi, u holda har qanday fan ortiqcha bir narsa bo‘lib qolgan bo‘lur edi. Fanning vazifasi borliqning ko‘pdan-ko‘p hodisalari, ularning tashqi tomonlari va belgilari ostida yashirinib yotgan, ularning asosini tashkil qiladigan mohiyatlarni izlab topishdan iborat.

3. Mohiyat nisbatan doimiyligi va barqarorligi bilan hodisadan farq qiladi. Mohiyat va hodisa munosabatini daryoning yuzidagi ko‘piklar va uning ostidagi suvning tez oqimiga o‘xshatish mumkin. Bunday daryo harakatining yuzidagi ko‘piklar hodisa bo‘lsa, ularning ostidagi suvning tez oqimlari mohiyatdir. Lekin uning ustidagi ko‘piklar ham mohiyatning o‘ziga xos ifodasidir.

4. Mohiyatning nisbiy doimiyligi va barqarorligini, hodisaning o‘zgaruvchanligini mutlaqlashtirmaslik lozim. Chunki mohiyat ham, hodisa ham o‘zgarib boradi. Lekin mohiyat hodisaga nisbatan sekin o‘zgaradi, u ma’lum barqarorlikka ega.

Mohiyat va hodisa o‘zaro umumiy tomonlarga ega. Masalan: a) har qanday mohiyat hodisada namoyon bo‘ladi, hodisa esa mohiyatning u yoki bu holda ko‘rinishidir: b) mohiyat va hodisa ob’ektiv xarakterga ega bo‘lib, ular inson ongiga bog‘liq bo‘lmagan holda ham mavjuddir; v) mohiyat ham, hodisa ham doimo o‘zgarishda va rivojlanishda bo‘ladi. Biroq mohiyat va hodisa ziddiyatli xarakterga ham ega. Shu bilan birga, mohiyatning o‘zi ham ziddiyatlidir. Dialektika buyumlarning o‘z mohiyatidagi ana shu ziddiyatlarni o‘rganadi.

Dialektikaning mohiyat va hodisa kategoriyalari konkret fanlarning shu sohada erishgan yutuqlarini umumlashtirish asosida doimo boyib, rivojlanib boradi. Ular inson amaliyoti va barcha fanlar yutuqlarini umumlashtirish natijasida kelib chiqqandir. SHu jihatdan mohiyat va hodisa kategoriyalari inson bilimlari tizimining hamma sohalariga tegishli bo‘lib, dunyoni bilishning metodologik vositasi sanaladi.

Mohiyat va hodisa bog‘lanishlari fan va amaliyotda ham muhim o‘rin tutadi. Bunda hodisani mohiyatdan ajrata bilish muhim. Mohiyatni hodisadan ajrata bilmaslik nazariya va amaliyotda jiddiy xatolarga olib keladi.

v) Butun va qism.

Ma’lumki, borliqdagi har bir narsa, hodisa, jarayon bizning ko‘z oldimizda bir butunlik sifatida gavdalanadi. Biz ularni o‘rganar ekanmiz, ularning qismlardan, bo‘laklardan, komponentlardan, elementlardan iboratligini ko‘ramiz. Bu qismlar, bo‘laklar, komponentlar, elementlar o‘zaro muayyan qonuniyatlar orqali birikib, ma’lum tuzilishdagi bir butun narsani,

5-MAVZU. OLAMNING UNIVERSAL ALOQALARI VA RIVOJLANISH. FALSAFANING QONUN VA KATEGORIYALARI

hodisa yoki jarayonni tashkil qiladilar. Bu narsa va hodisalarning ma'lum bir guruhi o'zaro birikib, biron bir sistemani hosil qiladi. Bu esa ma'lum strukturaga ega bo'lib, muayyan elementlardan iborat bo'ladi. Bunday butun, qism, sistema, struktura, elementlar o'zaro dialektik birlikda, bog'lanish va aloqadorlikda mavjud bo'ladi.

Xo'sh, butun va qism deb nimaga aytiladi?

Butun — o'zaro dialektik aloqadorlikda bo'lgan qismlar, bo'laklar, tomonlar, elementlar, komponentlarning uzviy birligidan iborat bo'lgan alohida narsa, hodisa, jarayondir. Masalan, bizni o'rab turgan olam bir butundir. Qism esa shu butunni tashkil qilgan, uning tarkibidagi ma'lum bo'lak, komponent, elementdir. Masalan, bir butun olamning bir qismi tabiatdir. Borliqdagi narsa va hodisalarga xos bo'lgan butun va qismlarning o'zaro qonuniyatli aloqadorligi «Butun va qism» kategoriyalarida aks etadi va ifodalanadi. Olamdagi har bir predmet (hodisa, buyum, protsess) ana shu butun va qismlarning dialektik birligidan iborat. Masalan, leksikologiyaga oid «ishchilar» so'zini olsak. Bu so'z: «ish» — «chi» — «lar» kabi ma'noli qismlardan iborat. Bu qismlar o'zaro birikib, bir butun «ishchilar» so'zini hosil qiladi.

Butun va qism o'zaro dialektik aloqadorlikdadir. Butunning umumii tabiati uni tashkil qiluvchi qismlarning umumiy xususiyatlaridan kelib chiqib, butun tarkibidagi har bir qism butunning o'ziga xos xususiyatini ma'lum darajada ifodalaydi. Lekin butunni tashkil qilgan bu qismlar butun tarkibida har biri alohida-alohida emas, balki butunning bo'laklari sifatida ko'rinadi. Unda butunga xos ma'lum xususiyat qismlarga ham xos bo'lishi mumkin. SHu bilan birga, butun tarkibidagi qismlar butun bilan umumiy birlikka ega bo'lishi bilan birlikda, ular bilan o'zaro ziddiyatda, qarama-qarshilikda bo'lishi ham mumkin. Butunsiz qismlar va qismlarsiz butun yo'q va bo'lishi mumkin emas, ular faqat o'zaro aloqadorlikda, birlikda, birgalikda, bir-birini taqozo qilgan holda mavjud bo'ladi. Bunda butunni tashkil qiluvchi qismlar ham o'zaro bir-birlari bilan ta'sir va aks ta'sir qilib turishadi. Butun va qismlarning bu o'zaro ta'sir va aks ta'sir qilib turishlari natijasida butun va qismlarning o'zgarishi va rivojlanishi sodir bo'ladi. Bundan tashqari, har bir butun va qismlar ob'ektiv reallikdagi boshqa butunlik va qismlar bilan ham muayyan aloqadorlikda va bog'lanishda bo'ladi.

g) Sistema, struktura va element.

Borliqdagi narsa va hodisalar sistema, struktura va element aloqadorligiga ham ega bo'ladi. CHunki ular ma'lum sistemalar tarzida mavjud bo'lib, o'z tuzilishi va tarkibiga ko'ra esa muayyan strukturaga ega hamda qator elementlardan tashkil topgan bo'ladi. **Sistema** — bu borliqdagi o'zaro bog'liq, muayyan tartibdagi bir-biriga ta'sir va aks ta'sir qilib turuvchi narsalar, hodisalar va jarayonlarning qonuniyatli birligidir.

Struktura esa shu sistemani tashkil etgan narsalar, hodisalar va jarayonlarning tartibi, tuzilishi, tarkibi, joylashishi va ifodalanishidir. Struktura har bir narsa yoki hodisaning, har bir sistemaning ajralmas tub xususiyati bo'lib, u muayyan elementlardan tashkil topadi.

Element sistema strukturasini tashkil qilgan, nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan tuzilmadir. Har bir sistema o'z strukturasiga ko'ra bir qancha o'zaro chambarchas bog'liq va aloqadorlikda bo'lgan elementlardan iborat bo'ladi. Sistema, struktura va element kategoriyalari narsa va hodisalarga xos bo'lgan ana shu moddiy sistemalar, strukturalar va elementlarning aqliy in'ikoslaridir.

Odatda, har bir sistema, o'zining tuzilishiga ko'ra alohida sistemachalarga ajralishi, nisbiy mustaqil elementlarga bo'linishi, ularning o'zaro uzviy bog'liqligi, bir butunlikni tashkil etishi kabi xususiyatlarga egadir. Bunda sistemalar ierarxiyasi shundaki, doimo bir qancha sistemachalar birikib, yangi, hajm jihatidan kengroq sistemani hosil qila boradi. Bu holat yanada yuqorilashib borib, natijada, bir-biriga kiruvchi, bir-biri bilan bog'liq, biriga nisbatan ikkinchisi kengroq bo'lib boradigan sistemalarning oliy birligi — bir butun borliqni qaror toptiradi. Umuman, har bir sistemaning tashkil topishi va mavjud bo'lishida uning strukturasi muhim rol o'ynaydi. Ayni shu

5-MAVZU. OLAMNING UNIVERSAL ALOQALARI VA RIVOJLANISH. FALSAFANING QONUN VA KATEGORIYALARI

struktura sistemadagi o‘zaro ta’sir va aks ta’sir qiluvchi moddiy tarkiblarni elementlarga aylantiradi. Dialektika uchun sistema, struktura va element kategoriyalarining o‘zaro aloqadorligini, ularning bir-biriga o‘tishlarini va har biriga xos alohida xususiyatlarini ko‘rsatish, ularning o‘zaro umumiyli va bir-biridan farqlarini aniqlash ayniqsa muhimdir.

Struktura narsa va hodisalardagi, ulardan tashkil topgan sistemalardagi o‘zaro bog‘liq quyidagi uch ma’noni ifodalaydi:

1. Struktura narsa yoki hodisaning bir xil yoki har xil jinsligini, uning muayyan nisbiy mustaqil qismlarga, elementlarga, komponentlarga bo‘linishini ifodalaydi.

2. Struktura narsa yoki hodisani tashkil etuvchi qismlar, bo‘laklar, komponentlar va elementlarning o‘zaro bir-biriga ta’sir va aks ta’sirlarini, ular o‘rtasidagi aloqadorlik va bog‘lanishlarni, bu bog‘lanishlarga oid qonuniyatlarni ifodalaydi.

3. Struktura, nihoyat, narsa yoki hodisaning qanday elementlardan tashkil topganligidan qat’iy nazar, bu elementlarning organik birligini, ularning yaxlitligi va bir butunligini ifodalaydi. SHuning uchun strukturani bilish bu, birinchidan, uning elementlarini aniqlash, ikkinchidan, mazkur elementlarning o‘zaro aloqadorliklarini aniqlash, nihoyat, uchinchidan, bu elementlar bir butunligining o‘ziga xos tabiatini tushunib olishdir.

Demak, struktura kategoriyasi butun bir sistemani tashkil etuvchi elementlar aloqadorligining o‘ziga xos usullarini va bu bir butunlik doirasidagi elementlarning o‘zaro munosabatlarini ifodalaydi. Bunda har bir element strukturaning nisbiy mustaqil komponent bo‘lishi bilan birga, o‘zaro muayyan qonuniyatlar asosida birlashib, bir butun sistemani vujudga keltiradi.

Keyingi vaqtlarda tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlar sohalarida tadqiqot ob’ektini chuqurroq o‘rganish maqsadida sistemali yondashish, strukturaviy analiz usullari ishlab chiqildi. Bu usullarning qo‘llanilishi ularning samaradorligi va istiqbolli ekanligini ko‘rsatmoqda.

Ayniqsa, sistemali yondashish usuli o‘zining muhimligi, o‘rganilayotgan predmet va hodisalardagi barcha aloqadorlik va bog‘lanishlarni hisobga olishi bilan dialektik usullarning tarkibiy qismini tashkil etadi.

d) Mazmun va shakl.

Mazmun va shakl ham kishilarning borliqni bilishida katta rol o‘ynaydi.

Xo‘sh, mazmun va shakl nima?

Mazmun — narsa yoki hodisani aynan shu narsa yoki hodisa sifatida ifodalovchi jarayonlar, muhim elementlar va o‘zgarishlarning majmuidan iborat.

SHakl — mazmunning mavjudlik usulini, uning strukturasi, ya’ni tuzilishini ifodalovchi, narsa va hodisalarning ichki va tashqi tomonlarining birligidan iborat. Mazmunni tashkil etuvchi xususiyatlar, ziddiyatlar, elementlar shaklsiz ifodalanmaganidek, ularning mavjudlik usuli, strukturasi, tuzilishi ham mazmunsiz namoyon bo‘la olmaydi. Demak, mazmun va shakl muayyan bir narsa yoki hodisaning bir-biri bilan dialektik aloqador bo‘lgan ikki tomonidir. Ob’ektiv olamda narsa va hodisaga oid bo‘lmagan sof mazmun ham, sof shakl ham yo‘q. Aksincha, faqat muayyan mazmun va shakl birligiga ega bo‘lgan narsalar va hodisalargina mavjuddir. Bunda hamisha muayyan mazmun muayyan shaklda ifodalanib, muayyan shakl muayyan mazmunga ega bo‘ladi. Borliqdagi har bir narsa va hodisa o‘z mazmun va shakl birligi tufayligina mavjud bo‘lsa-da, ular shu birlikni vujudga keltirishda turlicha rol o‘ynaydi. SHakl esa, aksincha, mazmunni ifodalaydi. Qisqa qilib aytganda, mazmun shaklni belgilaydi. **z) Sabab va oqibat.**

Narsa va hodisalar o‘zlarining paydo bo‘lishlari, shakllanish va rivojlanishlarida birbirilari bilan aloqadorlikda va sababiy bog‘lanishlarda bo‘lishib, ularning biri sabab, ikkinchisi shu sabab tufayli kelib chiqqan oqibat bo‘ladi. Ularning o‘zaro bunday aloqadorligi sababiy bog‘lanish deyiladi. Bu sababiy bog‘lanishda bir narsa yoki hodisa ikkinchi bir narsa yoki hodisani vujudga keltiradi.

5-MAVZU. OLAMNING UNIVERSAL ALOQALARI VA RIVOJLANISH. FALSAFANING QONUN VA KATEGORIYALARI

Xo'sh, sabab va oqibat nima?

Bir hodisadan oldin kelib, uni vujudga keltirgan hodisa yoki hodisalar guruhi **sabab** deb ataladi. Sababning bevosita yoki bivosita ta'siri bilan yuz beradigan hodisa **oqibat** deyiladi. Masalan, qo'llarimizni bir-biriga ishqalaganimizda qo'llarimiz qiziydi. Bu erda ikki hodisa: ishqalanish va issiqlikning guvohi bo'lib turibmiz. Lekin bunda ishqalanish issiqlikni keltirib chiqarmoqda, ya'ni ishqalanish issiqlikning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Demak, ishqalanish sabab, issiqlik - oqibat bo'lmoqda.

Odatda borliqdagi har bir hodisaning paydo bo'lishi va rivojlanishida o'z sababi bo'ladi va ayni vaqtda uning o'zi ham boshqa hodisalarning kelib chiqishi va rivojlanishiga sabab bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ayrim hodisalarni tushunmoq uchun biz ularni umumiy aloqadorlikdan ayirib olishimiz hamda ularni alohida-alohida tekshirishimiz lozim. Bunday holda esa bir-biri bilan almashinib turuvchi harakatlardan biri sabab tarzida, boshqasi oqibat tarzida ko'z oldimizda namoyon bo'ladi.

Sabab bilan oqibatning o'zaro aloqadorligi sababiyat deb ataladi. Tabiat va jamiyatdagi sabab-oqibat bog'lanishlarning kishilar fikridagi ifodasi sababiyat kategoriyasining paydo bo'lishiga olib kelgan. Sababiyat hodisalar o'rtasidagi shunday ichki aloqadorlikki, bunda har doim bir hodisa mavjud bo'lar ekan, uning ketidan muqarrar ravishda ikkinchisi sodir bo'ladi.

Kishilarda bir hodisa boshqa hodisaga sabab bo'ladi, degan tasavvur ularning amaliyoti asosida kelib chiqqan. Sababiyat borliqda umumiy, har tomonlama xarakterga ega. Sababsiz oqibatlar yo'q va bo'lishi ham mumkin emas, hamma narsaning o'z sababi bor. «SHamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi» — deydi xalqimiz. Sababiyat ob'ektivdir, u borliqqa inson aql-idroki yoki qandaydir G'ayritabiiy kuchlar tomonidan kirilgan emas. Sababiyat aksincha, borliqning o'ziga xos aloqadorligi bo'lib, u inson tomonidan shu borliqni bilish jarayonida ochiladi. Ayrim hodisalarning sababi hozircha ma'lum bo'lmasa ham, u keyinchalik fan va ijtimoiy amaliyot taraqqiyoti davomida kashf etiladi. Sabab oqibatga aktiv ta'sir qiladi. Bu ta'sirning xususiyati shundan iboratki, u sababning hal qiluvchi kuchiga asoslangan bo'ladi.

Borliqda doimo ma'lum vaqt muayyan aniq shart-sharoit mavjud bo'lgan taqdiridagina, sabab oqibatni keltirib chiqaradi. Lekin bu ma'lum sabab doimo bir xil ma'lum oqibatni keltirib chiqaradi, degani emas. Bunda oqibatning kelib chiqishi aniq shart-sharoitlar, aniq vaziyatlar bilan bog'liq bo'ladi.

Sababni oqibatni keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlardan farq qilish zarur.

Sabab va oqibat vaqt jihatdan ketma-ket kelib, bunda sabab oqibatdan oldin, oqibat sababdan keyin keladi, ya'ni sabab oqibatni keltirib chiqaradi. Lekin borliqda ketma-ket keluvchi har qanday predmetlar va hodisalar bir-birlari bilan sababiy bog'lanishda bo'lavermaydi. Masalan, qishdan so'ng bahor, bahordan so'ng yoz, yozdan so'ng kuzning kelishi sabab va oqibat bog'lanishi emas, ular bir-birlarini keltirib chiqarishmaydi. Bu hodisalarning ro'y berishi Erning Quyosh atrofida o'z holatini o'zgartirgan holda aylanishi sababli sodir bo'ladi.

Borliqdagi barcha narsa va hodisalar o'z tabiiy ob'ektiv sabablari asosida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Tabiat hech qachon oldindan belgilangan maqsadlarni qo'ya olmaydi va qo'ymaydi ham. Jamiyatda esa ahvol boshqacha, chunki jamiyatda ongli mavjudotlar — insonlar faoliyat ko'rsatadilar, ular o'z faoliyatlarini oldindan belgilangan ma'lum maqsadlar asosida amalga oshiradilar. Maqsadga muvofiq faoliyat ko'rsatish faqat insonlarga xosdir. Jamiyatda kishi nimani qilmoqchi bo'lsa, avvalo, u o'zicha buni o'ylaydi, uning haqida fikr yuritadi, bu ish yuzasidan ma'lum reja tuzadi, uni amalga oshirish uchun o'z oldiga ma'lum maqsadlarni qo'yadi va ularga erishish uchun harakat qiladi. Bunda maqsad kishining o'zi tomonidan belgilangani uchun, odatda u ko'pincha tashqi shart-sharoitlarga bog'liq, emasday tuyuladi. Aslida, insonning har qanday maqsadi (niyati, hatto orzusi ham) ob'ektiv sabablar asosida tarixiy shart-sharoitlar ta'sirida, uning miyasida zaruriy ravishda paydo bo'ladi.

5-MAVZU. OLAMNING UNIVERSAL ALOQALARI VA RIVOJLANISH. FALSAFANING QONUN VA KATEGORIYALARI

Borliqdagi sababiy bog‘lanishlarning murakkab zanjirida zaruriy va tasodifiy aloqadorliklar ham muhim rol o‘ynaydi. Bunday aloqadorliklarni zaruriyat va tasodif kategoriyalari ifodalaydi.

j) Zaruriyat va tasodif.

Narsa va hodisalarning mohiyatidan, ularning ichki muhim bog‘lanishlaridan muayyan sharoitda qat’iy ravishda kelib chiqadigan, kelib chiqishi muqarrar bo‘lgan voqea yoki hodisa **zaruriyat** deb ataladi. Narsa va hodisalarning mohiyati bilan bog‘liq bo‘lmagan, tashqi ta’sir va ikkinchi darajali omillar bilan bog‘liq, bo‘lgan, ayni sharoitda yuz berishi ham, yuz bermasligi ham mumkin bo‘lgan hodisa yoki voqea **tasodif** deyiladi. Zaruriyat va tasodif o‘zaro bog‘liq bo‘lgan, biri ikkinchisiz mavjud bo‘lmaydigan borliqdagi narsa va hodisalarning o‘zgarishi va rivojlanishiga oid aloqadorlikning ikki tomonidir. Ular bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq va ayni vaqtda bir-biridan farq ham qiladi. Bu farq, avvalo, ularning o‘ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Zaruriyatning bunday o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilar: 1) zaruriyatning sababi o‘zida bo‘ladi, u mazkur narsa yoki hodisaning ichki tabiatidan kelib chiqadi, u mohiyat bilan bog‘liq; 2) zaruriyat narsa va hodisaning muhim, takrorlanib turadigan ichki aloqadorliklarning natijasidir; 3) zaruriyat narsa va hodisaning oldingi bo‘lgan o‘zgarish va rivojlanishlari orqali qonuniy tayyorlangan bo‘ladi; 4) zaruriyat muqarrarlik xususiyatga ega bo‘lib, albatta, yuz beradi; 5) zaruriyat umumiy xarakterga ega; 6) nihoyat, zaruriyat doimo qonuniyat bilan bog‘liq, bo‘ladi.

Tasodif zaruriyatdan farqli o‘laroq, muayyan sharoitda yuz berishi ham, yuz bermasligi ham mumkin, u shu tarzda ham, boshqacha tarzda ham yuz berishi mumkin. Tasodif ayni vaqtda narsa yoki hodisaning mohiyatidan kelib chiqmaydi, u beqaror va vaqtinchadir. Ammo tasodif ham sababsiz yuz bermaydi. Uning sababi, odatda, narsa yoki hodisaning o‘zida bo‘lmay, balki undan tashqarida tashqi shart-sharoitlarda bo‘ladi. Tasodif ham o‘ziga xos quyidagi xususiyatlar bilan xarakterlanadi: 1) tasodifning sababi o‘zida emas, balki boshqa narsa va hodisadir, u ichki sabab asosida emas, tashqi sabablardan kelib chiqadi; 2) tasodif borliqdagi nomuhim bog‘lanishlardan kelib chiqadi; 3) u narsa yoki hodisaning butun rivojlanish davomida emas, balki turli jarayonlarning ta’sirida sodir bo‘ladi; 4) tasodif narsa va hodisalar rivojlanishining yo‘nalishini belgilab bermaydi, shunga ko‘ra u muqarrar emas; 5) tasodif umumiy emas, balki individual xarakterga ega; 6) tasodif, nihoyat, qonun bilan bog‘liq emas.

Umuman, zaruriyat va tasodif borliqdagi narsa va hodisalar o‘zaro aloqadorligining turli shakllari sifatida mavjud bo‘lib, ular ob’ektivdir, ya’ni ularning mavjudligi va amal qilishi inson hohishi va irodasiga bog‘liq emas.

Zaruriyat va tasodif o‘zaro dialektik bog‘liqdir, bunda tasodif zaruriyatning ichki tizimida yashiringan bo‘lgani kabi, zaruriyat ham tasodiflar tizmasida, ularning takrorlanishida mavjud bo‘ladi, boshqacha aytganda, ular bir-birisiz, alohida-alohida mavjud bo‘lolmaydi.

Fanning vazifasi borliqdagi narsa va hodisalarning o‘zaro bog‘lanishlarida yashirinib yotgan, insonga noma’lum bo‘lgan ichki zaruriy aloqadorliklarni va ular tizimidagi tashqi tasodiflarni aniqlashdan iboratdir.

Borliqdagi qat’iy zaruriyat doimo tasodiflar tizmasida hukmronlik qilib, tadqiqotchi o‘z tadqiqoti jarayonida tasodifiy hodisalar tizmasida mavjud bo‘lgan tasodiflarni tadqiq qilish, ularning bir-birlari bilan aloqadorliklarini aniqlash, ular tizmasida mavjud bo‘lgan, lekin yashirinib yotgan zaruriyatni ochish, jamiyatda insoniyat uchun noqulay bo‘lgan voqeahodisalarning ro‘y berishlarining oldini olishga imkon beradi.

Borliqdagi narsa va hodisalarning hozir qanday ekanligi, kelajakda qanday bo‘lishini biz imkoniyat va voqelik kategoriyalarisiz tushuna olmaymiz.

i) Imkoniyat va voqelik.

5-MAVZU. OLAMNING UNIVERSAL ALOQALARI VA RIVOJLANISH. FALSAFANING QONUN VA KATEGORIYALARI

Imkoniyat va voqelik o'zgarish va rivojlanish jarayonidagi narsa va hodisalarning ikki xil davrini, ikki xil holatini, bu davrlarning o'zaro munosabatini o'zlarida ifodalovchi kategoriyalardir.

Voqelik — bu hozir real mavjud bo'lgan, yashab turgan narsa va hodisalardir. Lekin bu hodisalar rivojlanish jarayonida birdaniga hozirgi holatda bo'lmay, balki dastlab imkoniyat holatida bo'lgan bo'lib, ular o'zlarining ma'lum kelib chiqish davriga, vaqtiga, tarixiga ega. Voqelik o'zining paydo bo'lish davridan oldin imkoniyat shaklida mavjud bo'ladi.

Imkoniyat — bu voqelikning kurtak holdagi ko'rinishidir, u yuzaga chiqmagan voqelikdir. SHu bilan birga, imkoniyat voqelikni keltirib chiqaruvchi, rivojlanishning ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlari ham bo'lishi mumkin. Imkoniyat ob'ektiv qonuniyatlardan kelib chiqadi, ular tomonidan yaratiladi.

Imkoniyat va voqelik kategoriyalarini, ularning o'zaro dialektikasini chuqur bilib olish kishilarning amalii faoliyatida, ilmiy tekshirish ishlarida katta ahamiyatga ega.

Imkoniyat va voqelik kategoriyalarining mazmuni ongdan tashqaridagi ob'ektiv olamdan olinadi. Bu kategoriyalar bir butun moddiy yoki ruhiy jarayonning ikki tomonini aks ettiruvchi, o'zaro dialektik munosabatdagi kategoriyalardir. Shuning uchun imkoniyat va voqelikni birbiridan farq qilish lozim, chunki ularni aralashtirib yuborish nazariyaning rolini inkor etishga, insonning tabiat va jamiyatni o'zgartiruvchi faoliyatini tushunmaslikka, amaliqtning ahamiyatini yo'qqa chiqarishga olib keladi. Ularni aralashtirib yuborish yo'q narsani bor, deb bilishga, yangining kurash jarayonida eski ustidan g'alaba qilishni ko'rmaslikka olib boradi.

Imkoniyatlar yangi, endi vujudga kelayotgan, rivojlanayotgan va eski, umrini tugatayotgan real kuchlar sifatida progressiv va konservativ bo'lishi mumkin.

Eskilikni ifodalovchi imkoniyat rivojlanish jarayonida voqelikka aylanib qolishi ham mumkin, lekin bu harakatning ichki qonuniyatidan, uning tub xarakteridan kelib chiqmaydi. Shuning uchun eskilikni ifodalovchi imkoniyatning voqe bo'lishi vaqtinchadir.

Imkoniyat voqelikka birdan aylanmaydi. U eski voqelik ichida, avvalo, kurtak shaklida mavjud bo'lib, so'ng rivojlanib borib, tobora reallasha boradi va ma'lum davrda, ma'lum shartsharoit tufayli voqelikka aylanadi. Imkoniyat reallasha borgan sari, uning mavjud eski voqelik bilan kurashi ham keskinlashib boradi. Shunga ko'ra, imkoniyatni formal, abstrakt va real imkoniyatlarga ajratib o'rganiladi. Quruq fikriy izchillik jihatidagina to'g'ri bo'lgan, lekin real asosga ega bo'lmagan imkoniyat formal imkoniyatdir. Formal imkoniyat ob'ektiv rivojlanish qonuniyatlaridan kelib chiqmaydi. Shuning uchun ham u hech qachon voqelikka aylanmaydi.

Amalga oshishi uchun hali shart-sharoitlar to'liq etilmagan, lekin amalga oshishi qonuniy bo'lgan, narsa va hodisaning o'zgarish va rivojlanish mantig'idan kelib chiquvchi imkoniyat abstrakt imkoniyat deyiladi. Abstrakt imkoniyat rivojlanish jarayonida ma'lum ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlar etilganda, real imkoniyatga aylanadi.

Real imkoniyat — bu rivojlanishning asosiy tendensiyasini ifodalovchi, hozirgi sharoitda uning ichki mohiyatidan kelib chiquvchi imkoniyatdir. Real imkoniyat konkret, ayni vaqtda amalga oshishi mumkin bo'lgan imkoniyatdir.

Ijtimoiy taraqqiyotda imkoniyatning voqelikka aylanishida ob'ektiv shart-sharoit hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ob'ektiv shart-sharoitlar — bular inson ongidan tashqarida mavjud bo'lgan shart-sharoitlardir. Biroq jamiyatdagi real imkoniyatlarni voqelikka aylantirishda ongli faoliyatning roli ham g'oyat kattadir. Buning ma'nosi shuki, jamiyat imkoniyatlarining voqelikka aylanishida sub'ektiv omil muhim ahamiyatga ega. Sub'ektiv omil — bu xalq ommasi, uning ongliligi va aktiv amaliy faoliyatidan iborat. SHuning uchun ham imkoniyat va voqelik dialektikasini o'rganish masalasi jamiyatni boshqarishda juda katta ahamiyatga ega. Bunda sub'ektiv omil ob'ektiv shart-sharoitlarga asoslanadi. Ularsiz sub'ektiv omilning o'zi hech narsani

5-MAVZU. OLAMNING UNIVERSAL ALOQALARI VA RIVOJLANISH. FALSAFANING QONUN VA KATEGORIYALARI

yuzaga keltira olmaydi, chunki ob'ektiv shart-sharoitlar sub'ektiv faoliyatga nisbatan birlamchi va belgilovchidir.

Ijtimoiy taraqqiyot yo'llarini hamisha butun ichki murakkabligi va ziddiyatligi bilan tasavvur etish kerak. Biroq bu jarayonlarning markazida doimo inson, uning manfaatlari va qiziqishlari turmog'i lozim. Falsafiy dunyoqarashning o'ziga xos eng muhim xususiyati ham mana shundan iborat. Umuman, dialektikada yuqoridagi deterministik aloqadorliklarni ifodalaydigan kategoriyalar o'zaro bir-birlari bilangina emas, balki boshqa barcha kategoriyalar bilan ham chambarchas bog'liqlikda o'rganishni talab qiladi.

Xulosalar. Kategoriyalar fikrlashning universal shakllari bo'lib, ularda ob'ektiv voqelikda mavjud bo'lgan umumiy aloqalar, xossalar va munosabatlar aks etadi. Kategoriyalarda kishilik jamiyatining tajribasi va faoliyati mujassamlashadi.

Bilish natijalari o'z aksini topuvchi tushunchalar va kategoriyalar bo'lmasa, bugungi kunda bilishning o'zi ham bo'lmas edi. Kategoriyalar ob'ektivlik, muayyanlik, amaliyot bilan bog'liqlik va tarixiylik, o'zgaruvchanlik va sh.k. xususiyatlar bilan tavsiflanadi. **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.:“O'zbekiston”, 2014. 24 b
2. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947sonli Farmoni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
5. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-24 jildlar.- T.: O'zbekiston 1996-2016.
6. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. 2 nashr –T.:Ma'naviyat, 2016 176-b.
7. Falsafa. Axmedova M. Tahriri ostida. – T.: O'FMJ, 2006. 339 b.
8. Shermuxamedova N.A. Falsafa. – T.: Noshir, 2012. 1214 b.
9. Falsafa asoslari. Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: «SHarq», 2005 y.

6-MAVZU. BILISH NAZARIYASI: ASOSIY MUAMMOLARI VA YO‘NALISHLARI

REJA:

1. Bilish nazariyasining predmeti va o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Gnoseologiya (epistemologiya)ning mazmuni va mohiyati.
3. Bilishning asosiy turlari va shakllari.
4. Ong-tafakkur va borliqning birligi.
5. Bilishda haqiqat va amaliyot uyg‘unligi. Falsafada metod va metodologiya, metodika tushunchalari.

Tayanch tushunchalar: Sezgi, idrok, xotira, xayol, tasavvur, empirik bilim, kuzatish, eksperiment, ilmiy dalil, nazariy bilim, muammo, ilmiy muammo, muammoli vaziyat, gipoteza, nazariya, kategoriya, tafakkur, mantiqiy tafakkur, tushuncha, mulohaza, xulosa, intuitsiya, induktiv tafakkur. Metod, metodologiya, metodika, metafizika, yangi metafizika, sofistika, eklektika, sinergetika, bifurkatsiya, umumilmiy yondashuvlar, tadqiqot metodlari, xususiy ilmiy metodlar, fan metodlari, fanlararo tadqiqot metodlari, xususiy fanlar metodlari, empirik tadqiqot metodlari, kuzatish, eksperiment, sotsiometriya metodi, o‘yin metodlari, kumatoid.

«Gnoseologiya» – sof falsafiy kategoriya. Uning nomi yunoncha «gnosis» – «bilim», «ilm» va «logos» – «ta’limot», «fan» so‘zlaridan kelib chiqqan. So‘zma-so‘z ma’nosi – «bilish haqi dagi ta’limot (fan)», «ong haqidagi ta’limot (fan)». Falsafiy adabiyotlarda, shu jumladan, falsafiy qomuslar va lug‘atlarda «gnoseologiya» atamasi «bilish nazariyasi» deb tarjima qilingan. SHu bilan bir qatorda, ayni shu mazmuni ifodalash uchun falsafiy adabiyotlarda «epistemologiya» so‘zi ham qo‘llaniladi. SHuni ta’kidlash lozimki, gnoseologiyaga tatbiqan bilish nazariyasi va epistemologiya nomlarining qo‘llanilishini o‘rinli deb bo‘lmaydi. Zotan, «episteme» so‘zi «pistis» – «e’tiqod» so‘zi bilan uzviy bog‘liq. Biroq, «biz biladigan» (gnosio) va «biz ishonadigan» (pistio), mavjudligiga e’tiroz bildirmaydigan narsalar – falsafiy va ilmiy bilimlarning hozirgi darajasida mazmunan har xil tushunchalardir. SHu bois G‘arbiy Evropa falsafasida epistemologiyaning mazmuni ikki xil, ba’zan esa – uch xil talqin qilinadi. Umuman olganda, hozirgi zamon falsafasida gnoseologiya bilish jarayonining umumiy, aniqroq aytganda, falsafiy mohiyati hamda umumiy muammolariga e’tiborni qaratadi. Epistemologiya esa, bizning muayyan narsalar haqidagi bilimlarimiz va (yoki) e’tiqodlarimizning ishonchlilik darajasini o‘rganadi. Demak, epistemologiya gnoseologiyaning tarkibiy qismi yoki uning amaliy ifodasidir. Tom ma’nodagi epistemologiya hozirgi kunda ilmiy, haqiqiy bilimning mazmunini, shuningdek, diniy e’tiqodlarning gnoseologik mohiyatini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Bunda esa bilish (ong)ning mohiyati to‘g‘risida bahs yurituvchi falsafiy ta’limot ma’nosidagi «gnoseologiya» atamasidan foydalaniladi. Shu bilan biz avval gnoseologiya muammolari doirasini aniqlab olishga harakat qilamiz.

Gnoseologiya yoki bilish nazariyasi falsafiy bilimlar (falsafa fani) bo‘limi bo‘lib, unda:

- 1) *insonning dunyoni bilish imkoniyati;*
- 2) *insonning o‘zlikni anglash jarayoni;*
- 3) *bilishning bilmaslikdan bilim sari yuksalishi;*
- 4) *bilimlar tabiati va ularning mazkur bilimlarda aks etuvchi narsalar bilan o‘zaro nisbati o‘rganiladi.*

Shunday qilib, umuman olganda, *gnoseologiya ong, bilish, bilimni o‘rganish bilan shug‘ullanadi.* Shaxsiy va ijtimoiy tajribada biz ongning mavjudligini aniq sezamiz, ongning o‘z-o‘ziga, boshqa odamlarga va umuman, jamiyatga ta’siri natijalarini fiziologik darajada his qilamiz va ko‘ramiz.

Biroq bu jarayonda ongning o‘zi ko‘rinmaydi. Moddiy dunyo hodisalaridan farqli o‘laroq, ongni kuzatish mumkin emas. U go‘yo vaqt va makon chegaralaridan tashqarida turadi. Gnoseologiyaning vazifasi bu ko‘rinmas ongni idrok etish, uning moddiy narsa va hodisalar dunyosi bilan o‘zaro aloqalarini aniqlash, uni o‘z muhokama va tadqiqot predmetiga aylantirishdan iborat. *Gnoseologiyaning asosiy muammosi bizning barcha bilimlarimiz tajribada sinalganmi? degan «oddiy» masalani echishdan iborat: Bu savolga javob izlash va masalaning echimini topishda gnoseologiyada ikki muxolif an‘ana: bilimlarimiz tajribada sinalganini qayd etuvchi empirizm va buni inkor etuvchi ratsionalizm to‘qnashadi. Ratsionalizm (ratsionalistlar) insonda tug‘ma g‘oyalar, adolat, insoniylik, uyg‘unlik g‘oyalari va tajribadan olinishi mumkin bo‘lmagan boshqa g‘oyalar mavjudligidan kelib chiqadi. Zotan, tajriba to‘la adolat, yalpi insoniylik mavjud emasligini, bizni qurshagan dunyoda uyg‘unlik ustidan xaos hukm surishini ko‘rsatadi. Bunda ayrim ashaddiy ratsionalistlar (masalan, Platon, Avgustin va ularning hamfikrlari) ko‘rsatib o‘tganidek g‘oyalar inson aqliga xos tug‘ma g‘oyalar bo‘lib, ularni inson faqat o‘z aqlidan olishini qayd etadilar; boshqa, mo‘‘tadil ratsionalistlar (masalan, Leybnits, Volf, Baumgarten) esa, g‘oyalar aqlga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud bo‘lsa-da, biroq ular faqat aqlda tafakkur va falsafiy mushohada yuritish jarayonida tug‘ilishini ta‘kidlaydilar. Empirizm (empiristlar, F.Bekon, J.Lokk, T.Gobbs, D.YUm, L.Feyerbax), aksincha, in son, insoniyat shaxsiy yoki ijtimoiy tajribaga ega bo‘lgunga qadar biron-bir g‘oya mavjud bo‘lishini inkor etadilar. Ular barcha g‘oyalar inson ongi zamirida yo shaxsiy tajriba, yo boshqalar tajribasi, butun insoniyat tajribasini umumlashtirish orqali tug‘ilishini qayd etadilar va bu tezisni isbotlashga harakat qiladilar. Ularning fikriga ko‘ra, tajriba inson ongida uning sezgilari va o‘zini qurshagan dunyoni idrok etishi orqali aks etadi. Falsafada idrok etishni persepsiya (lotincha perception – idrok etish) deb atash odat tusini olgan. Persepsiya o‘zini qurshagan dunyodagi narsalar va hodisalarni sezgilar orqali idrok etishga aytiladi, appersepsiya borliqni aql bilan anglash, bilish, ularni g‘oyalarda ifodalashdir.*

Gnoseologiya inson bilimining chegaralari to‘g‘risidagi masalani echishni ham o‘z ichiga oladi. Ko‘pgina empiriklar (masalan, David Yum, Dyubua Raymond, agnostiklar) va ratsionalistlar (masalan, Kant va uning hamfikrlari) inson nafaqat umumiy narsa va hodisalarni, balki muayyan, konkret narsalarni ham bilishi mumkin emas, degan fikrga qo‘shiladilar. Ayrim narsalar, hodisalar va konsepsiyalar borki, ular persepsiyamizning chegaralariga ham, tafakkurimiz, refleksiya (lotincha reflex – torqaga qaytish) doirasiga ham sig‘maydi.

Masalan, Kant Koinot ibtidosi yoki ibtidosizligi, Xudoning borligi yoki yo‘qligi, jonning boqiyliги yoki foniyliги, axloqning sababiyliги yoki sababsizliги aqlning bilish chegaralariga sig‘maydigan, oqilona o‘rganib bo‘lmaydigan transsendental (lotincha transcendentalism – chegaraga sig‘maydigan) masalalardir, deb hisoblagan. XX asr pozitivistlari, empirizm g‘oyalarini himoya qilgan yirik olimlar: Moris Shlik, Rudolf Karnap kabilar Kantning transsendental muammolarini mantiqsiz deb e‘lon qildilar.

Gnoseologiya inson bilimi va bilishga doir juda ko‘p muammolar bilan shug‘ullanadi. U bizning bilimlarimiz qay darajada e‘tiqod, qay darajada ko‘rko‘rona ishonch va qay darajada real borliqning haqiqiy in‘ikosi ekanligini aniqlashga harakat qiladi. So‘nggi o‘n yilliklarda gnoseologiyada bilimlar o‘rtasidagi farq, animani bilaman , qanday bilaman , $\text{shaxsiy tajribamdan bilaman}$, $\text{dalilga ko‘ra bilaman}$ kabi iboralar mazmunining o‘zaro nisbati masalalari muhokama qilinmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, gnoseologiya borliqni to‘liq qamrab olib, unda biron-bir tafsilotni nazardan qochirishga harakat qiladi. Demak gnoseologiya falsafaning eng muhim omilidir.

Optimizm. Skeptitsizm. Agnostitsizm. Bilish jarayoni rivojlanish qonuniyatla rining shakllari, haqiqatning tagiga etish imkoniyatlari nuqtai nazaridan o'rganiladi. Uning har xil modellari, yondashuvlari mavjud. Materialistik modellar zamirida dunyoning inson ongida aks etish tamoyillari: Demokritda –obrazlar (eydoslar), Yangi davr faylasuflarida – sensor signallari, Berklida –sub'ektning sezgilari yotadi. Leybnits bilishni ilohiylashtirilgan g'oyaning inson tug'ma tushunchalariga ta'siri deb hisoblagan. Gegel taklif qilgan modelning zamirida mutlaq g'oyani anglash yotadi. Max, Avenarius va boshqa sub'ektiv idealistlarda (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) bilish jarayoni – bu sezgilarning bo'sh va tejamli aloqasini amalga oshirishdir.

Inson aqli bilish pillapoyasidan yuqoriga ko'tarilar ekan, har bir yangi pog'onada qayta-qayta quyidagi savolga javob topishga harakat qiladi: dunyoni bilish mumkinmi?, bilishning chegaralari bormi? Falsafada bu savollarga javob beruvchi uch asosiy yo'nalishni farqlash mumkin: optimizm, skeptitsizm va agnostitsizm (Kant va boshqalar). *Optimistlar dunyoni bilish mumkinligini ta'kidlaydilar, agnostiklar, aksincha, buni rad etadilar* (I.Kant – narsa o'zida[¶]). *Skeptiklar dunyoni bilish mumkinligini inkor etmaydilar* (XVIII asrda D.Yum), *biroq bilimning haqiqiylikiga shubha bildiradilar*. Odatda, skeptitsizm paradigmalari, qadriyatlar, ijtimoiy tizimlar va hokazolar o'zgarayotgan davrda (yoki uning arafasida), ilgari haqiqiy deb hisoblangan xulosalar fan va amaliyot olgan yangi ma'lumotlar nuqtai nazaridan soxta, asossiz bo'lib chiqqan holda ravnaq topadi. Skeptitsizm psixologiyasiga xos xususiyat shundan iboratki, u darhol nafaqat eskirgan, balki yangi, shakllanayotgan fikrlar, g'oyalarni ham toptay boshlaydi. Bu psixologiya zamirida tadqiqotchining yangilikka tashnalligi va inson tafakkurining kuchiga bo'lgan ishonch emas, balki qachondir qabul qilingan qulay[¶] tamoyillarga tayanish yotadi. Skeptitsizm ta'limot sifatida, hech shubhasiz, zararlidir, chunki u insonning bilish borasidagi deyarli barcha imkoniyatlarini kamsitadi.

Bilimning asosiy turlari. Bilim nima? Bilim tushunchasiga aniq ta'rif berish qiyin, balki hatto mumkin ham emas. Gap shundaki, birinchidan, bu tushuncha eng umumiy tushunchalardan biri hisoblanadi, umumiy tushunchalarga esa doim aniq ta'rif berish qiyin. Ikkinchidan, bilimning juda ko'p turlari mavjud va ularning hammasini yonma-yon qo'yib bo'lmaydi. Shuni e'tiborga olib, bilim nima ekanligini aniqlashga harakat qilib ko'ramiz. Odatda, biz nimanidir bilishimiz haqida gapirganimizda, o'zimiz bu «nimadir» haqida ancha to'g'ri tasavvurga egamiz, deb hisoblaymiz. Shuningdek, bizning tasavvurimiz xom xayol yoki faqat o'z shaxsiy fikrimiz emasligiga ham ishonchimiz komil bo'ladi. Nihoyat, biz bu ishonchni mustahkamlovchi qandaydir dalillar keltirishimiz mumkin. Shunday qilib, o'z shaxsiy hayotimizda biz amaldagi holatga mos keladigan va ma'lum asoslarga ega bo'lgan ishonch, e'tiqodni bilim deb hisoblaymiz. Teran ma'no bilan sug'orilgan bu bilim talqinining umumiy ruhi gnoseologiyada ham saqlanib qolgan. Ayni zamonda, gnoseologiya bu talqin zamirida mujassam ba'zi bir holatlarni aniqlaydi va ularga oydinlik kiritadi. «S sub'ekt qandaydir P predmetni biladi», degan standart gnoseologik talqin quyidagi uch shartni o'z ichiga oladi:

○ *Haqiqiylik (muvofiqlik) sharti* – «*agar P haqiqiy bo'lsa, u holda S P ni biladi*». Biz Chimyon Toshkentdan shimolroqda joylashganligini bilaman, basharti Chimyon chindan ham Toshkentdan shimolroqda joylashgan bo'lsa. Agar biz Amudaryo Tinch okeaniga quyiladi, deb aytsak, bizning bu fikrimiz bilim emas, balki yangilish fikr, xato bo'ladi.

○ *Ishonchlilik (e'tiqod, maqbullik) sharti* – «*agar S P ni bilsa, u holda S P ga ishonadi (uning mavjudligiga e'tiqodi komil bo'ladi)*. Masalan, agar biz O'zbekistonda daryo bor desak, biz uning amalda mavjudligiga ishonamiz. Odatda, bilim shunday ishonch yoki shunday e'tiqod hisoblanadi va ularni ajratish mumkin emas. Shunday bir vaziyatni tasavvur qiling: siz oyna oldiga kelib, tashqarida yomg'ir yog'ayotganini ko'rasiz. Siz: «Yomg'ir yog'yapti, lekin men bunga ishonmayman», deysiz. Bu iboraning anoto'g'riligi bilimimiz bizning e'tiqodimiz ekanligini

ko'rsatadi. *Asoslilik sharti* «*S P ni biladi, basharti u o'zining P ga bo'lgan ishonchini asoslab bera olsa*». Bu shart bilimni to'g'ri chiqadigan taxminlar yoki tasodifan mos kelish hollaridan farqlash imkonini beradi. Aytaylik, siz besh yashar bolakaydan: «Quyosh tizimida nechta sayyora bor», deb so'radingiz va «To'qqizta», degan javobni eshitdingiz. Siz bola sayyoralar sonini tasodifan to'g'ri aytdi, deb hisoblaysiz. Agar u o'z javobini hech bo'lmasa buni onasidan eshitganini aytib, asoslab bera olmasa, siz bolakayda bu dalil haqida haqiqiy bilim mavjud emas, degan to'xtamga kelasiz. Shunday qilib, bu «uch qismli» talqinga muvofiq, quyidagi muxtasar ta'rifni berish mumkin: *bilim – bu haqiqatga mos keladigan va asoslangan ishonch-dir*. Bu ta'rif ancha sodda bo'lib, uni bilimning barcha turlariga nisbatan tatbiq etish mumkin. Bu so'zlar zamirida muayyan muammo yotadi. Masalan, biz Nyuton mexanikasi haqiqatga etarli darajada muvofiq emas va uning o'rnini Eynshteynning aniqroq nazariyasi egalladi, deb hisoblaymiz. Biroq buning natijasida Nyuton nazariyasi o'zining bilim xususiyatini yo'qotgani yo'q-ku?

Eynshteynga qadar, uning haqiqiylikiga ko'pchilikning ishonchi komil bo'lgan davrda u bilim edimi? Shunga o'xshash so'zlarni hozirda fan tarixidan o'rin olgan minglab nazariyalar sha'niga aytish mumkin. Bilimni qanday qilib asoslash mumkin va etarli asoslar mavjudmi? Bu savol ham ancha mavhum. Gipoteza, faraz, odatda, bilim shakli sifatida qaraladi, biroq olimlar o'zlari ilgari surayotgan gipoteza yoki farazlarning to'g'riligiga ba'zan ishonchi komil bo'lmaydi.

Balki bilimni standart tushunish haddan tashqari taxminiy va nisbiydir? Qisman shunday, biroq bilim-bir ta'rif chegaralariga sig'dirish juda qiyin bo'lgan rang-barang hodisa ekanligi muhimroq. Agar «bilmoq» so'zi tilimizda qanday qo'llanilishiga nazar tashlasak, bilim turlari juda rang-barang ekanligini ko'rishimiz mumkin. Quyidagi gaplarni ko'rib chiqamiz. Men bu mashinani qanday qilib tuzatish mumkinligini bilaman. Men gitara chalishni bilaman. Men Po'latni o'n yildan beri bilaman. Men Toshkentni yaxshi bilaman. Men uchburchak burchaklarining yig'indisi ikki to'g'ri burchakka teng ekanligini bilaman. Men kit sut emizuvchilar oilasiga mansub ekanligini bilaman. Bu bir qarashda o'xshash gaplarda «bilaman» so'zi har xil ma'nolarda keladi. Dastlabki ikki gapda bilish nimanidir bajara olishni anglatadi. Gnoseologiyada u «*bilim-ko'nikma*» deb ataladi. Keyingi ikki misolda bilish – bu «*bilimtanishuvlik*» demakdir. U inson yoki qandaydir ob'ektni tanish qobiliyatini anglatadi. So'nggi gaplarda bilim «*nimanidir bilish*»ni ifodalaydi, chunonchi: u narsalarda qandaydir xossalalar, nisbatlar, qonuniyatlar va shu kabilarning mavjudligini tavsiflaydi. Bilim bu erda ma'lum axborot ko'rinishida keladi deb aytish mumkin. Ko'rib turganimizdek, «bilim-ko'nikma» va «bilim-tanishuvlik» bilimning standart talqiniga uncha mos kelmaydi. Umuman olganda, ularga nisbatan haqiqiylik va asoslanganlik tushunchalarini tatbiq etish mumkin emas. Po'latni yaxshi yoki orqavarotdan bilish mumkin, biroq biz uni «to'g'ri» yoki «ishonchli» bilishimiz mumkinmi? Biroq, bu erda shuni ta'kidlash lozimki, yuqorida zikr etilgan bilim turlari o'rtasidagi chegaralar aniq emas. Masalan, sizning Toshkent haqidagi bilimingiz siz shaharning kattaligi, aholisining soni, u O'zbekiston poytaxti ekanligi va hokazolar haqida ma'lum axborotga ega ekanligingizni nazarda tutadi. Biroq, bu bilim, avvalo, shahar bilan tanishlik, unda yaxshi mo'ljal ola bilish demak. Gnoseologiyada asosiy e'tibor muayyan narsalar haqidagi bilimni tahlil qilishga qaratiladi. Zero, faqat shunday bilimni asosli va asossiz, ishonchli va ishonchsiz, haqiqiy yoki soxta bilim sifatida aniq baholash mumkin.

Bilim shakllari – Inson o'zini qurshagan olamni anglab etadi, uni har xil usullar yordamida o'zlashtiradi. Bu usullardan ikkita eng muhimini qayd etish mumkin. Birinchi – moddiytexnikaviy usul – tirikchilik vositalarini ishlab chiqarish, mehnat, amaliyot. Ikkinchi – ma'naviy (ideal) usul; uning doirasida sub'ekt va ob'ektning bilishga doir munosabatlari ular o'rtasidagi ko'p sonli munosabatlarning biridir. O'z navbatida, bilish jarayoni va unda olinadigan bilimlar amaliyot va bilishning tarixiy rivojlanishi mobaynida tabaqalanadi va o'zining har xil shakllarida mujassamlashadi. Bilishning bu shakllari, garchi o'zaro bog'liq bo'lsa-da, lekin bir-biriga o'xshamaydi va har bir-biri o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Kundalik amaliy bilim. *Tabiat haqida, shuningdek, odamlarning o'zlari, ularning yashash sharoiti, ijtimoiy aloqalari va hokazolar to'g'risida elementlar bilimlar beruvchi kundalik amaliy bilimlar bilishning tarixan eng birinchi shakli hisoblanadi.* Bilishning bu shakli kundalik hayot, odamlar amaliy tajribasidan kelib chiqqan. Shu asosda olingan bilimlar garchi mustahkam bo'lsa-da, biroq tartibsiz, tarqoq xususiyatga ega bo'ladi, ma'lumotlar, qoidalar va shu kabilarning oddiy majmuini tashkil etadi. Kundalik bilish sohasi juda rang-barang. U sog'lom fikr, e'tiqodlar, belgi-alamatlar, shaxsiy tajribadan chiqarilgan dastlabki xulosalar, ularning an'analar, rivoyatlar, o'gitlar va hokazolarda ifodalangan ko'rinishlari, intuitiv ishonch, sezgilar va shu kabilarni o'z ichiga oladi.

O'yin vositasidagi bilim nafaqat bolalar, balki kattalar faoliyatining ham muhim unsuri hisoblanadi. *O'yin jarayonida shaxs qizg'in bilish faoliyatini amalga oshiradi, bilimlarning katta hajmini o'zlashtiradi, madaniy boyluk – ishga doir o'yinlar, sport o'yinlari, aktyorlarning o'yinlari va shu kabilarni qon-qoniga singdiradi.* O'yin bolalarning qiziquvchanligini qondirish, ularning ma'naviy dunyosi va ma'lum bilimlari, o'zaro til topish ko'nikmalari va shu kabilarni shakllantirishda muhim ijtimoiy rol o'ynaydi. Hozirgi zamonda o'yin tushunchasidan matematika, iqtisodiyot, kibernetika va boshqa fanlarda keng foydalanilmoqda.

Mifologik bilim Mif – ibtidoiy odam tafakkurining tabiat hodisalarini tushunish va tushuntirishning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Mif narsa va obraz, jism va xossa, «asos» va tamoyillarni farqlamaydi. Voqealar o'xshashligi yoki ketma-ketligini sabab va oqibat bog'lanishi sifatida talqin qiladi. Mif oliy darajada universal voqealar, chunonchi: inson o'limi va uning mangu barhayotligi, dunyoning vujudga kelishi, qahramonona qilmishlar, madaniyat yutuqlari (masalan, olovning o'g'irlanishi haqidagi mif) va shu kabilar haqida hikoya qiladi. Mifning mazmuni ramziy tilda ifodalanadi, natijada uning xulosalari keng va ko'p ma'noli tus kasb etadi. Ko'p sonlilik tamoyilini, aks ettirish, muayyanlik va antropomorflik (ya'ni, inson xususiyatlarini tabiat ob'ektlariga o'tkazish), obraz va ob'ektning tenglashtirish kabilar mifologik bilishning o'ziga xos xususiyatlaridir. Borliqni anglab etish usuli sifatida mif inson, jamiyat, dunyoni modellashtiradi, tasniflaydi va talqin qiladi.

Diniy bilim *insoniyat to'plagan tajribaga tayanib, inson hayotining muhim ko'rinishlari, chunonchi: oila va turmushdagi xulq-atvor, axloqiy qoidalar, mehnat, tabiat, jamiyat va davlatga munosabatni tartibga soladi.* Dinning asosiy vazifasi – inson hayoti, tabiat va jamiyat borlig'ining mazmunini aniqlashdan iborat. Din universumning pirovard mazmunlari haqidagi o'z tasavvurini asoslab, dunyo va insoniyatning birligini tushunishga ko'maklashadi.

U inson hayotini o'zgartirishga qodir bo'lgan haqiqatlar tizimidan iborat. Diniy ta'limotlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular jamoa tajribasini ifodalaydi va shu bois nafaqat har bir dindor odam, balki dinga sig'inmaydiganlar uchun ham qadrlidir.

Diniy ta'limotlarning vazifasi Xudo bormi, uni qanday qilib bilish mumkin, umuman, Xudoni bilish mumkinmi, degan savollarga javob berishdan iborat. Din o'z dunyoqarashini Muqaddas Kitob matnlarida, shuningdek, diniy rasm-rusum va urf-odatlarida ifoda etadi. Diniy rasmlarning bir unsuri ramziy ahamiyatga egadir. Diniy ramzlar g'oya va obraz muvozanatini o'zida mujassamlashtiradi. Meditatsiya – o'z tafakkurini bir ob'ektga qaratish, inson e'tiborini chalg'ituvchi barcha begona omillarni chetga chiqarish yo'li bilan fikr yuritish, narsa, g'oya, dunyoni idrok etishdir. Dinda meditatsiya shaxsiy ongning Absolyut bilan birikuvini anglatadi. **Falsafiy bilim.** Falsafa san'at va din kabi, bilish vazifalarini echish bilangina kifoyalanmaydi. *Uning bosh vazifasi san'at va din bilan uyg'un holda – insonning dunyoda ma'naviy mo'ljal olishiga ko'maklashishdan iborat.* Falsafiy bilish ayni shu maqsadga bo'ysundirilgan.

Ilmiy bilim. Bilishning eng oliy shakli fandır. Ayrim fanlarning vakillari fanni ta'riflar ekanlar, uni muayyan tadqiqotlar sohasi bilan bog'laydilar. Ilmiy bilim boshqa bilim turlaridan o'zining

aniqligi bilan ajralib turadi. *Ilmiy bilim, ma'naviy ishlab chiqarishning barcha shakllari kabi, pirovardida inson faoliyatini tartibga solish uchun zarur.* Bilishning har xil turlari bu vazifani turlicha bajaradi va mazkur farqning tahlili ilmiy bilimning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashning birinchi va muhim sharti hisoblanadi.

Ijtimoiy bilim, asosan, o'zi o'rganayotgan borliqning sifat tomonini tavsiflashga qarab mo'ljal oladi. *Bu erda hodisalar va jarayonlar miqdor va umumiylik nuqtai nazaridan emas, balki sifat va xususiylik nuqtai nazaridan o'rganiladi.* SHu sababli miqdor metodlarining ulushi, bu erda, tabiiy-matematik siklga mansub fanlarga qaraganda kamroq. Biroq, bilimning matematikalashuvi, kompyuterlashuvi jarayonlari bu erda ham tobora kengroq tus olib bormoqda.

Hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy va intuitiv bilish darajalari, ularning o'ziga xosligi va aloqadorligi.

Hissiy darajadagi bilimning shakllari. Sezgi a'zolari orqali olingan bilim – hissiy bilimlardir. *Narsalarning xossalari sezgi a'zolari sezish va idrok etish natijasida olingan bilim hissiy bilimdir.* Masalan, inson uchayotgan samolyotni ko'radi va buning nimaligini biladi.

Sezgi. *Bilish faoliyatida sezgi – narsalar ayrim xossalari sezgi a'zolari orqali his qilingan oddiy obrazi, in'ikosi, nusxasi yoki o'ziga xos surati dastlabki sezgi obrazi hisoblanadi.* Masalan, aplesinda biz to'q sariq rang, o'ziga xos hid, ta'mni sezamiz. CHunki, sezgilar insondan tashqaridagi muhitda yuz berayotgan va uning sezgi a'zolariga ta'sir ko'rsatayotgan jarayonlarda yuzaga keladi. Ovoz va yorug'lik to'lqinlari, mexanik bosim, kimyoviy ta'sir va hokazolar tashqi ta'sirlantiruvchilar hisoblanadi. Forobiy bilishning ikki shakli – hissiy va oqilona bilishni farqlaydi. Insonni tashqi dunyo bilan bog'lovchi sezgilar roliga e'tiborni qaratar ekan, Forobiy ularni besh turga ajratadi. U sezgilarni bilimning asosiy manbai deb hisoblab, sezgilar faqat narsaning in'ikosi narsaning o'ziga mos tushgan holda haqiqiy bo'lishi mumkin¹⁷, deb ta'kidlaydi. Forobiyning bilishda va umuman hissiy idrok etishda sezgilarning roli haqidagi qarashlari Aristotelning «sezmaydigan odam hech narsani bilmaydi va tushunmaydi», degan fikriga juda o'xshash. Insonning hayvondan farqi shundaki, u aql va sezgilar yordamida bilimlarni o'zlashtirishga qodir. «Aql kuchi» borliq narsalarining fikriy in'ikosini o'zida gavdalandiradi. Dunyoviy hodisalarning mohiyati va sabablarini bilgan aql osmon jismlari va ularning shakllarini bilishga harakat qiladi. Shu oxirgi bosqichda insonga ta'sir ko'rsatuvchi koinot aql bilan birikadi va boqiylik xususiyatini kasb etadi. Aql dunyoning yaralish bosqichlari sifatida inson va birinchi sabab o'rtasida bog'lovchi bo'g'in bo'lib xizmat qiladi, birinchi sabab esa, o'z navbatida, aqlga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Harakatlanuvchi aql jon bilan ruh orqali bog'lanadi, jon inson tanasidan o'rin oladi, shunday qilib, nodunyoviy hayot jihatlari insonga o'tadi va pirovardida inson mohiyati, bilimlari – uning aqli boqiylik xususiyatini kasb etadi.

Forobiy fikricha, sezgilar tartibga ega bo'lganidek, aqlning ham o'z tegishli tartibi mavjuddir¹⁸. Birinchi metod tabiiy fanlar (fizika)ga, ikkinchisi matematikaga mos tushadi. Ikkala metoddan ham faqat fanda narsa va hodisaning u yoki bu jihatini teranroq tushunish maqsadida foydalaniladi.

Idrok. *Sezgi a'zolariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi predmetlar, ularning xossalari va munosabatlarini aks ettiruvchi yaxlit obrazni idrok etish deb ataladi.* Insonning idrok etishi narsalar, ularning xossalari va munosabatlarini tushunish va anglab etishni o'z ichiga oladi. Bunda inson o'zining har bir yangi taassurotini mavjud bilimlar tizimiga kiritadi. Sezish va idrok etish inson tashqi dunyoga amaliy ta'sir ko'rsatishi jarayonida, mehnatda, sezgi a'zolari faol ishlashi natijasida amalga oshadi va rivojlanadi; masalan, harakatsiz ko'z narsalar rangini farqlashga qodir emas. Organizmning makroskopik, yaxlit narsalar va jarayonlar olamida mo'ljal olishga bo'lgan

¹⁷ Қаранг: Фараби. Китаб ал-Хуруф. Душанбе. «ИЛМ», 1972 г. с. 23.

¹⁸ Қаранг: Фараби. Китаб ал-Хуруф. Душанбе. «ИЛМ», 1972 г. с. 24.

ehtiyoji bizning sezgi a‘zolarimizni shunday tashkil qilganki, biz narsalarni yaxlit holda idrok etamiz. Aks holda hamma narsa harakatlanayotgan zarralar, molekulalar pardasiga aylangan va biz narsalarning chegaralarini ko‘rmagan bo‘lur edik. Ko‘rish a‘zosi organizm hayotida muhim rol o‘ynaydigan borliqdagi yorug‘lik hodisalarini mumkin qadar yaxshiroq aks ettirish yo‘nalishida rivojlangan. Shu sababli ko‘z tabiatda mavjud yorug‘lik ta‘sirida yorug‘likni qabul qilish, quloq – ovoz tebranishlarini farqlash uchun moslashgan va hokazo. Sezgi a‘zolarining o‘ziga xosligi, «fiziologik» idealistlar fikridan farqli, tashqi dunyoni to‘g‘ri bilishga nafaqat monelik qilmaydi, balki, aksincha, narsalarning ob‘ektiv xossalari aniqroq va to‘liqroq aks etishini ta‘minlaydi.

Xotira *o‘tmish va hozirgi zamonni birlashtiradi, ularning bir-biriga o‘tishini ta‘minlaydi.* «Tovushlar va so‘zlar soni ko‘paygandan keyin, odamga uning xotirasi yordamga keladi... Yozuv ham xotira bilan birga inson imkoniyatlarini oshiradi»¹⁹. Agar obrazlar miyada unga predmet ta‘sir ko‘rsatgan paytda paydo bo‘lib, bu ta‘sir to‘xtaganidan keyin darhol g‘oyib bo‘lganida, inson narsalarni har safar mutlaqo notanish narsalar sifatida qabul qilgan, u mazkur narsalarni tanimagan, demak, ularni anglamagan bo‘lar edi. Biror narsani anglash uchun aqlning ishlashi hozirgi holatni oldingi holat bilan taqqoslashi talab etiladi. Tashqi ta‘sirlarning idrok etilishi va ularning vaqtda saqlanishi natijasida xotirada tasavvurlar uyg‘onadi.

Tasavvurlar *–bu bir paytlar insonning sezgi a‘zolariga ta‘sir ko‘rsatgan va keyinchalik miyada saqlanib qolgan aloqalar bo‘yicha gavdalanadigan narsalarning obrazlaridir.* Sezish va idrok etish ong, fikr shakllanishining boshlanishi hisoblanadi. Xotira olingan axborotni qayd etadi va saqlaydi. Tasavvurda esa ong ilk bor o‘zining bevosita manbaidan ajraladi va nisbatan mustaqil sub‘ektiv hodisa sifatida mavjud bo‘la boshlaydi. Inson nisbatan yangi obrazlarni erkin yaratishga qodir. Tasavvur – bu idrok etish va nazariy tafakkur o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in. **Xayol** insonning muhim xossasi. *Xayol kuchi tajribada (ongda) mavjud obrazlarni nafaqat qayta chaqiradi, balki ularni bir-biri bilan bog‘laydi va shu tariqa ularni umumiy tasavvurlar darajasiga ko‘taradi.*

Empirik bilim va uning shakllari. Empirik bilim mavjud narsaning bevosita emas, balki bilvosita in‘ikosi. Masalan, olim o‘zi ko‘rmayotgan tegishli ob‘ektning holati haqida unga axborot berayotgan asbob ko‘rsatkichi yoki elektro-kardiogrammaning elektr chizig‘ini ko‘radi. Boshqacha aytganda, bilishning empirik darajasi har xil asbob lardan foydalanish bilan bog‘liq; u kuzatish, kuzatilayotgan narsa yoki hodisani tavsiflash, bayonnomalar yuritish, hujjatlardan foydalanishni nazarda tutadi, masalan, tarixchi arxivlar va boshqa manbalar bilan ishlaydi. Xullas, bu oddiy sezgi darajasida bilishga qaraganda bilishning yuqoriroq darajasidir.

Kuzatish *– bilish ob‘ektining muhim xossalari va munosabatlarini aniqlash maqsadida ataylab amalga oshiriladigan izchil idrok etishdir.* Kuzatish maqsadini belgilash, uning usullarini aniqlash, o‘rganilayotgan ob‘ekt xulq-atvorini nazorat qilishning rejasini tuzish, asboblardan foydalanish kabilar kuzatishning muhim xususiyatlaridir. Kuzatishlarning natijalari bizga borliq haqida ilmiy dalillar ko‘rinishida dastlabki axborot beradi. Kuzatish bevosita yoki bilvosita, masalan, mikroskop yordamida bo‘lishi mumkin. Hozirda elektron mikroskop yordamida molekulalarni vizual kuzatish mumkin. Kuzatish – bu faoliyatning muayyan ob‘ektlarga qaratilgan maqsadlar va vazifalarni ta‘riflashni nazarda tutadigan faoliyat shakli. Biron-bir narsani bilishni xohlagan har qanday odam o‘z ko‘zlarini kuzatuvchanlikka o‘rgatishi lozim.

Ekspiriment *– bu shunday tadqiqot metodiki, uning yordamida ob‘ekt yo‘sun‘iy tarzda yaratiladi, yo tadqiqot maqsadlariga mos keladigan ma‘lum shart-sharoitlarda o‘rganiladi.* Ekspirimentda tadqiqotchi ilmiy-tadqiqotni o‘tkazish shart-sharoitlariga faol aralashadi. U jarayonni istalgan bosqichda to‘xtatishi mumkin bo‘lib, bu ob‘ekt ni yanada mufassalroq o‘rganish imkonini beradi. Tadqiqotchi o‘rganilayotgan ob‘ekt ni boshqa ob‘ektlar bilan har xil tarzda bog‘lashi yoki u ilgari

¹⁹ Қараңг: S.M.Hotamiy. Islom tafakkuri tarixidan. –T.: «Minhoj», 2003 y. 74-b.

kuzatilmagan shart-sharoitlarni yaratishi va shu tariqa fanga ma'lum bo'lmagan yangi xossalarni aniqlashi mumkin. Eksperiment o'rganilayotgan hodisani sun'iy tarzda gavdalantirish va nazariy yoki empirik bilim natijalarini amalda sinash imkonini beradi.

Eksperiment doim, ayniqsa, hozirgi zamon fanida ba'zan juda murakkab texnika vositalari, ya'ni asboblardan foydalanish bilan bog'liq. *Asbob – bu insonning sezgi a'zolari bilishi mumkin bo'lmagan hodisalar va xossalar haqida axborot olish uchun mo'ljallangan, kerakli xossalarga ega bo'lgan moslama yoki moslamalar tizimidir.* Asboblarning bizning sezgi a'zolarimizni kuchaytirishi, ob'ekt xossalarining faollik darajasini o'lchashi yoki ularda o'rganilayotgan ob'ekt qoldirgan izlarni aniqlashi mumkin.

Tavsif. *Kuzatish va eksperiment o'tkazish jarayonining natijasi tavsiflash yoki bayon etish yo'li bilan ifodalanadi. U umumiy qabul qilingan atamalar yordamida tuzilgan, grafiklar, rasmlar, foto va kinotasvirlar ilova qilingan, matematik, kimyoviy formulalar kiritilgan hisobot ko'rinishida ifodalanishi ham mumkin.* Tavsifga qo'yiladigan asosiy ilmiy talab – kuzatish va eksperiment ma'lumotlarini to'g'ri va aniq aks ettirishdir. Tavsif to'liq yoki noto'liq bo'lishi mumkin, biroq u doim materialni ma'lum darajada tizimga solishni, ya'ni uni guruhlash va umumlashtirishni nazarda tutadi: sof tavsif ilmiy ijod doirasidagina qoladi.

Taqqoslash. *Bilish empirik metodlarining muhim unsuri – taqqoslash, ya'ni o'rganilayotgan ob'ektlarning kuzatish yoki eksperimentda aniqlanayotgan xossalari o'rta sidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashdir.*

O'lchash – taqqoslashning ayrim ko'rinishi, ob'ekt xossalarining rivojlanish darajasini tavsiflovchi kattalikni aniqlash jarayoni. Kuzatish va eksperiment natijalari o'lchash yo'li bilan ifodalangan taqdiridagina ilmiy ahamiyatga ega bo'ladi. U o'lchash birligi sifatida qabul qilingan boshqa kattalik bilan taqqoslash shaklida amalga oshiriladi.

Ilmiy dalil. Ilmiy dalil empirik bilishning natijasi hisoblanadi. Dalil (yoki dalillar)ni aniqlash ilmiy-tadqiqotning zarur shartidir. *Dalil – bilimning tasdiqlangan boyligiga aylangan moddiy yoki ma'naviy dunyo hodisasi, biron-bir hodisa, xossa yoki munosabatni qayd etishdir.* A.Eynshteyn so'zlari bilan aytganda, fan dalillardan boshlanishi va boshlanish bilan tugallanish o'rtasida qanday nazariy tuzilmalar bo'lishidan qat'i nazar, dalillar bilan yakunlanishi lozim²⁰. **Mantiqiy bilish darajasi va uning shakllari.** Inson hamisha nimalar haqidadir o'ylaydi. O'ysiz holat ham, psixologlar fikriga ko'ra, amalda hech bo'lmasa hech narsa haqida o'ylamaslikni o'ylash holatidir. Bilishning dialektik yo'li sezgi a'zolari orqali bilish, dalillarni aniqlashdan mantiqiy tafakkur sari olib boradi. *Tafakkur – bu insonning narsalar muhim xossalari va munosabatlarini izchil, bilvosita va umumiy aks ettirishidir.* Ijodiy tafakkurlash amaliyot, fan, texnikada yangi natijalar olishga qaratiladi. Tafakkurlash muammolar qo'yish va ularni echishga qaratilgan faol jarayon. Tashqirlik – fikrlayotgan odamning muhim belgisi. Sezgidan fikrga o'tish zamirida bilish ob'ektining ichki va tashqi mohiyatning ifodasi, ayrim va umumiyga bo'linishi yotadi. Zotan, ilmiy va falsafiy bilim faqat sezgi va tasavvurlardan iborat emas: *sezgi idroki naqadar go'zal bo'lmasin, mazmunan qashshoqdir – u narsaning mohiyatini yoritmaydi.* **Tafakkur va borliqning birligi.** Tafakkur bilan borliq o'rtasida bir-lik mavjud. Tafakkur va borliqning birligi zamirida mantiqiy shakllar va tafakkur qonunlarini shakllantiruvchi ijtimoiy amaliyot yotadi. Dunyo rivojlanishining ob'ektiv umumiy qonuniyatlaridan mantiqiy qonuniyatlarning farqi shundaki, inson mantiqiy qonuniyatlarni ongli ravishda qo'llashi mumkin, tabiatda esa dunyoning rivojlanish qonuniyatlari o'ziga ongsiz tarzda yo'l ochadi.

Tafakkurning asosiy shakllari. Tafakkur jarayonining oqilona mazmuni tarixiy rivojlanish jarayonida yaratilgan mantiqiy shakllar qobig'iga o'raladi. Tafakkur o'zining asosiy shakllari –

²⁰ Эйнштейн А. Физика в жизни моего поколения. –М.: 1963 г. с. 89.

tushunchalar, mulohazalar va xulosalar ko'rinishida yuzaga kelgan, rivojlanmoqda va amalga oshirilmoqda.

Tushuncha – *narsalar va hodisalarning umumiy, muhim xossa va aloqalari aks etuvchi fikr.* Tushuncha – tafakkur, tushunish faoliyatining mahsuli. Ular nafaqat narsalar va hodisalarning umumiy jihatlarini aks ettiradi, balki ularni bir-biridan ajratadi, ular o'rtasida mavjud farqlarga qarab ularni guruhlaydi, tasniflaydi. Bundan tashqari, biz biror narsa haqida tushunchaga ega ekanligimizni ta'kidlar ekanmiz, bunda mazkur ob'ektning mohiyatini tushunishimizni nazarda tutamiz. Masalan, «inson» tushunchasi nafaqat muhim umumiy, ya'ni barcha odamlarga xos bo'lgan jihatni, balki har qanday odamning boshqa har qanday narsalardan farqini ham aks ettiradi, mazkur odamning mohiyatini tushunish esa, umuman insonning mohiyati, ya'ni inson haqidagi tushunchaning mazmunini bilishni nazarda tutadi: «Inson – aql, so'zlashish va mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan bioijtimoiy mavjudot». Sezgi, idrok va tasavvurlardan farqli o'laroq, tushunchalar ko'rgazmalilik yoki hissiylikdan xolidir. Idrok daraxtlarni, tushuncha – umuman daraxtni aks ettiradi. Tushunchaning mazmunini ko'pincha aniq obraz ko'rinishida tasavvur qilish mumkin emas. Inson, masalan, yaxshi odamni tasavvur qilishi mumkin, biroq u yaxshilik, yomonlik, go'zallik, qonun, yorug'lik tezligi, sabab, qiymat kabi tushunchalar va jarayonlarni sezgi obrazi ko'rinishida tasavvur qila olmaydi. Har qanday fanning barcha tushunchalari haqida shu fikrni aytish mumkin. Ularning ob'ektiv ta'rifi ko'rgazmalilik chegaralaridan tashqarida bilvosita aniqlanadi.

Tushuncha muhim jihatlar va xossalarni aniqlaydi va ularni o'zida mujassamlashtiradi: tushuncha mohiyatning fikrda ifodalangan obrazidir. SHuning uchun ham oz sonli tushunchalar son-sanoqsiz narsalar – xossalalar va munosabatlarni qamrab oladi. Tushunchalar turli davrlarda mazmunan har xil bo'lgan. Ular ayni bir inson rivojlanishining turli darajalarida har xildir. Haqiqiy ilmiy tafakkur madaniyati biron-bir tushunchani aniq ta'rifsiz qoldirmaslikni o'zi uchun qoida deb biladi. Buyuk mutafakkir Suqrot tushunchalarni mantiqiy jihatdan aniq ta'riflash haqiqiy bilimning bosh shartidir, degan edi. Tushunchalar inson ongida ma'lum bog'lanishda, mulohazalar ko'rinishida yuzaga keladi va mavjud bo'ladi. Tafakkur – biror narsa haqida hukm chiqarish, narsaning turli tomonlari o'rtasidagi yoki narsalar o'rtasidagi muayyan aloqalar va munosabatlarni aniqlash demakdir.

Mulohaza – *fikrning shunday bir shakli, unda tushunchalarni bog'lash yo'li bilan biror narsa haqidagi biron-bir fikr tasdiqlanadi yoki rad etiladi.* Masalan, «Terak – o'simlik» degan shunday bir mulohazaki, unda terak haqida uning o'simlik ekanligi xususida fikr bildiriladi. Tasdiqlash yoki rad etish, soxtalik yoki haqiqiylik, shuningdek, ehtimol tutilgan narsalar bor joyda biz mulohazalarga duch kelamiz.

Agar bizning ongimizda faqat tasavvurlar, o'z holicha tushunchalar mavjud bo'lgan va ular birbiri bilan mantiqan bog'lanmaganida, tafakkur jarayoni ham bo'lmas edi. Ma'lumki, so'zning hayoti faqat nutqda, gapdagina haqiqiydir. Xuddi shuningdek, tushunchalar ham faqat kontekstda «yashaydi». Ayrim tushuncha sun'iy «preparat», masalan, organizmdan ajratib olingan hujayra bilan barobar. Tafakkur – biror narsa haqida xulosa chiqarish demak. Bunda biz mulohaza ko'rinishida ifodalay olmaydigan tushuncha biz uchun mantiqiy ma'noga ega bo'lmaydi.

Mulohaza (yoki mulohazalar) – keng ma'noda ifodalangan tushuncha, tushunchaning o'zi esa – toraytirilgan mulohaza (yoki mulohazalar), deb aytish mumkin. Nima yuksakroq – tushunchami yoki mulohaza, degan masala atrofidagi bahslar sxolastik, shuning uchun ham besamardir. Fikrning bevosita, moddiylashtirilgan ifodasi bo'lgan gap mulohazani, ifodalashning og'zaki shaklidir. Har qanday mulohaza sub'ektning predikat, ya'ni tavsiflanayotgan narsa yoki hodisa bilan birikuvidir. Shu sababli mulohazalarning mantiqda ko'rilmaydigan turlari sub'ekt, predikat va ular o'rtasidagi aloqaning ehtimol tutilgan modifikatsiyalari bilan bog'liq. Biz: «Olov kuydiradi», deymiz. Bu – mantiqan sub'ekt predikat bilan bog'langan hukm. Olovni ham, kuyishni

ham sezish mumkin, biroq ular o'rtasidagi aloqani fikrimiz anglaydi. Sub'ektning o'zgarishiga qarab mulohazalar, masalan, shaxssiz bo'lishi mumkin: «Tong otyapti», «Kayfiyat yo'q». Yakka, ayrim va umumiy mulohazalar farqlanadi: «Nyuton tortilish qonunini kashf etgan»

Xulosa – mushohadaning nisbatan tugallangan birligi. Mushohada yuritish jarayonida mavjud mulohazalardan yangi mulohaza – xulosa chiqariladi. *Xulosa chiqarish tafakkurning shunday bir amaliki, unda ayrim fikrlarni taqqoslash yo'li bilan yangi mulohaza yaratiladi.* Inson narsalarning, xossalari va munosabatlarini teran bilish orqali vaqti vaqti bilan hozirgi zamon chegaralaridan o'tib, sirli kelajakka nazar tashlashi, hali ma'lum bo'lmagan narsalarni oldindan ko'rishi, yuz berishi ehtimol tutilgan va muqarrar bo'lgan voqealarni bashorat qilishi mumkin. **Bashorat qilish** «murakkab narsani oddiy narsaga aylantirish»ning oliy darajasini tashkil etadi. Ilmiy bilim taraqqiyoti ilmiy bashorat kuchining o'sishi va mazkur hodisa chegaralarining kengayishi bilan bog'liq. Bashorat qilish jarayonlarni nazorat qilish va boshqarish imkonini beradi. Ilmiy bilish nafaqat kelajakni bashorat qilish, balki bu kelajakni ongli ravishda shakllantirish uchun imkoniyat yaratadi. Har qanday fanning hayot mazmunini shunday tavsiflash mumkin: bashorat qilish uchun bilish, ish ko'rish uchun bashorat qilish kerak. Masalan, D.I.Mendeleev yuz yil keyin kashf etilgan kimyoviyelementlarning mavjudligini bashorat qilgan edi.

Intuitsiya – haqiqatni mantiqiy dalillar yordamisiz, bevosita anglab etish qobiliyatidir. U doim inson aqli va joni birgalikda amalga oshirgan katta ish mahsuli hisoblanadi. SHu ma'noda faqat iste'dodli, mehnatkash va tirishqoq odamlargina intuitiv bilishga qodir. Intuitsiya muammosi falsafa va tabiatshunoslik tarixida har xil, ba'zan bir-birini istisno etuvchi yondashuvlar, nuqtai nazarlar va tasavvurlar bilan tavsiflanadi. Antik falsafadayoq bu muammo atrofida keskin bahslar bo'lgan. Ioniya falsafasi namoyandalari intuitsiyaga bevosita bilim, sezgi a'zolari orqali bilish shakli deb qaragan bo'lsalar, eley maktabi vakillari, shuningdek, Levkipp va Demokrit bevosita bilim va sezgi a'zolari orqali bilishni rad etganlar, sezgilarni soxta deb e'lon qilganlar. Suqrot talqinida intuitsiya «daymoniy» yoki «predmet g'oyasiga egalik»dir. Platon ham hissiy bilishni haqiqat emas deb hisoblagan.

Hissiy, empirik va nazariy bilish birligi. Ko'p sonli ma'lumotlar sezgi a'zolari orqali va oqilona bilish nafaqat bir-biri bilan bog'liq, balki bir-birini taqozo etishidan dalolat beradi. Inson ruhiyati bir-birini belgilashning ko'p sonli zanjirlariga ega bo'lgan murakkab tizimidir. SHu sababli, sezgining mazmuni nafaqat tashqi ta'sirlantiruvchi kuch, balki tafakkur, xotira, xayolning holati bilan ham belgilanadi. Sezish va tafakkur mumkin bo'lgan narsalar o'zaro mushtarakdir.

Bilishning empirik va nazariy darajalarini farqlash mezonlari.

Nazariy va empirik narsalar va hodisalar muammosi xususida juda ko'p metodologik adabiyotlar mavjud. Bilishning bu darajalarida XX asrning 30-yillarida pozitivizm ta'limotida fan tilini tahlil qilish natijasida empirik va nazariy atamalar ma'nosidagi farqlar aniqlangan. Bu farq tadqiqot vositalariga ham taalluqli. Biroq, bundan tashqari, tadqiqot predmetining xususiyati va uni o'rganish metodlarining har xilligini e'tiborga olib, ilmiy bilishning ikki darajasini ham farqlash mumkin. Bu farqlarni mufassalroq ko'rib chiqamiz. Nazariy va empirik tadqiqot vositalarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi.

4. **Haqiqat** – bilish nazariyasining bosh kategoriyasi. U borliqning bilishdagi ideal ifodasi, chunki haqiqat ongdan, bilayotgan sub'ektdan tashqarida va undan qat'i nazar mavjuddir. Haqiqat – bilimlarning ob'ektiv borliqqa muvofiq bo'lgan mazmuni. U bilish jarayoni, bilish in'ikosining natijasidir. Haqiqat ilmiy nazariyada mujassamlashgan anglab etilgan tasdiqlovchi mulohazalar ko'rinishida o'z ifodasini topadi. Har qanday ilmiy nazariya rivojlantirilishi, ba'zan boshqa, yanada haqiqiyroq nazariya bilan almashtirilishi lozim. SHu ma'noda haqiqat – bilish rivojlanishining yakuni va omilidir.

Falsafa tarixida haqiqat (bilimlarning haqiqiyliги) muammosi qadimgi davrlardayoq ta'riflangan. «Avesto»da haqiqat oliy sharofatdir deyiladi. Darhaqiqat insoniyat doimo haqiqatga

intilgan. Zero, haqiqat adolatga, sharofatga eltadigan buyuk qudrat. Aristotel fikricha haqiqat – mulohazalar va amaldagi holat o‘rtasidagi muvofiqlikdir. Platon haqiqatni g‘oyalar dunyosiga mos keluvchi g‘ayritabiiy mustaqil ideal mohiyat sifatida tushungan, inson bilimi jonning shu g‘oyalar dunyosi bilan mushtarakligi darajasidagina haqiqiydir, deb hisoblagan. Foma Akvinskiy haqiqat yolg‘on narsalarda emas, balki aqlda mavjud bo‘ladi, har bir narsa o‘zi bog‘liq bo‘lgan aqlga munosabati darajasidagina haqiqiy deb nomlanishi mumkin, deb qayd etgan.

Beruniy fikricha, haqiqat bilimning voqelikka muvofiqligidir. Forobiy fikricha, haqiqatni bilish aqlning kamolotiga bog‘liq. Bu aql inson qalbidadir, uning kamolotiga esa, faol aqlga qo‘shilish orqali erishiladi. Faol aqlda borliqning eng oliy darajasi bo‘lgan. Birinchi sababdan boshlab to oxirgi haqiqatning barcha sura shakllari mavjud. SHuningdek, Forobiy va uning izdoshlari fikricha, haqiqat bir nechta bo‘lishi mumkin emas, haqiqat bitta, shu bois falsafa ham bir nechta bo‘lishi mumkin emas. Forobiy haqiqatning o‘zgarmasligiga ishongan va falsafani haqiqatning birdan bir ifodasi deb hisoblagan²¹.

Ob‘ektiv haqiqat – *bilimlarimizning inson insoniyatga bog‘liq bo‘lmagan mazmuni*. Bizning bilimlarimizda doim yo muayyan odamga, yo muayyan ijtimoiy guruhga bog‘liq bo‘lgan unsur mavjud bo‘ladi. Binobarin, o‘z bilimlarimizda sub‘ektiv unsurlarga bog‘liq bo‘lmagan va shu sababli ob‘ektiv hisoblanadigan mazmunni qayd etishimiz lozim. Ob‘ektiv haqiqat rivojlanib, ikki shakl: nisbiy va mutlaq haqiqat shakllarida amal qiladi.

Mutlaq haqiqat – *predmetni kelajakda to‘ldirilishi yoki unga aniqlikka ritilishi mumkin bo‘lmagan tarzda to‘la, mukammal bilishdir*. Olam vaqt va makonda cheksizligi tufayli bunday bilimga amalda erishish mumkin emas. Haqiqat tushunchasini mutlaq haqiqat tushunchasi bilan tenglashtirib, biz unga erishib bo‘lmazligi, demak, umuman bilish mumkin emasligi haqida gapiramiz. Biroq fanning haqiqiy tarixi buning teskarisidan dalolat beradi: fan rivojlanadi, chunki u nisbiy va mutlaq bilimning birligi sifatida tushuniladigan haqiqatni bilishga qodir.

Boshqacha aytganda, ob‘ektiv haqiqat to‘la va mukammal ko‘rinishdagi mutlaq haqiqatdir. Ayrim hollarda, agar haqiqat vaqt o‘tishi bilan o‘zgarmasa, ya‘ni vaqt shart-sharoitlariga bog‘liq bo‘lmasa, u boqiy haqiqat deb ataladi.

Nisbiy haqiqat – *borliqni asosan to‘g‘ri aks ettirsa-da, obraz ob‘ektga uncha mos emasligi bilan ajralib turadigan bilim*. Nisbiy haqiqat to‘g‘ri, biroq noto‘liq, taxminiy, vaqt va joyning muayyan tarixiy shart-sharoitlari bilan cheklangan haqiqatdir. Nisbiy va mutlaq haqiqat bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Nisbiy haqiqatlar bilish taraqqiyoti jarayonida rivojlanib, o‘z chegarasi bo‘lgan mutlaq haqiqatga yaqin lashadi.

Isbotlash va rad etish. Fanning u yoki bu qoidasining haqiqiyliги yoki soxtaligi, aniq-ravshan ko‘rinib turmaydi. Faqat eng sodda mulohazalar o‘zining haqiqiyliyini tasdiqlash uchun sezgi idrokidangina foydalanishni talab qiladi: ko‘rsatish mumkin bo‘lgan narsani isbotlashning hojati yo‘q. Fanning aksariyat qoidalari sezgi a‘zolari orqali bilish darajasida va boshqa haqiqatlardan alohida emas, balki mantiqiy tafakkur darajasida, boshqa haqiqatlarga bog‘langan holda, ya‘ni isbotlash yo‘li bilan haqiqiy deb qabul qilinadi. Isbotlash – ilmiy tafakkurning muhim vositasi. Har qanday isbotda tezis, isbotlash uchun asoslar (dalillar) va isbotlash usuli mavjud. Haqiqiyliги yoki soxtaligi isbotlash yo‘li bilan aniqlanayotgan qoida tezis deb ataladi. Tezisning soxtaligini aniqlash – rad etish deb ataladi. Isbotlashda foydalanilayotgan va isbotlanayotgan tezisning haqiqiyliyini ko‘rsatayotgan barcha qoidalar asoslar yoki dalillar deb ataladi. Asoslar va dalillar ishonchli dalillar haqidagi qoidalar, ta‘riflar, aksiomalar va ilgari isbotlangan qoidalardan tashkil topadi.

Yolg‘on haqiqatning qarama-qarshisi. *Yolg‘on odatda noto‘g‘riligi ayon bo‘lgan tasavvurlarni bila turib haqiqat darajasiga ko‘tarish sifatida tushuniladi*. Yolg‘on kundalik va ijtimoiy hayotda

²¹ Қараңг: S.M. Hotamiy. Islom tafakkuri tarixidan. –T.: «Minhoj», 2003 y. 126-b.

keng tarqalgan bo‘lib, odamlar o‘zaro aloqa qiluvchi hamma joyda uchraydi; u individlar va ijtimoiy guruhlar manfaatlarining «uchrashuvi» yuz beradigan har qanday insoniy munosabatlar funksiyasidir. Gap yolg‘on mavjud yoki mavjud emasligida emas (oddiy hayot tajribasi uning mavjudligidan dalolat beradi), balki har bir muayyan holda uning ulushi qanchaligidadir. Beruniy fikricha, «SHunday kishilar bo‘ladiki, ularning tabiatiga yolg‘on xabar tarqatish o‘rnashib qolib, go‘yo unga shu vazifa yuklatilgandek bo‘ladi va yolg‘on xabar tarqatmasdan turolmaydi... Ba‘zan kishi yolg‘on xabar tarqatuvchiga taqlid qilib, bilmasdan yolg‘on xabar tarqatadi. Bu xabarchilar birinchi marta ataylab yolg‘on xabar tarqatgan kishi bilan eng keyin yolg‘on xabarni eshituvchi oralig‘ida vositachi bo‘ladilar. YOlg‘onchilik kishini adolatdan yuz o‘girtiradi, zulm, yolg‘on guvohlik, omonatga xiyonat qilish, boshqalar mulklarini hiyla bilan bosib olish, o‘g‘irlik, dunyo va xalqning buzilishiga sabab bo‘ladigan boshqa yomon xulqlarni kishilar yaxshi qilib ko‘rsatadilar»²². Beruniy insonni rostgo‘ylik qolib, yolg‘onchilik yo‘lidan yurmasligi, boshqalarga yaxshilik qilish, yaxshilik qilish imkoniyati bo‘lmasa, yaxshi tilaklar izhor qilishga chorlaydi. Rostgo‘ylik, odillik, Beruniy fikricha, yuksak ma‘naviyat, go‘zal odob – axloq belgisidir. Insonning individual rivojlanish jarayonida yolg‘on bolada jazodan qutulib qolishga harakat qilish, kattalar o‘rnagi va shu kabilar orqali shakllanadi. Keyinchalik bunga jamiyat kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi. Insonni bu tomonga itaruvchi omillar majmui orasida ehtiroslar, shu jumladan, muhabbat tobora kengroq o‘rin egallay boshlaydi. Muhabbat «sonsanoqsiz yolg‘onni vujudga keltiradi. Oshiq odam o‘zining narxini oshirish uchun yolg‘on so‘zlaydi, o‘z raqibining obro‘sini tushirish uchun, rashk o‘tini yoqish uchun... sovib borayotgan muhabbat otashini qayta o‘t oldirish uchun aldaydi, nihoyat, muhabbat yo‘qolgan holda yolg‘on gapiradi»²³. YOlg‘on takabburlik, irodasizlik, muvaffaqiyatga intilish, pulga, hokimiyatga o‘chlik va hokazolar zaminida yuzaga keladi.

Amaliyot. *Bilishning negizini amaliyot tashkil etadi.* Bu insonning butun bilish jarayoni sezgilardan boshlab ilmiy mavhumliklarga qadar ijtimoiy-amaliy faoliyat asosida rivojlanishi, uning ehtiyojlari va muvaffaqiyatlari bilan belgilanishi va yo‘lga solinishini anglatadi.

Amaliyotning tarkibiy qismlari: 1) maqsad; 2) maqsadga muvofiq faoliyat; 3) amaliyot vositalari; 4) amaliy harakat ob‘ekti; 5) harakat natijasi kabilar. Maqsad sub‘ektga yoki odamlar guruhiga xos. Maqsad – erishish mo‘ljallangan kelajakning sub‘ektiv obrazi. Pirovard maqsad muqarrar tarzda muayyan predmetlarga bog‘lanadi, deb o‘ylash yaramaydi. Insonning chegara bilmas intilishi bilan tavsiflanadigan ideal ham maqsad bo‘lishi mumkin. Maqsad haqidagi falsafiy ta’limot – teleologiya, deb ataladi. Amaliyot o‘z maqsadlarini ko‘zlovchi odamning faoliyatidir. Shu sababli u maqsadga muvofiq faoliyat hisoblanadi. Bu faoliyatning o‘zi maqsad timsoli sifatida amal qiladi. Bu erda sub‘ekt muqarrar tarzda g‘ayri niyatni emas, balki kuchni tan oladigan tabiat bilan to‘qnashadi. Inson tabiatga tabiiy kuch sifatida qarshi turadi.

Maqsadga erishish uchun ishga solinadigan hamma narsa amaliyot vositasi deb ataladi. Bu nafaqat mashinalar, mehnat qurollari, balki odamlarning bilimlari va hayot tajribasi hamdir. Harakat qaratilgan narsa amaliyot ob‘ekti deb ataladi. Faoliyat mahsulotda to‘xtaydi, maqsad ro‘yobga chiqadi. Ro‘yobga chiqqan maqsad maqsad emas. Imkoniyat borliqqa aylanadi; amaliy harakat bajariladi. Amaliy harakatlar estafetasi inson amaliyoti, uning faol hayotini tashkil etadi. Amaliyot natijasiga erishish bosqichida sub‘ekt o‘z harakatlarining samaradorligini, ularga yo‘ldosh bo‘lgan emotsional va oqilona jihatlarni baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Amaliyot haqiqat mezoniga aylanadi. Amaliyot haqiqatning birdan-bir mezoni emas, biroq u haqiqatni baholashning bosh mezonlaridan biri sifatida tan olinadi. Inson o‘z tafakkurining haqiqiylikini, uning butun qudratini amaliyotda isbotlab berishi lozim. Amaliyot tarkibida har xil ahamiyatga ega bo‘lgan nisbatan mustaqil jihatlar mavjud bo‘lib ular falsafiy ta’limotlar mazmunida o‘z aksini

²² Beruniy. Hindiston. –T.: «Фан», 1966 y. 25-b.

²³ Милитан В. Психология лжи. –М.: «АСТ», 1993. с. 39.

topadi. Kantchilar amaliyotni tahlil qilishda sub'ektning faolligidan kelib chiqadilar. Markschilar amaliyot vositalarini birinchi o'ringa qo'yadi. Vaholanki, amaliyot yaxlit hodisa bo'lib, bu erda hamma narsa o'zaro bog'langandir. Amaliyotni tarkibiy qismlarga ajratish va ular o'rtasida subordinatsiya o'rnatish doim ham o'rinli bo'lavermaydi. Dunyodagi barcha narsalar va hodisalar kabi amaliyot ham u yoki bu darajada rivojlangan shakllarda mavjud bo'ladi. Nafaqat ijtimoiy ishlab chiqarish, balki insonning har qanday faoliyati amaliyot hisoblanadi. Masalan, individual tafakkur jarayoni ham amaliyotdir. Amaliyotda nafaqat ishchi va muhandis, balki siyosatchi, olim, xullas, har bir odam ishtirok etadi. Agar tabiiy jarayonlar inson faoliyati sohasi bilan bog'liq bo'lmasa, ular amaliyot sohasiga kirmaydi. Nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish lozimligi to'g'risida ko'p so'z yuritiladi, demak, nazariya amaliyotga zid bo'lishi mumkin. Boshqa bir yondashuvga ko'ra, yaxshi nazariyadan amaliyroq narsa yo'q. Nazariya va amaliyot o'rtasidagi soxta tafovutni bartaraf etish emas, balki amaliyotni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish muhim vazifadir. Samarali ish ko'radigan sub'ekt va jamiyat yaxshi amaliyotchidir. Amaliyot shakllariga kelsak, ular inson faoliyatining tarkibiga muvofiq ancha ko'p. Masalan, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy hayot amaliyoti, san'at va fan amaliyoti, til amaliyoti va hokozolar bor. Falsafa amaliyotga kategoriyalar, ya'ni amaliyotning barcha shakllariga xos bo'lgan umumiy jihatlar nuqtai nazaridan yondashadi.

5. «Metod» va «metodologiya» tushunchalari. *«Metod» (yunon. «metodos» –«usul») keng ma'noda yo'l, ijodiy faoliyatning har qanday shakli kabi ma'nolarni anglatadi. Metodologiya tushunchasi ikki asosiy mazmunga ega – faoliyatda qo'llaniladigan ma'lum usullar tizimi (fanda, siyosatda, san'atda va h.k.) tizim haqidagi ta'limot yoki metod nazariyasi.*

Fan metodlari – *ma'lum fan tarmog'iga kiruvchi yoki fanlar tutashgan joyda vujudga kelgan muayyan fan sohasida qo'llaniladigan usullar tizimi.* Har bir fundamental fan, mohiyat-e'tibori bilan, o'z predmetiga va o'ziga xos tadqiqot usullariga ega bo'lgan sohalar majmuidir. Fanda, ko'p hollarda tanlangan metod tadqiqotning taqdirini hal qiladi. Aynan bir daliliy materialni turli metodlar asosida o'rganish ziddiyatli xulosalarga olib kelishi mumkin. Ilmiy bilishdagi to'g'ri metodni xarakterlar ekan, F.Bekon uni, yo'lovchining yo'lini yorituvchi chiroq bilan qiyoslaydi. Noto'g'ri yo'ldan bora turib, y yoki bu masalani hal qilishda muvaffaqiyatga erishishga umid qilish mumkin emas. Zepo, nafaqat natija, balki unga eltuvchi yo'l ham to'g'ri bo'lmog'i lozim. *Fan metodlarining guruhlariga bo'linishi bir nechta asoslarga ega.* Bilish jarayonida uning roli va o'rnini nuqtai nazaridan: formal, empirik, nazariy-tadqiqot, izohlash, shuningdek, boshqa metodlarga ajratish mumkin. O'z navbatida, bilishning sifat va son, bilvosita va bevosita original hamda faoliyatli metodlari ham mavjud. Metodlarni tanlash va turli metodik tadqiqot faoliyatida qo'llash o'rganilayotgan hodisa tabiati va qo'yilgan vazifalar bilan xarakterlanadi.

Xususiy ilmiy metodlar – *materiya harakatining asosiy shakliga mos bo'lgan muayyan fanda qo'llaniladigan bilish usullari, tamoyillari, tadqiqot usullari va tartib-taomillari majmui.* Mexanika, fizika, kimyo, biologiya va ijtimoiy-gumanitar fanlarning metodlari shular jumlasidandir. Xususiy fanlar metodlarining o'ziga xos xususiyatlari moddiy ifodasini topgan bilish vositalari: mikrofizikada zarralarni tezlatgichlar, tibbiyotda a'zolar faoliyatini qayd etuvchi turli o'lchagichlar va shu kabilar hozirgi zamon metodologik tadqiqotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Umumilmiy-tadqiqot metodlari *falsafa bilan maxsus fanlarning fundamental nazariy metodologik qoidalari o'rtasida o'ziga xos «oraliq metodologiya» bo'lib xizmat qiladi.* Umumilmiy tushunchalar qatoriga ko'pincha «axborot», «model», «tuzilma», «funksiya», «tizim», «element», «oqilonalik», «ehtimollik» singari tushunchalar kiritiladi. Birinchidan, bir qancha xususiy fanlar hamda falsafiy kategoriyalarning alohida xossa, belgi va tushunchalari umumilmiy tushunchalarning mazmuniga «singdirib» yuborilganligi, ikkinchidan, (falsafiy kategoriyalardan farqli o'laroq) matematik nazariya va simvolik mantiq vositalari bilan ularni

formallashtirish, ularga aniqlik kiritish mumkinligi umumilmiy tushunchalarning o'ziga xos jihatlaridir. *Agar falsafiy kategoriyalar umumiylikning mumkin bo'lgan eng yuqori darajasi – muayyan umumiy darajani o'zida mujassamlashtirgan bo'lsa, umumilmiy tushunchalarga ko'proq umumiy mavhum (bir xil) daraja xoski, bu ularni mavhum-formal vositalar yordamida ifoda etish imkonini beradi.* Falsafaning asosiy masalasini (to'la hajmda) echishda «ishtirok etish» sharti muayyan «tafakkur shaklini yaratish»ning «falsafiyligi», «dialektikligi» darajasini aniqlashning muhim mezonidir.

Umumilmiy tushuncha va konsepsiyalar asosida bilishning tegishli metodlari, tamoyillari ta'riflanadi, ular esa, o'z navbatida, falsafaning maxsus ilmiy bilim va uning metodlari bilan oqilona o'zaro aloqasini ta'minlaydi.

Fanlararo tadqiqot metodlari – *asosan fan sohalari tutashgan joyda amal qiladigan (metodologiyaning turli darajasi elementlarini birlashtirish natijasida yuzaga kelgan) bir qancha sintetik va integrativ usullar majmui.* Mazkur metodlar kompleks ilmiy dasturlarni amalga oshirishda keng qo'llaniladi.

Falsafa metodlari. *Falsafa metodlarining asoslari bevosita amaliy faoliyat bilan bog'liq.* Turli konkret vazifalarni hal qilishning zaruriy shartlaridan biri universal xususiyatga ega bo'lgan umumiy falsafiy metodlarga murojaat qilishdir. Bu metodlar haqiqatni anglashda umumiy yo'lni ko'rsatadi. Mazkur metodlarga falsafaning qonun va kategoriyalari, kuzatish va tajriba, taqqoslash, analiz, sintez, induksiya, deduksiya va hokazolar taalluqli. Agar maxsus metodlar ob'ektning qonuniyatlarini o'rganishning xususiy usullari sifatida namoyon bo'lsa, falsafiy metodlar shu ob'ektlarda namoyon bo'ladigan, alohida xususiyatlardagi harakat, taraqqiyotning eng umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Aynan shu o'rinda tajriba hal qiluvchi ahamiyatga ega. Har bir metod ob'ektning alohida tomonini bilishga imkoniyat yaratadi. Falsafaning eng qadimgi keng tarqalgan metodlardan biri dialektika bo'lsa, ikkinchisi metafizikadir. Biroq falsafa metodlari bular bilan cheklanmaydi. Bugungi kunda uning sofistika, eklektika, analitik, (hozirgi zamon analitik falsafasi), intuitiv, fenomenologik, sinergetik, germenevtik (tushunish) va boshqa turlari ham mavjud. Endilikda turli metodlarni birlashtirish jarayoni ham ro'y bermoqda (masalan, Gadamer germenevtikani ratsional dialektika bilan birlashtirishga harakat qiladi).

«Dialektika» (yunon. «dialektike» – «bahs», «suhbat») tabiat, jamiyat va bilish taraqqiyoti qonuniyatlari hamda ularning asosida shakllanadigan umumiy tafakkur uslubi va amaliy faoliyat haqidagi ta'limotdir. U grek tilida bahs va suhbatlashish san'ati, degan ma'noni anglatadi. Antik dunyo faylasuflari uni haqiqatga erishish yo'li va usuli sifatida talqin etganlar. Hozirgi davrga kelib, dialektika olamdagi narsa va hodisalar doimo o'zgarishda, o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikda, taraqqiyot va rivojlanishda, deb tushunishga asoslanadi. Unga ko'ra, olamda o'z o'rniga va joyiga, yashash vaqti va harakat yunalishiga ega bo'lgan barcha narsalar va voqealar bir-birlari bilan bog'liq va aloqador tarzda, bir-birlarini taqozo etadigan, doimiy va takrorlanib turadigan bog'lanishlar orqali namoyon bo'ladi.

Falsafa tarixida dialektika to'g'risida xilma-xil qarashlar bo'lgan. Antik davr dialektikasi sodda va stixiyali bo'lib, asosan, hayotiy tajribaga asoslangan. O'sha davrda «Dialektika» so'zini birinchi bo'lib, Suqrot (er.av. 469–399 y.) o'z falsafiy faoliyatida qo'llagan. Suqrot dialektikani mayevtika (harflarni yaratish san'ati) bilan taqqoslagan. Zotan, mulohaza qilish shunday dialektik usuldiki, uning natijasida raqib nutqidagi ichki ziddiyatlar ochiladi yoki fikrlash jarayonida yangi ixtilofli fikr-mulohazalar paydo bo'ladi. Suqrot boshqalarni haqiqatni izlashga da'vat etar ekan, o'z onasi doya Fenareti ishini davom ettirayapman, deb izohlaydi. «Dialektika» so'zi paydo bo'lishiga qadar antik falsafada mazmuniga ko'ra, dialektik bo'lgan nazariyalar shakllana boshlagan. O'tmish mutafakkirlar o'z vaqtida dunyoning yagona birligi sokinlik, bu bir butunlik ichida doimiy uzluksiz o'zgarishlar, yaratish jarayoni sodir bo'luvchi koinot haqidagi fikrlarni ilgari surganlar. Ular koinotni o'zgaruvchanlik va barqarorlikning ziddiyati sifatida tasavvur qilganlar. Borliqning

umumiy o‘zgaruvchanligi bir narsaning ikkinchi narsaga – urning suvga, suvning havoga, havoning olovga, olovning efirga aylanishi va qayta takrorlanishi bilan xarakterlanadi, deb hisoblaganlar.

Dialektik metod yangi davrda, xususan, nemis falsafasida, ayniqsa, Kant, Fixte, SHelling va Gegel tomonidan yanada chuqurroq tahlil qilingan. Yangi davrning o‘ziga xos xususiyati shundaki, bu davrga kelib taraqqiyotga yangicha munosabat shakllandi. Dialektik metod predmetlarda emas, balki munosabatlarda o‘z aksini topa boshladi. Bu cheksizlik haqidagi g‘oyani qayta ishlash bilan bog‘liq edi. Cheksizlik g‘oyasining yangicha talqini paradoksal nazariya shaklida namoyon bo‘ldi. Bu Kantning planetar tizimlarning tumanlikdan paydo bo‘lganligi haqidagi gipotezani yaratishi bilan bog‘liq. Bilish nazariyasida Kant ikki mulohazaning ziddiyatlilikini antinomiyasini ochib tashlar ekan, bunda har ikkalasini etarli asosga ega, deb hisoblaydi. Masalan: 1. Dunyo vaqtda boshlang‘ich nuqtaga ega va vaqtda cheklidir. 2. Dunyo vaqtda boshlang‘ich nuqtaga ega emas va vaqtda cheksizdir. Kant ziddiyatlarga eskicha, ya‘ni inson aqlining illyuziyasi sifatida qaraydi. U bu ziddiyatlarni yangi nazariya yaratish jarayonida kashf qiladi, biroqundan qutilish yo‘lini ko‘rsata olmaydi. Ularga aqlning xatosi sifatida qarash kerakmi? Hissiy idrok qilishda xatoga yo‘l qo‘yilar ekan, aqlning xatoligidan shubhalanish to‘g‘rimikan? – degan savollarga javob izlagan Kant aqldagi ziddiyatlarni bartaraf qilish yo‘lini topadiki, aynan shu yo‘l pozitiv dialektikaning asosi bo‘ladi. Bunda inson aqli o‘zgaruvchanligining tarixiyligi tan olinadi, aqlning xatosi esa, tarixiy asosga ega bo‘lib, u taraqqiyotning cheksizligi, bilish jarayonini to‘g‘ri tushunish qobiliyatiga ega emas. Kant dialektika metodidan yangicha foydalanish imkoniyatini ko‘rsatdi, taraqqiyot muammosini yangicha qo‘yish va hal qilish zaruriyatini e‘tirof etdi. Taraqqiyotning yangi nazariyasini Kant sub‘ekt aqlining dialektik xarakteri bilan bog‘laydi va sub‘ektiv dialektikani asoslab beradi. Dialektika taraqqiyotining keyingi imkoniyatlari Gegel falsafasida o‘zifodasini topdi. Gegel dialektikani falsafa taraqqiyotining umumiy nazariyasi sifatida asoslab bergan. Ma‘lumki, o‘rta asr ratsionalizmi tajribaning ahamiyatini va nazariyaning empirik paydo bo‘lishini tan olishi bilan xarakterlangan. Gegel fikrlari boshqacha xarakterga ega. U, falsafa o‘z xususiyatlarini asoslovchi metodga ega bo‘lmas ekan, fan bo‘la olmaydi, deb hisoblaydi. Gegel dialektik metodni mukammallashtirish mumkinligini va u yagona haqiqiy metodligini ta‘kidlaydi. Falsafa metodi tabiat va ruh taraqqiyotini ifodalovchi fikr harakatiga adekvat bo‘lishi lozim. Gegel o‘z metodida shunday adekvatlikka erishilganligiga ishonadi.

«**Metafizika**» (yunon. «fizikadan keyin») – dialektika kabi universal metoddir. Bu so‘z ilmiy muomalaga eramizdan avvalgi I asrda Aristotelning shogirdi, uning she‘rlari sharhlovchisi Rodoskiy tomonidan kiritildi. Mutafakkir asarlarini bir tizimga solar ekan, u borliq va bilish haqidagi umumiy masalalarni fizikadan so‘ng «birinchi falsafa»ning (mohiyat, sabab va boshqa) ikkinchi falsafadan farqli xususiy-ilmiy bilimlarni o‘rganadigan qismi sifatida talqin qilgan. Ko‘p hollarda, dialektikaga qarama-qarshi deb talqin etiladigan *metafizika olamdagi narsa va hodisalarni o‘rganishda, ularning muayyan vaqt davomida nisbatan o‘zgarmasdan, alohida turgan holatiga diqqatni ko‘proq qaratadigan usuldir*. Bu usul qo‘llanganida, olamning namoyon bo‘lish shakllari hamda ular bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarning alohida qismi yoki holatiga asosiy e‘tibor beriladi. Voqea, hodisa va jarayonlarni doimiy o‘zgarish holatida o‘rganish nihoyatda qiyin bo‘lganligidan, nafaqat faylasuflar, balki barcha fan mutaxassislari uning nisbatan tinch va o‘zgarmay turgan holatini o‘rganadilar, tadqiq etadilar.

Aslini olganda, olam garchand dialektik o‘zgarish va harakatda bo‘lsada, bu jarayon doim ham nihoyatda tez sodir bo‘lavermaydi. Biz esa, dunyodagi narsa, hodisa va odamlarga shunchalik metafizik tarzda o‘rganib qolganmizki, go‘yo kechadan bugunning farqi yo‘qdek, kecha ko‘rgan kishiga bugun duch kelganimizda, unda hech qanday o‘zgarishlar bo‘lmaganday tuyuladi. SHu ma‘noda, hayotda ko‘p hollarda metafizik usulda fikr yuritimiz, nimalargadir ana shunday munosabatda bo‘lamiz. Aclida esa, ular ham azaliy o‘zgarishlar jarayoniga tushgan narsa va

kishilar ekanligini juda kamdan-kam hollarda o'ylab ko'ramiz. Xuddi shunday, bizning umrimiz ham kechadan ertaga qarab oqib turadigan dialektik jarayondir. Biz ham ana shunday o'zgarib boramiz, ammo ko'p hollarda bunga unchalik ko'p e'tibor berilavermaydi. SHu tariqa maktabni tugatib qo'yganimizni, ulg'ayganimizni, bolalikning ortda qolganini go'yoki bilmay qolamiz...Alohida ta'kidlash lozimki, metafizik usulning hayotda, ilmiy izlanishlar va falsafiy tadqiqotlarda ham o'z o'rnini bor. Bizda haligacha metafizikaning tushunchalari, kategoriyalari, tamoyillari va ilmiy mohiyati izohlangan yoxud tadqiq etilgan asarlar, tadqiqotlar yo'q. Qolaversa, uni dialektika bilan butunlay qarshi qilib qo'yish va bu farqni mutlaq ziddiyat darajasiga ko'tarish ham maqsadga muvofiq emas. Aynan ana shunday yondashuv sobiq Ittifoqda dialektikani mutlaqlashtirishga, metafizikani esa quruq va o'lik ta'limot sifatida qarashga, uning imkoniyatlaridan foydalanilmasligiga sabab bo'ldi.

Hozirgi davr fanida metafizika uch asosiy ma'noga ega:

1. Falsafa umumiy hodisalar haqidagi fandır. Bu ta'limotning asoschisi Aristotel bo'lib, u «narsaning birinchi turi» haqidagi ta'limotdir. Bu ma'noda, «metafizika» tushunchasini XX asrning yirik nemis faylasufi M.Xaydegger ham o'rganadi. Uningcha, bu kategoriya bilishning ob'ekti va sub'ektini bir vaqtda ifodalovchi tushunchadir ham o'rganadi. Uningcha, bu kategoriya bilishning ob'ekti va sub'ektini bir ifodalovchi tushunchadir.
2. Maxcyc falsafiy fan ontologiya, umuman, borliq haqidagi ta'limot bo'lib, nazariya bilish mantig'i va uning xususiy ko'rinishlaridan mustasnodir. Shu ma'noda, bu tushuncha G'arb falsafasida o'tmishda ham (Dekart, Leybnits, Spinoza va h.k.), hozirda ham keng qo'llaniladi.
3. U bilish (tafakkur) va harakatni falsafiy tushunish ma'nosida dialektikaga qarama-qarshi qo'yiladi. Bunda shu ma'nodagi tushuncha, ya'ni antidialektika haqida so'z boradi. Uning eng asosiy xususiyatlaridan biri bir tomonlamalik bilish jarayonining faqat bir qismini mutlaqlashtirishdir. Falsafa tarixida metafizika (dialektika kabi) hech qachon o'zgarmasdan qolmagan. U turli tarixiy shakllarda namoyon bo'lgan.

Bilimning metafizik usullari turlicha bo'lib, idealizm, sensualizm, ratsionalizm, empirizm, dogmatizm, relyativizm va boshka shakllarda namoyon bo'lib, bilimning alohida shakllari natijalarini mutlaqlashtirish jarayonida paydo bo'ladi.

Sofistika. Sofistika falsafiy metodlar jumlasidan bo'lib, Qadimgi Yunonistonda, miloddan avvalgi V va IV asrning birinchi yarmida ijtimoiy-siyosiy hayotda xususiy bir yo'nalish sifatida paydo bo'lgan. Sofistika namoyandalari: Protogor, Gorgiy, Gippiy, Antifont va boshqalardir. Sofistikaning paydo bo'lishi, antik Yunonistonda iqtisodiy taraqqiyotga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liq. Bu oila urug' an'analaridagi turg'unlikni bartaraf qilish, yangi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga ehtiyoj davri edi. Sofistikaning inqirozi eramizdan avval IV asr o'rtalarida boshlandi. Eramizning II asrida klassik yunon sofistlarining g'oya va uslublarini qayta ishlashga intiluvchi yangi oqim paydo bo'ldi.

Sofistika mavjud nazariya va ma'lumotlarni saqlashga intiladi. U, yangi fikr eski fikrning bir qismi ekanligini asoslashga yoki mantiq qonunini tuzib, mavjud bilimlar tizimini barcha ziddiyatlardan tozalashga harakat qiladi. Bu metoddan semantik va mantiqiy qonunlarda istalgan isbotlash uchun foydalaniladi. Ko'pgina darslik va qo'llanmalarda bu ibora yunon tilidagi

«sopism» so'zi asosida, ya'ni ataylab xilma-xil ma'noga ega bo'lgan tushunchalarni ishlatish orqali kerakli, ammo haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, ko'chma ma'nomazmunga erishish usuli, deb ta'kidlanadi. Bu usul qo'llanilganda fikrning mazmuni ko'chma ma'noda bayon qilinadi, ya'ni «Qizim, senga aytaman, kelinim, sen eshit», deganga o'xshash holat nazarda tutiladi. U, nafaqat, Qadimgi Yunoniston, balki o'pta asrlarda Evropada ham keng tarqalgan. Agar bu usul yolg'on xulosalarga olib kelsa, nega o'z davrining ko'pgina dono kishilari undan foydalanganlar, degan savol tug'ilishi mumkin. Ma'lumki, insoniyat tarixida hurfikrlilik va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga

munosabatni to'g'ri ifodalashning iloji qolmagan zamonlar ko'p bo'lgan. Bunday holni inkvizitsiya hukmron bo'lgan o'pta asrlar Evropasiga ham tatbiq etish mumkin. O'sha davrda ham ko'pgina ziyolilarning ana shu usulga suyanmasdan iloji yuq edi. Umuman olganda, falsafada «do'ppi tor kelib qolgan» ana shunday zamonlarda fikrni Gulxaniyning mashhur «Zarbulmasal» acapi kabi ifodalash hollari uchrab turadi. Buni o'rta asrlar Evropasiga nisbatan olsak, unda Servantesning «Don Kixot» acapi nima sababdan shunday yozilganligi, uning bosh qahramoni esa nima uchun shamol tegirmonlariga qarshi jang qilganligi va bu lavhalar zamirida qanday botiniy mazmun yashiringani aniq bo'ladi.

Eklektika. *Eklektika hech qanday bilim faoliyati bilan bog'lanmagan, bir-biriga zid dalillarga asoslanadi va olamni buzib yolg'on aks ettiradi.* U bilim tizimi rivojidadagi yo'nalish, u hech qanday yagona nazariy asosga ega emas va ba'zida ob'ektni o'rganishning ziddiyatli jihatlarini xarakterlovchi bilim elementlaridir. Metodologik usul sifatida eklektika birinchi marta qadimgi yunon falsafasida paydo bo'ldi va iqtiboslarga asoslangan o'rta asr sxolastik bahslarida, yangi davr XV–VIII asrlar falsafiy bahslarida keng foydalanildi. U hozirgi davrda ham reklama va tashviqotda, ommaviy kommunikatsiya tizimida qo'llanilib, inson psixikasidagi an'analar, ko'nikmalar, intilishlarni bo'rttiradi. Bunday usulning bema'niligini Suqrot va Aristoteldan boshlab, hozirgi davr mutafakkirlarigacha tanqid qiladilar. Ammo bu undan foydalanilmaslikni anglatmaydi. Eklektika olam, narsa va hodisalarning bir butunligini, umumiy asoslarini parchalab tashlash uslubiga tayanadi.

Sinergetika. Hozirgi zamon fanida sinergetika metodi keng qo'llanilmokda. Sinergetika so'zi yunoncha («sinergena») bo'lib, kelishuv, hamkorlik, o'zaro ta'sir kabi ma'nolarni anglatadi. German Xakenning fikricha, sinergetika ko'p qismlardan iborat bo'lgan, o'zaro murakkab aloqadorlikdagi komponentlar tizimini o'rganadi. Xaken fikricha, *sinergetika hamkorliqdagi harakat bo'lib, butunning tizim sifatida aks etuvchi qismlarining kelishilgan faoliyati ma'nosida talqin qilinadi.* Xullas, sinergetika – olamning o'z-o'zini tashkil etishi, makon va vaqtda narsa va voqealarning azaliy ketma-ketligi, o'zaro aloqadorligi, ularning muayyan tizimlardan iborat sababiy bog'lanishlar asosida mavjudligini e'tirof etishga asoslangan ilmiy qarashlar majmuidir. Bu ta'limotni dialektika asosida shakllangan va uni to'ldiradigan ilmiy qarashlar majmuasi, deydiganlar ham bor. Ularga qarshi o'laroq, dialektika endi kerak emas, uni sinergetika bilan almashtirish lozim, deb hisoblovchilar ham yo'q emas. *Sinergetikada bifurkatsiya, fluktuatsiya, tartibsizlik, dissipatsiya, g'alatiy traktorlar, chiziqsizlik singari tushunchalar mashhur.* Ulardan tizimlar barcha turlarining, jumladan, old organizmik, organizmik, ijtimoiy, etnik, ma'naviy va boshqa tizimlarning xulq-atvorini tushuntirish uchun foydalaniladi.

Bifurkatsiya *ikkilanish nuqtalarining mavjudligini hamda rivojlanish davomining har xilligini nazarda tutadi.* (Masalan, bitta oila negizida yangi oila paydo bo'ladi va yangi oila o'zining rivojlanish tamoyillariga ega bo'ladi). Ularning faoliyati natijalarini oldindan bashorat qilish qiyin. I. Prigojinning fikriga ko'ra, bifurkatsiya jarayonlari tizimning murakkablashuvidan dalolat beradi. N. Moiseevning fikricha, «ijtimoiy tizimning har bir holati bifurkatsiya holatidir».

Kumatoid – *suzayotgan ob'ektni anglatadi va ob'ektlarning tizimli xususiyatini aks ettiradi. U vujudga kelishi, hosil bo'lishi, shuningdek, yo'qolishi, parchalanishi mumkin.* U o'zining barcha elementlarini birvarakay emas, balki o'ziga xos «hissiy-o'ta hissiy» tarzda namoyon etadi. Masalan, tizimli ob'ekt – o'zbek xalqini ma'lum vaqt, makon bo'lagida ifoda etish va mahalliy lashtirish mumkin emas. Boshqacha qilib aytganda, ob'ektni yaxlit ifoda etish uchun o'zbek xalqining barcha vakillarini yig'ish mumkin emas. Shu bilan birga, mazkur ob'ekt soxta emas, realdir. Uni kuzatish, o'rganish mumkin. U butun sivilizatsion tarixiy jarayonning yo'nalishini ko'p jihatdan belgilab beradi. Yana bir misol – talabalar guruhi. U dam paydo bo'ladigan, dam ko'zdan yo'qoladigan suzuvchi ob'ekt sifatida o'zaro aloqalarning deyarli barcha tizimlarida namoyon bo'ladi. Masalan, o'quv mashg'ulotlari tugaganidan keyin guruh yaxlit

ob’ekt sifatida mavjud bo‘lmaydi, ammo institutsiyaviy belgilangan ma’lum vaziyatlar (guruh raqami, talabalar soni, guruh tuzilishi, umumiy xususiyatlari)da u ob’ekt sifatida namoyon bo‘ladi va o‘z-o‘zini identifikatsiya qiladi. Bundan tashqari, mazkur kumatoid guruh a‘zolari o‘rtasidagi do‘stlik, raqobat va boshqa munosabatlar bilan ham qo‘llab-quvvatlanadi.

Xulosalar. Shunday qilib, metodologiya muayyan bir, hatto, «eng muhim metod»ga ham bog‘liq bo‘lmaydi. «Olim hech qachon faqat bitta ta’limotga tayanib qolmasligi, hech qachon o‘z tafakkur metodlarini faqat bitta falsafa bilan cheklab qo‘ymasligi kerak»²⁴. Metodologiya alohida metodlarning oddiy yig‘indisi, ularning «mexanik birligi» ham emas. Metodologiya – turli darajadagi usul va tamoyillarning faoliyat sohalari, yo‘nalishlari, evristik, imkoniyatlar, mazmunlar, tuzilmalar va hokazolarning murakkab, yaxlit hamda muvofiqlashtirilgan tizimi.

Ilmiy bilishda turli darajalarda, faoliyat sohalorida va yo‘nalishlarda turli-tuman metodlarning murakkab, dinamik va muvofiqlashtirilgan tizimi faoliyat ko‘rsatadi. Mazkur metodlar har doim tadqiqotning muayyan shartlari va predmetidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.:“O‘zbekiston”, 2014. 24 b
2. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947sonli [Farmoni](#).
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
5. Karimov I.A. Asarlar to‘plami. 1-24 jildlar.- T.: O‘zbekiston 1996-2016.
6. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. 2 nashr –T.:Ma’naviyat, 2016 176-b.
7. Falsafa. Axmedova M. Tahriri ostida. – T.: O‘FMJ, 2006. 339 b.
8. Shermuxamedova N.A. Falsafa. – T.: Noshir, 2012. 1214 b.
9. Falsafa asoslari. Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: «SHarq», 2005 y.

²⁴ Гейзенберг В. Физика и философия. Часть и целое. –М.: 1989 г. с. 85.

7-MAVZU: TARIXIY JARAYONDA JAMIYATNING MADANIY VA MA'NAVIY
QADRIYATLARI.
JAMIYAT VA TARIX FALSAFASI

REJA:

1. Jamiyat rivojlanuvchi tizim sifatida.
2. Sivilizatsiya tushunchasining tahlili va turli yondashuvlar tasnifi.
3. "Madaniyat" tushunchasi, uning mohiyati, strukturasi va funksiyalari Sharq va G'arb madaniyatlarining o'zaro bir-biriga ta'siri.
4. Qadriyat tushunchasining tavsifi va mohiyati.

Tayanch tushunchalar: Jamiyat, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy falsafa, madaniy-tarixiy tiplar, ijtimoiy-madaniy tizimlar, ijtimoiy makon, sivilizatsiya, madaniyat, qadriyat tushunchasi, madaniy-tarixiy relyativizm, qadriyatlarining sotsiologik konsepsiyasi, qadriyat kategoriyasining mazmuni, qadriyatning funksional ahamiyati, qadriyatning shaxsga doir mazmuni, baholash, ehtiyojlar va qadriyatlar, moddiy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar, ma'naviy qadriyatlar.

Jamiyat tushunchasi. Jamiyat fanga ma'lum tizimlar orasida eng murakkabi bo'lib, uni o'rganish jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi. Jamiyat hayoti juda faol bo'lib, har bir xalq o'zining alohida, betakror tarixiga ega. Jamiyat hayotining barcha jarayonlari bir-biri bilan shu darajada uzviy bog'liqlik, ba'zan turli vaziyatlarda belgilovchi va belgilanuvchi jarayonlar o'rin almashadi. Tarixiy jarayonda tasodiflar va sub'ektiv omil ayniqsa, muhim rol o'ynaydi. Muayyan fanlardan farqli o'laroq, falsafaning vazifasi tarixiy jarayonning umumiy jihatlarini o'rganishdan iborat. Falsafa, muayyan hodisalarning sabablari nimada, degan savolga javob topish vazifasini o'z oldiga qo'ymasa-da, tarix fanining metodologik asoslarini yaratadi, mazkur sabablarni aniqlashga nisbatan qanday yondashish kerak, degan savolga javob beradi. U dunyoqarashga doir o'z mo'ljallariga tayanadi, ijtimoiy va gumanitar fanlarning kategoriyalar apparatini ishlab chiqishda ishtirok etadi. O'z kategoriyalarining ijtimoiy mazmunini yoritir ekan, falsafa shunga asoslanib, muayyan-tarixiy jarayonlarni tahlil qilishni amalga oshiradi. Tarix falsafasining muammolaridan biri bu tarixiy jarayonning birligi muammosi va tarixni davriylashtirish tamoyillarini belgilashdir. Falsafaning vazifasi jamiyat hayotining asosiy negizlarini, uning tizim tashkil etadigan omillarini aniqlashdan iborat. Tarix falsafasida dunyoqarashga doir mo'ljallarining rang-barangligi bilan ajralib turadigan ko'plab oqimlar va yo'nalishlar mavjud bo'lgan. Shu sababli har bir faylasuf, odatda, o'z mo'ljallariga amal qiladi, nafaqat dunyoni, balki jamiyatni ham o'ziga xos tarzda tushuntiradi.

Madaniy-tarixiy tiplar g'oyasi. XIX asrda madaniy-tarixiy tiplar nazariyasi vujudga kelgan bo'lsa-da, aslida bu haqdagi dastlabki qarashlar Forobiy ijodiga mansub. Forobiy insonlar jamiyatini ikki madaniy-tarixiy tiplarga ajratadi. Birinchisi to'liq jamiyat bo'lib, u o'zida a) Yer yuzidagi jami insonlarni qamrab oluvchi yirik jamiyat, b) Yerning muayyan qismida yashovchi bir millat yoki bir dinga mansub kishilarning o'rta jamiyati v) muayyan qavm yoki dinga mansub bir shahar jamiyatini qamrab oladi. Ikkinchisi bir qishloq, ovul, yoki bir oiladan iborat bo'lgan to'liqsiz jamiyat²⁵. Forobiy fikricha, «Eng yaxshi fazilat va oliy darajadagi komillikni kichik birligi shahar hisoblanadigan madaniy jamiyat ichidagina qo'lga kiritish mumkin. To'liqsiz jamiyatlar

²⁵ Farobiy. Fozil shahar aholisi. –T.: «Шарк», 2016 y. 82–83-b.

² O'sha asar : 69-6.

7-MAVZU: TARIXIY JARAYONDA JAMIYATNING MADANIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARI. JAMIYAT VA TARIX FALSAFASI

insonni takomillashtirishga qobil emaslar»². Forobiyning bu fikrlari Platon va Aristotelning jamiyatga oid qarashlaridan farq qiladi, chunki u jamiyatdagi o'zgarishlarni inobatga olgan. Jamiyatni to'liq va to'liqsizga ajratar ekan, Forobiy shahar to'liq jamiyatning birinchi bosqichidir deb e'tirof etadi. Platon va Aristotel esa to'liq jamiyatni shahar bilan chegaralaganlar va shahar insoniyat jamiyati takomilining oxirgi darajasi, jamoaviy baxt saodatning bosh markazi deb ta'kidlaganlar. Forobiy esa, butun dunyodagi jamiyat haqida fikr yuritib, uning xukmdori qandaydir alohida olingan xalq, qavm yoki jamoa boshlig'i emas, balki butun madaniy dunyodir deb ta'kidlaydi va bu fikri bilan yunon faylasuflaridan ilgarilab ketadi.

Fuqarolik jamiyati, davlat, demokratiya. Hozirgi zamon jamiyati o'ta murakkab va faol ijtimoiy tizimdir. Umuman olganda, uni quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan jamiyat sifatida tavsiflash mumkin:

- u spontan tarzda vujudga keladi va biron-bir boshlang'ich g'oyani o'zida mujassamlashtirmaydi, jamiyatning barcha a'zolari uchun muqarrar bo'lgan olamshumul maqsadga ega bo'lmaydi;
- u o'z hayotining barcha tomonlarini yagona markazdan nazorat qilmaydi;
- unda muvofiqlashtirishga muayyan umumiy maqsad va yagona markazga bo'ysunish hisobiga emas, balki xulq-atvor umumiy qoidalariga rioya etish hisobiga erishiladi;
- mazkur jamiyatning iqtisodiy asosi xususiy mulk va xususiy tadbirkorlik, markazlashtirishdan chiqarilgan bozor tizimi va raqobatdir;
- uning individlari erkin va mustaqil bo'lib, qonun bilan muhofaza etiladigan shaxsiy hayot sohasiga egadirlar, bu hayot doirasida ular o'zlari istagan har qanday qarorlarni mustaqil ravishda qabul qilishga haqlidirlar;
- individlar shak-shubhasiz va uzviy fundamental huquqlar va erkinliklarga, shu jumladan fikrlash va so'z erkinligi, uyushmalar va tashkilotlar tuzish erkinligi, vijdon erkinligi, bir joydan boshqa joyga ko'chib yurish erkinligi, o'zi istiqomat qiladigan mamlakatni tanlash erkinligiga egadirlar;
- bu ko'ppartiyaviy jamiyat bo'lib, unda siyosiy partiyalar hech qanday bevosita ommaviy hokimiyat vakolatlariga ega emaslar;
- davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarishning vakillik organlari aholi tomonidan saylanadi;
- hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari bir-biridan ajratilgan. Zamonaviy jamiyatning umumiy tavsifida quyidagi tushunchalar markaziy o'rinni egallaydi: fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat, ko'ppartiyaviylik, demokratiya, hokimiyatning bo'linishi, xususiy mulk, bozor, shaxs erkinligi va suvereniteti.

Fuqarolik jamiyati – davlat hokimiyati organlarining to'g'ridan-to'g'ri aralashuvidan qonunlar bilan muhofaza etilgan ixtiyoriy uyushmalar va tashkilotlar majmui.

Zamonaviy jamiyatda davlat odamlarning shaxsiy hayotiga aralashmaydi, ularni yagona mafkura va qadriyatlar yagona tizimini qabul qilishga majburlamaydi. Kishilarning rang-barang manfaatlari, ularning hamkorlikdagi harakatlari orqali ro'yobga chiqariladi, bunga erishish uchun ular davlat oldida hisobdor bo'lmagan ixtiyoriy birlashmalar va uyushmalarga birlashadilar. Odamlarning manfaatlarini aks ettiradigan nodavlat, nohukumat tashkilotlari fuqarolik jamiyatini tashkil etadi. Ular rasmiy statistikaga kirmaydi va ularning hisobini yuritish ancha qiyin ish. Chunonchi, ayrim ma'lumotlarga ko'ra, AQSHda yuz minglab bunday tashkilotlar faoliyati 25 mingdan ortiq xayriya fondlaridan mablag' bilan ta'minlanadi. Norvegiyada bu mamlakat fuqarosi hisoblangan har olti kishidan biriga bitta nohukumat tashkiloti to'g'ri keladi. XIX asr fransuz sotsiologi A.de Tokvil Amerikada demokratiyani qo'llab- quvvatlovchi ijtimoiy sharoitlar to'g'risida mulohaza yuritir ekan, amerikaliklarning fuqarolik va siyosiy tashkilotlar tuzishga bo'lgan moyilligiga alohida e'tiborni qaratgan: «Turli yosh, mavqe va qiziqishlarga ega bo'lgan amerikaliklar turli xil uyushmalarga ixtiyoriy ravishda birlashadilar.

Bular tijorat yoki ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan, amerikaliklarning barchasi ishtirok etadigan birlashmalargina emas, balki boshqa xil turdagi minglab birlashmalar: diniy-ma'naviy

7-MAVZU: TARIXIY JARAYONDA JAMIYATNING MADANIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARI. JAMIYAT VA TARIX FALSAFASI

uyushmalar, jiddiy va ahamiyatsiz, ochiq va berk, ko'p kishilik va atigi bir nechta a'zodan iborat birlashmalardir... Shunday qilib, odamlar o'zlarining umumiy xohish-istaklariga muvofiq bo'lgan maqsadga bahamjihat erishish san'atida oliy barkamollikka erishdilar va jamoa harakatining mazkur usulini boshqalarga qaraganda ko'proq qo'llay boshladilar»²⁶

Fuqarolik jamiyatiga O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov quyidagicha ta'rif beradi: "Fuqarolik jamiyati - ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. SHaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtning o'zida amal qiladi, bir-birini to'ldiradi va birbirini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, davlatning qonunlari inson va fuqaro huquqlarini kamsitmasligi lozim. Shuning barobarida barcha odamlar qonunlarga so'zsiz rioya qilishlari shart"²⁷

«**Sivilizatsiya**» (lot. «civilis» – «fuqarolik», «davlatga doir») atamasi har xil ma'noda ishlatiladi. Birinchidan, *sivilizatsiya – insoniyat rivojlanishida varvarlikdan keyin boshlangan va sinflar, davlat vujudga kelishi, urbanizatsiya va yozuv paydo bo'lishi bilan tavsiflanadigan tarixiy bosqich.*

Ibn Xaldun (1332–1406) o'z davrida birinchi bo'lib, sivilizatsiyalarning yuzaga kelishi, rivojlanishi va tanazzuli haqida ilmiy asoslangan g'oyalarni ilgari suradi. Jumladan madaniyatlar va davlatlarning paydo bo'lishi, yashashi va inqirozi muayyan tarixiy qonuniyat ekanligini, unga tabiiy geografik va iqtisodiy omillar, turmush tarzi va dunyoqarashlar jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini aytadi.

I.A.Karimov, «Har qanday sivilizatsiya ko'pdan ko'p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali tar'sirining mahsulidir. Bir so'z bilan aytganda, ko'chmanchilar, bosqinchilar kelib ketaveradi, lekin xalq boqiy qoladi, uning madaniyati abadiy yashaydi»⁵, deb ta'kidlaydi.

Sivilizatsiyalarning tiplari. Noevropacha sivilizatsiyalar ancha kata guruhni tashkil etadi (A.Toynbi tasnifiga ko'ra, bunday sivilizatsiyalar 21 ta). Bu sivilizatsiyalarning aksariyati betakror tarzda o'ziga xos va ayni vaqtda, umumiy tipologik jihatlarga ega. Bular evropacha sivilizatsiyadan ancha oldin vujudga kelgan an'anaviy sivilizatsiyalardir. An'anaviy jamiyat juda sust rivojlanadi va mavjud hayot tarzini asrlar va hatto ming yilliklar osha saqlashga qodir. Noevropacha sivilizatsiyalarning xo'jalik faoliyati qishloq xo'jalikhunarmandchilik ishlab chiqarishi va texnologiyasining hukmronligiga asoslanadi. An'anaviy sivilizatsiyaning ma'naviy sohasida diniy-mifologik tasavvurlar hukm suradi, ilmiy bilimlarning dastlabki shakllari asosan mavjud faoliyat turlari uchun retseptura vazifasini bajaradi. Noevropacha sivilizatsiyalar evolyusiyasi siklliligi va o'ziga xos institutlar va normalarga ega bo'lgan davlat vaqti-vaqti bilan dam kuchayib, dam zaiflashib turishi bilan tavsiflanadi. Bunday jamiyat halokati sivilizatsiya tipini o'zgartirmaydi, u ijtimoiy vorisilik mexanizmlari yordamida avloddan-avlodga o'tadi. Evropacha sivilizatsiya ijtimoiy va madaniy rivojlanishning alohida tipii bo'lib, u Evropada taxminan XV–XVII asrlarda shakllangan. Uning o'tmishdoshlari antik dunyo madaniyatlari va Evropa xristiancha an'anasidir. Uyg'onish davrida bu ikki an'ana sintezi texnogen sivilizatsiyaning teran o'ziga xosligini va uning texnika va texnologiya jadal sur'atlarda rivojlanishini, odamlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar tubdan o'zgarishini ta'minlagan madaniyatini shakllantirdi. Uning zamirida huquqiy davlatning vujudga kelishi, shaxs o'z tashabbuskorligi, faolligi va mustaqilligi bilan oliy qadriyat sifatida ijtimoiy hayot markazidan o'rin olishi yotadi. Odamlar o'rtasida muloqotning faollashuvi va samarali kommunikatsiya vositalari paydo bo'lishi

²⁶ А. де Токвиль. Избранные произведения. – М.: 2003 г. с. 45.

²⁷ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari - Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T. 6. – T.: O'zbekiston, 1998. – 151-b. ⁵ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: «Sharq», 1998 y. 21-b.

7-MAVZU: TARIXIY JARAYONDA JAMIYATNING MADANIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARI. JAMIYAT VA TARIX FALSAFASI

texnologiya sivilizatsiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Madaniyatda ilmiy oqilonalikalohida o'ziga xos qadriyat sifatida hukm suradi. Inson tabiatni faol va oqilona tarzda o'zgartirishiga imkoniyat yaratgan qonunlarning kashf etilishi fanning ustunligini tasdiqlaydi. Unda yangilik va unumdorlik, biluvchi sub'ektning bilimi, erkinligi va mustaqilligini tinimsiz oshirish talablari shakllanadi.

O.Toffler, D.Bell, K.Pekka ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasini tasniflash uchun asos qilib olib, *quyidagi sivilizatsiyalarni farqlaydilar: – ilk sivilizatsiya (arxaik, an'anaviy yoki ibtidoiy jamoa);*

- *qishloq xo'jalik-hunarmandchilik sivilizatsiyasi;*
- *industrial (sanoatlashgan) sivilizatsiya;*
- *hozirgi postindustrial yoki informatsion sivilizatsiya.*

Madaniyat, uning tuzilishi va ijtimoiy funksiyalari. «Madaniyat» atamasi arabcha – «madina» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «shahar», degan ma'noni anglatadi. Arablar kishilar hayotini ikki turga ajratib, birini – badaviy yoki sahroyi turmush, ikkinchisini – madaniy turmush, deb ataganlar. Tugab borayotgan Rim imperiyasida, keyinchalik esa, O'rta asrlarda ham madaniyat tushunchasi shahardagi turmush tarzi va sivilizatsiya ne'matlari bilan bog'langan. Markaziy Osiyoda madaniyat axloq ko'rinishida shakllangan. SHu bois, eng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha ham yurtimizda ma'naviy madaniyat, go'zallikka intilish, san'atni qadrlash kabilar ustuvorlik qiladi. Uyg'onish davrida madaniyat shaxsiy barkamollik belgisi sifatida qaralgan. Shu davrda madaniyatni ma'naviy faoliyatning turli sohalarini: vujudga kelayotgan fan, axloq, san'at, falsafa, din bilan bog'lash odati paydo bo'lgan. Madaniyat xulq-atvor andozalari majmui sifatida, ma'naviy faoliyat antik an'anasining davomi sifatida e'tirof etilgan. Shu ma'noda madaniyat tushunchasi ijtimoiy-ilmiy muomaladan o'rin olgan XVIII asrgacha amal qilgan. Ma'rifat davri faylasuflari madaniyatga inson faoliyatining alohida mustaqil va o'ziga xos jabhasi sifatida qaraydilar. Ularning talqinida, jamiyat va shaxs hayotining barcha sohalarida aql, oqilonalik tamoyillarining qaror topishi madaniyatning eng muhim jihatidir. Aqlning vazifasi insoniyat oldiga umumiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlarni qo'yish va ijtimoiy o'zgarishlarni o'ziga bo'ysundirishdan iborat. Ma'rifat davrida madaniyat deb hisoblash mumkin bo'lgan narsalarni saralash mezonlari yaratildi. Madaniy faoliyat intellektual, ijodiy, samarali, novatorlik ruhi bilan sug'orilgan bo'lishi, ya'ni nafaqat yaratishi, balki inson imkoniyatlari sohasini tinimsiz kengaytirishi lozim edi. Ammo, madaniyatning asl mohiyati, uning o'ziga xosligi inson aqlining mutlaq erkinligi sifatidagi ma'naviy faoliyat doirasi bilangina cheklanardi.

Madaniy faoliyat. *Madaniyat – inson dunyosi, faqat unga xos faoliyat usuli bo'lib, uni amalga oshirish jarayonida odamzod o'zi yaratayotgan narsalarga ruh baxsh etadi, tabiatni, o'zi yashaydigan muhitni insoniylashtiradi.* Madaniy faoliyat ongli va qadriyatlarga qaratilgandir. Unda me'yorlarga rioya qilish va ularda nisbatan mustaqillik, maqsadga muvofiqlik va noutilitarlik o'zining uyg'un ifodasini topadi. Madaniy faoliyat umuminsoniy ideallar va qadriyatlarni etnik yoki mintaqaviy shaklda aks ettiradi. Madaniyat jabhasida inson faoliyati uning ehtiyojlari bilan belgilanadi, lekin faqat ularga bog'liq bo'lmaydi. Unda maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan elementlar ham, ortiqcha unsurlar ham mavjud. Ortiqchalik tushunchasi, madaniyat hodisalarida, ularning ma'naviy mazmunini amalda gavdalantirish uchun talab etiladigan vositalarning zarur darajasidan ortiqroq elementlar mavjudligini anglatadi. Madaniyatda utilitar maqsadga muvofiqlik mezonini bilan o'lchash mumkin bo'lmagan muhim qadriyatlar yaratiladi. Garchi madaniyat biologik, fizik, ijtimoiy, texnik-iqtisodiy va boshqa shunga o'xshash omillarga ta'sirchan bo'lsa-da, ular madaniyatda o'zining variativ – ko'p ma'noli ifodasini topadi. Bu madaniyatda erkinlik hamda butunlay yangi predmetlilikni yaratish imkoniyatlari mavjudligidan dalolat beradi.

Madaniyat funksiyalari. Ijtimoiy hodisa sifatida madaniyat ko'p sonli funksiyalarni bajaradi. *U insonning bilish faoliyatini o'z ichiga oladi, ijtimoiy tajribani avlodlarga qoldirish va boshqa*

7-MAVZU: TARIXIY JARAYONDA JAMIYATNING MADANIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARI. JAMIYAT VA TARIX FALSAFASI

xalqlar madaniyatini o'zlashtirish vositasi sifatida informativ funksiyani bajaradi. Madaniyatning rivojlanishi u boshqa madaniyatlar bilan aloqa qilishini taqozo etadi.

Madaniyat normativ funksiyani ham bajaradi: u muayyan sivilizatsiyada shakllangan me'yorlarni amalga joriy etadi, shuningdek, o'z me'yorlari va qadriyatlarini yaratib, ularni inson hayoti va faoliyatining barcha jabhalariga tatbiq etadi.

Ijtimoiy-madaniy jarayonda davlat hayoti qadriyatlari muhim ahamiyat kasb etadi: ideokratik, teokratik yoki siyosiy davlat boshqa-boshqa madaniy mo'ljallarga tayanadi. Davlat o'z negizini mustahkamlaydigan me'yorlarning ustunligini ta'minlaydi va o'ziga tahdid solishi mumkin bo'lgan me'yorlarni siqib chiqaradi. O'z navbatida, madaniyat ham ijtimoiy tajribani saralash, uni ramziy tizimlarda mustahkamlashni amalga oshiradi.

Madaniyatning yana bir muhim funksiyasi insonni kamol toptirish hisoblanadi: individ madaniyatni o'zlashtirish jarayonida shaxsga aylanadi. Madaniyat normativ tartibga solinadigan faoliyat sanalgani bois, u qadriyatlarni yaratish sohasi sifatida namoyon bo'ladi. Madaniyat hodisalari ijtimoiy o'zgarishlarni boshqaradi, ularni ijtimoiy muhim maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltiradi. Madaniyat qadriyatlari mazkur hamjamiyatda ijtimoiy mo'ljal berish va tartibga solish funksiyasini bajaradi. Madaniyat ijtimoiy munosabatlar tizimiga xizmatlar ko'rsatadi, bu erda yuz beruvchi o'zgarishlar va siljishlarni belgilaydi va tayyorlaydi, inson xulqatvorini tartibga solishni ta'minlovchi maxsus mexanizmlarni yaratadi. Bu, to'g'ridan-to'g'ri, bevosita tartibga solish bo'lishi mumkin (huquq, axloq, taqiq). Bu, jamiyatning, u yoki bu qadriyatlari va talablarini aks ettiruvchi ba'zi bir harakatlarni bajarishni buyurish orqali amalga oshiriladigan bilvosita tartibga solish bo'lishi ham mumkin.

Tarixning mazmunini aniqlash borasidagi izlanishlar. Ma'lumki, har qanday ijtimoiy hodisaning mohiyatini va uning, jamiyatning rivojlanish jarayonidagi o'rnini, faqat u butun jamiyatning rivojlanish jarayoniga bog'lab, ya'ni umumiy tarixiy jarayon doirasida o'rganilgan taqdirdagina tushunish mumkin. Bundan muqarrar tarzda butun insoniyat tarixiga tegishli bo'lgan savollar kelib chiqadi: tarixiy rivojlanishning biron-bir maqsadi mavjudmi; jahon tarixi qaysi yo'nalishda harakatlanadi; tarix biron-bir muayyan mazmunga egami? Bu savollarning barchasiga falsafaning «Tarix falsafasi» degan nom olgan bo'limi javob beradi.

I.A.Karimov (1938-2016) tarix falsafasini tarixiy xotira bilan uyg'un holda ko'radi. Uning fikricha, «Inson uchun tarixdan judo bo'lish – hayotdan judo bo'lish demakdir»²⁸. Fikrining davomida u tarixiy xotirasi bor inson irodali inson, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi, o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi, deb ta'kidlaydi. Buning uchun har bir millat o'zining tarixiy ildizlariga nazar solishi, u yoki bu mafkura ta'sirida xash-po'shlangan tarixiy xotirani o'z holicha, qayta tiklashga harakat qilishi lozim. «O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q»²⁹. Shundagina millat, xalq o'z-o'zini anglaydi. Tarixchilar millatga uning haqqoniy tarixini ko'rsatib, isbotlab berishlari kerak. Zotan, tarix xalq ma'naviyatining asosidir.

Hozirgi zamon tarix falsafasida, tarixiy jarayon mantig'i va yo'nalishini tushuntirishga nisbatan ikki asosiy yondashuv: **formatsion va sivilizatsion yondashuvlar** mavjud. Formatsion yondashuv tarixni monistik, universalistik tushunishga asoslanadi. U jahon tarixini ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar olinma-ketin almashuvidan iborat yagona, chiziqli-hujumkor tabiiytarixiy jarayon sifatida talqin qiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar haqidagi ta'limotni Karl Marks o'zining «Kapital», «Siyosiy iqtisod tanqidiga doir» kabi asarlarida ilgari surgan. Marks nazariyasining mohiyatini, uning bir qancha qoidalari orqali ifodalash mumkin:

²⁸ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. –T.: «Sharq», 1998 y. 10-b.

²⁹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat», 2008 y. 4-b.

7-MAVZU: TARIXIY JARAYONDA JAMIYATNING MADANIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARI. JAMIYAT VA TARIX FALSAFASI

1) ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya – sifat jihatidan aniq, yaxlit ijtimoiy tizim bo‘lib, uning muhim elementi odamlarning hayot faoliyati jarayonida ular o‘rtasida o‘rnatiladigan moddiy (iqtisodiy), ma’naviy (mafkuraviy) va boshqa aloqalar va munosabatlardir. Moddiy va ma’naviy munosabatlarning o‘zaro aloqasida moddiy munosabatlar etakchi rol o‘ynaydi. Ularning o‘zagini ishlab chiqarish munosabatlari tashkil qiladi. Aynan ishlab chiqarish munosabatlari, ijtimoiy tizim faoliyatini belgilovchi asos hisoblanadi;

2) ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya turli mamlakatlarda ular rivojlanishining muayyan bosqichida ijtimoiy hayotga xos bo‘lgan umumiy jihatlarni aks ettiradi. Kapitalizmni o‘rganish va turli mamlakatlardagi moddiy va ma’naviy munosabatlarni taqqoslash jarayonida bu munosabatlarning ko‘pgina tomonlari takrorlanishining va mazkur mamlakatlar ijtimoiy rivojlanishning bir bosqichi – kapitalistik bosqichda, degan xulosaga kelingan;

3) ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya jamiyat rivojlanishining muayyan bosqichidir. Ko‘p sonli ijtimoiy aloqalar orasida ishlab chiqarish munosabatlarini farqlash, ularning bir necha turlari mavjudligini aniqlash imkonini ham bergan; turli ijtimoiy organizmlar bir xil ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishga ega bo‘lishi ham, har xil ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishga ega bo‘lishi ham mumkinligi (ya’ni, har xil tipdagi ishlab chiqarish munosabatlari) aniqlangan.

Shunday qilib, ishlab chiqarish munosabatlarining har bir tipi rivojlanish bosqichi, tarixiy davrni, bu ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi va o‘zgarishi esa jamiyat rivojlanishining mohiyatini belgilaydi, degan xulosaga kelingan.

Bu qoidalardan kelib chiqib, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya – bu jamiyatning muayyan tarixiy tipi, ishlab chiqarishning muayyan usuliga asoslangan va ijtimoiy taraqqiyot bosqichi sifatida amal qiladigan yaxlit ijtimoiy tizim, degan to‘xtamga kelish mumkin.

«Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya» kategoriyasini asoslash tarixiy jarayonni davriylashtirish imkonini bergan. U jami formatsiyalarning besh tipini farqlagan: ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodalizm, kapitalizm, kommunizm. Jahon tarixiy jarayoni bir formatsiyadan boshqa formatsiyaga yuksalishdan iborat bo‘lgan chiziqli jarayon sifatida tavsiflagan.

XIX asrda ishlab chiqilgan formatsion yondashuv o‘zini oqlamadi. Bunda tarixiy ri vojlantirish jarayonini tushuntirishga nisbatan Marksning yondashuvi emas, balki uni dogmaga aylantirish va mutlaqlashtirish shakllandi. Ayrim tadqiqotchilar formatsion yondashuvni tahlil qilar ekanlar, uning quyidagi zaif jihatlarini qayd etadilar. Birinchidan, tarixning har qanday bosqichida jamiyat hayotini ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga belgilaydi, deb aytish o‘rinli bo‘lmaydi. Ikkinchidan, bir formatsiyadan boshqa formatsiyaga tabiiy yuksalish haqidagi monistik tasavvur inson erkinligiga, insoniyat rivojlanishining muqobil yo‘llarini tanlashga o‘rin qoldirmaydi. Uchinchidan, xalqlar, jamiyatlar, davlatlarning haqiqiy tarixi yuksalib boruvchi chiziq bo‘ylab formatsion rivojlanishning tor doirasiga sig‘maydi. Mazkur yondashuv amalga tatbiq etilganda har bir xalq va sivilizatsiyaning o‘ziga xosligi va betakrorligi yo‘qoladi, ular ayni holda kelajak barkamol jamiyatining sharti sifatidagina amal qiladi.

SHunday qilib, hozirgi davr sharoitida tarixiy jarayonni besh ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyadan iborat bo‘lgan chiziqli sxema sifatida talqin qilishning bir yoqlamaligi, ayniqsa, bo‘rtib namoyon bo‘ladi. Jahon tarixiy jarayoni mazkur nazariy modeldan boyroq. SHu sababli ushbu talqinni tarixni tushunishga nisbatan o‘zgacha, nohiziq yondashuv bilan to‘ldirish talab etiladi. Sivilizatsion yondashuv tarixiy jarayonni tushunishga nisbatan aynan shunday yondashuvdir.

Falsafani tushunishga nisbatan sivilizatsion yondashuv XIX–XX asrlarda vujudga kelgan. U, asosan, ko‘p sonli madaniyatlar va sivilizatsiyalar mavjudligi, ularning lokalligi va har xilligi haqidagi g‘oyani ilgari surishi bilan tavsiflanadi. Bu yerda ijtimoiy taraqqiyotning qat’iy bir chiziqli sxemasi rad etiladi.

Mazkur yondashuv asoschilaridan biri, tabiatshunos olim Nikolay Danilevskiy (1822–1885) bo‘lgan. U har biri alohida-alohida mavjud bo‘lgan, faoliyatning to‘rt muhim shakli yoki sivilizatsiyalar «asosi» – diniy, madaniy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy asoslar orqali namoyon

7-MAVZU: TARIXIY JARAYONDA JAMIYATNING MADANIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARI. JAMIYAT VA TARIX FALSAFASI

bo'luvchi madaniy-tarixiy tiplar (sivilizatsiyalar) haqidagi konsepsiyani ilgari surgan. Madaniy-tarixiy tiplar, biologik organizmlar kabi, tashqi muhit va bir-biri bilan uzluksiz kurash jarayonida bo'ladi va vujudga kelish, voyaga etish, qarish va halok bo'lish bosqichlaridan o'tadi. Jahon tarixining mazmunini, Danilevskiy o'zining alohida qonunlariga binoan rivojlanuvchi xalqlar madaniy-tarixiy tiplarining o'z-o'zini namoyon etish xususiyatlarini aniqlashdan iborat, deb bilgan. Danilevskiy madaniy-tarixiy tiplar rivojlanishining ayrim qonunlarini ta'riflagan: 1) bir tilda yoki o'xshash tillarda so'zlashuvchi xalqlar bir madaniy-tarixiy tipni tashkil etadi; 2) madaniy-tarixiy tip vujudga kelishi va rivojlanishi uchun muayyan siyosiy mustaqillik talab etiladi; 3) sivilizatsiyaning muvaffaqiyatlari madaniy-tarixiy tipning turli elementlariga bog'liq bo'ladi; 4) sivilizatsiyaning shakllanish jarayoni uzoq davom etadi, ularning ravnaq topish davri esa, qisqadir; 5) sivilizatsiyalar alohida va berk sharoitda rivojlanadi, lekin bu ular bir-biriga ta'sir ko'rsatmaydi, degan ma'noni anglatmaydi.

Danilevskiyning qarashlarini nemis mutafakkiri Osvald Shpengler (1880–1936) rivojlantirgan. U ham ijtimoiy taraqqiyotning bir chiziqli evropotsentristik sxemasiga tanqidiy yondashgan. Shpengler falsafasida madaniyat asosiy kategoriya hisoblanadi. Faylasuf madaniyat deganda o'ziga o'xshash boshqa «organizmlar»dan ajralib turadigan alohida «organizm»ni tushungan. Bundan yagona umuminsoniy madaniyat yo'q va bo'lishi mumkin emas degan xulosa kelib chiqqan. Shu sababli Shpengler jahon tarixining yaxlitligi va yagonaligini, unda «o'zgarmas va umumiy» jihatlar mavjudligini rad etgan. U insoniyat tarixida sakkiz madaniyat: Misr, Hind, Bobil, Xitoy, Yunon-rim, Sharq, G'arbiy Yevropa va Mayya madaniyatlarini farqlagan. Shpengler fikriga ko'ra, har bir madaniy organizm ma'lum hayot muddati (taxminan ming yil) mobaynida mavjud bo'ladi, shundan so'ng u sivilizatsiyaga aylanadi va halok bo'ladi. Har bir madaniyat o'z teran mazmuniga ega bo'ladi va tarixiy jarayonda bir xil ahamiyat kasb etadi. Shpengler tarixning mazmuni madaniyatlar taqdiri, ruhi va tilini anglab etishdan iborat, deb hisoblaydi.

Lokal sivilizatsiyalar nazariyasining yana bir tarafdori, ingliz tarixchisi va sotsiologi Arnold Toynbi (1889–1975)dir. U Danilevskiy va Shpenglarning tarixning siklliligi haqidagi fikr mulohazalarini rivojlantirib, uni ayrim, o'ziga xos va nisbatan berk sivilizatsiyalar tarixlarining yig'indisi sifatida tushungan (dastlab, u, 23 sivilizatsiyani farqlagan, keyinchalik esa, ularni 13 tagacha qisqartirgan). Toynbi sivilizatsiyalarga «evolyusion tipdagi faol tuzilmalar» sifatida yondashib, har bir sivilizatsiyada tarixiy mavjudlikning asosiy bosqichlari: vujudga kelish, rivojlanish, tanazzulga uchrash va zavol topishni farqlagan. Bu asosiy bosqichlardan o'tgach, sivilizatsiya, odatda, halok bo'ladi va uning o'rnini boshqa sivilizatsiya egallaydi.

Toynbi, bu sivilizatsiyalarda oldinma-ketin yuz beruvchi ijtimoiy jarayonlarni o'xshash, deb hisoblab, shunga asoslangan holda, yaqin kelajakda, dunyo miqyosida yuz beradigan voqealarni bashorat qilish imkonini beruvchi, ijtimoiy rivojlanish takroriylikning ayrim formal empirik qonunlarini keltirib chiqarishga harakat qilgan. U jahon tarixining mazmuni diniy evolyusiya hamda insoniyatning ma'naviy jihatdan kamol topishi bilan belgilanadi, deb hisoblagan. SHunday qilib, sivilizatsion yondashuv nuqtai nazaridan tarixiy jarayon hujumkor xususiyati «yuqori – quyi» ko'rsatkichlari bilan emas, balki har bir sivilizatsiya o'z rivojlanish va o'z taqdirini o'zi belgilash jarayonida insoniyat filogenetik yo'lining barcha asosiy bosqichlaridan o'tishi va o'z tarixi va betakror individualligiga ega bo'lgan noyob ijtimoiy tuzilma sifatida qaralishi bilan belgilanadigan izchil nohoziziq jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Formatsion va sivilizatsion yondashuvlarni taqqoslash quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi: 1) formatsion yondashuv tahlil jarayonida butun jamiyatni qamrab olishga harakat qiladi va asosiy e'tiborni uning dinamikasiga qaratadi; sivilizatsion yondashuv esa, jamiyatning bir qismini (ayrim sivilizatsiyani) o'rganadi, jamiyatni esa, statik, deb e'tirof etadi; 2) formatsion yondashuv jamiyat hayotining iqtisodiy omillariga alohida e'tibor beradi; sivilizatsion yondashuv asosiy e'tiborni ma'naviy omillarga qaratadi.

7-MAVZU: TARIXIY JARAYONDA JAMIYATNING MADANIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARI. JAMIYAT VA TARIX FALSAFASI

Tarix falsafasi rivojlanishining hozirgi bosqichida tarixning shunday bir talqini vujudga keladiki, unda mualliflar bu muqobil yondashuvlarning ijobiy g'oyalardan foydalanishga va ularning kamchiliklari o'rnini to'ldirishga harakat qiladilar. Mazkur yondashuv «monadaga doir yondashuv», degan nom olgan. Monadaga doir yondashuvning o'ziga xos jihati shundan iboratki, u jahon tarixiy jarayoniga ko'p sonli tarixiy individlar (sotsiumlar)dan iborat bo'lgan yaxlitlik sifatida qaraydi. Bunda monadaga doir yondashuvning formatsion elementi tarixiy rivojlanishning ayni bir bosqichini boshdan kechirayotgan turli mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan jihatlarga, sivilizatsion element esa, ijtimoiy organizmlarning xususiyatlariga, ularning betakrorligiga e'tiborni qaratadi. Shunday qilib, monadaga doir yondashuv doirasida formatsion yondashuvning umumlashtiruvchi imkoniyatlari va sivilizatsion yondashuvning individuallashtiruvchi imkoniyatlari ularni qarama-qarshi qo'yish asosida emas, balki ularning yagonaligi va bir-birini to'ldirishini tan olish asosida hisobga olinadi va ro'yobga chiqariladi. Yuqorida qayd etib o'tilganidek, tarixning mazmuni muammosi tarix falsafasining aksariyat yo'nalishlarida ko'zga ko'rinadigan o'rinni egallaydi. Ayni vaqtda shunday konsepsiyalar ham paydo bo'lganki, ularda tarixning mazmuni muammosi markaziy muammo hisoblanadi.

Falsafa tarixida ildizlari ilk falsafiy tizimlarga borib taqaluvchi ancha kuchli qadriyatlarga doir an'anaga duch kelish mumkin. Qadimgi davrdayoq faylasuflarni qadriyatlar muammosi qiziqtirgan. Ammo o'sha davrda qadriyat borliq bilan ayniylashtirilgan, qadriyatga xos bo'lgan xususiyatlar esa uning mazmuniga kiritilgan. Masalan, Zardusht, Moniy, Suqrot va Platon uchun yaxshilik va adolat kabi qadriyatlar haqiqiy borliqning bosh mezonlari hisoblangan. Bundan tashqari, qadimgi faylasuflar qadriyatlarni tasniflashga harakat qilganlar. Xususan, Moniy zulmat va ziyo dunyosi mavjud, birinchi dunyoda adolatsizlik, zulm, zo'ravonlik, ikkinchisida esa abadiy, engilmas doimiy qadriyatlar hukm suradi, deb hisoblaydi. Aristotel o'ziga to'q qadriyatlarni (ular jumlasiga faylasuf inson, baxt, adolatni kiritgan) va anglab etish imkoniyati insonning oqilligiga bog'liq bo'lgan nisbiy qadriyatlarni farqlaydi.

Turli falsafiy davrlar va ularda mavjud bo'lgan falsafiy maktablar qadriyatlar tushunchasining shakllanishiga o'z hissasini qo'shgan. Masalan, O'rta asrlarda G'arbda ham, Sharqda ham qadriyatlar diniy xususiyat kasb etgan va ilohiy mohiyat bilan bog'langan. Uyg'onish davrida A.Navoiy, A.Jomiy, Rumi, Leonardo da Vinchi ijodida insonparvarlik va hurfikrlilik qadriyatlari birinchi o'ringa chiqqan. Jumladan A.Navoiyning odil jamiyat qurish haqidagi g'oyasida umuminsoniy qadriyatlar tizimi, komil inson ta'limotida esa, eng etuk inson qiyofasiga xos shaxsiy qadriyatlar tizimi ifodalangan.

Yangi davrda qadriyatlar haqidagi ta'limotga nisbatan yondashuvlar ratsionalizm nuqtai nazaridan tavsiflana boshlanganki, bu hol fanning rivojlanishi va yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi bilan izohlanadi. Bu davrda qadriyatlar va ularning mezonlari muammosi Rene Dekart, Benedikt (Barux) Spinoza, Klod Adrian Gelvetsiy, Pol Anri Golbax, A.Avloniy, A.Donish, Furqat, Muqimiy va boshqa mutafakkirlarning asarlarida o'z aksini topgan. Jumladan, A.Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida, «yaxshi xulqlar» – muhabbat, yaxshilik, adolat, haqiqat, shijoat, ibrat kabi ijobiy qadriyatlarni va razolat, g'iybat, jaholat, adovat kabi «yomon xulqlar»ni farqlaydi. Keyinroq, XX asrda, o'zbek faylasufi S.Shermuxeimedov Avloniy g'oyasini davom ettirib, insonga tabiat 36 ta ijobiy fazilat va 36 ta salbiy illat ato etganligini, ularning qay darajada namoyon bo'lishini, inson o'z hayotining qadriga etishida ko'rinishini e'tirof etadi.

XX asrning boshida fransuz faylasufi P.Lapi qadriyatlar nazariyasini ifodalash uchun «aksiologiya» (yunon. «axios» – «qadriyat», «logos» – «fan», «ta'limot») atamasini muomalaga kiritdi. Keyinchalik, aksiologiya muammolari fenomenologiya, germenetika, ekzistensializm va boshqa falsafiy yo'nalishlarning vakillari tomonidan tadqiq etildi.

Aksiologiya nimani o'rganadi? Aksiologiya – falsafaning qadriyatlarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi alohida bo'limi (yunon. «axios» – «qadriyatlar», «logos» – «bilim»: qadriyatlar haqidagi fan). Qadriyatlar ulkan falsafiy ahamiyatga ega. Qadriyatlar tushunchasi insonning

7-MAVZU: TARIXIY JARAYONDA JAMIYATNING MADANIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARI. JAMIYAT VA TARIX FALSAFASI

dunyoga bo'lgan munosabatining alohida jihatini namoyon etadi. Ular inson faoliyati, jamiyat va madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini yanada teranroq anglab etish imkonini beradi.

Qadriyatlar inson va jamiyat hayotida muhim o'rin egallaydi, chunki insonning hayot tarzini, uning hayvonot dunyosidan ajralish darajasini aynan qadriyatlar tavsiflaydi. Qadriyatlar shaxsning hayot faoliyatida fundamental ahamiyat kasb etadi. Qadriyatlar odamlarni jipslashtirish, ularni hamjamiyatlarga birlashtirishning muhim omili hisoblanadi. Umumiy qadriyatlarining mavjudligi fuqarolar, ijtimoiy birliklar va guruhlarning tinch-totuvligini ta'minlaydi. Qadriyatlar muammosi jamiyat rivojlanishining o'tish davrlarida, tub ijtimoiy o'zgarishlar jamiyatda mavjud bo'lgan qadriyatlar tizimlarida o'zgarishlar yasab, odamlarni yo o'zlari ko'nikkan eski qadriyatlarni saqlash, yo turli partiyalar, jamoat birlashmalari, diniy tashkilotlar, harakatlarning vakillari tomonidan taklif qilinayotgan, hatto majburiy tarqatilayotgan yangi qadriyatlarga moslashishga majbur etuvchi davrlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Qadriyatlar va mo'ljallarni yo'qotish yoki vujudga kelgan qadriyatlar tizimi-dan voz kechish esa muqarrar tarzda jamiyatning tanazzulga yuz tutishi va parchalanishiga olib keladi. Qadriyatlar – madaniyatning tizim yaratuvchi muhim omili. Qadriyatlar mazmuniga qarab butun jamiyat haqida hukm chiqarish mumkin. SHu sababli, qadriyatlar nima, qadriyat va bahoning o'zaro munosabati qanday, qaysi qadriyatlar inson uchun eng muhim va qaysilari ikkinchi darajali, degan savollar bugungi kunda olamshumul ahamiyat kasb etadi. Aksiologiyaning predmetini barcha turdagi qadriyatlar, ularning tabiati, turli qadriyatlarining bir-biri, ijtimoiy va madaniy omillar hamda shaxs strukturasi bilan aloqasi tashkil etadi. Aksiologiya ta'limotiga ko'ra, qadriyatlar muayyan normativ kategoriya bo'lib, ular maqsad, ideal, mayl, intilish, qiziqish predmeti sanalgan hamma narsani qamrab oladi. Quyidagilar bu nazariyaning asosiy tushunchalari va kategoriyalari hisoblanadi: yaxshilik, qadr-qimmat, foyda, ahamiyat, baho, g'alaba, hayotning mazmuni, baht, hurmat va hokazo. **«qadriyat» tushunchasining falsafiy mazmuni nimada?** Qadriyat mohiyati va tabiatining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Qadriyat o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiydir va ob'ekt-sub'ektki xususiyat kasb etadi. Ma'lumki, jamiyat bo'lmagan joyda qadriyatlar mavjudligi haqida gapirishning o'zi behudadir. Zero, narsalar, voqealar, ularning inson bilan, sotsium hayoti bilan aloqasiz, o'z holicha qadriyatlar bilan bog'lanmaydi. Xullas, qadriyatlar doim insoniy qadriyatlar hisoblanadi va ijtimoiy xususiyat kasb etadi. Bu insonlashgan tabiatga, ya'ni butun sivilizatsiyagagina emas, balki, hatto ko'p sonli tabiat ob'ektlariga ham taalluqli. Masalan, kisloroddan iborat bo'lgan atmosfera Erda inson paydo bo'lishidan ancha oldin mavjud bo'lgan, lekin kishilik jamiyati vujudga kelganidan keyingina atmosferaning odamlar hayoti uchun ulkan ahamiyati haqida so'z yuritish imkoniyati tug'ilgan.

2. Qadriyat insonning amaliy faoliyati jarayonida vujudga keladi. Insonning har qanday faoliyati muayyan maqsadni belgilashdan boshlanadi va mazkur faoliyat ayni shu maqsadga erishishga bag'ishlanadi. Maqsad – individga o'zining muayyan ehtiyojlarini qondirish imkonini berishi mumkin bo'lgan faoliyatning pirovard natijasi haqidagi insonning tasavvuri. SHunday qilib, individ o'z faoliyatining mo'ljallangan natijasiga avval-boshdanoq qadriyat sifatida qaraydi. SHu sababli, inson natijaga erishishga qaratilgan faoliyat jarayonining o'ziga ham o'zi uchun muhim, qadrlil bo'lgan jarayon sifatida yondashadi.

Albatta, insonning har qanday faoliyati va uning har qanday natijalari emas, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, ijtimoiy ehtiyojlarga va odamlarning manfaatlariga mos keladigan faoliyat va natijalargina qadriyatlarga aylanadi. Qadriyatlar qatoriga narsalargina emas, balki g'oyalar, munosabatlar, faoliyat usullari ham kiradi. Biz moddiy ne'matlarni ham, insoniy xattiharakatlar ezguligini ham, davlat qonunlarining odilonaligini ham, olamning go'zalligini ham, aqlning ulug'vorligini ham qadrlaymiz.

3. «Qadriyat» tushunchasini «muhimlik» tushunchasidan farqlash lozim. qadriyat «muhimlik» tushunchasi bilan nisbatlashadi, lekin u bilan ayniy emas. Muhimlik qadriyatga

bo'lgan munosabatning faollik, qizg'inlik darajasini tavsiflaydi. Nimadir bizni ko'proq, nimadir kamroq ta'sirlantiradi, nimadir bizni o'ziga nisbatan butunlay befarq qoldiradi. SHuningdek, muhimlik qadriyat xususiyatigagina emas, balki «aksilqadriyat», ya'ni ziyon xususiyatiga ega bo'lishi ham mumkin. Yomonlik, ijtimoiy adolatsizlik, urushlar, jinoyatlar va kasalliklar jamiyat va shaxs uchun ulkan ahamiyatga ega, lekin bu hodisalarni qadriyatlar deb nomlash odat tusini olmagan. Qadriyat tushunchasining yuqorida keltirilgan umumiy tavsifidan kelib chiqib, unga quyidagi ta'rifni berish mumkin: «Qadriyat – bu borliq rang-barang elementlarining ob'ektiv ahamiyati bo'lib, ularning mazmuni jamiyat sub'ektlarining ehtiyojlari va manfaatlari bilan belgilanadi».

Baholash. Aksiologiyaning asosiy kategoriyalari qatoriga qadriyat bilan bir qatorda hajman juda keng tushuncha – «baholash» ham kiradi. Baholash – buyumning inson faoliyati, uning ehtiyojlarini qondirish uchun ahamiyatini anglab etish vositasi. Baholash sub'ektning o'z hayoti va faoliyati uchun hodisalarning ijtimoiy ahamiyatini aniqlashidir. U insonga hodisalar dunyosida mo'ljallanish imkonini beradi, uning faoliyatini yo'lga soladi. Baholash universalidir: u sezgilar va aql-idrok darajasida, emotsiyalar va tuyg'ular, tasavvurlar, idroklar, mulohazalar, mayllar, istaklar, intilishlar, afzalliklar va albatta, faoliyat ko'rinishida ro'yobga chiqib, inson hayot faoliyatining barcha turlariga ta'sir ko'rsatadi.

Baholashning mohiyatini teranroq anglab etish uchun uni «qadriyat» bilan solishtirish o'rinli bo'ladi. Baholash va qadriyat – bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan tushunchalar, lekin ularning o'rtasida jiddiy farq ham mavjud. Xo'sh, bu farq nimalarda ko'rinadi?

Birinchi, qadriyat biz baho berayotgan narsa, ya'ni baholash predmeti bo'lsa, baholash – bu baho berish jarayoni, ya'ni aqliy faoliyat bo'lib, uning natijasi o'laroq borliqning muayyan predmeti biz uchun qanday qimmatga ega ekanligi aniqlanadi. Predmetni yoki uning xossasini foydali, yoqimli, yaxshi, chiroyli deb topib, biz baholashni amalga oshiramiz.

Ikkinchi, faqat ijobiy ahamiyat kasb etuvchi qadriyatlardan farqli o'laroq («salbiy qadriyatlar» bo'lishi mumkin emas), berilgan baho ijobiy bo'lishi ham, salbiy bo'lishi ham mumkin. Biz muayyan predmetni yoki uning xossasini foydali emas, balki zararli deb, topishimiz, muayyan xatti-harakatni yomon, axloqqa zid deb, baholashimiz, ko'rilgan filmni mantiqsiz deb, qoralashimiz mumkin. Bunday fikrlarning barchasi baholash hisoblanadi.

Uchinchi, qadriyat amaliy munosabat mahsuli sifatida ob'ektiv hisoblanadi. Baholash esa, sub'ektivdir. U ob'ektiv qadriyatning sifatigagina emas, balki baholovchi sub'ektning ijtimoiy va individual fazilatlariga ham bog'liqdir. Ayni shu sababli, ayni bir hodisa ayni bir davrda yashayotgan odamlar tomonidan turlicha baholanishi mumkin.

Ehtiyojlar va qadriyatlar. Insonga nima muhim? Muhimliklar dunyosi qadriyatlar dunyosi bilan ayniymi? Inson faoliyatining birinchi manbai va harakatlantiruvchi kuchi ehtiyojlardir. Inson ehtiyojlari uning hayotini, xususan jismoniy, aqliy, ma'naviy, ishlab chiqarishga doir, oilaviy hayotni saqlash yoki o'zgartirish zaruriyatining ifodasi sifatida vujudga keladi. Ijobiy yoki salbiy aloqalar va munosabatlarning butun rang-barangligi tegishli ehtiyojlarni u yoki bu tarzda vujudga keltiradi. Inson bu ehtiyojlarni anglashi yoki anglamasligi yoki noto'g'ri anglashi mumkin. Ammo, har qanday sharoitda ehtiyojlar insonni faoliyatga davat etadi. Bu faoliyat samarali yoki samarasiz, puxta o'ylangan yoki spontan va tartibsiz bo'lishi mumkin. Ehtiyojlar tashqi muhit predmetlari va sharoitlariga yoki ichki, ma'naviy uyg'unlikka erishishga muhtojlik sifatida anglanadi. Ular tashqi dunyo bilan muayyan munosabatlarda namoyon bo'lib, ob'ektlarni, o'zlari yo'naltirilgan mavjud borliqni ham, o'z manbai sanalgan sub'ektning muhim xususiyatlarini ham tavsiflaydi. SHaxs faolligining teran asosi sanalgan ehtiyojlar inson faoliyatini ularni ro'yobga chiqarishga yo'naltiruvchi mo'ljallar, mayllar va manfaatlarda o'z rivojini topadi. Aynan ehtiyojlar inson ongining nisbiy mezoni, uning mayllari, manfaatlari, didlari va ideallarining poydevori hisoblanadi. Inson ehtiyojlari o'zgaruvchan, harakatchan, o'zaro bog'langan va bir-birining o'rnini bosishga qodir. Ularning ayrimlari vujudga keladi, ba'zilari yo'q bo'ladi, ayrimlari

7-MAVZU: TARIXIY JARAYONDA JAMIYATNING MADANIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARI. JAMIYAT VA TARIX FALSAFASI

aktuallashadi, ba'zilar ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Inson ehtiyojlari sifat jihatidan cheksiz va kengayishga qodir, zero, ularning shakllanishi individlarning bir-biri va jamiyat bilan ijtimoiy aloqalarining ko'p sonliligi va intensivligini aks ettiradi. Ijtimoiy hayotning, ijtimoiy munosabatlar majmuining murakkablashuvi va differentsiyalanishi, moddiy va ma'naviy hayotning o'z me'yorlari va qadriyatlar bilan rivojlanishi, inson ma'naviy hayotining jo'shqinligi – bularning barchasi uning ehtiyojlari o'zgarishi va rivojlanishini belgilaydi. Garchi, qadriyatlar ehtiyojlar bilan bevosita bog'liq bo'lsa-da, lekin ular bilan uzviy emas. Ehtiyojlar harakatchan, qadriyatlar nisbatan barqarordir; ehtiyojlar ierarxiyaviy bo'lib, ularning ierarxiyasi muntazam ravishda o'zgaradi, qadriyatlar esa nisbatan o'zgarimas va individ tomonidan uning ijtimoiylashuvi jarayonida o'zlashtiriladi. Bu hayotning har qanday sohasida yuz bergan yangiliklarga nisbatan ancha keng tarqalgan muxolifatni izohlaydi. Masalan, rim imperatorlari xristian dinining qimmatini tan olgunlariga qadar xristianlar asrlar mobaynida quvg'in qilinganlar. Belorusiyalik mashhur rassom Mark SHagalning o'ziga xos ijodi, garchi butun dunyoda yuksak baholangan bo'lsa-da, o'z vatanida hanuzgacha tan olinmagan va uncha ma'lum emas. Sezann ijodi rassomning o'limidan keyingina tan olingan, uning tiriklik paytida esa mazkur buyuk musavvirning asarlari Parijdagi zamonaviy san'at ko'rgazmalarida biror marta ham namoyish etilmagan, chunki nufuzli hay'at uning asarlarini diqqatga sazovor deb hisoblamagan va shu kabilar. Ayni hol shu bilan izohlanadiki, ehtiyojlar anglanishi yoki anglanmasligi yoinki noto'g'ri anglanishi mumkin. SHu sababli amalda muhim hodisalar qadriyatlar sifatida idrok etilmasligi, amalda qimmatga ega bo'lmagan narsa esa, yanglish tarzda qadriyat sifatida tasavvur qilinishi mumkin.

Jamiyat va inson hayotida qadriyatlarning roli. Ularni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

1. Inson va jamiyat uchun ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar. Bu shunday qadriyatlarki, ularsiz jamiyat va insonning normal faoliyati izdan chiqmaydi.
2. Kundalik hayot va ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar. Bu guruhga aksariyat moddiy va ma'naviy qadriyatlar kiradi. Bular insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, jamiyatning normal faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan qadriyatlardir.
3. Oliy qadriyatlar – bu o'z ahamiyatiga ko'ra eng yuksak darajada turuvchi, odamlarning fundamental munosabatlari va ehtiyojlarini aks ettiruvchi qadriyatlardir. Oliy qadriyatlarsiz nafaqat inson shaxs sifatida kamol topa olmaydi, balki jamiyat ham normal hayot kechira olmaydi. Oliy qadriyatlarning mavjudligi doimo individning shaxsiy hayoti chegarasidan chetga chiqish bilan bog'liq. Ular individni uning o'zidan yuksak bo'lgan, uning hayotini belgilaydigan, uning taqdiri uzviy bog'liq bo'lgan narsalar bilan oshno etadi. Ayni shu sababli oliy qadriyatlar odatda umuminsoniy xususiyat kasb etadi.

Insonning o'zi qadriyat hisoblanadimi, degan savolning ikki tomoni bor 1) inson uchun boshqa odamning va umuman insonning qimmati nimada? 2) uning o'z hayotining qimmati nima bilan o'lchanadi? Tafsilotlarga berilmay shuni qayd etamizki, bu savollarga javoblar aniq va uzil-kesil bo'lishi mumkin emas. Gap shundaki, individning boshqa odamlarga qiziqishi odamlar qandayligigagina emas, balki uning o'zi qandayligiga ham bog'liq bo'ladi. Bunga yana shuni qo'shimcha qilish joizki, inson hayotining va insonning qimmati to'g'risidagi masalaning qo'yilishi tarixiy sharoitlar bilan bevosita bog'liq. Masalan, O'rta asrlarda feodal o'z krepostnoyini o'ldirishi jinoyat hisoblanmagan va jazoga tortilmagan. Hozirgi vaqtda har bir kishining yashash huquqi tan olingan va odam o'ldirish u yoki bu tarzda jazolanmaydigan mamlakat mavjud emas. Xullas, inson – alohida, mutlaq qadriyat. Qolgan barcha qadriyatlar inson manfaatlarini nuqtai nazaridan baholanadi. Har bir shaxs hayotda ma'lum bir maqsadni ko'zlab harakat qiladi. Biroq uning maqsadi ma'no va mazmuni jihatdan har xil bo'lishi mumkin.

Qadriyatlar ierarxiyasi. Qadriyatlar shaxs va jamiyat ehtiyojlari, manfaatlarini bilan belgilangani bois, ular murakkab tuzilishga va alohida ierarxiyaga ega bo'ladi. Qadriyatlar ierarxiyasi zamirida

7-MAVZU: TARIXIY JARAYONDA JAMIYATNING MADANIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARI. JAMIYAT VA TARIX FALSAFASI

tirik mavjudot sifatidagi inson hayoti uchun zarur bo'lgan fundamental qadriyatlar (tabiiy boyliklar, moddiy yashash sharoitlari – turar joy, oziq-ovqat mahsulotlari, sog'liqni saqlash va sh.k.) va insonning ijtimoiy mohiyatiga, uning ma'naviy tabiatiga bog'liq bo'lgan oliy qadriyatlar yotadi. Birinchi guruhga moddiy (utilitar) qadriyatlar, ikkinchi guruhga esa ma'naviy qadriyatlar kiradi. qadriyatlarning birinchi guruhi insondan tashqarida yotuvchi maqsad bilan belgilanadi, ikkinchi guruh ichki asosga ega. Moddiy, utilitar qadriyat vositaning qimmatidir, zero, narsaning foydaliligi u nimaga xizmat qilishga mo'ljallangan bo'lsa, shu vazifa bilan belgilanadi. O'z vazifasini bajargach, bu narsa qadriyat sifatida o'z ahamiyatini yo'qotadi. Moddiy, utilitar qadriyatdan farqli o'laroq, ma'naviy qadriyat o'ziga to'q xusu- siyat kasb etadi va o'zidan tashqarida yotuvchi motivlarga muhtoj bo'lmaydi. Utilitar pragmatik qadriyatlar faoliyat maqsadini belgilasa, ma'naviy qadriyatlar inson faoliyatining mazmunini belgilaydi.

SHunga mos ravishda shaxsning ma'naviy dunyosi ham o'z ierarxiyasiga ega bo'ladi. Inson ma'naviyati uchta: ma'rifiy, axloqiy va estetik asoslarni o'z ichiga oladi. Ularga ma'naviy ijodkorlarning uch tipi: donishmand (biluvchi), taqvodor (avliyo) va san'atkor mos keladi. Bu asoslarning o'zagi ma'naviyatdir. Bilim bizga haqiqatning tagiga etish uchun imkoniyat yaratib, to'g'ri yo'l ko'rsatsa, axloqiy va estetik asos insonning o'z egoistik «Meni» chegarasidan chetga chiqib, ezigulik urug'ini sochish qobiliyati va ehtiyojini nazarda tutadi. Ma'naviy qadriyatlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular noutilitar va noinstrumental xususiyat kasb etadi: ular boshqa biror narsaga xizmat qilmaydi, aksincha, boshqa barcha narsalar ularga bo'ysunadi va oliy qadriyatlar bilan bog'liq holdagina muayyan mazmun kasb etadi. Oliy qadriyatlarning yana bir xususiyati shundan iboratki, ular muayyan xalq madaniyatining o'zagi hisoblanadi. Madaniyatda odamlarning fundamental umuminsoniy qadriyatlari: tinchlik, salomatlik va insoniyat hayoti mujassamlashadi. Madaniyatda muloqot qadriyatlari (do'stlik, mehribonlik, ishonch, oila), turmush tarzi qadriyatlari (ijtimoiy adolat, erkinlik, inson huquqlari va shu kabilar haqidagi tasavvurlar) o'z ifodasini topadi. Oliy qadriyatlar yo'l tanlash vaziyatlarining cheksiz to'plamida ro'yobga chiqadi.

SHunday qilib, qadriyatlar tushunchasi shaxsning ma'naviy dunyosi bilan uzviy bog'liq. **Aqlidrok, oqilonalik, bilimlar** insonning maqsadga muvofiq faoliyatini belgilovchi ongning eng muhim elementlari hisoblansa, ular negizida shakllanuvchi ma'naviyat o'z hayot yo'lini, o'z faoliyatining maqsadlari va mazmuni hamda ularga erishish vositalarini tanlash to'g'risidagi masalani u yoki bu tarzda echayotgan inson hayotining mazmuni bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar qatoriga kiradi.

Xulosalar. Qadriyatlar inson va jamiyat hayotida o'z holicha emas, balki vujudga kelgan qadriyatlarga munosabatlar tizimi zaminida muhim o'rin egallaydi. Qadriyatlarning butun rangbarangligini uch asos: ijtimoiy hayot sohalariga, sub'ektlarga, qadriyatlarning jamiyat hayotidagi roliga ko'ra tasniflash mumkin. Quyidagilar inson uchun eng oliy qadriyat hisoblanadi: qadriyat sifatidagi hayot, qadriyat sifatidagi sog'liq va qadriyat sifatidagi erkinlik.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.:“O'zbekiston”, 2014. 24 b
2. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947sonli Farmoni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.

**7-MAVZU: TARIXIY JARAYONDA JAMIYATNING MADANIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARI.
JAMIYAT VA TARIX FALSAFASI**

5. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-24 jildlar.- T.: O'zbekiston 1996-2016.
6. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. 2 nashr –T.:Ma'naviyat, 2016 176-b.
7. Falsafa. Axmedova M. Tahriri ostida. – T.: O'FMJ, 2006. 339 b.
8. Shermuxamedova N.A. Falsafa. – T.: Noshir, 2012. 1214 b.
9. Falsafa asoslari. Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: «SHarq», 2005 y.

8-MAVZU. FALSAFIY ANTROPOLOGIYA (INSON FALSAFASI)

REJA:

1. Sharq va G'arb falsafasida inson muammosi.
2. Falsafiy antropologiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishi, predmeti va vazifalari.
3. Insonga introvertiv va ekstrovertiv yondashuvlar, biologizatorlik va sotsiologizatorlik konsepsiyalari.
4. Hayotning mazmuni va unda insonning vazifasi.
5. Inson borlig'ida o'zlikni anglashning namoyon bo'lishi.

Tayanch tushunchalar: Inson, shaxs, individ, antropologiya, inson — biologik mavjudot, inson — ijtimoiy mavjudot, inson faolligi, inson qadri, introvertiv, ekstrovertiv, inson ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadi, ideallari, inson huquqi, barkamol inson, praksiologiya, faoliyatning atributlari.

Inson falsafiy muammo sifatida. Falsafa tarixida insonga murojaat etmagan, inson moddiy va ma'naviy borlig'ining turli tomonlarini bevosita yoki bilvosita tahlil qilmagan faylasuf yoki falsafiy yo'nalishni topish deyarli mumkin emas. Aksariyat falsafiy va diniy tizimlar, katta olam yoki makrokosmga zid o'laroq, insonga mikrokosm yoki kichik Koinot sifatida qarab, uni butun olamni tushunish kaliti, deb hisoblaganlar. Faylasuflar inson sirining tagiga etish borliq jumbog'ining tagiga etish bilan barobar ekanligini qayta-qayta anglab etganlar. Zero, Forobiy aytganidek, «Odamlar o'zlarining xos xususiyatlariga va tabiiy ehtiyojlariga ko'ra jamiyat tuzadilar. Ularning harakat va fe'llarini dastavval bora-bora odatlarga aylanadigan tabiiy qobiliyatlar belgilaydi»³⁰. O'z-o'zingni angla va shu orqali dunyoni anglaysan. Dunyoni insonning teran qatlamlariga kirmasdan, sirtidan bilishga bo'lgan barcha urinishlar, narsalar haqida faqat yuzaki tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Insondan sirtga qarab harakat qiladigan bo'lsak, narsalar mohiyatini hech anglay olmaymiz, zero, bu mohiyat insonning o'zida mujassamlashgan. Bu fikr qadimgi mutafakkirlargayoq yaxshi ma'lum bo'lgan. Unga turli ko'rinishlarda Sharqda ham, Yunon-rim falsafiy an'anasida ham duch kelish mumkin. Xususan, antik davrda Delfidagi Apollon ibodatxonasiga kiraverishda ustunga o'yib yozilgan, rivoyatlarga qaraganda, Suqrot takrorlashni yaxshi ko'rgan «O'z-o'zingni angla», degan ibora, ayniqsa, mashhur bo'lgan. Ajablanarlisi shundaki, oradan ikki yarim ming yil vaqt o'tgach, hozir ham bu fikr o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. U nafaqat narsalar dunyosini, balki inson borlig'ining mohiyatini, inson va ijtimoiy munosabatlarning asl tabiatini tushunishga harakat qilayotgan har bir odam uchun o'z-o'zini anglashga chorlovchi fikr bo'lib qolmoqda. Buni faqat shu bilan izohlash mumkinki, ayni holda har bir yangi avlod o'z davri hamda tabiiy-ilmiy va falsafiy tasavvurlarning tegishli darajasi nuqtai nazaridan echishga harakat qiladigan o'ta murakkab, «boqiy» falsafiy masala lardan biri to'g'risida so'z yuritiladi. Tarixga boshqa ko'p sonli iboralar ham ma'lum bo'lib, ular vaqt, madaniyat va diniy e'tiqoddan qat'i nazar, inson barcha zamonlarda butun dunyo mutafakkirlarining diqqat markazida bo'lgani va hozir ham shunday ekanligi, tayanch nuqtasi va hatto bilish mezoni bo'lib xizmat qilishidan dalolat beradi. Xususan, qadimgi xitoy faylasufi Lao Szi fikriga ko'ra, «boshqalarni biluvchi —oqil, o'zini biluvchi —donishmanddir». Protagorning: «Inson barcha narsalar mezonidir», degan fikri ham juda mashhur. «Tangri saltanati bizning ichimizdadir», deb o'rgatgan Iso Masih. Buddaviylarning: «O'zligingga nazar tashla, sen Buddasan», degan chorlovi ham yuqoridagi fikr bilan hamohangdir. Islomda «Kimki o'zini bilsa, u Allohni ham bilgaydir», deyiladi. Demak, inson o'zini dunyodan oldinroq va ko'proq biladi, ayni shu sababli, u dunyoni o'zidan keyin va o'zi orqali anglab etadi. Falsafa dunyoni inson orqali

³⁰ Ал-Фараби. Философия политики. —М.: 1989 г. с. 529.

ichdan bilishdir, fan esa insondan tashqaridagi dunyoni yuzaki bilish demakdir. Insonda mutlaq borliq, insondan tashqarida esa – nisbiy borliq namoyon bo‘ladi.

Darhaqiqat, antik davrdan boshlab insonga bo‘lgan qiziqish dam kuchayib, dam ma’lum vaqt pasayib turgan, lekin hech qachon yo‘qolmagan. «Inson nima», degan savol bugungi kunda ham avvalgidek jahon falsafasidagi o‘ta muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda, insoniyatning eng o‘tkir aql-zakovat sohiblari e’tiboridan tushmay va ayni vaqtda, o‘zining uzil-kesil, umumiy e’tirof etilgan echimini topmay kelmoqda. Inson har safar mutafakkirlar diqqat markazidan o‘rin olar ekan, uning mohiyatini yangi tarixiy sharoitda va yangicha nuqtai nazardan anglab etishga harakat qilib, uni qayta va qayta yangidan kashf etganlar. Pirovardida, falsafa fanida insondan murakkabroq va ziddiyatliroq predmet yo‘q, desak, hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Inson barcha yaxshi fazilatlarini o‘zida mujassamlashtirgan o‘ziga xos, betakror va barkamol mavjudot – cheksiz mikrokosm sifatida ham, inson tabiatining norasoligi va buzugligi tufayli halokatga mahkum bo‘lgan tabiat xatosi sifatida ham, Xudo yaratgan banda sifatida ham, boshqa odamlar faoliyatining mahsuli sifatida ham talqin qilinadi. Xususan, Sharq mutafakkiri Beruniy jahon fanida birinchi marta inson va tabiat, odam va olam o‘rtasidagi munosabatlarni dunyoviy fan nuqtai nazaridan o‘rganadi. U, «odamlar tuzilishining rang, surat, tabiat va axloqda turlicha bo‘lishi faqatgina nasablarining turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va erning, odam yashaydigan joylarning turlichaligi hamdir. Tillarning turlicha bo‘lishiga sabab, odamlarning guruhlariga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli xohishlarni ifodalash uchun zarur bo‘lgan so‘zlarga ehtiyoj tug‘ilishidir. Uzoq zamonlar o‘tishi bilan bu iboralar ko‘payib, yodda saqlangan va takrorlanish natijasida tarkib topib, tartibga tushgan»³¹, deb hisoblaydi. Demak, Beruniy fikricha, insonning fe‘l-atvori va ma’naviy qarashlari, surati va siyrati bevosita tabiiy muhit ta’sirida shakllanadi. Zero, aynan shu tabiiy muhit, geografik sharoit xalqlar, millatlar shakllanishining muhim asosi bo‘la oladi. «Inson o‘z tabiatiga ko‘ra murakkab tanaga egadir. Insonning tanasi bir-biriga qarama-qarshi qismlardan iborat bo‘lib, bu qismlar tobeklik kuchi asosida birlashgan». Beruniy fikricha, hamma odamlarda o‘zaro bir-biriga o‘xshash va ayni paytda farq qilib turadigan jihatlar mavjud. Ibn Sino, «Inson boshqa barcha hayvonot olamidan so‘zi, tili va aqli, tafakkur qilishi bilan farq qiladi. Inson aqli turli fanlarni o‘rganish yordamida boyiydi»³², deb hisoblaydi. Forobiy fikricha, inson o‘z tabiatiga ko‘ra hayotini tartibga keltirish, mustahkamlash va takomillashtirish uchun boshqa insonlarga muhtoj bo‘ladi. Yakka holda hech kim buning uddasidan chiqa olmaydi. «Inson shunday maxluqotki, u faqat jamiyatda o‘z ehtiyojlarini qondirishi va oliy ma’naviy darajaga ko‘tarilishi mumkin»³³. Inson o‘z hayotining me’mori, ijodkori bo‘lmog‘i, o‘zida fozila xislatlar, iste’dodlarni tarbiyalashi lozim. Bunga esa, u jamiyatda yashab faoliyat ko‘rsatgandagina erishadi. Inson ijtimoiy mavjudot. Yolg‘izlik, uzlat uni qashshoqlashtiradi, insoniy qiyofasini va baxtga olib boradigan iste’dodini yo‘qotadi. Ibn Xaldun insonga ijtimoiy voqelik sifatida qaraydi. Undan ijtimoiy mohiyat izlaydi. Inson jonzot sifatida ezgulik va yovuzlik olamidir. SHunga ko‘ra, u umrining har daqiqasida yovuzlikdan ko‘ra ezgulikka, yomonlikdan ko‘ra yaxshilikka, nafratdan ko‘ra muhabbatga intilib yashashga mahkum etilgan aql sohibi, bebaho ne‘matdir. Inson barcha ijtimoiy munosabatlar majmuidir, degan fikr insonga mexanistik nuqtai nazardan yondashgan Ma’rifat davri mutafakkirlari, xususan, «Inson–mashina» deb nomlangan asar muallifi fransuz J.Lametri (1709–1751) ilgari surgan g‘oyalar bilan to‘qnashadi. Boshqa bir mashhur fransuz faylasufi R.Dekart (1596–1650) asarlarida inson mohiyati masalasiga nisbatan butunlay o‘zgacha yondashuvga duch kelamiz. U «Inson fikrlovchi narsadir», deb hisoblaydi. «Inson, u uzoq vaqt o‘ylaganidek, dunyoning statik markazi emas, balki evolyusiyaning o‘ziga va cho‘qqisi bo‘lib, bu ancha go‘zalroqdir», deb qayd etadi atoqli fransuz faylasufi va teolog P.T. de Sharden (1881–1955). Unga zid o‘laroq, A.Shopengauer (1788–1860)

³¹ Beruniy Abu Rayhon. Tanlangan asarlar. 1-jild. –T.: «Fan», 1968 y. 16–17-b.

³² Ибн Сина. Данишнамэ. Душанбе. 1957 г. с. 59.

³³ Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi nashriyot, 2016 y. 69-b

inson nuqsonli mavjudot ekanligini ta'kidlaydi, uni «tabiat xalturasi», deb ataydi. Fransuz yozuvchisi va faylasufi J.P.Sartr (1905–1980) bu fikrni butunlay rad etadi. Uning fikricha, inson kelajakka qarab intiladi va shu tariqa o'zini o'zi yaratadi. U «Inson – odamzod kelajagidir», deb ta'kidlaydi. Shunday qilib, falsafaning ikki yarim ming yillik tarixi mobaynida insonga juda ko'p ta'riflar va tavsiflar berildi, u ko'p sonli sinonimlar orttirdiki, falsafiy tahlilning boshqa biron-bir ob'ektida bunday holga duch kelish mushkul. Zero, falsafa tarixida inson:

- «aqli mavjudot»;
- «siyosiy hayvon»;
- «tabiat gultoji»;
- «hayotning boshi berk ko'chasi»;
- «hayotning soxta qadami»;
- «mehnat qurollari yasovchi hayvon»;
- «o'zlikni anglash qobiliyatiga ega mavjudot»;
- «ma'naviy va erkin mavjudot» va hokazolar sifatida talqin qilingan.

Inson qaerdan va qanday paydo bo'lgani haqidagi ko'p sonli g'oyalar orasidan eng muhimlarini ajratib olsak, ularning barchasini ma'lum darajada shartlilik bilan ikki asosiy konsepsiya – *insonning tabiiy va g'ayritabiiy kelib chiqishi haqidagi konsepsiyalar* doirasida birlashtirish mumkin.

Insonning kelib chiqishi haqidagi birinchi yondashuv insonning paydo bo'lishiga olib kelgan tabiatning qonuniy rivojlanishi g'oyasidan kelib chiqadi. Bunda inson jonsiz, keyinchalik esa – jonli moddaning tabiiy evolyusiyasi mahsuli sifatida qaraladi. Mazkur konsepsiya, 1859 yilda, inson kelib chiqishining tabiiy-ilmiy talqiniga asos bo'lgan, CH.Darvinning «Hayvon va o'simlik turlarining kelib chiqishi haqida» deb nomlangan mashhur asarini e'lon qilgan evolyusion nazariyasiga tayanadi va hozirgi vaqtda molekulyar biologiya va gen injeneriyasi sohasida erishilgan eng so'nggi yutuqlar ta'sirida o'z shakl-shamoyilini sezilarli darajada o'zgartirib, aksariyat olimlar uchun ularning ilmiy faoliyatida o'ziga xos dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. Ikkinchi yondashuv insonga, Xudo yoki kosmik Aql mehnatining mahsuli sifatida qarab, uni g'ayritabiiy asosdan keltirib chiqaradi.

Sharq va G'arb falsafasida inson muammosi

O'rta asr insoniyat bosib o'tgan tarixiy taraqqiyot jarayonining eng uzoq davom etgan bosqichidir. O'rta asr falsafasining shakllanish jarayoni Evropada xristian dinining vujudga kelishi va uning tarqalishi bilan bog'liq bo'lsa, Osiyo, Afrika mamlakatlarida, xususan Markaziy Osiyoda islom dinining kirib kelishi va uning rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Xristian dini eramizning I-II asrlarida Rim imperiyasining Sharqiy viloyati Falastinda paydo bo'lib, O'rta yer dengizi atrofiga yoyildi. Islom dini eramizni VII-VIII asrlarida uchta qit'a (Afrika, Osiyo va Evropa)ni qamrab oldi. Antik dunyoda ko'p xudolilik dinlari hukmron bo'lgan bo'lsa, o'rta asrlarga kelib yakka xudolilik dinlari hukmron bo'lib oldi. Shuning uchun o'rta asr falsafasining ildizlari iudaizm, xristianlik va islom dinlariga borib taqaladi. Xristian falsafasi insonda xudoga o'xshash fazilatlar, xislatlar mavjud ekanligini birinchilardan bo'lib isbotlashga harakat qildi. Xususan, xristian cherkovining buyuk namoyondalaridan biri Grigoriy Niskiyning tushuntirishicha, xudo podshohdir, butun koinotning jamiki mavjudotning egasidir. Xudoning insonni yaratishdan muddaosi, uni butun olamning xo'jayini, chinakam podshoh qilish edi. Xristianlik dinigacha hech qaerda, hech qachon xudo bilan inson qiyofasi bir-biriga o'xshaydi deb tasvirlanmagan. Bu ikki asos: inson va xudo, hech qachon bir-birlari bilan qo'shilib ketmagan edi. Xristianlik dini o'zining transsendental xususiyatiga ko'ra, xudo bilan koinotga hukmronlik da'vosini qildi. Xuddi o'sha hukmdor xudoni inson tanasiga o'rnashib olishi ajablanarli holat edi. Xristianlik ta'limotiga ko'ra, jon tanadan tashqarida yashay olmaydi degan aqida o'rta asr xristian falsafasida, jon va tana muammosining asosini tashkil etadi. Inson to'g'risida ta'limot yaratishga uringan o'rta asr xristian faylasuflaridan biri Origendir. Uning fikricha, inson degan tirik mavjudot jon, qalb va tanadan

iborat. Inson joni o'ziga bog'liq emas, chunki u xudo tomonidan in'om etiladi. O'rta asr xristian falsafasi qadimgi Yunon antropologiyasiga xos antik ratsionalizmni qayta ko'rib chiqdi. Qadimgi Yunon antropologiyasining butun diqqat e'tibori, inson axloqi, bilimni ulug'lashga qaratilgan bo'lsa, o'rta asr falsafasida esa, eng muhim insoniy fazilat, e'tiqod, ishonchga asoslangan inson erki hisoblanadi. Ya'ni, o'rta asr sharoitida insonning aql-idroki o'rniga, erki e'zozlandi. Inson ichki olamini har tomonlama o'rgangan mashhur xristian faylasufi Avgustinning tushuntirishicha, inson yaxshilikni biladi, biroq undagi erk o'ziga bo'ysunmaydi, oqibatida u qilishi kerak bo'lmagan narsalarni qiladi. Uningcha, Xristianlikka qadar bo'lgan falsafiy ta'limotlarning hammasiga bir illat, bid'at yuqqan; ularning hammasi ham tafakkurni insonning eng oliy kuchqudrati deb ko'klarga ko'tarib kelgan. Aqlning o'zi ham dunyodagi eng shubhali va noaniq narsa bo'lib, vahiy kelmaguncha bizni noma'lumlikdan yorug'lik tomon olib chiqa olmaydi³⁴. O'rta asr falsafiy fikr-mulohazalarida insonning oliy voqelikka munosabati ham o'zgacha bo'ldi. Antik falsafa ta'kidlaganidek, har bir kishining shaxsi, xudosi, o'ziga nisbatan bo'ladigan barcha munosabatlarni ham belgilab berar edi. Xuddi shu joydan – insonning ichki olamida bo'ladigan o'zgarishlarni bilishga qadam qo'yilardi. Birdamlikda inson ichki olamini o'rganishga bo'lgan qiziqish, xatto stoiklar zamonasiga qaraganda ham ortib ketgan edi. Insonning ma'naviy dunyosi, uning ruhiy olamining shakllanish jarayoni muammolari, o'rta asrning mashhur xristian faylasuflaridan biri, sxolastikaning yirik namoyandasi Foma Akvinskiyning ham diqqat markazida bo'ldi. Foma Akvinskiy jamiyat a'zolarining ma'naviy va ijtimoiy muammolari haqida bosh qotiradi. Ushbu muammolarni Yunon faylasuflariga o'xshab jamiyat va davlat doirasida o'rganadi. Uning fikriga muvofiq, davlat barchaning farovonligi haqida qayg'urish uchun yashamog'i darkor. Lekin u jamiyatda mavjud bo'lgan turli tabaqaga mansub kishilarning teng bo'lishiga mutlaqo qarshi edi. Hamma xudoga bo'ysunishi, barcha xristianlar orzu qilgan ezgulikning asosini tashkil etmog'i lozim, degan fikrlar olg'a surildi.

Sharq falsafasida inson muammosi. Inson borlig'i haqidagi dastlabki tasavvurlar qadimgi Sharq mamlakatlari, ayniqsa Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyo xalqlari tomonidan yaratilib, miflar, ertaklar, dostonlar, qo'shiqlarda o'z ifodasini topgan. Odamlar o'zlari yashab turgan atrofmuhitda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni turli Xudolar ramzida ifodalashgan. Odamlar va Xudolarning turmush tarzlari bir xil, hatto ular bir xil xislatlar, fazilatlar va bir xil nuqsonlarga ega bo'lganlar. Lekin Xudolar qudratli, kuchli, salobatli, hamma narsaga qodir, deb ta'riflangan. Asta-sekin o'sha qudratlilik, yaratuvchanlik, buyuklik, barcha ishlarni uddasidan chiqa olish salohiyati odam, tirik mavjudot tomon og'a boshlagan. Odam hamma narsaga qodir bo'lgan. Dastlabki inson obrazini qadimgi Hind Vedalarida tasvirlangan Purusha misolida ko'rishimiz mumkin. Eramizdan avvalgi XII-VII asrlarda yaratilgan Hind Vedalarida 4 asosiy kitob Rigveda, Atxarvaveda, Samoveda, Yajurveda, ya'ni diniy bilimlar, gimnlar, qo'shiqlar, to'plamlarida insonning qiyofasi haqidagi dastlabki fikr-mulohazalarni uchratish mumkin. Lekin bu erda inson va uni yashaydigan joyi bo'lgan jamiyat haqidagi qarashlar mifologik xarakterga ega. Vedalarda yozilishicha, bir butun yaxlit borliqning ayrim xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan inson ikki yirik mohiyat: tana bilan jonning qorishmasidan iborat. Tana bilan jon esa, hamisha o'zaro aloqadorlikda, biri ikkinchisi bilan bog'liq. Qadimgi Hind vedalarida aytilishicha, olam bir butun, tirik mavjudotlarning hammasi o'sha butunning ajralmas zarralaridir. Odam esa o'sha tirik zotlarning o'ziga xos shakli, ko'rinishidir. Hozirgi odamzot tanasining shakli, jonining bir shakli tanadan boshqa shakl tanaga sonsanoqsiz marta kuchib o'tishlari natijasida sodir bo'lgan. Hind falsafasida axloqiy hatti-harakatlar o'zgarishlar zanjiri, hayotning «aylanishi»ga kiritilgan: ..qayta tirilish – hayot – o'lim – qayta tirilish – hayot – o'lim... (sansara). Shunday qilib, renkarnatsiya g'oyasi – bu spetsifik hindcha fenomendir. Buddani to'rt oliy xaqiqati shu tinimsiz tug'ilishdan qutilishdan iboratdir. 1. Dunyo azob-uqubatlarga to'lib ketgan. Tug'ilish – azob, qarilik – azob, kasallik va o'lim – azob. O'zing yomon ko'radigan odam bilan uchrashish – azob, sevimli kishidan judo

³⁴ Qahhorova Sh. Global ma'naviyat – globalashuvning g'oyaviy asosi. Тошкент: “Тафаккур” 2009, 338 b

bo‘lish – azob, xohlagan narsani qondirish uchun kurashish – azob. Aslida xohish-istaklar va ehtiroslardan ozod bo‘lmagan hayot har doim azob keltiradi. Bu – azob haqidagi haqiqatdir. 2. YAshashga nisbatan kuchli irodaga asoslangan xohish, agar hatto uning izlaydigan narsasi ba‘zan o‘lim bilan tugasada, o‘zi xohlagan narsani izlaydi. Bu – azoblarning sababi haqidagi haqiqatdir. 3. Agar insonning barcha ehtirosi negizida yotgan xohish bartaraf etilishi mumkin bo‘lsa, unda ehtiros o‘ladi va odamning azoblari nihoyasiga etadi. Bu – azoblarning to‘xtatilishi haqidagi haqiqatdir. 4. Xohish-istaklar va azoblar bo‘lmaydigan holatga (nirvanaga) erishish uchun, to‘g‘ri tafakkur, to‘g‘ri fe‘l-atvor, to‘g‘ri turmush tarzi, kuchg‘ayratga erishish zarur. Bu – azoblarning sababidan xalos bo‘lish haqidagi haqiqatdir. Inson va jamiyat haqidagi dastlabki fikr-mulohazalarni qadimgi Xitoy afsonalarida ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Chunonchi, dastlabki inson Odam Ato Pango qiyofasida namoyon bo‘ladi. Eramizdan avvalgi XII asrda mavjud bo‘lgan CHjou davlatida dastlabki inson Odam Ato Pango yashagan ekan. Uning tanasidan tabiatning turli hodisalari kelib chiqqan ekan. Cheksiz bo‘shliqlardan iborat bo‘lgan olam uning qudratli zarbasidan er va osmonga bo‘linib ketgan. O‘zining sehrli kuch qudrati bilan olamda tartib-intizom o‘rnatgan Odam Ato Pangodan odamzot bir umrga qarzdor emish. Inson to‘g‘risidagi mifologik-diniy qarashlar o‘rnini asta-sekin falsafiy qarashlar egallay boshladi. Inson haqidagi dastlabki falsafiy qarashlar Qadimgi Xitoyda eramizdan avvalgi VIII-VI asrlarda vujudga kelgan. Bu davrga kelib, qadimiy Chjou davlatida ijtimoiy munosabatlar keskinlashib ketdi. Ziddiyatlarning keskinlashib borishi o‘sha zamonning ijtimoiy tafakkurida ham o‘z ifodasini topdi. Qadimgi Xitoy faylasuflari fuqarolarning baxtini osmondan emas, balki ular yashayotgan ijtimoiy muhitdan izlay boshladilar. Inson yashayotgan tabiiy-ijtimoiy muhit o‘zgarishi bilan, uning o‘zi ham o‘zgarib borishi haqidagi fikr mulohazalar eramizdan avvalgi VI asrda vujudga kelgan daosizm ta‘limotida olg‘a surilgan. Odam degan tirik mavjudotning paydo bo‘lishi sabablari, tabiati, olamdagi o‘rnini aniqlashda, odamning inson darajasiga ko‘tarilishida tarbiyaning ahamiyati haqida, jamiyatda mavjud bo‘lgan axloqiy, huquqiy normalarni tushuntirib berishda Xitoyda keng tarqalgan Konfutsiy ta‘limotining ahamiyati katta bo‘lgan. Konfutsiy ta‘limotiga ko‘ra odamlar bir-birlariga o‘xshab ketadilar lekin ular tarbiyasiga ko‘ra farq qiladilar. Ayniqsa ijtimoiy shart-sharoitlarning o‘zgara borishi inson xulqatvorining o‘zgarib borishiga sabab bo‘lgan. Chunonchi, mutafakkirning e’tirof etishicha, odamlar o‘z tabiatiga ko‘ra bir xil bo‘lib, lekin xulq atvoriga ko‘ra ular bir-biridan yiroqdirlar. Konfutsiy ta‘limotida asosiy axloqiy qonun, asosiy axloqiy tushuncha – jen (insonparvarlik)dir. Lun Yuy (hikmatlar) kitobida shunday deyiladi: “Kimki chin dildan insonni sevishga intilsa, u yovuzlik qilmaydi”, “O‘zingga ravo ko‘rmagan narsani o‘zgaga ham munosib ko‘rma, shunda davlatda ham, oilada ham o‘zingga nisbatan yovlik his qilmaysan”³⁵. Inson va jamiyat haqidagi fikrlarni er. avv. VII-VI asrlarda o‘rta va yaqin SHarq mamlakatlari, xususan Markaziy Osiyoda keng tarqalgan mifologik-diniy, diniy-falsafiy ta‘limotlarda ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Ana shunday ta‘limotlardan biri zardo‘shiylik edi. Zardo‘shiylik ta‘limotining markaziy muammosi odam bilan olam o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik jarayoni tahliliga qaratilganligi edi. Bu ta‘limotga ko‘ra, odam borlig‘i olam borlig‘i bilan bevosita aloqadordir. Ushbu ta‘limotga ko‘ra, butun olam borlig‘i to‘rt unsurdan iborat. Olam borlig‘ining eng murakkab shakllaridan biri bo‘lgan odamning tabiati ham, shubhasiz o‘sha to‘rt unsur bilan bog‘liq bo‘ladi. Zardo‘shiylik diniy-falsafiy qarashlarida ta‘kidlanishicha, inson iymon e’tiqodining uchta yirik tayanchi bo‘ladi: fikrlar sofligi, so‘zdagi sobitlik hamda faoliyatning insonparvarligi, Avestoda yozilishicha, iymon – e’tiqodning mustahkamligini ifodalovchi alomatlar turli – tuman bo‘ladi. Xususan bergan so‘zning ustidan chiqish, unga sodiq qolish, savdosotiqda tuzilgan shartnomalarga qat’iy amal qilish, aldanchilik va hiyonatdan holi bo‘lish iymon-e’tiqodlilik alomatidir. «Avesto»da axloqiy ideal voqelik bilan shunchalik chambarchas bog‘liqki, gap haqiqat yoki yolg‘on, yaxshilik va yomonlik, hayot va o‘lim, go‘zallik va xunuklik haqida boradimi, barchasi hayotiy amallar orqali er yuzida boylik va ezgulik bunyod

³⁵ Konfutsiy. Pand o‘gitlar.// “Sog‘lom avlod uchun” jurnali 1997 y 5-6 sonlar, 5-6 betlar

etishga qaratilgan. «Avestoda «yaxshi» va «yaxshilik» soʻzi bilan ifodalangan axloqiy idealning mohiyati er yuzini saqlash va eʼzozlashga daʼvat etilgan poklanish tushunchasi orqali ifodalanadi»³⁶. Zardushtiylik taʼlimotida jamiyat va insonning hayoti bilan bogʻlangan oʻziga xos ijtimoiy-tarixiy va falsafiy tizim yaratilgan boʻlib, ushbu diniy taʼlimotda suv, tuproq, olov, va havoni ilohiylashtirgan holda ularni eʼzozlash va ezgu fikr, ezgu soʻz va ezgu amal birligida uning ekologik sofligini saqlashni oʻzida ifodalagan. Inson toʻgʻrisidagi diniy-falsafiy qarashlarni Markaziy Osiyoda III asrda keng yoyilgan Moniylik taʼlimotida ham koʻrish mumkin. Moniy (216-277) qarashlari Zardoʻsht qarashlaridan farq qilar edi. Moniy oʻzining axloqiy taʼlimotini yoyish uchun «Xuastuanift» kitobini yozdi. U turk tilida yozilgan iqronomadir. Moniylikni targʻib qiluvchi ushbu kitobdagi maʼlumotlar Avestoda uchraydigan ezgulik va yovuzlik oʻrtasidagi kurashni yangicha davomiy koʻrinishidir. V-VI asrlarda tarqalgan yana bir diniy-falsafiy taʼlimot mazdakiylik edi. Mazdak taʼlimotiga muvofiq olamda boʻlayotgan oʻzgarishlar ongli va maʼlum bir maqsadga qaratilgan boʻlmogʻi lozim. Ayniqsa, insonning ongli faoliyati ezgulik ustidan gʻalaba qiladi. Mazdak qarashlarida jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikka bartaraf etish gʻoyasi markaziy oʻrinlardan birini egallar edi. Uning fikricha, jamiyatda barcha odamlar teng boʻlishi, ular orasidagi sodir boʻladigan turli munosabatlar ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslanishi darkor. U jamiyatda xotin-qizlar va erkaklarni teng huquqliligini talab qilib chiqqan birinchi islohotchi edi. Musulmon faylasuflari ham odam bilan olam orasidagi oʻzaro aloqadorlik muammolarini bilishga intildilar. Odam deb ataluvchi mavjudotni kim yaratgan? Odamlar qanday unsurlardan tashkil topgan. Odamning inson darajasiga koʻtarilishi qanday sodir boʻladi? Insonning jismi bilan uning ruhiyati, maʼnaviyati orasida aloqadorlik mavjudlik kabi savollarga javob topmoqchi boʻldilar. Bu savollarga javobni musulmon faylasuflari Qurʼoni karimdan izlaydilar. Qurʼoni Karimning 7

Aʼraf surasining 11, 12, 15 – Xizr surasining 26 oyatlarida dastlabki odam (Odam Ato) suratini, Olloh qora botqoqdan, yaʼni loydan yasaganligi, keyin unga tiriklik yaʼni jon ato etganligi, Momo Havoni esa Odam Atoning chap biqinidan yaratilganligi habar qilinadi.

Musulmon madaniyati – maʼnaviyatining nazariy-uslubiy asoslarini shubhasiz, islom dinining ikki yirik muqaddas manbasi: Qurʼoni karim va Hadisi sharif tashkil etadi. Musulmon falsafasida hadisshunoslik oʻziga xos oʻrin tutadi. Buyuk hadisshunoslardan Imom Buxoriy 7275 ta sahih hadislarini toʻpladi. Bu hadislarda umuminsoniy axloq toʻgʻrisida batafsil gapiriladi. Buxoriyni shogirdi Iso at Termiziy musulmon hadislarini toʻplashda va uni har tomonlama tahlil etishda oʻta fidoiylilik qildi. Ayniqsa, hadislar toʻgʻriligi, ishonchliligining darajasini aniqlashda oʻz ustozini Imom Buxoriydan ham oʻtib ketdi. Bunday nozik ishni bajarishda, u ichki ezoterik uslubdan foydalandi. Birinchidan, u paygʻambarlar hadislarini vujudga kelishi manbalarini oʻrgandi va uning mazmunini tushuntirib berdi. Ikkinchidan, har bir hadisni islom manbalari nuqtai nazaridan tahlil qildi. At-Termiziy Markaziy Osiyo xalqlarining islomgacha boʻlgan urfodatlarini, rasm-rusumlari, marosimlarini musulmon madaniyati va axloqi qoidalariga moslashtirishda beqiyos ulush qoʻshdi. Musulmon falsafasini yangi ratsional tamoyillar, normalari bilan boyitdi. Ayniqsa, inson maʼnaviy madaniyatini shakllantirishda va uni yanada rivojlantirishda aqliy bilish muhim ahamiyatga ega ekanligini taʼkidlab oʻtgan. Qaerda bilim, ilmga eʼtibor kamaysa, oʻsha erda odamlar axloqan tubanlasha boshlaydilar. Bilimsizlik – xurofotga moyillikni kuchaytirsa, ilm izlamaslik gʻiybatchilikka undaydi va jamiyat maʼnaviy inqirozga yuz tutadi. Odamlar orasidan mehr-oqibat koʻtariladi. Bilimsizlikning dastlabki koʻrinishi, kishining oʻz iffatini yoʻqotishidir, deb tushuntiradi. SHunday qilib, haqiqiy falsafada muayyan masalalar, ayniqsa, inson bilan bogʻliq murakkab masalalar xususida bir xil fikrlash hollari kuzatilmaydi. Bundan farqli oʻlaroq, fanda bir fikrlilik u yoki bu muammoning uzil-kesil echimi topilganidan dalolat beradi. Masalan, «abadiy dvigatel»ni yaratish masalasi xususida olimlar orasida toʻla bir fikrlilik hukm suradi: hozirgi zamon tabiatshunosligi qonunlariga muvofiq bunday dvigatelni yaratish mumkin emas. Ammo fandan farqli oʻlaroq, falsafaning oʻziga xos xususiyati shundan iboratki, u har qanday

³⁶ Махмудова Г.Т. Философская сущность Авесты. –Ташкент: Санъат, 2010. – С.157.

hodisani o'rganish va tushunishda tayaniladigan qadriyatlar va mo'ljallar tizimidan tashkil topadi. Ayni shu sababli bu erda u yoki bu faylasufning dunyoni qanday tushunishi, uning hayotga munosabati, ayniqsa, muhim rol o'ynaydi. U qaysi aksiomalarni ilgari surishi, qaysi ustuvorliklarni qayd etishi, nimani muhim deb hisoblashi, nimaga ishonishi yoki ishonmasligidan faylasufning boshqa narsalarga bo'lgan tegishli munosabati, uning umumiy va xususiy masalalarga doir falsafiy pozitsiyasi kelib chiqadi.

Falsafiy antropologiyaning predmeti va vazifalari. *Falsafiy antropologiya izlanishlarining bosh mo'ljali va o'zagini inson va faqat inson tashkil etadi. SHu ma'noda falsafiy antropologiyani antropotsentristik falsafiy ta'limot deb nomlash mumkin, chunki unda inson atrofida borliqning boshqa barcha muammolari aylanuvchi o'ziga xos «markaziy o'q» hisoblanadi.* Falsafiy antropologiyaning antropotsentrizmi falsafaning tadqiqot markazida inson turishi bilangina emas, balki uning barcha maktablari uchun inson dunyoning markazi hisoblanishi bilan ham belgilanadi. Mazkur yondashuv zamirida antik falsafaning Protogor ta'riflab bergan «Inson hamma narsalar mezonidir», degan tamoyili yotadi. Falsafiy antropologiyaning antropotsentrizmi Evropa madaniyati asoslaridan biri sanalgan xristianlik mafkurasidan ham kelib chiqadi. Aynan xristianlik dunyoviy hayot markaziga insonni qo'yadi, uni Xudo o'ziga o'xshatib yaratgan, degan g'oyani ilgari suradi. Shu nuqtai nazardan xristiancha madaniyat vakilining mentaliteti asosida shakllangan falsafiy antropologiyani sharq falsafiy maktablari bilan taqqoslash o'rinli bo'ladi. Shu narsa diqqatga sazovorki, sharq falsafasida inson hech qachon dunyoning markazi hisoblanmaydi, zero, u tabiatning tarkibiy qismi, uning uzviy elementi, Koinotning ko'p sonli darajalaridan biri sifatida qaraladi. SHarq falsafasida antropotsentrizm yo'q, umuman olganda, falsafiy antropologiya ham mavjud emas. Bu falsafada inson dunyoning tabiiy bir bo'lagi, tabiatning ajralmas elementi hisoblanadi. Tabiatning o'zi esa mukammal bo'lib, inson unga qarshi turmasligi, balki uning izmiga bo'ysunishi lozim. SHunday qilib, ko'pgina faylasuflar tomonidan qo'yilgan «Inson nima», degan savol Evropa falsafiy antropologiyasi uchun uning falsafiy muammolari majmuini belgilovchi bosh masala hisoblanadi (va u falsafiy tafakkurning boshqa yo'nalishlaridan ayni shu jihatdan farq qiladi). Falsafiy antropologiya insonning borlig'i nuqtai nazaridan inson haqidagi ta'limotdir. Inson va uning borlig'i to'g'risidagi mulohazalar muammolarning keng doirasini qamrab oladi. Bularning barchasi antropologizm, ya'ni insonning mohiyati muammolarini izchil o'rganuvchi tadqiqotlarning alohida yo'nalishi – tor ma'nodagi falsafiy antropologiya to'g'risida so'z yuritish imkonini beradi. Keng ma'noda esa, falsafiy antropologiya, shu jumladan, inson, uning tabiat va jamiyatdagi borlig'i haqidagi ta'limotni ham o'z ichiga oluvchi falsafiy qarashlar tizimi sifatida maydonga chiqadi.

Insonga introvertiv va ekstrovertiv yondashuvlar, biologizatorlik va sotsiologizatorlik konsepsiyalari.

Insonni o'rganishga nisbatan «*introvertiv*» va «*ekstrovertiv*» yondashuvlar, ayniqsa, ajralib turadi. *Introvertiv yondashuv insonning ong, jon, ruhiyat, instinktlar, nuqsonlar, fazilatlar kabi muhim xususiyatlarini tahlil etib, uni «ichdan» tushunish, anglab etishni nazarda tutadi.* Bunda insonning jismoniy va ma'naviy mohiyati haqidagi falsafiy mulohazalar aksariyat hollarda tabiiy fanlarning empirik ma'lumotlariga, avvalambor biologiya va psixologiya yutuqlariga tayanadi, lekin, ba'zan mistika, ezoterika, okkultizm bilan belgilanadi. Bunday yondashuvlar, ayniqsa, nemis antropologlari M.S.Heler (1874–1928) va A.Gelen (1904–1976), avstriyalik faylasuf K.Lorens (1903–1989) ijodiga xosdir.

Ekstravertiv yondashuv insonga nazar tashlash, uning mohiyatini tahlil qilish go'yoki «sirtidan» amalga oshiriladiki, buning natijasida diqqat markazidan uning ijtimoiy va tabiiy mohiyati o'rin oladi; tegishli mo'ljallarga muvofiq insonning Xudo, kosmos, universum va shu kabilar bilan aloqasi tahlil qilinadi. Bu erda falsafa ko'pincha tarix, sotsiologiya, ekologiya, teologiya bilan ittifoq tuzadiki, bu hol diniy falsafa vakillari N.A.Berdyayev, S.N.Bulgakov, S.L.Frank,

N.O.Losskiy kabi vakillariga ko'proq xosdir. Shunday qilib, insonni falsafiy tushunish uchun yagona asos mavjud emas.

Biologizatorlik konsepsiyalari. *Biologizatorlik konsepsiyalarining tarafdorlari, insonni uning tabiiy, biologik asosidan kelib chiqib tushuntirishga harakat qiladi.* XVIII asr oxirida jamiyat hayotiga ayrim odamlarning o'z mavjudligi uchun kurash maydoni sifatida qarashni taklif qilgan T.Maltus nazariyasini bunday tushuntirishga bo'lgan birinchi jiddiy urinish, deb hisoblash mumkin. Maltus fikricha, bu kurashda kuchlilar g'olib chiqadi, kuchsizlar esa halok bo'lishga mahkumdur. Mazkur kurashga tabiiy omillar turtki beradi. Xususan, aholi soni geometrik progressiya bo'yicha ko'payib boradi, tirikchilik vositalari taklifi esa, faqat arifmetik progressiya bo'yicha o'sadi, bu esa muqarrar tarzda ocharchilik, epidemiyalar, urushlar va boshqa ijtimoiy tangliklarga olib keladi. Mazkur omillarga Maltus kuchlilarning yashab qolishini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarning «tabiiy», muqarrar va hatto zarur tartibga solish vositalari sifatida qaraydi.

Biologizatorlik yondashuvlari XIX va XX asrlar chegarasida Darvinning tabiiy tanlanish haqidagi ta'limotini mutlaqlashtirib, nafaqat insonning kelib chiqishi, balki uning mohiyatini, pirovard natijada esa – butun ijtimoiy munosabatlar tabiatini tushuntirishga harakat qilgan sotsial-darvinistlarga ham xosdir. Hozirgi vaqtda bu yo'nalishni odamlarga ham, hayvonlarga ham teng darajada xos bo'lgan irsiyatga urg'u beruvchi sotsiobiologiya davom ettirmoqda. Sotsiobiologlar fikriga ko'ra, inson xulq-atvori ham, hayvon xulq-atvori ham irsiy omillar bilan belgilanadi va hech kim o'z irsiyati ta'sirini – u xoh yaxshi bo'lsin, xoh yomon – engishga qodir emas.

Sotsiologizatorlik konsepsiyalari. *Biologizatorlik yondashuviga zid o'laroq, sotsiologizatorlik yondashuvi inson tabiatini ijtimoiy munosabatlarda ko'rishga harakat qiladilar.* Bunda ular ba'zan nafaqat insonning ijtimoiy asosini uning biologik asosiga qarama-qarshi qo'yadilar, balki so'nggi zikr etilgan asosni hayvoniy va hattoki tuban, shu bois jiddiy e'tiborga loyiq emas, deb hisoblaydilar. Asosiy e'tibor ijtimoiy munosabatlar tahliliga va individ, shaxsning shakllanishida jamiyat qanday rol o'ynashini aniqlashga qaratiladi. Pirovardida ijtimoiy asos individual asosga qaraganda ustunroq ahamiyat kasb etadi, uni o'ziga bo'ysundiradi va qamrab oladi. Mazkur yondashuv total ijtimoiy tizimlarga va ularni asoslashga harakat qiluvchi falsafiy ta'limotlarga, xususan, Platon falsafasi, ayniqsa, xosdir. Umuman olganda, bu individualizm va kollektivizm muammosidir.

Hayotning mazmuni va insonning vazifasi. Inson hayotning tezoqarligini yodda tutishi, uning shomini kuzatishi, odamzod hayotining beholigi haqida o'ylashi, o'lim haq ekanligini unutmazligi lozimligi haqidagi fikrlarga biz falsafa fani shakllanish jarayonining ilk bosqichidayoq, G'arb falsafiy an'anasida ham, Sharq falsafasida ham duch kelishimiz mumkin. SHundan beri o'tgan ikki yarim ming yildan ko'proq vaqt mobaynida bu borada deyarli hech qanday o'zgarish yuz bergani yo'q, zero, avvalgidek, odamzodning hayot yo'li tug'ilish vao'lish sanalari bilan chegaralanadi. SHuningdek, birinchi sana doim muayyan, aniq bo'lsa, ikkinchi sana inson umrining oxirgi soniyalarigacha mavhum bo'lib qoladi. Ayni shu sababli hayotning mazmuni muammosi har bir inson qarshisida ertami-kechmi ko'ndalang bo'ladi va u o'ziga aniq va uzil-kesil javob topish mumkin bo'lmagan savollarni beradi. «Bu dunyoda nima uchun yashayapman», deb so'raydi o'zidan inson va agar bu savolga o'zi javob bermasa, o'z hayotiga muayyan mazmun baxsh etmasa, bu ishni uning o'rniga hech kim va hech qachon bajarmasligini vaqto'tishi bilan anglay boshlaydi. Abadiyat qarshisida, o'lim qarshisida har kim, oxir-oqibatda, o'zi bilan o'zi tanho qoladi. Albatta, jamiyatda inson o'zini bu darajada yolg'iz his etmaydi, biroq, ekzistensialistlar fikriga ko'ra, bu hol toki inson boshqalarning ham o'z hayoti borligi va ular ham o'z hayotining mazmuni va o'zining vazifasi haqidagi o'ta shaxsiy muammolarni mustaqil echish zaruriyati qarshisida turganini anglab etgunga qadar davom etadi. Bundan ekzistensializm falsafasida yolg'izlik muammosi kelib chiqadi. Aslida, mazkur muammo falsafiy antropologiyada ham inson borlig'i tahlilidagi bosh muammolardan biri hisoblanadi.

Hayotni tark etish bosqichlari. Biologik mavjudot sifatida har bir inson o'limga mahkumdir. Buni qadimgi mutafakkirlar ham yaxshi tushungan. Xususan, o'z muxoliflaridan birining: «O'ttiz tiran seni o'limga hukm etdi», degan gapiga Suqrot: «Ularni esa, o'limga tabiat hukm etgan», deb javob bergan. Ammo, odamzod ijtimoiy mavjudot sifatida ham o'limga mahkumdir. Hozirgi zamon fanida o'lish jarayonining to'rt bosqichi farqlanadi. Bu bosqichlarga organizmda yuz beradigan va uning qarishini tavsiflaydigan orqaga qaytarib bo'lmaydigan biologik o'zgarishlar sabab bo'ladi. Xususan, 25 yoshdan boshlab va ayniqsa, 45 yoshdan keyin insonda har kuni u tug'ilgan paytga qadar «jamlangan» va boshqa hech qachon yangilanmaydigan o'n minglab nerv hujayra (neyron)lari halok bo'ladi. Ammo bosh miya qobig'ida bunday hujayralar soni 40 milliardga etadi va shu sababli «qariyotgan normal miya uchun bu jiddiy oqibatlariga sabab bo'lmaydi, chunki unda yana o'n milliardlab neyronlar normal faoliyat ko'rsatishda davom etadi»³⁷. Amalda insonning hayotni tark etishi u odamlardan o'zini olib qochib, jamiyatdan uzoqlashishi bilan tavsiflanadigan **ijtimoiy o'lim** yuz berganida boshlanadi. Surunkali giyohvand moddalarini iste'mol qilish, kashandalik, ichki likbozlik, o'z hayotidan doimiy norozilik ijtimoiy o'limni bildiradi. So'ngra **ruhiy** o'lim yuz beradi, bunda inson hayot tugagani va o'limning muqarrar ekanligini va o'z hayoti davomida hech narsaga erisha olmaganini anglaydi. **Miya o'lishi** bilan bosh miya faoliyati butunlay to'xtaydi, organizmning turli funksiyalarini boshqarish barham topadi. Bu jarayon **fiziologik o'lim** bilan yakunlanadi. Bunda insonning uni tirik organizm sifatida tavsiflovchi barcha funksiyalari uzil-kesil to'xtaydi.

Suitsid (lot. sui caedere – o'zini o'ldirish) – maqsadli ravishda o'zini hayotdan mahrum qilish, odatda, ixtiyoriy va mustaqil ravishda o'z joniga qasd qilish. Suitsidga mukammal ta'rifni fransuz sotsiologi Emil Dyurkgeym bergan. Uning talqini bo'yicha, shaxs tomonidan o'zini kutayotgan natija haqida bila turib, sodir qilingan salbiy xatti-harakatning bevosita yoki bilvosita natijasi bo'lmish har bir o'lim holati o'z joniga qasd qilishdir. (Emil Dyurkgeymning 1897 yilda nashr etilgan “Suiqasd” asari suitsidga oid adabiyotning klassik namunasi. Ushbu asarda olim mavjud statistik ma'lumotlarga tayanib suiqasd nafaqat psixologik muammo, balki ijtimoiy ildizga ega xatar ekanligini isbotlagan.). O'z joniga qasd qilish jamiyatda, odamlar orasidagi munosabatlarda inson o'zi echa olmagan yoki odatiy, hammaga ma'qul bo'lgan yo'l orqali echishni istamagan muammolar borligidan, shaxsiy musibat, umidsizlik va tushkunlik bilan bog'liq tashvish mavjudligidan darak beradi. O'z joniga qasd qilishga ko'pincha uzoq davom etadigan kasallik, ba'zan esa nogironlik ham sabab bo'lishi mumkin. Adabiyotlarda uchraydigan suitsidal harakatning 3 turini ko'rib chiqamiz:

- Namoyishkorana (demonstrativ)
- Affektli
- Haqiqiy

Demonstrativ hatti – harakatlar – bu boshqalar uni qutqarishni ko'zlab, o'z joniga qasd qilishning bir ko'rinishidir. Bunda o'zgalarning diqqatini o'ziga jalb qilish, o'ziga nisbatan boshqalarda qiziqish uyg'otish, boshqalarning rahmli bo'lish hissini keltirish, tarafdor (hayrihoh bo'lish), og'ir gunohni (aybni) qilib, jazodan qochish, ranjiganlik uchun o'ch olish, adolatsizlik atrofdagilar ranjiganni ayblash holatlari uchraydi. SHuningdek, 16 yoshli bir qiz bir nechta aspirin va parasetamol tabletkalarini qabul qilgan. Uning ta'kidlashiga bunga sabab onasi bir yigit bilan do'stlashishiga qarshi bo'lganligi va uni tushunishni xohlamaslik bo'lsa, u qizning bu tarzda hatti-harakatlari og'ir jarohatlanish natijasida o'z sog'lig'iga suiqasd qilib kasalxonamakasalxona yurishi hayoliga kelmaganida.

Affektiv suitsidal hatti – harakat – yuqori affekt holatida ruy berishi bilan xarakterlanadigan xulq-atvor tipi. Affekt holatidagi suitsidal harakatlar saxnalashtirilgan (spektakl) shaklida bo'lishi mumkin, ammo yanada haqiqiy niyatlar ham bo'lishi mumkin, hattoki o'zoq yillar o'tsa ham.

³⁷ Годфруа Ж. Что такое психология. Т. 2. –М.: 1996 г. с. 11.

Affektiv holatlar uzoqqa tuzilishi shuni ko'rsatadiki, suitsidal harakatlarda beqarorlik (ikkilanishlar) kuzatilishi mumkin. Bir kuni 14 yoshli qiziloq otasi o'gay ona bilan yashayotgan xonadonga keladi, agar otasi uyga qaytmasa o'zini o'ldirishini aytadi, bunga javoban o'gay ona qizning qo'lga pichoqni ushlatib, hoziroq shu ishni qilishi mumkinligini aytadi. Qiz pichoqni qo'lga olgan holda chap qo'lga bir necha marta uradi.

Haqiqiy turdagi suitsidal harakatlar – uzoq vaqtlar puxta o'ylangan, aniq bir maqsadga qaratilgan bo'ladi. O'smir bu ishni qilishdan oldin, shu ishning xavfsizligini o'ylab qo'yadi.

Oiladagi nosog'lom psixologik muhit va oilaviy tarbiyadagi yo'l qo'yilayotgan nuqsonlar hamda ta'lim jarayonida kuzatilayotgan nuqsonlar, bolalar va o'smirlar yashayotgan mahallalar hayoti, ularning psixologik muhiti voyaga etmaganlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Ma'lumki, ob'ektiv shart-sharoitlar va ijtimoiy muhit voqeahodisalari o'smirning ongi, xohish-irodasiga bo'ysunmagan holda ta'sir etadi va uning ongi, dunyoqarashi, shaxs sifatida shakllanish va xulq-atvori mazmunini belgilab beradi. I.P.Pavlovning ta'kidlashicha, inson va hayvon xulq-atvori mazmuni nafaqat nerv sistemasining tug'ma xususiyatlari, balki organizmga doimo ta'sir etib turuvchi tashqi ta'sirlar, ya'ni doimiy ravishda berib boriladigan tarbiya yoki ta'lim jarayoniga ham ham bog'liq bo'ladi.

«Praksiologiya» (yunon. «praktikos» – «faol») – falsafaning inson faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan bo'limlaridan biri. Faoliyat tushunchasi inson borlig'ining tabiati va mohiyatini, uning shaxsiy imkoniyatlari, ijtimoiy aloqalari va munosabatlarini, inson ma'naviy dunyosi va moddiy amaliyot jabhasini teranroq tushunish imkonini beradi. Inson faoliyati o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, hayvonlar faolligidan butunlay farq qiladi. U individ va umuman jamiyat borlig'ining alohida usuli hisoblanadi.

Faoliyatning atributlari. Inson faoliyati o'ta rang-barangdir. Yuqorida qayd etib o'tilganidek, faoliyat turlarini tasniflash uchun asos bo'lib uning inson tomonidan o'zgartiriladigan ob'ekt: tabiat, jamiyat, insonning o'ziga qaratilganligi xizmat qiladi. Faoliyat atributlari (xossalari) faoliyatni motivlashtirish va amalga oshirish mexanizmlarini tavsiflaydi. Faoliyat atributlari orasida, avvalo, sub'ektlilik va moddiylik qayd etiladi.

Sub'ektlilik va moddiylik. Faoliyatning sub'ektliligi shu bilan izohlanadiki, u shaxsning o'tmishdagi tajribasi, uning ehtiyojlari va mo'ljallari, motivlari va maqsadlari, emotsiyalari va irodasini tavsiflovchi xususiyatlari, bilish qobiliyatlari va hokazolar bilan belgilanadi. Faoliyatning moddiyligi insondan tashqarida joylashgan va uning qo'li bilan o'zgartiriladigan tabiat va jamiyat kuchlariga qaratilganini anglatadi. Ammo insonning o'zi, uning o'z-o'zini kamol toptirishi, o'z-o'zini tarbiyalashi va shaxs o'z oldiga qo'yadigan maqsadlarga erishishga qaratilgan tegishli harakatlar ham o'zgartirish faoliyatining predmeti bo'lishi mumkin. Inson faoliyati mehnat qurollari yordamida amalga oshiriladi. Uning hayvonlar faolligidan asosiy farqlaridan biri qurollilik hisoblanadi. «Quruq qo'l ham, o'z ixtiyoriga tashlab qo'yilgan aql ham katta kuchga ega emas, – degan edi F.Bekon. – Ish qo'lga ham, aqlga ham kerak bo'lgan qurollar va vositalar yordamida bajariladi»³⁸.

Faoliyatni tartibga solish mexanizmlari. Faoliyatni tartibga solishning umumiy mexanizmlari qatoriga insonning dunyoga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlari tizimini to'la qamrab oladigan va madaniyat algoritmi bo'lib xizmat qiladigan rang-barang ijtimoiy qadriyatlar va me'yorlarni kiritish lozim. Xulq-atvor, odatlar va an'analarning ijtimoiy-madaniy me'yorlari, qoidalarining mavjudligi va rivojlanishi inson faoliyatini tartibga solish omili hisoblanadi. Me'yorlar muayyan sharoitda odamlar o'zini qanday tutishi lozimligini belgilaydi va inson faoliyatida bevosita ishtirok etib, ijtimoiy va tabiiy sharoitlarga shaxsning moslashuvini ta'minlaydi, ijtimoiy jarayonning

³⁸ Бэкон Ф. Новый Органон. Афоризмы об истолковании природы и царства человека: Соч.: в 2 т. Т. 2. –М.: 1978 г. с. 12.

uzluksizligini ta'minlovchi mexanizm hisoblanadi. Mazmuni, ijtimoiy mustahkamlash usullari va ijtimoiy funksiyalariga ko'ra me'yorlar har xil bo'ladi.

Faoliyat maqsadlari, vositalari va usullarini qat'iy belgilovchi qoidalarning butun bir turkumi mavjud. Bu qoidalar ijtimoiy amaliyotda yaratilgan narsalar dunyosini va odamlar o'rtasidagi munosabatlar dunyosini o'zgartirish usullarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bular standartlar – muayyan ishni bajarishda qat'iy rioya qilish lozim bo'lgan sifat, shakl va o'lchamning qat'iy belgilangan namunasi; qoidalar – tegishli holatlarda qanday ish ko'rish lozimligini belgilovchi ko'rsatmalar; etalonlar – faoliyatda mo'ljal sifatida foydalanish lozim bo'lgan qat'iy belgilangan, standartlashtirilgan qadriyatlardir.

Inson faoliyatini tartibga solishni ta'minlovchi ijtimoiy me'yorlar tizimida huquq normalari va axloq me'yorlari alohida o'rin egallaydi.

Huquq va axloq. Huquq – davlat tomonidan belgilangan va uning majburlov kuchiga tayanadigan xulq-atvor umumiy normalarining majmui. Axloq ham jamoatchilik fikri, ya'ni qilmishni ma'qullash yoki qoralash bilan mustahkamlanadigan xulq-atvor qoidalari majmuidir. Axloq va huquq normalari o'zlari muhofaza qiladigan ijtimoiy munosabatlar mazmuni, normativ talablarni mustahkamlash usullari, ularning shaxs xulq-atvoriga samarali ta'siri darajasiga ko'ra ajralib turadi. Axloq va huquq normalarining mazmuni o'rtasida jiddiy farq mavjud emas. Masalan, «o'g'rilik qilma» – bu ham axloqiy qoida, ham huquq normasidir. Ammo huquq normalari o'z tartibga solish doirasi bilan axloq me'yorlari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning ulkan hajmini to'la qamrab olmaydi. Masalan, oilaviy munosabatlar sohasida huquq ota-onaga o'z farzandlarini tarbiyalash majburiyatini yuklaydi, lekin ota-onani bir-birini sevish, bir-biriga g'amxo'rlik qilishga majburlamaydi. Huquq va axloq o'rtasidagi farqni ular ko'rsatadigan ta'sirning samaradorlik darajasida ham ko'rish mumkin. Bizning nazarimizda, davlat majburlovi kuchiga tayanadigan huquq axloqqa qaraganda samaraliroqdir. Ammo, muayyan sharoitda inson uchun huquq axloqiy me'yorlar nufuzi qarshisida ojiz bo'lishi mumkin. Bu hol, shaxsning qadriyatlarga munosabati mazmuni bilan, muayyan inson qaysi axloqiy qadriyatlarga tayanishi, shuningdek, u yashaydigan muhit, ya'ni individ fikrini qadrlaydigan referent guruhning qandayligi bilan belgilanadi. Shu sababli axloqiy yo'l tanlashda ayrim inson uchun ishlab chiqarish jamoasi yoki maktab (talabalar) guruhining nufuzi muhim ahamiyat kasb etishi mumkin, boshqa shaxs uchun esa diniy sekta yoki jinoiy guruh a'zolarining fikri ustunlik qilishi mumkin. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, axloq jamoatchilik fikriga tayanadi.

Ammo, inson xulq-atvoriga baho berish juda mushkul ish, chunki uning zamirida muayyan sabablar yotadi, u muayyan sharoitda sodir etiladi, ob'ektiv oqibatlarga olib keladi va maqsadga erishishning muayyan vositalarini tanlashni nazarda tutadi. Jamoatchilik fikri shaxs xulqatvoriga baho berishda ijtimoiy mustahkamlangan axloq me'yorlariga amal qiladi, shaxs esa axloq haqidagi o'z tasavvurlaridan kelib chiqadiki, ular umumiy e'tirof etilgan me'yorlardan ancha farq qilishi mumkin. Muayyan sharoitda bir individ o'z vijdonining ovozigacha quloq solsa, boshqa bir individ umumiy qabul qilingan axloqiy tasavvurlarga qarab mo'ljal oladi, ya'ni «har qanday vijdonli odam» kabi ish ko'radi. Birinchi yoki ikkinchi individning qilmishini axloqiy deb hisoblash mumkinmi? Agar birinchi individ vijdonining ovozi umuminsoniy axloqiy tamo yillarga mos kelsa, uning qilmishiga axloqiy jihatdan shubhali, murosasoz va qo'rqoq shaxs, chunki uning qilmishi jamoatchilikning qoralashidan qo'rqish bilan izohlanadi. Sirdan belgilangan qilmish axloqiy sanalmaydi. Huquqiy majburlov va jamoatchilik fikri yoki Tangri la'natidan qo'rqish emas, balki shaxsning ichki mayli axloqiy qilmishning muhim belgisi hisoblanadi.

Xulosalar. Axloq shaxs erkinligini, uning o'zini, o'z ehtiroslarini boshqarish qobiliyatini, insonning o'z qilmishlari uchun, avvalo, o'zi oldida javobgarligini nazarda tutadi. Axloq inson aqlini ezgu ishlarga yo'naltiradiki, bu shaxsiy manfaatdorlik tuyg'usidan xoli yaxshi niyatlarda namoyan bo'ladi. Individ erkinligi va axloqiy qadriyatlarning mos kelishi axloqqa xos xususiyatdir. Jamiyatning axloqiy qoidalari shaxsga bu qoidalarga rioya etish majburiyatini

8-MAVZU. FALSAFIY ANTROPOLOGIYA (INSON FALSAFASI)

yuklaydi, shu sababli burch axloqiy qilmishlarga turtki beradigan muhim ichki omil hisoblanadi. Bundan xulq-atvor me'yorlari va andozalariga oddiy rioya etish nari borsa ijtimoiy jarayon bir maromda kechishini ta'minlash imkonini beradi. Uning rivojlanishi uchun esa ijod imkoniyat yaratadi. Bunda ijodning vazifasi tarix talablariga javob berish, faoliyatning mutlaqo yangi dasturlarini topishdan iboratdir.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.:“O'zbekiston”, 2014. 24 b
2. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947sonli [Farmoni](#).
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
5. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-24 jildlar.- T.: O'zbekiston 1996-2016.
6. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. 2 nashr –T.:Ma'naviyat, 2016 176-b.
7. Falsafa. Axmedova M. Tahriri ostida. – T.: O'FMJ, 2006. 339 b.
8. Shermuxamedova N.A. Falsafa. – T.: Noshir, 2012. 1214 b.
9. Falsafa asoslari. Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: «Sharq», 2005 y
10. A.Choriyev. Inson falsafasi. – T.: O'FMJ, 2007 y. 416 b.

9-MAVZU. GLOBALLASHUV VA GLOBAL MUAMMOLARNING FALSAFIY JIHLARI Reja:

1. Globallashuv hodisasi va globalistika.
2. Global jarayonlarning shakllanish tarixi.
3. 2017-2021 yillardagi O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida global muammolarning tavsifi.
4. Bashoratning turlari va metodlari
5. Korrupsiya shakllanishining tarixi. BMT Kodeksida korrupsiyaga munosabat. O‘zbekistonda korrupsiyaga oid qonunlar va qarorlar tasnifi, korrupsiyaga qarshi kurashning ahamiyati
6. Texnika va texnologiya tushunchalarining mohiyati.

Tayanch tushunchalar: Globallashuv, globalistika, Harakatlar strategiyasi, global muammolar, Orol dengizi, bashorat, eksropolyasiya metodlari, tarixiy analogiya, kelajakni prognoz qilish, utopiya, analitik prognoz, prognoz ogohlantirish, normativ prognoz, qidiruv prognozi, kelajak ssenariylari, korrupsiya, Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi Qonun, texnika, texnologiya.

Globallashuv hodisasi va globalistika. Hozirgi davr haqida aniqroq tasavvur hosil qilish uchun XX asr boshigacha jahon tarixi asosan mustaqil rivojlangan va bir-biriga jiddiy ta‘sir ko‘rsatmagan sivilizatsiyalardan iborat bo‘lganini nazarda tutish muhimdir. Hozirgi zamonda dunyo so‘nggi yuz yillik ichida yuz bergan jamiyat hayoti barcha jabhalarining faol integratsiyalashuvi natijasida sezilarli darajada o‘zgaradi va yaxlit bir butun organizmga aylandi. Buning oqibati o‘laroq, ayrim xalqlar va butun insoniyatning ijtimoiy ongida global jarayonlar va ularning ta‘sirida yuzaga kelgan umumiy (dunyo miqyosidagi) muammolar bilan belgilangan jiddiy o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Jahon hamjamiyati o‘z rivojlanishining yangi bosqichiga qadam qo‘ygani, u avvalgi bosqichlardan nafaqat o‘zgarishlar miqyosi, balki faollik darajasi va universal xususiyati bilan ham farq qilishi ayon bo‘ldi. Bu o‘zgarishlarning butun majmui, shuningdek, ularning sabablari 1990-yillarda globallashuv (lot. «globus» – «Yer kurrasi») deb nomlandi. *Globallashuv jamiyat hayotining turli jabhalarida butun Yer sayyorasi uchun yagona bo‘lgan tuzilmalar, aloqalar va munosabatlarning shakllanishi, universallashuv jarayonidir. Shuningdek, globallashuv global makonning tutashligi, yagona jahon xo‘jaligi, umumiy ekologik o‘zaro aloqadorlik, global kommunikatsiyalar va shu kabilar bilan tavsiflanadi.*

Jahon rivojlanishining eng yangi tendensiyalarini anglab etish borasidagi ko‘p sonli sa‘yharakatlar globallashuv jarayonlarining mohiyati, tendensiyalari va sabablarini, ular ta‘sirida yuzaga kelayotgan global muammolarni aniqlash va bu jarayonlarning oqibatlarini anglab etishga qaratilgan fanlararo ilmiy-tadqiqotlar soha si – globalistika paydo bo‘lishiga olib keldi. Kengroq ma‘noda «globalistika» atamasi globallashuvning turli jihatlari va global muammolarga oid ilmiy, falsafiy, madaniy va amaliy tadqiqotlarni, jumladan, ularning natijalarini, shuningdek, ularni ayrim davlatlar darajasida ham, xalqaro miqyosda ham iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jabhalarda amalga joriy etish borasidagi amaliy faoliyatni ifodalash uchun qo‘llaniladi.

Shuni ta‘kidlash lozimki, globalistika odatda ilmiy bilimning tabaqalanishi natijasida yoki turdosh fanlar tutashgan joyda paydo bo‘ladigan ayrim fanlar qatoriga kirmaydi. Uning vujudga kelishi zamirida qarama-qarshi jarayonlar – hozirgi zamon faniga xos bo‘lgan integratsiyalashuv jarayonlari yotadi. Globalistika tadqiqotlar va bilishning shunday bir jabhasiki, bu erda turli fanlar bir-biri bilan uzviy aloqada, har biri o‘z predmeti va metodi nuqtai nazaridan, globallashuvning turli jihatlari tahlil qiladi, global muammolarni bir-biridan alohida va yaxlit tizim sifatida o‘rganib, ularning echimlarini taklif qiladi.

Globalistika mustaqil ilmiy yo'nalish va ijtimoiy amaliyot sohasi sifatida 1960-yillarning oxirlarida shakllana boshladi, lekin uning paydo bo'lishi uchun ob'ektiv asoslar ancha oldin yuzaga kelgan edi.

Global jarayonlarning shakllanish tarixi. Hozirgi globallashuv jarayonlarining ilk nishonalariga XV asr oxirlaridan boshlab duch kelish mumkin, XIX asr boshiga kelib esa, u amalda real shakl-shamoyil kasb etdi. Bu pirovardida yagona geografik, ma'lum darajada iqtisodiy va siyosiy jahon maydoni shakllanishiga olib kelgan, «Buyuk geografik kashfiyotlar» yuz bergan davr edi. Ayni shu davrda, dunyoni tushunishga nisbatan geotsentrik yondashuvlar geliotsentrik yondashuvlarga o'rin bo'shatdi, insoniyat esa, nihoyat, kun va tunning almashishini to'g'ri talqin qilishga muvaffaq bo'ldi. Fan falsafadan ajralib chiqib, bilimlar to'planishi va texnikaning rivojlanishiga kuchli turtki berdi, fan-texnika taraqqiyoti va sanoat inqilobi yuz berishiga sabab bo'ldi. So'nggi zikr etilgan voqealar, pirovard natijada, insonning tabiatni o'zgartiruvchi imkoniyatlari va uning atrof-muhit bilan munosabatini butunlay o'zgartirdi. Er kurrasi shar (globus) ko'rinishida ekanligini nazariy va amaliy jihatdan isbotlab, insoniyat o'z tarixida birinchi bo'lib savdo-sotiq sohasida dunyo darajasiga chiqdi va dunyo miqyosida xalqaro munosabatlarga asos soldi. Ayni shu davrda, ilk transmilliy savdo kompaniyalari vujudga keldi. Tez orada ularning faoliyati sof savdo chegarasidan tashqariga chiqdi va ular qullarni qo'lga kiritish va ularni ekspluatatsiya qilish, bosib olingan hududlarda plantatsiyalar va manzilgohlar barpo etish jarayonida ishtirok eta boshladi, nihoyat, o'z davlatlari amalga oshirayotgan mustamlakachilik siyosatining asosiy ijrochisiga aylandi. Bularning barchasi jiddiy migratsiya jarayonlari yuz berishiga ham sabab bo'ldi. Xususan, mustamlakachilar qora tanli qullarni Afrikadan Amerikaga ommaviy tarzda tashib keltira boshladilar va shu tariqa, uning demografik tarkibini butunlay o'zgartirdilar. Shuning o'ziyog globallashuv turli xalqlarning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti bilan avvalboshdan uzviy bog'liq bo'lgan, degan xulosaga kelish imkonini beradi. XVII asr boshlariga kelib, Sharq va G'arb savdogarlari ulkan hududlarni o'zlash tirdilar va deyarli butun dunyo bo'ylab joylashdilar. Shu tariqa, ular insoniyat tarixida birinchi bo'lib yagona global iqtisodiy va siyosiy tizimning zaruriy asoslarini yaratdilar va mazkur tizim shakllanishi uchun zamin hozirladilar.

Global muammolarni echishda falsafaning roli. Og'ir va murakkab vazifalarni echishda insonga fan doim yordam bergan. Bir paytlar erishib bo'lmaydigan, inson imkoniyatlari darajasidan tashqarida bo'lib tuyulgan narsalarning aksariyatiga aynan fan yordamida erishilgan. Ayni shu sababli global muammolar xavf solayotgani haqidagi ilk ogohlantirishlarning o'ziyog odamlarni fanga o'z e'tiborini qaratishga, olimlarni esa, bu muammolarni echish yo'llarini izlashga majbur qildi. Yuzaga kelgan vaziyatning o'ziga xosligi va yangiligi shundan iboratki, har qanday muayyan muammolarni ayrim fan yoki bir necha fanlar majmui doirasida o'rganish mumkin bo'lsa, inson, jamiyat va tabiatni ularning ko'p sonli o'zaro aloqalari va o'zaro bog'liqliklarida qamrab oluvchi murakkab tizimdan iborat global muammolarni tadqiq etishga ayrim fanlar qodir emas. Zero, o'z tadqiqoti ob'ekti – u yoki bu ayrim muammoni boshqa global muammolar kontekstida talqin qilishga muayyan fanlar doirasi torlik qiladi. Shu sababli, u yoki bu fan qaysi muayyan vazifalarni echishidan qat'i nazar, ular bilan bog'liq jarayonlar va hodisalarga, ya'ni butun vaziyatga, shu jumladan oxir-oqibatda olingan natijalarga nisbatan falsafiy yondashuv doimo tadqiqotning zaruriy sharti hisoblanadi.

Har qanday ayrim fanlar muayyan bosqichda o'z tadqiqot predmetini falsafiy jihatdan anglab etishga u yoki bu darajada muhtoj bo'ladi. Muayyan fan predmetiga va insoniyat oldida turgan muammolarga nisbatan bunday keng yondashuvsiz fundamental kashfiyotlar qilish ham, umuman fanning rivojlanishi ham mumkin emas.

Ijtimoiy bashorat: turlari, tiplari, metodlari. O'zining, o'z farzandlarining, o'zi yashayotgan mamlakatning kelajagi haqida bilishni istamagan odam bo'lmasa kerak. Shu sababli, qadim zamonlardan boshlab turli xalqlarda ertangi kunga nazar tashlash, kelajakni bashorat qilish

qobiliyatiga ega bo'lgan kishilar katta izzat-ikromga sazovor bo'lgan. Forslar ularni afsungarlar, bobilliklar va assiriyaliklar – xaldeylar, qadimgi Misr aholisi – kohinlar deb atagan. Bashoratgo'ylar qadimgi Yunoniston aholisining hayotida alohida o'rin egallagan. Kelajakni bashorat qilishga falsafa tarixida ham, ijtimoiy tafakkurda ham turli ko'rinishlarda alohida e'tibor qaratilgan. Tarixning o'tish davrlarida, keskin ijtimoiy konfliktlar yuz bergan davrlarda bashoratning ahamiyati ayniqsa, oshgan. Bu insoniyat hayotining barcha jabhalarida olamshumul o'zgarishlar yuz berayotgan hozirgi davrga ham xos. Yuzaga kelgan sharoitda ijtimoiy bashorat masalalari o'ta muhim nazariy va metodologik ahamiyat kasb etmoqda, ularni ishlab chiqish esa falsafiy tafakkurning dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda. Darhaqiqat, kelajak bilan shug'ullanmagan falsafaning kelajagi yo'q.

Ushbu mavzuning maqsadi bashoratga umumiy tavsif berish, uning asosiy turlarini ko'rib chiqishdan; ijtimoiy prognoz nimaligini, uning metodlari va tiplarini aniqlashdan; davrimizning olamshumul muammolar bilan belgilangan asosiy futurologik konsepsiyalarini tahlil qilishdan iborat.

Bashorat – kelajak haqidagi, ya'ni hali amalda mavjud bo'lmagan, lekin rivojlanishning kutilayotgan rivojini belgilovchi ob'ektiv va sub'ektiv omillar ko'rinishida hozirgi zamonda potensial mavjud bo'lgan hodisalar va jarayonlar haqidagi bilim. Bashorat o'z gnoseologik tabiatiga ko'ra gipotezani ilgari surishga yaqin turadi. Ammo gipoteza – o'tmishni ham, hozirgi zamonni ham, kelajakni ham bilishga tatbiq etiladigan mantiqiy shakl, bashorat esa kelajakka yoki hali ma'lum bo'lmagan hozirgi davrga qarab mo'ljalladi. Kelajakni oldindan aytish usuli, teranlik va aniqlik darajasiga ko'ra bashoratning qo'yidagi turlarini farqlash mumkin: 1) mifologik bashorat, 2) kundalik bashorat; 3) intuitiv bashorat; 4) ilmiy bashorat, 5) ijtimoiy bashorat. *Mifologik bashorat arxaik ongda shakllangan obrazlar harakatida kelajakni bashorat qilishdi.* Masalan, Drezden qo'lyozmalarida ta'kidlanishicha, Mayya qabilalaribashorat qilishicha, 2012 yil 21 dekabr qiyomat kuni, deb belgilangan. Xususan, qo'lyozmalarda to'p o'ynayotgan navkarlar ramzi ifodalangan. Olimlar fikricha, to'p Quyosh ramzi, balandlikdagi doira Somon yo'li ramzi muvozanat markazining ifodasi. Navkarlar to'pni tepib doiraga kiritishi lozim. Doiraga to'pni kiritma olmagan navkarning boshi olingan. Olimlar, to'pning doiraga tushishini qiyomat kuni, ya'ni muvozanatning buzilishi ramzi, deb tahlil qilmoqdalar. Shuningdek, Mayya qabilalari qo'lyozmalarida, dunyoviy suv toshqinlari ham obrazlarda ifodalangan. Darhaqiqat, bundan ikki ming yil ilgari arxaik ong darajasidagi bashorat XX asrdagi tez-tez takrorlanayotgan zilzilalar, suv toshqinlari, dengiz to'fonlari va shu kabi boshqa tabiiy ofatlarda namoyon bo'lmoqda. Shu bois, bugungi kunda pessimist olimlar qiyomat kuni yaqin, deb ayyohannos solsalari, optimistlar bu astronomik sikllar almashinuvi xolos, deb bashorat qilmoqda. Insoniyatni kelajada nima kutmoqda. Bu savolga, inson, o'z faoliyati maqsadi va natijalariga ko'ra javob berishi lozim.

Kundalik bashorat insonning kundalik hayot tajribasiga, tabiat va jamiyatda u yoki bu voqealarning tez-tez takrorlanishini bevosita kuzatishga asoslanadi. Kundalik bashoratlariga xalqda keng mashhur bo'lgan ob-havo alomatlari misol bo'lishi mumkin. Masalan, Quyosh botayotganda odatdagidan uzoqroq ushlanib qolgan bo'lsa, yomg'irni kutish kerak; yozda ertalab tuman tushgan bo'lsa, demak, kunduzi havo ochiq bo'ladi; Sharqdan shamol essa, tez orada yomg'irlar tugaydi. *Astrologik bashorat osmon jismlari harakati, Oy va Quyosh tutilishini kuzatishlarga asoslanadi.* Astrologik bashorat o'rta asrlarda keng tarqalgan bo'lsa-da, keyinchalik unga munosabat o'zgargan. Lekin, XX asrda ezoterik bilimlarning rivoji astrologik bilimlarning asosli ekanligini tan olmoqda.

Intuitiv bashorat ilmiy dalilarsiz va mantiqiy mushohadasiz haqiqatning tagiga bilvosita etishdir. Bashoratning bu turi hali yaxshi o'rganilmagan va ko'pincha unga etarlicha baho berilmaydi. Holbuki, aqlni lol qoldiradigan dalillar ma'lum. Masalan, to'rt yuz yil oldin yashagan fransuz tabibi Mishel Nostradamus misli ko'rilmagan bashoratgo'ylik qobiliyatiga ega bo'lgan. O'zining

mashhur «Senturiyalari» va boshqa asarlarida, u XX asrning texnik kashfiyotlari – suv osti kemalari, samolyotlar, vodorod bombasinigina emas, balki fransuz va rus inqiloblarini, shuningdek, de Goll, Franko, Lenin, Stalin, Gitler, Mussolini kabi shaxslarning paydo bo‘lishini ham bashorat qilgan. O‘z davrining mashhur folbini Aleksandra Filippovna Kirxgof buyuk shoirAleksandr Pushkinga, uning hayotidagi muhim voqealarni: tez orada ko‘p pul olish, ikki surgun, uylanish, mashhurlik, 38 yoshda hayotni tark etish ehtimolini bashorat qilgan. Afsus ki, bu bashorat to‘la ro‘yobga chiqqan. Ukrainalik atoqli faylasuf va shoir Grigoriy Skovoroda ham bashorat qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan. U o‘z qishlog‘i – Ivanovkaga oxirgi marta kelganda kasal bo‘lmagan. Hammaga o‘zining o‘limi yaqinligini e‘lon qilgan, o‘zi o‘ziga qabr qazgan, o‘z «xonaqosi»ga qaytib kelgan, ich kiyimini almashtirgan, boshiga o‘z asarlarini qo‘ygan va vafot etgan. G‘arb mamlakatlarida ijtimoiy prognoz qilish ilmiy bashoratning turi sifatida «futurologiya» (lot. «futurum» – «kelajak» va yunoncha «logos» – «ta‘limot») degan nom bilan vujudga kelgan. Bu atamani ilk bor G‘arbiy Berlin Erkin universiteti huzuridagi Otto Zur nomidagi institut professori O.Flextgaym ishlatgan. Shuni qayd etish lozimki, «futurologiya» atamasi umumiy e‘tirof etilgani yo‘q. Misol uchun, bashorat muammolari bo‘yicha fransuz mutaxassislarining aksariyati futurologiya insonning kelajakni ishonch bilan bashorat qilish qobiliyati haqida xom xayol qilish uchun asos bo‘ladi, deb hisoblaydi. Futurologiya o‘rniga «fyutyuribli» atamasi taklif qilingan bo‘lib, u «ehtimol tutilgan kelajak», degan ma‘noni anglatadi. Bunda, kelajakning shartliligi, ko‘p variantlilikiga urg‘u beradi. Mamlakatimizda ijtimoiy bashorat bilan bog‘liq tadqiqotlar «prognostika» degan nom olgan. Bu yosh fan prognoz qilish qonunlari, tamoyillari va metodlarini o‘rganadi, mantiq muammolarini va har xil tipdagi prognostik tadqiqotlarning tasniflarini ishlab chiqadi. U endigina shakllanish davrini boshdan kechirmoqda, lekin hozirning o‘zidayoq kelajakning ilmiy muqobillarini yaratishning muhim vositasi hisoblanadi.

Prognozlashtirishning metodlari:

1. Ekstrapolyasiya metodlari.
2. Tarixiy analogiya.
3. Modellashtirish.
4. Ekspertiza usulida baholash.
5. Kelajak ssenariylari.

Ekstrapolyasiya metodlari – qonuniyatlari o‘tmishda va hozirgi davrda yaxshi ma‘lum bo‘lgan tendensiyalarni kelajakka tatbiq etishga asoslanadi. Masalan, biron-bir tizimga o‘tmishda muayyan o‘zgarish tezlik yoki tezlanish bilan rivojlanish xos bo‘lgan bo‘lsa, bizda bu tezlik yoki tezlanish kelajakda ham muayyan vaqt oralig‘ida o‘zgarishsiz qoladi, deb hisoblash uchun asoslar bor. SHunday qilib, o‘shish (pasayish) egri chiziqlarini grafik yoki analitik usulda davom ettirish va prognoz ob‘ekti bo‘lg‘usi holatining miqdor ko‘rsatkichlarini hisoblab chiqarish mumkin. SHunga qaramay, agar o‘rganilayotgan tendensiya boshqa tendensiyalar bilan o‘zaro ta‘sirga kirishish natijasida o‘zgarsa va bu o‘zaro ta‘sirni lozim darajada o‘rganish imkoniyati mavjud bo‘lmasa, ekstrapolyasiya metodi uncha samarali bo‘lmasligi mumkin.

Tarixiy analogiya – bu taqqoslash yo‘li bilan bilish. Taqqoslanayotgan ijtimoiy hodisalar o‘rtasida farq ham, o‘xshashlik ham mavjud bo‘lishi kerak. Taqqoslash uchun asos bo‘luvchi omillar taqqoslanishi lozim bo‘lgan hodisalarga qaraganda tanishroq bo‘lishi lozim. Tarixiy analogiyaning ijtimoiy bashoratga moslashuvchanlik darajasi cheklangan. Bu tabiiy bir holdir, zero kelajakka boshqa tarixiy sharoitlar yo‘ldosh. Tarixiy analogiya ko‘proq tarixiy faktni faol tanqidiy tahlil qilishga ko‘maklashadi.

Modellashtirish metodi bilish ob‘ektlarining o‘zini emas, balki ular ning modellarini o‘rganishga asoslanadi. Tadqiqot ob‘ektini modellashtirish – uni prognostik xususiyatga ega bo‘lgan xulosalar

chiqarish uchun qulay bo'lgan sodda, sxematik ko'rinishda gavdalantirish demak. Tadqiqot natijalari, modeldan ob'ektga ko'chiriladi. Prognoz qilishning modeli metodlari shakllarining rang-barangligi bilan tavsiflanadi. Modellashtirishning moddiy, fizik, belgili (matematik), imitatsion, kompyuterda modellashtirish kabi turlarini farqlash mumkin.

Ekspertiza usulida baholash – bu ilmiy metodning mohiyati ekspertlar (fan va texnikaning turli sohasidagi etakchi mutaxassislar) tomonidan muammoni tahlil qilish va so'ngra natijalarni formallashtirilgan asosda qayta ishlashdan iborat. Ekspertlarning umumiy xulosasi muammoning mumkin bo'lgan eng maqbul echimi sifatida qabul qilinadi. Bu metodlar guruhiga, odatda, quyidagilar kiritiladi: konsensus (kelajakka doir muayyan masala bo'yicha ekspertlar umumiy bir to'xtamga kelishi); «aqliy hujum» (muammolarni echish vositasi va prognoz qilish usuli, ayniqsa, kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bir nechta vaziyatni ko'rib chiqishga ehtiyoj tug'ilgan holda). Metodning mohiyati shundan iboratki, muammoga doir har qanday, hatto «g'alati» g'oyalar ilgari suriladi; bu g'oyalar rivojlantiriladi, o'z g'oyalarini taklif qilish mumkin, lekin ularni tanqid qilishga ruxsat etilmaydi; «Delfi» metodi (qadimgi YUnonistonning mashhur Orakuli ismi bilan atalgan). U ekspertlar o'rtasida so'rov o'tkazishga asoslangan. Bunda oldinma-ketin so'rov jarayonida har bir ekspert boshqa ekspertlarning fikrlari bilan tanishtiriladi; bir nechta sikllar natijasi o'laroq ustuvor fikr aniqlanadi. Ekspertiza usulida baholashning yana bir o'ziga xos metodi – sotsiologik so'rov mavjud bo'lib, u so'nggi yillarda bizda ham, chet elda ham tobora keng qo'llanilmoqda.

Kelajak ssenariylari – bu kuzatilayotgan tendensiyaning ehtimol tutilgan kelajagi haqidagi u yoki bu tusmolni asoslovchi dastlabki farazlarning tartibga solingan yig'indisi. Ssenariylar: a) u yoki bu nazariy vaziyatni qay yo'l bilan bosqichma-bosqich amalga oshirish mumkinligini; b) voqealarning muayyan rivojiga yo'l qo'yimaslik, ularni engillashtirish yoki chetlab o'tish uchun voqealarning har bir ishtirokchisi uchun har bir bosqichda qanday variantlar mavjudligini aniqlaydi.

Shunday qilib, ssenariy murakkab tizimlarni o'rganishga nisbatan tizimli va tarixiy yondashuvlarni birlashtiruvchi ko'p variantli prognozdir; aksariyat hollarda u tavsifiy xususiyat kasb etadi va kompleks prognozlarni tuzishda keng qo'llaniladi. SHuni qayd etib o'tish lozimki, ko'rib chiqilgan metodlarning birortasi ham alohida holda prognozning yuksak darajada ishonchligini ta'minlay olmaydi. SHu sababli amalda, odatda, murakkab, kompleks metodlardan foydalaniladi. Mazkur yondashuv ayrim metodlarning kamchiliklarini bartaraf etish va prognozlarning ko'proq darajada aniqligi va ishonchligini kafolatlash imkonini beradi. Ijtimoiy hodisalar va jarayonlarning rivojlanish imkoniyatlarini prognoz qilish natijasi prognoz hisoblanadi. U kelajak u yoki bu muammolarining rivojlanishi va ularni echishning mumkin bo'lgan barcha variantlarini, ularning bir-birini istisno etuvchi variantlarini, stixiyali va ongli jarayonlarni, ularning vaqt va ko'lam parametrlarini aniqlash imkonini beradi. Kelajakning ijtimoiy prognozlar taklif qilayotgan tavsifining mazmuniga qarab, ular insonni yo unga faol intilishga, yo uning yuz berishiga qarshi harakat qilishga, yo uni passiv kutishga da'vat etadi. Shu sababli har qanday ijtimoiy prognoz ilmiy bilishga doir mazmuni ham, muayyan mafkuraviy vazifani ham o'zida birlashtiradi. Bunda bilishga doir funktsiya ustunlik qilishi ham, mafkuraviy funktsiya ustunlik qilishi ham mumkin. Turli prognozlarning mazmuni va vazifasidan kelib chiqib, ularning to'rt asosiy tipini farqlash mumkin.

Qidiruv prognozi – ijtimoiy ob'ektning kelajagi qanday bo'lishi mumkinligini ko'rsatish uchun tuziladigan prognoz. U rivojlanish qaysi yo'nalishda yuz beradi, kelajakning muayyan davrida prognoz ob'ektining holati qanday bo'lishi mumkin, degan savollarga javob beradi. Normativ prognoz – boshqaruvni optimallashtirish yo'llarining oqilona tashkil etilgan tahlili. Bu prognoz obrazli qilib «teskari prognoz» deb ataladi, chunki unda o'rganish teskari yo'nalishda – kelajakdan hozirgi davrga qarab amalga oshiriladi. Normativ prognoz qo'yilgan maqsadlarga erishish yoki

qo'yilgan vazifalarni echish uchun nima qilish mumkin yoki kerak, degan savolga javob beradi. Normativ prognozning predmeti sifatida ijtimoiy jarayonlar xususiyatini butunlay o'zgartirishga qodir bo'lgan g'oyalar, gipotezalar, farazlar, axloqiy me'yorlar, ijtimoiy ideallar, maqsadlar va mo'ljallar amal qiladi.

Korrupsiya shakllanishining tarixi. BMT Kodeksida korrupsiyaga munosabat. O'zbekistonda korrupsiyaga oid qonunlar va qarorlar tasnifi, korrupsiyaga qarshi kurashning ahamiyati.

Hozirgi zamonda tobora ko'p qo'llanilayotgan atamalardan biri bu korrupsiyadir. Korrupsiya albatta bugun paydo bo'lgan illat emas, u qadimdan buyon mavjud bo'lib kelmokda. Qadimgi yunon faylasufi Aristotel shunday degan: "Har qanday davlat tizimida - qonunlar va boshqa farmoyishlar orqali ishni shunday tashkil qilish kerak-ki, unda mansabdor shaxslarni noqonuniy yo'l bilan boyishiga yo'l qo'yimaslik lozim". Fransuz mutafakkiri Sharl Monteske esa bu borada "Asrlar tajribasidan ma'lumki, har qanday hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan shaxs, uni suiiste'mol qilishga moyil bo'ladi va u ma'lum bir maqsadga erishmaguncha shu yo'nalishda yuradi" degan fikrlarni bildirgan. Korrupsiyaning jamiyatga tahdidi barcha millatlar, diniy, huquqiy adabiyotlarning qadimiy manbalarida ham qayd etiladi. Davlat boshqaruvi san'atiga bag'ishlangan qadimiy hind dostonlaridan "Arxashastra" (er.avv.IV asr)da podshoh oldida turadigan mug'im vazifalardan biri xazinani talontaroj qiluvchilarga qarshi kurashish ekanligi ta'kidlanadi. "Osmonda uchayotgan qushning qayoqqa qarab burilishini aytib berishdan ko'ra, ayyor amaldorning qanday hiyla o'ylab topishini oldindan aytib berish mushkulroqdir; dengizdagi baliq suvdan ichayotganligi yo ichmayotganligini aniqlab bo'lmaganidek, amaldor unga ishonilgan mulkni o'zlashtirayotgan yo o'zlashtirmayotganligini ham aniqlab bo'lmaydi"³⁹, - deyiladi. G'arbiy Yevropa davlatlarining keyingi tarixida ham korrupsiyaning turli ko'rinishlari va korrupsion munosabatlarning avj olishi nafaqat tarixiy manbalarda balki, o'sha davrning ilg'or yozuvchi faylasuflarining asarlarida ham o'z ifodasini topgan. Xususan, Shekspirning "Venetsiyalik savdogar", "Qonga qon, jonga jon", Dantening "Do'zax", "Tozalovchi" kabi asarlarida ham yoritilgan. Dante korrupsionerlarni do'zaxni eng qorong'i va eng chuqur joyiga tashlash kerak degan fikrni bildirgan.

Korrupsiyaning kelib chiqishi tarixi va rivojlanishi masalalarini Nikkolo Makiavelli o'rganib, uni yo'talga qiyoslab shunday degan edi, "Korrupsiyani ham yo'talga o'xshab oldin aniqlash qiyin, ammo davolash oson, lekin bu kasalni o'tkazib yuborsangiz uni aniqlash oson, ammo davolash qiyin". Mana shu so'zlardagi haqiqatni bugungi kunda dunyo bo'yicha keng tarqalgan korrupsiya ko'rinishlariga nisbatan ham qo'llash mumkin bo'ladi.

Ma'lumki "Korrupsiya" tushunchasi lotin tilidagi "corruptio" so'zidan olingan bulib, mazmuni "buzish, sotib olish" ma'nosini beradi va uning grammatik bir ildizli ma'nosi yana "korroziya" suzi ya'ni "chirish" yoki "zanglash" degan mazmunni ham beradi. Shundan kelib chikib bu so'zni ijtimoiy ko'rinishi hokimiyatni buzish, chiritish orkali sotib olish" degan ma'noni beradi. Korrupsiya muammolari bo'yicha Yevropa Kengashi Guruhlarining 1-sessiyasi (1995 yil 22-24 fevral, Strasburg)da "Korrupsiya"ga shunday ta'rif berilgan. "Korrupsiya - pora olish (o'ziga og'dirish), davlat yoki xususiy sohada muayyan vakolatga ega bo'lgan shaxs, mansabdor shaxsning yoki xususiy sohada faoliyat yuritadigan shaxs yoki mustaqil agentning o'z mansab vazifasidan yoki shunga o'xshash munosabatlardan kelib chiqadigan majburiyatlarini buzadigan shuningdek o'zi yoxud o'zga shaxslar manfaati uchun har qanday shakldagi afzalliklarga ega bo'lish maqsadida ifodalangan xatti-harakat".

Shuningdek, "Korrupsiya – mansabdor shaxs tomonidan muayyan harakat yoki harakatsizlik sodir etish (etmaslik) evaziga moddiy manfaatdor qilayotgan shaxsning manfaatini ko'zlab mansab

³⁹ Кузнецов Ю.А., Силинский Ю.Р., Хомутова А.В. Российское и зарубежное законодательство о мерах противодействия коррупции. /

vazifasini buzgan yozi buzmagan holda, turli shaklda moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy naf ko‘rishi.” (BMT mansabdor shaxslarining obod-axloq Kodeksi 17.12.1979 y). “Korrupsiya – shaxsiy manfaati yo‘lida davlat hokimiyati vazifalarini suiiste‘mol qilishi (BMTning Korrupsiyaga qarshi xalqaro kurash bo‘yicha axborot hujjati). Korrupsiya – bu shaxsiy manfaat uchun davlat hokimiyati mansab vazifasini suiiste‘mol qilish (Butunjahon banki hisoboti, 1997 y.) Jahon miqyosida quyidagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro huquqiy hujjatlarni alohida ta’kidlab o‘tish lozimdir:

- a) BMTning “Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasi”;
- b) Yevropa Ittifoqining “Korrupsiya uchun jinoiy javobgorlik to‘g‘risidagi Konvensiyasi;
- v) Yevropa Ittifoqining “Korrupsiya uchun fuqaroviy javobgarlik to‘g‘risida”gi Konvensiyasi;
- g) Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi doirasida “Korrupsiyaga qarshi siyosatning qonunchilik asoslari to‘g‘risida”gi model qonuni;
- d) “Osiyo Taraqqiyot Banki va Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki Osiyo va Tinch okeani korrupsiyaga qarshi harakat dasturi”;

Mamlakatimiz 2008 yil 7 iyulda BMTning “Korrupsiyaga qarshi” Konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktyabr) qo‘shildi. Davlatimiz 2010 yil mart oyida Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti doirasida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashishning Istanbul rejasiga (2003 yil 10 sentyabr) qo‘shilgan. SHuningdek, Oliy Majlis tomonidan Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha Yevroosiyo guruhi to‘g‘risidagi bitimi (Moskva, 2011 yil 16 iyun) 2011 yil 13 dekabrda ratifikatsiya qilingan.

O‘zbekiston mintaqamizda birinchilardan bo‘lib “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qildi. Ushbu tadbirlarning mantiqiy davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 3 yanvar kuni imzolangan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni 3moddasida asosiy tushunchalar berilgan bo‘lib, unda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik va manfaatlar to‘qnashuviga doir tushunchalarga ta’rif berilgan, ya’ni **korrupsiya** – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini, yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo‘shma majlisidagi “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi ma’ruzasida “Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo‘l qo‘ymaslik, jinoyatga jazo, albatta, muqarrar ekani to‘g‘risidagi qonun talablarini amalda ta’minlash bo‘yicha qat’iy choralar ko‘rishimiz zarur”⁴⁰, deb ta’kidlab o‘tilgan.

⁴⁰ Ш.М. Мирзиёев – Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимида киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ /. Тошкент : Ўзбекистон, 2016. – 10 б.

Umuman olganda, korrupsiyani vujudga keltiruvchi shart-sharoitlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o‘tish davridagi qiyinchilik;
- ijro etish tizimining yomonlashuvi;
- huquqiy nigilizm;
- jamiyatda insonlarning huquqiy madaniyati;
- iqtisodiy aspektlar;

Dunyodagi mamlakatlarda korrupsiyaning mamlakat boshqaruvi, iqtisodiyoti va boshqa sohalariga ta’sirini xalqaro nodavlat-notijorat “Transparency International” - “Transperensi interneshnl” tadqiqotlariga asosan baholab kelinadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.:“O‘zbekiston”, 2014. 24 b
2. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947sonli [Farmoni](#).
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
5. Karimov I.A. Asarlar to‘plami. 1-24 jildlar.- T.: O‘zbekiston 1996-2016.
6. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. 2 nashr –T.:Ma’naviyat, 2016 176-b.
7. Falsafa. Axmedova M. Tahriri ostida. – T.: O‘FMJ, 2006. 339 b.
8. Shermuxamedova N.A. Falsafa. – T.: Noshir, 2012. 1214 b.
9. Falsafa asoslari. Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: «SHarq», 2005 y.

**10-MAVZU. MANTIQ ILMINING PREDMETI, ASOSIY QONUNLARI.
TUSHUNCHA TAFAKKUR SHAKLI SIFATIDA**

REJA:

1. Mantiq fanining predmeti va ahamiyati.
2. Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari
3. To‘g‘ri muhokama yuritishning mantiqiy tamoyillari: fikrning aniqligi, izchilligi va etarli asosga ega bo‘lishi.
4. Mantiqilmining fanlar tizimidagi o‘rni..
5. Tushunchalarning shakllanish va qo‘llanishi.

Tayanch iboralar: Predmet belgisi, predmetlar sinfi, tushuncha, tushunchaning mazmuni, tushunchaning xajmi, tushunchaning turlari, tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlar, tushunchani chegaralash, tushunchani umumlashtirish, tariflash, tasniflash, tushunchani bo‘lish.

Kelib chiqishiga ko‘ra arabcha bo‘lgan “mantiq” (grekcha–logos) atamasi «fikir», «so‘z», «aql», «qonuniyat» kabi ma’nolarga ega. Uning ko‘pma’noligi turli xil narsalarni ifoda qilishda o‘z aksini topadi. Xususan, mantiq so‘zi, birinchidan, ob’ektiv olam qonuniyatlarini (masalan, «ob’ektiv mantiq», «narsalar mantig‘i» kabi iboralarda), ikkinchidan, tafakkurning mavjud bo‘lish shakllari va taraqqiyotini, shu jumladan, fikrlar o‘rtasidagi aloqadorlikni xarakterlaydigan qonun-qoidalar yig‘indisini (masalan, «sub’ektiv mantiq» iborasida) va uchinchidan, tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganuvchi fanni ifoda etishda ishlatiladi.

Mantiq ilmining o‘rganish ob’ektini tafakkur tashkil etadi. «Tafakkur» ham arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilidagi «fikrlash», «aqliy bilish» so‘zlarining sinonimi sifatida qo‘llaniladi. Tafakkur bilishning yuqori bosqichidir. Uning mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun bilish jarayonida tutgan o‘rni, bilishning boshqa shakllari bilan bo‘lgan munosabatini aniqlab olish zarur.

Bilish voqelikning, shu jumladan, ong hodisalarining inson miyasida sub’ektiv, ideal obrazlar shaklida aks etishidan iborat. Bilish jarayonining asosini va oxirgi maqsadini amaliyot tashkil etadi. Barcha hollarda bilish insonning hayotiy faoliyati bilan u yoki bu darajada bog‘liq bo‘lgan, uning ma’lum bir ehtiyojini qondirishi mumkin bo‘lgan narsalarni tushunib etishga bo‘ysundirilgan bo‘ladi. Bilish jarayonini amalga oshirar ekan, kishilar o‘z oldilariga ma’lum bir maqsadni qo‘yadilar. Ular o‘rganilishi lozim bo‘lgan predmetlar doirasi, tadqiqot yo‘nalishi, shakllari va metodlarini belgilab beradi.

Bilish murakkab, ziddiyatli, turli xil darajalarda va shakllarda amalga oshadigan jarayondir. Uning dastlabki bosqichini hissiy bilish – insonning sezgi organlari yordamida bilishi tashkil etadi. Bu bosqichda predmet va hodisalarning tashqi xususiyatlari va munosabatlari, ya’ni ularning tashqi tomonida bevosita namoyon

bo'ladigan va shuning uchun ham inson bevosita seza oladigan belgilari haqida ma'lumotlar olinadi.

Hissiy bilishning barcha shakllariga xos bo'lgan xususiyatlari qatoriga quyidagilar kiradi:

Birinchidan, hissiy bilish ob'ektning (predmetning yoki uning birorta xususiyatining) sub'ektga (individda, to'g'rirog'i, uning sezgi organlariga) bevosita ta'sir etishini taqozo etadi. Tasavvur ham bundan istisno emas. Unda obrazi qayta hosil etilayotgan (yoki yaratilayotgan) predmet emas, u bilan bog'liq bo'lgan boshqa predmet–signal ta'sir etadi.

Ikkinchidan, hissiy bilish shakllari: sezgi, idrok va tasavvur predmetning tashqi xususiyatlari va munosabatlarini aks ettiradi.

Uchinchidan, hissiy bilish shakli predmetning yaqqol obrazidan iborat.

To'rtinchidan, hissiy bilish konkret individlar tomonidan amalga oshirilganligi uchun ham har bir alohida holda konkret insonning sezish qobiliyati bilan bog'liq tarzda o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi.

Beshinchidan, hissiy bilish bilishning dastlabki va zaruriy bosqichi hisoblanadi. Usiz bilish mavjud bo'la olmaydi. Chunki inson tashqi olam bilan o'zining sezgi organlari orqali bog'langan. Bilishning keyingi bosqichi, boshqa barcha shakllari sezgilarimiz bergan ma'lumotlarga tayanadi.

Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, hissiy bilish tafakkur bilan uzviy bog'liq. Xususan, nazariy bilimlarning chinligi oxir-oqibatda empirik talqin qilish yo'li bilan, ya'ni tajribada bunday bilimlarning ob'ektini qayd etish orqali asoslanadi. O'z navbatida, hissiy bilish, umuman olganda, aql tomonidan boshqarilib turadi, bilish oldida turgan vazifalarni bajarishga yo'naltiriladi, ijodiy fantaziya elementlari bilan boyitiladi. Masalan, guvohlarning bergan ko'rsatmalari asosida jinoyatchining portreti (kompyuter yordamida fotoroboti yaratiladi yaqqol his qilinadi va qidiriladi. Lekin, shunga qaramasdan, hissiy bilish o'z imkoniyatlari chegarasiga ega. U bizga alohida olingan predmetlar (yoki predmetlar to'plami), ularning tashqi belgilari haqida ma'lumot beradi. Unda mavjud predmetlar o'rtasidagi aloqadorlik (masalan, muz bilan havoning harorati o'rtasidagi bog'lanish) o'rganilmaydi, predmetlarning umumiy va individual, muhim va nomuhim, zaruriy va tasodifiy xususiyatlari farq qilinmaydi.

Predmet va hodisalarning mohiyatini tushunishga tafakkur yordamida erishiladi. Tafakkur bilishning yuqori-ratsional (lotincha ratio – aql) bilish bosqichi bo'lib, unda predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlari aniqlanadi, ular o'rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya'ni qonuniy bog'lanishlar aks ettiriladi. Tafakkur quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

Tafakkurda voqelik mavhumlashgan va umumlashgan holda in'ikos qilinadi. Hissiy bilishdan farqli o'laroq, tafakkur bizga predmetning nomuhim, ikkinchi darajali (bu odatda bilish oldida turgan vazifa bilan belgilanadi) belgilaridan fikran chetlashgan, mavhumlashgan holda, e'tiborimizni uning umumiy, muhim,

**10-MAVZU. MANTIQ ILMINING PREDMETI, ASOSIY QONUNLARI.
TUSHUNCHA TAFAKKUR SHAKLI SIFATIDA**

takrorlanib turuvchi xususiyatlariga va munosabatlariga qaratishimizga imkon beradi. Xususan, turli kishilarga xos individual belgilarni (xulq-atvor, temperament, qiziqish va shu kabilar) e'tibordan chetda qoldirgan holda, ular uchun umumiy, muhim belgilarni, masalan, onga ega bo'lish, maqsadga muvofiq holda mehnat qilish, ijtimoiy munosabatlarga kirishish kabi xislatlarni ajratib olib, «inson» tushunchasini hosil qilish mumkin. Umumiy belgilarni aniqlash predmetlar o'rtasidagi munosabatlarni, bog'lanish usullarini o'rnatishni taqozo etadi. Turli xil predmetlar fikrlash jarayonida o'xshash va muhim belgilariga ko'ra sinflarga birlashtiriladi va shu tariqa ularning mohiyatini tushunish, ularni xarakterlaydigan qonuniyatlarni bilish imkoniyati tug'iladi. Masalan, yuqorida keltirilgan «inson» tushunchasida barcha kishilar bitta mantiqiy sinfga birlashtirilib, ular o'rtasidagi muhim bog'lanishlar (masalan, ijtimoiy munosabatlar) bilib olinadi.

Tafakkur borliqni nafaqat bevosita, balki bilvosita tarzda ham aks ettira oladi. Unda yangi bilimlar tajribaga har safar bevosita murojaat etmasdan, mavjud bilimlarga tayangan holda hosil qilishi mumkin. Fikrlash bunda predmet va hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Masalan, bolaning xulq-atvoriga qarab uning qanday muhitda tarbiya olganligi haqida fikr yuritish mumkin. Tafakkurning mazkur xususiyati, ayniqsa, xulosaviy fikr hosil qilishda aniq namoyon bo'ladi.

Tafakkur insonning ijodiy faoliyatidan iborat. Unda bilish jarayoni borliqda real analogiga ega bo'lmagan narsalar – yuqori darajada ideallashtirgan ob'ektlar (masalan, absolyut qattiq jism, ideal gaz kabi tushunchalar)ni yaratish, turli xil formal sistemalarni qurish bilan kechadi. Ular yordamida predmet va hodisalarning eng murakkab xususiyatlarini o'rganish, hodisalarni oldindan ko'rish, bashoratlar qilish imkoniyati vujudga keladi.

Tafakkur til bilan uzviy aloqada mavjud. Fikr ideal hodisadir. U faqat tilda – moddiy hodisada (tovush to'lqinlarida, grafik chiziqalarda) reallashadi, boshqa kishilar bevosita qabul qila oladigan, his etadigan shaklga kiradi va odamlarning o'zaro fikr almashish vositasiga aylanadi. Boshqacha aytganda, til fikrning bevosita voqe bo'lish shaklidir.

Tafakkur uch xil shaklda: tushuncha, hukm (mulohaza) va xulosa chiqarish shaklida mavjud.

Tafakkur shakli fikrning mazmunini tashkil etuvchi elementlarning bog'lanish usuli, uning strukturasi (tuzilishi)dir. Fikrlash elementlari deganda, predmetning fikrda ifoda qilingan belgilari haqidagi axborotlar tushuniladi. Tafakkur shaklining tabiatini konkret misollar yordamida ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki, ayrim predmetlar, ularning sinfi (to'plami) kishilar tafakkurida turli xil mazmunga ega bo'lgan tushunchalarda aks ettiriladi. Masalan, «davlat» tushunchasida o'zining maydoniga, aholisiga, boshqaruv vositalariga ega bo'lgan siyosiy tashkilot aks ettiriladi. «Milliy g'oya» tushunchasida esa millatning, xalqning kelajak bilan bog'liq orzu-havaslari, maqsadlari, tub manfaatlarini ifoda etiladi.

10-MAVZU. MANTIQ ILMINING PREDMETI, ASOSIY QONUNLARI. TUSHUNCHA TAFAKKUR SHAKLI SIFATIDA

Mazmun jihatidan turli xil bo‘lgan bu tushunchalar mantiqiy shakliga ko‘ra bir xildir: har ikkalasida predmet uning muhim belgilari orqali fikr qilingan.

Xususan, «o‘z maydoniga egaligi», «aholisining mavjudligi», «boshqaruv vositalarining bor ekanligi», «siyosiy tashkilotdan iboratligi» davlatning muhim xususiyatlari hisoblanadi. Xuddi shuningdek, «millatning orzu-havaslari, maqsadlarini aks ettirishi», «uning tub manfaatlarini ifoda etishi» milliy g‘oyaning muhim belgilaridir. Agar tushuncha aks ettirayotgan predmetni A bilan, unda fikr qilinayotgan muhim belgilarni, ya’ni fikrlash elementlarini a, v, s,..., n bilan belgilasak, tushunchaning mantiqiy strukturasi A (a, v, s,..., n) shaklida simvolik tarzda ifodalash mumkin.

Hukmlarda predmet bilan uning xossasi, predmetlar o‘rtasidagi munosabatlar, predmetning mavjud bo‘lish yoki bo‘lmaslik fakti haqidagi fikrlar tasdiq yoki inkor shaklda ifoda etiladi. Masalan, «YUksak ma’naviyat-engilmas kuch» degan hukmda predmet (yuksak ma’naviyat) bilan uning xossasi (engilmas kuch) o‘rtasidagi munosabat qayd etilgan. «Axloq huquq bilan uzviy aloqada» degan hukmda ikkita predmet (axloq va huquq) o‘rtasidagi munosabat qayd etilgan. Mazmun jihatdan turli xil bo‘lgan bu hukmlar tuzilishiga ko‘ra bir xildir: ularda predmet haqidagi tushuncha (S) bilan predmet belgisi haqidagi tushuncha (P) o‘rtasidagi munosabat qayd etilgan, ya’ni R ning S ga xosligi tasdiqlangan. Umumiy holda hukmning mantiqiy strukturasi (shaklini) $S—R$ formulasi yordamida ifoda etish mumkin.

Xulosa chiqarishda ham yuqoridagiga o‘xshash hollarni kuzatish mumkin.

Masalan,

“Daraxt – o‘simlik”. “Terak
– daraxt”.

Demak, “Terak – o‘simlik”. yoki

“Har bir kimyoviy element o‘z atom og‘irligiga ega”. “Mis
– kimyoviy element”.

Demak, “Mis o‘z atom og‘irligiga ega” kabilar.

Bu xulosa chiqarish hollari mazmuni bo‘yicha turlicha bo‘lishiga qaramasdan, bir xil mantiqiy strukturaga ega. Har ikkalasida xulosani tashkil etuvchi tushunchalar xulosa chiqarish uchun asos bo‘lib xizmat qilayotgan hukmlarda uchinchi bir tushuncha (birinchi misolda – «daraxt», ikkinchi misolda – «kimyoviy element» tushunchasi) orqali bog‘langan.

Yuqoridagi keltirilgan misollardan tafakkur shakli fikrning konkret mazmunidan nisbatan mustaqil holda mavjud bo‘lishi va, demak, o‘ziga xos qonuniyatlarga egaligi ma’lum bo‘ldi. SHuning uchun ham mantiqda uni alohida o‘rganish predmeti sifatida olib qarash mumkin.

Tushuncha, hukm (mulohaza) va xulosa chiqarish tafakkurning universal mantiqiy shakllari, uning asosiy strukturaviy elementlari hisoblanadi. Muhokama yuritish ana shular va ularning o‘zaro aloqalarga kirishishi natijasida vujudga keladigan boshqa

**10-MAVZU. MANTIQ ILMINING PREDMETI, ASOSIY QONUNLARI.
TUSHUNCHA TAFAKKUR SHAKLI SIFATIDA**

mantiqiy strukturalar (masalan, muammo, gipoteza, nazariya, g'oya va shu kabilar)da amalga oshadi.

Muhokama yuritishda ishonchli natijalarga erishishning zaruriy shartlari qatoriga fikrning chin bo'lishi va formal jihatdan to'g'ri qurilishi kiradi. CHin fikr o'zi ifoda qilayotgan predmetga muvofiq keluvchi fikr hisoblanadi (masalan, «temir – metall»). Xato fikr predmetga mos kelmaydigan fikrdir (masalan, «temir – metall emas»). Fikrning chin yoki xato bo'lishi uning mazmuniga tegishli xususiyatlaridir. Fikrning chin bo'lishi mantiqiy fikr yuritishning zaruriy sharti bo'lsa-da, o'z holicha etarli emas. Fikr muhokama yuritish jarayonida formal jihatdan to'g'ri qurilgan ham bo'lishi kerak. Bu xususiyat fikrning shakliga taalluqli bo'lib, tafakkurda hosil bo'ladigan turli xil mantiqiy strukturalarda sodir bo'ladigan har xil mantiqiy amallarda o'z aksini topadi.

Fikrni to'g'ri qurishga tafakkur qonunlari talablariga rioya qilgandagina erishish mumkin. Tafakkur qonuni muhokama yuritish jarayonida qatnashayotgan fikrlar (fikrlash elementlari) o'rtasidagi mavjud zaruriy aloqalardan iborat. Tafakkur qonunlari mazmunidan kelib chiqadigan, muhokamani to'g'ri qurish uchun zarur bo'lgan talablar fikrning aniq, izchil, etarli darajada asoslangan bo'lishidan iborat. Muhokamani to'g'ri qurish bilan bog'liq talablar haqida gapirganda, birinchi navbatda, ularning muayyan prinsiplar, qoidalar tarzida, ya'ni to'g'ri tafakkur prinsiplari sifatida amal qilishiga e'tibor berish zarur. Mazkur qoidalarning buzilishi muhokamaning noto'g'ri qurilishiga sabab bo'ladi. Bunda, xususan, chin fikrlardan xato xulosa chiqishi (masalan, «Qonun – rioya qilish zarur bo'lgan huquqiy hujjat», «Buyruq – qonun emas», demak, «Buyruq – rioya qilish zarur bo'lgan huquqiy hujjat emas») yoki xato qurilgan muhokamadan chin xulosa chiqishi (masalan, «Barcha moddiy jismlar – kimyoviy elementlar», «Temir – moddiy jism», demak, «Temir – kimyoviy element») mumkin.

Tafakkur ko'p qirrali jarayon bo'lib, uni turli xil tomonidan, xususan, mazmuni va shakli (strukturasi) bo'yicha, tayyor holida yoki kelib chiqishi va taraqqiyotida olib o'rganish mumkin. Bularning barchasi mantiq ilmining vazifasini tashkil etadi, uning turlicha metodlardan foydalanishiga, har xil yo'nalishlarga ajralishiga sabab bo'ladi.

Formal mantiq to'g'ri tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi fan sifatida Mantiq keng ma'noda olamdagi qonuniy, zaruriy bog'lanish va aloqalar, tartib va izchillik, tafakkurimizning ichki aloqadorligi, tadrijiy rivojlanishi, turli fikrlar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni ifodalaydi. Tafakkur voqelikni umumlashtirib va mavhumlashtirib, muayyan mantiqiy shakllarda, ya'ni tushuncha, hukm va hulosa chiqarish hamda ular o'rtasidagi aloqalar shaklida aks ettirib, ma'lum mantiqiy qonun – qoidalarni vujudga keltiradiki, to'g'ri, aniq, izchil, ziddiyatlardan holi fikrlash ana shu qonun – qoidalarga amal qilishni taqozo etadi. Bu qonunqoidalar amaliyotda vujudga kelgan bilimlarni isbotlashga yoki rad etishga, ularning to'g'riligi yoki xatoligini tasdiqlashga yoki inkor etishga xizmat qiladi. Tafakkurni

10-MAVZU. MANTIQ ILMINING PREDMETI, ASOSIY QONUNLARI. TUSHUNCHA TAFAKKUR SHAKLI SIFATIDA

mantiq fanidan tashqari falsafa, fiziologiya, psixologiya, dialektika, kibernetika fanlari ham o'z predmeti nuqtai nazaridan o'rganadi. Grammatika mantiq faniga yaqin. Tushuncha va hukmlarning ifodalanish strukturasi aniqlashda grammatikaning roli katta. Biroq yuqorida tilga olingan fanlarning har biri tafakkurga o'z nuqtai nazaridan yondoshadi, uning turli qirralarini ochib beradi. Hozirgi kunda mantiq ilmining o'zining ham turli yo'nalishlari, tarmoqlari mavjud, ular orasida inson tafakkurini eng oddiy qonun – qoidalar bilan qurollantiradigan, uni to'g'ri fikrlashning tamoyillari bilan tanishtiradigan muhim tarmog'i formal mantiq bo'lib, u tarixiy kelib chiqishini e'tiborga olgan holda an'anaviy mantiq, ommaviyligi nuqtai nazaridan esa, umumiy mantiq deb ham yuritiladi.

Mantiq fani inson tafakkurining eng umumiy shakllari, qonunlari va fikrlash usullarini o'rganadi. Mantiq fani tafakkurni rivojlantiradi, insonda umumiy tushunchalar, kategoriyalar bilan ish ko'rish ko'nikmalarini hosil qiladi. Bu esa, bugungi fan texnika rivoji jadallashgan sharoitda ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda ilmiy – nazariy ma'lumotlarni samarali tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi.

Formal va dialektik mantiq fanlari

Falsafiy adabiyotlarda dialektik mantiq bilan formal mantiq mavjudligi ta'kidlanadi. Bularning birinchisi tafakkur shakllarini ularning rivojlanishida olib qarasa, ikkinchisi ularni shakllangan fikrlar sifatida o'rganadi. SHuningdek, dialektik mantiq tafakkurni uning mazmuni va shakli birligida olib o'rgansa, formal mantiq fikrning shaklini uning konkret mazmunidan chetlashgan hamda nisbatan mustaqil holda olib tadqiq etadi. SHuning uchun dialektik mantiq fikrlarimizning taraqqiyoti, rivojlanishini, formal mantiq esa nisbiy turg'unligini aks ettiradi. Dialektika fikrlashning formal mantiq qonun – qoidalariga amal qilishni taqazo etadi. Dialektika ham, formal mantiq ham hamma vaqt falsafa tarkibida rivojlanib kelgan.

Dialektika esa rivojlanish jarayonida aynanlik, tafovutlar va qarama – qarshiliklar darajasiga ko'tariladi, nozidlik taraqqiyot manbai bo'lmay, balki ular o'rtasidagi qarama – qarshilik taraqqiyotni ta'minlaydi, deb ko'rsatadi. Formal mantiq va dialektik mantiq bir – biriga muqobil metodlarga asoslanadi. Ular mustaqil ta'limot hisoblanadi. Dialektik mantiq falsafiy metod sifatida, falsafaning muhim tarkibiy qismi sifatida mavjud bo'lsa, formal mantiq mustaqil fan sifatida shakllangan ta'limotdir.

Matematik mantiq fani

Matematik mantiq – fikrlash jarayonini turli simvollar yordamida, matematik usul asosida o'rganadi. Bu ta'limot mantiq fanining rivojlanishidagi yangi bosqich hisoblanadi. Ammo matematik mantiqning matematikaning o'zidan ham, mantiq ilmidan ham farqli tomonlari bor. SHuning uchun matematikaning barcha tomonlarini bu mantiq qonunlari bilan izohlab bo'lmaydi. SHuningdek, mantiqiy qonun va shakllarining hammasini ham matematik usul bilan hal qilib bo'lmaydi.

10-MAVZU. MANTIQ ILMINING PREDMETI, ASOSIY QONUNLARI. TUSHUNCHA TAFAKKUR SHAKLI SIFATIDA

SHunga qaramasdan matematik usul mantiq faniga singib bormoqda, uning ajralmas qismi bo‘lib takomillashmoqda.

Hozirgi zamon mantiq ilmini simvollarsiz, matematik mavhumiyliksiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. SHuning uchun mantiq ilmi mutaxassislari matematik mantiq asoslari bilan tanish bo‘lishlari zarur.

Mantiq jarayonini turli simvollar bilan ifodalashga intilish Arastu asarlaridayoq ko‘zga tashlanadi. XVI – XVII asrlarga kelib, mexanika va matematika fani rivojlanishi bilan matematik metodni mantiqqa tadbiq etish imkoniyati kengaya bordi. Nemis faylasufi Leybnits har xil masalalarni echishga imkon beruvchi mantiqiy matematik metod yaratishga intilib, mantiqni matematiklashtirishga asos soldi.

Mantiqiy jarayonni matematik usullar yordamida ifodalash asosan XIX asrlarga kelib rivojlana boshladi. Bu davrda yashagan rus olimi I. S. Poretskiy, nemis va ingliz olimlari J. Bul, Fure, Morgan, SHryoder kabilar o‘zlarining asarlarida bu masalaga oid muhim fikrlarni ilgari surishdi. Hozirgi vaqtda matematik mantiq metodlari fan va texnikada, kibernetikada tarjimon mashinalarda va boshqa ko‘p halq xo‘jaligi sohalarida qo‘llanilmoqda.

Mantiq fanining yo‘nalishlari

Formal mantiq - fikrlashning tuzilishi va uning qonunlari haqidagi fandır. Formal mantiq fikrlashning rivojlanishini, uning takomillashish jarayonini o‘rganishni o‘zidan soqit qiladi. U fikrlashning mantiqiy tuzilishini, shaklini o‘rganadi. Insonning fikrlash shakli, tuzilishi turli qonunlarga asoslanadi va ularni keltirib ham chiqaradi. Mantiqiy shakllarni simvollar yordamida ifoda etish mumkin. Masalan, «Hamma ziyolilar aqliy mehnat bilan shug‘ullanadilar», «Hamma kapalaklar hasharotdir» degan fikrlarning mazmuni turlicha bo‘lsada, ularning tuzilishi, shakli bir xildir. Shuning uchun ularni «Hamma S – R dir» yoki «Hamma a – v dir», deb ifodalash mumkin. Formal mantiq va klassik mantiq tushunchalari sinonim tushunchalar bo‘lib, unda muloxazalar ikki qiymatli, ya’ni chin yoki xato bo‘ladi.

Klassik mantiqdan farq qiluvchi hozirgi zamon mantig‘i turli yo‘nalishlardan iborat bo‘lib, ular birgalikda noklassik mantiq deb nomlanadi.

Ko‘p ma’noli mantiq hozirgi zamon noklassik mantig‘ining bir tarmog‘i bo‘lib, fikrlashni «chin», «xato», «qisman chin», «qisman xato», kabi tushunchalar orqali ifodalaydi. Agar umumiy formal mantiqda mulohazalar ikki qiymatli (chin yoki xato) bo‘lsa, ko‘p ma’noli mantiqda mulohazalar uch va undan ortiq qiymatlidir. SHuning uchun bu mantiq «ko‘p ma’noli mantiq» deb yuritiladi. Bu mantiqda eng oddiy sistema uch ma’nolidir. Masalan, Siz “inson huquqlari deklaratsiyasi”ni bilasizmi? -degan savolga “ha”, “yo‘q”, “ozgina bilaman ” kabi javoblarni olish mumkin.

Induktiv mantiq (lot. Intuitio – diqqat bilan e’tibor berish, diqqat bilan kuzatish) – Hozirgi zamon noklassik mantig‘i tarmog‘i bo‘lib, matematik intuitsiya prinsiplaridan kelib chiqadi. Bu prinsiplar XX asr olimlari L. E. Brauer va A.

Geytinglar tomonidan ishlab chiqilgan. Ma'lumki, nemis olimi Kantor ishlab chiqqan to'plam nazariyasi bir necha hal qilib bo'lmaydigan paradokslarga uchragandan so'ng, bu krizisdan qutilish uchun logitsizm, formalizm, konstruktivizm, intuitsionizm kabi oqimlar paydo bo'ladi. Bular bunday ziddiyatni formal mantiq asosida hal qilishga harakat qildilar.

$XA(x)$ ifoda quyidagicha o'qiladi: «Hamma X A xossasiga ega». Klassik mantikqa ko'ra, agar bu ifodalar arifmetika aksiomalariga mos kelsa, to'g'ri (chin) deb qabul qilinadi. Matematika uchta musbat sonlarning bir butuni h dan tuzilgan, uni \square Klassik mantiqqa asoslangan matematikada v) chin (to'g'ri) hisoblanadi. $\square A(h)$ ning tashkil topish usuli qiziqitirmaydi. Intuitiv mantiqda bu sonning tuzilish usuli ma'lum bo'lgandagina $AxA(X)$ ifodasi chin (to'g'ri) hisoblanadi. A ning to'g'riligidan (chinligidan) V ning to'g'riligini bevosita keltirib chiqarish metodi ishlab chiqilgandagina, implikasiya (a

Konstruktiv mantiq – hozirgi zamondagi matematik mantiqning asosiy oqimlaridan biri. Bu mantiq konstruktiv matematikaga asoslanib, intuitiv mantiq qoidalarini tanqidiy o'rganish asosida paydo bo'lgan. Mantiqdagi bu oqim ham Kantor to'plam nazariyasidagi paradoksni hal qilishga urinish asosida paydo bo'ldi. Konstruktiv mantiq real voqelikda mavjud bo'lmagan ham, lekin fikrda qurish mumkin bo'lgan ob'ektlarni mantiqiy taxlil qiladi. Xususan, Sokrat mayovtika usulini, Demokrit “Kanon”da (kanon – mezon, qoida) tayyor bilimlarning chin yoki xatoligini aniqlaydigan usullarni ishlab chiqqan, Arastu

“Organon”ida (organon – bilim quroli) fikrni mantiqan to'g'ri qo'rish va bilimlarni hosil qilish vositalarini tadqiq etadi. Keyinchalik mantiq qonunmi yoki organonmi? degan savol mantiqda keng muhokama qilingan.

Logitsizm – bu oqim ham Kantor to'plam nazariyasidagi paradokslarni hal qilishga intilish asosida vujudga kelgan. Logitsizm ham noklassik mantiqning tarmog'i bo'lib, mantiq ilmini matematikadan ustun qo'yishga intilgan oqimdir. Bu tarmoq vakillari matematika va mantiq ikki xil fan emas, balki bitta yagona fandır, deb ta'kidlaydilar. Matematikani mantiq doirasiga to'laligicha kiritish mumkin, buning uchun hech qanday qo'shimcha tushunchalar talab qilinmaydi deb ko'rsatadilar. Bu fikr matematik haqiqatni aniqlashda juda katta ahamiyatga ega edi. Matematika rivoji uchun boshqa fanlarga nisbatan mantiq juda katta ahamiyat kasb etadi. Undagi teoremlar, aksiomalar kuchli mantiqiy asosga ega. Matematika qadimdan mantiqan izchil fan deb hisoblangan. Biroq matematikani mantiq ilmi bilangina izohlash mumkin emasligini ko'pchilik matematik va mantiqshunoslar tan olishadi.

Logitsizmni XVIII asr nemis faylasufi Leybnits boshlab bergan bo'lib, uni XX asr ingliz faylasufi B. Rassel nixoyasiga etkazdi. G. Frege, D. A. Bochvar, A. Chyorch kabi matematik va mantiqshunoslar B. Rassel karashini keskin tanqid qildilar va noklassik mantiqni boshqa yo'nalishlarda rivojlantirdilar.

Mantiq bilish, to'g'ri fikrlash metodlarini o'rganuvchi fandır. Ilmiy bilish jarayonida metod muammosi qadimgi davr falsafasida qo'yilgan. Xususan, Sokrat mayevtika

usulini, Demokrit “Kanon”larda (kanon-mezon, qoida) tayyor bilimlarning chin yoki xatoligini aniqlaydigan usullarni ishlab chiqqan. Aristotel “Organon”ida (organon-bilish quroli) fikrni mantiqan to‘g‘ri qurish va chin bilim hosil qilish vositalarini tadqiq etgan. Keyinchalik mantiq kanonmi yoki organonmi?, degan savol mantiqda keng muhokama qilingan.

Yangi davrda F. Bekon birinchilardan bo‘lib metod muammosini mantiq fani doirasida taxlil qilgan. R. Dekart va I. Kantlar ham bu masalaga alohida e‘tibor qaratganlar. Gegel metodologiya rivojiga muhim xissa qo‘shdi. Albatta, ilmiy bilish jarayonida har bir fan konkret tadqiqot ob‘ektiga ega ekan, o‘zining maxsus tadqiqot usullarini ishlab chiqishi zarur. Masalan, fizikaga N.Bor qo‘shimcha qilish prinsipini kiritgan.

Ba‘zi bir fanlar tadqiqot ob‘ektlari bo‘yicha bir – biriga yaqin bo‘lgani uchun, ularning tushunchalari, qonunlari va metodlari ham bir – biriga yaqindir. Xususan, bilishda xususiylik va umumiylik vazifasini bajaruvchi usullar mavjuddir. Ko‘pchilik fanlarda qo‘llaniladigan usullar umumiy usul deyiladi. Umumiy usul qo‘llanilishi doirasiga ko‘ra umumiy bo‘lgani bilan o‘z maxsus vazifasiga ega. Bunga misol qilib mantiq fanidagi tushuncha hosil bo‘lishining analiz va sintez, umumlashtirish va mavhumlashtirish kabi usullarini, shuningdek induksiya va deduksiya, qiyoslash va modellashtirishni ko‘rsatish mumkin. Bular bilishning umumimantiqiy metodlari bo‘lib hisoblanadi Dialektika barcha fanlar uchun eng umumiy metod vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, bilish jarayonida ilmiy tadqiqotning xususiy, umumiy va eng umumiy usullari mavjud bo‘lib, ular o‘zaro bir – biriga bog‘liq.

Ilmiy bilish metodlarining nazariy asosi rivojlanib borayotgan fanning extiyohlari taqozasi bilan yuzaga kelgan bo‘lib, u tabiat, jamiyat va inson ongining murakkab hodisalarini to‘g‘ri ob‘ektiv talqin etishga, fanning tabiiy aloqalarini ochishga imkon beradi. Hozirgi davrda ilmiy bilish faoliyatining takomillashgan shakllari va usullari, tartib qoidalari, mantiq‘i va tuzilmalari fanda yangi – yangi yutuqlarni qo‘lga kiritish imkonini yaratmoqda.

Tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganish, ulardan ongli ravishda foydalanish fikrlash madaniyatini o‘stiradi, xususan, fikrni to‘g‘ri qurish malakasini rivojlantiradi, bahs yuritishda o‘zining va boshqalarning fikriga tankidiy munosabatda bo‘lishga, suhbatdoshining mulohazalaridagi xatolarni aniqlashga, argumentlashdagi zaif bo‘g‘inlarni ochib tashlashga yordam beradi.

Muhokamani to‘g‘ri qurish, formal ziddiyatlar, xatolarga yo‘l qo‘ymaslikka erishish, aytish mumkinki, o‘ziga xos san‘at-mantiq san‘ati hisoblanadi. Bu san‘atning nazariy asoslarini chuqur egallagan kishigina uning imkoniyatlarini amaliy muhokama yuritishda namoyish qila oladi. Shu o‘rinda buyuk mutafakkir Farobiyning mantiq ilmining ahamiyati haqida bildirgan quyidagi fikrlarining alohida e‘tiborga loyik ekanligini ta‘kidlash zarur. U shunday yozadi: “Bizning maqsadimiz aqlni, xatoga yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan barcha xollarda, to‘g‘ri

10-MAVZU. MANTIQ ILMINING PREDMETI, ASOSIY QONUNLARI. TUSHUNCHA TAFAKKUR SHAKLI SIFATIDA

tafakkurga etaklaydigan, uning yordamida har safar hulosa chikarayotganda adashishga qarshi ehtiyot choralarni ko'radigan san'atni-mantiq san'atini o'rganishdir. Uning asosiy qonun-qoidalarining aqlga bo'lgan munosabati grammatika san'ati qoidalarining tilga bo'lgan munosabatiga o'xshash; xuddi grammatika kishilarning tilini to'g'rilash ehtiyoji sababli yaratilgani, unga xizmat qilishi zarur bo'lgani singari, mantiq ham tafakkur jarayonini yaxshi amalga oshirish maqsadida xatoga yo'l qo'yish mumkin bo'lgan barcha hollarda aklni to'g'rilab turadi".

Mantiq ilmining ta'lim sohasidagi vazifalari ham jiddiydir. O'quv jarayonining samaradorligi ma'lum bir darajada ishlatiladigan tushunchalarning, terminlarning aniq bo'lishiga, muammolarning mantiqan to'g'ri qo'yilishi va hal qilinishiga, mavjud gipotezalar strukturasi to'g'ri tahlil qila olishga, argumentlash qoidalaridan to'g'ri foydalanishga bog'liq.

Fan uchun formal mantiq murakkab muammolarni echish vositasini beradi. Bunday vositalar, odatda, ilmiy nazariyaning strukturasi o'rganishda, unda ishlatiladigan formalizmning mohiyatini tushuntirib berishda, formal ziddiyatlar bo'lsa, ularni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Zamonamiz fanlarining barchasiga inson qadr – qimmat, uning axloqi, madaniyati nuqtai nazaridan qarash kerak. Mantiq fani ham bundan istisno emas. Inson muammosining xal qilinishi, uning turmush tarzi, moddiy, ma'naviy, axloqiy nuqtai nazardan takomillashishiga bog'liq.

Insoniylik muammosini hal qilishda mantiq ilmi, ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida, alohida ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, hozirgi zamon fanida yuksak kashfiyotlar, ijtimoiy hayotda murakkab munosabatlar yuz bermoqda, ularni tahlil qilish uchun esa mantiqiy fikrlash madaniyati kerak. Fan yordamida inson faoliyati rivojlandi, uning oyoq, qo'li va boshqa organlarining o'rnini bosadigan mashinalar paydo bo'ldi. Mantiq ilmini tadbiq etish natijasida inson intellektini rejalashtiruvchi «aqliy mashina» lar vujudga keldi, binobarin, sun'iy aql vujudga kelmoqda.

Bularning barchasi insonning aqliy va jismoniy mehnatini bajaradigan mashina yaratishning chegarasi bormi? Agar chegarasi bo'lmasa, insonning o'zi kelajakda qanday axvolga tushib qoladi ?, kabi savollarni keltirib chiqarmoqda va ularga javob berishni taqozo etadi. Bu hozirgi davrda hal qilinishi zarur bo'lgan dolzarb muammolardan biridir. Shuning uchun har qanday fan, shu jumladan mantiq ilmi, inson hayotining tabiiy va ijtimoiy tomonlarini mutanosib saqlash va takomillashtirishga alohida ahamiyat berishi kerak.

Mantiq fanining ilmiy ishonch – e'tiqodning shakllanishida tutgan o'rni
Faktlar va boshqa dalillarga tayanib yuritiladigan fikr yuksak ishontirish kuchiga ega bo'ladi, kishilarda ishonch-e'tikodni mustahkamlaydi. Bilishning maqsadi ilmiy asosga ega bo'lgan e'tiqodni yaratishdan iborat. Ana shuning uchun ham yoshlarda ilmiy asosga ega ishonch-e'tiqodni yaratish muhim ahamiyat kasb

etadi. Argumentlash ishonch-e'tiqodni shakllantirish vositasidir. Ishonch-e'tiqod esa, insonning komillik mezonlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Ishonch –e'tiqod- bu kishilarning xulq-atvori va hatti –harakatini belgilab beradigan qarashlari va tasavvurlaridir.

Vatanimizning gullab-yashnashi, barqaror rivojlanishi ma'lum bir darajada yoshlarning chuqur bilimga, mustahkam ishonch-e'tiqodga va, umuman, komil inson bo'lishlariga bog'liq. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimov shunday deb ta'kidlagan: «Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'la oladigan, bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamlarni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'radi. O'z fikr-o'yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi etuk odam bo'ladi».

Chuqur tahlilga, mantiqqa asoslanmagan bir yoqlama fikr odamlarni chalg'itadi. Faqat bahs-munozara, tahlilga asoslangan to'g'ri xulosalargina haqiqatni bilishga yo'l ochadi.

Bahs, munozara yuritishning, chin fikrlarni isbotlay bilishning, xato fikrlarni rad etishning o'ziga xos qonun-qoidalari mavjud. Bu qoidalarni bilish har bir insonga, shu jumladan, talabalarga chin fikrni xato fikrdan ajrata bilish, to'g'ri tafakkurlash madaniyatini shakllantirish imkonini beradi.

Mantiq ilmining fan va texnika taraqqiyoti uchun ahamiyati

Mantiqiy kategoriyalarning universal harakterga ega bo'lishi ularni bilishda, ishlab chiqarish jarayonlarida, texnika tarmoqlarida ixtisoslashtirilgan holda tadbiq etish imkoniyatini tug'diradi. Bu esa, mantiqdan turli fanlarning konkret masalalarini hal qilishda foydalanishning keng imkoniyatlarini vujudga keltiradi.

Fanning tobora rivojlanib borishi, borliqning murakkab qonunlarining kashf etilishi ilmiy bilish metodi va mantiq apparatini shunga moslashtirishni, tafakkurning har bir konkret masala xaqida aniq, xatosiz, tez hulosalar bera olishini talab qiladi.

Ilmiy va texnik jarayonning bunday talabi natijasida turli fanlarga ixtisoslashgan mantiq tarmoqlari vujudga keldi.

Fan qadriyatlar tizimida o'ziga xos o'ringa ega. U katta ilmiy salohiyatni, ijodiy kuch – quvvatni birlashtiradi, millat dunyoqarashini shakllantiradi, ta'lim – tarbiya, axloq me'yorlarini vujudga keltiradi, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalaydi, mamlakatda qudratli ilmiy potensialni yaratishga xizmat qiladi.

Mantiqni bilish, ayniqsa, ilm fan bilan shug'ullanish, ilmiy - tadqiqot ishlarini olib borish, borgan sari ko'payib borayotgan ilmiy axborotlarni tartibli ravishda o'zlashtirish, ilmiy masalalarning tuzilishini tez bilib olish uchun ham muhim rol o'ynaydi. Mantiqning ilmiy – nazariy ishlar hamda insonning amaliy faoliyati uchun bo'lgan ahamiyatini alohida uqtirish bilan birga, chin huloa chiqarishning hal qiluvchi sharti – hayotni chuqur o'rganish, har bir voqelikdagi hollarni mantiq talablari asosida bilish zarur.

Mantiq fanining fikr yuritish madaniyatini o'stirishdagi ahamiyati

10-MAVZU. MANTIQ ILMINING PREDMETI, ASOSIY QONUNLARI. TUSHUNCHA TAFAKKUR SHAKLI SIFATIDA

Mantiq inson tafakkuri madaniyatini ko'tarish va insoniyatning uzoq tajribasi natijasida takomillashgan tafakkur shakllari, qonunlari va qoidalarini bilish uchun xizmat qiladi. U inson fikrining ketma – ket, ziddiyatsiz va asosli bo'lishini ta'minlaydi. Mantiq fani mazmunini chuqurroq o'rganish kishilarning o'z tafakkuri va o'zgaralar tafakkuri natijalariga tanqidiy qarash xislatlarini rivojlantiradi. Tafakkurning bu sifatlari esa insonning turli ilmiy va amaliy faoliyatlari sohasidagi ishi uchun katta ahamiyatga ega. Mantiqiy usullardan to'g'ri foydalana olish, ta'lim tarbiya jarayonida isbot va raddiyaning mantiqiy tomonlarini bilish talabalarda o'z nutqining asosli bo'lishini ta'minlaydi, fikrdagi ziddiyatlarni ochishga yordam beradi.

Mantiqni yaxshi bilish turli ilmiy uchrashuvlar, munozaralar, muhokamalarda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Xususan, bunday hollarda fikrlash sub'ekti haqiqatni aniqlash yoki uning sofligini saqlab qolish, asoslash uchun mantiqiy qonun – qoidalarni to'g'ri tadbiiq eta bilishi, suxbatdoshining fikridagi xatolarni tez topa olishi, o'z fikrini dalilli qilib bayon etishi zarur. Bu esa uning mantiq fanini yaxshi bilishiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Tushuncha – tafakkurning mantiqiy shakli Tushuncha – predmet va hodisalarning umumiy, muhim belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shaklidir.

Belgilar deb, predmetlarni bir-biridan farq qiluvchi hamda ularning bir-biriga o'xshashligini ifoda qiluvchi tomonlarga, xususiyatlarga aytiladi.

Belgilar muhim yoki nomuhim bo'ladi. Predmet belgisining muhim yoki nomuhim bo'lishi, bizning predmetga amalda qanday munosabatda bo'lishimizga qarab ham belgilanadi. Xususan, bir munosabatda muhim bo'lmagan belgilar boshqa munosabatda muhim bo'lishi mumkin. Masalan, kishining layoqati uning qanday kasbni tanlashi uchun muhim bo'lsa, inson sifatida mavjud bo'lishi uchun muhim emas. Bunday muhim belgilar predmetning ma'lum bir munosabatdagi muhim belgilari deyilib, ob'ektiv muhim belgilardan (predmetning mavjud bo'lishi bilan zaruriy aloqada bo'lgan belgilardan) farq qiladi.

Predmet to'xtovsiz harakatda, taraqqiyotda bo'lganligi uchun vaqt o'tishi bilan uning muhim bo'lgan belgisi nomuhim bo'lgan belgiga yoki aksincha, nomuhim belgisi muhim belgiga aylanishi mumkin.

Masalan, bevosita kuzatiladigan faktlar empirik bilish bosqichida muhim ahamiyatga ega bo'lsa, nazariy bilish bosqichida unga kamroq murojaat qilinadi. Demak, tushunchada predmet o'zining muhim belgilari orqali fikr qilinib, bu belgilar predmetning umumiy va individual belgilari bo'lishi mumkin. Masalan, «G'afur G'ulom» tushunchasida predmetning umumiy belgilari (inson, shoir) bilan bir qatorda, individual muhim belgilari (xususan, «Sen etim emassan» she'rining muallifi) ham fikr qilinadi.

Tushunchaning hissiy bilish shakllaridan tubdan farq qilishiga alohida e'tibor berish zarur. Sezgi, idrok va tasavvur predmetning yaqqol obrazlaridir. Biz faqat birorta konkret predmetni, masalan, o'zimiz yozib o'tirgan qalamni idrok qilishimiz yoki u

10-MAVZU. MANTIQ ILMINING PREDMETI, ASOSIY QONUNLARI. TUSHUNCHA TAFAKKUR SHAKLI SIFATIDA

to'g'risida tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin. «Umuman qalam»ni idrok qilib bo'lmaydi. Chunki tushuncha predmetning yaqqol obrazi emas, balki abstrakt obrazidir. Qalam tushunchasi o'zida konkret qalamlarning barchasini qamrab olgani holda, ularning har biriga xos bo'lgan individual belgilarni tashlab yuborib, umumiy, muhim belgilarini ifoda qiladi. Ayni paytda bu belgilar qalamni boshqa predmetlardan, masalan, kitobdan farq qildirib turadigan maxsus belgilar bo'lib ham xizmat qiladi.

Tushuncha predmetning nomuhim belgilaridan chetlashar ekan, demak, uni to'raligicha aks ettira olmaydi. Bu ma'noda u hissiy bilish shakllariga nisbatan borliqdan uzoqroqda turadi. Lekin, tushuncha predmetning muhim belgilarini in'ikos qilishi, mohiyatini aks ettirishi bilan hissiy bilish shakllariga nisbatan borliqni chuqurroq, to'laroq ifoda etadi.

Tushuncha, hissiy bilish shakllaridan farqli o'laroq, inson miyasida to'g'ridanto'g'ri aks etmaydi. U ma'lum bir mantiqiy usullardan foydalanilgan holda hosil qilinadi. Bu usullar taqqoslash, tahlil, sintez, abstraksiyalash, umumlashtirishlardan iborat.

Taqqoslash yordamida predmetlar o'zaro solishtirilib, ularning o'xshash, umumiy tomonlari va bir-biridan farq qiluvchi individual belgilari aniqlanadi.

Taqqoslash tahlilni taqozo qiladi. Chunki predmetlarni yaxlit holda solishtirib bo'lmaydi. Ular u yoki bu xossasiga ko'ra taqqoslanishi kerak. Buning uchun u xossalar ajratilishi lozim. Tahlil yordamida predmet fikran uni tashkil qiluvchi qismlar, tomonlarga ajratilib, har qaysisi alohida o'rganiladi.

Sintez tahlilga teskari usul bo'lib, u tahlil davomida ajratilgan qismlar, tomonlarni fikran birlashtirib, predmetni bir butun holga keltirishdan iborat. Sintez bo'lmasa predmet haqida yaxlit fikr hosil qilib bo'lmaydi. Tahlil va sintez uzviy bog'liqdir. Tushuncha hosil qilish uchun predmetning yuqoridagi usullar bilan aniqlangan umumiy va individual belgilarining muhimlari ajratilishi, nomuhimlari chetlashtirilishi lozim. Bu esa abstraksiyalash yordamida amalga oshiriladi.

Umumlashtirishda predmetlar ularning ayrim umumiy, muhim xususiyatlariga ko'ra sinflarga birlashtiriladi va shu tariqa bitta tushunchada bir jinsli predmetlarning barchasini fikr qilish imkoniyati yaratiladi.

Tushunchaning shakllanishi so'z bilan uzviy bog'liq. Ular o'rtasidagi aloqadorlik tafakkur va til o'rtasidagi bog'lanishning konkret tarzda namoyon bo'lishidir. Tushunchalar so'z va so'z birikmalari yordamida ifoda qilinadi. Masalan, «talaba», «falsafa fakulteti», «O'zbekiston milliy universiteti» va shu kabilar so'zlardan iborat. Lekin bundan tushuncha va so'z aynan bir xildir, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Bitta tushuncha har xil tillarda, ba'zan bir tilda ham turli xil so'zlar bilan ifoda qilinadi. Tilimizdagi omonim va sinonim hodisalari so'z va tushunchaning nisbiy mustaqil holda mavjudligidan dalolat beradi.

SHuni ham aytish lozimki, so'zning ko'p ma'noga ega bo'lishi ba'zan fikr yuritish jarayonida tushunchalarni aralashtirib yuborishga olib keladi. SHuning uchun ham fan va texnikada ko'proq terminlardan foydalaniladi. Termin qat'iy bitta

tushunchani ifoda qiluvchi soʻz boʻlib, muayyan ilmiy bilish sohasida bir xil maʼnoda ishlatiladi.

Tushunchaning mazmuni va hajmi

Tushuncha oʻzining mazmuni va hajmiga ega. Tushunchaning mazmunini unda fikr qilinayotgan predmetning muhim belgilari toʻgʻrisidagi axborot tashkil etadi. Masalan, «fan» tushunchasining mazmunini fanning muhim belgilari, yaʼni uning amaliyot bilan aloqada ekanligi, predmetlarning birorta sohasiga oid tushunchalar, qonunlar, prinsiplar shaklidagi obʼektiv chin (haqiqiy) bilimlar tizimidan iborat boʻlishi, dunyoqarashning shakllanishida ishtirok qilishi va shu kabilar tashkil qiladi.

Tushunchaning hajmi esa, unda fikr qilinayotgan predmetlar yigʻindisini aks ettiradi. Masalan, yuqorida misol qilib keltirilgan «fan» tushunchasining hajmi mavjud barcha fanlarni: matematika, fizika, mantiq va hokazolarni oʻzida qamrab oladi.

Tushunchaning mazmuni va hajmi uzviy bogʻliq boʻlib, u tushunchaning mazmuni va hajmi oʻrtasidagi teskari nisbat qonuni yordamida ifodalanadi. Bu qonunga muvofiq tushunchaning hajmi kengaytirilsa, mazmuni torayadi va aksincha, hajmi toraytirilsa, mazmuni kengayadi. Masalan, «fan» tushunchasining mazmuniga «mantiq»qa oid boʻlish belgisini qoʻshish bilan hajm jihatidan undan torroq boʻlgan «mantiq fani» tushunchasiga oʻtiladi.

«Fan» tushunchasining hajmini kengaytirish bilan mazmun jihatidan unga nisbatan torroq boʻlgan «ijtimoiy ong shakli» tushunchasi hosil qilinadi. Bunda faqat fanga xos boʻlib, boshqa ijtimoiy ong shakllarida, masalan, huquqiy ongda boʻlmagan spetsifik belgilar tushuncha mazmunidan chiqarib tashlanadi.

Bu qonun tushunchalar bilan olib boriladigan qator mantiqiy amallar asosida yotadi.

Tushunchaning turlari

Mantiqda tushunchalar mazmuni va hajmi boʻyicha bir qancha turlarga boʻlinadilar. Xususan, hajmiga koʻra yakka va umumiy tushunchalar farq qilinadi. YAKKA tushunchaning hajmida bitta predmet fikr qilinadi. Masalan, «Mars planetasi», «OʻZMU asosiy kutubxonasi» va shu kabilar yakka tushunchalardir. Umumiy tushunchalar predmetlar guruhini aks ettiradi. «Planeta», «Kutubxona» tushunchalari umumiy tushunchalar hisoblanadi. Umumiy tushunchalar aks ettiruvchi predmetlarning miqdori chegaralangan va chegaralanmagan boʻlishi mumkin. Masalan, «kimyoviy element» tushunchasida fikr qilinayotgan predmetlar soni chegaralangan. «YUlduz» tushunchasi hajmini tashkil qiluvchi predmetlar soni esa cheksiz.

Fikr yuritish jarayonida ayiruvchi va toʻplovchi tushunchalarni farq qilish ham muhim ahamiyatga ega. Ayiruvchi tushuncha shunday umumiy tushunchaki, u aks ettiruvchi belgilar berilgan sinfnig har bir predmetiga xosdir. Toʻplovchi tushuncha ham umumiy tushuncha boʻlib, u aks ettirgan belgilar shu umumiylikni tashkil etuvchi har bir predmetga taaluqli boʻlmaydi. Masalan, «konferensiya» – toʻplovchi, «konferensiya ishtirokchisi» – ayiruvchi.

10-MAVZU. MANTIQ ILMINING PREDMETI, ASOSIY QONUNLARI. TUSHUNCHA TAFAKKUR SHAKLI SIFATIDA

Mazmuni bo'yicha tushunchalar, avvalambor, abstrakt va konkret tushunchalarga bo'linadi. Konkret tushunchalarda predmet o'zining belgilari bilan birgalikda fikr qilinadi. Abstrakt tushunchalarda esa predmetning belgilari undan fikran ajratib olinib, alohida aks ettiriladi. Masalan, «Inson», «Tabiat» tushunchalari – konkret tushunchalar, «Qahramonlik» (insonga xos xususiyatni aks ettiradi), «Go'zallik» (borliqdagi predmetlarga xos xususiyatni ifoda qiladi) tushunchalari abstrakt tushunchalardir.

Mazmuni bo'yicha yana nisbatsiz va nisbatdosh tushunchalarni ham ajratish mumkin. Nisbatsiz tushunchalar nisbatan mustaqil, alohida mavjud bo'lgan predmetlarni aks ettiradi. «Davlat», «Badiiy asar» ana shunday tushunchalardir.

Nisbatdosh tushunchalar esa zaruriy ravishda bir-birining mavjud bo'lishini taqozo qiladigan predmetlarni aks ettiradi. Masalan, «O'qituvchi» va «O'quvchi», «Ijobiy qahramon» va «Salbiy qahramon», «Sabab» va «Oqibat» tushunchalari nisbatdosh tushunchalar qatoriga kiradi.

Ba'zi hollarda ijobiy va salbiy tushunchalar ham farq qilinadi. Ijobiy tushunchalarning mazmunida predmet unga xos belgilar orqali fikr qilinsa, salbiy tushunchalarning mazmunida predmet unga xos bo'lmagan belgilar orqali fikr qilinadi. Masalan, «savodli kishi», «vijdonli kishi» – ijobiy tushunchalar, «savodsiz kishi», «vijdonsiz kishi» esa salbiy tushunchalardir.

Biz yuqorida tushunchalarning bir qancha turlari bilan tanishib chiqdik. U yoki bu tushunchaning ana shu turlardan qaysilariga mansub ekanligini aniqlash unga mantiqiy tavsif berish demakdir. Masalan, «talaba» – umumiy, ayiruvchi, chegaralangan, aniq, nisbatsiz, ijobiy tushuncha; «A. Navoiy nomli O'zbekiston davlat kutubxonasi» – yakka, to'plovchi, chegaralangan, konkret, nisbatsiz, ijobiy tushunchadir.

Tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar

Ob'ektiv dunyodagi barcha predmet va hodisalar o'zaro aloqada bo'lganligi uchun ularni aks ettiruvchi tushunchalar ham o'zaro ma'lum bir aloqalarda, munosabatlarda mavjud. Bu munosabatlar turli xil bo'lib, ularni aniqlash uchun, avvalambor, taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan tushunchalarni farq qilish lozim.

Taqqoslanadigan tushunchalar umumiy belgilarga ega bo'lgan, mazmuni va hajmi jihatidan bir-biriga yaqin turgan tushunchalardir. Masalan, «paxtakor» va «dehqon» tushunchalari ana shunday taqqoslanadigan tushunchalar hisoblanadi. Taqqoslanmaydigan tushunchalar esa bir-biri bilan uzoq aloqada bo'lgan, ko'p hollarda moddiy yoki ideal bo'lishdan boshqa umumiy belgiga ega bo'lmagan predmetlarni aks ettiruvchi tushunchalardir. «Ijtimoiy progress» va «Zuhro yulduzi», «ideal gaz» va «go'zallik» tushunchalari taqqoslanmaydigan tushunchalar deb hisoblanadi. Mantiqda faqat taqqoslanadigan tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy

**10-MAVZU. MANTIQ ILMINING PREDMETI, ASOSIY QONUNLARI.
TUSHUNCHA TAFAKKUR SHAKLI SIFATIDA**

munosabatlar o'rganiladi. Taqqoslanadigan tushunchalar esa hajm jihatidan sig'ishadigan va sig'ishmaydigan bo'ladi.

Sig'ishadigan tushunchalarning hajmi bir-biriga butunlay, to'laligicha yoki qisman mos keladi. Ular o'rtasida uch xil munosabat mavjud: moslik, qisman moslik va bo'ysunish. Moslik munosabatidagi tushunchalar bitta predmetni (predmetlar sinfini) aks ettiruvchi tushunchalar bo'lib, ular bir-biridan faqat azmuni bilangina farq qiladi.

Qisman moslik munosabatidagi tushunchalarning hajmi qisman umumiylikka ega. Masalan:

A – Sportchi.

V – Talaba.

Doiralarning shtrixlangan qismi bir vaqtning o'zida ham sportchi, ham talaba bo'lganlarni bildiradi.

Bo'ysunish munosabatida tushunchalardan birining hajmi ikkinchisining hajmiga to'liq kirib, uni tashkil qiluvchi qism hisoblanadi. Masalan:

A – Fan.

V – Mantiq.

Bu munosabatdagi tushunchalardan biri bo'ysundiruvchi (A), ikkinchisi (V) bo'ysunuvchi bo'lib, ular jins-tur munosabatida bo'ladi. Jins tushuncha predmetlarning birorta sinfini, tur tushuncha esa shu sinfga mansub predmetlarning bir guruhini yoki bittasini aks ettiradi. Mantiqda u yoki bu tushunchaning jins yoki tur ekanligi nisbiy xarakterga ega. Har bir tushuncha o'zidan umumiyroq tushunchaga nisbatan tur, kamroq umumlashgan tushunchaga nisbatan jinsdir. Masalan, milliy g'oya, g'oya, fikr tushunchalari o'rtasida quyidagi nisbat mavjud: «g'oya» tushunchasi «fikr» tushunchasiga nisbatan tur, «milliy g'oya» tushunchasiga nisbatan jins bo'ladi.

Sig'ishmaydigan tushunchalar hajmi jihatidan umumiylikka ega bo'lmagan tushunchalar hisoblanib, bir sinfga kiruvchi har xil predmetlarni yoki predmetlar guruhini aks ettiradi. Ularning umumiyligi faqat ana shunda. Bu tushunchalar o'rtasida ham uch xil munosabat bor: birga bo'ysunish, qarama-qarshilik, zidlik. Birga bo'ysunish munosabati quyidagi tushunchalar o'rtasida mavjuddir:

A – Fan.

V – Mantiq.

S – Fizika.

Bunda «mantiq» va «fizika» tushunchalari hajmlari jihatidan birgalikda «fan» tushunchasining hajmiga bo'ysunadi.

Qarama-qarshilik munosabatidagi tushunchalarning hajmlari bir-birini istisno qiladi. Ular predmetning (predmetlar guruhining) qarama-qarshi belgilarini aks ettiradi, ya'ni biri predmetning ma'lum bir belgisini ifoda qilsa, ikkinchisi uni inkor qiluvchi boshqa belgini aks ettiradi. Qarama-qarshilik munosabatidagi tushunchalar o'zlari

**10-MAVZU. MANTIQ ILMINING PREDMETI, ASOSIY QONUNLARI.
TUSHUNCHA TAFAKKUR SHAKLI SIFATIDA**

bo'ysunadigan tushunchaning hajmini to'liq egallay olmaydi. Masalan, «baland bo'yli odam» va «past bo'yli odam» tushunchalari «odam» tushunchasining hajmini to'liq qoplay olmaydi.

A – Odam.

V – Baland bo'yli odam. A

S – Past bo'yli odam.

Zidlik munosabatidagi tushunchalardan biri predmetning birorta xususiyatini ifoda qilsa, ikkinchisi uni inkor qiladi va mazmun jihatidan noaniq bo'lib qoladi. Zidlik munosabatidagi tushunchalar, qarama-qarshilik munosabatidagi tushunchalardan farqli o'laroq, bo'ysundiruvchi tushunchaning hajmini to'liq qoplaydi. Masalan:

A – Odam.

V – E'tiqodli odam.

S – E'tiqodsiz odam. A

Tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish ularning mazmuni va hajmini aniqlashtirishga, ularni bog'lab, bir fikr shaklidan boshqa fikr shakliga o'tishga yordam beradi. Masalan, «talaba» va «a'lochi» tushunchalari o'rtasidagi munosabatni aniqlash asosida «Ba'zi talabalar a'lochilardir» degan mulohaza shaklidagi fikrni hosil qilish mumkin.

Tushunchalarni chegaralash va umumlashtirish

Tushunchalarni chegaralash va umumlashtirish tushunchalar ustida olib boriladigan amallar hisoblanadi. Ular tushunchaning mazmuni va hajmi o'rtasidagi teskari nisbat qonuniga muvofiq holda amalga oshiriladi.

Tushunchani chegaralash hajmi keng tushunchadan hajmi tor tushunchaga (jins tushunchadan tur tushunchaga) fikran o'tishdan iborat. Masalan, «mexanik harakat» tushunchasidan «aylanma harakat» tushunchasiga o'tsak, uning hajmini chegaralagan bo'lamiz. CHegaralashda berilgan tushuncha – «mexanik harakat» jins tushuncha, deb qabul qilinib, uning mazmuniga tur tushuncha hosil qiluvchi belgilar qo'shiladi. Natijada unga nisbatan tur hisoblangan yangi tushuncha – «aylanma harakat» tushunchasi hosil bo'ladi.

CHegaralash amalini davom ettirib, «Erning o'z o'qi atrofida aylanishi» tushunchasiga o'tish mumkin. Demak, chegaralash davomida hosil bo'lgan har bir yangi tushuncha avvalgisiga nisbatan tur tushuncha bo'ladi. CHegaralash amali yakka tushuncha hosil bo'lguncha davom ettirilishi mumkin. CHunki yakka tushunchaga nisbatan tur bo'lgan tushuncha yo'q.

Tushunchani chegaralash amalining tuzilmasi quyidagicha:

A – Harakat.

V – Mexanik harakat.

S – Aylanma harakat.

D – Erning o'z o'qi atrofida aylanishi.

Tushunchani umumlashtirish hajmi tor tushunchadan hajmi keng tushunchaga (tur tushunchadan jins tushunchaga) fikran o'tishdan iborat. Bunda berilgan tushuncha

**10-MAVZU. MANTIQ ILMINING PREDMETI, ASOSIY QONUNLARI.
TUSHUNCHA TAFAKKUR SHAKLI SIFATIDA**

tur tushuncha deb qabul qilinib, uning mazmunidan tur hosil qiluvchi belgilar chiqarib tashlanadi. Natijada mazmun jihatidan unga nisbatan torroq, lekin hajmiga ko'ra kengroq bo'lgan jins tushuncha hosil bo'ladi. Masalan, «aylanma harakat» tushunchasi mazmunidan faqat ungagina xos bo'lgan tur belgilarni chiqarib tashlasak, «mexanik harakat» tushunchasini hosil qilamiz. Umumlashtirish amalining chegarasi eng umumiy tushuncha, ya'ni kategoriyadir. Chunki kategoriyalar uchun jins bo'lgan tushuncha yo'q.

Tushunchani umumlashtirish amalining tuzilmasi quyidagicha:

A – Erning o'z o'qi atrofida aylanishi.

V – Aylanma harakat.

S – Mexanik harakat.

D – Harakat.

Tushunchani chegaralash va umumlashtirish amallari kundalik hayotimiz va ilmiy bilishda keng qo'llaniladi. Xususan, barcha kategoriyalar, ular yordamida ifodalanadigan nazariy qonunlar, g'oyalar, nazariyalar mavjud empirik tushunchalarni, empirik qonunlarni umumlashtirish natijasida hosil bo'ladi. Umumlashtirish muhokama yuritish jarayonida induktiv xulosa chiqarish usulida yaqqol ifodalangan bo'ladi. Tushunchalarni umumlashtirishsiz fanning fundamental tushunchalarini yaratib bo'lmaydi; mavjud bilimlarni tizimga solish qiyin va umuman, fan taraqqiy eta olmaydi.

Tushunchalarni chegaralash amali esa, yaratilgan umumiy bilimlarni (nazariy tushuncha, g'oya, nazariya va shu kabilarni) talqin etishda ishlatiladi. Masalan, Nyuton mexanikasidagi «Inersiya» tushunchasi Galiley nazariyasidagi «Erkin tushish» tushunchasi yordamida tushuntirilishi mumkin.

Tushunchaning hajmini unda aks etgan predmetlarni ayrim guruhlariga (ayrim predmetlarga) ajratish yo'li bilan aniqlashga tushunchani bo'lish deyiladi. Bo'lish amalini bo'linuvchi tushuncha (hajmi aniqlanishi lozim bo'lgan tushuncha), bo'lish asosi (predmetning tushunchada fikr qilinadigan birorta umumiy belgisi) va bo'lish a'zolari (bo'lish natijasida hosil qilinadigan tur tushunchalar) tashkil etadi. Masalan, «inson»larni (bo'linuvchi tushuncha) jinsiga ko'ra, (bo'lish asosi) erkak va ayollar (bo'lish a'zolari)ga ajratish yo'li bilan uning hajmi aniqlanadi. Bo'linuvchi tushuncha – jins tushuncha, bo'lish a'zolari – tur tushunchalar bo'lib, ular o'zaro birga bo'ysunish munosabatidadirlar.

Tushunchalarni bo'lish amalini predmetlarni qismlarga ajratishdan farq qilish lozim. Masalan, avtomobilni kuzov, shassi, dvigatel va shu kabilarga ajratsak, uni qismlarga bo'lgan bo'lamiz. Predmetning qismi predmetning umumiy belgilariga ega bo'lmasligi mumkin. SHuning uchun ham «Kuzov avtomashinadir», degan mulohaza hosil qilsak, u xato bo'ladi. Agar «Avtomobil» tushunchasini «Engil avtomobil», «YUK tashuvchi avtomobil» tushunchalariga ajratsak, uni bo'lgan bo'lamiz.

**10-MAVZU. MANTIQ ILMINING PREDMETI, ASOSIY QONUNLARI.
TUSHUNCHA TAFAKKUR SHAKLI SIFATIDA**

Bo'lishning ikkita turi mavjud: asos bo'lgan belgining o'zgarishiga qarab bo'lish va dixotomik bo'lish. Birinchi turida predmetning birorta umumiy belgisi bo'lish uchun asos qilib olinib, uning o'zgarishiga muvofiq holda predmetlarning ayrim guruhlarini aniqlanadi. Masalan, burchakning o'zgarishiga qarab «uchburchak» tushunchasini uchta tur tushunchaga: «to'g'ri burchakli uchburchak», «o'tmas burchakli uchburchak», «o'tkir burchakli uchburchak»larga ajratiladi. Bo'lish asosi qilib bo'linuvchi tushunchaning mazmunida fikr qilinadigan har qanday umumiy belgini olish mumkin. Masalan, «uchburchak» tushunchasini tomonlariga qarab «teng tomonli uchburchak», «teng yonli uchburchak», «turli tomonli uchburchak» tushunchalariga ajratish mumkin.

Tushunchaning qaysi belgisini bo'lish asosi qilib olish bo'lishda hal qilinishi lozim bo'lgan vazifaga bog'liq. Lekin qanday vazifani hal qilishdan qat'i nazar, bo'lish o'zining ob'ektiv asosiga ega bo'lishi lozim, ya'ni bo'lish asosi bo'lgan belgi predmetning umumiy belgisi bo'lishi shart.

Dixotomik bo'lish bo'linuvchi tushunchani o'zaro zid bo'lgan ikkita tur tushunchaga ajratishdan iborat. Masalan, barcha kishilarni «dindorlar» va «dindor emaslar»ga ajratsak, dixotomik tarzda bo'lgan bo'lamiz. Dixotomik bo'lish bir qator qulayliklarga ega. Xususan, bunda biz bo'linuvchi tushunchaning barcha turlarini ko'rsatib o'tirmasdan, o'zimizga kerakligini ajratamiz, qolganlarini unga zid bo'lgan tushunchaga birlashtiramiz. SHu bilan birga dixotomik bo'lish ma'lum bir kamchiliklarga ham ega. Masalan, inkor tushunchaning hajmi noaniq bo'ladi. Undan tashqari, dixotomik bo'lishdan faqat bir marta foydalangandagina kutilgan maqsadga erishish mumkin. Agar, bo'lish a'zolaridan biri, ayniqsa, inkor tushunchani o'z navbatida bo'linuvchi tushuncha deb qabul qilib, bo'lish amalini davom ettirsak, xato natijalar kelib chiqishi mumkin.

Bo'lish amali to'g'ri borishi uchun ma'lum bir qoidalarga rioya qilish kerak. Ular bo'lish qoidalari deb ataladi.

A. Bo'lish teng hajmli bo'lishi, ya'ni bo'lish a'zolari hajmlarining yig'indisi bo'linuvchi tushuncha hajmiga teng bo'lishi kerak. Bu qoida buzilsa, bo'lish to'liqsiz yoki ortiqcha bo'lib qoladi. Birinchi xil xatoda ba'zi bo'lish a'zolari ko'rsatilmay qoladi. Masalan, «fe'l zamonlari» tushunchasini «o'tgan zamon fe'li» va «hozirgi zamon fe'li» tushunchalariga ajratsak, ana shunday xato ro'y beradi. CHunki «kelasi zamon fe'li» tushunchasi qolib ketgan. Ikkinchi xil xatoda esa ortiqcha bo'lish a'zosi ko'rsatilgan bo'ladi. Masalan, «bilish» tushunchasini «hissiy bilish», «tafakkur», «nazariy bilish»ga ajratib bo'lmaydi. CHunki «nazariy bilish» bu erda ortiqchadir.

B. Bo'lish bir asos bo'yicha amalga oshirilishi lozim. Boshqacha aytganda, asos qilib olingan belgi bo'lish davomida boshqa belgi bilan almashtirilmasligi zarur. Masalan, «Qonun» tushunchasini «Tabiat qonuni», «Jamiyat qonuni», «Bilish qonuni», «Statistik qonun», «Dinamik qonun» tushunchalariga bo'lsak, xato qilgan bo'lamiz. CHunki bu erda bo'lish asosi bir emas, ikkita. Birinchi uchta bo'lish a'zosi

**10-MAVZU. MANTIQ ILMINING PREDMETI, ASOSIY QONUNLARI.
TUSHUNCHA TAFAKKUR SHAKLI SIFATIDA**

qonunning amal qilish sohasi bo'yicha, qolgan ikkitasi qonun ifoda qiluvchi hodisalar xarakteri bo'yicha ajratilgan. Bu bilan bo'lishdagi izchillik yo'qolgan.

V. Bo'lish a'zolari hajmi bo'yicha bir-birini istisno qilishi kerak. Buning uchun ular birga bo'ysunish munosabatidagi tushunchalar bo'lishi kerak. Agar «Bino» tushunchasini «Bir qavatli bino», «Ko'p qavatli bino», «Osmono'par bino» tushunchalariga bo'lsak, xatoga yo'l qo'ygan bo'lamiz. Chunki «Ko'p qavatli bino» tushunchasi bilan «Osmono'par bino» tushunchasi bir-birini hajmi bo'yicha istisno qilmaydi.

G. Bo'lish uzluksiz holda amalga oshirilishi, unda «sakrash» bo'lmasligi kerak. Buning uchun jins tushunchaga eng yaqin bo'lgan bir tartibdagi tur tushunchalar olinmog'i lozim. Masalan, «Gap» tushunchasini «Sodda gap», «Ergashgan qo'shma gap», «Bog'langan qo'shma gap» tushunchalariga ajratsak, bo'lishdagi izchillik yo'qoladi. Bunda oxirgi ikkita bo'lish a'zosi «qo'shma gap» tushunchasining turlaridir. Demak, «sakrash» hodisasi ro'y bergan.

Tasniflash (turkumlash, klassifikatsiya) tushunchalarni bo'lishning alohida turidir. Tasniflash predmetlarni ma'lum bir turlarga (kichik sinflarga yoki ayrim predmetlarga) ajratishdan iborat bo'lib, bunda har bir tur boshqalariga nisbatan o'zining aniq va qat'iy o'rniga ega. Tasniflash natijalari har xil jadvallar, tuzilmalar, grafiklar, kodekslar va shu kabilarda o'z aksini topadi.

Mantiqda sun'iy va tabiiy tasniflar farq qilinadi. Sun'iy tasnif predmetlarning birorta umumiy belgisiga ko'ra amalga oshiriladi. Unga misol qilib kutubxonadagi kitoblar katalogini ko'rsatish mumkin. Tabiiy tasnifni amalga oshirish uchun bo'lish asosi qilib predmetlarning birorta muhim belgisini olish kerak. Ana shuning uchun ham u predmetlarning ayrim muhim xossalari haqida fikr yuritish, qonuniy bog'lanishlarini aniqlash imkonini beradi. Bunga Mendeleevning kimyoviy elementlar davriy jadvali, Darvinning jonli tabiat predmetlari tasnifi misol bo'la oladi.

Tasniflashda tushunchani bo'lish qoidalariga amal qilish zarur.

Tasniflar nisbiy turg'un xarakterga ega. Ular bilishda va kundalik turmushda uzoq yillar davomida ishlatiladi.

Albatta, bilimlarimizning taraqqiy etishi, yangi bilimlarning vujudga kelishi ko'p hollarda tasniflarga tuzatishlar kiritishni, ba'zan esa butunlay yangisi bilan almashtirilishini taqozo etadi. SHunga qaramasdan, tasniflash mavjud bilimlarimizni tizimga solish vositasi sifatida bilishda o'zining muhim ahamiyatiga ega bo'lib qoladi.

Tushunchalarni ta'riflash (definitsiya)

Ta'riflash (yoki definitsiya) tushunchaning mazmunini ochib beradigan mantiqiy amaldir. Ta'rif aniqlanuvchi va aniqlovchi qismlardan tashkil topadi. Aniqlanuvchi qismni mazmuni ochib berilishi lozim bo'lgan tushuncha, aniqlovchi qismni esa, aniqlanuvchi tushunchaning mazmunini ochib beruvchi tushunchalar tashkil etadi.

Masalan, «mantiq to'g'ri tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi falsafiy fandir» degan ta'rifda «Mantiq» aniqlanuvchi qismni, qolganlari esa aniqlovchi

**10-MAVZU. MANTIQ ILMINING PREDMETI, ASOSIY QONUNLARI.
TUSHUNCHA TAFAKKUR SHAKLI SIFATIDA**

qismni hosil qiladi. Ta'riflash bilishda quyidagi asosiy vazifalarni hal qilishda yordam beradi: 1) tushunchada aks etuvchi predmetning muhim belgilarini ko'rsatadi; 2) tushunchani ifoda qiluvchi so'zning (termining) ma'nosini ochib beradi; 3) termin hosil qilishga imkon beradi. YUqoridagi vazifalardan qaysi birining hal qilinishiga qarab nominal va real ta'riflar farq qilinadi.

Nominal ta'riflar yordamida predmetni tasvirlovchi murakkab ifodalar yangi termin bilan almashtiriladi hamda uning ma'nosi aniqlanadi. Masalan, «Mantiq grekcha «logos» so'zidan olingan bo'lib, tushuncha, fikr, so'z, qonuniyat kabi ma'nolarga ega», desak, mantiq tushunchasiga nominal ta'rif bergan bo'lamiz. «Til belgilarini o'rganuvchi fan semiotikadir», degan ta'rif ham nominal ta'rifga misoldir.

Real ta'rifda predmetning muhim belgisi aniqlanadi. Masalan, «Atom – moddaning yadro va elektronlardan tashkil topgan zarrachasi», degan ta'rif real ta'rifdir.

Real ta'rif aniq va noaniq ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Aniq real ta'rif predmetlarning muhim belgilarini to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatib beradi. Noaniq real ta'rifda esa tushunchaning mazmuni yordamchi vositalar orqali ochib beriladi. Masalan, o'qigan parchamizda notanish terminlar uchrab qolganda, uning ma'nosini lug'atdan foydalanmasdan, boshqa so'zlarning ma'nosiga qarab aniqlashimiz mumkin.

Aniq real ta'rifning ikkita asosiy turi mavjud: 1) yaqin jinsi va tur belgisini ko'rsatish orqali ta'riflash; 2) genetik ta'rif.

Yaqin jinsi va tur belgisini ko'rsatish orqali ta'riflash real ta'rifning eng ko'p ishlatiladigan turi bo'lib, u ikkita bosqichdan tashkil topadi. Birinchi bosqichda aniqlanuvchi tushunchaning yaqin jinsi topiladi. SHu tariqa uning mazmuni qisman ochib beriladi. Ikkinchi bosqichda aniqlanuvchi tushunchaning shu jinsga kiruvchi boshqa tur tushunchalardan farqi aniqlanadi, ya'ni uning tur belgisi ko'rsatiladi. SHu tariqa mazkur tushuncha mazmunining qolgan qismi ochib beriladi. Masalan, bizning oldimizda «metafora» tushunchasining mazmunini aniqlash vazifasi turibdi, deylik. Bunda, avval aniqlanuvchi tushunchaning yaqin jinsi topiladi: u «so'z» tushunchasidir. «Metafora so'zdir» deyish bilan «so'z» tushunchasi mazmunida fikr qilinadigan muhim belgilarning metaforaga ham tegishli ekanligini ko'rsatamiz, ya'ni «metafora» tushunchasi mazmunini tashkil etuvchi umumiy belgilarni aniqlaymiz. Ko'chirma ma'noda ishlatilishi esa, metafora sifatida ishlatilayotgan so'zning tur belgisi, ya'ni individual belgisi hisoblanadi. Bu tur belgini yaqin jinsga qo'shib «Metafora ko'chirma ma'noda ishlatiladigan so'zdir», degan to'la ta'rif hosil qilamiz. SHu tariqa eng qisqa yo'l bilan, ya'ni yaqin jinsi va tur belgisini ko'rsatish bilan tushunchaning mazmunini aniqlaymiz.

Genetik ta'rifda aniqlanuvchi tushunchaning mazmuni u ifodalagan predmetning kelib chiqishini ko'rsatish orqali ochib beriladi. Masalan, «Oksid metallarning kislorod bilan reaksiyaga kirishishi natijasida hosil bo'lgan kimyoviy birikmadir», degan ta'rif genetik ta'rifga misoldir. Bu ta'rifning mantiqiy tarkibi yaqin jinsi va tur belgisini ko'rsatish orqali ta'riflash bilan bir xildir.

**10-MAVZU. MANTIQ ILMINING PREDMETI, ASOSIY QONUNLARI.
TUSHUNCHA TAFAKKUR SHAKLI SIFATIDA**

Ta'riflash ma'lum qoidalarga rioya qilishni talab etadi. Ular quyidagilardan iborat:

a) ta'rif teng hajmli bo'lishi kerak, ya'ni aniqlanuvchi tushuncha hajmi bilan aniqlovchi tushunchalar hajmlari yig'indisi teng bo'lishi kerak. Bu qoida buzilsa, ta'rif yo haddan tashqari keng, yo haddan tashqari tor bo'lib qoladi. Masalan, «Mantiq tafakkurni o'rganuvchi fandir» – haddan tashqari keng, «Mantiq isbotlash tarkibini o'rganuvchi fandir» – haddan tashqari tor ta'rifdir;

b) ta'rif aniq bo'lishi kerak. Buning uchun obrazli iboralar, mazmuni noaniq so'zlar ishlatilmasligi lozim. Masalan, «Xayol – uchqur ot», «Davlat dunyoviy ruhning siyosiy jihatdan namoyon bo'lishidir» (Gegel) degan ta'riflarda bu qoida talablari buzilgan. Ularda chuqur ma'no bo'lsa-da, tushunchaning mazmuni aniq ochib berilgan emas;

v) ta'rif aylana shaklida bo'lib qolmasligi kerak. Ta'rif berishda aniqlovchi tushunchaning mazmunini aniqlash uchun aniqlanuvchi tushunchaning o'ziga murojaat etilsa, ta'rifda aylana hosil bo'ladi. Masalan, «Mantiq to'g'ri fikrlash haqidagi fandir», deyilganda ta'rifda aylana vujudga keladi. Chunki «To'g'ri fikrlash nima?» degan savolga, «U mantiq qonun-qoidalariga rioya qilingan holda fikrlashdir», deb javob berishga to'g'ri keladi, ya'ni «mantiq» tushunchasiga murojaat qilinadi.

Tavtologiya ham shu qoidaning buzilishi natijasida sodir bo'ladi. Bunda aniqlanuvchi tushunchadan uning mazmunini ochish uchun foydalanilgan bo'ladi. Masalan, «Tamagir tamagirlik qiluvchi kishidir», desak, tavtologiyaga yo'l qo'ygan bo'lamiz.

g) Ta'rif iloji boricha inkor shaklida bo'lmasligi kerak. Aks holda predmetga xos bo'lgan belgi o'rniga unda yo'q bo'lgan belgi ko'rsatiladi. Masalan, «Ong moddiy emas», degan ta'rif «ong» tushunchasining mazmunini yaxshi ochib bera olmaydi.

Ta'riflashga o'xshash mantiqiy usullar

Bilish jarayonida ta'riflashga o'xshash usullar ham ishlatiladi. Ulardan tushunchani ta'riflashning yuqorida biz ko'rib chiqqan turlarini qo'llash mumkin bo'lmay qolganda yoki unga zaruriyat bo'lmaganda foydalaniladi:

a) ta'riflashga o'xshash usullardan biri tushunchani unga qarama-qarshi bo'lgan tushuncha orqali ta'riflashdir. Bu usul bilan odatda kategoriyalar mazmuni ochib beriladi. Masalan, «Ong materiyaning miyamizdagi in'ikosidir»;

v) tasvirlashda tushunchaning mazmuni u aks ettiruvchi predmetning ba'zi tashqi belgilarini ko'rsatish orqali aniqlanadi. Badiiy asarlarda tabiat manzaralarini, personajlarning portretlarini chizish, sodir bo'lgan birorta voqeaning bayon etilishi tasvirlashga misol bo'ladi;

s) tavsiflash yordamida predmetning ba'zi bir munosabatdagi muhim tur belgilari ko'rsatiladi. Bunga misol qilib birorta shaxsga berilgan tavsifnomani ko'rsatish mumkin.

Tafovutlash, ostensiv ta'riflash kabi usullar ham mavjuddir.

**10-MAVZU. MANTIQ ILMINING PREDMETI, ASOSIY QONUNLARI.
TUSHUNCHA TAFAKKUR SHAKLI SIFATIDA**

Ta'riflash bilishda katta ahamiyatga egadir. U qisqa holda predmet haqida yaxlit fikr, tasavvur hosil qilishga imkon beradi. Lekin predmet haqida fikr yuritganda u bilan cheklanib qolish mumkin emas. U, albatta, bilish jarayonida boshqa bilimlar yordamida konkretlashtirilishi, chuqurlashtirilishi zarur. Ana shundagina tushuncha ifoda etuvchi predmet haqidagi tasavvur aniq, to'laroq bo'ladi. Sinflar va kichik sinflar.

Tushunchaning hajmida ma'lum bir umumiy belgiga ega bo'lgan predmetlar to'plami–sinf aks etadi. Sinfni tashkil etuvchi predmetlar sinfning elementlari deb ataladi. Sinf elementlari cheklangan va cheksiz, noaniq yoki bo'sh bo'ladi. Sinf faqat bir elementdan ham tashkil topishi mumkin.

Sinflar bilan mantiqiy amallarni bajarganda sinf elementlari haqida aytilganda fikr umuman sinfga taaluqli deb ko'rsatilsa va aksincha sinfga xos belgi uning elementlariga ko'chirilsa mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi.

Matematik mantiqda sinf tushunchasi to'plam deb ataladi. Sinflar (to'plamlar) kichik sinflar (kichik to'plam)ni o'z ichiga olishi mumkin. Masalan; kvadratlar to'rtburchaklar to'plamiga kiruvchi kichik to'plamdir.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.:“O‘zbekiston”, 2014. 24 b
2. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
5. Karimov I.A. Asarlar to‘plami. 1-24 jildlar.- T.: O‘zbekiston 1996-2016.
6. Karimov I. A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. 2 nashr – T.:Ma‘naviyat, 2016 176-b.
7. Sharipov M. Fayzixo‘jayeva D. Mantiq. – T.: Unversitet, 2007. 214 b.
8. Xayrullaev M, Haqberdiev M. Mantiq. - T.: o‘qituvchi, 1993.
9. Sharipov M. Fayzixo‘jayeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma, -T., 2004

11-MAVZU. MULOHAZA. XULOSA CHIQARISH

REJA:

1. Mulohaza tafakkur shakli va xulosa chiqarishning tarkibiy qismi sifatida. Oddiy va murakkab mulohazalar va ularning turlari.
2. Murakkab mulohazalarning chin bo'lish shartlari.
3. Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi: tuzilishi, turlari va umumiy qoidalari.
4. Fikrning xarakter yo'nalishiga ko'ra xulosa chiqarish: deduksiya, induksiya va analogiya; ularning o'zaro aloqadorligi.
5. Murakkab mulohazalardan xulosa chiqarish.
6. Fikr yuritishda mulohazalarni qurish va xulosa chiqarish bilan bog'liq xatolar.

Tayanch iboralar: Hukm, sub'ekt, predikat, bog'lovchi, oddiy hukm, murakkab hukm, modal hukmlar, mantiqiy kvadrat. Xulosa chiqarish, deduktiv xulosa chiqarish, sillogizm, entimema, induktiv xulosa chiqarish, to'liq induksiya, ommabop induksiya, ilmiy induksiya, ilmiy induksiya metodlari, analogiya, munosabat analogiyasi, modellashtirish,,baxs yuritish, munozara, paralogizm, sofizm, mantiqiy paradoks.

Hukmlarning asosiy vazifasi predmetlarning xususiyat va munosabatlarini ko'rsatish, predmet va hodisalarga xususiyatning xosligini qayd qilishdir. Biz predmet va hodisalarning oddiy, tashqi xususiyatlari bilan birga, ularning ichki zaruriy bog'lanishlarini, munosabatlarini bilib boramiz. Predmet va hodisalarning xususiyatlarini ketma-ket o'rganib, ular haqida turli abstraksiyalar hosil qilamiz. Bu abstraksiyalar hukmlar yordamida ifodalanadi. Hukmlar orqali narsalar va hodisalar haqida bilimlar aks etadi. Ular haqida bilimlarimiz turlicha bo'lgani uchun ularni ifodalaydigan hukmlar ham har xil bo'ladi. Ba'zi hukmlar aniq, tekshirilgan bilimlarni ifodalsa, ba'zilar esa xususiyatning predmetga xosligi ehtimol qilinadi, demak noaniq bilimlar ifodalanadi. Hukmlar predmet va hodisalarning hamma tomoni haqida fikrni ifodalaydi. Ular nisbatan tugallangan fikrdir. Hukmlar predmetlar va hodisalar o'rtasidagi ma'lum munosabatlarni ifodalaydi. SHuning uchun ular chin yoki xato bo'ladi. Ob'ektiv voqelikka mos kelgan, uni to'g'ri ifodalagan fikrlar chin bo'ladi, aks holda xato bo'ladi.

Hukmlarni ifodalash uchun til vositalari talab qilinadi. Hukmlar gaplar orqali ifodalanadi. Ular mantiqiy kategoriya bo'lsa, gaplar grammatik kategoriyadir. Mantiqning vazifasi hukmlarni turli tomondan o'rganishdir. Hukmlar predmet va hodisalarga ma'lum bir xususiyatning xosligi yoki xos emasligini ifodalaydigan tafakkur shaklidir.

Hukmlarni o'rganishni ularning tuzilishini o'rganishdan boshlaymiz. O'rganish qulay bo'lishi uchun dastlab ularni oddiy va murakkab turlarga bo'lib olamiz. Bunda biz hukm atamalarining miqdoriga, soniga e'tibor beramiz. Hukmning sub'ekt va predikati uning atamaları deb ataladi. Agar hukm terminlari bittadan bo'lsa oddiy hukm, birdan ortiq bo'lsa, murakkab hukm deyiladi. Sub'ekt (*S*) fikr qilinadigan predmet va hodisani bildiradi. Predikat (*R*) esa predmetga xos xususiyatni, munosabatni bildiradi. Ya'ni predmet haqidagi yangi bilimni bildiradi. Predikatda ifodalangan bilimlar hisobiga sub'ekt haqidagi tasavvur boyitiladi. Hukmning uchinchi zaruriy elementi mantiqiy bog'lamadir. U subekt va predikatni bir-biri bilan bog'laydi, natijada hukm hosil bo'ladi.

Hukmlarning turlari. Predikatning mazmuniga qarab hukm turlari. Ular quyidagilardan iborat: atributiv hukmlar, mavjudlik hukmlari va munosabat hukmlari. Atributiv hukmlarda predikat biror xususiyatning predmetga xosligi yoki xos emasligi aniq, qat'iy qilib ko'rsatiladi. SHuning uchun atributiv hukmlarni qat'iy hukmlar ham deb yuritamiz. Masalan, «mustaqillik davr talabidir». Mavjudlik hukmlarida predikat biror predmet va hodisaning mavjud yoki mavjud emasligini bildiradi. Masalan, «TMI da Soliq fakulteti bor». Munosabat hukmlarida

predmetning biror jihatdan munosabati ko'rsatiladi. Masalan, «Matematik mantiq klassik mantiqqa qaraganda yoshroqdir».

Sub'ektning miqdoriga qarab hukm turlari quyidagilardir: umumiy, juz'iy, yakka hukmlar. Bunda sub'ektda ifodalangan predmetning soni, nechtaligi ahamiyatga ega bo'ladi. Oddiy hukmlarda diqqatimiz bir turkum predmetlarning hammasiga, bir qismiga yoki bir donasiga qaratilgan bo'lishi mumkin. Masalan, «Hamma darsliklar kitobdir», «Ba'zi darsliklar O'zbek tilida chiqarilgan», «Bu darsliklar mantiq faniga oiddir».

Mantiqiy bog'lamaga qarab hukm turlari quyidagilardir: tasdiq va inkor hukmlar. Mantiqiy bog'lama hukmning sifatini belgilaydi. Tasdiq hukmlarda xususiyatning predmetga xosligi, inkor hukmlarda aksincha, xos emasligi ko'rsatiladi. Masalan, «O'zbekiston fuqarolari tinchlik tarafdoridir», «O'zbekiston fuqarolari qurollanish tarafdori emas».

Oddiy hukmlarning birlashgan klassifikatsiyasi yoki hukmlarning asosiy turlari. Bunda hukmlarning sifati va sub'ektning miqdori hisobga olinadi. Hukmlarning asosiy turlari quyidagilardir: 1) Umumiy tasdiq hukmlar. *A* harfi bilan belgilanadi, «hamma *S R* dir» formulalari orqali ifodalanadi. Masalan, «Hamma O'zbekiston fuqarolari dam olish huquqiga ega». 2) Juz'iy tasdiq hukmlar *J* harfi bilan belgilanadi, «ba'zi *S R* dir» formulasi orqali ifodalanadi. Masalan, «Ba'zi talabalar mantiqni chuqur o'rganganlar». 3) YAKka tasdiq hukmlar. *A* harfi bilan belgilanadi, «bu *S R* dir» formulasi orqali ifodalanadi. Masalan, «Bu talaba iqtisodchidir» va «Kant nemis filosofidir». 4) Umumiy inkor hukmlar. *E* harfi bilan belgilanadi, «hech bir *S R* emas» formulasi orqali ifodalanadi. Masalan, «Hech bir kitob mehnatsiz yaratilmaydi». 5) Juz'iy inkor hukmlar. *O* harfi bilan belgilanadi, «ba'zi *S R* emas» formulasi orqali ifodalanadi. Masalan, «Ba'zi yoshlar mantiqni o'rganmagan». 6) YAKka inkor hukmlar. *E* harfi bilan belgilanadi, «bu *S R* emas» formulasi orqali ifodalanadi. Masalan, «Xalilov birinchi kursda o'qimaydi».


Oddiy hukmlar modalligiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi: voqelik, ehtimollik va zarurlik hukmlari. Hukmlarning modalligi deyilganda ularda fikrni ifodalash shaklini tushinish kerak.

Voqelik (assertorik) hukmlarda biror fakt qayd qilinadi. Masalan, «O'zbekiston 1991 yil 1 sentyabrda mustaqil deb e'lon qilindi».

Ehtimollik (problematik) hukmlarda biror predmet va hodisa haqida hali tekshirilmagan, ehtimoliy fikr ifodalanadi. Masalan, «Toshkentda noyabr oyida qor yog'ishi mumkin», «ehtimol bu kitob Qohirada nashr etilgan». Zaruriylik (apodiktik) hukmlarda zaruran ro'y beradigan voqealar haqida fikr ifodalanadi. Masalan, «Parallel chiziqlar kesishmaydi».

Oddiy hukmlarda terminlar hajmi. Yuqorida ko'rsatilgandek, oddiy hukmlar sub'ekt va predikatdan iborat bo'ladi. Ular hajmi jihatdan xarakterlanadi. Hukm terminlari ikki xil hajmda bo'lishi mumkin: to'la hajmda olingan va to'la hajmda olinmagan. Agar hukm termini bir turkum predmetlarning hammasini ifodalagan bo'lsa, to'la hajmda olingan bo'ladi, aks holda to'la hajmda olinmagan bo'ladi. Umumiy tasdiq hukmlarda sub'ekti to'la hajmda olingan, predikat bir xil hukmlarda to'la olingan, boshqalarida to'la hajmda olinmagan bo'ladi. Masalan, «Hamma talabalar O'zbekiston tarixini o'rganadilar». Bunda talabalarning hammasi fikr qilingani uchun sub'ekt to'la hajmda olingan, O'zbekiston tarixini o'rganuvchilar esa faqat talabalar emas, ular bilan birga yana boshqalar ham bor, shuning uchun predikat to'la hajmda olinmagan. «Hamma oddiy hukmlar ikkita termindan iborat» kabi hukmlarda sub'ekt to'la olingan, predikat ham to'la, chunki ikkita termindan iborat faqat oddiy hukmlarning o'zlaridir. Juz'iy tasdiq hukmlarning sub'ekti to'la olinmagan predikati bir xil hukmlarda to'la, boshqalarida to'la olinmagan bo'ladi. Masalan, *J* «Ba'zi spektakllar zamonaviy mavzularga bag'ishlangan», bunda sub'ekt ham, predikat ham to'la hajmda olinmagan. *J* «Ba'zi odamlar ikkita chet tilini biladi» kabi hukmlarda sub'ekt to'la emas, predikat to'la olingan, chunki chet tilini biladiganlar hammasi odamlardir. YAKka tasdiq hukmlarning sub'ekti va predikati to'la hajmda olingan bo'ladi. YAKka hukm sub'ektida bir predmet bir individ sifatida olingani uchun umumiy hukm singari sub'ekti to'la

bo'ladi. Predikati umumiy hukmning birinchi xili singari to'la olingan bo'ladi. Masalan, *E* «hech bir jism tinch turmaydi». Juz'iy inkor hukmlarda sub'ekt to'la olinmagan. Masalan, *O* «Ba'zi talabalar kutubxonalarga a'zo emas». YAkka inkor hukmlarning sub'ekti ham, predikati ham to'la hajmda olingan bo'ladi. Masalan, «Bu odam oliy ma'lumotli emas» hukmlarda terminlar hajmini yaxshiroq tushunish uchun doiralardan foydalanamiz.



o'rtasidagi

munosabatlar. Har qanday ikki hukm o'rtasida emas, balki moddiy jihatdan bir xil hukmlar o'rtasidagi munosabatlar haqida fikr yuritamiz. Sub'ektlari bir xil, predikatlari bir xil hukmlar moddiy jihatdan bir xil hukmlar deyiladi. Hukmlar sifat va miqdr jihatdan farq qilishlari mumkin. Oddiy hukmlar o'rtasida quyidagi munosabatlar bo'lishi mumkin: **zidlik munosabati, umumiy tasdiq va juz'iy inkor** (*A—O*) hamda umumiy inkor va juz'iy tasdiq (*E—J*) hukmlar o'rtasida bo'ladi. Masalan, *A* «Hamma talabalar a'lochi», *E* «hech bir talaba a'lochi emas». Juz'iy qarama-qarshilik munosabati, juz'iy tasdiq va juz'iy inkor hukmlar o'rtasida bo'ladi. Masalan, *J* «Ba'zi qishloqlar obod», *O* «ba'zi qishloqlar orod emas». Bo'ysunish munosabati umumiy tasdiq va juz'iy tasdiq hamda umumiy inkor va juz'iy inkor hukmlar o'rtasida bo'ladi. (Masalan, *A* «Hamma domlalar professor», *J* «ba'zi domlalar professor».)

Murakkab hukmlar. Yuqorida bayon qilinganlardan ma'lumki, hukm terminlari birdan ortiq bo'lsa, ularni murakkab hukmlar deb yuritamiz. Murakkab hukmlarni turlarga, ajiratganda ularning tarkibidagi mantiqiy bog'lovchining mazmuniga e'tibor beramiz. Shunga qarab murakkab hukmlarning quyidkigi asosiy turlarini ko'rsatish mumkin: **birlashtiruvchi, ayiruvchi va shartli hukmlar.**

Birlashtiruvchi hukmlarda sub'ekt rki predikat, ba'zan ikkalasi ham birdan ortiq bo'ladi. Ularning tarkibida terminlarning teng bog'lovchi «va» (uning o'rniga mos keluvchi boshqa bog'lovchi) mavjud bo'ladi. Masalan, «Kant va Feyrbax nemis filosoflaridir», «Hamza shoir, dramaturg, kompozitor, ma'rifatparvar ».

Ayiruvchi hukmlar tarkibida «yoki» bog'lovchisi bo'lib, bir qancha predikatlarni bir biridan ayirib turadi. Masalan, «Qodirov yo psixologiya, yoki siyosiy iqtisod, yoki filosiya bo'limida o'qiydi».

SHartli hukmlar tarkibida odatda «...sa, ...bo'ladi» so'zlari mavjud bo'ladi. Ko'pincha ikki bog'liq hodisa haqida fikr bayon qilinadi. SHartli hukmning sabab va oqibatini ifodalaydigan qismlarida sub'ekt va predikat alohida-alohida bo'ladi. Masalan, «Agar jism qizdirilsa, u kengayadi». Birlashtiruvchi hukmlar kon'yuktiv, ayiruvchi hukmlar diz'yunktiv, shartli hukmlar implikativ hukmlar deb ham ataladi. Ayiruvchi hukmlar «*S yoki R, yoki R1, yoki R2* dir» formulasi, shartli hukmlar «Agar *S R* bo'lsa, *S1 P1* dir» formulasi orqali beriladi.

Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi: tuzilishi, turlari va umumiy qoidalari. Muhokama jarayonida olamdagi predmet va hodisalar orasidagi aloqa va munosabatlarni ifodalovchi bir yoki birdan ortiq yoki mushohada (fikr) asosida yangi bilim (fikr) ni hosil qilishning mantiqiy usuli xulosa chiqarish deb yuritiladi. Xulosa chiqarish asosida mantiq qonunqoidalari tayangan holda ilgaridan ma'lum bo'lgan bilimdan yangisiga o'tish yotadi. Xulosa chiqarish shunday mantiqiy usulki, uning natijasida insonning olam haqidagi, bilimlari uzluksiz ravishda boyib, kengayib, chuqurlashib boradi. Xulosa chiqarishda olamni bevosita bilish

bilan bir qatorda mantiqiy fikrlash usullarini egallash talab qilinadi. Xulosa chiqarish uchun har safar olam, undagi predmetlarga murojaat qilish shart emas. Mavjud narsalar haqida qo'lga kiritilgan bilim asosida yangi bilim hosil qilish mumkin.

Xulosaning mazmuni turlicha ifodalanishi mumkin. Ayrim xulosalarda narsa va hodisalar orasidagi sabab – oqibat aloqadorligi aks etadi. Lekin bu xulosalarda faqat sababiy bog'lanishlariga aks etadi, degan so'z emas. Masalan, «Qaldirg'ochlar pastlab uchyapti, demak, ertaga ob-havo o'zgaradi», degan xulosasini olib ko'raylik. Yuzaki qaraganda «Qaldirg'ochlar pastlab uchmoqda» fikri «Ertaga ob-havo o'zgaradi» xulosasi uchun asosdek bo'lib ko'rinadi. Aslida bu fikr chuqur tahlil qilinsa, «ob- havoning o'zgarishi» haqidagi fikrga asoslar o'zgacha ekanligini bilish mumkin. Bunda kuzatilgan hodisaning boshqa hodisalar bilan aloqadorligi ma'lum bo'ladi: Qaldirg'ochlarning past uchishiga sabab — pashsha-chivinlar. Ular havodagi namlikning oshganligidan past uchadi, qaldirg'ochlar esa pashsha-chivinlar bilan oziqlanadi. Demak, pashsha-chivinlar tabiat darakchilari sifatida havoning namligi oshganligidan xabar bermoqda. Bu o'z navbatida, qaldirg'ochlarni past uchishga majbur qilmoqda. Demak, ertaga obhavoning o'zgarishi qaldirg'ochlarning past uchishidan emas, balki atmosferadagi o'zgarishdan, havodagi namlikning ortishidan kelib chiqishi mumkin.

Birinchi tipdagi xulosalarning chinligini aniqlash mushkul, shuning uchun ham agar xulosalar vaziyatlar mazmunidan chiqarilgan bo'lsa munozara, bahsga sabab bo'lishi mumkin.

Formal - mantiqiy yo'l bilan chiqarilgan xulosalarda esa asos (asoslar) bilan xulosa orasida nisbiy barqaror aloqa va munosabatlar mavjud bo'ladi va bu aloqa, munosabatlar mantiq qonunqoidalari asosida shakllanadi.

Har qanday xulosa ikki qismdan iborat bo'ladi;

1. Asos yoki asoslar
2. Xulosa

Asos yoki asoslar deganda xulosani keltirib chiqarishga xizmat qiladigan, ilgari ma'lum bo'lgan bilimlar nazarda tutiladi.

Asoslar munosabatidan kelib chiqadigan bilim (natija) xulosa deb yuritiladi.

Xulosa ob'ektiv olam in'ikosi hisoblangan fikrlar orasida sababiy aloqadorlikni ifodalaydi. Shunisi xarakterliki, xulosa chiqarishda inson fikri sabablar (asos)dan natijaga emas, aksincha, natija (xulosa)dan unga asos bo'lgan sabablarga qarab borishi mumkin, Masalan: Jinoyat jazosiz qolmaydi (asos)

Terrorchilik — jinoyat (asos)

Demak, Terrorchilik jazosiz qolmaydi (xulosa) yoki

Qaldirg'ochlar pastlab uchmoqda.

Demak, ertaga ob-havo o'zgaradi (xulosa)

Tabiiy tilda xulosada «demak», «natijada», «ko'rinib turibdiki», «shuning uchun» kabi so'z va so'z birikmalari uchraydi.

Xulosaning chin yoki xato (yolg'on)ligi, birinchidan, asos (asoslar) ning chinligi, ikkinchidan, asos (asoslar) bilan xulosaning mantiqiy munosabatiga (fikrning izchilligi, asoslar bilan natijaning uzviy aloqadorligi va hokazo) bog'liq bo'ladi. Agar V xulosa A dan kelib chiqsa, va uning natijasini ifodalasa, to'g'ri (chin) bo'ladi. Aksincha, V xulosa A asosdan kelib chiqmasa, xato (yolg'on) hisoblanadi. Shunday qilib, xulosaning to'g'riligi mantiqiy ketma-ketlik, asoslar bilan natijaning aloqadorligidan kelib chiqadi.

Asoslardan xulosaning kelib chiqishi ikki yo'lda amalga oshadi: ayrimlarida xulosa asoslardan zaruriy ravishda kelib chiqadi. Bunday xulosa demonstrativ (zaruriy) xulosa, deb yuritiladi. Boshqalarida asoslardan chiqarilgan xulosa haqiqatga yaqin, ehtimollik xarakteriga ega bo'ladi. Bunday xulosalar nodemonstrativ, yoki haqiqatga yaqin xulosalar, deb yuritiladi.

2) Xulosa chiqarishning 3 asosiy turi mavjud:

1. Deduktiv xulosa chiqarish;

2. Induktiv xulosa chiqarish;

3. Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish.

Inson fikrining umumiylikdan yakkalikka qarab borishi natijasida hosil bo'lgan yangi bilim **deduktiv xulosa** deb yuritiladi.

Induktiv xulosa chiqarishda fikr yakkalikdan umumiylikka qarab boradi. Alohida predmet va hodisalarning o'xshash va farqli tomonlarini tahlil etish asosida **analogiya bo'yicha** xulosa chiqariladi.

1. Deduktiv xulosa chiqarish.

Deduktiv xulosa chiqarish ikki usulda amalga oshiriladi: 1)

bevosita deduktiv xulosa chiqarish;

2) bilvosita deduktiv xulosa chiqarish.

1) Bevosita deduktiv xulosa chiqarish. Bir asosdan mantiqiy tahlil orqali yangi fikr (bilim) ni hosil qilish bevosita deduktiv xulosa chiqarish, deb yuritiladi. Bunda ayrim mushohadalar qayta ishlanadi. Yangi fikr (bilim) ga asos bo'lgan mushohada xulosaning asosi, hosil bo'lgan yangi fikr - xulosa bo'lib hisoblanadi.

Bevosita xulosa chiqarishda mantiq usullar yordamida amalga oshadi.

Bunday mantiqiy usullariga quyidagilar kiradi: **a) almashtirish orqali xulosa chiqarish b) aylantirish orqali xulosa chiqarish v) predikatga qarama-qarshi qo'yish g) mantiqiy kvadrat .**

a) Almashtirish shunday mantiqiy usulki, bunda asos bo'lgan hukmning sub'ekti (S) xulosaning predikatiga (R), uning predikati (R) esa xulosaning sub'ekti (S) ra almashtiriladi.

Bundan fikrning mazmuni o'zgarmay qoladi. Masalan: Guruhimizning ayrim talabalari (S) — a'lochi (R). Demak, ayrim a'lochilar (S) — guruhimiz talabalari (R).

Almashtirish chiqarilgan xulosaning aniq bo'lishini ta'minlaydi. Almashtirish natijasida umumiy tasdiq (A) mushohadadan juz'iy tasdiq (J) ni hosil qilish mumkin. Masalan: Respublikamizning barcha viloyatlari davlatga paxta topshirish shartnomaviy majburiyatlarini bajardilar. Demak, Toshkent viloyati ham davlatga paxta topshirish shartnomaviy majburiyatlarini bajardi. Berilgan xulosani quyidagi sxemaga solish mumkin:

Barcha S — R (A)

Demak, ayrim S — R (J) Shuningdek, almashtirish natijasida umumiy inkor hukm (E)dan umumiy inkor hukm (E)ni, umumiy tasdiq hukm (A)dan umumiy tasdiq hukm (A)ni hosil qilish mumkin,

b) Aylantirish orqali xulosa chiqarish shunday mantiqiy usulki, asos qilib olingan mushohadaning sub'ekti (S) xulosada ham sub'ekt sifatida qoladi, lekin predikat va bog'lovchi o'z qarama-qarshisiga aylanadi,

Qisqacha qilib aytganda, aylantirish yordamida asosga teng, lekin mazmun jihatidan qaramaqarshi fikr juz'iy tasdiq (J) mushohadadan hosil qilinadi. Masalan: Har qanday jinoyat jazolanmog'i lozim. Demak, hech qanday jinoyat jazolanmasligi mumkin emas.

Sxemasi: S — R dir.

Demak S — R emasdir .

Aylantirish natijasida umumiy tasdiq (A) mushohadadan umumiy inkor (E), Juz'iy tasdiq hukmdan (J) juz'iy inkor (O) mushohada hosil qilinadi, Masalan: Hamma bosqinchilik urushlari — adolatsiz.

Demak, Hamma bosqinchilik urushlari — adolatli emas.

Sxemasi: Har bir S — R dir.

Demak, hech bir S — R emasdir.

Aylantirish mantiqiy uslubining ikki ko'rinishi mavjud:

1) Sodda aylantirish

2) Cheklash orqali aylantirish.

Sodda aylantirishda xulosaga asos qilib olingan fikr va hosil bo'lgan yangi fikr hajm jihatidan teng bo'ladi.

Masalan: Faqat barcha kvadratlar — tomonlari teng to'rtburchak.

Demak, barcha tomonlari o'zaro teng to'rtburchaklar — kvadrat.

Sxemasi: Barcha S — R dir Barcha R — B dir.

Cheklash orqali aylantirish natijasida umumiy tasdiq (A) hukmdan juz'iy tasdiq (J) hukm hosil qilinadi.

Masalan: Barcha planetalar — sharsimon. Demak,

Yer - sharsimon.

v) **Predikatga qarama-qarshi qo'yish.** Bunda xulosaning sub'ekti asosning predikatiga, xulosaning predikati asosning sub'ektiga zid bo'ladi.

Masalan; Hamma talabalar bilimga chanqoq.

Demak, hech bir talaba bilimga chanqoq bo'lmasligi mumkin emas.

Formulasi: A - Barcha S-R dir, Demak, O - Ayrim S-R emasdir.

Mantiqiy kvadrat bo'yicha A-O hamda E-J zid, ya'ni kontradiktor hukmlar hisoblanadi va uchinchi istisno qonuniga bo'ysunadi. Bunda A ning chinligidan O ning yolg'onligi kelib chiqadi. Demak, zid hukmlardan bevosita xulosa chiqarish mumkin emas.

Masalan: Sudning ayrim qarorlari oqlaydi (J).

Sudning hech bir qarori oqlamayli (E). Xulosani mantiqiy kvadrat bo'yicha chiqarish mumkin.

Mushohadalar orasidagi munosabatlarga tayangan holda xulosa chiqarish mantiqiy kvadrat bo'yicha xulosa chiqarish, deb yuritiladi.

Ma'lumki, mushohadalar orasida qarama-qarshilik, zidlik hamda bo'ysunish munosabatlari mavjud.

A-E hamda J-O mushohadalar orasida qarama - qarshilik munosabati mavjud. Bunda bir hukmning chinligidan ikkinchisining xatoligi kelib chiqishi shart zmas. Masalan: Ayrim talabalar reyting ballarini to'playdi.

Ayrim talabalar reyting balini to'play olmaydi.

Bunda mushohadaning birinchisi asos, ikkinchisi xulosa bo'lishi mumkin.

A-J hamda E-O hukmlari bo'ysunish munosabatida. Shuning uchun ham umumiy inkor (E) hukmdan juz'iy inkor (O), umumiy tasdiq (A) hukmdan juz'iy tasdiq (J) hukm hosil qilinishi mumkin.

2) Bilvosita deduktiv xulosa chiqarish. Birdan ortiq asosdan yangi fikrni hosil qilish mantiqiy uslubi bilvosita xulosa chiqarish, deb yuritiladi. Bilvosita xulosa chiqarish jarayonida inson fikri umumiylikdan yakka, yakka, yakka, yakka, juz'iylikdan juz'iylikka qarab borishi mumkin, Shunga ko'ra xulosa chiqarish uch yo'lda amalga oshiriladi:

1. Deduktiv xulosa chiqarish. Bunda inson fikri umumiylikdan yakka, yakka, yakka, yakka qarab boradi.
2. Induktiv xulosa chiqarish. Bunda inson fikri yakka, yakka, yakka, yakka, juz'iylikdan umumiylikka qarab boradi.
3. Analogiya vositasida xulosa chiqarish. Bunda inson fikri juz'iylikdan juz'iylikka qarab boradi. Bilvosita xulosa chiqarishning muhim turlaridan biri — **deduktiv xulosa chiqarish** hisoblanadi. Deduktiv xulosa fikrimizning umumiylikdan yakka, yakka, yakka, yakka qarab borishi natijasida hosil qilinadi. Deduktiv xulosa chiqarish nazariyasi buyuk yunon faylasufi Arastu (384-322) tomonidan ishlab chiqilgan. Aristotel qalamiga mansub «Birinchi analitika», «Ikkinchi analitika» kitoblarida sillogizm ta'limoti asoslab berilgan.

Bilvosita deduktiv xulosa chiqarishning eng keng tarqalgan turi **sillogizm** hisoblanadi. Sillogizm grekcha "syllogismos" so'zidan olingan bo'lib, sanash orqali xulosa chiqarish, degan ma'noni ifodalaydi.

Ikki qat'iy hukmning bog'lanishi asosida chiqarilgan xulosa sodda qat'iy sillogizm, deb yuritiladi.

Sodda qat'iy sillogizm 3 qismdan iborat bo'ladi: **a) katta asos; b) kichik asos; v) xulosa.**

Sodda qat'iy sillogizm quyidagi shaklda yoziladi:

Mustaqil davlat o'z konstitusiyasiga ega.

O'zbekiston — mustaqil davlat.

Demak, O'zbekiston o'z konstitutsiyasiga ega.

Berilgan misoldagi birinchi fikr («Mustaqil davlat o'z konstitutsiyasiga ega») — katta asos. Unda umumiy fikr ifodalangan. Ikkinchi fikr («O'zbekiston — mustaqil davlat») — kichik asos. Uchinchi — asoslardan kelib chiqqan xulosa («Demak, O'zbekiston o'z konstitutsiyasiga ega»). Sodda qat'iy sillogizmga 3 termin mavjud. Bu terminlar katta asosni kichik asosga bog'lash orqali yangi fikr (sillogizm xulosasi) ni chiqarish imkonini beradi.

Bular: Katta termin - R

Kichik termin - S

O'rta termin - M

Katta (R), o'rta (M), kichik termin (S) sillogizm xulosasining tarkibiy qismlaridir. Katta termin (R) deb sillogizmga katta asos tarkibiga kiruvchi va xulosada predikat vazifasini bajaruvchi terming aytiladi. Kichik termin (S) deb sillogizmga kichik asos tarkibiga kiruvchi va xulosa sub'ekt bo'lib keluvchi terminga aytiladi. O'rta termin (M) deb sillogizmga katta asosni kichik asosga bog'lovchi, biroq xulosada ishtirok etmaydigan terming aytiladi. Sodda - qat'iy sillogizmning tarkibini quyidagicha ifodalash mumkin:

Katta asos: Barcha davlatlar o'z iqtisodiyotining taraqqiy ettirishdan manfaatdor.

Kichik asos: O'zbekiston — davlat.

Xulosa: Demak, O'zbekiston o'z iqtisodiyotini taraqqiy ettirishdan manfaatdor.

Mazkur sodda qat'iy sillogizmni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

Barcha M — R dir. S — M dir.

Demak, S — R dir.

Sillogizm xulosasi:

a) katta asosdan boshlanlan taqdirda fikr umumiylikdan yakka-likka qarab boradi. XVII - XIX asr ziyolilari ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surdilar

Avaz O'tar o'g'li — XIX asr ziyolisi.

Demak, Avaz O'tar ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surdi.

b) kichik asosdan boshlansa, fikr yakka-likdan umumiylikka qarab boradi. Masalan: Suv — jism

Jism — ximiyaviy elementlardan tarkib topgan. Demak, suv ximiyaviy elementlardan tarkib topgan.

v) Ayrim o'rinlarda fikr yakka-likdan juz'iylikka qarab borishi orqali xulosa chiqarish mumkin. Masalan:

Baliq jabra bilan nafas oladi.

Baliq — hayvon.

Demak, ayrim hayvonlar jabra bilan nafas oladi.

Sillogizm aksiomasi. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, ikki mushohada asosida sillogizm xulosasi hosil qilinadi. Shu o'rinda qanday qilib ikki fikr, ikki asosdan yangi fikr — xulosa hosil qilish mumkin? - degan savol paydo bo'lishi tabiiy. Ma'lumki, deduktsiya (ya'ni, fikrning umumiylikdan yakka-likka qarab borishi) olamdagi narsa va hodisalar orasida mavjud bo'lgan oddiy aloqa va munosabatlarga, asoslanadi. Bu aloqa va munosabatlar ichida jins va tur, umumiylik bilan yakka-lik orasidagi munosabatlar alohida o'rin tutadi. Biz o'zimizni o'rab olgan ob'ektiv olamni o'rganar ekanmiz, undagi narsa va hodisalar umumiylikka egaligini; bu umumiylik alohida predmet va hodisalar tarzida namoyon bo'lishini ko'p bor kuzatganmiz va bunda umumga xos bo'lgan xususiyatlar alohidalikda ham namoyon bo'lishini anglaganmiz. Vaqt o'tishi bilan umumiylik va yakka-lik, jins va tur orasidagi munosabatlarning ongimizda takror-takror aks etishi sillogizmning ichki qonuniyatini tushunishga imkon bergan. Sillogizmning mohiyatini ifodalaydigan bu qonuniyat mantiqda sillogizm aksiomasi deb yuritiladi. Sillogizm aksiomasida buyumlarga xos yakka-lik, maxsuslik va umumiylik orasidagi munosabatlar

ifodalanadi. Unga ko'ra, **sinfga, turkumga xos tasdiqlangan yoki inkor etilgan belgi, xususiyatlar shu turkumga kiruvchi har bir predmetga, har bir hodisaga xos bo'lib hisoblanadi.**

Sillogizm aksiomasi deganda sillogizm xulosasining isbot, dalil talab qilmaydigan qoidasi nazarda tutiladi. **Sillogizm aksiomasi uning terminlari R, M, S orasidagi munosabatni ifodalaydi. Bunda R umumiylikni ifodalaydi, M uning belgisi. M R ga (ya'ni umumga) xos bo'lgani uchun ham u o'z navbatida alohidalik (S) ning ham belgisi bo'lib hisoblanadi.**

Sillogizm aksiomasini quyidagi sxemada ifodalash mumkin:

Sxemaning o'qilish tartibi:

S M ning belgisi, M R ning belgisi.

Sillogizm aksiomasining 2 xil ifodasi mavjud:

1. Belgining belgisi narsaning o'z belgisidir. Boshqacha qilib aytganda, jinsga mansub belgi turga ham xosdir.
2. Belgining belgisi bo'lmagan narsa narsaning o'z belgisi emasdir. Ma'nosi: agar belgi turkumga xos bo'lmasa, narsaga ham xos emasdir. Bunday holatda sillogizm terminlari (R, M, S,) ni quyidagicha ifodalash mumkin:

R — jins

M- tur

S — alohida predmet

Sillogizm vositasida chiqarilgan xulosalarning chinligini ta'minlash sillogizm qoidalariga rioya etishni talab qiladi.

Sillogizm figuralari. Sillogizm xulosasidagi o'rta terminning joylashuviga qarab o'zaro, birbiridan farqlanadigan shakllari sillogizm figuralari deb yuritiladi.

Mantiq ilmida sillogizmning 4 figurasi asoslab berilgan.

Bular: a) Sillogizmning birinchi figurasi b)

Sillogizmning ikkinchi figurasi

s) Sillogizmning uchinchi figurasi

d) Sillogizmning to'rtinchi figurasi

- a) Sillogizmning birinchi figurasida o'rta termin M katta asosning sub'ekti va kichik asosning predikati vazifasida keladi, hamda asoslarni bir-biriga bog'laydi.
- b) Sillogizmning ikkinchi figurasida o'rta termin M katta va kichik asosda predikati vazifasida keladi va ularni bir-biriga bog'laydi.
- c) Sillogizmning uchinchi figurasida o'rta termin M har ikkala asosning sub'ekti hisoblanadi va asoslarni bir-biriga bog'laydi. d) Sillogizmning to'rtinchi figurasida o'rta termin M katta asosning predikati va kichik asosning sub'ekti bo'lib keladi hamda ularni o'zaro bog'laydi.

Sillogizm moduslari. Sillogizm moduslari deganda sillogizmning har bir figurasi doirasida chiqariladigan xulosalarning turlari nazarda tutiladi. **Sillogizm tarkibidagi mushohadalarning mazmun va miqdor jihatidan turli xil tarzda bog'lanishlari sillogizm moduslari deyiladi.** Sillogizmning har bir figurasi doirasida 64 tagacha modus bo'lishi mumkin. Moduslar sillogizm xulosasi tarkibiga kirgan mushohadalar turi bilan belgilanadi. Masalan: Sillogizmning bir figurasining modusi A tarzida bo'lishi mumkin. Buning ma'nosi shuki, sillogizmning har 3 qismi (katta asos, kichik asos, xulosa) umumiy tasdiq (A) mushohadadan iborat.

Sillogizmlarning asosiy turlari. Xulosa uchun asos bo'lgan mushohadalar mohiyatiga ko'ra sillogizm xulosalari uch turkumga bo'linadilar:

1. Qat'iy sillogizm.
2. Shartli sillogizm.
3. Ayiruvchi (bo'linuvchi) sillogizm.

1. **Qat'iy sillogizm**da asoslar qat'iy mushohadadan iborat bo'ladi. Masalan:

Metall issiqlik o'tkazadi. Mis

- metall

Demak, mis issiqlik o'tkazadi.

2. Asoslar yoki asoslardan biri shartli mushohadadan iborat sillogizm *shartli sillogizm* deb yuritiladi. Masalan:

Teraklarning barglari uchidan sarg'aysa, qish qattiq keladi.

Teraklarning barglari uchidan sarg'aydi Demak, qish qattiq kelishi mumkin.

3. Asoslardan bir ayiruvchi (bo'lingan) mushohadadan iborat bo'lsa, **ayiruvchi (bo'lingan) sillogizm** hosil bo'ladi. Masalan:

Burchaklar yo o'tkir, yo o'tmas, yo to'g'ri bo'ladi.

Bu - to'g'ri burchak.

Demak, Bu - na o'tkir, na o'tmas burchak emas.

Sillogizm tuzilishiga ko'ra: **sodda, murakkab, murakkab - qisqartma** turlarga bo'linadi.

Sodda sillogizm. Sodda sillogizm 3 qism (katta asos, kichik asos, xulosa) hamda 3 termin (R, M, S) dan iborat bo'ladi. Shu bilan bir vaqtda sodda sillogizmlar har doim ham to'liq holda ham uchrayvermaydi. Aksari hollarda sillogizmlarning sodda qisqartma shakllari uchraydi.

Sodda qisqartma sillogizmlar mantiqda entimema deb yuritiladilar. **Entimema – asoslardan biri yoki xulosasi qoldirib ifoda etilgan sillogizm.** Masalan:

Bu baliq - akula.

Demak, bu baliq - yirtqich.

Bu misolda katta asos (Ayrim baliqlar – yirtqich) tushurib qoldirilgan.

Murakkab sillogizm.

Murakkab sillogizm mantiqda **polisillogizm** deb yuritiladi. Polisillogizmlar ikki va undan ortiq sodda sillogizmlardan tashkil topadi. Masalan: Sport sog'liqni mustahkamlaydi. Gimnastika – sport.

Demak, Gimnastika sog'liqni mustahkamlaydi. Ritmik gimnastika – gimnastika.

Ritmik gimnastika - sog'liqni mustahkamlaydi.

Pollisiologizmning 2 turi mavjud: a)

Progressiv polisillogizm

b) Regressiv polisillogizm.

a) Progressiv polisillogizmda ilgarigi sillogizmning xulosasi yangi sillogizm uchun asos vazifasini bajaradi.

Masalan: San'at qalbni davolaydi.

Teatr – san'at

Demak, teatr - qalbni davolaydi.

Drammatik teatr – teatr.

Demak, Drammatik teatr qalbni davolaydi.

b) Regressiv polisillogizmda ilgarigi sillogizm xulosasi kichik asos vazifasini o'taydi.

Masalan: Chinor – daraxt

Daraxt - o'simlik.

Chinor - o'simlik

O'simlik – organizm Chinor

– organizm Organizm –

parchalanadi. Chinor

parchalanadi.

Murakkab sillogizmlar a) *epixeyrema* va b) *sortlar* shaklida namoyon bo'lishi mumkin.

a) **Epixeyrema – shunday murakkab qisqartma sillogizmki, uning asoslari entimemalardan iborat bo'ladi.** Masalan:

Yolg'on nafratga loyiq, Chunki u axloqsizlik.

Yolg'ondaka maqtov - yolg'on, Chunki unda haqiqat buzib ko'rsatiladi.

Yolg'ondaka maqtov - nafratga loyiq

b) **Sorit - qisqartma sillogizmlar yig'indisi.**

Uch - toq son

Hamma toq sonlar – natural son Hamma

natural sonlar – ratsional sonlar.

Uch – ratsional son.

3. **Induktiv xulosa chiqarish.** Induktiv xulosa chiqarish jarayonida inson fikri yakkalikdan umumiylikka qarab boradi. Induktiv lotincha «induktiv» co'zidan olingan bo'lib, «chiqarish», «hosil qilish» ma'nolarini anglatadi. Induktiv xulosa chiqarish insoniyat amaliy va aqliy faoliyatining o'ziga xos natijasi hisoblanadi. Insoniyat ko'p asrlik ijtimoiy – tarixiy amaliyoti tufayli yakka predmet va hodisalarga xos ayrim belgi - xislatlarning boshqalarida takrorlanishini bilib olgan. Bu takrorlanish oqibatda inson fikrini yakkadan umumiylikka qarab yo'naltirgan. Yakka predmet va hodisalarni takror va Yana takror o'rganish ularning umumiy xususiyatlarini payqashga olib kelgan. Kishilar amaliy faoliyat jarayonida ko'pdan ko'p alohida fikrlardan umumiy qoidalar hosil qilganlar, olamni bilishda yakkalik, alohidalikdan umumiylikka qarab borganlar, alohida faktlar, hodisalarni umumiyashtirganlar.

Insonning har qanday bilimi asosida alohidalikdan umumiylikka qarab borish yotadi. Dmitriy Mendeleev alohida elementlarni o'rganish orqali ximiyaviy elementlarning davriy sistemasini kashf etdi. Umuman olganda, har qanday kashfiyotning mohiyatida ma'lum ma'noda yakkalikni umumlashtirish yotadi. Induktiv xulosa chiqarish tafakkurning o'ziga xos uslubi hisoblanadi. Fikrlashning induktiv uslubi haqidagi dastlabki ma'lumot qadimgi yunon falsafasiga borib taqaladi. Buyuk yunon faylasufi Suqrot (e.a.469-399) har qanday bilim umumiylik haqidagi tushunchadir. Umumiylik esa alohida hodisalarni o'rganish va solishtirish natijasida yuzaga keladi, deb bilgan. Induktiv xulosa chiqarish mantiqiy usuliga Suqrot asos solganligini Arastu o'zining «Metafizika» asarida ko'rsatib o'tgan edi. U ikki narsa Suqrotga taalluqli: biri induktiv muhokama, ikkinchisi esa umumiy ta'riflardir, deb ko'rsatgan.

Induktiv xulosa chiqarish to'g'risidagi ta'limot Arastu qarashlarida rivojlantirildi. U, jumladan, «Oddiy sanash induksiya» va noto'liq induksiya to'g'risida ma'lumot bergan. XVII-XVIII asrlarda tabiatshunoslik fanlarining rivojlanishi induktiv logikaga qiziqishni kuchaytirdi. Ingliz faylasufi Frensis Bekon o'zining «Yangi organon» asarida oddiy sanash yo'li bilan hosil bo'ladigan ommabop induksiya har doim ham ishonarli bo'lavermaydi;

Induksiyaning shunday nomlarini topmoq kerakki, ular hodisalarning muhim, asosli tomonlarini o'zida umumlashtirsin, deb ko'rsatgan edi. Bekon bunday shakllarni muayyan sxemaga (tartibga) solib o'rganishni taklif etdi. Uning fikricha, barcha xilma-xil hodisalarni muayyan sanoqli shakllarga solish mumkin. Bu qarash cheklangan bo'lsada, o'rta asr sxolastikasiga qarama-qarshi o'laroq o'rganishni faktlardan, olamni o'rganishdan boshlash talabini ilgari surganligi bilan ahamiyatli.

Induksiya tushunchasi fanda 3 ma'noda qo'llanadi:

1. Induktiv xulosa chiqarish ma'nosida
2. Olamni bilish metodi ma'nosida
3. Muhokama yuritish uslubi ma'nosida

Induktiv xulosa chiqarish shunday mantiqiy uslubki, muayyan turkumga mansub ayrim predmetlar haqidagi bilimlardan butun turkum haqidagi umumiy fikrlar hosil qilinadi.

11-MAVZU. MULOHAZA. XULOSA CHIQARISH

Induktiv xulosa chiqarish ma'lum ma'noda haqiqatga yaqin xulosa chiqarishdir. Induktiv xulosaning chinligi quyidagi qoidalarga bog'liq bo'ladi:

1) Asoslarning chinligi; 2) Ular orasidagi aloqadorlikning real mavjudligi. Lekin bundan har qanday chin asoslardan chin xulosa chiqarish mumkinligi kelib chiqmaydi.

Bu xatolar mantiqning yetarli asos qonunini buzib talqin etishdan kelib chiqadi. Induktiv xulosa chiqarish 2 yo'l bilan amalga oshiriladi:

a) To'liq induksiya

b) Noto'liq induksiya a) **To'liq induksiya shunday induktiv xulosa chiqarish uslubiki, bunda muayyan turkumga mansub predmetlar haqidagi fikr unga mansub barcha predmetlarni beistisno qamrab oladi va ularni chuqur o'rganish orqali chiqariladi.** To'liq induksiyada asoslar yig'indisi xulosaga teng bo'ladi. Buni quyidagi sxemada ifodalash mumkin: $S1 - R$ dir

$S2 - R$ dir

$S3 - R$ dir

$S4 - R$ dir

Demak, $S - R$ dir

Aristotel to'liq induksiyaning induktiv sillogizm deb atagan. To'liq induksiya qonunlari Karinskiy tomonidan o'rganildi. U o'zining «Hodisalar klassifikatsiyasi» asarida «Biz to'liq induksiya yangi bilim bermaydi, undagi bilim ma'lum predmetlar doirasidan chetga chiqmaydi, degan fikrga qo'shila olamiz. Bunda yangilik, yangi fikr shundan iborat bo'ladiki, u predmetlar turkumini o'zicha xarakterlaydi» - deb ko'rsatadi.

To'liq induksiya xulosasining chinligi quyidagi talablarning bajarilishini taqozo etadi:

1. O'rganilayotgan turkumga mansub predmetlar doirasini aniq bilish;
2. U yoki bu xususiyatning shu sinfdagi har bir predmetga taalluqli ekanligini aniqlash;
3. Sinfga, turkumga mansub predmetlar chegarasining aniq bo'lmog'i.

To'liq induksiya xulosasi muayyan turkumga mansub ayrim xulosalarni chuqur o'rganish imkoniyatini yaratib beradi. Odatda to'liq induksiyadan isbot talab etiladigan muhokama jarayonida foydalaniladi. Masalan: har qanday uchburchak ichki burchaklarining yig'indisi 180° ga teng. Bunda o'tkir, o'tmas, to'g'ri burchakli uchburchak nazarda tutiladi.

b) **Noto'liq induksiya shunday mantiqiy uslubki, unda turkumga mansub predmetlar haqida chiqarilgan xulosa uning tarkibiga kiruvchi barcha predmetlarni qamrab olishi shart emas.**

Masalan: suv (N_2O)₂ vodorod atomi va 1 kislorod atomidan iborat.

Noto'liq induksiya ehtimollik, haqiqatga yaqinlik xarakteriga ega bo'ladi. Masalan: Isitilganda azot, kislorod, vodorodlarning kengayishi kuzatiladi. Shu asosda gazlar isitilganda, kengayadi, degan xulosaga kelish mumkin. *Noto'liq induktiv* xulosa chiqarish 3 ko'rinishda uchraydi:

1) Oddiy sanash orqali induktiv xulosa chiqarish. Bu ommabop induksiya, deb ataladi.

2) Faktlarni tanlash va tahlil etish orqali xulosa chiqarish.

3) Salbiy aloqadorlikni aniqlashga qaratilgan ilmiy induksiya.

4. **Anologiya** grekcha analogia so'zidan olingan bo'lib, muvofiqlik, o'xshashli ma'nolarini anglatadi. Analogiya xulosa chiqarishning eng qadimgi uslublaridan biri hisoblanadi. Analogiya inson tafakkuri taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridan boshlab rivojlangan. Analogiya xulosa chiqarishning shunday uslubiki, muayyan belgining, munosabatning predmetga xosligi haqidagi xulosa boshqa predmetning belgi va munosabatlariga solishtirish vositasida chiqariladi. Analogiyada o'rganilayotgan predmet - modelyep, unga xususiyatlari belgilari o'xshagan predmet - prototip, deb yuritiladi. Masalan:

A predmet a, b, c, d, q xususiyatlarga ega;

V predmet ham a,b,c,d xususiyatlariga ega.

Demak, V predmet q xususiyatiga ham ega bo'lishi mumkin.

Yer va Quyosh solishtirilayapti, deylik. Yerning quyoshga o'xshash elementlari: a) har ikkisi bir sistemaga kiradi. b) spektral analiz orqali har ikkalasining kimyoviy tuzilishi o'xshashligi aniqlandi. v) Quyoshda geliy mavjudligi aniqlandi va shu asosda geliy Yerda ham mavjud bo'lsa kerak, degan xulosa chiqarildi. Keyinchalik bu xulosa geliy elementining kashf qilinishi bilan isbotlandi.

Analogiya yordamida xulosa chiqarishdan amaliyotda keng foydalaniladi. Masalan: g'o'zadagi ko'sakka qarab, hosildorlikni aniqlash; ekin zararkunandalariga qarshi kurashning biologik usulini topish; turli texnik vositalar, moslamalar yasash, kibernetik mashinalarni yaratish va boshqalarda mantiqiy fikrlashning analogiya usulidan foydalanilgan.

Analogiya yordamida chiqarilgan xulosalar insonning olam haqidagi bilimlarining chuqurlashuviga xizmat qiladi.

Odatda, analogiya bo'yicha chiqariladigan xulosa ehtimollik xarakteriga ega bo'ladi, uning haqiqatga qanchalik yaqinroq bo'lishi bir qator omillarga bog'liq bo'ladi:

- o'rganilayotgan va solishtirilayotgan ob'ekt mumkin qadar ko'proq umumiy belgilarga ega bo'lishi;
- bu belgilarning mumkin qadar ko'proq narsa va hodisalar mohiyatidan kelib chiqishi.

Xulosaga asos qilib olingan axborot (belgi, tomon va hokazo)ning xarakteriga ko'ra analogiya 2 ko'rinishda namoyon bo'ladi:

1. Sifat analogiyasi

2. Munosabat analogiyasi

1. Predmet, hodisalarning sifat (xususiyat)laridagi o'xshashlik sifat analogiyasini hosil qiladi. Masalan: Janubiy Afrika yassitog'ligining geologik strukturasi Yoqutiston tog'larnikiga o'xshash. Janubiy Afrikadan ko'pdan-ko'p olmos tog' konlar topilgan. Demak, Yoqutistonda ham olmos konlari bo'lishi mumkin.

2. Munosabatlardagi o'xshashlik munosabat analogiyasini hosil qiladi. Munosabat analogiyasi sababiy aloqadorlik shaklida namoyon bo'ladi. Masalan: Yerga olmaning tushishining sababi Yerning tortishish kuchi. Oy yerning tortishish kuchi tufayli uning atrofida harakat qiladi. Yer, butun planetalar Quyosh atrofida harakat qiladi. Shu orqali butun dunyo tortishish qonunini tushunishi mumkin.

Bionika fani jonli tabiat ob'ektlari, hodisalarini o'rganish asosida u haqidagi bilimlarni yangi texnika texnologiyada qo'llash bilan shug'ullanadi. Fizik olim Rezerfort ishlab chiqqan atom tuzilishini modeli atom yadrosi bilan elektronlar munosabatidagi o'xshashlikka asoslangan.

O'xshashlik - o'xshash tomonlarni aniqlash, bilim va amaliyotda muhim o'rin tutadi. M.V. Lomonosov «o'xshatish biron bir narsani isbotlamaydi, balki isbotlanadigan narsani tushuntiradi»,- degan edi.

Hosil bo'ladigan bilimning xarakteriga ko'ra analogiya 3 ko'rinishda namoyon bo'ladi: a)

Qat'iy analogiya.

b) Qat'iy bo'lmagan analogiya.

c) Yolg'on analogiya.

a) Qat'iy analogiya o'xshash tomonlar, belgilar orasidagi zaruriy aloqa va munosabatlar asosiga ko'riladi. Qat'iy analogiya ilmiy izlanishlarda keng qo'llaniladi. Ilmiy tadqiqotlarni modellashtirish usuli qat'iy analogiyaga asoslangan.

b) Qat'iy bo'lmagan analogiya ehtimollik xarakteridagi (taxminiy) xulosalarni hosil qiladi. Samolyotlar modelini sinash qat'iy bo'lmagan analogiyaga asoslanadi.

Qat'iy bo'lmagan analogiyada bilimning ishonchlilik darajasini oshirish uchun quyidagilarga e'tibor berish lozim:

1. o'xshash xususiyatlar tomonlarning ko'pligiga;
2. asosiy, zaruriy belgilar, tomonlar o'xshashligiga;

11-MAVZU. MULOHAZA. XULOSA CHIQARISH

3. o'xshashlikning iloji boricha har tomonlama bo'lishiga;
4. farqlarning miqdori va sifatiga;
5. chiqarilayotgan xulosadagi ehtimol borligi nazarda tutilgan belgining o'xshash belgilarga yaqin tipni ifodalashiga.

Bular analogiya bo'yicha chiqariladigan xulosalarning asosiy qoidalari hisoblanadi.

c) Yolg'on analogiya ba'zan muxolifni aldash maqsadida qo'llanishi mumkin. Bunda yolg'on analogiya sofistika usulni ifodalaydi. Predmetlar hodisalarning mohiyatini xususiyatlarini bilmaslik, tasodifiy o'xshashlikka tayangan holda xulosa chiqarish yolg'on analogiya hisoblanadi.

Analogiya o'quv jarayonida, isbotni talab etadigan holatlarda, matematik modellashtirishda, badiiy ijodda muhim urin tutadi.

5. Olamdagi alohida narsalar, ularning xususiyatlarini hissiy mushohada orqali aniqlash mumkin. Biz uying tomi yopilmaganini ko'rib «uy bitmagan», dorining mazasini tatigach, «dori achchiq» deb aytishimiz mumkin. Bular oddiy, ko'rinib turgan haqiqat va ularni isbotlash uchun alohida dalil keltirish talab qilinmaydi. Lekin aksari hollarda (dars berish, ma'ruza o'qish, insho yozish, ilmiy izlanish, munozara, sud majlislari, ilmiy ishni yoqlash) kabi o'z fikrimizning chinligini, asoslanganligini isbotlashga to'g'ri keladi. Ana shunday vaqtlarda argumentlash, ya'ni dalil keltirish mantiqiy usulidan foydalanamiz.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.:“O'zbekiston”, 2014. 24 b
2. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF4947-sonli [Farmoni](#).
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
5. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-24 jildlar.- T.: O'zbekiston 1996-2016.
6. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. 2 nashr –T.:Ma'naviyat, 2016 176-b.
7. Sharipov M. Fayzixo'jayeva D. Mantiq. – T.: Unversitet, 2007. 214 b.
8. Xayrullaev M, Haqberdiev M. Mantiq. - T.: o'qituvchi, 1993.
9. Sharipov M. Fayzixo'jayeva D. Mantiq. O'quv qo'llanma, -T., 2004

12-MAVZU. ARGUMENTLASH VA BILIMLAR TARAQQIYOTINING MANTIQUIY SHAKLLARI

REJA:

1. Isbotlash va rad etishning umumiy tavsifi.
2. Isbotlash va rad etishning turlari.
3. Fikrni asoslashda uchraydigan xatolar.
4. Bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari: muammo, gipoteza, nazariya.

Tayanch tushunchalar: argumentlash, hukm, oddiy hukm, murakkab hukm, modal hukmlar, mantiqiy kvadrat. Xulosa chiqarish, deduktiv xulosa chiqarish, muammo, savol, nazariya, gipoteza, rad etish,

Argumentlash (dalillash) asoslangan fikrlarni, chin bilimlarni hosil qilish usuli bo'lib hisoblanadi. Argumentlash (dalillash) lotincha «argumetatio» so'zidan olingan bo'lib, fikrni asoslash uchun qo'llanadigan fikrlarga nisbatan ishlatiladi. Fikrlar chinligini asoslashning mantiqiy usullarini o'rganuvchi mantiq fanining maxsus bo'limi argumentlash (dalil keltirish) nazariyasi deb yuritiladi.

Argumentlash (dalillash) jarayoni olamni bilishda ilmiy tafakkurda, ijtimoiy-siyosiy hayotda muhim ahamiyatga ega. Dalillash jarayonida mantiqiy fikrlashga bo'lgan eng muhim talablardan biri-yetarli asosga ega bo'lish, asosli fikr yuritishamalga oshadi. Hayotda, ilm-fan, bilishning turli sohalarida asoslash, dalillash jarayoni o'ziga xos shakllarda kechadi. Dalillash o'ziga xos tuzilishga ega bo'lishi, muayyan maqsadlarga xizmat qilishi mumkin. Lekin dalillash maqsadlari, qo'llanishi qanchalik xilma-xil bo'lmasin, ular inson tafakkurining eng muhim xislati bo'lib hisoblanadi va mantiq qoidalariga bo'ysunadi.

Biz u yoki bu fikrni, nazariyani, ta'limotni haqiqiy, chin bilim sifatida shunchaki qabul qila olmaymiz. Uning chin bilim, haqiqatligiga ishonganimiz taqdirdagina, uning asoslari, dalillari bizda shubha qoldirmagan taqdirdagina to'g'ri fikr nazariya, deb hisoblaymiz.

Insonning olam haqidagi bilimlari turli-tuman bo'ladi. Ularni shakllanish xususiyatlari va anglatgan mazmunlariga ko'ra nazariy va amaliy bilimlarga bo'lish mumkin. Nazariy bilimlar ilmiy bilish natijalari hisoblanadi va ularning haqiqiy bilim ekanligi mantiqiy asoslanganligida namoyon bo'ladi. Kundalik amaliy faoliyat jarayonida amaliy bilimlar shakllanadi. Ularning qay darajada chinligi, hayotdan olingan dalillar bilan asoslanadi yoki inkor etiladi.

Shunga ko'ra dalillash (asoslash) ikki usulda namoyon bo'ladi: a) nazariyalar, ta'limotlar, ilmiy bilimlarga nisbat, dalillash (asoslash), isbot va raddiya shaklida namoyon bo'ladi; b) kundalik hayot jarayonida fikrlar hayotiy faktlar orqali tasdiqlanadi yoki ular tanqid qilinadi (qisman rad qilinadi).

Dalillash (asoslash) murakkab jarayon bo'lib, unga xilma-xil omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu omillarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Argumentlashning mantiqiy asoslari.
2. Argumentlashning ijtimoiy-psixologik asoslari.

Dalillash (argumentlash) xilma-xil shakllarda namoyon bo'ladi. Uning dastlabki eng oddiy shakllari deganda a) isbotlash va rad etish; b) tasdiqlash va shubha ostiga olish (uni tanqid qilish) nazarda tutiladi. Shu bilan bir qatorda uning nisbatan murakkab shakllari ham borki, bularga suhbat, bahs-munozara kabilarni kiritish mumkin.

Dalillash yuzaki qaraganda kishilar tafakkuridagi chin bilan yolg'on, yaxshilik (ezgulik) bilan yomonlik orasidagi ziddiyatni bartaraf qilishdek bo'lib ko'rinadi. Lekin aslida argumentlar (dalillar) hayotning o'zidan kelib chiqadi va unda nimaga xizmat qilishidan qat'iy nazar ishontirish

va ishonish muhim o'rin tutadi. Argumentlash (dalillash, asoslash) shunday mantiqiy usulki, uning natijasida muayyan fikr, qarash, nazariyaning chinligi yoki xatoligi asoslab beriladi.

Isbotlash, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, argumentlashning eng oddiy mantiqiy usuli hisoblanadi.

Isbotlash va uning tarkibi. isbotlash turlari.

Kishilarning amaliy faoliyatdagi muvaffaqiyatlari ular qo'llayotgan bilimlarning kay darajada chin bulishiga, ya'ni bu bilimlarning voqelikni qanchalik to'g'ri aks ettirishiga bog'liq. Xato fikrlar predmetlarning real aloqalari va munosabatlarini buzib ko'rsatadi, bilishda ko'p chalkashliklarga olib keladi. Shuning uchun ham bilish jarayonida xar bir fikrni to'g'ri qurishga erishish, uning chinligini dalillar bilan ko'rsata olish, xato fikrlarni esa rad kila bilish muhim ahamiyatga ega. Fikrning chinligini tasdiqlash uchun uni xodisaning (faktning) o'zi bilan solishtirish mumkin. Lekin ko'p hollarda bilish jarayonida natijalarning chinligi ularni ilgari vujudga kelgan bilimlar bilan bog'lash orqali aniqlanadi. Buni amalga oshirishning mantiqiy usuli isbotlashdir. Isbotlash bir xukmning chinligini u bilan bog'langan boshqa chin xukmlar yordamida asoslashdan iborat bo'lgan mantiqiy amaldir. Uning tarkibi uch elementdan tashkil topgan: tezis, argumentlar (asoslar), isbotlash usuli - demonstratsiya.

Tezis - chinligi asoslanishi lozim bulgan xukm, u isbotlashning markaziy figurasi xisoblanadi; butun diqqat-e'tibor uning chinligini ko'rsatishga karatiladi. Tezis bir muloxazaning o'zidan, yoki muloxazalar tizimidan, yoki teoremlardan, yoki aniq, faktlarni umumlashtirish natijalaridan, yoki xodisalarning sababini ko'rsatuvchi muloxazalardan va shu kabilardan iborat buladi.

Argumentlar - tezisning chinligini asoslash uchun keltirilgan xukmlar. Argumentlar bulib faktlarni qayd qiluvchi xukmlar, ta'riflar, aksiomalar, teoremlar, qonunlar xamda boshka empirik va nazariy umumlashmalar xizmat qiladi. Argument sifatida keltirilgan faktlar, albatta, o'zaro bog'langan va tezisning moxiyatiga aloqador bo'lishi lozim. Ta'riflar xam chin xukmlar bulib, ulardan argument sifatida foydalanish mumkin. Masalan, "Harakat – bu har kandy o'zgarishdan iborat", degan ta'rif chin xukmdir. Aksiomalar chinligi o'z-o'zidan ravshan bo'lgan, isbotlashni talab qilmaydigan fikrlardir. Inson tajribasida ko'p martalab takrorlanganligi uchun xam ularni isbotlash zarur emas. Teoremlar va qonunlarning chinligi isbotlangan bo'ladi, ularni xech ikkilanmasdan argument qilib olish mumkin. Isbotlash usuli - demonstratsiya tezis bilan argumentlar o'rtasidagi mantikdy aloqadan iborat. U xulosa chikarish shaklida buladi, ya'ni tezis argumentlardan xulosa sifatida mantiqdan keltirib chikariladi. Isbotlashning ikki turi mavjud: bevosita isbotlash, bavoita isbotlash. Bevosita isbotlashda tezisning chinligi to'g'ridanto'g'ri argumentlar bilan asoslanadi, unda tezisga zid bulgan xukmlardan foydalanilmaydi. Tezis ko'p xollarda yakka xodisani ifoda kilib keladi va ma'lum bir umumiy bilimdan, masalan, qonundan argument sifatida foydalanilib, uning chinligi asoslanadi.

Masalan, "O'zbekiston - mustaqil davlatdir", degan xukm (tezis)ning chinligi "O'zbekistonning mustaqil davlat deb, e'lon qilinishi, uning xalqaro miqyosda e'tirof etilishi" kabi asoslar yordamida isbotlanadi.

Bavoita isbotlashda esa tezisning chinligi unga zid bo'lgan xukmning (antitezisning) xatoligini ko'rsatish orqali asoslanadi. Antitezis qanday shaklda ifodalangan bo'lishiga qarab apagogik isbotlash va ayiruvchi isbotlash farq qilinadi.

Apagogik isbotlashda tezis (a) va antitezis (a) o'rtasidagi munosabatga asoslaniladi. Masalan, "Materiya xarakatsiz mavjud emas", degan xukmning chinligini asoslash uchun unga zid bulgan "Materiya harakatsiz mavjud", degan xukm olinadi. Apagogik isbotlashda antitezis topilib (1bosqich), vaqtincha chin deb qabul qilinadi va undan ma'lum bir natijalar keltirib chiqariladi (2bosqich), so'ngra bu natijalarning xatoligi kursatiladi (3-bosqich) va demak, tezisning chinligi isbotlanadi. Masalan, "Materiya harakatsiz mavjud", degan xukm chin bulsa, "Moddiy predmetlar strukturasiz mavjud", degan fikr (antitezisdan kelib chiqqan natija) ham chin buladi. Bizga

ma'lumki, moddiy predmetlar tarkibsiz (uni tashkil qiluvchi elementlar va ularning o'zaro aloqasisiz) mavjud emas. Demak, "Materiya xarakatsiz mavjud", degan fikr xato, shu tarika "Materiya xara-katsiz mavjud emas", degan fikrning chinlash asoslanadi. Ayiruvchi isbotlashda tezis sof ayiruvchi xukmning (kuchli diz'yunksiyaning) bir a'zosi bulib, uning chinligi boshka a'zolarining (antitezisning) xatoligini ko'rsatish orkali asoslanadi. Masalan, "Jinoyatni yo A, yo V, yo S shaxslar sodir etgan", degan fikr tekshirilib, "Jinoyatni V shaxs xam, S shaxsxam sodir etmagan"ligi aniqlanadi va shu tarika "Jinoyatni A shaxs sodir kilgan", degan xukmning chinligi asoslanadi. Bu misolda ayiruvchi isbotlash ayiruvchi - qat'iy sillogizmning inkor etib, tasdiklovchi modusi buyicha qurilgan:

Raddiya - isbotni buzishga qaratilgan mantikly amaldir. Birorta fikrning chinligini rad etish ayni paytda unga zid bulgan fikrning xatoligi ko'rsatishdan iborat bo'lganligi uchun raddiyani isbotlashning xususiy **ko'rinishi**, deb hisoblash mumkin. Raddiya ham isbotlash kabi tezis (rad qilinishi lozim bulgan hukm), argumentlar (tezisni rad qiluvchi xukmlar) va demonstratsiyadan (rad etish usuli) dan tashkil topgan bo'ladi. Raddiya birorta masalani muhokama qilish, ya'ni baxs, munozara jarayonida uchraydi. Bahs qatnashchilaridan biri malum bir tezisni ilgari surib, uni ximoya kilsa (proponent), boshqasi unga qarshi chikadi (opponent). Hal qilinmagan, munozarali masalalar buyicha olib boriladigan bahslar polemika hisoblanib, unda qarama-karshi tezislar asoslanibgina qolmay, balki tanqidiy analiz ham qilinadi.

Raddiya uch xil usul bilan amalga oshiriladi:

- 1) tezisni rad etish; 2) argumentlarni rad etish; 3) demonstratsiyani rad etish. **I.**

Tezisni rad etish.

Tezisni rad etishning kuyidagi usullari mavjud:

1. Faktlar orkali rad etish. Bu eng ishonchli va samarali usuldir. Bunda bulib o'tgan voqealarga, statistik ma'lumotlarga asoslanib tezis rad etiladi. Masalan, "Sovet davrida O'zbekiston to'laqonli mustaqil respublika bo'lgan", degan tezisni rad etish, ya'ni uning noto'g'ri ekanligini isbotlash uchun tarixiy faktlarga asoslanamiz. O'sha davrda respublika rahbariyati birorta muhim masalan Moskvaning ruxsatisiz hal qila olmaganligiga dalillar keltirib, tezisni rad etamiz.

2. Tezisdan kelib chikadigan natijalarning xatoligini (yoki ziddiyatli ekanligini) ko'rsatish orkali rad etish. Bunda tezisdan kelib chikadigan natijalarning chin emasligi asoslab beriladi. Bu usul

"bema'nilikka olib kelish", deb ataladi. Rad etilayotgan tezis vaqtincha chin deb tan olinadi, undan kelib chiqadigan natijalar aniqlanib, bu natijalarning xaqiqatga zid, noto'g'ri ekanligi isbotlanadi. Chin asosdan xato natija kelib

chiqmaydi, aks xolda bu bema'nilik buladi. "Bema'nilikka olib kelish" usulining formulasi kuyidagicha:

$$(a \rightarrow) \rightarrow ((a \neg) \rightarrow a)$$

3. Tezisni antitezisni isbotlash orkali rad etish. Rad etilayotgan tezisga zid bulgan yangi tezis (antitezis) olinadi va isbotlanadi. Uchinchisi istisno konuniga muvofik, antitezisning chinligidan tezisning xatoligi keltirib chikariladi. Masalan, I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli maqolasida "Amir Temur buyuk sarkarda bo'lgan va yovuzliklar kilgan", degan tezisni shunday rad etadi: "Inson bir paytning o'zida ham bunyodkor, ham yovuz bo'lishi mumkin emas. Ne-ne madrasayu masjidlar, oily koshonalarni qurgan, ne-ne olimu fuzalolarning boshini silagan, Qur'oni karimni yod bilgan inson yovuz bo'lmaydi. Qonxo'r odam "Kuch – adolatda", deyishi

mumkinmi?”⁴¹ Darhaqiqat, Soxibqiron Amir Temur xomiyligida, uning ko‘rsatmasiga binoan yaratilgan bog‘lar, qurilgan imoratlar uning bunyodkor shaxs ekanligini yaqqol isbotlaydi.

II Argumentlarni rad etish.

Tezisni isbotlash uchun opponent tomonidan keltirilgan argumentlar tanqid kilinib, ularning xatoligi yoki tezisni isbotlash uchun etarli emasligi aniqlanadi. Argumentlarning xatoligi tezisning xam xato ekanligini isbotlamaydi, bunda tezis chin bulishi xam mumkin: $R \rightarrow Q, P$

III Isbotlash usulini tanqid qilish orqali rad etish.

Rad etishning bu usulida isbotlashda yul qo‘yilgan xatolar aniqlanadi. Bunda rad etilayotgan tezis chinligining uning asoslash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chikmasligi asoslab beriladi. Isbotlash usulida yo‘l qo‘yilgan xato aniqlanganda tezis rad etilmaydi, uni qayta isbotlash talab kilinadi. Rad etishning yuqorida ko‘rsatilgan usullari ko‘pincha birgalikda, birbirini to‘ldirgan holda qo‘llaniladi.

Fikrni asoslashda uchraydigan xatolar.

Tezisga aloqador qoidalar:

1. Tezis mantiqan aniq, va ravshan bo‘lishi kerak. Bu qoida buzilsa, isbotlash yoki rad etish o‘zining aniq predmetiga ega bo‘lmay qoladi, uni amalga oshirishga urinish bexuda ish xisoblanadi.

2. Tezis isbotlash yoki rad etishning boshidan oxirigacha o‘zgartirilmassligi kerak. Bu qoida buzilsa, “tezisni almashtirish” degan xato kelib chikadi.

Argumentlarga nisbatan koidalar:

1. Tezisni asoslash uchun keltirilgan argumentlar chin Xukmlar bulishi va bir-biriga zid bulmassligi lozim.

2. Argumentlar tezisni asoslash uchun etarli bulishi kerak.

3. Argumentlar tezisdan mustaqil holda chinligi isbotlangan xukmlar bulishi lozim.

Isbotlash usulining qoidasi:

1. Tezis argumentlardan mantiqiy tarzda kelib chikadigan xulosa bo‘lishi lozim. Buning uchun isbotlash yoki rad etishda xulosa chikarish koidalariga rioya kilish zarur.

Isbotlash va rad etish koidalarining buzilishi mantikiy xatolarsh olib keladi. Bu xatoliklar uch turga bo‘linadi:

1. Isbotlanayotgan tezisga aloqador xatoliklar:

1. Tezisni almashtirish. Tezis isbotlash yoki rad etish davomida o‘zgarmissligi shart, degan qoidaning buzilishi tezisning almashtirilishiga sabab buladi. Tezis ataylab yoki bilmasdan boshka tezis bilan almashtiriladi va bunda yangi tezis isbotlanadi yoki rad etiladi. Tezis mazmunining toraytirilishi yoki kengaytirilishi xam baxs jarayonida tezisning o‘zgarishiga olib keladi. Masalan, respublikamiz taraqqiyoti uchun milliy mafkura, milliy g‘oyaning ahamiyati tug‘risidagi tezisni isbotlash davomida umuman jamiyatga mafkura kerakmi yoki yo‘qmi, degan masalani isbot etishga harakat kilinsa, unda tezisning mazmuni kengayib ketadi va tezis almashinadi.

2. Insonning shaxsiy sifatini bahona kilib tezisni almashtirish. Baxs jarayonida mavzudan chetga chikib, opponentning shaxsiy, ijtimoiy xayoti, yaxshi fazilatleri yoki kamchilikleri xususida fikr yuritib, shu asosda tezisni isbotlangan yoki rad etilgan, deb ta‘kidlash tezisning almashinishiga sabab buladi. Bunday xatoga ataylab yul qo‘yiladi. Tinglovchilarning xis-tuyg‘ulariga ta‘sir qilish orqali isbotlanmagan tezisning chin deb kabul kilinishiga urinish xam tezisni almashtirish xisoblanadi.

3. Ortiqcha yoki kam isbotlashga urinish natijasida tezisning almashinishi. Fikr ortiqcha isbotlansa, berilgan tezis o‘rniga undan kuchlirok tezisni isbotlashga xarakat kilinadi. Agar A xodisadan V kelib chiksa, lekin V xodisadan A kelib chikmasa, unda A xodisani ifodalovchi tezis V xodisani ifodalovchi tezisdan kuchlirok, buladi. Masalan, “A shaxs birinchi bo‘lib janjalni

⁴¹ И.А. Каримов. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. “Мулоқот”, 1998, №5, 8-6.

boshlamagan” degan tezis (V) o‘rniga, “A shaxs umuman janjal bo‘lgan erda yuq edi” degan tezisni (A) isbotlashga xarakat kilinadi.

Ikkinchi tezisni isbotlab bulmaydi, chunki A shaxsning janjalda qatnashganligini ko‘rgan guvohlar bor.

II. Argument (asos)larga taalluqli xatolar:

1. Asoslarning xatoligi. Tezis isbotlanganda yoki rad etilganda xato argumentlarga chin deb asoslanish natijasida atashib yoki bilmasdan mantiqiy xatoga yul qo‘yiladi. Masalan, Qadimgi grek faylasufi Fales o‘z talimotini hamma narsa suvdan paydo bo‘lgan, degan fikrga asoslanib yaratgan.

2. Asoslarni avvaldan taxminlash shaklidagi xato. Tezis isbotlanmagan argumentlarga asoslansa, bunday argumentlar tezisning chinligini isbotlamaydi, balki tezisning chinligi taxminlanadi, xolos.

3. “Aylanma isbot etish”deb nomlanuvchi xato. Tezisning chinligi argumentlar orqali, argumentlarning chinligi tezis orkali isbotlansa mantiqiy xatoga yul qo‘yiladi. Masalan, “So‘zning qudrati fikr bilan o‘lchanadi”, degan tezisni “Fikrning qudrati so‘z bilan o‘lchanadi”, deb isbotlasak, yuqorida aytilgan xatoga yo‘l qo‘yiladi. III. Isbotlash usuli (demonstratsiya) bilan bog‘liq, xatolar.

1. “Yolg‘on (soxta) isbotlash”. Agar tezis uni isbotlash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chiqmasa, mantiqiy xatoga yul kuyiladi. Bunda tezisga aloqador bo‘lmagan argumentlarga asoslaniladi. Masalan, “A shaxs yomon odam”, degan tezis “Tunda yomon odamlargina ko‘chada yuradi”, “A shaxs ko‘chada tunda yuribdi” degan argumentlar bilan asoslansa, fikr yuzaki (soxta) isbotlangan bo‘ladi.

Argumentlashning mantiqiy asoslarini bilish va baxs yuritish koidalari amal kilish tafakkur madaniyatini yukori darajaga ko‘tarish imkonini beradi. Bilishning maqsadi qayd kilingan hodisalarning mohiyatini tushuntirishdan iborat. Buni hamma vakt ham mavjud tasavvurlar, prinsiplar yordamida amalga oshirib bulmaydi. Bilish jarayonida ma‘lum bir ziddiyatlar, birinchi navbatda, mavjud bilimlarimizning erishgan darajasi bilan yangi bilish vazifalarini xal qilish zaruriyati o‘rtasida ziddiyat kelib chiqadi, muammoli vaziyat paydo buladi. Bunday ziddiyatlar, ayniksa, kundalik hayotimizda murakkab vazifalarni hal kilishda, fanda esa tub burilishlar davrida yaqqol namoyon bo‘ladi. Mana shunday vaziyat, masalan, tabiatshunoslikda XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida radioaktivlik hodisasiing kayd kilinishi, elektronning kashf etilishi, nurlanishning kvant xususiyatga egaligining asoslanishi va shu kabi kashfiyotlar natijasida vujudga kelgan. Uning mohiyatini tabiatshunoslikning, birinchi navbatda, fizikaning mavjud qonunlari va prinsiplarining yangi qayd kilingan xodisalarni tushuntirish uchun etarli emasligida, deb bilmok zarur.

Shuni ham aytish kerakki, ilmiy bilishda muammoli vaziyatni fan tarakkiyotining ichki ehtiyojlari ham keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, hozirgi paytda fanda sinergetika g‘oyalari va metodlarini tushuntirish, matematikada aksiomatikaning imkoniyatlari va qo‘llanish sohalarini aniqlash bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalarni hal qilish zaruriyati yangi vaziyatni yaratadi. Bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari: muammo, gipoteza, nazariya

Muammo - javobi bevosita mavjud bilimda bo‘lmagan va echish usuli noma‘lum bulgan savoldir. SHuning uchun xam muammoni qo‘yish va hal qilish mavjud bilimlarni qayta ishlash, ba‘zi hollarda esa, xatto, ular doirasidan chetga chiqishni, yangicha echish usuli, metodlarini qidirishni taqozo etadi. Qanday muammolarni ilgari surishni, uni muxokama kilishning xususiyatini amaliy faoliyatimiz va bilishimiz extiyojlari belgilab beradi.

Muammoni muvaffaqiyatli hal qilishning zarur shartlaridan biri uni tug‘ri qo‘yish va anik bayon kilishdan iborat. To‘g‘ri ko‘yilgan savol, V.Geyzenberg aytganidek, muammoni echishning yarmidan ko‘prog‘ini tashkil etadi. Muammoni to‘g‘ri quyish uchun muammoli vaziyatni aniq

tasavvur kilishning o‘zi etarli emas. Buning uchun muammoni xal kilishning turli xil usullari va vositalarini xam oldindan ko‘ra bilish kerak.

Gipoteza - o‘rganilayotgan hodisaning sabablari va xususiyatlarini tushuntiradigan asosli taxmin tarzidagi bilim shaklidir. Gipotezani, avvalambor, bilimlarning mavjud bo‘lish shakli sifatida olib qarash zarur. CHin, ishonchli bilimlar hosil bo‘lgunga qadar qo‘yilgan muammolar, masalalar haqidagi fikr-muloxazalar kuzatish, eksperiment natijalarini taxlil kilish va umumlashtirishga asoslangan bo‘lib, ular turli xil taxminlar, farazlar shaklida quriladi va mavjud bo‘ladi. Masalan, Levkipp va Demokritning jismlarning atomlardan tashkil topganligi xakida bildirgan fikrlari dastlab gipotetik shaklda bulib, eng oddiy, kundalik tajribada minglab marta kuzatiladigan hodisalar: qattiq jismning suyuqlikka aylanishi, hidning tarqalishi va shu kabilarni tahlil qilishga asoslangan, ularning sababini tushuntirishga qaratilgan. “Jismlar mayda, bo‘linmas zarrachalardan tashkil topmaganda bunday xodisalar bo‘lmas edi”, degan fikr o‘zining ma‘lum bir mantiqiy kuchiga ega.

Umumiy gipoteza deb tabiat, jamiyat, bilish hodisalarining qonuniyatlari xaqida bildirilgan asosli taxminga aytiladi. Bunga misol kilib neft kelib chiqishining organik va noorganik tabiati haqidagi gipotezalarni, yerda hayotning paydo bo‘lishi, ongning kelib chikishi, ijtimoiy profess haqidagi farazlarni ko‘rsatish mumkin.

Juz‘iy (xususiy) gipoteza ayrim faktlar, konkret predmet va xodisalarning kelib chikishi, xususiyatlari haqidagi bildirilgan asosli taxminiyl fikrdan iborat.

Nazariya ma‘lum bir predmet soxasiga oid tushunchalar, qonunlar, gipotezalar, g‘oyalarni sistemaga solib, u haqida yaxlit tasavvur hosil qiladigan, yangi fundamental umumlashmalar yaratishga olib keladigan, shu soxadagi xodisalarni tushuntirish, oldindan kurish imkonini beradigan ishonchli bilimdan iborat.

Ilmiy nazariya quyidagi tarkibiy kislardan tashkil topadi: 1) empirik asos: nazariyaga aloqador faktlar, ularga mantiqiy ishlov berish natijalari; 2) boshlang‘ich nazariy asos: nazariyaning asosiy tushunchalari, postulatlar (aksiomalari), fundamental qonunlar (prinsiplar); 3) nazariyaning mantikiy apparati: tushunchalarni xosil qilish va ta‘riflash qoidalari, xulosa chiqarish (isbotlash) qoidalari; 4) olingan natijalar (xulosalar).

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.:“O‘zbekiston”, 2014. 24 b
2. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF4947-sonli [Farmoni](#).
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
5. Karimov I.A. Asarlar to‘plami. 1-24 jildlar.- T.: O‘zbekiston 1996-2016.
6. Karimov I. A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. 2 nashr –T.:Ma‘naviyat, 2016 176-b.
7. Sharipov M. Fayzixo‘jayeva D. Mantiq. – T.: Unversitet, 2007. 214 b.
8. Xayrullaev M, Haqberdiev M. Mantiq. - T.: o‘qituvchi, 1993.
9. Sharipov M. Fayzixo‘jayeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma, -T., 2004

13-MAVZU: “ETIKA” FANINING PREDMETI VA JAMIYAT HAYOTIDAGI AHAMIYATI REJA:

1. “Etika” fanining predmeti, mohiyati va tuzilmasi. Gedonizm va evdemonizm ta’limotining axloqiy ahamiyati.
2. Axloqning paydo bo‘lishiga oid diniy, ilmiy qarashlar tasnifi.
3. XXI asrda global etosfera (axloqiy muhit)ni yaratishning zaruriyati.
4. Etikaning kategoriyalari, tamoyillari, me’yorlarining shaxs va jamiyat munosabatlarida namoyon bo‘lishi. 5. Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov

Tayanch tushunchalar: Axloqshunoslik, Etika, Axloq, Xulq, Odob, Falsafa, Milliy g‘oya, Noosfera, Etosfera, Biosfera. Muhabbat va nafrat, Ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, Adolat, Vijdon, Burch, Nomus, Ideal, Insonparvarlik, Erkparvarlik, Vatanparvarlik, Millatparvarlik, Tinchlikparvarlik, Jo‘mardlik, Xalollik, Rostgo‘ylik, xushmuomalalik, Kamtarlik.

1. “Etika” fanining predmeti, mohiyati va tuzilmasi. Qadimgi yunon faylasufi Aristotel o‘z davrida mavjud fanlarni ta’riflarkan, ularni uchta guruhga ajratadi: nazariy fanlarga falsafa, matematika, fizikani; ijodiy fanlarga san’at, badiiy hunarmandchilikni; amaliy fanlarga esa etika va siyosatni kiritadi. SHu tariqa Etika falsafa doirasidan ajralib chiqadi va mustaqil fan sifatida shakllana boshlaydi. Hozirgi vaqtda «Etika» ijtimoiy-falsafiy fanlar tizimida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan fandir. «Etika» (axloqshunoslik)—axloqning kelib chiqishi, mohiyati, xususiyatlari, jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni haqidagi fandir. U boshqa ijtimoiy fanlar singari o‘z qonunlari va kategoriyalariga ega bo‘lib, ular orqali o‘z xulosalarini bayon qiladi. «Axloq» so‘zi aslida arabcha so‘z bo‘lib, xulq-atvor, yurish-turish, tarbiya degan ma’nolarni anglatadi. Hozirgi vaqtda bu tushuncha jamiyatning axloqiy hayotida yuz beradigan barcha jarayonlarning majmuini aks ettiradi. Jamiyatning axloqiy hayoti deb kishilarning ijtimoiy, siyosiy va xuquqiy faoliyatida, oilasida va kundalik turmushida yuzaga keladigan o‘ziga xos munosabatlari shakliga aytiladi. Axloq tushunchasini ikki xil ma’noda ko‘rish mumkin: axloq umumiy tushuncha sifatida etikaning tadqiqot ob’ektini anglatsa, yakka tushuncha sifatida inson fe’l-atvori va xattiharakatining o‘ziga xos ko‘rinishini anglatadi.

Xususan «odob», «xulq-atvor» ma’nolarida ham ishlatiladi. Aslida «axloq» va «odob» tushunchalari bir-biridan mazmun jihatidan farq qiladi.

A. Sher «Axloqshunoslik» kitobida ko‘rsatishicha, «Odob-inson haqida yoqimli taassurot uyg‘otadigan, lekin jamiyat va insoniyat hayotida u qadar muhim ahamiyatga ega bo‘lmaydigan, milliy urf-odatlariga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni o‘z ichiga oladi.

Axloq esa—jamiyat, zamon insoniyat tarixi uchun namuna bo‘la oladigan ijobiy xattiharakatlar yig‘indisidir».⁴²

Axloq inson va jamiyat o‘rtasidagi ob’ektiv aloqadorlik tufayli kelib chiqadigan, har bir shaxsning hayoti va faoliyatini boshqaradigan, tartibga soladigan prinsip va normalar majmuidir.

Axloq ijtimoiy xodisa sifatida insoniyat jamiyati vujudga kelishi bilan bir vaqtda jamoalar bilan shaxslar o‘rtasidagi ehtiyoj va manfaatlarga xizmat qiluvchi aloqa tarzida vujudga kelib, o‘zining tarixiy taraqqiyotida:

- insonning tabiiy xislatlarini o‘zgartiruvchi, yaratuvchi faoliyati shaklida umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi;

- jamiyatda yashovchi har bir shaxsni har tomonlama kamol toptiruvchi ma’naviyijtimoiy omil asoslaridan biri;

⁴² A. Sher. «Axloqshunoslik». T., 2010 y.

13-MAVZU: “ETIKA” FANINING PREDMETI VA JAMIYAT HAYOTIDAGI AHAMIYATI

- kishilarning ichki tuyg‘ularini, hissiyotlarini o‘stirib, umuminsoniy moddiy va ma’naviy qadriyatlarini anglab etish, ularni asrash va kelgusi avlodlarga etkazib berish yo‘llaridan eng afzali;
- oila va kundalik turmushda mavjud bo‘lgan oilaviy burch, o‘zaro hurmat, sadoqat, ornomus kabi an’analarini nasldan-naslga, avloddan-avlodga o‘tkazish asosida davom ettirish vositasi;
- adolatli jamiyat qurish va unda boy-badavlat, tinch-totuv, baxtli yashash g‘oyasi sifatida muntazam ravishda rivojlanib kelgan va rivojlanadi.

Axloqning negizini jamiyatning tarkibiy tuzilishi, xususan, undagi mulkiy munosabatlar, mehnat taqsimoti, aholining yoshi va ularning ehtiyoj va manfaatlari belgilaydi. Binobarin, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asosini xilma-xil shakllardagi mulklar tashkil etayotgan bir vaqtda, uni rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy negizlarini:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlikni tashkil qiladi. SHubhasizki, ana shu negizlar asosida O‘zbekiston xalqlarining yangicha mazmundagi ma’naviy-axloqiy dunyosi shakllanadi va qaror topadi. Bu esa, o‘z navbatida xalqimiz axloqining negizini belgilab beradigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Axloqning jamiyat xayotida tutgan o‘rni u bajaradigan funksiyalar bilan belgilanadi.

Regulyativ funksiyasi – axloqning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Regulyativ funksiya shaxs, xizmat jamoasi, davlat va jamoat institutlari faoliyatini jamiyatda mavjud bo‘lgan axloqiy normalar asosida boshqarib turishni anglatadi. SHu maqsadda bir qancha vositalarga tayanadi: axloqiy prinsiplar, jamoatchilik fikri, axloqiy avtoritet, an’analar, urf-odatlar va hokazo. Axloq nafaqat alohida shaxs, balki butun jamiyatning ham hulq-atvorini boshqaradi.

Aksiologik funksiyasi (baholash) – yuqorida ta’kidlaganimizdek, har qanday axloqiy xatti-harakat u yoki bu qadriyatlar sistemasi orqali baholanadi. «Axloqiy-axloqsiz», «yaxshiyomon» nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda xatti-harakatlar, munosabatlar, motivlar, qarashlar, shaxsiy sifatlar baholanadi. Axloq inson tomonidan qadriyatlarni o‘zlashtirish, ularni rivojlantirishni ham nazorat qiladi.

Informatsion (bilish) funksiyasi- axloqiy bilimlar hosil qilishga qaratilgan bo‘lib, axloqiy prinsiplar, normalar, kodekslar ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar haqidagi informatsiya manbai hisoblanadi. SHu bilan birga odatiy va ekstremal vaziyatlarda, konfliktli va tang holatlarda axloqiy tanlov masalasiga e’tibor qaratiladi. Demak, axloq olamni, insonni, uning mohiyatini, hayotining ma’nosini anglashga yordam beradi.

Tarbiyaviy funksiyasi–har qanday tarbiya tizimi – bu eng avvalo axloqiy tarbiya tizimi hisoblanadi. Axloqiy tarbiya axloqiy norma, odat, an’ana, umumiy xulq-atvor namunalarini aniq tashkiliy tizim holiga keltiradi, axloqiy bilimlarni axloqiy ishonch-e’tiqodga aylantiradi, konkret vaziyatlarda axloqiy bilim va ishonch-e’tiqodni qo‘llashda ijodiy yondashuvga o‘rgatadi. Demak, axloq nafaqat norma va qoidalarga rioya qilishni, balki o‘z-o‘zini nazorat qilishga o‘rgatadi.

SHu erda, axloqning alohida funksiyalarini ajratish shartli xarakterga ega ekanligini qayd qilish lozim. Chunki real hayotda ular bir-biri bilan uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Axloq bir vaqtning o‘zida boshqaradi, tarbiyalaydi, yo‘naltiradi va hokazo.

“Etika”ning boshqa ijtimoiy-falsafiy fanlardan farqi shundaki, u aksiologik xususiyatga ega. Ya’ni, axloqiy bilimlar insoniy munosabatlar va ijtimoiy voqelik hodisalarini baholash asosida vujudga keladi. Bu baholashning asosiy mezonni kishilarning «nima yaxshi-yu nima yomonligi» haqidagi tasavvurlari hisoblanadi. Bunday baholash ham jamiyatga, ham alohida shaxsga xosdir. Shu tariqa axloqiy qadriyatlardan ijtimoiy va individual tizimlar vujudga keladi. Bu tizimlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, har bir insonda turlicha namoyon bo‘ladi. Shaxs

faoliyatida ijtimoiy qadriyatlar tizimi ustun bo‘lsa, u ijtimoiy hayotda faol ishtirok etadi, uning dunyoqarashida jamoatchilik tamoyili ustun bo‘ladi. Aksincha bo‘lsa, inson o‘zining shaxsiy manfaatlarini ustun qo‘yadi, dunyoqarashida individualizm prinsipi ustun bo‘ladi.

Aslida axloqiy ideallar, tamoyillar va normalar kishilarning adolat, insoniylik, ezgulik, yovuzlik, ijtimoiy farovonlik haqidagi tasavvurlaridan kelib chiqqan. Bu tasavvurlarga mos keluvchi xatti-harakatlar axloqiy deb, zid keladigan xatti-harakatlar axloqsizlik deb e‘lon qilingan.

Boshqacha qilib aytganda, kishilar fikricha jamiyat va shaxs manfaatlariga mos keladigan, insonlar uchun foydali bo‘lgan xatti-harakatlar axloqiydir. Albatta, bu tasavvurlar tarixiy taraqqiyot davomida o‘zgarib borgan, turli sinflar, ijtimoiy guruhlarda turlicha bo‘lgan.

SHuningdek, atoqli faylasuf Erkin Yusupovning: «Umuman, axloq ijtimoiy munosabatlar zaminida alohida shaxs sifatida mavjud bo‘lgan insonlarning o‘z-o‘zini idora qilish shakllari va me‘yori, o‘zaro muloqot va munosabatlarda ularga xos bo‘lgan ma‘naviy kamolot darajasining namoyon bo‘lishidir»-degan ta‘rifi ham diqqatga sazovor.⁴³

Axloqshunoslik qadimda fizika, metafizika va mantiq bilan birgalikda falsafaning uzviy (uchinchi) qismi hisoblanar edi. Keyinchalik (Arastudan so‘ng) u alohida falsafiy yo‘nalishdagi fan maqomini oldi. Bu fikrni quyidagicha kengaytiribroq talqin etish mumkin. Ma‘lumki, falsafaning fanlar podshosi sifatidagi vazifasi barcha tabiiy va ijtimoiy ilmlar erishgan yutuqlardan umumiy xulosalar chiqarib, insoniyatni haqiqatga olib borishdir. Shundan kelib chiqqan holda, falsafaning predmetini tafakkur deb belgilash maqsadga muvofiq. Axloqshunoslik axloqiy tafakkur taraqqiyotini, uning nazariy muammolarini tadqiq etadi va amaliyotda insonni ezgulik orqali haqiqatga olib borishga xizmat qiladi. Shu bois uni axloq falsafasi yoxud ezgulik falsafasi deb ham atash mumkin.

Bugungi kunda falsafiy fan sifatida uch yo‘nalishda ish olib boradi, ya‘ni axloqshunoslik axloqni: 1) bayon qiladi; 2) tushuntiradi; 3) o‘rgatadi. Shunga ko‘ra, u tajribaviy-bayoniy, falsafiy-nazariy va mezoniy-me‘yoriy tabiatga ega. Qadimgilar uni amaliy falsafa deb ataganlar. Zero, sof nazariy axloqshunoslikning bo‘lishi mumkin emas. U insoniyat o‘z tajribasi orqali erishgan donishmandlik namunalarini hikmatlar, naqllar, matal-maqollar tarzida bayon etadi, kishilarni axloqiy qonun-qoidalarga o‘rgatadi, ularga axloqning mohiyatini tushuntiradi va falsafiy xulosalar chiqaradi. Ya‘ni axloqshunoslik fanida Aflotun, Arastu, Epikur, Sitseron, Seneka, Avgustin, Forobiy, Ibn Sino, G‘azzoliy, Nasafiy, Spinoza, Kant, Hegel, Shopenhauer, Foyerbax, Kirkegaard, Nitshe, Vl. Solovyov, Losskiy singari buyuk faylasuflar yaratgan axloq nazariyasiga doir ta‘limotlar bilan birgalikda «Panchatantra», «Qutadg‘u bilik», «Qobusnoma», Sa‘diyning «Guliston», Jomiyning «Bahoriston», Navoiyning «Mahub ul-qulub», Montening «Tajribanoma», Laroshfukoning «Hikmatlar», Gulxaniyning «Zarbulmasal» kabi amaliy axloqqa bag‘ishlangan asarlari ham o‘z mustahkam o‘rniga ega. Axloqshunoslikning boshqa falsafiy fanlardan farqi ham, o‘ziga xosligi ham undagi nazariya bilan amaliyotning ana shunday omuxtaligidadir.

Axloqshunoslik va estetika. Axloqshunoslik boshqa ijtimoiy va falsafiy fanlar bilan o‘zaro aloqadorlikda rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, uning estetika bilan aloqasi qadimiy va o‘ziga xos.

Avvalo, insonning har bir xatti-harakati va niyati ham axloqiylikka, ham nafosatga tegishli bo‘ladi, ya‘ni muayyan ijobiy faoliyat ham ezgulik (ichki go‘zallik), ham nafosat (tashqi go‘zallik) xususiyatlarini mujassam qiladi. Shu bois Suqrot, Aflotun, Forobiy singari qadimgi faylasuflar ko‘p hollarda axloqiylikni ichki go‘zallik, nafosatni tashqi go‘zallik tarzida talqin etganlar. Bundan tashqari, ma‘lumki, san‘at nafosatshunoslikning asosiy tadqiqot ob‘ekti hisoblanadi. Har bir san‘at asarida esa axloqning dolzarb muammolari ko‘tariladi hamda san‘atkor doimo o‘zi yashayotgan zamonda erishilgan eng yuksak axloqiy daraja va unga munosabatni badiiy qiyofalar orqali bevosita yoxud bilvosita aks ettiradi. Ayni paytda, bu ikki fanda ba‘zan bir tushunchaning ikki xil

⁴³ Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. Т., Университет, 1998, 38-б.

13-MAVZU: "ETIKA" FANINING PREDMETI VA JAMIYAT HAYOTIDAGI AHAMIYATI

ko'rishini uchratish mumkin. Chunonchi, estetikasidagi ulug'vorlik tushunchasi, axloqshunoslikda qahramonlik tarzida tavsiflanadi. SHuningdek, estetikada ildizi axloqshunoslikka borib taqaladigan inson axloqiyligi darajasi bilan bog'liq xulqiy go'zallik degan tushuncha ham mavjud. Demak, estetika o'rganayotgan har bir badiiy asar ayni paytda, ma'lum ma'noda, axloqshunoslik nuqtai nazaridan ham tadqiq etilayotgan bo'ladi.

Axloqshunoslik va dinshunoslik. Axloqshunoslikning dinshunoslik bilan aloqasi shundaki, har ikkala fan ham bir xil muammo - axloqiy mezon muammosini hal etishga qaratilgan. CHunki umumjahoniy dinlar vujudga kelguniga qadar mavjud bo'lgan ma'lum urf-odatlar va qadriyatlar muayyan diniy qonun-qoidalarga, muqaddas diniy kitoblarga katta ta'sir ko'rsatgan. Ayni paytda, dinlar ham axloqqa ana shunday ta'sir o'tkazganlar.

CHunonchi, islom dinini oladigan bo'lsak, Qur'oni karim, Hadisi sharif, Ijmo' va muayyan fatvolardagi mezonlar hamda talablar musulmon Sharqi millatlari axloqiy darajasining shakllanishida katta ahamiyat kasb etgan. Tasavvuf ta'limotini esa rosmiyan islomiy axloq falsafasi deyish mumkin. Shuningdek, komil inson muammosi har ikkala fan uchun umumiy hisoblanadi. Farq shundaki, axloqshunoslik bu muammoga zamonaviy tarbiya nuqtai nazaridan yondashadi.

Axloqshunoslik va huquqshunoslik. Axloqshunoslikning huquqshunoslik bilan aloqasi uzoq tarixga ega. Ma'lumki, juda ko'p hollarda axloq me'yorlari bilan huquq me'yorlari mohiyatan va mazmunan bir xil bo'ladi. SHunga ko'ra, axloqni jamoatchilik asosidagi huquq, huquqni esa qonuniylashtirilgan axloq deb atash mumkin. Zero, axloqshunoslik bilan huquqshunoslikning tadqiqot ob'ektlari ko'p jihatdan o'xshash, ular faqat yondashuv usuli nuqtai nazaridan farq qiladi, ya'ni huquq me'yorlarining bajarilishi, odatda, maxsus adliya idoralaridagi lavozimli kishilar orqali, majburiy sanksiyalar vositasida yo'lga qo'yiladi; axloq me'yorlari esa umumiy qabul qilingan milliy urf-odatlar, jamoatchilik fikri yordamida, alohida belgilangan kishilar tomonidan emas, balki muayyan ijtimoiy guruh, jamiyat tomonidan amalga oshiriladi.

SHuningdek, huquqshunoslik kasbi uchun muhim bo'lgan amaliy axloq jihatlarini axloqshunoslikning huquqshunos odobi deb ataladigan maxsus sohasi tadqiq qiladi va tavsiya etadi.

Axloqshunoslik va pedagogika. Axloqshunoslik pedagogika bilan ham chambarchas aloqada. Pedagogikadagi shaxsni shakllantirish, tarbiyalash, ta'lim berish jarayonlarini pandnasihatlarsiz, odobnoma darslarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu bois axloqshunoslik o'zining nazariy va, ayniqsa, amaliy jihatlarini bilan pedagogikaning asosi hisoblanadi. Zero, maorif tizimidagi ta'lim-tarbiya o'zini har bir qadamda axloqiy tarbiya sifatida namoyon qiladi.

Axloqshunoslik va ruhshunoslik. Qadimdayoq axloqshunoslikning ruhshunoslik (psixologiya) bilan aloqasi alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Zotan, bu ikkala fan kishilar xattiharakati, fe'l-atvori va mayl-istaklarini o'rganadi. Lekin bu o'rganish ikki xil nuqtai nazardan olib boriladi: ruhshunoslik u yoki bu xatti-harakat, fe'l-atvor, sababiy asos (motiv)larning ruhiy tabiati va shakllanish shart-sharoitlarini ochib beradi, axloqshunoslik esa ruhshunoslik tadqiq etgan hodisalarning axloqiy ahamiyatini tushuntiradi. Ruhshunoslik hissiyotlar sifatida o'rganadigan insondagi ko'pgina ma'naviy hodisalar axloqshunoslik tomonidan falsafiy-axloqiy tushunchalar tarzida tadqiq etiladi.

Axloqshunoslik va sotsiologiya. Axloqshunoslikning ijtimoiyshunoslik (sotsiologiya) bilan aloqasi o'ziga xos. Bu ikkala fan inson faoliyatini boshqarishning ijtimoiy murvatlaridan bo'lmish axloqni o'rganadi. Lekin axloqshunoslikning miqyosi bu borada keng. Ma'lumki, sotsiologiya insonlarning ommaviy xatti-harakati va ularning qonuniyatlarini faqat muayyan ijtimoiy tuzum doirasidagina tadqiq etadi. Axloqshunoslik esa, o'z mohiyatiga ko'ra, lozim bo'lganda, muayyan ijtimoiy tuzum yoki davr doirasidan chiqib, inson axloqining yuksak yutug'i sifatida kelgusi davrlar uchun ham tarixiy va axloqiy ahamiyat kasb etgan shaxsiy, istisnoli xattiharakatlarni hamda ularning sababiy asoslarini o'rganadi.

13-MAVZU: “ETIKA” FANINING PREDMETI VA JAMIYAT HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Axloqshunoslik va ekologiya. Keyingi paytlarda axloqshunoslikning ekologiya bilan aloqasi tobora mustahkamlanib bormoqda. Tarixan axloqshunoslik ko‘proq insonning o‘zi, o‘zgarlar va jamiyat oldidagi majburiyatlarini tahlil etish bilan shug‘ullangan, uning tabiatga bo‘lgan munosabati diqqat markazidan chetda qolib kelgan. Lekin keyingi davrlarda, ayniqsa, XX va XXI asrda tabiatga nisbatan tor manfaatparastlik doirasidagi yondashuvlar oqibatida paydo bo‘lgan ekologik buhron manzarani o‘zgartirdi. Endilikda global ekologik muammolar ko‘proq odamlarning ijtimoiy-axloqiy nuqtai nazarlariga bog‘liq ekani ma‘lum bo‘lib qoldi.

Shunday qilib, hozirgi kundagi ekologik muammolarni hal etishning ko‘p jihatlari axloqshunoslik ko‘magiga borib taqalmoqda. XX asrda ekologik axloqshunoslik degan maxsus soha ham yuzaga keldi. Lekin, bu-axloqshunoslik ekologiyani to‘liq o‘z ichiga oladi, degan so‘z emas. Chunki axloqshunoslikda axloqiy baholash va boshqarish ob‘ekti sifatida tabiatning o‘zi emas, balki odamning tabiatga bo‘lgan munosabati maydonga chiqadi.

Axloqshunoslik va milliy g‘oyalar falsafasi. Garchand o‘quv fani sifatida milliy g‘oya oliy va o‘rta maxsus ta‘lim tizimida yaqinda joriy etilgan bo‘lsa-da, uning ildizlari qadimiy ma‘naviyat tariximizga borib taqaladi. Zero, har bir milliy mafkura tizimida axloqiy g‘oyalar albatta o‘z o‘rniga ega bo‘ladi, ko‘pgina axloqiy g‘oyalar zamirida esa milliy mafkura unsurlari yotadi. Shu sababli, axloqshunoslik tarixini milliy g‘oya, mafkura tushunchalarisiz va tarixiy davrlarning axloqiy-falsafiy tadqiqini ularning tahliliy in‘ikosisiz tasavvur qilish mumkin emas.

Axloqshunoslik fani jamiyat a‘zolari va har bir fuqaroga milliy g‘oyani singdirish vositasi sifatida ham diqqatga sazovor. Chunki milliy g‘oya ezgulikka muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat-e‘tibor, vatanparvarlik, millatparvarlik, fidoyilik, ziyolilik tamoyillarini siyosiy anglash ishtirokida talqin etilgan tushunchalar tizimi tarzida taqdim qilsa, axloqshunoslik ularni axloqiy anglash vositasida ro‘yobga chiqadigan tamoyillar sifatida olib qaraydi. Xullas, axloqshunoslik bilan milliy g‘oya o‘rtasida, xalqona til bilan aytadigan bo‘lsak, et bilan tirnoq darajasidagi yaqinlik mavjud.

Jamiyatimizdagi hozirgi yangilanish jarayonida axloqshunoslikning o‘z o‘rni bor. Uning oldida yangi demokratik va huquqiy davlat barpo etishga kirishgan mamlakatimiz fuqarolarining, ayniqsa, yoshlarning axloqiy darajasiga mas‘ullik va har tomonlama kamol topgan zamon kishisi tarbiyasini nazariy asoslashdek ulkan vazifalar turibdi. Ularni faqat qadimiy va har doim zamonaviy bo‘lib kelgan axloqqa yangicha yondashuvlar asosidagina amalga oshirsa bo‘ladi.

Yangicha yondashuvlardan biri-axloqshunoslikda milliy g‘oya va mustaqillik mafkurasiga e‘tiborni kuchaytirish bilan bog‘liq. CHunki zamonaviy komil inson an‘anaviy axloqiy qadriyatlar bilan yo‘g‘rilgan yangicha mafkuramizni o‘zida mujassam etgan, milliy g‘oyani o‘z ruhiy olamiga singdirgan etuk shaxs bo‘lmog‘i lozim. Uning qalbida axloq mafkuraviylikni va mafkura axloqiylikni o‘zida uyg‘unlashtirgan ma‘naviy hodisalarga aylanmog‘i kerak. CHunki mafkura bir yoqlama, mahdud, o‘ta siyosiyashtirilgan g‘oyalar tizimi emas, u ham xuddi axloq kabi, axloq bilan yonma-yon turib, insonni yuksak ma‘naviy parvozlarga da‘vat etuvchi botiniy kuchdir. Islom Karimov buni teran mantiqiylik bilan shunday ifodalaydi: «U insonga faqat moddiy boyliklar va moddiy ne‘matlar uchun emas, avvalo, Alloh taolo ato etgan aql-zakovat, iymon-e‘tiqod tufayli yuksak ma‘naviyatga erishish uchun intilib yashash lozimligini anglatadigan, bu murakkab va tahlikali dunyoda uning taraqqiyot yo‘lini yoritadigan mayoqdir»⁴⁴.

Zero, milliy g‘oya bilan umumbashariy qadriyatlar muvozanatini barqaror saqlashni yashash sharti deb bilgan mustaqillik mafkurasida axloqni to‘ldiruvchi va boyituvchi hodisa sifatida o‘zining bosh maqsadini axloqiy vazifalarga hamohang tarzda amalga oshiradi. SHu bois Islom Karimov: «Xalqni buyuk kelajak va ulug‘vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat‘i nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo

⁴⁴ Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., «Ўзбекистон», 2000, 6-b.

⁴ O‘sha manba, 7-b.

mas’uliyat sezib yashashiga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an’analarimizga munosib bo‘lishiga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da’vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish - milliy istiqloq mafkurasining bosh maqsadidir», - deganida mutlaqo haqdir.⁴

Bundan tashqari axloqshunoslikning sof «ichki» vazifalari ham mavjudki, ular haqida to‘xtalib o‘tmaslik mumkin emas. Eng avvalo milliy-mintaqaviy axloqiy tafakkurning tizimli, ilmiy xolislik bilan yo‘g‘irilgan tarixini yaratish va sho‘rolar tuzumi ta’qiqlagan yoki unitilgan axloqiy qadriyatlarni tiklash muhim. Ayni paytda axloq nazariyasining dolzarb masalalarini hal etish, chunonchi, axloqiy tushunchalarni tasniflashtirish, turkumlashtirish, axloqiy madaniyatning nazariy jihatlarini ishlab chiqish, kasbiy odobning zamonaviy nazariy asoslarini yaratish kabi murakkab vazifalar ham echimini kutmoqda.

Axloqqa gap borganda, albatta uning muayyan tuzilmasi, unga asos bo‘lgan omillar, unsurlar to‘g‘risida to‘xtalmaslik mumkin emas. Axloq tuzilmasini, odatda, uch omil-asosdan iborat deb hisoblaydilar. Bular - axloqiy anglash (axloqiy ong), axloqiy his etish (axloqiy hissiyot) va axloqiy munosabatlar (axloqiy hatti-xarakterlar). Bazi mutaxassislar (chunonchi, mashhur rus axloqshunosi A I. Titarenko) axloqshunoslik mezoniy tushunchalarini (katetoriyalarini), axloqiy meyorlar va tamoyillarni axloq tuzilmasi tarzida taqdim etadilar. Bizning nuqtai nazarimizdan bu fikr unchalik to‘g‘ri emas. Chunki mazkur tushunchalar, tamoyilar va meyorlar ko‘proq axloqqa emas, balki uni o‘rganadigan fanga – axloqshunoslikka taalluqlidir. Umuman, shuni aytish kerakki, axloqshunoslik fanida ancha-muncha chalkashliklar mavjudki, ularning sababini mazkur fanning boshqa fanlarga nisbatan axloqqa xususiyatlarga egaligidan, yani unda ko‘p hollarda ilmiy-nazariy jihatlarining ilmiy-amaliy tomonlar bilan omuxtalashib ketganidan qidirmoq lozim. Shunday qilib, axloq tuzilmasi uch asosiy omilni axloqiy anglash, axloqiy aks etish va axloqiy munosabatlarni uz ichiga oladi. Ayni paytda ana shu omillarning tuzilmadagi o‘rni, to‘g‘rirog‘i, mavqei masalasida ham turli xil qarashlar mavjud. Ba’zi axloqshunoslar axloqiy anglashni, boshqa birovlar axloqiy hissiyotning o‘zini asosiy unsur deb talqin etadilar. Yana ba’zi birovlar axloqiy anglash - axloqiy ongga etakchilik mavqeyini beradilar. Xo‘sh, aslida qanday qarash haqiqatga yaqinroq?

Avvalo, shuni ta’kidlash kerakki, juda ko‘p hollarda axloq tuzilmasidagi mazkur uch omilunurning birortasisiz axloq tumunchacini tasavvur qilib bulmaydi. Boshqacha aytganda, axloqni inson ko‘zi oldida gavdalimiruvchi axloqiy munosabatlarning aks etish va axloqiy anglashsiz yuzaga chiqishi yani mavjud bo‘lishi mumkin emas. Bunday holat axloqiy his etishga ham, axloqiy anglashga ham taaluqli. Zero tuzilmadagi bu uchunsur-omil bir-birisiz kamdan-kam mavjud bo‘ladi, doimo bir-birini taqozo qiladi. Endi axloqiy anglashning tuzilmadagi etakchilik mavqeyiga, to‘g‘rig‘i, asosiy unsur sifatidagi o‘rniga kelsak, uni bu tarzda talqin etish, bizningcha, to‘g‘ri emas. Vaholanki, sho‘rolar davrida va hozirdagi rus olimlari orasida ba’zi g‘arbdagi zamonaviy axloqshunoslik yo‘nalishlarida ana shunday qarash xukumron ekanini ko‘rzmie. Aslida esa, tuzilmada poydevor unsur sifatida axloqiy hissiyot yoki axloqiy xis etishi namoyon buladi. to‘g‘ri, juda kup hollarda biror bir axloqiy qarorning amalga oshuvi uzok yoki qisqa vaqt mobaynida usha qaror oqibatlarini to‘g‘risida ongli ravishda xulosa chiqarishga, ularni avval; dan anglab etishga urinish bilan bog‘lik bo‘ladi, ya’ni biz o‘z xatti xarakterlarimizni axloqiy anglash elagidan o‘tkazib, faoliyat ko‘rsatamiz. Lekin o‘sha anglab amalga oshirilgan axloqiy qaror tubida, so‘zsiz, axloqiy hissiyot yotadi. Demak, axloqiy his etish axloqiy anglash uchun material vazifasini o‘taydi. Ba’zan esa o‘sha “material” - hissiyotning o‘zi axloqiy anglashni chetlab o‘tib, - munosabat tarzida namoyon buladi. Bunga insoning favqulotda holatlardagi hatti-harakati misol bula oladi. Deylik, yuqori tezlikda ketayotgan avtomobil oldidan yo‘l o‘rtasida, koptokni quvib, go‘dak chiqib qoldi, haydovchi tormozni bosish barobarida, shu zahoti mashinasini keskin chetga buradi. Bola omon qoladi, x, aydovchi jarohatlanadi, mashina pachoq buladi. Bu holatda haydovchining go‘dakka nisbatan, meh-f-shafqati, achinish hissi, inson bolasini oliy qadriyat

13-MAVZU: “ETIKA” FANINING PREDMETI VA JAMIYAT HAYOTIDAGI AHAMIYATI

sifatida his qilishi muhim rol o‘ynaydi. Xaydovchi o‘z xatti-harakatini “Oqilona qarorga” kelishi uchun, “etti o‘lchab, bir kesib” amalga oshirmaydi - hamma narsa bir lahzada ro‘y beradi. Bunda anglash emas, ong emas, oniy intuitsiya, uz qavmdoshi hayotini asrashdek tabiiy-biologik hissiyot-instinkt hal qiladi, yani mazkur hissiyot tom ma’nodagi anglash darajasiga ko‘tarilib ulgurmasdanoq munosabatga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, bizning axloqiy hayotimiz, barcha axloqiy tajribalarimiz, axloqiy faoliyatimiz ana shu uch omil asosida ruyobga chiqadi. Axloqiy kodekslarimiz, meyorlarimiz va tamoyillarimiz ularga asoslanadi. Lekin aldov, yolg‘on, soxtalik va totalitar axloqiy tuzum hukmronlik qilgan davrlarda yoki mamlakatlarda axloqiy hissiyot, axloqiy anglash, axloqiy munosabatlar qabul etilgan kodekslar, me‘yorlar xamda tamoyillarga ko‘pincha to‘g‘ri kelmaydi. Rasmiy axloqiy qonun-qoidalar bilan xaqiqiy axloqiy intilishlar orasida ma’naviy jarlik paydo bo‘ladi. Tilda bu qonun-qoidalar ko‘klarga ko‘tarilgani holda, dilda, ich-ichdan ularga qarshilik hukm suradi. Natijada jamiyat uchun fojea bo‘lgan axloqiy so‘z Bilan axloqiy faoliyatning aloxida-aloha mavjudligi ro‘y beradi.

Biz shu o‘ringacha, e’tibor qilsangiz, axloqni bugun insoniyat uchun umumiy hodisa sifatida talqin etib keldik. Zotan axloqning avvalo, umuminsoniy an’anaviy hodisadir. Asosiy axloqiy qadriyatlar, mushtarak axloqiy tushunchalar, axloqiy tamoyil va me‘yorlar barcha mintaqalar hamda millatlar uchunbir xil ma’no kasb etadi. Chunonchi, muhabbat, ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, vijdon, burch, insonparvarlik, odamiylik, baxt, to‘g‘rilik, rostguylik, saxiylik va baxillik singari fazilat hamda illatlar tom ma’noda umuminsoniy hodisalardir. Zero o‘zbekcha ezgulik yoki yovuzlik, inglizcha vijdon, fransuzcha insonparvarlik, arabcha yolg‘on, deyish mumkinmi? Albatta, yo‘q, Lekin, ayni paytda, axloqiylikda umuminsoniylik xususiyatidan tashqari, mintaqaviylik va milliylik xususiyatlari ham muhim axamiyat kasb etadi. Mintaqaviylik va milliylik xususiyatlari axloqning nisbatan kichikroq qamrovga ega bulgan qo‘pinishlarida - xulqiy xatti- harakatlar, odob va etiketda yaqqol ko‘zga tashlanadi. CHunonchi, musulmon mintaqasida dasturxon ustida bosh kiyimsiz o‘tirish beodoblik hisoblanadi. Buning odobdan tashqari gigienik-ozodalik nuqtai nazaridan ham axamiyati bor. Ovqatlanish paytida ro‘molsiz ayol yoki do‘ppisiz erkak boshidan soch tolasi, kepak, chang-gard taomga yoki dasturxonga tushishi mumkin. Nasroniylar mintaqasida esa aksincha dasturxon ustida bosh kiyimni echmaslik Xudo in’om etgan taom va dasturxonga xurmatsizlik sanaladi. Yoki amerikalik yigit uzi kresloda o‘tirib, oyoqlarini kuldon va ichimlik ashyolari tupgan stolchaga chalkashtirib tashlab, orom oladi va uning uchun bu tabiiy hol hisoblanadi. Uzbek uchun esa, stolga yoki xontaxtaga oyoq qo‘yib o‘tirish - o‘ta odobsizlik.

Farbu Sharq mintaqalari odobida yana bir katta farqi borki, bu hozirgi paytda g‘arbda xuquqning axloqdan, sharqda axloqning qancha utuvorlshi masalasi g‘arb yoshlari, balog‘atga etgach, ota onaga teng huquqli fuqarolar sifatida munosabat qoladi, o‘zining qarshi fikrini to‘ppa-to‘g‘ri, ota yo onasining yuziga tik qarab, bayon qiladi va buni inson xuquqlaridan, deb biladi. sharq; yoshlari masalan, yapon yoki o‘zbek ota-onaga tik gapirishini to‘g‘pidan-to‘g‘pi qarshi chiqishni an’anaviy axloqiy qoidalarning oyoq osti qilinishii deb tushunadi, padari yo volidasiga ko‘zini erga tikib, muloyim, uz fikrini tovut ko‘tarmay aytishni, ba’zan esa cukut saqlashini afzal deb biladi, ularga bo‘ysunishni burch sifatida olib qaraydi afsuski, ba’zi g‘arb mamlakatlarida keksa avlodni yoshlar hukuqiy hayotiga, erkinligiga g‘ov deb bilishi hollari mavjud. To‘g‘pi, sharqona etiqot, odobiy qonun-qoidalarning an’anaviylik bilan bog‘liq ba’zi zamonaviy nuqtai nazardan nuqisli tomonlari bor. Lekin, shunga qaramay, ularda insoniylik va mehr-oqibat tuyg‘ulari hali xam mustahkam ildiziga ega. Farbda esa hozirgi paytda bunday fazilatlarini uchratish tobora g‘ayri tabiiy holatga o‘xshab qolayotir. SHu bois hozirgi paytda g‘arbning xuqukiylik tamoyilini sharkning axloqiylik tamoyili bilan uyg‘unlashgirish zamonaviy jamiyat taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi

13-MAVZU: “ETIKA” FANINING PREDMETI VA JAMIYAT HAYOTIDAGI AHAMIYATI

GEDONIZM – (yunon. *hedone* – huzur–halovat, rohatlanish) etika nazariyasidagi axloqiy talablarni asoslash tamoyili bo‘lib, unga ko‘ra huzur-halovat keltiruvchi va azob uqubatdan qutqazuvchi narsa *yaxshilik* deb, azob–uqubat keltiruvchi narsa esa *yomonlik* deb ta’rif qilinadi. Nazariy G. etikadagi naturalizmning bir ko‘rinishidir. Insonga tabiat tomonidan jo qilingan va uning butun ish amalini belgilaydigan, bosh harakatlantiruvchi ibtido – huzur-halovatdan iborat degan tasavvur G.ning asosini tashkil etadi. Huzur–halovatga erishish maqsadi birdan–bir ishtiyoq va shu bilan birga axloqiy talab, deb e‘lon qilinadi.

G. axloq–odob tamoyili sifatida kishilarga dunyoning shod xurramliklariga, o‘zlari va boshqalar uchun yuksak rohat–farog‘at olishga intilishni buyuradi. G. qadim zamondayoq paydo bo‘lgan. Gretsiyada Aristipp etikasining muxlislari bo‘lgan va huzur–halovatni oliy saodat deb hisoblagan kishilar gedoniklar deb atalgan. G. Epikur nazariyasida eng rivojlangan nuqtasiga erishgan. G. g‘oyalari Mill va Betnam utilitarizmida markaziy o‘rinni egallagan. Hozirgi zamon nazariyalarida G. odatda faqat uslubiy tamoyil – yaxshilikni ta’riflash usuli sifatida mavjuddir.

G. ta’limoti insoniyatning ilk davrlaridan boshlaboq hozirgacha etib kelgan ta’limotlardan biri sifatida yaxshi sharoitlarda yashash, zeb–ziynatlarga burkanish, huzur – halovatga intilishni targ‘ib etib keldi. Negaki inson tabiatan huzur-halovatga intiladi. Ammo har bir narsada me‘yor bo‘lgani kabi inson huzur-halovatida ham me‘yorga rioya qilish zarur. Inson o‘z hayotida me‘yorlarga qat’iy asoslanib yashashi bilan o‘zligini yo‘qotmaydi. Beruniy ayganidek, “Inson hayotida lazzat me‘yorining buzilishi uni halokatga etaklaydi”.

EVDEMONIZM – (yunon. *eudania*–rohat–farog‘at, baxt–saodat) –axloq –odobning gedonizmga yaqin uslubiy tamoyili. E. antik dunyo axloqiy nazariyalarida to‘liq ravishda namoyon bo‘lgan. (Demokrit, Sokrat, Aristotel). Baxtga intilishni e. axloq–odobning mezoni va inson axloqiy xatti–harakatining asosi deb hisoblaydi, shaxsiy baxtga intilish – individualistik e. ijtimoiy baxtga intilish – sotsial e. dey.adi.

XVIII asr fransuz materialistlari (Gelvetiy, Didro) qarashlarida ham e.g‘oyalari mavjud edi. Ular inson baxti – har qanday jamiyatning va har qanday foydali inson faoliyatining tub maqsadidir, deb chiqqan edilar. Evdemonistik etika o‘z faolligi va insonparvarligi bilan xristianlik etikasidan beqiyos yuqori turadi, chunki u oxiratda emas, balki erda baxtga erishishga da’vat etadi.

Evdemonistlar inson ham ma’naviy, ham jismoniy sog‘lomlikka intilsa, o‘zining va o‘zgalarning barcha ezgu xususiyatlarining shakllanishiga yordam bersa hamda bu bilan zamondoshlar va kelajak avlod obro‘–e’tiboriga sazovor bo‘lsa bunday insonni baxtli va komil deb e’tirof etganlar.

Baxt ob’ektiv prinsip bo‘lishi mumkinmi, alohida individlarga ularning xohish istaklari, qiziqishlari, ehtiyojlari va insoniy jamiyatlari turli xil bo‘lishiga qaramasdan har biriga axloqiy mutanosiblik berish imkoniyatiga egami, degan savollar ularni qiziqtiradi. E. bu savollarga ijobiy javob beradi va baxtni xulq-atvorning axloqiy prinsipi darajasigacha ko‘taradi.

E.ning muhimligi faqatgina xulqni asoslash usuli hamda xulqni to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqaga qo‘yishda va baxtga bog‘liqligida emas. Xulqning o‘zi birinchi navbatda tashqi muhitdan qabul qilingan hissiyotlar bilan bog‘lanuvchi qadriyat, shuningdek lazzatni xis qilish, qalbiy komfort, fikr va harakatlarning ezgulikka doir obraziga hamrohlik qiluvchi tushuncha sifatida alohida tushuniladi.

E.ning ijtimoiy xususiyatlarini Bentam ishlab chiqqan. Alohida individning barcha ezgu faoliyati qanchalik ko‘p kishilarni baxtli qilishi darajasi bilan ahamiyat kasb etadi. Sotsial e.ning mohiyati jamiyatdagi barcha kishilar baxtiga intilish bilan izohlanadi. Davlat va uning barcha institutlari, ularning tadbirlari va qonunlari mana shu buyuk maqsad yo‘lidagi vosita, xolos. Ijtimoiy e. oxir–oqibat, utilitarizmga olib keladi.

2. Axloqning paydo bo‘lishiga oid diniy, ilmiy qarashlar tasnifi.

Ilm dunyosidagi, xar qanday ilmning tarixisiz nazariyasi bo‘lmaydi, degan xikmat, ayniqca, axloqshunoslikka taaluqli. Zero axloqshunoslik tarixi axloqiy tafakkurninr vujudga kelishi xamda uning taraqqiyoti qonunlarini o‘rganadi, ma’naviy merosning ulkan, qismi bo‘lmish axloqiy ta’limotlar, xikmatlar, pandlarni zamonaviy jamiyat xayotiga tadbiiq etish va targ‘ib qilish yo‘llarni tahlil etadi. Garchand xar bir axloqiy kopsepsiya ma’lum bir mutafakkir muloxazalari va faoliyatining mevasi bo‘lsa-da, u, moxiyatan, muayyan tarixiy davr talablaridan kelib chiqadi. Ayni paytda, to‘rli odob va etiket qonun-qoidalarini o‘z ichiga oladigan axloqiy targ‘ibot muammolari, axloqiy pand-o‘g‘itlar va me’yorlar talablarni bajarish, axlokiy boshqarish soxasiga kiradi xamda axloqshunoslikning odatda “amaliy axloq” deb ataladigan qismini tashkil etadi. Amaliy axloqning dastlabki namunalarini bundan uch yarim mign yil avval dunyodagi birinchi yozuv bo‘lmish mix xatda giltaxtalarga yozilgan maqol va matallardir. Somir (SHumer) alqovlarida (gimnlarida) deyarli barcha bosh ma’budlar ezgulik, adolat, haqiqat va yaxshilik tarafdorlari bo‘lganlari uchun xam madx ztiladi. CHunonchi, yosh ma’budi Utu axloqiy me’yorlarning bajarilishini maxsus kuzatib to‘rgan, ma’buda Nanshe esa, ba’zi matnlarda haqiqat adolat va shafqta xomiysi sifatida tasvirlanadi. Lekin, ayni paytda, ma’budlar tomonidan. o‘rnatilran. “Me” deb atalran qonunlar ro‘yxatidan olam harakatini tartibga solish, uninr to‘xtovsiz va uyg‘un bo‘lishini taminlash maqsadida yuqoridagi axloqiy fazilatlar bilan birralikda – “yolg‘on”, ”nifoq”, “gina”, “kudupat”, “qo‘rquv” tushunchalari xam o‘rin olgan. Shuningdek somiriylarning maqol va matallari, xikmat-iboralari ham diqqatga sazovor, ularning ko‘pchiliri umuminsoniy xikmatlar darajasiga ko‘tarilgan va SHarqda bir oz boshqacharoq shaklda xozir qo‘llaniladi. Bundan tashqari, to‘rli axloqiy muammolar esa “Gilgamesh” eposi dostonlarida ko‘tarilgan.

Somirliklar erishgan ilmiy badiiy, axloqiy daraja, huquqqa oid yutuqlap bobilliklar axloqiy qarashlari uchun asos bo‘ldi. Bobilonda somirliklarnikiga nisbagan badiiy yuksak va mukammal “Gilgamesh” eposi vujudga keldi. Adolat va haqiqatning himoyasini asosiy maqsad qilib olgan Bobilon podshosi Xammurapining mashxur Qonunlar majmui esa qadimgi Somir qonunlarining tadrijiy rivoji edi. Bu majmuada zaiflarni, etim-esir va kam6ag‘allarni adolat tamoyili asosida himoya qilish asosiy maqsad qi.lib quyilran; Xammurapi unda o‘zining kambag‘alparvarligi va adolatparvarligi bilan faxrlanadi.

Qadimgi Misrda esa odob-axloq masalalari o‘ziga xos pandnomalarda ifoda topgan. Ular orasida “Pxatotep o‘g‘itlari bizgacha etib kelgan eng qadimiy pandnoma xisoblanadi. Bundan deyarli ikki yarim ming yil avval beshinchi sulola fir‘avni Jadjkara Isesidan vazir Pxatotep qariligi tufayli o‘rniga o‘z o‘g‘lini tayinlashni iltimos qiladi va o‘g‘liga atab o‘ttiz etti nashatdan iborat mazkur pandnomani yozadi. Unda o‘sha davr axloqiy qonun-qoidalari, o‘zni tutish, muomala odobi singari muammolar ko‘tariladi, axloqiy fazilatlar esa xikmatlar va nasihatlar tarzida targ‘ib qilinadi. Undagilar yuksak badiiyati bilangina emas, balki kuldorlik davri talablarini chetlab o‘ta olgan umuminsoniy demokratik fikrlar tarzida, donishmandlik va insonparvarlik namunasi sifatida hanuzgacha kishini xayratga soladi: “Qimmatbahotoshdek yashirindir oqilona so‘z, xolbuki uni don tuyayotgan cho‘ridan topish mumkin”.Agar nafaqat qadimri Misrda, balki undan bir nechaming yil keyingi qadimgi YUnonistonda xam qul ezgulikka, donishmandlikka xos bo‘lmagan jonzot sanalganini va odam o‘rnida ko‘rganini xisobga oladigan bo‘lsak, Pxatotepning mazkur fikri insoniyat axloqiy tafakkur taraqqiyotida naqadar katta ahamiyatga ega ekanini anglash mumkin.

Qadimgi Turonzamin va Eronzaminidagi axloqiy tafakkur taraqqiyoti zardushtiylik dinining vujudga kelishi bilan bog‘liq Qadimgi Xorazmda yaratilgan “Avesto” deb atalgan muqaddas kitobida asosiy axloqiy fazilalar va illatlar sanab o‘tiladi, talqin etiladi. Unda Zardushtiylik iloxi Axura-Mazda-ezgulik, Ahriman esa yovuzlik timsoli sifatida namoyon bo‘ladi: ezgulik va yovuzlik, yorug‘lik va zulmat, hayot va mamot o‘rtasidagi abadiy ko‘rashinging ibtidosi aks etadi. “Abadiy ezgulik”, “Ezgu niyat”, “Ezgu tartib”, “Ilohiy tobe‘lik”, kabi ezgu tushunchalar real ma‘no kasb qilib, insoniyatlashgan qiyofadagi ma‘budlar siymosida namoyon bo‘ladi, ular Axura-Mazda atrofida yaxshilik urug‘ini sepib yuradi. Bunday tushunchalarning aksi esa Axriman atrofida yovuz kuchlarda reallashadi. Yovuz fikr tajassumi Apa Mana, so‘lish va o‘lim timsoli Tuarvi hamda Zarik ismli devlar shular jumlasidandir. Zardushtiylik dinini ma‘lum ma‘noda axloqiy e‘tiqod, uning muqaddas kitobi “Avesto” ni qadimgi ajdodlarimiz amal qilgan axloqiy tushunchalar va ko‘rsatmalar majmui deyish mumkin. Buni ushbu din ayg‘omchisi Zardushtning “Avesto”dagi Asha alqovidan joy olgan quyidagi so‘larni yaqqol ko‘rish mumkin:

Quvonsin Axura-Mazda – “Eng loyiq haqning irodasi ro‘yobga chiqib”, Axriman daf bo‘lsin. Ezgu o‘y, ezgu so‘z, ezgu ishlarni alqayman, o‘zimni butkul ezgu uy, ezgu so‘z va ezgu amallarga baxshida etaman, Barcha qabih uy, yomon so‘z va yomon ishlardan tiyaman,

Yukunchim, maqtovim, ezgu fikrim, Ezgu so‘z (savobli) ezgu ishlarim

*“tanamdagi jonim” bilan birga sidqi
dildan Sizlarga (baxshida) bo‘lsin, ey
o‘lim bilmas Valiylar. haqni sharaf lab
(deyman):*

*“haqiqat – Oliy ne‘mat. Bu ne‘matdan ul kishi
bahramandkim, savob unga bo‘lgay, kim agar
xaq yo‘lida savob (ishdan) qolmasa, savob
ishdan qolmasa, savob ishdan qolmasa”*

“Avesto”dagi talqinlar insonning real hayoti bilan bog‘liq ekanligi diqqatga sazovor. Undagi ezgulik ruhi – yaratuvchilik, ijodkorlik quvvati, Yovuzlik esa, buzish va buzg‘unchilik kuchi tarzida namoyon bo‘ladi.

Axura-Mazda qiyofasidagi ezgulik hayot ramzi, erni inson, hayvonot va nabotot bilan boyitadi, inson ularni sog‘lik, kuch-qudrat, baxt, shodlik, umid, ishonch, go‘zallik, farovonlik yordamida munavvar qiladi. Axriman qiyofasidagi yovuzlik esa, qo‘rg‘oqchilik, ocharchilik, kasallik, mollar qirg‘inini, jisman va ruhan halokat singari halokallarni keltirib chiqaradi.

“Avesto”da umri davomida ezgulik, yaxshilik, poklik va tozalik tamoyilari bilan i kqrgn odam o‘lgandan so‘ng uning ruxi rohat-farog‘atda bo‘lishi, gunohkor, fosih kishiniki esa aksincha: azob-uqubat hamda xunuklik komiga maxkum etilishi aytiladi. Buni professor Tilab Maxmudov o‘zining “ Avesto” haqida” degan katta maqolasida atroflicha yoritiladi: solih odam o‘lgach, ruhining joni uch kun uning boshida zavq-shavq, rohat-farog‘at og‘ushida turadi, keyin xushbo‘y o‘simliklar yusiga qalqib chiqadi. Uni ajib bir shabada, muattar nasim qarshilaydi. SHabada qo‘ynida 15 yoshar barcha go‘zallaikdan ham go‘zal qiz namoyon bo‘ladi. Bu go‘zal qiz egulik va poklik, savob ishlarnin timsoli. U ruhga qarata: “Muloyim edim, yanada muloyimroq qilding, chiroyli edim yanada go‘zal qilding, balandda edim, ezgu o‘y, ezgu so‘z va ezgu a‘mol bilan meni yanada balandga ko‘tarding” – deydi. Gunoxkor, yovuz odamning ruhi esa, vujud ustida uch kun qolib, tengsiz azoblarni boshidan kechiradi. Uch kundan so‘ng u o‘zi yaratgan barcha yovuzliklar ustida tarvoz qiladi. So‘ng tirikligida hech qachon uchratmagan barcha xunukliklardan ham xunukroq qizni uchratdi, “Ey qora yurak, zahar tilli, munofiq gunoxkor – deydi qiz, - men qiz emasman sening tiriklik paytingda qilgan a‘mollaringman. Sen tirikligingda Xudoga e‘tiqod

qilganlarni ko‘ra – bila turib, devlarga sig‘ingansan. YAqin – uzoqdan kelgan musofirlarga boshpana berganingda, mexnat kildirganingda xayr-sadaqa ulashganingda, ularni kamsitgansan, yaxshi odamlarni haqorat qilgansan, ularning yuziga eshigingni yopib qo‘ygansan. Men – sen o‘ylagan yomon o‘y, sen aytgan yomon so‘z, sen qilgan yomon a‘mollaringman. Nomussiz edim, sen tufayli battar orimni yo‘qotdim, jirkanch edim, yanada jirkanchli bo‘ldim, sharman edim, battaroq sharmisor bo‘ldim”. Bu erda rux va vujud muammosi ifoda topganini ilg‘ab olish qiyin emas. Zero “Avesto”da jon-rux tushunchasi o‘ta ilohilashtirilmaydi, ma‘lum ma‘noda “dunyoviy”lashtiriladi va o‘z erasi bilan muloqot qiluvchi vijdon sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuni aloxida ta‘kidlash joizki, “Avesto”da inson oliy jonzot tarzida talqin etiladi. Ayni paytda eru ko‘kdagi barcha ne‘matlarni sevish, ardoqlash insonning muqaddas bo‘rchi hisoblanadi. Ozodalik, tozalik gigienik tyshynchadan axloqni va ilohiy tushuncha darajasiga ko‘tariladi: suvni, atrof-myxitni toza tutish, jonivorlarga, xususan, itga uchi o‘tkir suyak yoki qaynoq ovqat bermaslik - ularga nisbatan shafqatni anglatadi; inson shafqatli bo‘lishi keraq Bularning xammasi “Avesto”da ekologik axloqshunoslikning dastlabki ko‘rtaklari xam mavjudligini ko‘rsatadi. Bu muqaddas kitobdagi to‘rli tuman ma‘budlar, bizning tushunchamizdagi pir darajasidadir (masalan, temirchilikning piri - hazrati Dovud v.h). Iloh esa- bitta: Axura-Mazda, faqat ungagina sajda qilinadi. Demak, yakkaxudolikni, tavxidni targ‘ib etishda xam birinchilik “Avesto”ga mansub. “Avesto”dagi ba‘zi bir o‘rf-odatlar va irimlarning xozirgi kunda ham saqlanib qolganini ko‘rishimiz mumkin. Isiriq tutatish, qo‘rbonliq uchun so‘yilgan jon kallasini davradagi o‘tag‘asilar oldiga qo‘yish odatlari xamda sevimli Navro‘z bayramimiz fikrlarimizga dalildir. Xullas, “Avesto” yuqorida aytganimizdek, ajdodlarimizning axloqiy estetik qomusi, qadimiy o‘rf-odatlarimizning o‘ziga xos majmui sifatida qimmatlidir.

Qadimgi Sharq axloqshunosligida Qadimgi Hindiston axlokiy tafakko‘ri aloxida o‘ringa zga. U tarixan vedachilik, yo‘ga, jaynichilik, buddhachilik, “Bxagavadgita” va “Artxashastra” xamda lokoyata oqimlaridan tahsil topgan.

Vedachilik axloqshunosligi qadimgi hind jamiyarini to‘rt tabaqa - varnaga buladi; braxmanlar(koxinlar), kshatariylar(xarbiylar), vayshchilar(dexqonlar, kosiblar), shudralar (qullar). Mashhur “Manu qonunlari”da yozilishicha, brahmanning mashg‘uloti- ta‘lim berish, Vedani o‘rganish, qurbonlik qilish, sadaqa ulashish va tuxfalar olish, kshatariylar fuqarolarni ko‘riqlaydilar vayshchilar chorva, tijorat, sudxo‘rlik va dexqonchilik bilan shug‘yllanadilar; shchudralar esa ana shu uch ijtimoiy guruxga xizmat qiladi. “Xotin, o‘g‘il va qul - uchulasi xususiy mulk egasi hisoblanmaydi, ular kimniki bulsa, o‘shaning qo‘lga kiritgan mulkidir” – deyiladi “Manu qonunlari”da. Vedachilik axloq ko‘ra, braxmanlar tug‘ma axloqiy yuksak odamlar, shchudralar esa tug‘ma-tuban axloq egalari hisoblanadi.

Lekin keyingi oqimlapda, yo‘ga, jaynichilik, ayniqsa, buddachilik axloqshunosligida, axloqiy fazilatlar egasi bulish insonning zoti ijtimoiy kelib chiqishi bilan emas, balki uning shaxsni kamoloti bilan bog‘liq degan fikr ilgari suriladi. Buddha ta‘limotiga ko‘ra, dunyo iztirobga to‘la va eng muhim muammo ana shu iztiroblardan qutilishning yo‘lini topish. Naql qilinishicha, uz tengdoshlari bilan ayshu ishratda umr kechirgan shahzoda Sidharta Gautama kunlardan birida sayr qilib yurib, kasal cholni va janoza marosimini ko‘radi. Xar bir kishini kasallik, qarillik va o‘lim kutishini eshitib, larzaga tushadi, odamlardan qochib, tarki dunyo qiladi va to‘rt ezgu haqiqatni anglab etadi hamda uni odamlarga etkazadi.

Uning qisqacha bayoni shunday:

1. Bu dunyodagi hayot iztiroblarga to‘la.
2. Bu iztiroblarning sabablari bor.
- Z. Bu iztiroblarga barham berish mumkin. .
4. Iztiroblarga barham bershga oli6 boradigan yo‘llar mavjud.

13-MAVZU: “ETIKA” FANINING PREDMETI VA JAMIYAT HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Buddhaning to‘rtinchi haqiqati, ayniqsa, axloqshunoslik nuqtai nazaridan muhim. U Buddha o‘tgan va xammaning o‘tishi mumkin bulgan nirvanaga (ehtiros, nafrat, pushaymon asta-sekinlik bilan so‘nib bo‘lgandan keyingi holatga) etishish yo‘lidir. U sakkiz fazilatga erishuvda iborat: 1) to‘g‘ri qarashlar; 2) to‘g‘ri jo‘r‘at; 3) to‘g‘ri xatti-harakat; 4) to‘g‘ri nutq; 5) to‘g‘ri hayot tarzi; 6) to‘g‘ri jahd-jadal; 7) fikrni to‘g‘ri yo‘naltirish; 8) diqqatni to‘g‘ri qaratmoq.. SHunday qilib, sakkiz yo‘l bir-birini taqozo etuvchi uch omil - bilish, xattiharakat va diqqatning birligidan iborat. Bilim va axloq bu o‘rinda yaxlitlikka ega; fazilat bilimdan (illat esa bilimsizlikdan) kelib chiqadi, shu sababdan bilimni fazilatsiz takomilashtirish mumkin emas. Bu axloqiy komillikka etishishning tygallangan konsepsiyasi “Sochlarining fatilasi, sulolasi yoki zoti tufayli brahman bulmaydi. Kimdagi xaqiqat va dhamma bo‘lsa, o‘sha baxtli va o‘sha brahman”, - deyadi buddhachilik axloqiy qoidalari jamlangan kitobda. SHunday qilib, buddhachilik tomonidan vedalar obrusi, braxmanlarning istisnoli holati inkor etiladi, jamiyatni varnalarga bo‘lish qoralandi. Shubxasiz, bu axloqiy taraqqiyot ko‘rinishlaridan biri edi.

Buddhachilik axloqshunosligi nafaqat Hindistonda, balki qadimgi Xitoyda xam o‘ziga xos mavqce egalladi. Lekin u erda yana ikki axloqshunoslik yo‘nalishi katta amiyatga va qamrovga ega edi. Ulardan biri daochilik.

Daochilik ta‘limotining asoschisi Lao-szi (miloddan avvalgi VI - V asrlar) yipik namoyondasi Chjuan-szi (miloddan avvalgi 369-286 yillar) xisoblanadi. Lao-sziga nisbat beriladigan “Dao de szin” kitobida daochilikdagi asosiy yunalishlarning moxiyat aks etgan. “Dao - xamma narsadan ustun”, “ildiz”, “Er va osmonning onasi”, “dunyoning ilk asosi”, “si” esa moddiy asos, dao “de” ni - fazilatni undan yaratadi. SHuningdek, “dao” yo‘l ma‘nosini ham anglatadi. “dao de szin”ni “Fazilat yo‘li” deb ham atash mumkin.

Inson mavjud olam kabi dao qonunlari asosidz vujudga kelgan, u tabiatni bir qismi, uning vazifasi fazilat (de) yo‘lidan borish. har qanday suniy aralashuv, tabiatning muvofiqlik tartibini o‘zgartirishga intilish-odamlar uchun halokatli, barcha yovuzliklarning, son-sanoqsiz baxtsizliklarning manbai tabiat joriy etgan qonunlardan chekinishdadir. SHu sababli Lao-szi nazdida faoliyat daoga qarshi qaratilgan va xalqqa zarar keltiradi, uning asosiy axloqiy tamoyili “uvey” - faoliyatsizlik, donishmand kishining “dao”si, bu kurashsiz faoliyat. Lekin bu kurashsiz faoliyat aslida tabiatga qarshi bulmagan faol xatti-harakat, faqat daoga xos, tabiat qonunlariga mos faoliyat.

Ayni paytda, Lao-szining fikricha, donishmand bilimni oshira borib, uni odamlarga tarqatmaydi, faqat xalqning farovonligi uchun ishlatadi; “Xalqning bilimi kuchli bo‘lsa, uni boshqarib bo‘lmaydi. Uning emagini Totli, kiyimini chiroyli, uy-joyini tinch, hayotini quvonchli qilish kerak”. Ana o‘shanda, ya‘ni ilm fan taraqqiy etmasa, sivilizatsiya kirib kelmasa, bir davlat qo‘shni davlatga ko‘z olaytirmaydi, urush bo‘lmaydi. Xullas, donishmand ibtidoiy davrlarni ideallashtiradi.

Xulosa qilib aytadigan bulsak, daochilik axloqshunosligidagi asosiy maqcad- odamlarning tabiat ko‘rsatgan yo‘ldan borishiga erishish; tamoyili-faoliyatsizliq xalqning baxti - uning urug‘chilik, qabilachilik munosabatlaridagi tenglik va soddalikka qaytishda donishmandlarning baxti esa mo‘tadilliq xotirjamlik, tabiatga yaqinlikdadir.

Daochilikning asosiy raqibi hicoblanmish konfutsiychilik esa qora xalqsan nodonligi uchun jirkanadi, uni axloqiy xayotra nomunosib deb biladi. Zero, konfysiychi.liknir axloqiy ideali szyun-szi himmatli jo‘mard. Uning yuksak fazilatleri - fidoyilik, sofdillik, sadoqat, adolat. U

13-MAVZU: “ETIKA” FANINING PREDMETI VA JAMIYAT HAYOTIDAGI AHAMIYATI

muomala bobida muloyim, yuksak martabalilarga ho‘rmat bilan mo‘rojaat qiladi, xalqqa nisbatan esa himmatli, adolatli munosabatda buladi:

Konfutsiy ta’limotida asosiy axloqiy qonun, asosiy. axloqiy tushuncha-jen (insoniylik). “Lun yuy” (“Hikmatlar”) kitobida shunday deyiladi; “Kimki chin dildan insonni sevisga intilsa, u yovuzlik qilmaydi”. “Uzingga ep ko‘rmagan napsani o‘zgaga munosib ko‘rma, shunda davlatda xam, oilada xam o‘zinga nisbatan yovlik his qilmaysan”. Demak, jen - xam jamiyat, xam oila a’zolari orasidagi munosabatlarni belgilaydigan axloqiy tamoyil. U bilan “syao” - ota-onani, kattalarni xo‘rmat qilish, “li” - o‘rf-odat, marosimlarni e’zozlash tushunchalari mustaxkam bog‘liq. Ayni paytda “li” tushunchasining ma’nosi ancha keng, u davlatga bo‘lgan munosabatni ham o‘z ichiga oladi. Xoqon (imperator) - Osmon o‘g‘li, u Osmon ostidagilarning barchasiga ota. Osmon ostidagi tartib-qoida esa kuyidagicha: “Podsho-podsho, ota-ota, mulozim-mulozim, o‘g‘il-o‘g‘il bo‘lishi kerak”

Qadimgi Sharq axloqshunosligi erishgan yutuqlar shunchaki tarix bulib qolmadi. Ularni uzlashtirish natijasida, Sharq bilan yaqin aloqa qilish uchun jug‘rofiy qulayliklarga ega bo‘lan Qadimgi Yunonistonning polislarida (shaxardavlatlarida) axloqshunoslik yangi bosqichga ko‘tarildi. Keyinchalik qadimgi Sharqda ilgari so‘rilgan g‘oyalar, qo‘llangan tushunchalar, nazariy-amaliy tajriba bilvosita bugun Ovro‘po uchun ham ahamiyat kasb etdi. Chunonchi, Mashho‘r afsonaviy donishmand Pifagor misrlik va eronlik allomalardan talim oldi. U zardyshtiylik dini xaqida fikr yuritar ekan, Axo‘ra-Mazdani “Ularning xudosi Oramazdaning qalbi xaqiqatdan, vujudi no‘rdan iborat”, deb tariflaydi. Shuningdek, Suqrot, Aflotun, Arastu singari Qadimgi Yunon allomalari xam qadimgi Sharqdagi falsafiy-axloqiy ta’limotlardan keng foydalanganlar. Masalan, ruxning ko‘chib o‘tishi borasidagi Aflotun nazariyasining falsafiy va axloqiy asoslari Qadimgi Hindiston falsafasiga borib taqaladi.

Qadimgi Yunon axloqshunosligi xaqida gap ketar ekan, asosan, to‘rt buyuk faylasufning nomini tilga olish odat bulib qolgan; Suqrot, Aflotun, Arastu, Epikur. Lekin, aslida, ulargacha xam Qadimgi Yunonistonda axloqshunoslik borasida ancha-muncha ishlar qilingan. Chunonchi, Demokrit, Pifagor, Gippiy, Gorgiy singari sofistlar (donishmandlar) oqimiga mansub faylasuflarning qarashlari diqqatga sazovor. Misol tariqasida Demokritning (taxminan miloddan avvalgi 450-370 yillar) qarashlarini olib ko‘raylik, u donishmandlikni eng yuksak fazilat, aqlni esa axloqiy xatti-xarakatning mezoni deb biladi va donishmandni axloqli, nodonni axloqsiz odam sifatida tariflaydi. Demokritning fikriga ko‘ra, inson uchun xayotdagi birinchi ustoz ehtiyoj va tajribadir. Aynanshular insonni foydali va zararli narsalarni farqlash darajasiga olib keladi. Demokrit Kadimgi Yunon faylasuflari ichida, birinchi bo‘lib insonning ichki dunyosiga murojaat qildi. U niyatni (xatti-harakat sababini) harakatdan ajratadi. Ayni paytda, “Nomusli va nomussiz odamni nafaqat qilmishi balki niyati orqali xam bilib olsa bo‘ladi”, deydi mutafakkir. Demokrit hayo va ishonchni insonni qing‘ir ishlardan qaytarib to‘ruvchi kuch tarzida ta’riflaydi. Faqat ruxan zaif va gumrroh odamlargina o‘z muvaffaqiyatsizliklarini ma’budlar, taqdir va tasodifdan ko‘radilar. Nodon va yomon odam lazzat, baxt hamda xayotning maqsadi haqida noto‘g‘pi tasavvo‘rga ega bo‘lgani uchun o‘zini baxtsizlikka muhtalo qiladi.

Suqrot (miloddan avvalgi 470-399 yillar) qarashlariga kelsak, u, Konfutsiyga o‘xshab, axloq bilan hyqqyni bo‘linmas yaxlitlikda olib qaraydi: “Nimaiki qonuniy bo‘lsa, o‘sha adolatdandir”. Ikkala mutafakkir xam xukmronlikning yaxshi yoki yomon deb baholanishini fuqarolar tarbiyasi bilan bog‘laydi, jacopat va betama’ xizmat namunalarini uz davlatlari o‘tmishidan topadi.

Suqrotning fikricha, polis bilan fuqaro o‘z huquqlari jihatidan teng emas, ular ota bilan o‘g‘ilga o‘xshaydi. Axloqning asosiy mohiyati - o‘zgarimas va abadiy ayol fazilat bo‘lmish donishmandlik.

13-MAVZU: “ETIKA” FANINING PREDMETI VA JAMIYAT HAYOTIDAGI AHAMIYATI

U axloqiy xatti-harakat mezoni hisoblangan ilohiy yozmishga mos keladigan benuqson faoliyatdir. Axloqning manbai esa insondan tashqarida, ilohiydir. Suqrot ruxni (jon, qalb, nafsni), vujudan farqli ravishda, o‘lmas deb xisoblaydi, lekin o‘z qarashlarini rivojlantirmaydi. Uning fikricha, bu boradagi ortiqcha qizikuvchanlik zararli. Chunki ma’budlar o‘zlari odamlarga ochishni istamagan narsalarni tadqiq etilishini yoqmaydi.

Suqrotdan farqli o‘laroq, Aflotun (miloddan avvalgi 427- 347) axloqshunosligi uchun aksincha, g‘oyalar va rux xaqda ta’limotlar asos bo‘lib xizmat qiladi. Aflotunning g‘oyalar ta’limotiga ko‘ra, bizga ko‘rinib turgan, biz qilayotgan dunyo bor-yo‘g‘i soylar o‘yini, haqiqiy dunyoni ko‘rish uchun esa inson aqli o‘zgarish qiladi. Inson g‘or devoriga kishanband qilib ko‘yilgan tutkunga o‘xshaydi, u faqat haqiqiy borliqning noaniq soylarini kuzatadi, xaqiqiy borliq esa soylar orqasida, ko‘rinmaydi. Uni inson ko‘rmaydi, biroq o‘sha asl borliqni ko‘ra oladigan mangu-o‘lmas rux mavjud. U g‘oyalar dunyosiga daxldor, lekin uning faqat aqliy qismigina ana shu dunyoga qaratilgan, ehtiros va xirsliligi qismi esa doimo ranoq erga tomon tortadi. Aflotun ruhning bu ikki xillik jihatini aravakash (aql) bilan ko‘pirgan otlar (ehtiros va hirs) orasidagi kurash sifatida talqin etadi. Otlar baland kelgand ruh (qalb, jon) g‘oyalar dunyosidan vujudga yiqiladi va inson tyg‘iladi. Insonning tyg‘ilishi, shunday qilib, ruhning gynoxga botishi barobarida voqe bo‘ladi. Barcha bilimlar xotira natijasidir; ruh g‘oyalar dunyosidan bilganlarining bazilarini eslaydi va vujudagi xayotida biror-bir diqqatga sazovor yangilikni o‘ziga kasb etmaydi. Shunday qilib, Aflotunning fikricha, axloq, ilohiy asosga ega va axloqiy fazilat insonga azaldan berilgan.

Aflotun donishmandlikni oliy fazilat, ruxdagi aqliy qismning namoyon bo‘lishi deb biladi va davlatni boshqarishra loyiq yagona toifa sifatida donishmand-faylasuflarni tan oladi. YOvqurlik - qo‘riqchilarga davlatni ximoya qiluvchi askarlarga xos. Ruhning - xirsliligi bilan bog‘liq bo‘lgan mo‘tadillik xunarmand-kosiblar, dexqonlarga, yani, xalqqa xos. Ular avvalgi tabaqaga bo‘ysunishi shart. Ulardan so‘ng qullar turadi. Kullar axloqdan tashqarida, har qanday fazilatdan yiroq, zotan ularning ruhga egaligi gumon. Bundan tashqari, Aflotunning fikriga ko‘ra, adolat shaxsiy fazilat emas, davlatga xos fazilat. SHu sababdan u: “Biz tabiatiga ko‘ra uchga bo‘lingan tabaqalarning xar biri faqat o‘z yumushi bilan shyg‘ullangan davlatnigina tan olamiz”, deydi. SHuningdek, tijorat fuqarolarni yo‘ldan ozdiradigan soxa bo‘lgani uchun, u bilan adolatli davlatda xorijliklar shyg‘ullanishi kerak.

Aflotun axloqshunosligining muhim xususiyati shundaki, unda axloqning asosi, axloqiy namuna sifatida iloxiylik olinadi. Faylasufning fikricha, kimda-kim Xudoning marhamatiga erishmoqchi ekan, unta iqtido qilmog‘i, undan namuna olmog‘i kerak, Xudo barcha narsalar uchun mezon; faqat Xudoga ishonuvchi va taqlid qiluvchi kishirina donishmand bulishi mumkin. Xullas, Aflotunning axloqshunosligi qat’iy diniy tabiatga ega. Ayni paytda u kun jihatdan vedachilik axloqshunosligidagi g‘oyalarni o‘z ichiga oladi va ularni rivojlantiradi.

Aflotundan so‘ng ikki qadimgi yunon allomasi – Arastu (miloddan avvalgi 384-322 yillar) va Epikurning (milodan avvalgi 341-270yillar) axloq nazariyalari diqqatga sazovor. Aflotunning shogirdi Arastu birinchi bo‘lib axloqshunoslikni ruhshunoslik bilan siyosatshunoslik oralig‘idagi alohida falsafiy fan sifatida taqdim etdi va unga (keyinchalik Ovro‘poda qabul qilingan) “Etika” degan nomni berdi. Arastuning axloqiy qarashlari, asosan o‘g‘liga bag‘ishlangan “Nikomaxning axloq kitobi” va “Evdemning axloq kitobi” hamda “Katta axloq kitobi” risolalarida o‘z aksini topgan

Arastu qadimgi Yunon mutafakkirlari ichida birinchi bulib ixtiyor erkinligini axloqning asosi sifatida olib qaraydi va axloqiy fazilatni Aflotunga qarama-qarshi o‘laroq, ruhning tug‘ma

13-MAVZU: “ETIKA” FANINING PREDMETI VA JAMIYAT HAYOTIDAGI AHAMIYATI

xususiyati emas, balki kasb etiladigan (xosil qilinadigan) sifat ekanini aytadi. U barcha fazilatlarini ikkiga bo‘ladi: birinchisi, ruhning donishmandlik, tajribakorlik, topqirlik, singari ma’naviy soxa bilan bog‘liq aqliy qismiga oid fazilatlar va, ikkinchisi, ruhning intilyvchan(ixtiyoriy) qismi - sof axloq bilan bog‘liq, fazilatlar. Uning fikricha, asosiy fazilat adolatdir. “Fazilat, - deydi Arastu - ma’lum ma’noda o‘rtalikdir, zero, doimo o‘rtalikka intiladi”. Masalan, mardlik telbavor jasorat bilan qo‘rqoqlik orasidari o‘rtalik va xokazo. SHuningdek, mutafakkir niyatga katta ahamiyat beradi va uni xarakterning tamoyili, boshlanishi deb ataydi. Lekin u pirovard maqsad emas, niyatning tamoyili esa intilish va aql, shu sababli niyat aqldan, es-hushdan va odobdan tashqarida bo‘lmaydi.

Arastu Aflotundan farqli o‘laroq, vujud va puh yaxlitligi nuqtai nazarini ilgari suradi, inson kamolotga, oliy ezgulik va erkinlikka bilish faoliyati, voqelikka faol munosabati orqali, xirsu ehgiroslar ustidan hukmronlik qila olishi tufayli erishadi, degan fikrni aytadi. Demak, insonda ixtiyor erkinligi bor, zero u ezgulik yoki yovuzlikni, fazilat yoki illatni tanlashda bir xil hukmronlik mavqeiga ega.

Maqsad bilan vositani Arastu yaxlitda ko‘radi, maqsad vositani belgilaydi, shu sababli maqsadning axloqiy tabiati faqat axloqiy vositalarnigina tan oladi va, ayniqsa, axloqsiz maqsad axloqsiz vositalarni talab qiladi.

Arastu aql - idrok faoliyatini xayot va faoliyatning oliy shakli, hech bir narca bilan qiyoslab bo‘lmaydigan qadriyat, deb xisoblaydi. Oliy aql doirasida sub’ekt va ob’ekt, fikr va fikrning narsa xodisasi bir-biriga mos, ya’ni Oliy aql (Xudo) tafakkur xaqidagi tafakkurdir. Garchand inson xech qachon ilohiy xayot darajasiga etisha olmasa-da, lekin unga ideal sifatida imkon boricha intilishi kerak, inson erishgan komillik doimo nisbiy bo‘ladi.

Shunday qilib Arastuning fikricha, axloqli inson aqliy fazilatlar bilan yo‘g‘rilgan kishidir; aqlni inson emas, insonni aql belgilaydi. Ayol zoti esa past darajali, zaif, ko‘z yoshiga erk beradigan, o‘zini tutolmaydigan inson, ularda extiros aql-idrokdan yuksak turadi, illatlarga erkaklarga nisbatan ko‘proq moyil bo‘ladilar, shuning uchun xam donishmandlik ularga xos emas, xotin erga bo‘ysunishi adolat tamoyilini buzmaydi. San’at, siyosat va ilm fan ozod kishilar uchun, qul, umuman, axloqdan tashqaridagi mavjudot, qushlarni past tabaqali kishilar, xatto jonli narsalar qatoriga kiritish Arastuning inson moxiyatini ijtimoiy-siyosiy mavjudot sifatida tushunishidan kelib chiqadi. Uning uchun jamiyatdan, qabila, jamoa, davlatdan tashqaridagi odam yo Xudo, yoki xayvon. Shu bois yot qabiladan kelgan, polis fuqaroligi huquqiga ega bo‘lmagan qullar odam xisoblanmaydi. Qul faqat ozodlikka erishgandagina insonga aylanadi.

Arastu yuqorida keltirganimizdek, ilmni (aqlni) axloqdan (viydondan) yuksak qo‘yadi va bu bilan mushoxadakor hayotni, nazariyara, ijodga bag‘ishlangan xayotni axloqiy ideal tarzida talqin etadi. Shunga ko‘ra, buyuk mutafakkir antik, dunyo fuqarosining an’naviy fazilatlarini bo‘lmish donishmandlik, mardlik, odillik, do‘stlikni yuksak qadrlaydi. Biroq, uning insonga muhabbati, insonparvarligi bizning hozirgi barcha bandalar Xudoning oldida baravar, degan tushunchamizdan farq qiladi. Yuqorida ko‘rganimizdek, uning nazdida odamlar teng emas, tenglik tushunchasi Arastuga yot. U faqat odamlar o‘rtasidagi do‘stlik va xayrixoxlikni tan oladi.

Epikur esa o‘z qarashlarida falsafaning amaliy maqsadini, axloqiy mazmunini ta’kidlaydi: “Insonning biror bir iztirobiga davo topolmaydigan faylasufning so‘zlari ma’nosizdir. Badandan kasallikni quva olmaydigan tabobatdan xech qanday foyda bo‘lmagani kabi, puh (qalbni) davolay olmaydigan falsafadan xam foyda yo‘q.”

Epikurning fikriga ko‘ra insonda tanlov ixtiyori bor. U xam Demokrit kabi ezgulik xaqidagi ta‘limotni lazzat va iztirob muammosidan boshlaydi. Uning uchun eng muhim ruhiy xotirjamlik. Do‘stlaridan birini u shunday deb yozadi; - “3arrin to‘shagu to‘kin dasto‘rxoning bo‘lib, bexalovat yashagandan ko‘ra, poxol to‘shakda xotirjam yotganing afzal!” Fazilatlar orasida Epikyp adolat bilan donishmandlikka aloxida e‘tibor bilan qaraydi. Adolat tushunchasida mutlaqlik va nisbiylik xollari mavjudligini ta‘kidlab o‘tadi: “Umuman, adolat xamma uchun bir xil, chunki u odamlararo munosabatlardagi foydali xodisa, lekin muayyan mamlakatlarning o‘ziga xosligi nyqtai nazaridan va shunga o‘xshash boshqa sharoitlarda adolat barcha uchun bir xilda bulolmay qoladi” Fazilatlarining mohiyati insonni lazzatga olib borishidan, xotirjamlikka hamda ruxning faoliyatli holatiga xizmat qilishdan iboratdir. Baxt esa axloqiy va jismoniy sog‘lomlikdan yuzaga keladi.

O‘lim qarshisidagi qo‘rquv borasida gapirib, Epikur, uning manbaini ruhning o‘lmasligi va iztiroblarning abadiyligi haqidagi noto‘ri tasavvurlarda deb xisoblaydi. Zero ruh ham vujud singari atomlardan iborat. Tabiatdagi hamma narsa atomlar birikuvidan hosil bo‘lgan ularning parchalanishi bilan ruh ham parchalanadi. O‘lim xavfining asossiz ekanini isbotlash uchun u shunday deydi; “Yovuzlikning eng dahshatlisi bulmish o‘limning bizga hech qanday aloqasi yo‘q chunki biz hali mavjud ekanmiz, o‘lim kelmaydi, o‘lim kelganda esa biz mavjud bo‘lmaymiz. Shunday qilib, o‘limning tiriklarga ham, o‘liklarga ham aloqasi yo‘q chunki birlari uchun u mavjud emas, boshqalarning esa o‘zlari mavjud emas”.

Epikur iztirobdan qochishni emas uni engish kerakligini ta‘kidlaydi. Buning uchun axloqiy qat‘iyat, fikr yorqinligi, fikr qudrati iztirobga qarshi ko‘yilishi kerak, uning axloq ideali - erdagi hayotga nafrat bilan qaramaydigan, aksincha tabiat bilan hamnafas bo‘lib, ya‘ni tabiat belgilab bergan hayotiy maqsadga muvofiq yashaydiran donishmand, faylasuf. Aynan tabiatga muvofiklikda, turli bid‘at va aldamchi fikrlardan qytilib, o‘z ehgiyojlarini tabiiy zarurat bilan moslashtirilgan holdagina donishmand tafakkur va ichki erkinlik borasida oliy darajadagi lazzatga erishadi. Donishmand o‘z kuchi me‘yorini biladi va undan oqilona foydalanadi. Unga baxt manbai - faqat ma‘naviy ezgulikda, do‘stlik bilan bilimda bo‘lgan nisbatan mustahkam va uzoq muddatli lazzatda ekani ayon.

Epikur odamlarning munosabatlarida hammasidan avval tenglik va hamfikrlilikka asoslangan do‘stlikni qadrlaydi. Falsafa bilan shyg‘yllanish ham xuddi do‘stlik singari ruhan xotirjamlikka etishishga olib keladi.

Qadimgi Sharq axloqshunosligi, erishgan yutyqlarni yuksak nazariy darajara ko‘targan Qadigi Yunon axloqshunosligi jahonshymyl ahamiyat kasb etdi. Yunonlik mutafakkirlar ilk bor inson shaxsni, inson xatgi-harakatiga asoslangan niyatni tadqiq etishga va axloqiy qilmish muammolarini tushuntirishga urindilar.

Qadimgi Yunon axloqshunoslari ilmiy an‘analarini Sitseron, Lukretsiy Kar, Seneka, Epiktet, Mark Avreliy, Sekst Empirik singari Qadimgi Rumo mytafakkirlari davom ettirdilar.

Tit Lukretsiy Kar (miloddan avvalgi 99-44 yillar), Epikur aaxloqiy ta‘limotining izchil himoyachisi sifatida, mashhur “Narsalarning tabiati haqida” degan dostonida ruh va vujudning ajralmas aloqasini ta‘kidlaydi, ruhning o‘lishi to‘g‘risida fikr yurigadi, insonning o‘lim qo‘rquvidan xalos bo‘lishida axloqiy ma‘no borligini aytib o‘tadi. Ulim qo‘rquvidan va ma‘budlar oldidagi qo‘rkuvdan xalos bo‘lgan kishi baxtli yashashi mumkin, aql –idrok va histuyg‘ular sharofati bilan narsalar haqida u haqiqiy tasavvurga erishadi.

Lutsiy Anney Seneka (miloddan avvalgi 5-milodiy 65 yillar) ham yozuvchi, xam axloqsh:unos faylasuf. Uning “Fazab haqida”, “Shafqat haqida”, “Baxtli hayot haqida” singari axloqsh:unoslikka doir risolalari ko‘pchilikka ma‘lum. Ayniqsa, “Lutsiliyga axloqiy maktyblar” asari mashxur. Senekaning fikriga ko‘ra, dunyo moddiy biroq, unda qandaydir jonli ibtido xukmron: uni aql-idrok deymizmi, tabiat, bashorat yoki taqdir deymizmi ahamiyati yo‘q. Muhimi shuki, uning yozig‘i albatta amalga oshadi. Faylasuf fazilatlarining ma‘nosini taqdiran rozilikda, uning zarbalariga insoniy qadr-qimmatni yo‘qotmay, mardona va chidam bilan dosh berishda ko‘radi. U o‘limni sovuq, tund, lekin ozodlikning kafolati sifatida talqin etadi. Ozodlikni o‘z-o‘zini o‘ldirishda ko‘rish, shubhasiz, u yashagan davrning g‘oyatda fojialiligi bilan bog‘liq. Seneka qul bilan ozod kishining ma‘naviy tengligini ta‘kidlaydi: “Ular qullarmi? Yo‘q odamlar. Ular qullarmi? Yo‘q, ular yyingdagi qo‘shnilar. Ular kullarmi? Yo‘q, sening itoatkor do‘stlaring. Ular qullarmi? Yo‘q, ular sening qullikdagi birodarlaring, negaki, sen ham, ular xam taqdirning qullarisiz”. Albatga, bu o‘rinda Seneka ijgimoiy tenglikni emas, balki qul bilan quldorning axloqiy tengligini nazarda tutmoqda. Faylasufning aytishicha, ruh ozodligi - shaxs uchun o‘z-o‘zini qadrlash na g‘urup-iftixor manbai. Kimki botiniy ozodlikka erishgan ekan, u taqdir ko‘rgiliklariga bo‘ysunmaydi, qismat zarbalarini mardona kutib olishga tayyor turadi. Yana bir Qadimgi Rumo axloqshunosi ozod qilingan qul Epiktetdir (50-138 yillar atrofida). Uning axloqiy qoidalari quyidagicha taqdir muqarrar; aql -idrok axloqning yagona va ishonchli mezoni; tashqi dunyo ma‘budlar irodasiga katiyan bog‘liq ichki dunyo insonning hukmi ostida; xaqiqiy donishmandning erki shundaki, u o‘ziga bog‘liq bo‘lgan narsalarni o‘zga bog‘liq bo‘lmagan narsalar bilan chalkashtirib yubormaydi; xayotning maqsadi va ma‘nosi shaxsiy ichki erkinlikni anglash va uni qo‘lga kiritish; unga eltadigan yo‘l bitga - ma‘budlar irodasiga so‘zsiz itoatkorlik, ehtiyojda mo‘tadillik, beparvolik, sovuqqon aql bilan ish ko‘rish.

Epiktetning fikriga ko‘ra, baxt, xaqiqiy saodat-fazilatda, fazilat esa bytynlay insonning ijodidir, zero uni inson shakllantiradi. Faylasuf o‘zing yoqtirmaydigan sharoitni o‘zgalarga ravo ko‘rma, agar qul bo‘lishni istamasang, atrofingda qullika yul berma, degan fikrni ilgari suradi.

SHunday qilib, Qadimgi Rumo axloqshunoslari xam inson hatti-xarakatlari muammosini o‘rtaga tashlaydi va insonning olamdagi o‘rni xamda xayotning maqsadini belgilashga intiladilar. Bunday-intilish, ayni paytda, bytyn Qadimgi dunyo mymtoz axloqshunoslariga xosdir. Xullas, Qadimgi dunyoning mymtoz axloqshunoslari oddiy axloq-odob qoidalari, pand-o‘gitlar va hikmatlardan tortib, to axloqshunoslik nazariyasi tizimigacha yaratdilar. SHy meros xanuzgacha o‘z ta‘sir kuchini yo‘qotgani yo‘q, hanuzgacha jahon axloqshunosligi ko‘p xollarda o‘sha tushunchalar va tamoyillarga yangicha yondoshuv asosida taraqqiy etib kelmoqda.

Shu o‘rinda yana bir, xozirgacha etarli e‘tibor qilmay kelinayotgan masalaga oydinlik kiritishni maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Bu - Qadimgi YUnon tafakkuri bilan o‘rta acplap musulmon SHarqi falsafasining - xususan axloqshunosligining bog‘liqligi masalasi. Nima uchun bizning alloma ajdodlarimiz Qadimgi SHarq, jumladan, Xindi-Xitoy mintakasi mutafakkirlari izidan emas, Ovro‘palik yunonlar izidan bordilar, Suqrot va Aflotunni o‘rgandilar, ko‘klarga ko‘tardilar, Arastuni esa eng ulkan ustoz – birinchi muallim deb atadilar?

Gap shundaki, musulmonchilikning asosi tavxidda - yakkaxudolikda. Ollah yagona, uning sherigi yo‘q va bo‘lishi mumkin emas. Qadimgi Yunon mutafakkirlari aynan ana shu tavxid yo‘lidan bordilar. Birinchi bo‘lib bu masalani Suqrot aniq o‘rtaga tashladi. U o‘limga maxkum etilganida, unga yunonlar xudolarini xurmat qilmaganligi, yoshlarni boshka yo‘lga (aslida tavxid yo‘liga) burib yuborayotgani ayb qilib qo‘yiladi. Suqrotning o‘limi oldidagi so‘nggi gapi xam shuni tasdiqlab turadi, sikuta ichgach: “Men Uning (ularning emas! -A SH.) yoniga ketyapman!”, deydi

u. SHuningdek, Aflotunning g‘oyalar, olamiy puh emanatsiya xaqidagi fiqplari xam to‘g‘ridan-to‘g‘ri yakka xudolik masalasiga borib takaladi, lekin Suqrot va Aflotun tavhidni falsafiy-nazariy nyqtai nazardan isbatlashni uz oldiga vazifa qilib qo‘ymadilar, bunga urinmadilar. Bu ishni Arastu uddaladi. U uzining mashhur “Metafizika” asarida Xudoning yakkaligini jismsiz, xech narsa tomonidan xarakatga kelmaydigan, aksincha, birinchi xarakatga keltiruvchi kuch ekanini nazariy isbotlab berdi. Uni “Oliy shakl” (forma) deb ataydi. Arastu talqinida Xudo olam va barcha olamiy jarayonlarning maqsadi xisoblanadi, u yuqorida keltirganimizdek, Oliy tafakkur, tafakkur haqidagi Tafakkurdir.

O‘rta asrlar, musulmon Sharqi mytafakkirlarining qadimgi YUnon tafakkuriga, xususan, axloqshunosligiga ulkan e‘tiborining taqlidining asl sababi ana shunda.

3. XXI asrda global etosfera (axloqiy muhit)ni yaratishning zaruriyati.

Axloqshunoslik hamma davrlarda ham yuksak ahamiyat kasb etib kelgan fan.

Shu o‘rinda Respublikamiz Birinchi Prezidenti Islom Karimovning quyidari qimmat fikrlarini keltirish joiz: “Aslini. olganda, axloq - ma‘naviyatning o‘zagi”, “Inson axloqi shunchaki salomaliq xushmuomalalikdagina iborat emas. Axloq - bu, avvalo, insof va adolat tuyg‘usi, iymon, halollik degani”. Bu fikrlar, bir tomondan, eski tuzumdan qolgan axloqsizlik ko‘rinishlariga loqayd qarovchilarga va axloqshunoslikni engil-elpi, ikkichi darajali fan sifatida tushunuvchilarga adolat zarba bulsa, ikkinchi tomondan, axloqning yangi jamiyatimizdagi ulkan mavqeini xamda axloqshunoslikning jiddiy nazariy tadqiqotlarga suyanishi kerakligini ta‘kidlaydi.

Ana shu yangilanish jarayonida aloqshunoslikning - o‘rni bor. Uning oldidagi demokratik va xukuqiy davlat barpo etishga kirishgan mamlakatimiz fuqarolarining, ayniqsa, yoshlarning axloqiy darajasiga mas‘ullik va har tomonlama kamol tonran zamon kishisi tarbiyasini nazariy asoslashdek ulkan vazifalar turibdi. Ularni faqat qadimiy va hap doim zamonaviy bulib kelgan axloqqa yangicha yondoshuvlar asosidagina amalga oshirsa buladi. Ayni paytda, ularni axloqshunoslik fani oldida turran vazifalarning bir qismi, ta‘bir joiz bulsa, milliy axloqshunoslik vazifalari deb atash mumkin. Zero fanimizning xozirgi kunda umumjahoniy global muammolarni hal qilishdek vazifasi xam borki, u haqda alohida to‘xtalmaslikning iloji yo‘q. Ulardan biri, **eng muhimi sayyoramizda “etosfera” axloqiy davrini yaratish bilan bog‘liq**

Ma‘lumki, yuzlab asrlar mobaynida inson kichik biologik olam sifatida katta biologik olam ichida, uning bir narchasi, jonli organizmlar podshosi, oqil va xukmron qismi sifatida yashab keldi. XX asrning oxiridan boshlab, ayniqsa XX asrda u o‘z tafakkur quvvati bilan, ilmiytexnikaviy inqiloblar tufayli ana shu biosfra ichida noosferani-texnikaviy muhitni yaratdi. Mana, hozirgi kunda, karang ertalabdan kechgacha biz o‘z texnikaviy kashfiyotlarimiz ichida yashaymiz-eymiz, ichamiz, yuramiz, uxlaymiz, ularsiz xatimizni tasavvur qila olmaymiz. Bular metro, avtobusm, televizor, radio, telefon, eskalator, pleyr, kompyuter, poezd, tayyora, teploxod, gaz plitalari, elektr asboblari, zavrodlar, lokatorlar, kimyoviy dori darmonlar va h.k. Bugun video telefonda gaplashar ekanmiz, yuzlab chaqirim naridagi suhbatdoshimizni ko‘rish va u bilan gaplashish uchun ot-ulovda yoki piyoda boradigan bo‘lsak necha kunlab yo‘l bosishimiz kerakligi haqida o‘ylab o‘tirmaymiz, to‘g‘rirog‘i bu esmizga ham kelmaydi. CHunki texnika bizning yashash muhitimizga aylanib qolgan.

Faqat bugina emas. Inson endilikda o‘zi yashayotgan butun boshli sayyora ta‘sir ko‘rsata boshlaydi. Yer tarixida inson birinchi marta ulkan biologik kuch bo‘lib maydonga chiqdi. Insoniy tafakkur harakat biosferadagi o‘zgarishlarning asosiy sababiga aylandi. Bu haqda neosfera ta‘limoti asoschilaridan biri buyuk rus olimi V.I.Vernadskiy shunday degan edi: “Bugun geologik davr mobaynida yaratilgan, o‘z muvozanatlarida barqarorlashgan biosfera inson ilmiy tafakkuri bosimi ostida tobora kuchliroq va teranroq o‘zgarishga kirishdi... Aftidan inson ilmiy tafakkuri harakatining bu tomoni tabiiy hodisa bulsa kerak.. Hozir biz biosferadagi yangi geologik evolyusion uzgaripsharni boshdan kechiryapmiz. Biz noosfraga kirib boryapmiz”. Ammo noosfera

faqat ijobiy emas, balki salbiy hodisa sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Atom, vodorod, neytron bombalarining kashf etilishi, yadro kallakli ballistik raketalarining yaratilishi ana shunday salbiy hodisalardandir. Bundan tashqari, noosferaning vujudga kelishi atmosferani, olamiy okeanni, er osti va er usti suvlarini, nabototni, hayvonotni, xatto insonni ich-ichidan kimyoviy zaharlanishga olib keldi. Hozirgi kunda tirik organizmlarning, o‘simliklarning, hayvonlarning ko‘pgina turlar jisman yo‘q bo‘lib ketish arafasida turibdi. Ayniqsa joy topolmay okeanda, kemalarda suzib yurgan radioaktiv chiqindilarki ularning kimsasiz go‘zal orollarga ko‘mib tashlanishi, kislota yomg‘irlarini ko‘payib borishi singari hodisalar bag‘oyat xatarli. Afsuski, inson bila turib o‘zi o‘tirgan shoxga bolta urishni to‘xtatmayotir. Bu muammolarning hal etilishi faqat atrof-muhitni kimyoviy zahardan ekologik tozalanishigina emas, balki, eng avvalo, global ma’noda, XX asr kishisi ongini texnokratiya zaharidan forig‘lantirishni taqozo etadi. Ya’ni, ular insoniyat oldida endilikda ekologik hodisa emas, balki tom ma’nodagi axloqiy muammolar sifatida ko‘ndalang bo‘lib turibdi. Mashhur avstriyalik etolog olim, Nobel mukofoti laureati Konrad Lorens: “Yoppasiga va tez yoyilib borayotgan jonli tabiatga begonalashish hodisasining asosiy sababi sivilizatsiyamiz kishisidagi estetik va axloqiy to‘poslikdir”, degan suzlari shu nuqtai nazardan ayni haqiqat.

Yuqorida aytilganlardan chiqadigan xulosa bitta: kelajakda inson o‘zini va o‘z sayyorasini muqarrar halokatdan kutqapaman desa - XX asrdan boshlab etosfera davriga o‘tishi kerak; axloqiylik har birimiz uchun har qadamda bugungi texnikaviy muhit kabi zaruratga aylangandagina bunga erishish mumkin. Bunda axloqshunoslik fanining o‘rni g‘oyatda beqiyos.

4. Etikaning kategoriyalari, tamoyillari, me‘yorlarining shaxs va jamiyat munosabatlarida namoyon bo‘lishi

Avval biz axloqiy hissiyotlarni axloqiy anglash uchun muayyan ma’noda material ekani to‘g‘risida birrov to‘xtalib o‘tgan edik. Bu xamda mumtoz faylasuflar xam e’tiborga sazovar fikr bildirganlar. Chunonchi, buyuk ingliz mutafakkiri Jon Lokk, tushunchada nimaiki bor ekan, u bundan avval hissiyotda mavjud bulgan, deb. ta’kidlaydi. “Tabiat qonuni borasidagi tajribalar” asarida u shunday deb yozadi “Agar hissiyotdan aqlga narsalar qiyofasi etkazib berilmasa, u xolda tafakkur uchun xech qanday material berilmagan buladi va aql bilishni tarakkiy ettirishi borasida tosh, yog‘och, kum va xokazo qurilish materiallarisiz me’mor bino kurishda qanchalik ish qila olsa, shunchagina ish bajara biladi”. Aqlni ideallashtirish, hissiyotni ikkinchi darajali omil sifatida talqin - etish, afsuski, Lokkga unga o‘xshash ba’zi mutafakkirlar, fikrlarini hisobga olmaslik keyingi davrlarda, ayniqsa, kuchaydi. Xegel singari faylasuflar esa bugun borliqni mantiqiy lashtirish yo‘lidan bordilar. Lekin XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Farb allomalari bu yo‘lning ko‘p jixatdan yanglash ekanini angladilar. XX asr mutafakkirlari, puhiy tahlil falsafasidagi yangi froydchilik oqimining atoqli namoyandalaridan biri Karl Yung shunday deb yozadi “g‘arb kishisi” ruhiy (“psixologik”), so‘zini eshitganida, uning uchun “u shunchaki ruxiy” tarzida jaranglaydi. Uning uchun “psixe” - qalb qandaydir, achinarli darajada kichik, e’tiborga noloyiq, shaxsiy, sub’ektiv v.h.. SHu sababli “ruh” (qalb) o‘rniga “aql” so‘zini ishlatish ma’qul ko‘radi...” Boshqa bir o‘rinda “... barcha metafizik muloxazalar uchun ijodiy zamin aynan qalbning (ma’naviylikning) ko‘zga ko‘rinmas, etishib bo‘lmas tarzidagi inikosi hisoblangan ongdur...”, degan fikrni bildiradi. Darxaqiqat, “yurak va aql”, “hissiyot va ong” bahsida Farb, ayniqsa, bizning XX asrda, so‘zsiz, birinchilikni aqlga, ongga beradi. Yuqoridagi kabi fikrlar istisnoli xollardir. Shu bois axloqshunoslik nuqtai nazaridan muxabbat xaqida gap ketsa, uni xissiyot, deb yana buning ustiga, ta’riflash qiyin bulgan tuyg‘u, deb ataydilar va uni tushuncha tarzida olib qarashdan cho‘chiydilar. Vaholanki, muxabbat aynan axloqiy hissiyot va axloqshunoslikning bosh mezoniy tushunchasidir.

2. Muxabbat bosh mezoniy tushuncha sifatida deyarli barcha asosiy tushunchalarda va tamoyillarda o‘z “xissa”siga ega. Na ezgulikni, na yaxshilikni, na vataparvarlikni, na insonparvarlikni muxabbatsiz tasavvur etib bulmaydi. Qo‘shimcha qilib shuni aytish mumkinki, u-insonni tashqi va transsendentrat olam bilan bog‘lovchi, uni yolg‘izlikni olib chiqadgan buyuk kuch muxabbatning ob‘ekti doimo go‘zallik, manfaatsiz go‘zallik. U - Olloxmi, Vatanni, yormi - muxabbat egasiga undan-da go‘zalroq narsa yo‘q. Ayni paytda bir ob‘ektни cevgan kishi boshqa ob‘ektlarni xam sevmasligi mumkin emas. Deylik, yorga bulgan xaqiqiy muxabbat Vatanga, insoniyatga muxabbatni inkor etmaydi, aksincha, barqaror qiladi. Zero “o‘z-o‘zicha”, yakka, “xudbin” muxabbatning bulishi mumkin emas. Inson o‘zi-o‘zgaga aylanganida, o‘zgani o‘ziga aylantira olganida xaqiqiy muxabbat egasi hisoblanadi. Mana shu ob‘ekt bilan sub‘ekt orasidagi farqning yo‘qolishi eng buyuk, eng mukammal lazzatdir. Buni Mavlono Fuzuliy nihoyatda go‘zal qilib, bir baytda shunday ifodalaydi

Ishqdir ul, nasha‘i komilkim, andandir mudom

Mayda tashviri harorat, nayda ta‘siri sado.

Komil nasha, komil lazzatga faqat komil insongina erisha oladi. Demak, muxabbat inson axloqiy xayotining cho‘qqisi, komillik belgisidir. Shu bois xaqiqiy muxabbat egalari yoshlar tomonidan doimo axloqiy ideal tarzida qabul qilinadi: Farxod va Shirin, Romeo va Juletta, Otabek va h. Shuni ta‘kidlash lozimki, muxabbat - oliy tuyg‘u, shu ma‘noda u oliy tushuncha. Lekin uni tuban, quyi narsa xodisalarga nisbatan xam qo‘llash hollari uchrab turadi. Chunonchi, Fromm singari g‘arblik mutafakkirlar, ba‘zi rus faylasuflari muxabbat tushunchasini o‘likka (nekrofil), mol-dunyoga, pulga nisbatan qo‘llaydilar. Ularga nisbatan “o‘chlik”, “ruju”, “hirs” singari tushunchalarni qo‘llash ma‘kul emasmikan?

Muxabbat ham axloqshunoslikdagi ko‘pgina tushunchalardek, “juftlik” xususiyatiga ega, uning ziddi - nafrat. Nafrat tushunchasi, albatta, muhabbat singari keng qamrovli emas. U aksil muhabbat tarzida namoyon bo‘lgan ob‘ektdan chetlashish, undan begonalashishni taqozo etadi. Xazar, jirkanch hissi nafratning kundalik turmushidagi tor, “mayda” ko‘rinishidir. Nafratning ularga nisbatan “yirikligi” uning ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bulishidir. Ayni paytda, bu tushuncha g‘azabdan, keskin. farq qiladi. U, g‘azabga o‘xshab, o‘z ob‘ektini yo‘qotishga intilmaydi, undan faqat yuz buradi. Ko‘rinishdan, nafrat kishida yoqimsiz taassurot uyg‘otsa-da, aslida u asosan illat emas, axloqiy fazilat sifatida insonning vijdonliligidan, botiniy jasoratidan dalolatdir.

Nafratdan tashqari yana rashk hissi borki, u –ijtimoiy hodisa emas, faqat jinsiy muhabbat bilan yonma-yon keladi. Ma‘lumki, muxabbat egasi o‘z sevgisini va sevgilisini qizg‘anib, asrab qolishga harakat qiladi. Yana shu qizg‘anish hissi me‘yoridan oshib-ketganda rashkka aylanadi. Rashk esa, uni qanchalik ta‘rif tavsif qilmaylik - me‘yorning bo‘zilishi, illat.

Mezoniy tushunchalar orasidagi yana bir juftlik - ezgulik va yovuzlik, ezgulik axloqshunoslikdagi eng asosiy kategoriyalardan. U inson faoliyatining asl mohiyatini anglatadi.

Tangri irodasining inson qalbidagi tajassumi sifatida namoyon buladi. Ezgu uy, ezgu so‘z, ezgu a‘mol” uchligi “Avesto”dan toptib, barcha muqaddas kitoblarda etakchi o‘rinni egallashi ham shundan. Ezgulik - inson shaxsining komilikka, baxtga, jamiyatni esa yuksak tarqqiyotga yetkazuvchi vositadir. U insonning axloqiy faoliyati tufayli muayyanlashadi, yuzaga chiqadi. Uni sinfiylik yoxud partiyaviylik qobig‘iga o‘rash mumkin emas. Chunonchi, “sinfiy dushmani”, ya‘ni biror bir shaxsni yoki guruxni faqat boshqa sinfga mansub bo‘lgani uchun jisman yo‘qotish,

13-MAVZU: “ETIKA” FANINING PREDMETI VA JAMIYAT HAYOTIDAGI AHAMIYATI

qanchalik buyab-bejalmasin, ezgulik bulolmaydi. U tom ma’nodagi yovuzlikdir. SHu bois totalitar tuzumlarda ezgulikni bunday talqin etilishini noilmiyligini soxtaligi hozirgi kunda hammaga ayon.

Ezgulik va uning ziddi yovo‘zlik odatiy, kundalik hayot mezonlari bilan ulchanmaydi, ular ham muhabbat singari, qamrovli va ijtimoiylik xususiyatiga ega. Ezgulikning axloqiy- ideal bilan bog‘liqligi ham shundan. Shu tufayli u amaliyotda qahramonlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, jasurlik singari tamoyillarni o‘z ichga oladi.

Shuni ham aytish kerakki, muxabbat va nafrat juftlik tushunchasida nafrat muhabbatni inkor etmay, aksincha, uning barqarorligidan dalolat bersa, ezgulik va yovo‘zlik juftligida har ikkisi tushuncha bir-birini tamomila inkor etadi. Na faqat inkor etadi, balki ular orasida hayot-mamot kurashi ketadi va bu kurash abadiy kurash sifatida olamni hapakatga keltiruvchi kuch tarzida nomoyon buladi.

Ezgulik va yovo‘zlikning yana bir o‘ziga xos tomoni shundaki, bu juftlik tushuncha inson faolyaitini baholash xususiyatiga ega. Uni odam bolasining ulug‘ligi va tubanligini ulchaydigan muqaddac torozuga o‘xshatish mumkin. Insonning komilligi, jamiyatning takomilga erishganerishmagani shu mezon bilan ulchanadi. Ezgulik va yovo‘zlik haqida gap borganida, yaxshilik va yomonlik nima, bu ikki juftlik mazmunan bir emasmi, degan savol tutilzdi. Bu tabiiy. Chunki hozirgacha bizga ma’lum o‘zbek tilidagi barcha axloqshunoslikka doir adabiyotlarda ezgulik va yovuzlik mezoni tushunchalar sirasi kiritilmagan, u bor- yug‘i yaxshilik va yomonlikning sinonimi tarzida taqdim etib kelishgan. To‘g‘ri, yaxshilik tushunchasining ko‘pgina unsurlari ezgulikdan, ezgulikning ba’zi unsurlari yaxshilikdan joy olishini inkor qilish mumkin emas. Ularning ziddida ham shunday “singishib ketish” mavjud. Lekin bunday dalillar aslo mazkurikki juftlikni aynanlashtirishga asos bula olmaydi. Ular orasida qat’iy farq mavjud ezgulik, yuqorida aytganimizdek, ijtimoiylik xususiyatiga zga, yaxshilik esa unday emas. U asosan shaxsning odobiga, hulqiga bog‘liq bo‘lgan ijobiy hodisa. Zero unda, mardlik, ochiqko‘ngillik, halollik singari axloqiy meyorlar tajassum topadi. Biroq u qahramonlik, jasorat, vatanparvarlik kabi tamoyillar darajasiga ko‘tarila olmaydi. Misol tariqasida buyuk shoirimiz Alisher Navoiyning faoliyatini olaylik. U surunkasiga ijodiy mexnatga umrini bag‘ishladi, xalqi uchun, xalqlar uchun “Xazoyin ul-maoniy”dek, “Xamsa”dek buyuk asarlar yaratdi. Bu ezgulik - abadiy, zero Navoiy asarlari millionlab odamlarga yuzlab yillar mobaynida zavq-shavq ulashib, ularni komilikka chorlab kelmoqda. Ayni paytda, u ko‘plab yaxshiliklar qildi - muxtoj odamlarga qarz berdi, bergan qarzidan kechib yubordi v.h. Uning bu yaxshiliklari, ajoyib ijobiy xodisa bulgani xolda, o‘tkinchilik xususiyatiga ega, shuningdek, qaxramonlik xam, buyuk jasorat xam, vatanparvarlik xam emas. Demak, yaxshilikni yirik ijtimoiy xodisa - ezgulik bilan aynanlashtirish to‘g‘ri emas. Bu ikki juftlikning yana bir farqli tomoni shundaki, ezgulik xech qachon yovuzlikka aylanmaydi, xar qanday zamonda, xar qanday sharoitda xam yovo‘zlik bulib qolaveradi. Yaxshilik va yomonlikda esa bunday emas biror ob’ektga qilingan yaxshilik boshqa xar bir ob’ekt uchun yoki yaxshilik qilgan sub’ekt uchun yomonlikka aylanishi mumkin. Mashxur o‘zbek xalq ertaklaridan biridagi, ovchilar quvib kelayotgan bo‘rini qopga yashirib, qutqarib qolgan dexqonning xolatini bunga misol sifatida keltirish mumkin. Bo‘ri o‘ziga yaxshilik qilib, o‘limdan qutqargan odamni emochi buladi, xayriyatki, tulki dexqonning joniga oro kiradi.

Xullas, muayyan ijtimoiy cheklanganligiga qaramay, yaxshilik va yomonlik xam ancha qamrovli mezoniy tushunchalardan.

Axloqshunoslikning yana bir qamrovli mezoniy tushunchasi adolat. Uning ezgulik va yovo‘zlik xamda yaxshilik va yomonlikdan asosiy farqi shundaki, adolatning o‘zi biror bir qadriyatni

13-MAVZU: “ETIKA” FANINING PREDMETI VA JAMIYAT HAYOTIDAGI AHAMIYATI

anglatmaydi, lekin qadriyatlar orasidagi nisbatni belgilaydi, ularni baxolash maqomiga ega. SHu bois unda jamiyatni tartibga soluvchilik xususiyati bor unda xam axloqiy, xam huquqiy talablar mujassamlashgan. Uni ma'lum ma'noda miqdor ulchovchi xam deyish mumkin u talab bilan taqdirlashni ulchab turadigan tarozudir. Adolat bor joyda ijtimoiy jabrga, beboshlikka yo'l yo'riq. adolatning mezoniylik xususiyati, ayniqsa, xuquqda darhol ko'zga tashlanadi. Lekin adolatni faqat huquqiy tushuncha sifatida talqin etish to'g'ri emas. U, yuqorida aytganimizdek, keng qamrovli axloqiy tushuncha. U nafaqat fuqarolar orasidagi munosabatlarni, balki davlat bilan xalq, jamiyat bilan shaxs o'rtasidagi aloqalar mezonini xam o'z ichiga oladi. Xalq orasida ming yillar mobaynida odil podsho idealining yashab kelgani bejiz emas.

Deyarli bir yarim asr moybaynida adolatsizlikni milliy kamsitishni, milliy iftixor xissining oyoq osti qilinishini, begona irodaning zo'rlab qabul qildirish kabi xolatlarni boshdan kechirgan xalqimiz, endilikda, mustaqillikka erishib, adolatli fuqorolik jamiyati to'zishga kirishdi. Adolat bugungi kunda bizning mustaqil, kelajagi buyuk davlatimizning moxiyatini anglatuvchi tushunchaga aylanib bormoqda.

Axloqshunoslik nihoyatda ta'sir doirasi keng tushunchalaridan biri vijdondir. Vijdon - Zigmund Freyd ta'biri bilan aytganda, alo men,- men ustidan nazorat o'rnatib, uni boshqarib turuvchi ikkinchi, yuqori darajadagi men. Agar uyat xissi insonning tashqi, jamiyagga bog'liqligidan kelib chiqsa, vijdon uning ichki o'z-o'ziga bog'liqligini namoyon etadi. Bu ichki bog'liqlik tashqi bog'liqlikka nisbatan teran va doimiydir uyat ma'lum bir vaqt ichida odamning o'z nojo'ya xarakati tufayli yuzaga kelgan o'ng'aysizligi bo'lsa, vijdon azobi, bu oddiy o'ng'aysizlik emas, balki qalbdagi, odamdagi odamiylikka e'tiqodning faryodi, talabi, uni qondirmas ekansiz, xech qachon azob to'xtamaydi. Uyat bilan vijdonni, shu bois, dengizdagi mo'z tog'iga - aysbergga o'xshatish mumkin, yuzaga uyat tarzidagi chiqib turgan qismi teranlikdagi qismidan yuz, balki ming barobar kichik.

Vijdon xam boshqa ba'zi axloqshunoslik mezoniy tushunchalari kabi baxolash xususiyatiga ega. Lekin bu baxolash xech qachon ob'ektga qaratilmaydi, u sub'ektning xatti-xarakatlarini baxolaydi, ya'ni unda sub'ekt o'zi uchun ichki ob'ekt vazifasini o'taydi. Ba'zan jamiyat talablari bilan vijdon o'rtasida ixtilloflar chiqishi mumkin. Bunda vijdon emas, jamiyat talablarining o'tkinchilik xususiyati, ma'lum ma'noda eskirganligi aybdordir. Zero vijdon ko'zga ko'rinmas, lekin ulkan va mutlaq aybsiz axloqiy xodisadir.

Ko'pincha vijdon tushunchasi o'rnida iymon iborasini uchratish mumkin. Iymon aslida diniy tushuncha. Lekin xayotda vijdon tushunchasining sinonimi tarzida ishlatiladi. Masalan, kimnidir birov "iymonli odam" deganida, uning musulmonlikka iymon keltirgan-keltirmagani xaqida o'ylab o'tirmaydi, buning ustiga, u odam musulmon emas, nasroniy bulishi xam mumkin. Chunki gap bu erda o'sha odamning dindorligi xaqida emas, balki vijdonli, xalol, rostgo'y ekanligi to'g'risida ketyapti. SHu ma'noda vijdon bilan iymonni egizak deyish mumkin.

Afsuski, odatda, ko'pchilik adabiyotlar vijdon mezoniy tushunchasiga "sub'ektgiv" hodisa tarzida karab adolat, burch, nomus singari tushunchalarni unga karaganda ijtimoiy ahamiyatliroq deb baholash, ularni, "turga chiqarish" hollari tez-tez uchrab turadi. Vaholanki, vijdonsiz odamdan hech qachon adolatni ham, burchga sadokatni ham, or-nomusni ham kutish mumkin emas. Vijdonli odamlargina haqiqiy erkin, demokratik fuqarolik jamiyatini yarata oladilar. Zero vijdon, eng avvalo, o'zgalarga nisbatan burch va mas'uliyatni taqozo etadi.

13-MAVZU: “ETIKA” FANINING PREDMETI VA JAMIYAT HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Yana bir muhim mezoniy tushuncha - burch. Burch, mohiyatan, jamiyat, davlat va shaxslarga nisbatan muayyan individdagi munosabat, ular oldidagi majburiyat. U yuqorida aytganimizdek, vijdon, e'tiqod mas'uliyat kabi tushunchalar bilan mustahkam bog'liq. Umuman, hayotda insonning har bip xatti-harakati zamirida burch tushunchasi - burchga sadokat- yoki xiyonat yotadi. Burchning insonlik burchi, musulmonlik burchi, nasroniylik burchi, farzandlik burchi singari keng kamrovli, barcha davrlar uchun umumiy bulgan tushunchalari ham, jurnalistlik burchi, shifokorlik burchi, olimlik burchi kabi kasbiy odob doirasidagi tushunchalari ham mavjud. Burch tushunchasining o'ziga xos jihatlaridan yana biri-uning vaqt va jamiyatda muayyanlashish xususiyati.

Harbiylashgan va o'ta mafkuraviylashgan, yani yagona mafkura hukmronlik qilgan jamiyatlarda esa burch omma hamda shaxs hayotida fojeiy hodisaga aylanadi. O'ta ustalik bilan yo'lga qo'yilgan targ'ibot natijasida bunday jamiyatlar a'zolari oqni-qora, qorani - oq deb qabul qiladilar. Buni umumbashariy milliy qadriyatlarni oyoq osti qilgan beshafqat sho'rolar sotsializmi yoki fashistlarning milliy sotsializmi yaqqol isbotlab berdi. YUz minglab, hatto millionlab odamlar aldandilar, keyinchalik, uzoq yillar mobaynida vijdon azobida yashadilar. Demak, jamiyat qurishda totalitarchilikka yo'l ko'yilishi o'sha jamiyat a'zolarini burchni noto'g'ri tushunishga va buning oqibatida axloqsizlikka olib keladi.

Shuni ham aytish kerakki, ba'zi hollarda burch shaxsning ko'pgina mayl-istaklariga qarshi boradi uni huzur halovatdan turmush lazzatlaridan mahrum etadi. Masalan, Furqat mustamlakachilar mafkurasiga xizmat qilganida, uning hayoti rohat-farog'atda kechishi mumkin edi. Lekin u Vatan oldidagi, millat oldidagi burchni deb muhojirlikning og'ir qismatiga duchor buldi uni muctamlakachilar mamlakat xududidan chiqarib yuborib, qayta kiritmadilar. Furqat xorijda vafot etdi. Ba'zan burch tufayli odamlar o'z sevgisidan, jon-dilidan cevgan kishisidan kechishga ham majbur buladilar

Mezoniy tushunchalardan yana biri - nomus. Nomus tushunchasi bir tomondan, burch bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi jihatdan, qadr-qimmat tushunchasiga aloqudor. Zero nomus mohiyatan shaxsning o'z qadr-qimmatini anglab etishi, shu qadr-qimmatning jamiyat tomonidan tan olinishi yoki olinmasliga munosabati bilan belgilanadi. Goho uni or tushunchasi bilan chalkashtirish, hollari ham uchrab turadi. Lekin aslida, nomusga nisbatan or ancha tor qamrovdagi, nisbatan zalvorsiz tushuncha. CHunonchi, oriyatli odam deganda, o'z so'zining ustidan chiqadigan, sadaqa tarzida qilingan muruvvatlardan baland turadigan shaxs tushuniladi. Beor odam esa - o'z sha'niga aytilgan gaplarga parvo qilmay, ishini bajarib ketaveradigan, aytilgan-aytilmagan joylarga suqilib kiraveradigan surbetnamo kishi. Nomusning esa toshi og'ir - ijtimoiylik xususiyatiga ega, keng qamrovli. Nomus yo'lida inson hatto o'z hayotidan kechishi mumkin, odamlar o'z nomusi, oila nomusi, millat nomusi deb kurashadilar. Bu haqda ko'plab badiiy asarlar yaratilgan. Mehnat, sport singari sohalarda jamoa nomusi ham, alohida ahamiyatga ega shu o'rinda nomus obro' tushunchasi bilan bog'lanib ketadi. Bularning hammasi o'zini xurmat qilish, o'ziga nisbatan atrofdagilarning xurmat-izzatini yo'qotmaslik uchun o'z-o'zini nazorat qilish hissidan kelib chiqadi.

Biz yuqorida ko'rib o'tganlarimiz - asosiy mezoniy tushunchalarning barchasi baholash tabiatiga ega. Yana qator muhim axloqiy tushunchalar borki, ular o'z echimini talab qilishi bilan, ya'ni muammolik xususiyati bilan ajralib turadi. Ideal, baxt, xayotning ma'nosi, singari tushunchalar shular jumlasidandir. Biz ular orasidagi eng qamrovlisi bo'lishi axloqiy ideal tushunchasiga nisbatan batafsilroq to'xtalib o'tamiz.

13-MAVZU: “ETIKA” FANINING PREDMETI VA JAMIYAT HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Bir qapaganda, idealda ham baholash xususiyati mavjuddek tuyuladi. Lekin aslida U qiyoslashga asoslanadi. Antiqa tomoni shundaki, idealda nomavjud, xayoldagi insonga, voqelika real, mavjud, hayotdagi xodisalar qiyoslanadi, ya'ni bor narsa. yo'q narsa bilan o'lchanadi. Zero ideal xayotda mavjud bo'lishi mumkin emas - bu xammaga ayon gap. Buning ustiga, ideal xozirgi zamonda ham, kelajakda ham bo'lmaydi, uning mavjudlik sharti-o'tgan zamon. Lekin, shunga qaramay, inson ideal sari intiladi, o'z hayotida unga qiyoslaydi, unga taqalid qiladi. U inson. xayotidagi eng oliy axloqiy talabki, uning bajarilishi shaxsni komillikka etkazadi. Albbata, hayotda bunday bo'lmaydi, lekin inson ana shu komillikni o'ziga namuna bilib, idealga intilib yashashi jarayonida nisbiy komillikka erishadi.

Asosiy mezoniy tushunchalar - katetoriyalar. singari axloqiy tamoyillar ham axloqiy anglash shakllaridan hisoblanadi. Ularda axloqiy talab nisbatan umumiy tarzda ko'zga tashlanadi.

Ular jamiyat tomonidan shaxsga qo'yilaligan talab tarzida namoyon bo'lib, insonning axloqiy moxiyatini, uning hayoti mazmunini, odamlar bilan o'zaro aloqalaridagi asosiy jahatlarini belgilab beradi. Natijada tamoyillar, inson xatti-xarakatining umumiy yo'nalishini ko'rsatgan holda, ko'pgina axloqiy me'yorlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Axloqiy tamoyillarning eng qadimiy va eng muximlaridan biri - insonparvarlik. U - insonning yuksak ijtimoiy vazifasini belgilaydigan va barqaror etadigan g'oyalar, qarashlar va e'tiqodlar majmui, shaxs erki, kadrqimmat, uning baxtli bo'lishini talab etish imkonining mavjudligiga engilmas ishonch. Insonparvarlik tamoyilini, Yevropa uyg'onish mutafakkirlari dastlab ilgari surganlar, degan fikr mavjud.

Aslida, insonparvarlik dastavval sharqda urtaga tashlangan, insoniylik, insonparvarlik degan ma'noni bildiruvchi “namlulu” so'zi bundan 3-4 ming yillar, avvalgi qadimgi Somir mix xatlarida uchraydi.

Insonparvarlik - umuminsoniy qadriyatlar sirasiga kiradi. Uni sho'rolar davridagi sinfiylik nuqtai nazaridan soxtalashtirish proletar diktaturasi va totalitar sotsialistik tuzum hamda ular ijodkorlarining insonparvarligi haqidagi afsonalar juda qisqa umr ko'rdi. Sotsializm mafkurachilarining bu boradagi say-harakatlari o'sha davrlardayoq noilmiyligi, yolg'onga sug'orilganligi bilan kishilarning g'ashini keltirgan edi. Bunday insonparvarlikni xalq qabul qilmaydi. Chunki u aynan o'ta mavxum “xats” tushunchasiga qaratilgan, vaxolanki insonparvarlik markazida muayyan shaxs turmog'i lozim har bir shaxsga insoniy hukuqlarini ta'minlash uchun kurashish - mana, insonparvarlikning asosiy vazifasi. Bu borada umumbashariy ma'naviy qadryatlarni ustuvor deb bilgan bizning davlatimiz xam mamlakat ichkarisida, xam dunyo miqyosida ko'zga ko'rinarli ishlar kilinmoqda.

Agar insonparvarlik tamoyili shaxsning barcha insoniy haq-huquqlari ximoyasida tursa, ya'ni ancha keng qamrovli va umumiy intilish bo'lsa, erkparvarlik tamoyili uning ma'lum ma'noda muayyanlashgan bir qismi hisoblanadi. Erkparvarlik insonning eng oliy huquqi - erkin, ozod yashash huquqini himoya qilishi bilan muximdir. Zero erksiz inson - asir, erksiz millat - qul, erksiz mamlakat - mustamlaka. Erkparvarlik, avvalo, o'z millati o'z Vatani erki uchun, kolversa, boshqa millatlar va vatanlar erki uchun kurashni xayotining maqsadi qilib quygan insonlar tamoyilidir. Ayni paytda, bu tamoyil keng ijtimoiy siyosiy ma'noda ham qullaniladi. Buni erkparvar davlatlar faoliyatini ko'rish mumkin.

Odatda, erkparvar shaxslar muayyan davrning qahramonlariga aylanadilar. Zero ular o'zgalar erki uchun, o'z erkini, o'z hayotini qurbon qilishdan ham cho'chimaydilar. Buning yopqin misoli buyuk ingliz mumtoz shoiri Jorj Bayron siymosidir. U ingliz bo'laturib, o'z Vatani Angliyada Irlandiya ozodligi, irinlandlar erki uchun kurashdi: ko'pchilikning xayrati va nafratiga uchradi,

13-MAVZU: “ETIKA” FANINING PREDMETI VA JAMIYAT HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Vatanini tark etishga majbur bo‘ldi. O‘z yurtida erk uchun kurashish baxtidan mahrum bo‘lgan shoir o‘zga vatanlar erki uchun kurashga otladi, Italiyani Avstriya istibdodidan ozod qilish xarakatining rahbarlaridan biriga aylandi. Bu haqda u shunday deb yozgan edi

*Erk uchun Vatanda qilolmasang jang,
Sen qushni vatanlar erki deb kurash
Yunonu Rumoning tug‘an tut tarang,
Boshingni tika bil erk uchun sarkash!
Ezgulik yulida bo‘lsang qahramon,
Sen inson erki deb kurashsang azot,
Bir, kuni, ciptmoqdan gar qolsang omon,
Jo‘mard deb alqagay seni odamzot!*

Italiyadagi ozodlik xarakati mag‘lubiyatga uchragach, u qadim Yunonistonni Turkiya zulmidan ozod qilish uchun kurashdi. U Yunonistonda, botqoqlik yonidagi Missolungi shahrida og‘ir bezgakdan vafot etdi. Uning o‘limi xam istibdodga qarshi shiorga aylandi qo‘zg‘olonchilar “Bayron uchun!” degan. jangovar hayqiriq bilan jangga otildilar. Benazir, Yunonistonning ozod qilingan qismi general-gubernatori, erksevar qo‘mondon va ulug‘ inson xotirasiga yunon xalqi yigirma bir kun qora kiyib, motam tugdi. Xamma cherkovlarda Bayron haqiga ibodat qilindi. Daphaqiqat, erkparvarlik tamoyilini xayotining ma‘nosi deb bilgan insonning ma‘naviy umri boqiy, ular kelajak avlodlar uchun ideal bo‘lib qoladilar.

Eng ma‘lum va mashxur tamoyil, bu vatanparvarlik. U insonning o‘z Vataniga muxabbatini, uni asrab-avaylashga bo‘lgan ishtiyoqini anglatuvchi axloq tushuncha. Uni ko‘pincha Vatan dushmanlariga qarshi ma‘naviy-mafkuraviy qurol sifatidagina talqin etadilar.

Aslida esa, bu tamoyilning qamrovi ancha keng - u insonparvalikning nisbatan muayyanlashgan shakli. U, eng avvalo, o‘z vatandoshlari erkini asrash uchun kurash, inson ozodligi yo‘ldan xattixarakatlardir. Vatan himoyasi, bu – inson ximoyasi, millat himoyasi. Lekin bu ximoya, yuqorida aytganimizdek, faqat jang maydoniga emas, balki barcha cohalapda namoyon bo‘ladi. Xar bir soxada Vatan erishgan muvaffiqiyatlardan quvonch, muvaffaqiyatsizliklardan qayg‘u hissini tuyush, Vatan bilan g‘ururlanish, uning xar bir qarich eri, binosining xar bir g‘ishtiga, qadimiy obidalariga, ilm-fan va san‘atdagi yutuq ulariga mehr bilan qarash, ularni ko‘z qorachig‘idek asrab avaylash - bo‘lar xammasi vatanparvarlikdir. Hozirgi paytda yoshlarimizda vatanparvarlik tuyg‘usini tarbiyalash, ularni Vatan ma‘nosini teran anglab etishga urgatish vatanparvarlik - yuksak axloqiy tamoyil ekanini tushuntirish fanimizning dolzar6 vazifasi hisoblanadi.

Yana bir muxim axloqiy tamoyil, bu - Millatparvarlik. U ma‘lum ma‘noda, vatanparvarlik tamoyilining yanada muayyanlashgan shakli. Zero millatni sevish keng ma‘noda Vatanni sevish degani. Vatansiz millatning bo‘lishi yoki rasmona erkin va baxtli yashashi mumkin emas.

Lekin millatparvarlikni millatchilik bilan qorishtipib yubormaslik lozim. Millatchilik o‘z millatini ajratib olib, unga buyuklik maqomini berishga ingilish bo‘lsa, millatparvarlik, boshqalarni kamsitmagan xolda, o‘z millati ravnaqi uchun kurashish, bu yo‘lda, lozim bo‘lsa, o‘z hayotini xam fido qilish demakdir. U insonparvarlik bilan xam chambarchas bog‘liq. Chunki o‘z millatini chin dildan sevmagan, odati xech qachon boshqa millatlarni seva olmaydi.

13-MAVZU: “ETIKA” FANINING PREDMETI VA JAMIYAT HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Asl millatparvar - milliy o‘zlikni anglab etgan inson. U o‘z millati bilan faxrlanadi, o‘z millati bilan butun jahonning faxrlanishini istaydi. Chunonchi, Navoiy do‘pi bilan to‘p kiygan o‘zbekni xar qanday shoh jamolidan afzal ko‘radi.

Shohu toju xil’atekim, men tomosha qilg’ali

O‘zbekim boshida qalpoq, egnida shardog’i bas.

Lekin Navoiy shu faxrlanishi, g‘ururlanishi barobarida o‘zgalarga kibr bilan qaragan emas, aksincha, o‘zga til vakili bo‘lmish Jomiyga bag‘oyat xurmat-izzat ko‘rsatib, unga, pirim, deb qo‘l bergan.

Asl millatparvar insonlarning umri millatning umri kabi mangudir. Millat yo‘lida o‘z jonini tikkan Munavvar qori, Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon singari minglab fidoiylarni ham halqimiz hech qachon unutmaydi.

Shuningdek, tinchlikparvarlik, jo‘mardlik singari axloqiy tamoyillar ham insoniyat hayotida muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, tinchlikparvarlik urushning, kon to‘kishning har qanday ko‘rinishining inkor-etadi. Ba‘zi ulug‘ davlatchilik va buyuk millatchilik ruxi hukmron bo‘lgan jamiyatlarda tinchlikparvarlar quvg‘in qilinadi, turmalarga tashlanadi. Lekin ular o‘z tamiyillaridan hech qachon qaytmaydilar. Ular insoniyatni barcha bahsli masalalarini tinch yo‘l bilan hal qilishga chaqiradilar. Yer yuzida tinchlik o‘rnatish uchun tinimsiz kurash olib boradilar.

Jo‘mardlik tamoyili esa Sharqda qadimdan mavjud. Ovro‘poda o‘sha altruizm nomi bilan Ogyust Kong ilmiy muomalaga kirishgan. U kishida o‘z qavmdoshiga achinish hissidan, unga baxt va farovonlik tilash tuyg‘usidan kelib chiqadi, moxiyatan beminnat xayriyaga asoslanadi. Bundan tashqari, bizning milliy axloqshunos-ligimizda o‘zbekchilik, mexmondo‘stlik kabi tamoyillar mavjud. Ular millatimizning eng yaxsh ananalariga sadoqat tuyg‘usidan kelib chiqadi va o‘zbek kishisiga xos bag‘ri kenglik, do‘ctga, mexmonga borini bag‘ishlashdek fidoyilik xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Ayni paytda, bu tamoyillarni suistemol qilishi hollari ham hozirgi paytda tez-tez uchrab turadi. Shunga qaramay, o‘zbekchilik va mexmondo‘stlik tamoyillari xalqimizning o‘ziga, xoslimni ta’kidlaydi. Jahonning juda ko‘p xalqlari bu tamoyillar egasi bo‘lmish o‘zbek millatiga doimo extirom, havas va hayrat bilan minnatdorchilik bildiradilar.

Inson hayotida axloqiy me‘yorlar ham katta ahamiyatga ega. Ular tamoyillarga nisbatan ancha sodda, umumlashmagan, tor qamrovli. Ularni kundalik xayotimizda ma‘lum axloqiy tamoyillarning amalga oshish murvatlari ham deyish mumkin, ular axloqiy talablarning eng oddiy shakli sifatida ruyobga chiqadi. Xalollik, rostgo‘ylik, xushmuomalalik, boodoblik, kamtarlik singari me‘yorlar ayniqsa, diqqatga sazovar. Shuni ham aytish kerakki, halollikni uning daqtlabki tor diniy mazmunida qaysi taom haromu, qaysinisi halol, degan ma‘noda tushunmaslik lozim. U allaqachon umuminsoniy ma‘no kasb etgan me‘yorga aylangan. Xalollik, rostgo‘ylik vijdon tushunchasi bilan bog‘liq, insonning o‘zga munosabati o‘ziga munosabatidek sof bo‘lishini talab qiluvchi me‘yorlardir.

O‘nlab me‘yorlar orasida bu ikkisiga to‘xtalishimizning sababi shundaki, mustamlakachilik davrida, ayniqsa, sho‘rolar xukumronlik qilgan chorakam bir asr vaqt mobaynida yolg‘on, aldov, nopoklik, xaromxo‘rlik, munofiqlik singari illatlar xalqimizga shu qadar ustalik bilan singdipildiki, hozirgi paytda ko‘pchilik odamlar halollik va rostgo‘ylik ustidan xatto kuladigan bo‘lib kolganlar. So‘z bilan ish birligi yo‘qolgan, qog‘ozdagi chiroyli gaplar xayotga to‘g‘ri kelmaydi. Lekin bo‘larning hammasi afsuski, odatiy holdek, qabul qilinadi. Shu bois mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq bu illatlarga qarshi-kurash boshlandi. Hozirgi kunda

davlatimiz milliy ma'naviy qadriyatlarni tiklashni, odamlarni halol, insofli, adolatli bo'lishga chaqirishni o'z ichki siyosatining muhim qismi deb bilgan holda ish tutmokda. Zero ko'z o'ngimizda yolg'on, aldov, ikkiyuzlamachilik nimaligini deyarli bilmaydigan jamiyatlar, millatlar gullab-yashnamoqda. Yaponiya, Olmoniya, Fransiya, AQSH, Buyuk Britaniya singari mamlakatlar shular jumlasidan. Shunday qilib, qisqacha bo'lsada, axloqshunoslik mezoniy tushunchalari, axloqiy tamoyillar va me'ryolar nima ekanini, ularning shaxs Hamda jamiyat axloqiy xayotida naqadar muhim o'rin tutishini ko'rib chiqdik.

5. Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov.

Qadimiy ona sayyoramizdagi xayot odatda uch olamdan iborat deb qabul qilingan. Bular - nabotot, hayvonot va bashariyat olami; ularning o'zaro munosabatlari zaminimizdagi hayotning asosiy omili hisoblanadi. Xar uchlasiga xam paydo bo'lish, rivojlanish, o'zini muxofaza qilishi, nasl qoldirishga intilishi instinkti berilgan va hayotining bir kunmas-bir kun o'lim bilan nihoya topishi qismati belgilangan. Chunonchi, o'simlik upug'idan paydo buladi, rivojlanadi, singan shoxlari o'rnini sirach chiqarib, davolaydi - muxofaza qiladi, urug'lik qoldirib, bir kun kuriydi. Hayvon shu xususiyatlar bilan birgalikda sezish a'zolari va qobiliyatini hamda muayyan darajada idrok etish xislatiga ega. Insonda esa bulardan tashqari mulohaza qilish, fikrlash qobiliyati va uyat hissi, bir so'z bilan aytganda, aql bor. Uni G'azzoliy oltinchi sezgi yoki ikkinchi yurak, yurak ichidagi yurak o'qiydi. Ana shu axloq ixtiyor erkinligini, ixtiyor erkinligi esa axloqni taqozo etadi.

Inson ham ixtiyor erkinligi zaruriyat talabi bilan okilona, aqlga bo'ysundirilgan ravishda, cheklanadi, ya'ni nisbiylamaydi. Aks holda, muayyan bir, bir necha inson yoki guruxning betiyiq erkin ixtiyori nafakat boshqa insonlar va gupuhlap, balki nabotot, xayvonot olami, butun dunyo uchun fojeaga aylanishi mumkin. Ixtiyor erkinligini bunday cheklashning, aqlga bo'ysundirishning asosiy vositasi axloqdir.

Shunday kilib, axloq - oliy mavjudotga ato etilgan oliy ne'mat. YA'ni axloqning kelib chiqishi iloxiy manba'dandir. Ana shu iloxiy asosni asrab-avaylab, taraqqiy toptirish xar bir insonning asosiy vazifasi, burchi. Shu bois o'z-o'zini va iloji bo'lsa, o'zgalarni axloqiy tarbiyalash barcha muqaddas kitoblarda savob sanaladi.

Ixtiyor erkinligi tufayli inson xar qadamda axloqiy tanlov muammosiga duch keladi. Bu muammo kishida mas'uliyat xissi mavjudligidan dalolat beradi. Mas'uliyatni, o'zgalar va o'z vijdoni oldida javobgarlikni sezmagani kishi xoxlagan ishga qo'l urishi mumkin - uni uz qilmishining oqibati qiziqitirmaydi, u fakat manfaat ustuvorligini tan oladi, xolos. Unday odamni axloqsiz deb ataydilar. Zero inson yo ezgulikni, yo yovuzlikni tanlashi tufayli nimanidir ixtiyor etadi axloqiy tanlov xar bir xatti-xapakat, xar bir qilmishning ibtido nuqtasi.

Umuman, inson va jamiyat axloqiy hayotida tanlovning ahamiyati beqiyos. Masalan, tarixdan bir ta'sirchan voqeani olib ko'raylik bozorda mutasavvif alloma, ozarboyjon, eski uzbek (turkiy), fors tillarida o'lmas asarlar yaratgan buyuk shoir Nasimiyning g'azalini yod o'qiyotgan bir yosh yigitni kufirda ayblab, xibsga oladilar. yigit oldida ikki yo'ldan birini tanlash turardi yo piri Nasimiyi sotish va tavba qilib, banddan ozod bo'lish yoki g'azalni o'zimmiki, deb o'limga tik borish. Pokdomon, or-nomusli yigit ikkinchi yo'lni tanlaydi. Qozi uning terisini shilishga buyuradi. Olomon tomomabinlar yig'iladi. Shu payt Nasimiy kelib qoladi. Voqeadan xabar topgan Nasimiy oldida xam endi tanlov turardi - tanlamaslikning iloji yo'q edi yo o'zini oshkor qilib, yosh yigitni jallod qo'lidan qutqazishi va uning o'rnini egallashi, yoki olomon orasidan sekin sirg'alib chiqib ketib, shogirdining o'limga maxkum etilishi evaziga o'z jonini asrab qolishi kerak. Buyuk mutasavvif shoir birinchi yo'lni tanlaydi o'zini jallod qo'lga tutqazib, begunox yigitni ozod etadi.

13-MAVZU: “ETIKA” FANINING PREDMETI VA JAMIYAT HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Qozi Nasimiyning terisini shilishga buyuradi. Jallod ishga kirishadi, atrofga qon sachraydi. SHunda qozi odamlarga, nari turinglar, bu kofirning tomchi qoni biror eringizga tegsa, usha erni kesib tashlash kerak buladi, deydi. qozi gapini tugatar-tutatmac, Tangri irodasi bilan bir tomchi qon sachrab kelib uning jimjalog‘ita tegadi. Olomon qozidan barmog‘ini kesib tashlashini talab qiladi. Endi qozining oldida tanlov turardi yo barmog‘ini kesishga berib, gapining ustidan chiqishi kerakki gapidan kaytib, sharmisor bo‘lishi kerak. Qozi axloqiynopok, qo‘rqoq va xudbin odam sifatida gapidan kaytadi. Nasimiy esa kiynoqqa mardonovor chidab, churq etmaydi, aksincha qozining axvolini ko‘rib, istexzoli kuladi va co‘ngi g‘azalini yoddan aytadi. Nasimiyning bu jasorati asrlardan-asrlarga o‘tdi, ne-ne shoirlarning she‘rlarida madh etildi, o‘zi esa insoniy poklik va yuksak axloqiylikning o‘lmas timsoli bo‘lib qoldi. Bir namuna sifatida buyuk turkman shoiri Maxtum qulining “Savol-javob” she‘ridan quyidagi sakkiz satrni keltirish mumkin :

Maxtum quli - u Himadip, emadilar-tuydilar?

U nimadip, ulug‘ kunga qo‘ydilar?

Ul kim edi tovonidan so‘ydilar?

SHoir bo‘lsang, shundan bizga xabar ber!

Durdi shoir - U diydordir, emadilar-tuydilar,

U namozdir- qiyomatga quydilar,

Nasimiy tovonidan so‘ydilar, Bizdan

salom bo‘lsin, javobimiz shu!

SHunday qilib, ushbu misolda uch xil tanlovni, uch xil masuliyatni va ixtiyor erkinligidan uch xil foydalanishni ko‘rdik. Demak, xar bir insonning bu dunyoda axloqiy tanlov sinovidan o‘tmasligi mumkin emas.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.:“O‘zbekiston”, 2014. 24 b
2. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli [Farmoni](#).
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.
7. Karimov I.A. Asarlar to‘plami. 1-24 jildlar.- T.: O‘zbekiston 1996-2016.
8. Karimov I. A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. 2 nashr –T.:Ma‘naviyat, 2016 176-b.
9. Abdulla Sher. Axloqshunoslik.Darslik. –T.: O‘FMJ, 2010. 328 b.
10. Abdulla Sher. Estetika. Darslik. – T.: O‘zbekiston, 2016. 192 b.
11. Гусейнов А.А., Апресян Р.Г. Этика. Учебник. – М.: Гардарики, 2013. 472 с.
12. Abu Nasr Forobiy.Fozil odamlar shahri – T.:Yangi asr avlodi,2016.318b.

14-MAVZU. NIKOH VA OILANING AXLOQIY ASOSLARI, UNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI REJA:

1. Nikoh - eng qadimgi axloqiy munosabat shakli
2. Nikohning qonuniy va diniy jihatlari.
3. Milliy ma'naviyatimizda nikoh va oilaga doir axloqiy qadriyatlar O'zbekistonda yoshlar tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy kamolotida nikoh va oila haqidagi milliy axloqiy qadriyatlarining o'rni
4. Ajralish va uning axloqiy kamolotga salbiy ta'siri

Tayanch tushunchalar: Nikoh, oila, er-xotin, poligam, monogam, mahr farzand tarbiyasi, oila shartnomasi, axloqiy qadriyatlar, nomus, Oila kodeksi, shariy nikoh.

Insonning hayoti va turmushida, ayniqsa, yosh avlodning kamolot topishida, axloqiy voyaga yetishida oilaning o'rni va vazifasi beqiyosdir. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf - odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli an'analar: halollik, rostgo'ylik, or - nomus, sharmu - xayoy, mehru - oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar eng avvalo oilada shakllangan". Bas shunday ekan, oila va nikoh nima, ularning mohiyati, maqsadi va ahamiyatini bilish har bir fuqaro, har bir bo'lajak mutaxassis, yosh avloddan tortib keksa kishilargacha bilishi zarur va muhimdir.

Oila va nikoh nima? Oila so'zining lug'aviy ma'nosi haqida har xil nuqtai nazarlar bor. Masalan, Rimliklarda "oila" so'zi (familia) dastlabki mulk egasiga bo'ysunadigan shaxslar (bu shaxslar mulkining bir qismi hisoblangan; mulk egasining o'z bolalari, xotini, asir, sotib olingan yoki meros bo'lib o'tgan qullar ham hisobga kirgan) majmuini bildirgan. "Ota" so'zi ham dastlab hozirgi ma'nodaga otani emas, balki o'ziga qarashli oilaning xo'jasi yoki egasi degan so'zni anglatgan. "Oila"ning lug'aviy ma'nosi boshqa bir manbaada quyidagicha izohlanadi: "Oila asli arabcha "ayolmand, niyozmand" ma'nolarini anglatuvchi "oil" so'zidan chiqqanligi "Farxangi zaboni tojikiyda qayd etilgan. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da ham bu so'zning arabchaligi ta'kidlanib, "er-xotin, ularning bola - chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui, xonadon" ma'nosidagina izohlanadi. Har ikkala izohda ham so'zdagi ma'no yuki onalik bulog'idan suv ichgan holda shakllanganligi yetarli ifodalanmagan. "Oila" so'zining lug'aviy ma'nosi uning mohiyatini anglashda va ta'kidlashda muhim negiz bo'ladi. Adabiyotlarda oilaning turli ta'riflari mavjud. Shundan eng mukammali quyidagidir: Oila - kishilarning tabiiy-biologik (jinsiy munosabatlar, bola tug'ish), iqtisodiy (mulkiy munosabatlar, uy - ro'zg'orni boshqarish), huquqiy (masalan, nikohni davlat yo'li bilan qayd etish), ma'naviy (er - xotin, ota - ona va bolalar o'rtasidagi mehr - muhabbat tuyg'usi va boshqa) munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birligi"⁴⁵. Professor A. Ortiqovning ma'ruza matnlarida, yosh olim F.Primovanning oila haqida quyidagi yanada mukammalroq ta'rifi keltirilgan: "Oila jamiyatning tarixiy taraqqiyot jarayonida, uning davomiyligini ta'minlovchi tabiiy - biologik, ijtimoiy ehtiyojlarning qonuniyati asosida shakllanib, takomillashgan kishilarning ijtimoiy - iqtisodiy,

⁴⁵ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi 8-jild

huquqiy, ma'naviy - axloqiy munosabatlariga asoslangan barqaror ijtimoiy birligidan iborat"⁴⁶. Darhaqiqat, oila er - xotin, ularning bola - chaqalari, eng yaqin tug'ishganlaridan iborat kishilar guruhi, boshqacha aytganda xonadonidir. Chunki oila juftlik qonuni asosida yuzaga keladi, bir erkakning o'zi yoxud bir ayolning o'zi oila bo'la olmaydi. Qolaversa, oila faqat er va xotindagina iborat emas. Oila er - xotindan tashqari urning ota - onasi, ya'ni qaynota va qaynonalar, farzandlar, uka va singillardan iborat ko'p bo'g'inli xonadon. Uning har bir a'zosi o'z mavqeiga ega, shu oilaning ichki intizomiga buysunib yashaydi. Shu ma'noda oila jamiyat ichidagi jamiyatdir. Bu jamiyatning o'z saltanati bor: Bunda minglab tasodiflar jarayonida er - xotin muhabbati sinovdan o'tadi, shu sinov jarayonida ular bir - birlarini chuqurroq tushuna boradi, bir - birlarini qadrlashni o'rniga qo'yadigan bo'ladi, bir - birlariga kechirimli bo'lishadi, er - otaga, xotin-onaga aylanadi, farzandlarni tarbiyalab elga qo'shadi, orzu - xavas ko'radi. Shu manoda oila inson hayotiga to'kislik baxsh etadi, jamiyatning muqaddas maskani sifatida sadoqat sarchashmasiga aylanadi. Oila ana shu asoslarga tayangan holda kishilik tafakkuri va ijtimoiy harakatining ulug' kashfiyoti bo'ldi. Demak, oila-jamiyatning asosiy bo'g'ini, yacheykasi bo'lib, unda er - xotinlik, ota - onalik, farzandlarning va tug'ishganlarning o'zaro shaxsiy qarindoshlik va mulkiy maqsadlari, manfaatlari va huquqlari bilan bog'liq munosabatlar mujassamlashgandir. Kishilar uchun muqaddas dargox bo'lgan oila insonlarning tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va ma'naviy munosabatlari zamirida vujudga keladi. Albatta oila juftlik qonuni asosida yuzaga keladi. Bu jarayonda eng avvalo ikkala jins o'rtasidagi kelishuv, ya'ni nikoh asosiy rol o'ynaydi. Chunki oila taqdiri rasmiy - nikohiy tus olishidan boshlanadi, shundagina er - xotin oldida, xotin er oldida, ular ota - ona sifatida farzandlaru qavm - qarindoshlar, mahalla - ko'y, qisqasi jamiyat oldida, o'z navbatida farzandlar ham o'z ota - onalari va el oldida ma'suliyat sezadilar va burchli ekanliklarini his etib yashaydilar.

Xo'sh, nikoh nima? Nikoh ham arabcha so'z bo'lib, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da: Er - xotinlikni shariat yo'li bilan rasmiylashtirish marosimi va shu marosimda domulla tomonidan o'qiladigan shartnoma ma'nosiga ega ekanligi qayd etilgan". Boshqa lug'atlarda ham nikoh "Er - xotinlikning yuridik (huquqiy) ravishda rasmiylashtirilgan oilaviy ittifoqi, "nikoh ahdi", "erxotinlik, uylanish" ma'nolarida ishlatilgan.³ Nikoh to'g'risida ham turli ta'riflar bor. Shundan eng ma'quli quyidagi ta'rifdir: "Nikoh ikki jinsdagi shaxslarning oilaviy munosabatlarda ishtirok etish uchun o'zaro ahdlashuvidir".⁴ Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FXDYO) bo'limida tuziladi va rasmiylashtiriladi Qonunga binoan nikoh tuzish shartlaridan eng muhimlari – nikohga kiruvchilarning o'zaro roziligi va ularning nikoh yoshiga etganliklari. Bizda yigitlar 18, qizlar 17-nikoh yoshlari qilib belgilangan. Nikoh tuzishdan oldin ikki yosh orasida goh ochiq sevgi-muntazam uchrashuvlar, ahdu-paymonlar va orqa varotdan bir-birini yoqtirish bo'lishi mumkin. Har ikkala ahvolda ham rozilik o'zgarimas shart hisoblanadi.

Muhammad Alayhissalom uylariga sovchi kelganda qizlari Fotimadan doimo rozilik so'rganlar va rad javobi olganlar. Faqat Hazrat Ali sovchi qo'rganlarida Bibi Fotima rozilik berganlar. Demak, farzandning roziligini olish bizga payg'ambarimizdan qolgan sunnat. Hozirgi kunda ham ko'pgina yoshlarimiz sovchi orqali turmush quradilar. Odatda sovchi kelib ketgach, yigit bilan qiz uchrashtiriladi, ikkalasi bir-birini ma'qul ko'rsagina to'y bo'ladi. Juda ko'p hollarda bunday yoshlar o'rtasida keyinchalik haqiqiy muhabbat shakllanadi. Abdulla Qodiriy «O'tgan kunlar» romanida tasvirlagan Otabek bilan Kumush o'rtasidagi sevgini buning mumtoz namunasi desa bo'ladi. Nikoh o'z mohiyatiga ko'ra ahloqiy hodisa. Unda ehtiroslar axloqqa bo'ysundiriladi. Oddiy birga yashashda esa tabiiy extiyojni qondirish birinchi o'rinda turadi. Nikohda u ikkinchi

⁴⁶ Ortiqov A. "Etika asoslari" kursidan leksiya matnlari, - T.: 1999, 95-bet.

³ Qarang: Safarov O, Mahmudov M. Oila ma'naviyati. -T.: 1997, 15-bet.

⁴ Davlat va huquq asoslari. Izohli lug'at., -T.: "O'qituvchi", 1996, 49-bet.

darajali mavqe'ni egallaydi. Demak, nikoh - oilaning faqat huquqiy asosi bo'lib, erkak bilan ayolning bir - biriga va bolalariga, ya'ni bir oilaga mansub kishilarning bir - birlari oldida va jamiyat oldida huquq va majburiyatlarini, axloqiy va huquqiy ma'suliyatini belgilaydigan oilaviy ittifoqidir. Demak, oila nikoh asosida vujudga keladi. Lekin oila va nikoh aynan bir tushunchalar emas. Oila - nikoh va qon-qardoshlik bilan bog'langan kishilarning tarixan shakllangan ittifoqidir, eng avvalo, er va xotin, ota - onalar bilan bolalar o'rtasidagi munosabatlardir. Nikoh - oilaning faqat huquqiy asosi bo'lib, bir oilaga mansub kishilarning, eng avvalo, er va xotinning va farzandlarning bir -birlari oldida huquq va majburiyatlarini, axloqiy va huquqiy ma'suliyatini ifodalaydi.

Oila va nikoh tarixiy hodisa bo'lib, ular jamiyatning kelib chiqishi va taraqqiyotida azaldan mavjud bo'lmagan. Oilaning kelib chiqishi hali batamom oydinlashtirilgan emas. Bu to'g'rida turlicha nuqtai-nazarlar mavjud. Mutaxassislarning aksariyatining fikricha, oila va nikoh munosabatlarining evolyutsiyasi quyidagicha yuz bergan: Ibtidoiy tuzumning avvalida (ilk va so'nggi paleolit chegaralarida) umuman oila va nikoh bo'lmagan, u davrda promiskuet deb nomlangan tartibsiz jinsiy aloqalar odati hukm surgan, ya'ni to'dadagi har bir ayol barcha erkaklarniki va har bir erkak barcha ayollarniki hisoblangan. Keyin bu aloqalar o'rnini guruhiiy nikoh egallagan. Guruhiiy nikohda bir urug'dagi hamma erkaklar boshqa urug'ning barcha ayollariga er bo'lish huquqiga ega bo'lganlar. So'ngra esa mazkur jamiyat oilasining asosiy shakli sifatida juft oila paydo bo'lgan. Juft nikohda esa er - xotin hisoblangan erkak va ayol o'z urug'larida yashagan. Bu oila qarindoshlikni ham ota tomonidan (otalik davri), ham ona tomonidan (onalik davri) hisoblab borgan, lekin bu oilalarda hali er - xotin nikohi barqaror, alohida xo'jalikka ega emas edi. Bu davrda (bronza davri boshlanishi va temir davrida) tabiiy faktor o'z vazifasini tugalladi, ya'ni jinsiy munosabatlar doirasida qon -qardoshlar istisno qilindi, jinsiy munosabatlar faqat bir erkak va bir ayol munosabatlariga aylangan nikohda xotin er bilan yashash uchun uning urug'iga ko'chib o'tgan. Monogam (yakka nikohlik) oila paydo bo'ldi. Nihoyat individual oila bo'lib, bu kichik oilada nikoh er -xotinni hamda ularning bolalarini bir - biri bilan mustahkam bog'laydi. Bu holat xususiy mulkchilik rivojlana boshlab ibtidoiy jamoa tuzumi emirilayotgan davrga to'g'ri keladi. Oila shakllari nikoh xarakteriga qarab ham bir biridan farq qiladi: 1) Poligam (ko'p nikohlik) va monogam (bir nikohlik) oila; 2) hukmronlik kimning qo'lida bo'lishiga qarab oila patriarxal (ota yoki aka-ukalarning biri tomonidan boshqariladigan) matriarxal (ona tomonidan boshqariladigan), 3) demokratik (er - xotinning tengligiga asoslangan) oilaga bo'linadi. Hozirgi jamiyat oilasi "demokratik" oilaning tipik shaklidir.

Mashhur amerikalik faylasuf Jorj SaktaYana (1803-1952) ta'kidlaganidek: "Oila, bu — tabiatning shoh asarlaridan biriga aylandi". Fransuz yozuvchisi V. M. Gyugo (1802- 1885): "Oila - jamiyatning duru gavhari", — degan edi. Buyuk tatar olimi Rizouddin ibn Faxruddin (1848-1917) "Oila" asarida Shunday degan edi: "Millatlar sharafini yuqori martabaga ko'taradigan narsa millionlar ila sanalmoqda bo'lgan askarlaru dunyoda eng buyuk va zo'r bo'lgan kemalar emas, balki eng oz e'tibor beradiganimiz, yo bo'lmasa hech bir zamon e'tibor bermasdan keladiganimiz bo'lmish oiladir. Oila nizomsiz bo'lsa, uning yomon oqibati butun millatga ta'sir etar va shu sababdan fazilat yeriga razolat, taraqqiyot o'rniga tubanlik negiz ko'rar. Xudoning o'zi asrasinku, agarda bir millatga bunday hol ro'baru kelsa, u millat kitobining so'nggi varag'i ochulg'usidir"⁴⁷.

Nikohning qonuniy va diniy jihatlari.

Insoniylik nuqtai nazaridan qaralganda nikoh - muqaddas ishdur. Chunki u halollik asosida qo'shilishni ma'qul deb biladi, nikohsiz qo'shilish esa haromlik belgisidir. Haromlik ta'siri esa bo'lajak farzandlarda, oilaning barakali bo'lishida o'z salbiy oqibatlarini ko'rsatishi mumkin. Qonun tilida nikoh bola tug'ilishini qonunlashtiradigan alohida turdagi xususiy shartnomani

⁴⁷ Rizouddin ibn Faxruddin. Oila, -T.: "Mehnat", 1991, 7-bet

anglatadi. SHariat bo'yicha nikoh shartnomaga o'xshab ketsada, undan farq qilgan. U umurbodga tuziladi. SHariat muddatli shartlarga yo'l qo'ymagan. Agar nikoh ahdida muddatli shartlarga ma'lum hafta, oy yoki yilga yo'l qo'yilgan bo'lsa, bunday nikoh haqiqiy emas deb sanalgan. SHariat bo'yicha nikohdan o'tish uchun nikohdan o'tuvchilardan bir qator shartlarga rioya qilish talab etilgan. Ular: birinchidan-nikohdan o'tuvchilarning o'zaro roziligi; ikkinchidan-nikoh yoshiga to'lish; uchinchidan-nikohni guvohlar ishtirokida tuzish; to'rtinchidan-kelin uchun qalin va mahr to'lash; beshinchidan-diniy e'tiqod birligi; oltinchidannikohdan o'tadiganlar yaqin qon - qarindosh bo'lmasligi; ettinchidan-tabaqa bo'yicha tenglik; sakkizinchidan-nikohdan o'tuvchilarning ruhiy jihatdan sog'lom bo'lishi lozim. Shariat bo'yicha nikoh yoshi ug'il bolalar uchun 12 yosh, qizlar uchun 9 yosh belgilangan. Shunda o'g'il bolalar jinsiy jihatdan voyaga etgan bo'lishlari lozim. Amalda esa o'g'il bolalar-14, qizlar-12 yoshga to'lganda nikoh tuzilgan. Shariat bo'yicha nikoh ahdini tuzish vaqtida albatta ikki kishi guvohlikka o'tishi lozim. Guvohlikka o'tishga qo'yilgan shaxslar nikoh ahdini tuzuvchilarning o'zaro roziligini o'zlari bir vaqtning o'zida eshitgan bo'lishlari lozim edi. Shariat bo'yicha nikoh ahdini tuzishning navbatdagi sharti ajratilgan mahrn berishdan iborat bo'lgan. Bu siz nikoh haqiqiy emas, deb sanalgan. Mahr kuyov tomonidan kelinga berilib, uy-joy va sepdan iborat bo'lgan. Har bir hududda mahr, qalin hajmlari har-xil bo'lgan. Shariat bo'yicha, faqat islom diniga mansub bo'lgan shaxslargina o'zaro nikoh tuza olgan. Agar ayol boshqa dindan islom diniga o'tsa, u bilan nikoh qurish mumkin edi. Qur'oni karimning "Niso" (4)-surasinin 22-24oyatlarida nikoh taqiqlangan hollar batafsil belgilab berilgan. Nikoh ahdini tuzishda talab qilinadigan shartlardan biri tabaqa bo'yicha tenglikdir. Nikoh haqiqiy teng bo'lishi uchun "kafalat" - nikohga kiruvchi shaxslar urug'i, qarindoshligi bo'yicha va unvonlarda teng bo'lishi lozim edi. Shariat bo'yicha nikoh ahdini tuzuvchi tomonlar ruhiy jihatdan sog'lom bo'lishi lozim. Aqldan ozgan shaxs bilan tuzilgan nikoh tuzilmaydi. SHariat bo'yicha erkaklar bir vaqtning o'zida bir qancha xotin olishlari, ammo ularning soni to'rttadan oshmasligi lozim edi. Sababi agar bir erkak faqat bir ayolga uylanishi mumkin deyilsa, erkaklar sanog'idan ortib qolgan ayollarga zulm qilingan bo'lur edi. Ya'ni, bu ayollar o'zlarining turmush qurish va ona bo'lish huquqlaridan mahrum bo'lib qolar edilar. Natijada jamiyatda nopoklik va maishiy buzuqliklar yuzaga kelar edi. Shuning uchun Islom moddiy imkoniyatlari bor erkaklarga ko'p xotinlik bo'lishga ruxsat beradi. Bunday holat Turkiston sharoitida ham mavjud bo'lib, erkaklar ikki va undan ortiq xotinlarga uylanib, ular bilan bir umumiy xo'jalikni vujudga keltirganlar. Musulmonalar nikoh tuzilishiga qadar bir qator diniy urfodatlarini bajarishlari lozim bo'lgan. Bu urf-odatlarining biri sovchilik bo'lib, bo'lajak kuyovning yaqin qarindoshlari kelinning ota-onasi huzuriga borib, nikoh to'g'risida kelishib oladilar. Bu jarayon "fotiha qilish", "unashtirish" deb atalgan. Ikkinchidan, nikohni xalqqa e'lon qilish uchun ziyofat berish musulmonlar uchun sunnat amallaridan biri hisoblangan. Uchinchidan, nikoh ahdini tuzish vaqtida ruhoniya vakili bo'lmish mulla, ikki guvoh va kuyov kelinning uyiga, yoki kelin va kuyov guvohlari bilan masjidga boradi. Mulla nikoh "xutba" sini o'qishdan oldin er-xotinlik shartlari, er va xotinning burch va huquqlarini tushuntiradi, kelin va kuyovning roziligini so'raydi, tasdiqlovchi javobni eshitgan mulla nikoh xutbasini o'qiydi. Nikoh ahdi tuzilgandan so'ng nikoh vasijasini olish vaqtida ikki taraf ham mullaga yoki qoziga pul to'lashi lozim edi. Bu vasiqa "nikoh pattasi", to'langan pul esa "nikoh koma" deb nomlangan. Nikoh ahdi tuzilgandan e'tiboron kelin erining uyida bo'lishi lozim. Kelin erining uyiga asosan to'ydan so'ng borgan. Yuqorida ko'rsatilgan nikoh ahdini tuzish vaqtida bajarilishi lozim bo'lgan holatlarni hisobga olib, qo'yidagi xulosaga kelish mumkin: shariat bo'yicha nikoh tuzish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, islom dini tomonidan belgilangan talablar uning qonuniyligi va oshkoraligini ta'minlagan.

Nikohning qonuniy jihatlari. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan "Oila kodeksi"da batafsil bayon qilingan bo'lib, ularning asosiy vazifalari oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat,

ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir - biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a'zolarining mas'ulligi hissi asosida ko'rishdan, biron bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik aralashishiga yo'l qo'yimaslik, oila a'zolari o'z huquqlariga to'sqinliksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta'minlashdan iborat. Oilaviy turmushda ota - onalar quyidagi huquqlarga ega bo'ladi va bajarilishi ularning burchlari hisoblanadi: 1) bolalarga ism - sharif va familiya qo'yish; 2) ularning fuqaroligini va millatini belgilash;

3) o'z bolalariga vakillik qilish, ya'ni ular xali huquqiy muomalaga layoqatsiz ekanlar, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish; 4) o'z bolalarining istiqomat joylarini belgilash va ularni qonunsiz ushlab turgan shaxslardan talab qilib olish; 5) o'z bolalarini tarbiyalash, ularga nafaqalar berish va hokazo. Ota-ona o'z bolasiga qaramasa, tashlab ketsa, jinoyat yo'lga o'tib burchlarini bajarmasa ular otalik, onalik huquqlaridan mahrum etilishi mumkin hamda ular keyinchalik farzandlaridan nafaqa olish huquqlaridan ham mahrum bo'ladilar. O'z navbatida, farzandlar ham ota - onalarining oldida o'z burchlarini bajarishlari shart bo'lib, bularga mehnat qobiliyatini yo'qotganda, kasal bo'lganda, boquvchisiz qolgan ota - onalarga g'amxo'rlik qilish va hokazolar kiradi.

Milliy ma'naviyatimizda nikoh va oilaga doir axloqiy qadriyatlar O'zbekistonda yoshlar tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy kamolotida nikoh va oila haqidagi milliy axloqiy qadriyatlarining o'rni.

Ma'lumki, qadim zamonlardan boshlab oila, undagi axloq, odob masalalari har bir davrning, jamiyatning eng ilg'or kishilari, olimlar, shoirlar, buyuk allomalari va donishmandlarning asosiy diqqat markazida bo'lib kelgan. Sharqning buyuk allomalari Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg'ariy, Kaykovus, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin Ibn Faxriddin, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Uvaysiy, Nodira, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat kabi ko'plab olim va yozuvchilar oila, odob-axloq masalalari yuzasidan o'zlarining qimmatli fikrlarini bizlarga bayon qilib ketganlarki, ular hozirgi hayotimiz uchun ham katta ijtimoiy va mafkuraviy ahamiyatga ega. YUqorida zikr etilgan bobokalonlarimizning asarlarida oila va oilaviy munosabatlarga alohida e'tibor qaratilgan Binobarin, turkiy xalqlarning qadimgi yodgorliklaridan biri bo'lgan "Avesto"da oila inson salomatligi, kamolotining manbai, shuningdek muqaddas dargoh sifatida qadrlanishi ekanligi, farzand tarbiyasi, oila barqarorligida er va xotinning teng darajada mas'ulligi haqidagi ilg'or fikrlar bayon etilgan. Jumladan, asarning bosh qahramoni Zaradushtraning zamindagi eng muhtaram go'sha qaysi go'sha? – degan savoliga yaxshilik va ezguliklar xudosi bo'lmish Axura Mazda: "Agar inson uy tiklab, olovga va oilasiga, xotini va farzandlariga, mollariga o'rin ajratib bersa, em-xashagi ko'p bo'lib, chorvasi va itlari to'q yashasa, uyida nozne'matlar muhayyo bo'lib, xotini va farzandlari farovon yashasa, uyida e'tiqodi sobit, olovi alangali, boshqa narsalari ham mo'l-ko'l bo'lsa, o'sha manzil muhtaramdir" – deb javob beradi. "Avesto"da insoniy burch faqat axloqiy yo'lyo'riqlarni o'zlashtirishdan iborat bo'libgina qolmasdan, balki inson oilaviy turmush, yaxshi yor va farzand to'g'risida ham o'ylashi zarurligi ta'kidlanadi⁴⁸. Unda qayd etilishicha, erkak kishi, avvalo uylanish uchun moddiy va ma'naviy tomondan to'q va jismonan baquvvat bo'lishi lozim. Buning uchun o'z vaqtida ovqatlanishi zarur, aks holda erkak kishi o'z xizmat va axloqiy burchlarini bajara olmaydi. Umuman, zardushtiylikda oilaviy burch va farzand tarbiyasi alohida o'rin tutadi. Bordi-yu erkak kishi zurriyod qoldirish qobiliyatiga ega bo'lsa-yu, ammo uylanmasa, unga tamg'a bosishar yoki beliga zanjir bog'lab yurishga majbur qilishardi. Ba'zan bunday erkakni qopga solishib kaltaklashgan. "Avesto"da qarindoshlarning o'zaro oila qurishi man etilgan. Qavm va urug' qonini toza, avlodni benuqson saqlash uchun shunday qilingan.

⁴⁸ А.Маковельский. Авесто. Баку, 1960. 80 – 81-б.

Buyuk mutafakkir, qomusiy allomalarimizdan biri Abu Nasr Farobiy YAqin va O'rta SHarq xalqlarining ma'naviyati hamda madaniyati rivojiga bebaho hissa qo'shdi. Axloqiy tarbiya va odob-axloqning nazariy masalalarini tadqiq etish mutafakkir ijtimoiy qarashlarining eng muhim qismidir. Farobiy inson axloqi va odobi xususida fikr yuritar ekan, u axloqning shakllanishini jamoaviy mehnat bilan birgalikda tasavvur qiladi. Uning fikricha, birgalikda mehnat qilish jamiyatni vujudga keltirganidek, axloqni ham jamoaviy mehnat yaratadi. Farobiy baxt tushunchasini kishilarning turmushdagi saodatga erishuvi deb tushunadi. Uningcha, "Baxtga erishish uchun foydali bo'lgan hamma narsa va baxtga erishilishida ishga solinadigan hamma narsa yaxshilikdir va baxtga biron-bir darajada to'sqinlik qiladigan hamma narsa mutlaqo yomonlikdir"⁴⁹.

Buyuk aql-zakovat sohibi Abu Rayhon Beruniy o'zining 150 dan ziyod asarlarida inson hayotidagi tabiiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni qamrab olgan. Beruniyning izohlashicha, shaxsning ma'naviy qiyofasi u boshqa odamlar bilan muloqotda bo'ladigan jamiyatda shakllanadi. Inson jamiyatda o'z qarindoshurug'lari bilan birlashib yashashga majburdir, bundan maqsad bir-birini qo'llab-quvvatlash hamda har bir kishining ham o'zini, ham boshqalarni ta'minlash uchun kerakli ishlarni bajarishidir. Odam hamma vaqt boshqalarning baxt-saodati haqida, muayyan vazifalarni bajarish zarurligi haqida o'ylashi lozim. Mutafakkirning fikriga ko'ra, muruvvatli kishi odamlarga xayrixoh, halol va haqgo'y bo'ladi. Beruniy mulozamat, rahmdillik, qat'iyat, sabr-toqat va kamtarlikni yuksak axloqli insonning asosiy xislatlari deb biladi. Mutafakkir muruvvatlilik deganda, eng avvalo insonning axloqiy kamolotini tushunadi. Beruniy o'z asarlarida og'ir nuqsonlarni – ziqnalik, yolg'onchilik, munofiqlik, xushomadgo'ylikni, ayniqsa kishilarning o'z bilimlariga, qobiliyatlari va axloqiy xislatlariga muvofiq bo'lmagan yuksak mavqeni egallashga intilishlarini qattiq qoralaydi. Axloqan mukammal kishi, deb uqtiradi Beruniy, lazzat me'yorini biladi. Ammo shunday kishilar borki, ularning talab-ehtiyojlari cheksiz bo'lib, ularda "dunyoning ko'rki behuzur, uning go'zalliklari esa - xunuk" bo'lib tuyuladi. Haqiqiy odam shaxsiy va ijtimoiy hayotni aql-idrok va adolat talablariga muvofiq tarzda tashkil etishi lozim. Zero (odam) erisha borgan sari ortib boradigan intilish(gina) chinakam rohat baxsh etadi. U (odam) ana o'shandagina (ilgari) bilmaganiga tushunib etadi. Insonning ichki va tashqi go'zalligi bir bo'lgandagina u haqiqiy kamolotga erishadi. Muallif ozodalik va orastalik olijanoblikning o'zagidir deb uqtiradi. YUksak madaniyatli kishi bo'lgan Beruniy insonning tashqi yoqimli qiyofasi to'g'ridan-to'g'ri uning axloqiy qiyofasiga bog'liqligini uqtiradi. SHunga asosan, u tishni yuvish, ko'z va qovoqlarni toza tutish, ularga surma qo'yish, sochni esa zarur bo'lganda, bo'yash, tirnoqlarni olib turish va silliqlash lozimligi va hokazolarni ta'kidlaydi. Mutafakkirning fikricha, agar inson axloq-odobli bo'lishni istasa, yurish-turish va hayot kechirishning, madaniyatning barcha unsurlari, me'yorlariga rioya qilishi lozim. SHunday bo'lish, avvalo, uning o'ziga bog'liq, chunki inson o'z ehtiroslariga hukmron va ularni o'zgartirishga qodirdir, u o'z joni va tanini tarbiyalar ekan, uni ma'naviy shifokorlik bilan davolashi hamda asta-sekin axloq haqidagi kitoblarda ko'rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishi zarur. Beruniy oila va nikoh munosabatlarining juda nozik tomonlarini axloqiy va huquqiy nuqtai nazardan tadqiq qilar ekan, oilaning mustahkam va tinchtotuv bo'lishi, er-xotinning ahilligi, shirinso'zligi bir-biriga bo'lgan mehr-oqibatiga bog'liq, degan xulosaga keladi. Ayniqsa, uning yoshlarga qarata aytgan quyidagi purma'no nasihatlari g'oyat muhim bo'lib, bugungi kun yoshlari uchun ham alohida ahamiyatga ega: "Ey, qizim, sen o'rgangan uyingdan ketib, notanish xonadonga tushmoqdasan. Sen bo'lajak kuyovingning hamma xislatlarini bilmaysan. Sen er bo'l, u osmon bo'ladi. Sen u bilan shunday yo'l tutki, uning oldida er kabi kamtar bo'lsang, u osmon kabi olijanob bo'ladi. Osmon shifoli yomg'iri bilan erni ko'kartirgani kabi, u ham o'z mehrshafqati bilan seni xushnud etadi.. . Ering sendan shirin va

⁴⁹ М.Хайруллаев. Фаробий ва унинг фалсафий рисолалари. – Т: "Фан",1963.

yumshoq soʻzlar eshitsin. Yaramaydigan yoki eski libosda, yoki sochlaring tartibga solinmagan holda, uning oldiga oʻtirma. SHirin soʻzli boʻlgin, bu ishing har qanday sehr-jodudan yaxshidir. Suvdan tez-tez foydalangin. Oʻzinga xushboʻy narsalar bilan oro ber. Pokizalik hamisha yoʻldoshing boʻlsin”⁵⁰.

Oilaviy munosabatlar va ijtimoiy sohaga oid fanlar tizimida buyuk mutafakkir, dunyo xalqlari tafakkuri xazinasidan tib ilmining bilimdoni sifatida joy olgan alloma Abu Ali ibn Sinoning oʻziga xos qarashlari mavjud. Uning pedagogik va psixologik qarashlari, ijtimoiy asosga qurilgan boʻlib, u bola tarbiyasida umuminsoniy tamoyilning qoʻllanilishini yoqlab chiqqan va tarbiyachi ota-onalarga bolani qattiq tana jazosidan koʻra, shaxsiy ibrat orqali tarbiyalash maʼqulligini uqtirgan. Ibn Sinoning “Tadbiri manzil” asarining katta bir bobi oila va oilaviy tarbiya masalalariga bagʻishlangan. U oila boshligʻi oldiga katta talablar qoʻyadi, farzandlarni bir-biriga mehribon qilib tarbiyalash haqida fikr yuritadi. SHaroit qanday boʻlishidan qatʼi nazar, bola tarbiyasi ota-onalarning vazifasidir. Ibn Sino oʻz asarlarida ota-ona davlat boshligʻimi yoki jamiyatning oddiy bir aʼzosimi baribir bola tarbiyasi masalasida ularga bir xil talab qoʻyiladi, degan gʻoyani ilgari suradi. Alloma bola tarbiyasining qiyin va murakkab ish ekanini chuqur his etadi. Bola axloqining shakllanishida, deydi u er-xotinning bir-biriga boʻlgan munosabati, birbirini hurmat qilishlari ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Buning uchun oila aʼzolarining har biriga maʼlum vazifalar yuklatilgan boʻlishi, erkak kishining oilaga bosh boʻlishi va zarur talablarni bajarishi, agarda biror narsani vaʼda qilgan boʻlsa, vaʼdasining ustidan chiqishi lozimligini taʼkidlaydi. Bolaning mustaqil ovqatlanish davri boshlanishi bilan ota uning axloqiy tarbiyasiga kirishuvi zarurligini, maqsadga erishish uchun tarbiyada bolani baʼzan maqtash, baʼzan jazolash ham kerakligini aytadi. Ibn Sino yashagan davrda ayollar haqida yoki ularning manfaatlari nuqtai nazaridan ijobiy fikrlar aytish qanchalik qiyin boʻlishiga qaramay, u ayollarning oila va jamiyatda tutgan oʻrniga katta ahamiyat beradi, ijodiy ishlarida oqila ayollarni koʻklarga koʻtarib maqtaydi. Uningcha, agar ayol aqlli boʻlsa, oʻz erining ishonchli doʻsti va hayotda eng birinchi yordamchisi boʻladi, bevafo erxotinlar esa oilani halokatga olib boradi. Ibn Sino oilada toʻgʻri tarbiyani olib borish, oila baxtining muhim asosi deb hisoblaydi. Uning fikricha, oilada otaning tabiatan yumshoq boʻlishi bola tabiatini buzadi. Oilada bosh tarbiyachi otadir va otaning qattiqqoʻl boʻlishi bolalar tarbiyasida muhimdir, chunki ota katta taʼsir kuchiga egadir. Muallif mazkur asarning “Ayollarning yaxshi sifatleri” boʻlimida onalarning oilada bosiq, dono, halol va kamtar boʻlishlari hamda bola tarbiyasida otaga eng yaqin koʻmakdosh boʻla olishlari oila mustahkamligini saqlashda katta yordam berishini taʼkidlaydi. Allomaning “Tib qonunlari” kitobida esa bola tarbiyasidagi onaning vazifalari alohida koʻrsatib berilgan. Bola kamolotida onaning mumkin qadar sipo, vazmin va bosiq boʻlishi kerakligi, undagi gʻazablanish, qaygʻurish, qoʻrqish kabi ruhiy kechinmalar bolaga zarar keltirishi taʼkidlangan. Ibn Sino oila boshligʻi oldiga qator talablarni qoʻyadi. Oila boshligʻi, deb yozadi u, ham nazariy, ham amaliy jihatdan oilada tarbiya masalalarini mukammal oʻzlashtirmogʻi lozim. Agar oila boshligʻi tajribasiz boʻlsa, u oʻz aʼzolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi, oxir oqibat u yaxshi ijobiy natijalarga erisha olmaydi, yomon tarbiya nafaqat ushbu oila, balki qoʻshnilarga, mahallakoʻyga ham yomon taʼsir qilishi mumkin. Oilada bola tarbiyasi ota-onaning jamiyatda tutgan mavqeidan qatʼi nazar, ularning birlamchi vazifasidir. Donishmand mehnat tarbiyasi borasida fikr yuritar ekan, jumladan quyidagilarni taʼkidlaydi: Har bir bolani biror hunarga oʻrgatmoq shart, yosh yigit biron hunarni oʻrgansa, uni hayotda tatbiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani taʼminlaydigan boʻlsagina, otasi uni uylantirib qoʻymogʻi lozim, deydi. Demak, allomaning oila qurish uchun zarur ijtimoiy va iqtisodiy etuklik haqidagi fikrlari, ayniqsa yosh oila va oila quruvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi, oilaning mustahkamligi va baxtli boʻlishi aynan oila quruvchilarning ham ijtimoiy, ham iqtisodiy jihatdan etukliklariga va koʻproq,

⁵⁰ X.Бобоев, С.Хасанов. Берунийнинг сиёсий-хукукий қарашлари.// “Хаёт ва қонун” журнали. 1996 йил, 3сон.

yigitning oila qurishga tayyorgarligiga bog‘liqdir. O‘ziga xos tafakkur sohibi bo‘lgan, so‘z mulkining sultoni, buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning turmush madaniyati, odob-axloq, sevgi-muhabbat borasidagi qarashlari bu borada alohida o‘rin tutadi. Alloma o‘zining “Mahbubul qulub” (ya’ni “Qalblarning mahbusasi”) asarida biz uchun qimmatli bo‘lgan o‘g‘itlarini bayon etib, turmush va oilaviy hayotdagi turli vaziyatlardan chiqishga imkon beruvchi fazilatlar va ularni tarbiyalash masalalariga e’tibor qaratadi va ayol kishining oilada tutgan o‘rni xususida, jumladan shunday deydi: Yaxshi xotin – oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan, husnli bo‘lsa, ko‘ngil yozig‘i, xushmuomala bo‘lsa, jon ozig‘idir. Oqila bo‘lsa, ro‘zg‘orda tartib-intizom bo‘ladi, asbob-anjomlar saranjom turadi. Kishi bu kabi jufti halol bilan qovushsa, agar bunday baxtga erishsa, g‘am va kulfatda sirdoshga, oshkor va pinhoni dard-alamda hamnafas tan mahramiga ega bo‘ladi. Turmushda boshingga har qanday jaf o‘tushsa, hamdarding u, teskari aylanuvchi falakdan har balo kelsa, ko‘makdoshing u. Ko‘nglingga g‘am yuzlansa, u hamrox, badaningda xastalik va zaiflik kelsa, uning ham joni halak, ammo xudo ko‘rsatmasin, nomuvofiq xotin uchrasa, o‘z uyingda halokatli illat paydo bo‘ladi. U beandisha, shallaqi bo‘lsa, ko‘ngil undan ozor chekadi va yomonlik axtaruvchi bo‘lsa, undan ruh azob chekadi. Tili achchiq bo‘lsa, barchaning dilini yaralaydi, pokiza bo‘lmasa, eriga yuzi qoralik keltiradi. SHarq xalqlari tarixi va madaniyatiga, umuman, ta’lim-tarbiyaga oid o‘nlab asarlar yozgan ma’rifatchi olim Rizouddin ibn Faxruddin o‘zining “Oila” asarida ayollar xususida shunday fikrlarni bayon qiladi: “Oilaning asl ustuni – xotundur. Zero, erkaklar xulq tarbiya xususida xotindan boshqa hech bir kimsaga bo‘ysunmaslar. Xatto, buyuk maktablarda oliy fikrli odamlar huzurida ilm oluvchilar ham onalaridan olgan tarbiyalari bilan yasharlar va bu tarbiyani so‘nggi kunlariga qadar saqlarlar. Shu sababdan ham faylasuflardan biri: – insonlar har vaqt xotinlar istagani kabi bo‘lajaklar, agarda buyuk va fazilatli odamlarga ehtiyojingga bo‘lsa, xotunlarga buyuklik va fazilat o‘rgatingiz, - demishdir. Tarbiyali xotin ota-onasini, er hamda bolasini, butun oila xulqini, oilaga munosabatli bo‘lgan do‘stu qo‘shnilarini, xodimu xodimalarini tarbiya-yu, husnu xulqi bilan mamnun qilur. O‘zi ham baxtli o‘laroq umr surur. Ammo tarbiyasiz xotin buning aksini qilib, ota-onasini, eru bolasini el masxarasiga qoldirur. O‘zi ham baxtsiz o‘laroq yashar, bolalarini tarbiyasiz qoldirib, umrlarini barbod qilur. Natijada, qizlik va onalik kabi dunyo va oxirat ne’matlaridan ham mahrum bo‘lur. Bir inson naqadar boyu, naqadar martaba sohibi bo‘lsa-da, uning tarbiyali xotini bo‘lmasa, u baxtli emas. Zero, baxt oilasi ichida rohatli umr ko‘rmakdan iborat Darhaqiqat, oila bizning xalqimiz hayotida muqaddas ma’naviy qo‘rg‘on darajasiga ko‘tarilgan. Biror bir yozuvchi yoki adib yo‘qki, bu tushunchaga to‘xtab o‘tmagan bo‘lsin, biror bir shoir yo‘qki, oila haqida ash‘or bitmagan bo‘lsin. Jumladan, YUSuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik”, Kaykovus ibn Iskandarning “Qobusnoma”, Alisher Navoiyning “Mahbubul qulub”, “Arba’in”, Rizouddin ibn Faxruddinning “Oila”, Abdurauf Fitratning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari”, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Hifzi sihati oila” (Oila sog‘ligini muhofaza qilish), Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” kabi asarlari va boshqa ko‘plab badiiy, ilmiy adabiyotlar bu borada biz uchun bebaho ma’naviyat xazinasidir. O‘zbek pedagogikasining rivojiga katta hissa qo‘shgan, ma’rifatparvar yozuvchi Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida shaxs, axloq-odob, oila munosabatlari haqida, jumladan quyidagicha fikr yuritadi: “Axloq, bu – xulqlar majmui. Xulq esa, ezgulik yoxud razillikning muayyan bir insonda namoyon bo‘lish shakli. Binobarin, har bir xulq ezgulik va olijanoblikning yoki razillik va badbinlikning timsoli. SHu jihatdan ular yaxshi va yomonga bo‘linadi. Lekin bular kishida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma’lum bir sharoit, tarbiya kerak. Kishilar tug‘ilishidan yomon bo‘lib tug‘ilmaydilar. Ularni muayyan sharoit yomon qiladi. Demak, hamma narsa tarbiyaga bog‘liq. Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir.” Avloniy tarbiya doirasini keng tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo‘ymaydi. “Sog‘ tanda sog‘lom aql”

degan hikmatning bejiz emasligini yaxshi biladi. Gapni, birinchi navbatda, bolaning sog‘ligi haqida qayg‘urish lozimligidan boshlaydi. Badanning salomat, quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadir. Chunki o‘qimoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchli, baquvvat va sog‘lom jasad lozimdur. Taniqli adabiyotshunos Abdurauf Fitrat o‘zining “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” nomli asarida oila, oila qurish va uni boshqarish, oilada farzand tarbiyasi bilan bog‘liq masalalar yuzasidan qimmatli fikrlarni bildiradi. Abdurauf Fitratning ushbu asarida oila – bir necha odamlardan iborat jamoa deb atalgan.

Yuqoridagi mulohazalardan ma‘lum bo‘ladiki, oila va undagi farzandlar tarbiyasi tushunchasi insoniyat uchun muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki har bir inson o‘z ota-onasi bag‘rida ko‘z ochib dunyoga keladi va ularning ta‘sirida atrof-olamni idrok etib, til chiqaradi va muomalani o‘rganadi. SHunday ekan, er-xotin munosabatlari farzand dunyoga kelishi bilan yanada muhim va mas‘uliyatli pog‘onaga ko‘tariladi. Endi ular birbirlariga emas, balki bolalarga shaxsan namuna va ibrat bo‘lishlari kerak, ya‘ni ularda burch tushunchasi paydo bo‘ladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqida yoshlar tarbiyasiga doir quyidagicha qimmatli fikrlar bayon etilgan: ma‘lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda”.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.:“O‘zbekiston”, 2014. 24 b
2. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli [Farmoni](#).
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.
7. Karimov I.A. Asarlar to‘plami. 1-24 jildlar.- T.: O‘zbekiston 1996-2016.
8. Karimov I. A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. 2 nashr –T.:Ma‘naviyat, 2016 176-b.
9. Abdulla Sher. Axloqshunoslik.Darslik. –T.: O‘FMJ, 2010. 328 b.
10. Abdulla Sher. Estetika. Darslik. – T.: O‘zbekiston, 2016. 192 b.
11. Гусейнов А.А., Апресян Р.Г. Этика. Учебник. – М.: Гардарики, 2013. 472 с.
12. Abu Nasr Forobiy.Fozil odamlar shahri – T.:Yangi asr avlodi,2016.318b.

15-MAVZU. AXLOQIY MADANIYAT VA QADRIYATLAR

REJA:

1. Asosiy axloqiy qadriyatlar. Kasbiy odobning axloqiy madaniyat bilan uyg'unligi.
2. Tibbiy va ekologik tarbiyaning axloqiy asoslari.
3. "Ommaviy madaniyat"ning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri. Zamonaviy axloqiy tarbiyada kosmopolitizmga moyillik.
4. Yuksak axloqni tarbiyalashda texnologiyaning ijobiy va salbiy ta'siri.
5. Bioetika – amaliy etikaning nazariy asosi.

Tayanch tushunchalar: Axloqiy madaniyat, Muomala odobi, Suhbat, Imo-ishora, Etiket, Kasbiy odob, Axloqiy tarbiya, Axloqiylik, Tarbiyalanuvchi, Komil inson, Namunaviylik, ommaviy madaniyat, bioetika,

Madaniyatning turlari ichida, xususan ma'naviy madaniyat doirasida axloqiy madaniyat o'zining nihoyatda keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Uning shaxs hayotida voqe bo'lishi xilma-xil omillar vositasida ro'y beradi. Chunonchi, hayotiy tajriba, tarbiya, axloqiy ta'lim, san'at ana shunday vositalardan hisoblanadi. Axloqiy madaniyat shaxsga o'zgaralar bilan munosabatda an'anaviy axloqiy qonun-qoidalardan ijobiy foydalanishni, ularga zamonaviylik nuqtayi nazardan yondashishni, ezgulik bilan yovuzlikning farqiga borishni va egallagan axloqiy bilimlarini samarali tatbiq etishga o'rgatadi. Qisqasi, u shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallash va ulardan o'z tajribalarida foydalanishi o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni qamray oladi; shu bilan shaxs axloqiy taraqqiyotining belgisi hisoblanadi hamda davlat va jamiyatdagi axloqiy darajani yuksaltirishga xizmat qiladi. Axloqiy madaniyat doimo zamonaviydir. Ya'ni, u muayyan zamon erishgan axloqiy yutuqlar yoxud darajaning shaxs axloqiy hayotidagi ko'rinishidir. To'g'ri, u, yuqorida aytganimizdek, ma'naviy axloqiy qadriyatlarni butunlay inkor etmaydi, lekin ularning zamonaviy shakllarda namoyon bo'lishini ta'minlaydi. M. mulozamat, takalluf va murojaat odobini olaylik. Bu axloqiy qadriyatlar qadimdan mavjud. Lekin ularning bugungi kundagi shakllari, deylik, Navoiy davridagidan farq qiladi. Garchand, u davrdagi mulozamat, takalluf va murojaat odobi o'z mohiyatini saqlab qolgan bo'lsa-da, bugun ulardan o'sha shakllarda foydalanish erish tuyuladi, hazilomuz-kulgili ko'nadi, hatto istehzoli-kinoyaviy urg'u kasb etadi. Biz yuqorida madaniyatning keng qamrovlilik xususiyatini ta'kidlab o'tdik. Zotan madaniyatning biror sohasi yo'qki, unda axloqiy madaniyat bevosita yoki bilvosita ishtirok etmagan bo'lmaydi. U iqtisodiy madaniyatmi, tibbiy madaniyatmi, estetik madaniyatmi, baribir axloqiy madaniyatsiz mavjud bo'lmaydi. Hammasida axloqiy madaniyat muomala odobi, etiket, kasbiy odob ko'rinishlarida nafaqat ishtirok etadi, balki ma'lum ma'noda ularning yashash shartini belgilab beradi. Insonlar toki jamiyat bo'lib hayot kechirar ekanlar, ular birbirlari bilan axloqiy munosabatga kirishmay yashashlarining iloji yo'q. Axloqiy madaniyat ana shu munosabatning asosi, mohiyatini tashkil etadi.

Axloqiy madaniyat axloqiy tafakkur madaniyatining qator unsurlarini o'z ichiga oladi. Ana shunday eng muhim unsurlardan biri — muomala odobi.

Muomala odobi.

Axloqiy madaniyatning eng muhim unsurlaridan biri – muomala odobi. U, mohiyatan, o'zaro hamkorlikning shakllaridan biri. Inson zoti bir-biri bilan hamkorlik qilmasdan, o'zaro tajriba almashmasdan, bir-biriga ta'sir ko'rsatmasdan rosmiyan yashashi mumkin emas. Muomala odam uchun ehtiyoj, zarurat, sog'lom kishi usiz ruhan qiynaladi, kayfiyati tushib boradi. Bu o'rinda buyuk ingliz yozuvchisi Daniyel Defo qalamiga mansub mashhur «Robinzon Kruzoning

sarguzashtlari» asarini eslashning o‘ziyoq kifoya: Jumaboyni topib olgan Robinzonning naqadar quvonishiga ham sabab ana shunda.

Muomala odobi boshqa kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo‘yishni, an’anaviy axloqiymе’yoriy talablarni bajarishni taqozo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarni namoyon etishi, ko‘zga ko‘rsatishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorqin, eng sermazmun va eng ifodali namoyon bo‘lishi so‘z, nutq vositasida ro‘y beradi. So‘zlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati muomalaning muhim jihatlarni tashkil etadi. Shu bois muomala odobi o‘zini, eng avvalo, shirinsuxanlilik, kamsuqumlik, bosiqlik, xushfe‘llilik singari axloqiy me‘yorlarda namoyon qiladi. Darhaqiqat, muomala odobida muloqotning asosi bo‘lmish til katta ahamiyatga ega. Zero, odamlar bir-birlarini til orqali tushunadilar, til vositasida o‘z fikrini o‘zgaga yetkazish ma‘lum ma‘noda san‘at. Zarur so‘zni topish, muayyan holatga mos keladigan ifodaviy vositalarni qo‘llash, fikrni jumlaviy jihatdan to‘g‘ri ifodalash, aniq, bosiq, salobat bilan so‘zlash hamsuhbatingiz yoki tinglovchining diqqatni tortishda muhim rol o‘ynaydi, so‘zlovchining nutq madaniyati darajasini ko‘taradi. Muomala odobida tilning sofligi masalasi ham muhim. Til sofligi buzilishining asosiy uch xil ko‘rinishi mavjud: birmchisi bir tilde so‘zlashayotib, ikkinchi tilga o‘tib ketish, to‘g‘rirog‘i, birvarakay “ikki tilde”so‘zlashish, misol qilib, ikki talabaning so‘zlashayotganda o‘zbek tilida rus tiliga, rus tilidan o‘zbekchaga muntazam o‘tib tunshini olish mumkin, bu ba‘zilar uchun odatiy hol bo‘lib qolgan. Ikkinchisi bir tilda so‘zlashayotib, ikkinchi tildagi so‘zlarni, ayniqsa jargonlarni ishlatish. M., “davay”, “koroche”, va h.k. Til sofligining uchinchi buzilishi esa bir tilda so‘zlashgan holda o‘sha tildagi “parazit” so‘zlarni qo‘llashda ko‘rinadi. M., «anaqa» «haliginday» va h.k. Muomaladagi bunday til sofligining buzilishlari hamsuhbatlarga bilinmasa ham, chetdan kuzatgan odamga nihoyatda xunuk ko‘rinadi. r, Muomala odobida “siz” va “sen”ning o‘z o‘rnida qo‘llanilishi ham ahamiyatga ega. Xususan, ota-ona, aka-opa yoki boshqa yoshi katta odamlar uchinchi shaxs bo‘lganida ularga nisban birlikdagi «u» olmoshini emas, hurmatni anglatuvchi “ular” yoki “u kishi” shaklini qo‘llash odobdan. M., «Otam shunday dedi» emas, «Otam shunday dedilar», «U kishi shuni xohlayaptilar» va h.k. Suhbat paytida tinimsiz harakatda bo‘lib turish, qo‘lni paxsa qilib gapirish yoki suhbatdoshining yoshini nazarga olmay, uni oyoqni chalkashtirib o‘tirgan holda tinglash, biron jon kuydirib so‘zlayotganda esnash v.b. shunga o‘xshash holatlar ham muomaladagi odobsizlikni bildiradi.

Muomala odobining yana bir «ko‘zgusi», bu - insoniy qarash, nigoh, so‘zsiz — noverbal harakatlar. Ma‘lumki, odamning qarashida, yuz ifodasida, qo‘l harakatlarida uning qay sabablardandir tilga chiqmagan, so‘zga aylanmagan hissiyoti, talablari o‘z aksini topadi. Chunonchi, suhbatdoshining gapini oxirigacha eshitmay, qo‘l siltab ketish muomaladagi madaniyatsizlikni anglatadi. Ba‘zan qarab qo‘yishnimgo‘zi so‘zdan ham kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi. Deylik, bir quruvchi usta o‘z shogirdining xatti-harakatlaridan noroziligini bildirish uchun bosh chayqab jilmayib qo‘yishi mumkin. Ikkinchi usta esa, bir lahza o‘qrayib qarash bilan munosabatini ifodalaydi. Birinchi usta yuz ifodasi va xatti-harakati bilan: «Obbo shovvoz-ey, sal shoshilibsanda, ha, mayli, zarari yo‘q, shunaqasi ham bo‘ladi», degan ma‘noni anglatga, ikkinchi ustaning qarashidan: «Yana ishni rasvo qilibsan-ku, padarla‘nat, qachon odam bo‘lasan?!», degan so‘zlarni uqish mumkin. Shubhasiz, birinchi usta muomalada odobga rioya qilgan bo‘lsa, ikkinchisi uning aksi — shogirdining emas, o‘zining odobsizligini ko‘rsatmoqda. Umuman olganda, muomala odobi kishilarning nasihat qilmasdan va odob o‘rgatmasdan birbiriga ta’siri, tarbiya va o‘z-o‘zini tarbiya vositasi sifatida diqqatga sazovor. Shu sababli yoshlarimizda muomala odobini shakllantirish hozirgi kunda jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalardan. Bunda ota-onaning, mahalla-ko‘yning ta’siri katta. Undan foydalana bilish kerak. Zero, axloqiy komillikka erishish muomala odobini egallashdan boshlanadi.

2. Etiket

Axloqiy madaniyat yaqqol ko'zga tashlanadigan munosabatlar ko'rinishidan biri, bu — etiket. U ko'proq insonning tashqi madaniyatini, o'zaro munosabatlardagi o'zini tutish qonunqoidalarining bajarilishini boshqaradi. Agar muomala odobida inson o'z munosabatlariga ijodiy yondashsa, ya'ni bir holatda bir necha xil muomala qilish imkoniga ega bo'lsa, etiket muayyan holat uchun faqat bir xil qoidalashtirib qo'yilgan xatti-harakatni taqozo etadi. Etiketning qamrovi keng, u, ma'lum ma'noda, xalqaro miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini o'z ichiga oladi. Masalan, siyosiy arbob etiketi, mehmondorchilik etiketi va h.k. Etiketga rioya qilishning mumtoz namunasini biz tez-tez televizor ekrani orqali ko'rib turamiz. Prezidentga xorijiy mamlakatlar elchilarining ishonch yorliqlarini topshirish marosimlarini eslang. Unda faqat bir xil holat, xalqaro miqyosda o'rnatilgan qoida hukmron. Uni Prezidentning ham, elchilarning ham buzishga haqqi yo'q. Yoki juda oddiy, kichkina bir misol: dasturxonda tanovul payti, pichoqni o'ng qo'lda sanchiqni chap qo'lda ushlash zamonaviy mehmondorchilik etiketining qat'iy qoidalaridan biri sanaladi — uni buzish atrofda hayrat va istehzo uyg'otadi. Shu bois etiketni odat tusiga aylantirilgan, qat'iyashtirilgan muomala odobi deyish ham mumkin.

Etiketning bunday zamonaviy ko'rinishlari bilan birga, shunday milliy-an'anaviy shakllari ham borki, ularsiz millat madaniy hayotini tasavvur qilish qiyin. Masalan, salomlashish odobini olib ko'raylik. Etiketning bu turiga ko'ra, ko'chadan o'tib ketayotgan odam, ko'cha bo'yida o'tirganlar yoki turganlarga salom berishi kerak, salom berganda o'ng qo'l chap ko'krakda, yurakning ustida turishi, bosh esa yengil

ta 'zimga egilishi lozim. Ko'rishish etiketida esa qo'lning uchini berib salomlashish ko'rishayotgan odamga nisbatan ginaxonlik, xafagarchilik bildiradi - odobdan emas. Ko'rishganda yosh yoki martaba nuqtayi nazaridan katta kishi birinchi bo'lib qo'l uzatishi lozim; ayollar bilan ko'rishganda ham erkak kishi tomondan shunday etiket qoidasi bajarilmog'i talab qilinadi.

Milliy mentalitetda marosimlar etiketi, ayniqsa katta ahamiyatga ega. To'y marosimida, xususan, qiz bilan ota-onaning xayrlashuvi, nikoh kechasiga kirib kelishda kuyovning kelinni chap tomonda tutib, to'yxonaga boshlab kirishi va h.k. etiket qonun-qoidalari to'liq bajarilishi lozim. Yoki aza marosimida fotihaga kelgan odamlarni milliy to'n va do'ppi kiygan, belbog' bog'lagan holda, qo'l qovushtirib, boshni bir yonga quyi tutgan tarzda kutib olish qat'iy qoidaga asoslanadi. Bular, bir qarashda, etiketning milliy yoki kasbiy udum, odat, rasm-rusumlardan farqi yo'q ekan, degan taassurot qoldirishi mumkin. Bu yuzaki, yolg'on taassurot. Chunki udum, odat, rasm-rusumlar muayyan darajada

erkinlikka ega, ba'zan ularni bajarmaslik ham mumkin. Lekin etiketda buning imkoni yo'q — etiket qonun-qoidalari majburiylik tabiatiga ega. Etiketning yana bir alohida jihati bor: unda odob bilan go'zallikning uyg'unligini ko'rishimiz mumkin, qat'iy odob qonun-qoidalari chiroyli xatti-harakatlar vositasida amalga oshiriladi. Demak, etiket estetik bilan ham bog'liq, aniqrog'i, o'zini tutish estetikasi talablariga javob beradi.

Shunday qilib, etiket - takallufning mayda-chuyda jihatlarigacha ishlab chiqilgan odob qoidalari sifatida ijobiy, kishining ko'zini quvontiradigan muomala hodisasi. Lekin, ayni paytda, u asl axloqiy asosini yo'qotgan majburiy mulozamat tarzida ham namoyon bo'ladi. etiket qoidalarini bajarayotgan kishi aslida o'z xohish-ixtiyoriga qarshi ish ko'rayotgan bo'lishi ham mumkin. Bu jihatdan u munofiqlikning bir ko'rinishiga aylanadi. Masalan, siz biror yoqqa shoshilib, darvozadan chiqdingiz, deylik. Ro'parangizda tanishingiz yoki qo'shingiz uchraydi. Siz ko'rishib, hol-ahvol so'rashib, so'ng sharqona etiketga rioya qilib

Uni: «Qani uyga kiramiz, choy qilamiz, bir hangomalashamiz», deb ichkariga taklif qilasiz. Lekin, aslida, siz uning uyga kirishini also istamaysiz, vaqtingiz yo'q, hatto, shu uchrashganda ketgan vaqtingizni o'ylab, pitirlab turibsiz. Demak, siz o'z istagingizga qarshi, etiket mulozamat yuzasidan yolg'on gaplarni aytasiz, xunuk eshitilsa ham nachora — munofiqlik qilasiz. Shunga

qaramay, umuman olganda, etiket shaxsni muayyan tartib-qoidaga, qanday ichki ruhiy sharoitda bo‘lmasin, bosiqlikka, muloyimlikka va sabr-toqatga o‘rgatishi bilan ahamiyatlidir.

3. Kasbiy odob

Axloqiy madaniyat kasbiy odobda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Chunki inson voyaga yetib, bir kasbning boshini tutgach, o‘z kasbi doirasida odamlar bilan muntazam munosabatda boladi. Bu munosabat, bir tomondan, hamkasabalar davrasida ro‘y bersa, ikkinchi jihatdan, u kasb talabiga binoan uchrashadigan turli toifadagi odamlar bilan yuzaga keladi. Ayni paytda, kasbiy odob axloqiy madaniyatning eng yuksak shakllaridan biri; uning jamiyat axloqiy hayotidagi o‘rni yuksak. Shu bois kasbiy odobga bafurjaroq to‘xtalish joiz. Har bir jamiyatda muayyan guruhlar borki, egallagan kasblari ularni boshqa jamiyatdoshlariga nisbatan imtiyozli darajaga olib chiqadi. Ko‘pchilik jamiyat a‘zolarining hayot-mamotlari, salomatligi, ma‘naviy sog‘lomligi, huquqiy himoyasi, ilmiy salohiyatining namoyon bo‘lishi kabi omillar o‘shanday imtiyozli kasb egalarining kasbiy burch mas‘uliyatini qay darajada his etishlariga, halollik va vijdon yuzasidan ish ko‘rishlariga bog‘liqligi hammaga ma‘lum. Chunonchi, tabobat xodimini, jarrohnini olaylik. Deylik, u har bir operatsiya kunida bir necha kishini hayotga qaytaradi; yuzlab odamlar uning yordamiga muhtoj, unga umid va ishonch, ilinj bilan qaraydilar. Bordi-yu, shaxsiy manfaat yo‘lida jarroh o‘z bemoriga xiyonat qilsa-chi, ya‘ni, uni qasddan halok etsachi? Kim uni shunday qilmasligini kafolatlaydi? Yoki jurnalistni olaylik. U shaxsiy manfaati yo‘lida, kasbining kamyobligidan foydalanib, begunoh kishilarni ma‘naviy azobga qo‘yishi, atayin jamiyat oldida sharmanda qilishi va shuning hisobiga o‘zining ba‘zi bir muammolarini hal qilib olishi mumkin emasmi? Mumkin. Zero, to haqiqat yuzaga chiqquncha

nohaq tanqidga uchragan shaxsning adoi tamom bo‘lishi hech gap emas. Xo‘sh, jumalistning shunday qilmasligini kim kafolatlaydi? Shu bois boshqalarning qo‘lidan kelmaydigan ishlarni bajara oladiganlar faoliyatida o‘zboshimchalik, manfaatparastlik, xudbinlik va kasbni suiiste mol qilish singari illatlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun, shuningdek, ular axloqiy darajasini yuksak bosqichda turishini ta‘minlash maqsadida ko‘p hollarda o‘zaro qoidalar majmui yaratilgan. Bu qoidalar majmui, odatda, qasamyod yoki me‘yorlar ko‘rinishini olgan. Uni buzish o‘ta odobsizlik va axloqsizlik, hatto jamiyatga hiyonat tarzida baholanadi. Bunday qasamyodlar juda uzoq tarixga ega. Misol tariqasida hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan Qadimgi Yunon hakimi Hippokrat (milodgacha V-IV asrlar) tomonidan qisqa va lo‘nda shaklda tuzilgan, tabobat xodimlari kasbiy odobi qonun-qoidalarni jamlagan mashhur «Hippokrat qasami»ni keltirish mumkin. Tarixda o‘z dushmanini davolagan tabiblar ham ko‘p uchraydi. Chunonchi qadimgi hind eposi «Ramayana»da (II asr) behush yotgan Lakshman boshida turgan devlar shohining xos tabibi kechinmalari, shu jihatdan muhim. Tabib oldida ikki yo‘l bor edi. b n saltanat dushmanini muhtoj bemor sifatida davolash, ikkinchi yo‘l davolashdan bosh tortish bilan uni o‘limga mahkum etish. Tabib uzoq mulohazadan so‘ng tabiblik odobi qoidalarga bo‘ysunishni - Lakshmanni davolash afzal ko‘radi. Zero, kasbiy odob qonun-qoidalarni talabiga ko‘ra, bemor to‘shagi ustidagi tabib uchun do‘st yoki dushman degan tushunchalar o‘z ma‘nosini yo‘qotadi, uning qoshida faqat tibbiy yordamga intizor shafqatga muhtoj, zaif inson yotadi. Davolanib hayotga qaytgan Lakshman devlar mamlakatining tengsiz buyuk valiahdi Indiijidni jangda halok etadi hamda tabib fuqaro bo‘lgan Lanka, davlatining tanazzuliga yo‘l ochadi. Lekin kitobxon tabibni yoki sotqin demaydi, aksincha, uning ma‘naviy jasoratiga, halolligiga, kasbiy burchiga sodiqligiga hayrat bilan tasannolar o‘qiydi. Yoki mashhur rus olimi akademik Andrey Saxarovning taqdirini olaylik. Buyuk nazariyotchi, fizik, termoyadro sohasida tengi yo‘q mutaxassis, vodorod bombasining asosiy kashfiyotchisi Vatan mudofaasini mustahkamlashdagi xizmatlan uchun o‘nlab orden va medallar sohibi, ikki marta Sotsialistik Mehnat Qahramoni obroli, badavlat bu insonga nima yetishmasdi? Nega u - ommaviy qirg‘in qurollari, jumladan, o‘zi yaratgan vodorod bombasi sinovlariga ochiq bayonotlar bilan qarshi chiqishga ahd qildi. Natijada qatag‘onlarga asoslangan sho‘rolar tuzumi uni ilmiy jamoatchilikdan ajratib, poytaxtdan olisdagi Rossiya shaharlaridan

biriga badarg'a qildi uning nomini matbuotda yoki kitoblarda qayd etilishini taqiqladi. Vaholanki, u hammadan izzatliroq yashashi mumkin edi. Saxarov yuksak axloq yo'lini tanladi - olimlik burchi odobi talablarini bajarish har qanday boylik, izzat-ikromdan baland qo'ydi. Buyuk olim kashfiyoti insonning eng oliy huquqi bo'lmish yashash huquqiga rahna solishi mumkinligi va qisman solayotgani uchun uni amalda qo'llanilishiga qarshi kurashdi. U sho'rolar hukumati va mafkurachilari tomonidan o'zining Vatan mudofaasi quvvatini susaytirishga harakat qilgan salkam xiyonatkor fuqaro deb e'lon etilishiga, boshiga behisob tuhmatlar, ta'na-dashnomlar yog'dirilishiga sabot bilan chidadi, ahddan qaytmadi, yovuzlik saltanati qo'lida o'z olimlik iste'dodining qo'g'irchoq bo'lishiga, harbiy murvatga aylanishiga yo'l qo'ymadi. Oxir-oqibatda u inson huquqlarining jahon tan olgan eng buyuk himoyachilaridan biri sifatida butun insoniyat tahsiniga sazovor bo'ldi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Bulardan tashqari, muallimlik odobi, huquq-tartibot xodimlari odobi, muhandis odobi singari birqancha kasbiy odob turlari borki, ular ham jamiyatda axloqiy munosabatlar silsilasida muhim ahamiyatga ega. Shuni aytish kerakki, barcha kasbiy odob qonun-qoidalarining ta'sir doirasi, miqyosi bir xil emas. Ba'zi bir kasbiy odobning buzilishi oddiy odobsizlik doirasidan chiqib, axloqsizlikka aylanib ketadi. Masalan, rahbarlik odobidagi ba'zi nuqtalarga to'xtalaylik. Rahbar quyi lavozimdakilarga mensimay, qo'pol munosabatda bo'lishi, o'ziga ishonib topshirilgan hudud yoki tashkilotdagi oddiy odamlar arz-dodiga, orzu-istaklariga

to'ralarcha qarashi odobsizlikka kirsam, uning shaxsiy boylik orttirishi yo'lida korrupsiya vositasida mamlakat, viloyat yoki tashkilot manfaatlarini qurbon qilishi axloqsizlik, nafaqat rahbarlik kasbiga, balki Vatanga ham xiyonat tarzida baholanishi mumkin. Ba'zan kasbiy odobning kasbiy axloq deb atalishi ham ana shundan. Rahbarlikning axloqiy jihatlari, rahbar borasida Islom Karimovning mana bu fikrlari bag'oyat ibratlidir: «Oddiy odamlarning rahbarlarga munosabati ikki fuqaro o'rtasidagi munosabatgina emas. Ayni paytda u jamiyatda qaror topadigan ma'naviy-ruhiy, siyosiy-axloqiy muhitni ham yaratadi. Haqiqiy rahbar odamlarning ko'ngliga yo'l topib, ularni ezgulikka, yaxshilikka, yaratishga da'vat etadi»⁵¹. Yuqorida keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, kasbiy odob muammosi, ba'zilar o'ylaganidek, axloqshunoslikning mayda masalalaridan emas. Uni har tomonlama o'rganish, kasbiy erkinlik va kasbiy burch munosabatini tadqiq etish XXI asr axloqshunosligida muhim o'rin egallayajak. Zero, kasbiy odob shaxs va jamiyat axloqiy hayotida o'zini amaliy axloq tarzida namoyon etuvchi ma'naviy hodisa sifatida baholanishi lozim. **4. Axloqiy tarbiya hamda uning yo'llari va vositalari**

Insonning axloqiy hayoti uning axloqiy tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq. Zero, axloqiy tarbiya insonning shaxs bo'lib yetishuvini ta'minlaydigan uzluksiz jarayonlardan biri. Unda individ axloqiy qadriyatlarni anglab yetadi, o'zida axloqiy fazilatlarni barqaror etadi, axloqiy tamoyillar va me'yorlar asosida yashashga o'rganadi. Axloqiy tarbiya insoniyat tarixi mobaynida ikki muhim masalaga javob izlaydi: bulardan biri — qanday yashamoq kerak, ikkinchisi — nima qilmog'-u, nima qilmaslik lozim. Ana shu savollarga javob izlash jarayoni axloqiy tarbiyaning amaliy ko'rinishidir. Tarbiya ona qornidan boshlanadi degan gap bor. Uning asl ma'nosi, avvalo, otanonaning o'zi axloqiy tarbiya ko'rgan bo'lishi kerak degani. Zero, qush inida ko'rganini qiladi: otana oilada yuksak axloq namunasini ko'rsatishi lozim. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, axloqiylik insonda faqat axloqiy tarbiya vositasidagina vujudga keladi, degan moddiyatchilik qarashlari ko'p yillar mobaynida hukmronlik qilib keldi. To'g'ri, axloqiy tarbiyaning ahamiyati nihoyatda katta. Lekin axloqiylik insonga uning insoniylik belgilaridan eng muhimi sifatida ato etilgan ilohiy ne'mat. Shu ma'naviy ne'mat asosni axloqiy tarbiya yordamida takomillastiramiz. Aks holda maymun va itlardan ham axloqiy mavjudot tarbiyalab yetkazishimiz mumkin bo'lur edi.

⁵¹ I.A.Karimov .Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.T.O'zbekiston 1999 y. 77 bet

Shunday qilib, axloqiy tarbiya inson farzandini takomilga, komillikka yetkazish yo‘llaridan biri. Uning vositalari ko‘p. Ulaming bir qismi an’anaviy tarbiya vositalari bo‘lsa, yana bir qismi zamonaviy vositalar. Odatda, har ikki turdagi vositalardan foydalaniladi. Chunonchi, maktabgacha bo‘lgan axloqiy tarbiyada ertak va rivoyatlar vositasidagi an’anaviy tarbiya bilan o‘yinchoqlar va o‘yinlar vositasidagi zamonaviy tarbiya muvaffaqiyatli qo‘llaniladi; bunda bola qizg‘anchilik, g‘irromlik qilmaslikka, halol bo‘lishga o‘yinlar yordamida da‘vat etiladi. Bolalar axloqiy tarbiyasida televideniye, radio, qo‘g‘irchoq teatri, kino san‘ati katta rol o‘ynaydi. Umuman, axloqiy tarbiyaning eng kuchli vositasi — san‘at. Bu vosita aholining barcha tabaqasini, turli yoshdagi shaxslarni qamrab oladi. Ayniqsa, san‘atning badiiy adabiyot turi keng qamrovli. Ertakdan tortib romangacha bo‘lgan janrlarda chop etilgan asarlar shaxsning axloqiy shakllanishida ulkan xizmat ko‘rsatadilar. Ular orqali kitobxon tarbiyalanuvchi sifatida ezgulik va yovuzlik nimaligini badiiy idrok etadi; ideal tanlashda ham ularning ahamiyati katta. Bundan tashqari, badiiy adabiyotning bevosita axloqiy tarbiyaga mo‘ljallangan hikoyatlar, rivoyatlar va nasihatlar majmualari borki, biz ulami, awal aytganimizdek, pandnomalar deb ataymiz: “Kalila va Dimna”, “Qobusnoma”, “Guliston”, “Zarbulmasal” singari bunday mumtoz asarlar an’anaviy axloqiy tarbiya vositasi sifatida necha asrlardan buyon qanchadan qancha avlodlarga xizmat qilib keldi, bundan buyon ham shunday bo‘lib qolajak. Axloqiy tarbiyaning barcha zamonlar uchun dolzarb bo‘lgan yo‘li, bu — namunaviylik tamoyili. Oilada, avvalo, yuqorida aytilganidek, otana bolaga axloqiy namuna bo‘lishi kerak. Maktabda va oliy o‘quv yurtida muallimlarning ta’lim berish usullaridan tortib, to “maydachuyda” xatti-harakatlarigacha o‘z shogirdlari tomonidan shaxsiy namuna tarzida qabul qilinishini nazardan qochirmaslik lozim. Ustoz shogirdlik munosabatlaridagi muomala odobi, halollik, rostgo‘ylik yoshlar axloqiy tarbiyasi shakllanishini ta’minlovchi omillardandir.

Hozirgi paytda axloqiy tarbiyaning eng kuchli zamonaviy vositasi sifatida televideniye keltirish mumkin. U deyarli barcha san‘at turlarida yaratilgan asarlarni ekranlashtirish va ekranda ko‘rsatish imkoniga ega. Bundan tashqari, unda maxsus axloqiy tarbiyaga bag‘ishlangan muntazam ko‘rsatuvlar ham berib boriladi. o‘zbek tilidagi “Otarlar so‘zi — aqlning ko‘zi”, “Rivoyat”, “Oqshom ertaklari” singari ko‘rsatuvlar bunga misol bo‘la oladi. Shu bois televideniye hech qachon yengiltaklikni targ‘ib etuvchi qo‘shiqlar, salkam pomografik reklamalar, inson qalbini qattiq lashtiradigan “o‘ldir-o‘ldir”lardan iborat seriallar korxonasi bo‘lib qolmasligi kerak. Axloqiy tarbiya aslida axloqiy madaniyatning o‘zagini tashkil etadi, biz ko‘rib o‘tgan muomala odobi, etiket, kasbiy odob singari axloqiy xatti-harakatlar uchun asos vazifasini o‘taydi. Biroq u o‘zini yetarli namoyon qilishi uchun ta’lim bilan doimiy aloqada bo‘lishi shart. Shuning uchun biz ko‘pincha “ta’lim-tarbiya” degan qo‘shaloq atamani qo‘llaymiz. Ta’lim-tarbiyada tarbiyalanuvchiga bola deb emas, bo‘lajak komil inson deb qarash muhim.

“Ommaviy madaniyat”ning yoshlar dunyoqarashiga ta’siri. Zamonaviy axloqiy tarbiyada kosmopolitizmga moyillik.

Bugungi dunyo boshidan kechirayotgan globallashuv jarayoni insoniyat uchun katta imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Lekin, ayrim kuchlar dunyoni yanada murakkablashtirishga xarakat qilayapti. Xususan, doimo zo‘ravonlik va gegemonlik hisobidan boylik orttirib kelgan kuchlar «ommaviy madaniyat» shiori ostida turli salbiy g‘oyalarni keng targ‘ib qilmoqdalar. Kimki «ommaviy madaniyat» ortidan ergashsa, o‘zining ijodiy qobiliyatidan yiroqlashadi va tayyor madaniy mahsulotlar «iste’molchisi»ga aylanib qoladi. O‘z-o‘zidan ravshanki, «ommaviy madaniyat» asosan hayotiy tajribasi kamroq yoshlarni ohanrabodek o‘ziga tortadi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti o‘zining «YUksak ma’naviyat – engilmas kuch» nomli asarida haqli ravishda ta’kidlaganidek, «Tabiiyki, «ommaviy madaniyat» degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik va zo‘ravonlik, individualizm, egotsentrizm g‘oyalarni tarqatish, kerak bo‘lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadriyatlarini, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni

tashvishga solmay qo‘ymaydi»⁵². Ommaviy madaniyatni niqob qilib, buzuqlik va zo‘ravonlik singari inson shaxsini ruhan emiradigan g‘oyalarni targ‘ib etadigan asarlarning haqiqiy madaniyatga hech qanday aloqasi yo‘q. Ushbu madaniyatning asosida avvalo tijorat, moddiy manfaatdorlik borligini zamonaviy fan ham e‘tirof etmoqda.

Shunday ekan, ommaviy madaniyatni niqob qilib olgan aksilmadaniyatga, uning didsizligiga va axloqsizligiga, insonni haqoratlovchi, tubanlashtiruvchi mahsulotlarga qarshi kurashish davr talabidir. Unutmaslik kerakki, ba‘zi ijtimoiy qatlamlarning rivojlanmagan didiga «ommaviy madaniyat»da ko‘p uchraydigan mazmunan sayoz, siyqa va jo‘n mahsulotlarning mos kelishi va mavjudligini inkor etib bo‘lmaydi. Jahon taraqqiyoti tajribasi shuni ko‘rsatadiki, texnologik jarayonlar har qanday qudratli bo‘lmasin, hayotni olg‘a boshlaydigan, unga ma‘no-mazmun baxsh etadigan kuch baribir, madaniyat va ma‘naviyat bo‘lib qolaveradi.

Aslida to‘g‘ri ma‘nodagi ommaviy madaniyat ko‘pchilik o‘ylaganidek, zararli tushuncha emas. U, eng avvalo, bir-birimizga «Assalomu alaykum» deya tinchlik tilashimizdan boshlanadi. Xalqimizning ming yillar sinovidan o‘tgan bayramlari, to‘ylari, xalq og‘zaki ijodi, bir so‘z bilan aytganda, omma uchun madaniyatga aylanib ulgurgan barcha qadriyatlar ijobiy ma‘nodagi ommaviy madaniyat namunalari hisoblanadi. «Ommaviy madaniyat» asosini esa «Biz» degan tushuncha emas, «Avval mening o‘zim, keyin boshqalar» degan g‘arbona egotsentrizm g‘oyasi tashkil etadi.

Mustaqil rivojlanish yo‘lini tanlab yangi jamiyat qurayotgan har bir millat uchun axloq va milliy madaniyatni saqlash va yanada rivojlantirish – eng dolzarb va ustuvor vazifadir. Globallashuvning yoshlar tarbiyasiga o‘tkazayotgan salbiy ta‘siri informatsion vositalarning yuksak rivojlanishi natijasida internet, uyali telefon, telekommunikatsiyalar va turli axborot nashrlarining kirib kelishi, bu vositalar orqali taklif etilayotgan «qadriyatlar» ko‘p hollarda yoshlarimizni milliy qadriyatlarimizdan uzoqlashtirib qo‘ymoqda. Boshqacha qilib aytganda, «ildizi yo‘q individ»larning shakllanishiga olib kelmoqda. «Ommaviy madaniyat» turli xil ko‘rinishlarining yoshlar orasida tobora keng tarqalishi asosan kiyinishda, qiziqishlarda, bo‘sh vaqtni o‘tkazishda, didlarning sayozlashuvida, milliy qadriyatlarga munosabatda namoyon bo‘lmoqda. Bular esa behayolik va zo‘ravonlik, milliy qadriyatlarga va ijtimoiy manfaatlarga bepisandlik bilan munosabatda bo‘lish kabi illatlarni keltirib chiqarmoqda.

Bugungi kunda yoshlar orasida taqlidchilik holatlarining kuchayayotganligi kuzatilayapti. Xorijda keng tarqalgan axloqiy va ma‘naviy yurish-turish andozalarining kinofilmlar, moda va turli xil reklamalar orqali yoshlarimizning ongini ma‘lum ma‘noda zaharlayotganini sezish qiyin emas. Natijada, yoshlar o‘rtasida kitob o‘qishdan ko‘ra kompyuter o‘yinlarining oldida vaqtini o‘tkazish, mazmunan sayoz filmlarni tomosha qilish odat tusiga kirib bormoqda.

Umuman olganda, globallashuvning salbiy oqibatlarini, «ommaviy madaniyat» niqobidagi aksilmadaniyat va turli g‘arazli, noxolis axborotlar xurujining ta‘sirini mumkin qadar kamaytirish uchun aholi, ayniqsa, yoshlarning siyosiy ongini, huquqiy, axloqiy, estetik madaniyatini yuksaltirish talab etiladi. Navqiron avlodni milliy va umumbashariy qadriyatlarga, madaniyat durdonalariga bolalikdan boshlab hurmat ruhida tarbiyalash, ularda «ommaviy madaniyat»ga xos ayrim ko‘rinishlarga tanqidiy munosabatni, aksilmadaniyatga, turli buzg‘unchilik g‘oyalar va axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Xozir insoniyat g‘oyat chigal va ziddiyatli zamonda yashayapti. Buning ustiga, ezgu g‘oyalarni turli g‘arazli manfaatlar yo‘lida soxtalashtirishga intiluvchilar tobora ko‘paymoqda. Oqibatda asl maqsadlar niqoblanib, azaliy qarashlarning ma‘nosi atayin chigallashtirilayapti.

Mustaqil O‘zbekistonimizning qisqa tarixiy davri shuni ko‘rsatdiki, vayronkor, buzg‘unchi g‘oyalar birinchi galda yoshlar ongini zaharlashga qaratilgan. Buning oldini olish uchun

⁵² Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. 2-nashr –T.: Ma‘naviyat, 2016, -117 b.

jamiyatimizda, kundalik hayotimizda ta'lim-tarbiyaga, ma'naviy-ma'rifiy ishlarga jiddiy e'tibor qaratishimiz darkor.

G'oyaviy-ma'naviy tahdidlar nimalarda ayon bo'lishini tahlil qilib ko'raylik. Bu tahdid, birinchi galda, tili, dini, e'tiqodidan kat'iy nazar, har qaysi shaxsning tom ma'nodagi ozod inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy olamini izdan chiqarish maqsadini ko'zlaydigan mafkuraviy, g'oyaviy va axborot xurujlari tariqasida yuzaga chiqadi.

Ilmiy tahlillarda g'oyaviy-ma'naviy tahdidlar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- avvalo, insonning erkinligiga daxl qiladi, uni fikriy jihatdan qaram qilishni ko'zlaydi;
- ikkinchidan, insonning ruhiy dunyosini izdan chiqarishga yo'naltirilgan mafkuraviy, g'oyaviy va axborot xurujlari shaklida amalga oshiriladi;
- uchinchidan, turli niqoblar, jozibali shior va g'oyalar pardasi ostiga yashiriladi;
- to'rtinchidan, katta ma'naviy yo'qotishlarga olib keladi, xalqlarning milliy va diniy tomirlariga bolta uradi;
- beshinchidan, yot g'oya va zararli dunyokarashni avvalo beg'ubor yoshlarning ongiga singdirishga qaratiladi;
- oltinchidan, mamlakat xavfsizligi va milliy manfaatlariga tahdid soladi, jamiyatni inqirozga olib keladi.

Ko'rinib turibdiki, g'oyaviy-ma'naviy tahditlar dunyoning barcha mamlakatlari, xalqlari hayotiga daxildor masala sanaladi. Demak, g'oyaviy-ma'naviy tahdid qaysi davlat yoki xalqqa qarshi qaratilishidan qat'iy nazar, butun insoniyatda birdek tashvish va xavotir uyg'otishi kerak.

Dunyo boshdan kechirayotgan globallashuv jarayoni insoniyat uchun katta imkoniyatlar eshigini ochib bermokda. Birok ayrim g'arazli kuchlar shunday ham murakkab bu jarayonni yanada keskinlashtirish, obrazli qilib aytganda, tinik suvni loyqalatib, istagancha baliq tutishga intilmoqda. Jumladan, hamisha zo'ravonlik va gegemonlik hisobidan katta boylik orttirib kelgan kuchlar mana shunday taloto'plardan foydalanib, "ommaviy madaniyat" g'oyasini keng targ'ib etayapti.

Jumladan, bunday kuchlar o'z niyatlarini amalga oshirish yo'lida qurolli vositalardan foydalanibgina qolmasdan, balki demokratiyani yoyish shiori ostida axborot xurjlari orqali harakat qilishmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda axborottelekommunikatsiya texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi ma'lumotlar almashinuvining tezlashishiga olib keldi. Bunda asosan Internet ijtimoiy tarmog'i etakchi rolni o'ynamoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda er yuzida 2,1 mlrd. internetdan foydalanuvchilar bo'lib, uning 44 foizini Osiyo mintaqasida yashovchilar tashkil etar ekan.

Umumiy ko'rsatkichning yarmidan ko'pi 25 yoshgacha bo'lganlardan iborat.

Bunday murakkab zamonda ma'naviyat va ma'rifat masalasi naqadar dolzarb, hal qiluvchi masalaga aylanib borayotganini ko'pchilik hamon teran anglab etgani yo'k. Takror aytish foydadan xoli emaski, agar ma'naviyatni yo'qotsak, o'zimizni va o'zligimizni yo'qotib qo'yishimiz mumkin. Aksincha, ma'naviyatimizni yanada yuksaltirsak, o'zimizning maksadvazifalarimizga etish uchun kuchli va ishonchli madad topa olamiz.

To'g'ri, biz demokratiya davrida yashayapmiz. Jamiyatimizda qiziqish va intilishlarga hurmat bilan qaraladi. Ammo xatarli qiziqish va mayllardan davlat va jamiyat o'zini himoya qilishi lozim. Buning uchun esa, eng avvalo, reklama va ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi davlatimiz qonunlarining talablari qat'iy bajarilishi kerak.

Ayni paytda barchamiz yoshlar dunyoqarashini kengaytirishimiz, imkoniyatlarini rivojlantirishimiz lozim. Masalan, «Ogohlik» iborasining ma'nolarini bugungi zamon sharoitidan kelib chiqib, ancha keng miqyosda tushunishimizga to'g'ri keladi. Ya'ni bugungi ogohlik xalqimiz, ayniqsa, yoshlar dilini, ruhiyatini, aql-idroki va umuman ma'naviyatini diniyaqidaparastlik, jaholatparastliklar xataridan tashqari, ayni paytda, jahonda yuz berayotgan

siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va estetik manfaatlar yo'nalishidagi goh oshkora, goh xufiyona kurashlarning keng miqyosdagi xatarli jihatlaridan, jumladan, «ommaviy madaniyat»ning emiruvchi ta'siridan muhofaza qilishni ham o'z ichiga oladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ayrim siyosiy kuchlar o'z maqsadlarini millatlar manfaatiga yot bo'lgan mafkurali tahdidlar orqali amalga oshirishga qaratishgan. Aslida ularning bu xarakatini buzuqlik, zo'ravonlik g'oyalari boylik orttirish, xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlarini qo'porish, yo'q qilishga urinish deb baholash lozim.

Kelajak egalarini xalqimiz ma'naviyatiga yot "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'siridan himoya qilish bugungi kunning eng dolzarb vazifasi bo'lib qolmoqda. Buning uchun avvalo ularni milliy tiklanish g'oyasi, milliy madaniyat va qadriyatlarni e'zozlash ruhida tarbiyalash, yoshlarni axborot-resurs markazlariga, madaniy-tarixiy yodgorlik maskanlariga, teatr va ko'rgazmalarga jalb etish, barkamol avlodni bilimli, sog'lom va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatga ega insonlar qilib tarbiyalash, ular ongi va qalbida mafkuraviy immunitetni shakllantirishda barcha birday mas'uliyatni his etmog'i lozim.

Binobarin, o'sib kelayotgan avlodni shunday tarbiyalashimiz kerakki, ular axborot makoniga kirganda, faqat o'zi uchun zarur va foydali narsani olsin, internetdan foydalanish madaniyatini o'rgansin. Bu masalada internet tizimi orqali mentalitetimizga mutlaqo yot mafkura va dunyoqarashni yoshlarimiz qalbi va ongiga singdirishga urinayotganlar borligi, ayniqsa, xatarli ekanligidan barchamizni ogoh bo'lishimiz zarur. Zero, biz bu masalada hamisha ogoh va hushyor turmasak, mafkuraviy xurujlar, avvalo, yoshlarning ongini zaharlashi, "ommaviy madaniyat" deb atalayotgan illat xalqimizning ma'naviy boyligi bo'lgan odob-axloq, ibo, ornomus, iroda, sharm-hayo, iffat-andisha kabi fazilatlarimizni nursizlantirib, ko'p mingyillik milliy qadriyatlarimizga putur etkazishimiz mumkin.

Ko'p narsa internetning boy axborot resurslaridan kim va qanday maqsadlarda foydalanishiga bog'liq. Shu o'rinda har qanday axborot xurujlari, "ommaviy madaniyat" xavfidan himoyalangan saytlar, ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'siridan butun millat, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodni himoya qilish har bir ongli insonning muqaddas burchi ekanini ta'kidlash lozim.

O'zbekiston erishayotgan, dunyo tan olayotgan ulkan yutuqlarning negizida turgan asosiy omil insondir. Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir", degan so'zlari bir asr avval millatimiz uchun qanchalik muhim va dolzarblik kasb etgan bo'lsa, hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin o'rnini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan darajada ulkan ziyon etkazishi mumkin. Bu tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o'ylangan, ilmiy asosda puxta tashkil etilgan, uzluksiz olib boriladigan ma'naviy tarbiya bilan javob berish talab etiladi. Davr shiddatiga hamohang qadam tashlayotgan yoshlarimiz milliy ma'naviyatimiz asosida tarbiya topsa, odob-axloq tushunchalarini rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g'oyalar ularga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi.

“YOshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan, zo'ravonlik, hayosizlik va shafqatsizlikni targ'ib qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunda esa behayolik, shafqatsizlik va zo'ravonlik haqida hikoya qiluvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta'sir ko'rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etishlariga sabab bo'luvchi adabiyotlarni tarqatish, filmlarni namoyish etishning taqiqlanishi belgilab qo'yilgan. Milliy qonunchilik tajribasida bu kabi normalarning aks etishi yoshlarimizda turli axborot xurujlari, jamiyatimizga yot bo'lgan g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishda, farzandlarimizni xalqimizning milliy ma'naviyati, oilalarimizda amal qilinadigan

tartib-qoidalarga, ota-onaga hurmat ruhi asosida tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir. Zero, har qaysi davlatning yoshlari uning ertangi kunini, taqdirini belgilovchi kuch bo‘lib sanaladi.

Bioetika – amaliy etikaning nazariy asosi.

Bioetika:

Bioetika – tibbiyot va biologiyaning rivojlanishiga qarab yuzaga keladigan axloqiy, huquqiy va ijtimoiy muammolarni o‘rganuvchi bilim sohasi. Boshqacha qilib aytganda, bu borliqqa axloqiy munosabat mezonlari to‘g‘risidagi fan, jamiyat manfaatlarini ilm-fan tajovuzidan himoya qiluvchi institut, shuningdek tibbiyot sohasidagi axloqiy muammolarni hal qilish metodologiyasidir. Bioetikaning asosiy maqsadi – insonni uning hayoti va sog‘lig‘iga tibbiyot va biologiyaning salbiy ta‘siridan himoya qilish. «Bioetika» atamasini amerikalik mashhur onkolog vrach, olim va insonparvar Van Ranseler Potter (1911-2001) ilmiy muomalaga kiritdi.

Bioetika:

Bioetika – bu amaliy etikaning yo‘nalishi bo‘lib, uning bosh maqsadi tug‘ilmoq, hayot va o‘lim, insoniyatning kelajagini davom ettirish kabi masalalarga fanning aralashuvini tahlil qilish, oqibatlarini baholash va ushbu jarayonlarning axloqiy qoidalarini ishlab chiqishdan iboratdir. Bioetika hozirgi zamon amaliy etikasining muhim yo‘nalishlaridan biri-inson hayotining eng oliy axloqiy qadriyat sifatida qaraydi. SHu bilan birga, inson hayotini saqlab qolish muammosini yaxshilik va yomonlikni farqlashning muhim mezoni, deb hisoblaydi. Hozirgi zamon fanida Bioetika etika tirik mavjudotlar, shu bilan birga, insonga ham bo‘lgan munosabatlarning axloqiy regulyativi, deb qaraladi. Bioetika maqsadlaridan biri – shaxsni turli holatlarga solish imkoniyatlarini yaratuvchi, inson xatti-xarakati, ruhiyatini o‘zgartirish mumkin bo‘lgan, uning ustidan o‘tkazilayotgan xilma-xil tadqiqotlarni cheklash mezonlarini ishlab chiqadi. Bioetika muammolarini ishlab chiqishda faylasuflar, huquqshunoslar sotsiologlar, tibbiyot xodimlari va sotsial axloqshunoslar qatnashmoqda Bioetika ilgari surayotgan muammolar juda muhim va rang-barang, ularni tahlildan o‘tkazish darajasi juda katta, bioetika ko‘rib chiqib hal qilayotgan masalalar juda muhim va dolzarbdir. Har qanday mamlakatda transplantatsiya, reanimatsiya, sun‘iy urug‘lantirish, irsiy davolash zamonaviy vrach amaliyotining muayyan yo‘nalishlari hisoblanadi. Ilmiy bilim, shu jumladan tibbiy-biologik bilimlar ham universaldir. Bioetika bugungi kunda vrach va patsient munosabatlarining axloqiy jihatlariga, evtanaziya va o‘limni aniqlash, inson a‘zolarini transplantatsiya qilish, homila tushirish (abort), klonlash, irsiy injeneriya masalalariga alohida e‘tiborni qaratmoqda. Akademik doiralarda «bioetika» tushunchasi aynan shu ma‘noda qo‘llaniladi. Bunda tibbiyot etikasi tushunchasi o‘rniga ko‘pincha deontologiya tushunchasi qo‘llaniladi. Deontologiya etikaning burch va majburiyat muammolarini o‘rganuvchi bo‘limidir (atamani ingliz faylasufi Ieremiya Bentam XIX asrda muomalaga kiritgan). Bioetika amaliy etikaning eng rivojlangan va ishlab chiqilgan qismiga aylandi. Boz ustiga, bioetika mustaqil fan maqomiga ham da‘vogar bo‘lishi mumkin, degan fikr ham ilgari surilmoqda.

Evtonaziya: evtonaziya Totli o‘lim - evtonaziya ham bioetikaning global muammolaridan. Bedavo dardga chalingan bemorni azob-uqubatlardan qutqarish uchun uning o‘limini qasddan tezlashtirishga munosabat yuzasidan tibbiyotchilar, yuristlar, sotsiologlar va psixologlar orasida ko‘p sonli bahslar hanuz davom etmoqda. Ingliz faylasufi Frensis Bekon (1561-1626) engil og‘riqsiz o‘limni belgilash uchun «evtanaziya» (yunoncha «euthanasia», «eu» – yaxshi, «thanatos» - o‘lim), ya‘ni azob-uqubatlarsiz, yaxshi, oson va engil o‘lim atamasini muomalaga kiritdi. Xudoning ixtiyoridan tashqari o‘limni ixtiyor qilgan kishi diniy nuqtai nazardan kechirilmaydi. Chunki sabrli, bardoshli bo‘lish, bu dunyo iztiroblarini toqat bilan boshdan kechirish insonning vazifasi. Lekin axloqiy jihatdan olib qaraganda masala qanday baholanadi? Deylik, muayyan inson, bemor o‘z kunlarining sanoqli ekanini, lekin bu kunlar sanoqsiz azoblar ichida o‘tishini biladi. Shu bois u o‘zining ana shu holatini juda yaxshi biladigan boshqa bir odam - shifokordan azoblariga chek qo‘yishni so‘raydi. Uning iltimosi va shu iltimosni bajarish uchun

shifokor tomonidan qilingan xatti-harakatlarni qanday, baholash mumkin? Bu xatti - harakatlarni insoniylik va insonparvarlikning ko‘rinishi sifatida qabul qilish to‘g‘rimi? Umuman, evtanaziya axloqiylikmi, axloqsizlikmi? u muammo ham umumjahoniy miqyosda o‘z echimini kutmoqda. Chunki tabobat borasidagi so‘nggi tadqiqotlar inson o‘limi bir lahzada ro‘y bermasligini, yurak urishi va nafas olish to‘xtaganda ham, miya o‘lmasa insonni o‘ldi deyish mumkin emasligini isbotlab berdi. Hozirgi kunda toki miya o‘lmas ekan, ko‘pgina ichki a‘zolarining yangi tabobat texnikasi vositasida ishlashda davom etishini ta‘minlash va shu orqali ancha muddatgacha insonda tiriklikning minimal darajasini saqlab turish mumkin. Demak, yurak yoki buyrakning ko‘chirib o‘tkazilishi hali o‘lmagan odamning minimal tiriklikka bo‘lgan huquqini poymol qilishdir. Amerikalik neyroxirurg Pol Pirson o‘z tajribalariga asoslanib, yurak ko‘chirib o‘tkazilganda ruh ham ko‘chib o‘tadi, degan fikrni bildiradi. Chunonchi, 19 yashar qizning yuragi 40 yashar erkakka o‘tkazilganida, yigitning fe‘l-atvorida juda katta o‘zgarishlar ro‘y bergan. Yoki 20 yashar qizning yuragi va o‘pkasi 36 yashar ayolga o‘tkazilganda ham shunga o‘xshash o‘zgarishlar yuzaga kelgan: ayolning kulishigacha o‘zgarib ketgan. Axloqiy nuqtai nazardan buni qanday izohlash mumkin?

KLONLASHTIRISH Klonlashtirish atamasi ingliz tilidagi “clone”, “cloning” so‘zlaridan kelib chiqqan va hozirgi kunga kelib o‘z yozilishi, o‘qilishini biroz o‘zgartirgan. Ingliz tilida bu so‘z biologik termin sifatida yuz yillar oldin qo‘llana boshlagan. Biroq shu qisqa vaqt ichida o‘z ma‘nosini bir necha marta o‘zgartirishga ulguragan. Dastlab klon so‘zi vegetativ yo‘l bilan, ya‘ni bir o‘simlik urug‘idan olingan o‘simliklar guruhiga nisbatan qo‘llangan. Oradan bir muncha vaqt o‘tib, ushbu atama bakteriyalar turkumini etishtirishga nisbatan ishlatilgan.

TRANSPLANTATSIYA Transplantatsiya–odam va xayvonlarda potologik jarayon natijasida shikastlangan yoki olib tashlangan to‘qimalar va organlar o‘rniga sog‘lomini ko‘chirib o‘tkazish. Xirurgiya usuli sifatida qadimdan ma‘lum. Teri, muskul, nervla, ko‘zning muguz pardasi, yog‘, va suyak to‘qimasi, yurak, buyrak va boshqa organlar ko‘chirib o‘tkaziladi. Qon quyishtransplantatsiyaning alohida turidir. Ko‘chirib o‘tkaziladigan to‘qima yoki organ kimdan olinganiga qarab quyidagicha farqlanadi.

Ksenotransplantatsiya:

Ksenotransplantatsiya Transpantalogiya- yashashga umid qolmagan, dori darmonlar foyda bermagan insonlarning so‘ngi chorasi va yashash uchun so‘nggi umidi bo‘lib qolmoqda. Lekin ushbu muammo bugungi kunda ko‘pgina jinoiy holatlarga ya‘ni, inson organlarini sotish jarayonlariga olib kelmoqda. Ushbu muammolarni echimining bugungi kundagi yangi yo‘llardan biri hioblangan, insonga xayvonning organi yoki to‘qimasini ko‘chirib o‘tish – ya‘ni ksenotransplantatsiyadir.

ABORT Amaliy etikaning anchadan buyon ko‘pchilikka ma‘lum muammosi, bu – abort. To‘rtinchi haftaning oxirida homilada dastlabki yurak urishi paydo bo‘ladi. Sakkizinchi haftaning oxirida esa miya tanasining elektrofiziologik faolligini kuzatish mumkin. Demak, har qanday abort, xalq ta‘biri bilan aytganda, jonlini jonsiz qilish, tirik organizmni tiriklikka bo‘lgan huquqdan mahrum etishdir. Xo‘sh, abortni axloqsizlik tarzida baholash kerakmi yo yo‘qmi?

O‘lim jazosi:

O‘lim jazosi O‘lim, ma‘lumki, axloqiy nuqtai nazardan eng ulkan yovuzlik hisoblanadi. Ayniqsa majburiy o‘lim. SHunga ko‘ra, o‘lim jazosining huquqiy jihatdan qo‘llanilishi mohiyatan jamiyat tomonidan yovuzlikka qarshi yovuzlik bilan javob berishdir. Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom islom dinining uch asosi borligini aytib, ularning birinchisi odam o‘ldirmaslik ekanini ta‘kidlaydilar. Buni imom G‘azzoliy «Mukoshafaat ul – qulub»da shunday keltiradi: «Termiziy va boshqa hadislar rivoyat qiladilar: Rasulluloh buyurdilarki: ... Islomning uch dasturi bor. Dinning tamoyili shular ustiga qurilgan. Kim shu asoslardan tashqari chiqsa, bu bilan u kofirlikka qarab ketgan bo‘ladi: 1 – Qonni (odam o‘ldirishni) halol hisoblasa; 2 – Ollodan

boshqa iloh yo‘qligiga guvohlik (shahodat) bermasa; 3 – Farz bo‘lgan namozni va ro‘zani inkor etsa».

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.:“O‘zbekiston”, 2014. 24 b
2. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli [Farmoni](#).
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.
7. Karimov I.A. Asarlar to‘plami. 1-24 jildlar.- T.: O‘zbekiston 1996-2016.
8. Karimov I. A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. 2 nashr –T.:Ma‘naviyat, 2016 176-b.
9. Abdulla Sher. Axloqshunoslik.Darslik. –T.: O‘FMJ, 2010. 328 b.
10. Abdulla Sher. Estetika. Darslik. – T.: O‘zbekiston, 2016. 192 b.
11. Гусейнов А.А., Апресян Р.Г. Этика. Учебник. – М.: Гардарики, 2013. 472 с.
12. Abu Nasr Forobiy.Fozil odamlar shahri – T.:Yangi asr avlodi,2016.318b.

16-MAVZU. ESTETIKA: ESTETIKANING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Reja:

1. “Estetika” fanining obekti va falsafiy mohiyati.
2. “Estetika” haqidagi qarashlar tarixi.
3. Estetika kategoriyalarining an’anaviy va zamonaviy tasnifi. Go‘zallik va uning muqobillari.
4. Ulug‘vorlik kategoriyasining falsafiy mohiyati. Fojeaviylik (tragediya) kategoriyasi.
5. Kulgililik kategoriyasi. Estetika kategoriyalarining o‘zaro aloqadorligi.

Tayanch tushunchalar: Estetika, «Go‘zallik falsafasi», estetik ehtiyoj, nafosat, san’at, estetika amaliyoti, Zardushtiylik, Pifagor, Geraklit, Suqrot, Aflotun, Arastu, Tit, Lukretsiy Kar, G‘arb O‘rta asrlar estetikasi, Uyg‘onish davri, klassitsizm, nemis klassik falsafasi, O‘rta Osiyo Uyg‘onish davri estetikasi, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, ekzistensializm, strukturalizm.

Estetika so‘zi yunoncha «estezis» so‘zidan olingan bo‘lib, «sezish», «his qilish qobiliyati» ma‘nosini bildiradi. Bu fan – insonning voqelikka estetik munosabatlari va insoniyat badiiy rivojining umumiy qonun-qoidalari haqidagi fan. Uzoq vaqt bu fan «Go‘zallik falsafasi» deb ta’riflab kelingan. Lekin hozirgi davrda „Estetika“ fanini bunday ta’riflab bo‘lmaydi, chunki «go‘zallik»ning o‘zi „Estetika“ga tegishli tushunchalardan biriga aylanib qoldi. Birinchi marta estetika so‘zini fanning nomi sifatida olmon faylasufi Aleksandr Baumgarten (1714-1762) “Poetika” asarining ba’zi bir masalalari to‘g‘risida falsafiy mulohazalar” kitobida ishlatgan (1735 yil). Lekin bu bilan Baumgartenni „Estetika“ fanining asoschisi deb bo‘lmaydi, chunki estetika nazariyalari qadim zamonlardayoq „Falsafa” fani doirasida o‘rganilgan.

Dastlabki estetik ta’limotlar quldorlik jamiyati davrida – Sharq mamlakatlari (Misr, Babil, Hindiston, Xitoy, Eron va Turon)da vujudga kelib, qadimgi Yunonistonda, ayniqsa, Aflotun, Arastu, Suqrot asarlarida, qadimgi Rimda Lukretsiy Kar, Goratsiy va boshqalarning tadqiqotlarida rivojlantirildi. XVIII asrning ikkinchi yarmidan mustaqil fan sifatida shakllana boshladi. „Estetika“ so‘zi ko‘pincha narsa va hodisalarning rang-tusi va shaklidagi mukammallik, mutanosiblik, latofat ma’nolari majmui sifatida ham qo‘llaniladi. Mazkur tushuncha kishilarning yaxshi fe‘l-atvori, muomalasi, nutqi, did bilan kiyinishini anglatadi yoki tabiatdagi go‘zallikni ham bildiradi.

Estetika so‘zi ba’zan «nafosat» tushunchasi bilan baravar ishlatiladi. San’atda ham estetika bir qancha ma’nolarda qo‘llaniladi. Voqelikdagi tabiatan nozik narsalar va hodisalar in’ikosi – badiiy adabiyotda nazm, tasviriy san’atda – manzara, miniatyura va boshqalar fikrimizga yorqin dalildir. Ikkinchidan, san’atda nima in’ikos ettirilishidan qat’i nazar, niho yatda nozik ifoda usullari qo‘llanilishi, ifoda usulining bag‘oyat nafisligi – nozik raqs va boshqalar diqqatga sazovordir. “Estetika” atamasi o‘rnini bevosita va bilvosita “Nafosat” atamasi bosa oladi. Ko‘pchilik “estetika” atamasiga o‘rgangani uchun “nafosat” atamasini chuqur his qilolmaydi.

Estetika fan sifatida voqelikning go‘zallik asosida in’ikos etishini, inson amaliy faoliyatining hamma sohalarida go‘zallik va xunuklik tuyg‘ularini, ayniqsa, badiiy ijodning umumiy qonunlarini o‘rganadi. Biz voqelikdagi go‘zallik va xunuklikni turlicha tushunamiz. Estetik qarashlarimiz, tasavvurlarimiz, baholarimiz nisbiy bo‘lib, ularni xolis baholash estetikaning vazifasidir. Mazkur fanning asosiy tushunchasi – go‘zallik zohiriy va boti-niy ma’noga ega, voqea-hodisa, buyum zohiran go‘zal, botinan xunuk bo‘lsa, bu erda tom ma’nodagi go‘zallik deb bo‘lmaydi. Shu bois donishmandlar tashqi va ichki go‘zallik mutanosibligiga alohida ahamiyat berganlar.

Go‘zallikka intilish tabiiy ehtiyojdir. Bu ehtiyoj tarbiya vo-sitasida namoyon bo‘ladi. Go‘zallik qurshovida yashagan inson bilan xunuklik muhitida o‘sgan odam o‘rtasida katta farq bor. Go‘zallik tarbiyasi insonni ma‘naviy jihatdan kamolotga etaklaydi, estetik his-tuyg‘uni taraqqiy ettiradi. Estetik his-tuyg‘u insonni qurshab turgan muhitdagi go‘zallik va xunuklikni, ulug‘vorlik va tubanlikni, fojiaaviylik va kulgililikni idrok etish va baholash qobiliyatidir. Estetik ehtiyoj ezgulikka, go‘zallikka intilishdir. Bu ehtiyoj mehnat, san‘at, axloqiy munosabatlardagi go‘zallikni taqozo etadi. Estetika o‘z mohiyatiga ko‘ra, din, fan, axloq, huquq tamoyillaridan farq qiluvchi o‘ziga xos qonunlar asosida rivojlanib, unda o‘tmish madaniy merosi, hozirgi kun tarbiyasi, kelajak bashoratlari uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi, fan voqea-hodisalarning qonuniyatlarini voqelikka muvofiq keladigan tushunchalar va qoidalar orqali ochib bersa, estetika voqea-hodisalarni xayol, to‘qima obrazlar vositasida ifodalaydi. Ulardagi timsollar ham o‘z tuzilishiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Masalan, musavvirlik, haykaltaroshlik, teatr va boshqa san‘at turlarida voqea-hodisalar bevosita tasvirla-nadi. Musiqa, raqs, me‘morchilikda san‘atkorning voqea-hodisalar va narsalardan tug‘ilgan g‘oyaviy-hissiy holati ifodalanadi. Bu jihatdan estetika san‘atga yaqin turadi. Estetika fani falsafiy bilimlar majmuida o‘ziga xos alohida ahamiyatga molik bo‘lib, u bir tomondan insonning atrof-muhitga, voqelikka estetik munosabati doirasidagi olamni o‘zgartirish jarayonidagi faoliyatini namoyon etadi. Ikkinchidan, san‘atga alohida ahamiyat beradi. Chunki ayni shu erda insonning nafosat olamini o‘zlashtirishi eng yuqori darajaga ko‘tariladi.

Estetika fanining ikki tomoni mutanosibliigi nihoyat darajada murakkab tizimga ega bo‘lib, uni soddalashtirib, qolipga solishga urinishlar ko‘p hollarda kulgili vaziyatlarga olib keladi. Uning bir tomonini bo‘rttirib, ikkinchi tomonini unga bo‘ysundirib qo‘yish ham estetika fani mohiyatini buzilishiga olib keladi. Masalan, atrof-muhitni go‘zallik mezoni bilan baholanishini bo‘rttirib yuborish estetikani faqat go‘zallik falsafiy qolipiga zo‘rlab sig‘dirishga, inson badiiy faoliyati sohasini esa faqat san‘at falsafasi darajasiga tushirib yuborishga sabab bo‘ladi. Estetikaning fan, keyinchalik esa o‘quv darsi sifatida shakllanish jarayonlarida uni bir qator mustaqil bilim sohalariga bo‘lib yuborishlar, ya‘ni estetikani «estetik qadriyatlar nazariyasi», «estetik idrok etish nazariyasi» va «umumiy san‘at nazariyasi» sohalariga ajratib o‘rganish hamda o‘qitish maqsadga muvofiq deb ko‘rsatilgan edi. Insonning estetik faoliyati badiiy faoliyati bilan, aksincha uning badiiy faoliyati estetik faoliyati bilan bab-baravar degan aqida tarixiy taraqqiyot tajribasida o‘zini oqlamadi. Aslida bu ikki nisbiy mustaqil maqomga ega bo‘lgan inson faoliyati sohalari o‘zaro shu qadar chirmashib ketganki, ularni bir-birisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Insonning estetik faolligi jarayonida tabiat va jamiyat qad-riyatlarini munosabatlari tizimidagi estetik xususiyatlar (go‘zallik va xunuklik, ulug‘vorlik va tubanlik, fojialilik va kulgililik) qonuniyatlari namoyon bo‘ladi. Insonning estetik faoliyati sifati va darajasi esa estetik qadriyatlar bilan estetik baholash qobiliyati, estetik idrok etish bilan estetik amaliyot o‘rtalaridagi uzviy aloqadorlik madaniyatning barcha sohalaridagi badiiy va estetik o‘zaro bog‘liq mezonlari bilan o‘lchanadi.

Estetikaning ikkinchi tarkibiy qismi bo‘lgan san‘atni yaxlit birlikda mushohada etib o‘rganish, uning faoliyati boshqa turlari qatorida tizimi va amal qilish xususiyatlarini anglab, badiiy ijod, uning samarasi bo‘lgan san‘at asarlari bilan ularni odamlar idrok qilishining uzviy bog‘liqligini ilg‘ab olish, badiiy faoliyat aniq shakllarini yaratuvchi qonunlarini o‘rganish faoliyat badiiy taraqqiyoti qonunlarini san‘at ravnaqining istiqbollari ko‘ra bilish qobiliyatining vujudga kelishi jarayonlarini tadqiq etish estetika fanining eng muhim mavzusi hisoblanadi. Estetika fani hech vaqt faqat atrof-voqelikni estetik va badiiy idrok etish qonuniyatlarini o‘rganish bilan chegaralanib qolmay, u tadqiq va tahlil ishlarini istiqbol maqsad-manfaatlariga yo‘naltirib turgan.

Estetikaning istiqbolga mo'ljallanganligi shu bilan izohlanadiki, u voqelikni nafosat nuqtai nazaridan baholashda, badiiy mezon o'lovlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqib, amaliy faoliyatga tatbiq etishda o'z ifodasini topadi. Insonning estetik tafakkuri shakllanib, rivojlanib va takomillashib borgan sari uning ijtimoiy-ruhiy, mafkuraviy-g'oyaviy, siyosiy ma'naviy intilishlari ham tobora tiniqlashib boradi. Chunki estetik tafakkur insonning maqsadmanfaatlarini estetik-badiiy vositalarda nazariy asoslab beradi, estetik madaniyat va badiiy amaliyot asoslarini o'rganish, tahlil qilish bilan boyitadi, estetik nazariyalarning falsafiy asoslarini ochib beradi, voqelikni estetik in'ikos etish jarayonlarini ko'rsatib beradi. SHunday qilib: estetika fani va o'quv darsi voqelikni estetik mushohada qilish va badiiy ijod jarayonlarining uzviy mutanosibligini namoyon qiladi va ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, estetika – bu nafosat olami, san'at va badiiy ijod jarayonlari qonuniyatlarini his-tuyg'u, sezish, idrok qilish vositalari orqali o'rganadigan va o'rgatadigan fandır.

Estetika mavzui bilan bevosita aloqador bo'lgan «estetik mu-nosabatlar», «borliqni estetik o'zlashtirish», «estetik bilish», «estetik tafakkur», «estetik faoliyat» kabi o'zaro yaqin, ma'nodosh bir qator tushunchalar bor. Ular orasidagi «borliqni estetik o'zlashtirish» tushunchasi qolgan «estetik munosabat», «estetik bilish», «estetik tafakkur», «estetik faoliyat» tushunchalarini ham qamrab oladi. Shu bois estetika fani insoniyat tomonidan borliqni estetik o'zlashtirish mohiyati va qonuniyatlarini o'rganadi, desak to'g'riroq bo'ladi. Borliqni estetik o'zlashtirish esa san'atning asosiy mazmunini tashkil etadi. Shu bois estetika fani san'atning asosiy uslubiy-metodologik zamini bo'lib xizmat qiladi.

Estetikaning borliqni estetik o'zlashtirish mohiyati va qonuniyatlari haqidagi fan sifatidagi o'ziga xos bir qator fazilatlari ham bor. Estetika fani inson tevarak-atrofidagi moddiy va ma'naviy boyliklarining barchasini qamrab olishga, inson faoliyatining barcha jabhalaridagi nafosat olamini san'at barcha turlari vositasida chuqur o'rganishga da'vat etadi. San'at esa estetik boyliklarni yaratish manbaidir. San'atni ilmiy jihatdan tahlil va tadqiq etish barobarida esa estetik faoliyatning barcha ko'rinishlariga ilmiy jihatdan yondoshish uchun zamin yaratiladi. SHu bois san'at va badiiy ijodning tabiati va mohiyatini o'rganish, qonuniyatlarini o'zlashtirish go'zallik nafosat (estetika)ning barcha sifat darajalarini o'rganish uchun kalit vazifasini o'taydi. Bu jabhalarga san'atning umumiy nazariyasi, estetika fanining xususiy-uslubiy asoslariga oid tadqiqotlar, moddiy boyliklar yaratish estetikasi, muhandislik-loyihachilik faoliyati, ilmiytadqiqot ishlari sohasida estetik jihatlar, tabiat estetikasi, insoniy munosabatlar estetikasi, kundalik turmush va odob estetikasi kabi bir qancha sohalarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Hozir jahon estetika fanida bu jabhalarning har biri estetika tarkibiga kiruvchi mustaqil maxsus o'quv kurslari darajasiga ko'tarilgan. Estetika fani esa bu maxsus o'quv kurslarning uslubiy metodologik asosini tashkil etadi.

Estetika fani falsafiy bilimlar tizimida o'ziga xos o'rin egallaydi. U, eng avvalo, falsafiy bo'lib, uning nazariy va uslubiy asoslarini falsafiy tafakkur nazariyasi va tarixi tashkil qiladi. Masalan, voqelikni estetik va badiiy o'zlashtirish jarayonlarini o'rganishda xolislik, tarixiy yondoshish, bilish jarayonida amaliy tajribaning ahamiyati kabi uslubiy asosni qo'llash ijobiy samaralarga olib kelishi mumkin. Bilish nazariyasi vositasida san'atning bilish tabiati, voqelikning badiiy-ramziy ifodalash bilan ilmiy tadqiq etish o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va o'zaro farqlar, voqelikni badiiy vositalar orqali tasvirlashning ijodiy tabiati, san'at asarlaridagi shartlilik va badiiy haqiqat kabi estetika fanining juda ko'p nazariy hamda uslubiy asoslari muammolarini echish, ularga javob izlab topish mumkin.

Bilish nazariyasining boshqa aqidalari – ijtimoiy ongning nisbiy mustaqilligi, ma'naviy hayot xilma-xil shakllarining o'zaro bir-biriga ta'sir o'tkazishi, iqtisodiy zamin bilan ijtimoiy ong

turli shakllari o'rtasidagi bilvosita aloqadorlik va bog'liqlik kabi masalalar ham estetik ong, badiiy ijod va san'at tabiati hamda xu-susiyatlarini ilmiy tushunishga yordam beradi. Ayni mahalda estetika fani mustaqil bilim sohasini tashkil etgan holda u falsafaning ravnaq topib borishiga ham o'zining hissasini qo'shadi. Masalan, bilish nazariyasining yanada rivojlanib, mazmunan boyib borishida badiiy bilish ham muhim o'rni tutadi. Bilish nazariyasi, badiiy madaniyat qadriyatlari, voqelikka estetik mu-nosabat, estetik tushunchalar, ayniqsa, ijtimoiy ong, uning nisbiy mustaqilligi haqidagi fikr-mulohazalar ham ko'p jihatdan san'at bilan bog'liqdir.

Estetika fani psixologiya fani bilan ham chambarchas bog'liq. Buni estetik tafakkur taraqqiyotining barcha bosqichlarida kuzatamiz. Bu yaqinlikning asosi shundaki, voqelikka estetik munosabatning barcha tomonlari estetik did yoki estetik his-tuyg'u, badiiy ijod yoki badiiy idrok qilish jarayonlarining hammasi ruhiyat mezonini bilan o'lchanadi. Chunki estetika muayyan darajada insonning ruhiy, his-tuyg'u holatini ifodalaydi.

Psixologiya fani estetik munosabatning barcha tomonlarini, jumladan, badiiy ijod va idrok jarayonlarini amaliy va nazariy jihatdan tadqiq etadi. Ayni mahalda estetika fani inson ruhiy hayotining eng murakkab va nozik tomonlarini qamrab oladi. Estetikaning tarkibiy qismlarini psixologiya fanining erishgan yutuqlari va xulosalaridan keng foydalanmasdan turib tasavvur etib bo'lmaydi. Ayni paytda shuni ham unutmaslik kerakki, san'atning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda psixologiya fanining ahamiyati qanchalik katta bo'lmasin, u hech vaqt estetika fanining o'rnini bosa olmaydi. Zero, o'tmishda va hozirda voqelikka estetik munosabatning butun bir sohasiga psixologiya aqidalarini bosh mezon qilib olib, estetikani mustaqil fan sifatida chetga surib qo'yishga moyillik seziladi.

Estetika fanining hozirgi davrga xos xususiyatlaridan biri shuki, bu sohaga kibernetika, semiotika (belgilar tizimlarini qiyo-siy o'rganish bilan shug'ullanuvchi bilim sohasi) va matematika kabi fanlarning usul va vositalari ham izchil kirib o'rnashayapti.

Estetika san'at va badiiy faoliyat turli shakl ko'rinishlarini o'rganadigan bilim sohalari uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qilarkan, ayni mahalda u adabiyotshunoslik, musiqashunoslik, teatrshunoslik, axloqshunoslik kabi fanlar bilan hamkorlik qilish jarayonida rivojlanib boradi. Bu hamkorlik eng avvalo mazkur fanlarning ham san'at umumiy nazariyasiga amal qilishida ko'rinadi. Masalan, san'-atning xususiy nazariyasi adabiyot, musiqa, tasviriy san'at va boshqa ijod sohaslarining xususiyatlarini tadqiq etsa, san'atning umumiy nazariyasi san'atning barcha turlari, badiiy ijod barcha sohalari amal qiladigan qonuniyatlarning umumiy belgilarini o'rganadi. Lekin san'atning umumiy belgilari sof holda mavjud bo'lmasligi, ular ayrim san'at turlari xususiyatlari orqali ifodalanishini inobatga olib aytish mumkinki, estetika o'zining umumiy xulosalarini ishlab chiqishda san'atshunoslikning alohida-alohida bilim sohalari erishgan ilmiy ma'lumotlarga tayanadi.

Estetika san'atshunoslik bilim sohalari uchun boshlang'ich na-zariy va uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi. Estetikasiz san'atshunoslik bo'la olmaydi, ya'ni u ayrim voqea-hodisalar sharhi bilan shug'ullanishga majbur bo'lib qoladi. Shuni e'tiborga olish kerakki, Estetika xususiy san'atshunoslikning umumiy qonuniyatlari, eng av-valo, nafosat tabiati va estetik timsol qonuniyatlarini o'zida namoyon qiladi.

Estetikaning amaliyot uchun ahamiyati nimada? U voqelikka qanday ta'sir o'tkazadi? Estetika ijtimoiy bunyodkorlik jabhasida qay tarzda ishtirok etadi? Bu savollarga javob berish ham estetika fani mavzusidir. Estetik nazariya san'at va badiiy ijod jarayoniga, badiiy madaniyatning barcha sohaslariga amaliy jihatdan kuchli ta'sir o'tkazadi.

Ilgarigi davrlarda Yevropadagi estetika nazariyalarida belgilab qo'yilgan estetik me'yor bilan uning burch-vazifalarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish odat tusini olgan edi. Masalan,

klassitsizm tarafdorlari estetik burchni barcha ijodkorlar amal qiladigan aqidalarda ko'radilar. Pozitivizm tarafdorlari esa estetika fani doirasini badiiy jarayonlarni tushuntirish va sharhlash bilan belgiladilar. Hozirgi zamon estetika nazariyachilari bunday bir yoqlama yondashishni qabul qilmagan holda «Estetika fanining asosiy burchi va vazifasi san'atning vujudga kelishi, rivojlanishi va amal qilish qonuniyatlarini tahlil qilishdir», degan xulosani ilgari suradilar. Muammo shundaki, mazkur qonunlar mohiyati va tabiati ochib berilgandan so'ng va nazariy xulosalar bayon etilgandan so'ng oldindan belgilangan me'yor qolipiga aylanib, san'atning joziba va sehr kuchini yo'qotib qo'yish havfi tug'iladi.

Estetika amaliyoti adabiy-badiiy tanqidda yaqqol namoyon bo'ladi. Badiiy tanqid bilan estetik nazariya o'rtasida azaliy uzviy bog'liqlik mavjuddir. Bu bog'liqlikni «tanqid – bu harakatdagi estetikadir» degan ibora mazmunida ham ko'ramiz. Munaqqid san'at asarlarini baholash va sharhlashda xolis estetik aqidalarga suyanadi va bu bilan estetikaning ijtimoiy hayotdagi o'rnini mustahkamlaydi.

Adabiy-badiiy tanqid – bu estetika fani bilan san'at amaliyo-ti o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ramzidir. Estetik nazariya san'atkor dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Badiiy faoliyat qonunlarini bilish, san'at tabiatini tushunish, uning ijtimoiy hayotdagi o'rnini anglash haqiqiy iste'dod o'rnini qoplay olmaydi. Ammo bu ikki qanotning yaxlit namoyon bo'lishi iste'dodning estetik nazariya bilan qurollanishi, ularning qo'shilib amal qilishi natijasida ijtimoiy hayot muhtoj bo'lgan va kutib yotgan estetik mo'jizalar yaratiladi, albatta.

Estetika fani san'atdan bahramand bo'luvchilar – tomoshabin, kitobxon, tinglovchi uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Ular san'at haqida qancha ko'p bilsalar, san'at mohiyati va burch-vazifalari haqida qanchalik chuqur va haqqoniy tasavvurlarga ega bo'lsalar, ularda san'at bilan doimiy muloqotda bo'lishga intilish kayfiyati shunchalik kuchli bo'ladi. Estetika fani san'at haqida faqat bilimlar beribgina qolmay, san'atga qiziqqanlarda badiiy ijodga nisbatan hurmat uyg'otadi, badiiy ijod inson faoliyatining eng murakkab turi, eng ko'p aqliy va jismoniy kuch talab qiladigan soha ekanligidan boxabar qiladi.

Estetik nazariya san'atkorlar, ijodkorlar bilan bir qatorda bu sohani boshqaradigan hodimlar uchun ham zarurdir. San'atga rahbarlik qilishda sodir bo'lgan o'zboshimchalik, beboshlik, hokimi mutlaqlik ko'p jihatdan uning o'ziga xos qonunlarini bilmaslik oqibatidir.

Estetik nazariyaga suyanib ish ko'rish – badiiy jarayonlarga samarali ta'sir o'tkazish va san'atning erkin rivojlanishini ta'minlash garovidir. Qotib qolgan aqidalardan xalos etilgan va hayot chig'irig'idan o'tgan estetik nazariya san'atga ma'muriy-buyruqbozlik usuli orqali rahbarlik qilishga amalda qarama-qarshi tura oladi.

Estetik nazariya jamiyat hayotining barcha jabhalariga kirib boradi va ularni ma'naviy boyitadi, ijtimoiy- ma'naviy ishlab chiqarishning muhim omili sifatida yoshlarning, xususan bo'lajak huquqshunoslarning estetik madaniyatini shakllantiradi. Ayni mahalda u jamiyat estetik ongining tarkibiy qismiga aylanadi, jamiyat umumiy taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadi.

Shunday qilib, estetika fanining predmeti va vazifalarini ko'rib chiqqanimizdan so'ng mazkur xulosalarga kelishimiz mumkin: estetika fanining jamiyat hayotida tutgan o'rni quyidagi vazifalari bilan belgilanadi:

1. tasviriy vazifasi;
2. normativ vazifasi;
3. ijodiy vazifasi;
4. ma'lumot berish (bilish) vazifasi;
5. didaktik (tarbiyaviy) vazifasi;
6. dunyoqarash vazifasi.

SHunday qilib, estetika fani va o'quv darsi voqelikni estetik mushohada qilish va badiiy ijod jarayonlari uzviy mutanosibligini namoyon qiladi va ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, estetika – bu nafosat olami, san'ati va badiiy ijod jarayonlari qonuniyatlarini his-tuyg'u, sezgiidrok vositalari orqali o'rganadigan va o'rgatadigan fandır.

2. Estetika” haqidagi qarashlar tarixi

Dastlabki estetik qarashlar, g'oyalar, ta'limotlar falsafa fani bag'rida vujudga keladi va rivojlanadi. Falsafiy ta'limotlar estetik qarashlarning u yoki bu ko'rinishda bo'lishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Estetik g'oyalar qadimgi Sharq mamlakatlarida vujudga keldi. Bu mamlakatlar xalqlaridan qolgan ma'naviy-madaniy meros shunday xulosaga kelishimizga asos bo'ladi. Masalan, Urxun-Yenisey bitiklari, Xorazm alifbosi, qimmatbaho ma'danlardan ishlangan san'at asarlari, me'moriy obidalar bu mamlakatlarda badiiy madaniyat yuksak taraqqiy etganini ko'rsatadi. Misrda fir'avn Tutanxamon maqbarasidan topilgan osori atiqalar, Amudaryo xazinasi, Doro I tasviri solingan oltin tanalar, skiflar oltin buyumlari, Bobil minorasi, qadimgi Xorazm badiiy madaniyati qoldiqlari, Hindiston va Xitoy hukmdorlari saroylari, ibodatxonalar devorlaridagi tasviriy san'at asarlari buning yaqqol isbotidir.

Estetik qarashlar bizning vatanimizda ham qadim zamonlardayoq paydo bo'lgan. Zardushtiylidagi estetik qarashlar Axura Mazdaga xizmat qiluvchi xudolar va ularning bajaradigan vazifalari orqali ifodalangan Quyosh va yorug'lik xudosi Mitra yeru ko'kda kezib, zulmat xudosi Axriman bilan kurashuvchi ulug'vor va bahodir yigit sifatida tasvirlansa, obodonchilik va farovonlik xudosi Anaxit nafis libos kiygan go'zal ayol qiyofasida namoyon bo'ladi. Mamlakatimiz gerbida o'z aksini topgan afsonaviy qush Humo – baxt, tole va davlat ramzi. U boshi, tanasi va qanotlari oltin, kumushdan bo'lgan go'zal qush bo'lib, kimga soya solsa, o'shanga baxt keltiradi. Qadimgi sharqda go'zallik ezgulik bilan, yuksak daraja-dagi axloqiylik bilan bog'lab mushohada etilgan. Qadimgi Sharq mamlakatlari erishgan yutuqlar zaminida Yevropa mamlakatlari badiiy madaniyati tarkib topdi. Qadimgi Yunoniston mutafakkirlari Sharq badiiy madaniyati merosiga tayangan holda estetik g'oyalar va qarashlarni ishlab chiqdilar. Qadimgi yunon faylasufi Pifagor (e.a. 6-5 asrlar) va uning shogirdlari o'zlarining raqamlar haqidagi qarashlarini nafosat olamiga ham tadbiiq etdilar. Ularning nafosat asoslari, ya'ni “xilma-xil ovozli tomonlarning kelishuvi” umumbashariy hamohanglik ekanligi haqidagi qarash va g'oyalari muhim o'rin tutadi.

Geraklit (e.a. 540-480) nafosat xossalari moddiy dunyoning o'zidan kelib chiqqan, nafosat hamohanglikni anglatadi, hamohanglik esa qarama-qarshiliklar birligini tashkil etadi, deb ko'rsatadi va nafosatning nisbiyligi g'oyasini ilgari suradi.

Demokrit (e.a. 460-370) go'zallikni bo'laklarning to'g'ri mutanosibligi, mosligi (simmetriya)da deb biladi va me'yor tushunchasi bilan bog'ladi. San'at – bu voqelikka taqlid qilishdir, deb hisoblaydi, u.

Suqrot (e.a. 470-399) fikricha, go'zallik koinotdan inson turmushiga, uning ichki kechinmalariga ko'chirilgan, go'zallik va ezgulik bir-biridan ajralmasdir.

16-MAVZU. ESTETIKA: ESTETIKANING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Aflotun (e.a. 427-347) fikricha, nafosat manbaini “g‘oyalar” tashkil etadi, uning yoritib turuvchilik kuchi go‘zallikni kashf etadi. Go‘zallikning mohiyatini his-tuyg‘u bilan emas, faqat aql-idrok bilan anglash mumkin. Aflotun san‘atni narsalardan ko‘chirilgan nusxa, narsalarning o‘zi esa g‘oyalarning xira nusxasidir, deb ta’riflaydi. Aflotun san‘atning odamlarga nisbatan ta’sir kuchini salbiy, buzg‘unchi xususiyatga ega, deb ta’kidlaydi. SHuning uchun ham o‘zi kelajakda orzu qilgan davlat haqidagi qarashlarida musiqadan boshqa san‘at turlarini tilga olmaydi.

Arastu (e.a. 384-322) fikricha, nafosat asosini moddiy dunyodagi narsalar tashkil qiladi. U san‘atni voqelikka taqlid qilish vositasi sifatida baholab, san‘atning inson ruhiga o‘tkazadigan ta’sir kuchiga alohida e’tibor beradi. San‘atning axloqiy qudratini, olijanob fazilatlar yaratish kuchini ulug‘laydi. Arastu inson ruhini vahima, dahshat, rahm-shavqat orqali poklantirish (“katarsis”) ta’limotini ilgari suradi. SHuningdek, Arastu voqelik va san‘at, inson va san‘at, inson va badiiy ijod masalalariga maxsus to‘xtalgan.

Estetik qarashlar Qadimgi Rimda ham shakllanib rivojlangan. Tit Lukretsiy Kar (e.a. 9955) “Narsalar tabiati haqida” asarida san‘at “zaruriyat” (ehtiyoj)dan tabiiy kelib chiqqanligini ta’kidlab, uning ma’rifatchilik ahamiyatini ko‘rsatib beradi.

Qadimgi SHarq hamda Qadimgi Yunoniston va Rim mutafakkir-larining estetik g‘oyalari, qarashlari, ta’limotlari fan tarixida muhim o‘rin tutadi. Bu ta’limotlar o‘zidan keyin vujudga kelgan turli-tuman estetik maktablarga zamin vazifasini bajardi.

O‘rta asrlarda G‘arb mamlakatlarida san‘at, umuman badiiy amaliyot va nazariya masalalarida turli xil qarashlar, muammolar yuzaga keldi. Bu davr estetikasida uchta hududni ajratib ko‘rsatsa bo‘ladi. Birinchisi – Vizantiya, ikkinchisi – G‘arbiy Yevropa, uchinchisi – sharqiy hudud – Qadimgi Rus. Vizantiyada estetik qarashlar xristian madaniyatida badiiy tasvirlarning roli haqidagi bahs-munozaralarida shakllanib borgan.

G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida bu davrda san‘at asarlarida badiiy ijodning real dunyoga e’tibori kuchayishini ko‘rish mumkin.

Qadimgi Rus badiiy ongida erkinlik, oddiylik namoyon bo‘ladi.

Insonning dunyoga e’tiborining kuchayishi, go‘zallikni hissiy idrok etishdan zavqlanishi Uyg‘onish davrining yangi madaniy paradigmasi vujudga kelishi uchun asos bo‘ldi.

G‘arb Uyg‘onish davrida estetik qarashlar yangicha ijtimoiy munosabatlarning ta’siri ostida rivojlana bordi. Insonparvarlik g‘oyalari tarqalib borgani sari, ilm-fan, adabiyot va san‘at muvaffaqiyatlarga erishib borgani sari estetik qarashlar va g‘oyalar ham rivojlanib bordi.

Bu davr estetikasining muhim xususiyati – uning insonparvarlik ruhi bilan sug‘orilganligi va badiiy amaliyot bilan bog‘liq ekanligi.

Uyg‘onish davri mutafakkirlari Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Mikelanjelo, Dyurer, Servantes, Shekspir estetik tafakkur taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdilar. Ular shu bilan birga buyuk san‘at asarlari yaratdilar. Buyuk musavvir Leonardo da Vinchi dunyoni bilishda san‘atning ahamiyatini ta’kidlab o‘tadi. U o‘zining estetik qarashlari bayon etilgan risolalaridan birida

ko'rsatib o'tishicha, san'at narsalarning o'ziga xos sifatlarini, ularning go'zalligini izlab topadi va ommalashtiradi. San'at voqelikning in'ikosini, ijodiy qayta takrorlash jarayonidir.

Klassitsizm estetikasi ham estetik tafakkur taraqqiyotida o'z o'rniga ega bo'ldi. Bualoning "Nazm san'ati" risolasi klassitsizm estetikasi mohiyatini ochib beradi. Unga ko'ra barcha ijodkorlar klassitsizm ishlab chiqqan aqida qoidalariga bo'ysunishi shart bo'lgan. Ijodkorning erkinligi cheklangan. Klassitsizm estetikasi badiiy ijod bilan shug'ullanuvchilarni qoidalar bilan belgilab qo'yilgan qolipdan chiqmaslikka, oldindan tanlab qo'yilgan va mavhumlash-tirilgan mavzu chegarasidan o'tmaslikka mahkum etadi. Klassitsizm vakillari yuksak san'at aslida takomil va go'zal bo'lgan, ijodiy estetik qiymatga ega bo'lgan hodisalarni o'z asarlarida aks ettirishi kerak deb hisoblaydilar. Klassitsizm uslubida juda ko'p asarlar yaratilgan bo'lib, ular jahon san'ati namunalari hisoblanadi. Lekin san'at taraqqiyotini faqat chiroyli va yuksak mavzu tomon yo'naltirish uning ko'lamini cheklab qo'ydi.

Estetik fikrlar keyinchalik nemis klassik falsafasida rivojlantirildi. Ayniqsa, I.Kant va Gegel o'z falsafiy sistemalari doirasida, estetik munosabat, did, ulug'vorlik, go'zallik masalalarida birmuncha qimmatli fikrlarni ilgari surdilar.

Masalan, Kant fikriga ko'ra, did birgina odamga xos bo'lgan tug'ma qobiliyatdir, u shu qadar yakka hodisadirki, uni inkor etib bo'lmaydi.

Kant, shuningdek, ulug'vorlik nazariyasini rivojlantirdi. U ulug'vorlik va go'zallikning barcha o'xshash va farqli tomonlarini ko'rsatib berdi.

Gegel san'atga yuqori baho beradi. San'at, uning fikricha, go'zallikning asl makonidir. Gegel ulug'vorlikni ham san'at asarlari zaminida tahlil etadi. Gegel fikricha, mutlaq ruh – go'zallikning namoyon bo'lishidir.

IX-XII asrlarda O'rta Osiyoda Muso Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi buyuk olimlar, shoirlar, musiqashunoslar, faylasuflar yashab ijod etdilar. Ular tabiiy-ilmiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy masalalar bilan bir qatorda tilshunoslik, she'riyat, notiqlik san'ati, musiqa nazariyasiga oid ham asarlar yozdilar.

Forobiy "Baxt-saodatga erishuv haqida"gi risolasida "Inson aql-idroki tufayli haqiqiy insonga aylanadi, bilim insonga baxt va shodlik keltiradi, inson bilish orqali o'zida go'zallik va mukammallikni kashf etadi" deb ko'rsatadi. SHaxsni kamol toptirish jarayoni, Forobiy fikricha, inson o'z hayoti davomida ilm, hunar o'rganishi, axloqiy qonun-qoidalarni egallashi va san'atni hayotiy tajriba bilan boyitish orqali sodir bo'ladi. Estetik fazilatlar inson atrofni qurshagan muhit ta'sirida shakllanadi. Forobiy shaxs tarbiyasida she'riyat va musiqa san'atining o'rnini alohida ta'kidlaydi. U san'at turlarini bir-biridan farq qiladi: she'riyat so'z bilan, tasviriy san'at esa bo'yoqlar bilan ish ko'radi. Lekin har ikkovi ham inson ruhiy hayotining in'ikosidir. San'at insonda go'zal estetik fazilatlarini tarbiyalashga qodir kuchga egadir. Ta'lim-tarbiya masalalariga Forobiy alohida to'xtalib, yoshlarning axloqiy fazilati nizomlarini hamda ularning san'atni egallashi uchun amaliy malakalarini tarbiyalashni muhim vazifa deb hisoblaydi.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) nafosat haqidagi qarashlarida voqea-hodisalarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi manbai hamohanglik va uyg'unlikdir deb ko'rsatadi. Go'zallikni tabiat va insonga xos bo'lgan kamolot, etuklik sifati darajasida baholaydi.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) o'zining estetik qarashlarida estetika bilan axloq muammolarini bir-biriga uzviy bog'laydi. U "Kitob ush-shifo" asarida musiqaning estetik xususiyati haqida so'z yuritib, uning axloqiy tarbiyadagi ahamiyatiga, she'riyatning kishilarga go'zal fazilatlar singdirishi imkoniyatlariga to'xtalib o'tadi. YOshlarni tarbiyalash oila va davlatning muhim vazifasi, jamiyat taraqqiyoti, yutuqlari ma'lumotli, madaniyatli kishilarning o'sishiga bog'liq, "barcha bilimlarga ega narsalar mukammallikka moyildir" der ekan, "mukammallik" atamasida u insonning ichki go'zalligi va ezgulikka intilishini ifodalaydi.

O'rta Osiyo Uyg'onish davri mutafakkirlari "Alloh go'zal va u go'zallikni yaxshi ko'radi" tamoyiliga amal qilganlar. Ular Allah go'zalligini ulug'lab, diniy e'tiqod doirasida insonparvarlik ta'limotini yaratdilar, diniy e'tiqodni inson aql-idroki kuchi, inson irodasi erkinligi g'oyasi bilan bog'lab talqin qildilar.

Estetik tafakkur XIV-XV asrlarda yanada rivojlandi. Ayniqsa, Alisher Navoiy o'z asarlarida go'zallikni, san'atni yuksak qadrlab, san'at inson ma'naviy olami, komil shaxs bo'lib etishishi uchun zarur ekanligini ta'kidlaydi. Uning adabiy-estetik qarashlari "Majolis un-nafois", "Mezon ul-avzon" va "Mufradot" asarlarida bayon etiladi. Navoiy badiiy so'z san'atining ma'rifiy-tarbiyaviy, hissiy-ruhiy ahamiyatini alohida ta'kidlar ekan, ijodkorlarning axloqiy qiyofasiga e'tibor qaratadi. Ularning kamtarlik, himmatlilik, xush-muomalalilik, sahiylik kabi fazilatlarini ta'kidlaydi. "Majolis un-nafois"da mashhur sozandalar, hofizlar haqida ham so'z yuritiladi. "Mezon ul-avzon"da turkiy she'riyatning yozma va og'zaki adabiyot hamkorligida yuzaga kelgan janrlar (tuyuq...), og'zaki adabiyotning yozma adabiyotga kirib borishi (o'lanchangiy, yor-yor, qo'shiq) masalalariga alohida to'xtaladi, xalq qo'shiqlarining sakkiz turi haqida ma'lumot beradi: tuyuq, changi-turkiy, arzuvoiy, muhabbatnoma, mustahzod va boshqa. Navoiyning adabiy-estetik qarashlarida san'atkor inson ma'naviy ehtiyojiga, insof va adolatning barqaror bo'lishiga xizmat qilishi, eng yaxshi insoniy fazilatlarini targ'ib etishi, kitobxon ongi, hissi va didiga ta'sir ko'rsatishi kerak, degan g'oya ilgari suriladi. XX asr estetik nazariyalari an'anaviy qarashlarga kam tayanadi. Intuitivizm A.Bergson (1859-1941), Andre Malro (1901-1976) badiiy ijodning noratsional asoslariga e'tibori bilan ajralib turadi. Ekzistensializm J.P.Sartr (1905-1980), Alber Kamyu (1913-1960) estetikasida insonga e'tiborni, san'at fenomenini inson taqdiri bilan bog'lab qarashni ko'rishimiz mumkin. Strukturalizm Roman YAkobson (1896-1982), Rolan Bart (1915-1980) san'at asarini tahlil qilish ekanlar struktura, belgi, element, funktsiya tushunchalarini ishlatadilar. Masalan, strukturalizm tas-viriy san'at asarini o'rganar ekan, unda geometrik kompozitsiyalarni, guruh holatlarni, tasvirlangan shakllarni bir-biri bilan va asarning foni bilan munosabatiga e'tibor qaratadilar.

Estetika kategoriyalarining an'anaviy va zamonaviy tasnifi. Go'zallik va uning muqobillari

Estetika falsafiy fanlardan biri sifatida o'z kategoriyalarini ishlab chiqqan bo'lib, ulardan asosiylari – go'zallik, ulug'vorlik, fojialilik, kulgililikdir. Estetika fanining barcha muammolari aslida go'zallik muammosi bilan muayyan darajada bog'liqdir. Go'zallik nafasat olamining mag'zi, asosiy belgisi, bosh xossasi, asosiy mohiyatini tashkil qiladi. Har qanday estetik muammoning echimini topganimiz sari go'zallik yanada yorqin namoyon bo'lib boradi. Estetik munosabatlarni estetik ob'ekt va estetik sub'ekt tabiatini in'ikos etish bilan birga go'zallikning u yoki bu tomonlari ham mushohada etiladi. *Go'zallik* – bu asosiy estetik qadriyat bo'lib, uni idrok etish qobiliyati esa estetik sub'ektning asosiy xossasidir. Bu xususiyat estetik ong va uning asosiy qismlariga ham taalluqlidir.

Estetik his-tuyg‘u, eng avvalo go‘zallikni his etish jarayonini anglatadi. *Estetik orzu* esa go‘zallikni inson xohlagan u yoki bu tasavvurlar tarzida ifodalaydi. *Estetik did* bo‘lsa ko‘p jihatdan shaxs va jamiyat nimani go‘zallik sifatida, nimani xunuklik sifatida idrok etishida namoyon bo‘ladi. *Estetik qarashlar* go‘zallikning tabiati va mohiyati haqidagi fikrlarni anglatadi.

a) Mutafakkirlarning aytishlariga qaraganda, go‘zallik haqida fikr yuritish va uni bayon qilish nihoyatda murakkab va mashaqqatli jarayondir. Go‘zal, ijobiy his-tuyg‘u uyg‘otadigan narsani ko‘rsatish oson. Lekin o‘sha narsa nima uchun go‘zal ekanligini tushuntirib berish qiyin. Go‘zallikning tabiati va mohiyati haqida juda ko‘p fikr-mulo-hazalarning mavjudligi uning murakkabligi, ko‘p qirraligidadir. Ilmiy tushunchalar tizimida ham go‘zallik muammosini tushuntirish ancha qiyin. SHuning uchun go‘zallik muammosiga falsafiy yondoshish zarur.

Qadimgi yunon faylasufi Platon bu muammoni ilk bor «Nima go‘zal?» va «Go‘zallik nima?» degan savollarga ajratish bilan tarixga go‘zallik haqidagi falsafiy ta‘limotning asoschisi bo‘lib kirgan edi. Go‘zallikni u jonli, hissiyotli, o‘zgaruvchan narsalar olamidan ajralib qolgan abadiy ruh - g‘oya sifatida ta‘riflaydi.

Go‘zallik tuyg‘udan yuqoriroq tabiatga ega bo‘lgani uchun uni faqat aql vositasida anglash mumkin. Go‘zallik haqidagi bu «Platon yo‘nalishi» F.Akvinskiy, Gegel ijodida davom ettirildi. Gegel fikricha, mutlaq ruh–g‘oya go‘zallikning namoyon bo‘lishidir, san‘at go‘zallikning asl makonidir, go‘zallik bu aniq turdagi hodisalar kamolotining namunasi, ya‘ni go‘zallik mukammallik va kamolot bilan bog‘liqdir. “SHunday narsa go‘zalki, agar undagi tug‘ma belgilar to‘la tarzda namoyon bo‘lsa, shunday inson go‘zalki, agar unda yaxshi insoniy fazilatlar va sifatlar mujassamlashgan tarzda ko‘rinsa”. Ingliz faylasufi D. YUm fikricha, go‘zallik narsalar sifatini bildirmaydi, balki narsalarni mushohada qilayotgan inson ruhi darajasida amal qiladi; ya‘ni har bir inson ruhi o‘zi belgilagan, tanigan, anglagan go‘zallikni ko‘radi. Bu ta‘limotlarda go‘zallikning ma‘naviy mazmundorligi masalalari aks etadi.

Ikkinchi yo‘nalish: Qadimgi yunon mutafakkiri Aristoteldan boshlanadi. Aristotel go‘zallikni real voqelik in‘ikosi sifatida talqin etadi. U go‘zallikni moddiy olamning moslik, aniqlik, hamohanglik, mezon-o‘lchovlik kabi miqdoriy va makonli tavsiflari bilan bog‘lab mushohada qiladi.

Aristotel fikriga ko‘ra, go‘zallik zaminida inson va narsalarning bir-biriga muvofiqligi, loyiqdigi, mosligi aqidasi yotadi. O‘zining mazkur g‘oyasini asoslash uchun u «o‘ta kichik narsa go‘zal bo‘la olmas edi, chunki oz vaqt ichidagi tasavvur qorishib ketadi, o‘ta ulkan narsa go‘zal bo‘la olmas edi, chunki uni idrok etish birdaniga sodir bo‘lmay, uning birligi va yaxlitligi yo‘qolib ketadi», - deb uqtiradi. Go‘zallik muayyan mezon – o‘lchov ko‘rinishdagina namoyon bo‘ladi. Uning fikricha, go‘zallik sifatiga nafaqat tabiat hodisalari, balki adolat, mardlik, sahoat, donishmandlik kabi yaxshi insoniy fazilatlar ham kiradi.

Uyg‘onish va ma‘rifatparvarlik davri estetik qarashlarida go‘zallikning tabiiy qonunlarini ishlab chiqish, ularni san‘at sohasiga ham tadbiiq etishga urinishlar bo‘lgan. Masalan, Didro go‘zallikning ichki mazmundorligi, san‘at asarlariga nisbatan ifoda kuchi haqida fikr yuritib, go‘zallik bilan go‘zallikni baholash o‘rtasida sub‘ektiv omil muhim o‘rin tutishini ta‘kidlaydi.

Go‘zallik – bu tabiat, jamiyat, san‘at hodisasi bo‘lib, biror narsaga his-tuyg‘u orqali ta‘sir o‘tkazish bilan insonda jismoniy va ma‘naviy kuchlar oqimining ko‘payishiga, shodlik, zavqlanish, ma‘na-viy qoniqish holati vujudga kelishiga imkon yaratiladi. Go‘zallik ijtimoiy ahamiyatga molik hodisadir. Go‘zallik hamisha foydali, lekin u alohida turdagi foydali – u avvalo, insonga, jamiyatga, taraqqiyotga ma‘naviy foyda keltiradi.

b) Go‘zallik xilma-xil darajada namoyon bo‘ladi. Tabiatdagi go‘zallik ijtimoiy hayot go‘zalligidan, foydali-amaliy faoliyatdagi go‘zallik badiiy ijoddagi go‘zallikdan farq qiladi. Lekin

barchasi qandaydir umumiy belgiga egadir. Mana shu umumiy belgi tufayli hodisalarni go‘zallik tushunchasi bilan ifodalaymiz. Go‘zal narsalar inson amaliy faoliyatiga, manfaatlariga mos bo‘lib, ularni idrok etish hayrat va quvonch bag‘ishlaydi, shaxsning uyg‘un hamohang rivojlanishiga, unda eng yaxshi insoniy xislat-fazilatlar tarkib topishga ko‘maklashadi.

Inson hamma erda va har qanday darajada mavjud tabiiy hamohanglik bilan to‘qnashar ekan, u albatta tabiat go‘zalligidan zavq-shavq oladi, ma‘naviy boylik orttiradi. Hamma vaqt ham tabiatga estetik munosabat va tabiatni estetik o‘zlashtirish, uni «insoniylashtirish», tabiat hodisalariga inson talab-ehtiyojlarini, maqsad-orzularini o‘tkazib tatbiq etish bilan bog‘lanib ketgan.

Insonda tabiatga qanday munosabatda bo‘lish tuyg‘usi sekin-asta, inson zoti va tabiatda rivojlanish yuz bergani sari shakllanib borgan. Masalan, ibtidoiy san‘at manzarali tasvirlarni bilmagan, tabiat hodisalarining go‘zal yoki xunuk ekanligini baholamagan. Ular o‘z diqqate’tiborlarini hayotning asosiy manbai bo‘lgan narsalar voqea-hodisalarga (hayvonlarga) qaratganlar.

Keyinchalik, ovchilik o‘rniga (yoki u bilan yonma-yon) dehqonchilik kirib kelishi, insonning ishlab chiqarish faoliyati atrofidagi tabiatni o‘zlashtira boshlashi bilan, tabiatning o‘zi ijtimoiy orzu mezonlari bilan baholanadi, inson uchun tabiatning xunuk va go‘zal tomonlari ayon bo‘la boshlaydi. Go‘zallikni yuksak darajadagi foydalilik tarzida in‘ikos etish go‘zallik ko‘rinishlaridan faqat bittasini o‘z ichiga oladi. Hozirgi davrda insoniyat ulkan vayron qilish qudratiga ega bo‘lgan ishlab chiqarish kuchlariga ham ega bo‘lib qoldi. Tabiatga «o‘zlashtirish» nuqtai nazaridan munosabatda bo‘lish yovuzlikdan boshqa narsa emasdir. Inson tabiat haqida qayg‘urib, undan oqilona foydalanib, ayni vaqtda tabiiy hamohanglik sirlari ichiga yanada chuqur kirib bormoqda.

v) San‘atda go‘zallik ifodasining tahlili tabiatdagi, ijtimoiy hayotdagi, turmushdagi go‘zallikni tushunish uchun o‘ziga xos kalit vazifasini o‘taydi. San‘at go‘zallikning mujassamlashgan ifo-dasi bo‘lib, xuddi shu ma‘noda uni «nafosat qonunlariga ko‘ra ijod qilish sohasi» deb atash o‘rinli bo‘ladi. Inson faoliyatining boshqa sohalarida go‘zallik qonunlariga rioya qilganda go‘zallik «yordamchi vazifa»ni bajaradi. San‘at sohasida esa unga rioya qilmaslik san‘atning o‘zini bema‘ni, mohiyatsiz qilib qo‘yadi.

San‘atdagi go‘zallik – hayotdagi go‘zallikning in‘ikosi bo‘lib, go‘zallik yaratuvchi ijodkorlarning boshqa odamlardan farqi shunda-ki, u boshqalar fahmlay olmagan go‘zallikni hamma erda ko‘ra olish, fahmlash, sezish, his qilish qobiliyatiga egadir. San‘at voqelikning barcha estetik qirralari va sifatlarini qamrab oladi, hatto mudhish va xunuk hodisalarni tasvirlayotganida ham go‘zallikni tark etmaydi.

O‘rta asrning juda ta’sirli oqimlaridan biri Yevropa klassitsizmi ijodkorlari yuksak san‘at aslida takomil va go‘zal bo‘lgan, ijobiy estetik qiymatga ega bo‘lgan hodisalarni aks ettirishi kerak, deb qaragan edilar. Uning vakillari, shubhasiz, juda ko‘p badiiy qadriyatlar yaratganlar. Jahon san‘ati xazinasiga ulkan hissa qo‘shganlar (Kornel, Rasin, Bajenov va boshqalar). Lekin san‘at taraqqiyotini faqat chiroyli va yuksak mavzu tomon yo‘naltirish uning ko‘lamini cheklab qo‘ydi. Natijada voqelikdagi mavjud bo‘lgan go‘zallikning kichik bir bo‘lagi qirollar va sarkardalar siymolari orqali hayot go‘zalligi bir tomonlama tasvirlandi. Oddiy odamlar hayotining badiiy ifodasi esa yuksak san‘atga loyiq topilmadi.

San‘atda go‘zal qiyofani aks ettirish boshqa, qiyofani nafis tasvirlash boshqa narsa. Chernishevskiy voqelik go‘zalligi san‘atdagi go‘zallikdan yuqori turishini uqtiradi. U hayotdagi go‘zallik birlamchi, san‘atdagi go‘zallik ikkilamchi deydi. Chunki hayotda go‘zallik bo‘lmasa,

san'atda ham u ifoda topa olmaydi. Lekin u jiddiy xatoga yo'l qo'yadi. Chunki haqiqiy san'at dunyo go'zalligini faqat surat aksinigina emas, balki undagi go'zallik mohiyatini ham namoyon etadi.

San'at hayotning boyligi va xilma-xilligini, go'zallik va xunuklikni, yaxshi va yomon xislatlarni aks ettiradi hamda unda estetik orzu muhim ahamiyat kasb etadi. San'at go'zal va xunuk narsalarni aks ettirish mumkin. Lekin san'atning o'zi hamma vaqt ham go'zaldir! Chunki u o'z tarkibiga estetik orzu, ya'ni go'zallikning zaruriy xossasini singdirgandir.

Ko'p asrlar davomida san'at estetik orzuni ro'yobga chiqarishning ikki asosiy yo'nalishini ishlab chiqqan:

1) Ijobiy qahramon ramzini yaratish, ijobiy qahramon – ijodkorning go'zallik haqidagi estetik orzusidir.

2) Salbiy qahramon – go'zallikning aksi bo'lgan xunuklik, yaramaslik ramzi bo'lib, u ham estetik ahamiyatga ega.

San'atda ilg'or estetik orzuning bo'lishi san'at go'zalligi bilan bog'liq zaruriy, lekin yagona bo'lmagan omildir. San'at go'zalligi uning haqqoniyligidan ajralmagan holda qaror topadi. Badiiy haqiqatsiz san'atda go'zallik bo'lishi mumkin emas.

Haqiqat va go'zallik birligi san'at taraqqiyotining qonuniyatlaridan biridir. Shekspir «Go'zallik qimmatli haqiqat bilan yakunlanib, yuz chandon go'zallik kashf etadi», deydi.

San'atdagi go'zallik shakl va mazmun birligida yaxlit mushohada etiladi. Inson faoliyatida kamolotga, go'zallikka intilish ko'p jihatlardan eng muvofiq shaklni izlab topishda ko'rinadi. Bu shakl esa faoliyat burchiga, vazifasiga, mazmuniga mos kelishini taqozo etadi. Shaklning mazmunga mos kelishi san'atdagi go'zallik mezonidir. Gap ijtimoiy ahamiyatli, g'oyaviy ilg'or, hayot haqiqatiga ega bo'lgan mazmun haqida borsagina shaklning mazmunga mos kelishiga san'at go'zalligining mezonlaridan biri sifatida qarash mumkin bo'ladi.

San'atdagi go'zallik, uning badiiy qimmatini hayotni haqqoniy tasvirlash, gumanistik g'oyalarni ifodalash, shakl va mazmun uyg'unligini yaratish bilan belgilanadi.

Voqea-hodisalarning ob'ektiv estetik ahamiyatini ifodalovchi qadriyat sifatida go'zallik sub'ektiv estetik baholash orqali, kishilarning didi va ideallari vositasida qabul qilinadi. Estetik tarbiyaning muhim vazifasi-kishilarda haqiqiy go'zallikni tushuna olish va qabul qilish qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishdir.

Ulug'vorlik kategoriyasi estetikaning yana bir muhim kategoriyasidir. Qadimgi estetikada «ulug'vorlik» iborasi tantanaligi va ahamiyatliligi bilan ajralib turadigan nutqning alohida uslubini tavsiflash uchun ishlatilardi. Ulug'vorlik muammosiga estetik-nazariy yondashish III asr notig'i Longin yozgan «Ulug'vorlik to'g'risida»gi risoladan boshlanadi. U ulug'vorlikni nutq go'zalligi bilan bog'lanib ketgan odatdan tashqari fikrlar va ehtirolar sifatida tushunib, u insonga his-tuyg'uli ta'sir etuvchi, uni quvonch va hayratga soluvchi kuch deb uqtiradi.

XVII asr ingliz olimi E.Byork fikricha, ulug'vorlik tuyg'usining manbai-dahshat yoki shunga o'xshash tuyg'ular ko'zg'atadigan barcha narsalar, voqea-hodisalardir. Byork ulug'vorlikni insonga his-tuyg'uli ta'sir o'tkazish shakllari ichida eng kuchlisi bo'lgan qoniqmaslik tuyg'usi bilan bog'laydi: Go'zallik qoniqish asosidagi estetik zavqlanish baxsh etsa, ulug'vorlik dahshat va qoniqmaslik tuyg'usining vujudga keltiradi.

Boshqa ingliz olimi T.Xoum fikricha, ulug'vorlik go'zallikdan faqat o'zining ko'lami bilan farq qiladi va ijobiy his-tuyg'ular uyg'otadi.

I.Kant fikricha, go‘zallik ham, ulug‘vorlik ham qo‘pol, sof foyda ma‘nosidagi manfaatdan xoli bo‘lib, hamma uchun umumiy ahamiyatli, maqsadga muvofiqlik va zarurlik tasavvurlarini o‘zida mujas-samlashtirgandir.

Ular o‘rtasidagi farqlar: agar go‘zallik sifatdan olingan qoniqish orqali vujudga kelsa, ulug‘vorlikning zaminida miqdor tasavvuri yotadi; go‘zallik hamma vaqt jozibali, ulug‘vorlik esa goh o‘ziga tortadi, goh o‘zidan qochiradi va nisbiy his-tuyg‘ular qo‘zg‘aydi.

CHernishevskiy fikricha, ulug‘vorlik tabiiy hodisalarga ham xos estetik tushunchadir. Masalan, oddiy shamoldan bir necha yuz marta kuchli bo‘ron ulug‘vordir, pastkash hisob-kitob va intilishlardan yuz karra kuchli bo‘lgan sevgi ulug‘vordir.

Ulug‘vorlik ko‘lami go‘zallik ko‘lamidek cheksizdir. Tabiatda ulug‘vorlik timsollari: okeanlar, osmon, dengizlar, sharsharalar, tog‘lar. Ularning umumiyligi-ulkanligida, keng ko‘lamligida. Ulug‘vorlik quvonch, hayratlanish, tan berish, shuningdek, ba‘zida qo‘rquv hissini uyg‘otadi.

Ijtimoiy hayotda ulug‘vorlik qahramonlik va mardlik bilan qo‘shilib ketadi, ularni alohida-alohida mushohada etish qiyin. Ulug‘vorlikka xos estetik va axloqiy sifatlar mavjuddir. Fidoyilar, qahramonlarning qiyofalari bir vaqtning o‘zida ham ulug‘vorlikni, ham mardlikni namoyon qiladi.

Ulug‘vorlik va pastkashlik qiymatlari ham o‘zgaruvchan bo‘lishi mumkin. Insonning tabiat ustidan hukmronligi – yaqin kunlarga ulug‘vorlik timsoli sifatida in‘ikos etilardi. Bunday munosabat ekologiya buzilishi, Orolning qurishi, kishilar sog‘lig‘ining yomonlashishiga olib keldi.

Tabiat ustidan hukmronlik qilish emas, balki u bilan hamohang bo‘lish, ijtimoiy faol, tashabbuskor, ijodkor shaxsni shakllantirish – ulug‘vorlik orzusining asosiy mazmuni.

Ulug‘vorlik san‘atda har tomonlama ifodalanadi, chunki u san‘atning asosiy mavzularidan biridir. Qahramonlik dostonlari, lirik dostonlar, qahramonlik musiqa asarlari, me‘morchilikda ulug‘vorlik turlicha tasvirlanadi.

Me‘morchilikda ulug‘vorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Me‘morchilikda ulug‘vorlik faqat miqyos o‘lchovi bilan o‘lchanmaydi. Masalan, ayrim obidalar o‘zlarining keng ko‘lami bilan ulug‘vorlik kasb etsalar, boshqalari o‘ta nafisligi, nozik ifodasi, hamohangligi, atrof-muhit bilan uzviy qo‘shilib ketganligi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, Bobil minorasi, Minorai Kalon, Misr piramidalari, Toj Mahal keng ko‘lami bilan ulug‘vorlik kasb etsa, Amir Temur dahmasi, Shohizinda, Registon maydoni, Mir Arab mad-rasasi, Ismoil Somoniy maqbarasi o‘ziga xosligi bilan ulug‘vorlik hissini uyg‘otadi.

San‘atda ulug‘vorlik ba‘zida fojialilik bilan yonma-yon namoyon bo‘ladi. Masalan, Shekspir asarlari, Shashmaqom, ba‘zi me‘moriy obidalar bir vaqtning o‘zida ham ulug‘vorlik, ham fojialilik ruhi bilan sug‘orilgan bo‘ladi. Lekin har doim ham emas. Masalan, Registon – ulug‘vor, lekin fojiali his uyg‘otmaydi, Makbet xonim fojiali, lekin ulug‘vor emas.

Fojialilik va kulgililik estetik kategoriyalari yordamida hayot ziddiyatlari va to‘qnashuvlari baholanadi va mushohada qilinadi. Fojialilik va kulgililik ijtimoiy xususiyatga ega tushunchalardir. Ular yolg‘iz insonga xosdir, faqat ijtimoiy munosabatlar jarayonidagina namoyon bo‘ladi.

Fojialilik va kulgililik o‘zaro bog‘liqligi hayotning murak-kabligi, ziddiyatliligi, harakatchanligidan kelib chiqib, ularni san‘at yordamida yaxshiroq anglaymiz. San‘at asarlarida fojialilik va kulgililik yaxlit namoyon bo‘ladi. Ko‘p hollarda fojialilik va kulgililikning uzviy chirmashib ketishi ildizlari ijodkor iste‘dodiga borib taqaladi.

Masalan, Shekspir asarlarida fojiali va kulgili tomonlar shu qadar chirmashib ketganki, ularning birini ikkinchisiz anglash qiyin.

Fojialilik muammosi har doim, falsafiy va estetik tafakkur e'tiborini o'ziga jalb qilib kelgan. Fojialilikda voqeyiy hayotning chuqur ziddiyatlari va to'qnashuvlari hayot va o'lim, ozodlik va zarurat, aql va tuyg'u, qonun va burch, shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlar namoyon bo'ladi.

Shekspir va Sofokl asarlari, Dostoevskiy, SHoloxov ro'mon-lari, M.SHayxzodaning «Jaloliddin Manguberdi», «Mirzo Ulug'bek» sahna asarlari fojia san'atiga misol bo'ladi.

Fojia san'ati – insoniyatning doimiy hamrohi. Inson o'z orzularini ro'yobga chiqarish uchun bir umr intiladi, kurashadi. Insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida ijtimoiy adolatsizliklar, mu-nosabatlardagi xilma-xillik, san'atda fojiali ohanglar tug'ili-shiga sabab bo'ladi.

Kulgililik kategoriyasida ham insonning voqea-hodisalarga munosabatlaridan biri ifodalanadi. Kulgili holatlarga faqat insongina kulgi bilan javob beradi. Kulgililik xunuklik bilan bog'lab mushohada qilinadi, xunuklikning o'zi kulgili emas, balki uning go'zallik da'vo qilishi va o'zini go'zallik o'rniga qo'yishi kulgilidir.

Kulgililik boshqa estetik hodisalar singari tashqi va ichki tomonlarni o'zida birlashtiradi.

Kulgililikning ichki tomoni – keng ma'nodagi hazil (yumor) tuyg'usidir. Hazil tuyg'usi shaxsning tabiiy va erkin, bevosita idrok etishi natijasida xilma-xil kulgili, beo'xshovliklarni ko'rib, anglab, ularga kulgi bilan javob berish qobiliyatining ifodasidir.

Kulgi insonning ruhini ko'taradi. Kulgililikning har xil ko'rinishlari san'atning arxitekturadan boshqa deyarli barcha turlarida namoyon bo'ladi va komediyada o'zining to'la estetik ifodasini topadi. Kulgililik tushunchasi komik tushunchadan kengroqdir. Komik voqea ijtimoiy va estetik ahamiyatga ega bo'lgan hodisadir. Komediyada komik matn bo'ladi. Gogol «Komediya uchun qiyshiq burun emas, qiyshiq jon kerak» deydi.

San'atda kulgilik turlari:

Latifa – kulgili yoki eng sodda komik voqea.

Parodiya – hajviy o'xshatma.

Satira (mashara) – hayotning salbiy hodisalari ustidan achchiq kulish.

Yumor (hazil-hajv), sarkazm, lof, askiya, karikatura va h.k. san'atda kulgililik turlariga misol bo'ladi.

Kulgililikning barcha shakllari qanchalik erkin namoyon bo'lish imkoniyatlariga ega bo'lib borsa, shunchalik ko'p ahamiyat kasb etadi. Beozor hazil-hajv tuyg'usi inson hayotining kulgili tomonlari, uning barcha qirra va zarralarini ilg'ab olish va fahmlash qobiliyatini o'stirishga yordam beradi va u borgan sari shaxsning ma'naviy-ruhiy kamoloti ko'rsatkichi bo'lib boraveradi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.:“O'zbekiston”, 2014. 24 b
2. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

16-MAVZU. ESTETIKA: ESTETIKANING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
5. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-24 jildlar.- T.: O'zbekiston 1996-2016.
6. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. 2 nashr –T.:Ma'naviyat, 2016 176-b.
7. Abdulla Sher. Estetika. Darslik. – T.: O'zbekiston, 2016. 192 b.
8. Abdulla Sher, Husanov B, Umarov E. Estetika. T. O'ZMU, 2008. 178 b
9. Umarov E. Estetika. T. O'ZMU, 2004. 172 b

17-MAVZU. TABIAT VA TEXNOGEN SIVILIZATSIYA ESTETIKASI

Reja:

1. Jamiyat rivojida tabiatga estetik munosabatning shakllanishi.
2. Tabiatning estetik jihatlari. Ekologik estetikaning qadriyatli maqomi.
3. Ekoestetikaning XXI asr ilmiy-texnik taraqqiyotdagi o'ri.
4. Texnogen sivilizatsiyaning ishlab chiqarish estetikasi va fan taraqqiyotiga ta'siri.
5. Zamonaviy shaharsozlik estetikasi. Dizaynning estetik xususiyatlari. Xalq amaliy san'ati va dizayn.

Tayanch tushunchalar: Ekoestetika, dizayn, san'at, Xalq amaliy san'ati, Tabiat, Ekologik estetika.

Jamiyat rivojida tabiatga estetik munosabatning shakllanishi. Tabiatning estetik jihatlari.

Keyingi ikki asrdan ortiq vaqt mobaynida estetikani faqat san'at falsafasi sifatida talqin qilish haqiqatga zid ekani ma'lum bo'lib qoldi. Chunki asta-sekin «san'at estetikasi» yonida yana boshqa «estetikalar» paydo bo'la boshladi. Ularning ba'zilarini estetik faoliyat, estetik soha kabi atamalar bilan nomlashga urinib ko'rdik. Biroq bunday yondashuv doimo nazariy chalkashliklarga olib keldi, hozir ham o'shanday manzarani ko'rish mumkin. Masalan, estetik faoliyat deganimizda san'atni tushunamiz, boringki, unga dizaynni ham qo'shish mumkin. Lekin tabiatni yoki sportni estetik faoliyat deb aytolmaymiz, ularga taalluqli nazariyalarni estetika sohasi deyish ham qiyin. Chunki mohiyatan ular estetik faoliyat emas, balki estetik xususiyatlar namoyon bo'ladigan voqelik va ular borasidagi nazariyalarni estetikaning qismlari deb atash ham ularga nisbatan to'g'ri emas; bunday atama bilan biz estetika tarixi, estetika nazariyasi, estetik madaniyat singari fanning «katta-kichik» bo'limlarini nazarda tutamiz.

Ana shunday har xilliklar ko'pgina adabiyotlarda, hatto estetika lug'atida ham tez-tez uchrab turadi⁵³. Ulardan qutulish maqsadida biz estetikaning ikki qatordan iborat turlarga bo'lgan holda tasniflashtirishni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Birinchi qatorni estetikaning eng miqyosli turi – san'at estetikasi, ikkinchi qatorni esa, qolgan barcha, nosan'at estetik ob'ektga asoslangan estetik nazariyalar tashkil etadi. Ular – tabiat estetikasi, turmush estetikasi, mehnat estetikasi, texnika estetikasi va sport estetikasi. San'at estetikasini alohida, keyingi boblarda ko'rib chiqishimizni nazarda tutib, hozir nosan'at ob'ektlar estetikasi qatoridagi estetik nazariyalar turlarini qisqacha nazardan o'tkazamiz.

Tabiat haqida gap ketganda, «tabiatni asrash», hatto «tabiatni qutqarish» degan so'zlarni tez-tez eshitamiz. Xo'sh, tabiatni kimdan asrash va qutqarish kerak? Odamdan, jamiyatdan. Demak, odam, markschilar ta'riflaganidek, tabiatning bir qismi emas, uni odam bir-birini bo'ysundirganidek bo'ysundirishi, «olamni tubdan o'zgartirishi» mumkin emas. Aks holda, oxir-oxibat insoniyat, hayvonot va nabotot dunyosi halokatga mahkum etilishi muqarrar.

Keyingi bir asr mobaynida inson tafakkurining qudrati, fan-texnika taraqqiyoti jahonning deyarli barcha sivilizatsiyalashgan mintaqalarida landshaftning (er yuzi manzarasining) o'zgarishiga, buzilishiga olib keldi. Masalan, birgina suv omborlarini olib ko'raylik. Hozirgi paytda minglab kvadrat kilometr takrorlanmas landshaft suv ostida qolib ketdi. Vaholanki, landshaft hayvonlar, qushlar, o'simliklar, suv, tuproq kabi qit'aviy xazinalarning uyg'unligidir. Biz esa, tabiatga bo'lgan xudbinlarcha munosabatimiz, unga qornimizni to'ydiradigan,

⁵³ Қаранг: Эстетика. Словарь. С. 35, 276, 421.

hayotimizni farovon qiladigan vosita deb qarashimiz tufayli ana shu uyg'unlikni muntazam ravishda buzib kelmoqdamiz.

Biz tabiatni nutqlarimizda, she'rlarimizda, maqolalarimizda «Ona-tabiat» deb ataymiz. Darhaqiqat, tobimiz qochsa, shifokorlar bizga bahavo, shaffof suvli tabiat qo'ynida joylashgan oromgohlarga borishni, kimsasiz daryo bo'ylaridagi butazorlar orasida chodir qurib, bir muddat tashvishlardan forig' yashashni tavsiya etadilar. SHahar shovqinlaridan, mehnatdan, axborotlar siquvidan charchaganimizda, jamoa bilan yoki oilaviy tarzda shanba yo yakshanba kuni tabiat qo'yniga chiqib dam olamiz. Toliqsak, doim «onamiz» qo'yniga intilamiz, ona-tabiat bizni davolaydi, go'zalligi bilan hayratlantiradi, ruhlantiradi. Lekin bir-ikki kundan so'ng yana hammasini unutamiz, tag'in tabiatga bir xizmatkordek qaraymiz. Nega shunday? CHunki biz uni tushunmaymiz, uni bilmaymiz. SHu sababli biror bir odamning yaxshi yoki yomonligiga asl sabablar nimaligini, uning mohiyatini bilmaganimiz, tushunmaganimiz uchun «falonchining tabiati o'zi shunaqa», yoki muayyan hayvon yoxud o'simlikning sir-sanoatidan bexabarligimiz tufayli uni «tabiatan o'zi shunday» deyish bilan muammoga nuqta qo'yamiz. Zero, tabiat olami kubromi (katta olammi), olami sug'romi (kichik olammi), ya'ni, odammi, u – sirli, uni lozim darajada tushunmaymiz va bilmaymiz. Har qancha ekologiyaga e'tibor qilmaylik, uni fan sifatida zo'r berib o'qitmaylik, baribir tabiatni tushunishimiz qiyin, zotan ekologiya tabiatni asrashni, qutqarishni, boyitishni targ'ib qiladi. Biroq ularning hammasiga faqat estetika yordamida, uning ekologiya bilan hamkorligi orqali erishish mumkin. CHunki estetika insonga tabiatni sevishni, uning go'zalligiga beg'araz munosabatda bo'lishni o'rgatadi, ya'ni, tabiatni faqat odamlar uchun yaratilgan deb emas, uni jamiyatdan tashqaridagi umumolammiy mustaqil qadriyat sifatida idrok etishni taqozo qiladi. Ha, tabiat go'zallik va ulug'vorlik manbai, lekin faqat inson uchungina shunday emas. Masalan, bulbul tunda, odamlar uxlaganda sayraydi, namozshomgul va ba'zi boshqa gullar faqat qorong'u tushayotgan paytdan boshlab ochiladi. Demak, hayvonlarni, o'tloqlarni, daraxtlarni, daryolarni, tog'larni faqat «biz uchun» deb emas, «biz uchun ham» deb tushunishimiz lozim.

Buyuk Kant tabiatni axloqiylik bilan bog'laydi: «Kimmiki bevosita tabiat go'zalligi qiziqtirsa, bu uning fikrlash tarzida, yo'q deganda, axloqiylikka, ezgulikka qobiliyati mavjudligidan dalolat beradi», – deydi u.⁵⁴ Ammo Hegelning, tabiatda ideal yo'q, shu sababli u ikkinchi darajali go'zallik turi, degan fikri estetikada hukmronlik qilib keldi, ayniqsa, bu fikr tabiatni «bo'ysundirishni» targ'ib qilgan markschilikning tegirmoniga suv quydi. Natijada uzoq yillar mobaynida tabiat estetikasiga e'tibor qaratilmadi. Biz me'moriy obidalarni asrash, tiklash haqida qayg'urdik, ularni estetik qadriyatlar deb e'lon qildik, lekin landshaft estetikasini chetga chiqarib qo'ydik. Hozirgi kunda shu narsa aniq bo'ldiki, tabiatni eng ulug' va mangu estetik qadriyat deb bilmaslik borib turgan estetik savodsizlikdir. Aniqrog'i, bugun tabiatsiz estetikani tasavvur qilish mumkin emas.

Buning sababi, birinchidan, tabiatni nosan'at estetik ob'ekt sifatida to'g'ridan-to'g'ri idrok eta olsak (bunga keyinroq bafurja to'xtalamiz), ikkinchidan, u san'at uchun insondan keyin eng boy material, manba; san'at vositasida in'ikos ettirilgan tabiat estetik qadriyat sifatida ma'naviyatimizni boyitib yashaydi. San'atda aks etgan tabiat o'zining g'oyaviy-badiiyliigi, abadiylikning o'chmas lahzasi, takrorlanmas go'zallik yoki ulug'vorlik, ba'zan esa, fojaviylik sifatida bizni doimiy rom etishi bilan ajralib turadi. Nosan'at estetik ob'ekt sifatida esa, tabiat faqat go'zallik va ulug'vorlikni ifodalaydi, g'oyaviy-badiiy urg'uga ega emas, hissiyotlarimizga san'atdagidek kuchli ta'sir ko'rsatolmaydi, ammo san'atda landshaftning butun go'zalligini aks ettirish imkoni yo'q. Masalan, o'tloqdagi giyohlar ranginligining o'rnini hech bir rassom bo'yog'i bosa olmaydi, ranglarning barchasini aks ettiraman desa, rassomning rangtasviri bir-biri bilan nouyg'un olachalpoq ranglar yig'indisidan iborat bo'lib qoladi, san'at asariga aylanmaydi. Rassom

⁵⁴ Кант И. Сочинения в 6 т. Т. 5. М., «Мысль», 1966. С.314.

bizga faqat o'tloqning bir parchasini, o'zi «tanlab olgan» qisminigina, «tanlangan» ranglarnigina ko'rsatishi mumkin. Yoki musiqa san'atiga aylangan tabiatni, deylik, Sayfi Jalilning dutorda ijro etilgan «To'rg'ay» kuyini bir-ikki, boringki, o'n-o'n besh marta eshitsangiz, huzur qilasiz, estetik zavq olasiz, biroq uni har kuni tinglasangiz, u kuy qanchalik buyuk san'at asari bo'lmasin, joningizga tegadi. Jonli to'rg'ayning sayraganini esa, yillar davomida har kuni eshitsangiz ham, har gal zavq olasiz. SHu sababli estetikada tabiatni ham nosan'at, ham san'atga aylangan estetik ob'ekt sifatida ikki yoqlama ilmiy yondashuv orqali o'rganish maqsadga muvofiq.

San'atga aylangan estetik ob'ekt sifatida tabiat deyarli barcha san'at turlarida va janrlarida o'z aksini topadi. Boshqacharoq aytganda, tabiatni «o'rganish», «tushunish» barcha san'at turlariga xos. Masalan, badiiy adabiyotda hikoyadan – romangacha, she'rdan – dostongacha tabiat manzarasi tasvirlanmaydigan biror janrni topish mumkin emas. O'rik daraxtining to'rt fasldagi holati, ko'klamdagi gullagan, yozda barg yozib, meva qilgan, kuzdagi oltin rangiga kirgan, qishda yalang'och, shoxlari nayzaga o'xshagan ko'rinishlari badiiy adabiyotda ham, rassomlikda ham o'z ifodasini topgan. O'zbek xalq kuyi «Cho'li iroq»da fojaviylikni, Betxovenning «Oydin sonati»sida inson qalbi evrilishlarining, xayolga cho'mgan quvonchning ifodasini ilg'aymiz. Me'morlikda yaproqlarning peshtoqlardagi xandasaviy jilvasi, haykaltaroshlikdagi go'zal kiyikning tasviri deysizmi, xullas, tabiat barcha san'at turlarida badiiy asarni go'zallashtirib, ulug'vorlashtirib turuvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, tabiat estetikasini «ekologik estetika» doirasiga tiqib qo'yish mumkin emas, uni texnika yoki mehnat estetikasidan keyin turadi, degan gaplar asossiz. U bugungi kunda san'atdan keyingi eng qamrovli tadqiqot ob'ektiga ega bo'lgan, muhimlardan muhimroq estetik nazariya turidir, uning «hurmatini joyiga qo'yish» vaqti allaqachon kelgan.

Ko'rib o'tganimiz – tabiat estetikasi bizni hozir avvalgi davrlarga qaraganda ancha olisdan o'rab turgan biologik muhitning hayotimizni go'zallashtirishdagi, umuman, estetiklashtirishdagi ahamiyatini tadqiq etsa, uni insonni «tabiiylashtirish» vositasi sifatida olib qarasa, texnika estetikasi, aksincha, bugungi kunda bizga eng yaqin bo'lgan noosferani – texnikaviy muhitni muntazam «insoniylashtirib» borish muammolarini o'rganadi.

Inson doimiy ravishda ravnaq topib boradigan mavjudot, uzoq davom etgan insoniy taraqqiyotning mahsuli, ya'ni, tosh asridagi va hozirgi odam, garchand ikkalasi ham odam deb atalsa-da, bir-biridan farq qiladi. Zamonaviy odam aqlan, axloqan nisbatan yuksak darajaga ko'tarilgan, jismonan esa, – go'zallashgan. Texnikani ana shu go'zallashgan inson yaratgan. Shu o'rinda imom G'azzoliyning inson va uning ijodiga nisbatan aytgan: «Yaratilgan yaratganiga o'xshaydi», degan so'zlarini yana bir bor eslaylik. Alloh insonni yaratib, uni o'ziga o'xshashini istasa, inson ham o'z ijodi mahsulining o'ziga o'xshash bo'lishini xohlaydi. Texnika inson ijodining mahsuli sifatida inson qanchalik nozik, qanchalik aqlli, qanchalik go'zal bo'lsa, shunga qarab o'zgarib boradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, so'nggi ikki asr mobaynida, ayniqsa, XX asrda inson tafakkuri, uning jisman va axloqan taraqqiyotidan ilgarilab ketdi. Chunki tafakkur, vujud va axloqdan farqli o'laroq, narsalarga aylanish xususiyatiga ega. Narsaga aylangan tafakkur tinimsiz ravishda yangi, o'zidan yuksakroq narsaga aylanadigan tafakkurni taqozo etadi, u esa, o'z navbatida yana yangi narsani yaratadi va shu tarzda tafakkur olg'a qarab boraveradi. Bu, biz, odatda, hisobga olmaydigan qonuniyat. Chunki tafakkurning nima ekani, u qanday qilib moddiy jarayonlarni o'zgartirishi hozircha noma'lum, vaholanki u biologik hodisa emas. «Tafakkur energiya shakli emas, – deydi akademik V.I.Vernadskiy. – Qanday qilib u moddiy jarayonlarni o'zgartira oladi? Bu savolga ilm hozircha javob topgan emas»⁵⁵. Nima bo'lganda ham, tafakkurning ravnaqqa qarab taraqqiy qilib borishi isbot talab qilmaydigan haqiqat. Ana shu

⁵⁵ Вернадский В.И. Начало и вечность жизни. М., «Советская Россия», 1989. С. 185.

ravnaqning sur'ati biz yaratgan texnika vositalarini tezkorlik bilan o'zgarib, qulaylashib, go'zallashib borishini ta'minlab kelmoqda. Bunda badiiy-texnik yoki estetik faoliyat hisoblanmish dizaynning roli katta.

Dizayn (inglizchada loyiha, chizma degani) XX asrning boshlarida «xunuk buyum yaxshi sotilmaydi» degan iqtisodiy talab asosida G'arbdagi sanoat ishlab chiqarishiga kirib keldi. Gap shundaki, inson bilan texnikaning eskicha shaklidagi o'zaro aloqasi endilikda yaxshi samara bermay qo'ygan edi. Unda inson texnologik rejimga moslashgan holda, tezlik, aniqlik, mustahkamlik kabi texnologik mezonlar asosida ishlaydigan ishchi sifatida baholanardi. Bu nafaqat insonparvarlik, balki texnikaviy ravnaq nuqtai nazaridan ham nomaqbul edi. Shu bois texnikani insoniylashtirish zaruriyati tug'ildi. Endi ishchi yo xizmatchining shaxsiy qiziqishi, ijodiylik kasb etgani holda, faqat mehnat natijasi bilan cheklanmasdan, mehnat jarayoni va uning mazmuniga ko'chib o'tishi lozim bo'lib qoldi. Bu – mehnatning estetik tabiat kasb etishi va insoniylashuvi demakdir. SHunday qilib, texnikani va ishlab chiqarish muhitini insoniylashtirish mehnatni faqat zaruriyat deb emas, balki ehtiyoj darajasida tushunishga olib keldi; texnikani insoniylashtirish muhitni insonga moslashtirishi barobarida, uni estetik tarzda tashkil etishni ham o'z ichiga oladigan bo'ldi.

Dizaynning zaruriyatga aylanishi nafaqat zamonaviy ilmiy-texnikaviy ravnaqqa, balki ommaviy ishlab chiqarish va umummadaniyat darajasining yuksakligiga ham bog'liq. Bunday sharoitda xaridor o'zining erkin tanlov imkoniyati bilan ishlab chiqarish taklif qilgan mahsulotni rad etishi va o'z ehtiyojiga javob beradigan tovarni yuqori baholashi mumkin. Ya'ni, xaridor o'z didiga mos narsani tanlaydi; xarid jarayoni «boriga baraka» tarzidagi tavakkalchilik holatiga emas, balki tovarga faol munosabat shakliga aylanadi. Ana shunday munosabatga loyiq bo'lishi uchun tovarning shakli muhim ahamiyatga molik. Tabiiyki, birinchi navbatda go'zal va ulug'vor ko'rinishga ega narsalargina jamiyatning e'tiborini qozonadi. SHunda tovarning umummezonga javob beradigan estetik qadriyat sifatida qabul qilinishi ro'y beradi va u ishlab chiqarishning xaridorga, xaridorning esa, ishlab chiqarishga estetik ta'sirini ta'minlaydi.

Shuni unutmashlik lozimki, har qanday konstruksiyachi-injener dizayner bo'lolmaydi. Injener-konstruktor, deylik, mashinani loyihalashtirar ekan, dastlab uning motoridan tortib, kuzovigacha bo'lgan qismlari loyihasini chizadi va shundan keyingina ularni bir-biri bilan bog'lab yaxlit mashina shakliga keltiradi. Natijada har bir qism alohida «o'z hayotiga» ega bo'ladi. YA'ni, mashina zamonaviylashtirilganida (modernizatsiya qilinganida) muayyan detallarni so'nggi loyiha asosida, alohida-alohida almashtirish jarayoni ro'y beradi. Dizaynchi-injener esa, mashinani go'zallik va ulug'vorlik qonuniyatlariga asoslanib, birdaniga muayyan yaxlitlik tarzida tasavvur qiladi. Bu yaxlitlik konstruksiyaga bo'ysunsa-da, o'zini badiiy ijod sifatida namoyon etadi. SHunday qilib, konstruktor-injener mazmunni, dizaynchi-injener shaklni yaratadi, ya'ni birinchi mutaxassis – texnik, ikkinchisi – estetik. Ikkala faoliyatning uyg'unligi tufayli zamonaviy xaridor talabiga javob beradigan mashina vujudga keladi va unda, istaymizmi-istamaymizmi, estetik ko'rinish yaxlitlik sifatida ustuvorlikka, xaridorgirlik ahamiyatiga ega bo'ladi. Zotan, eslaylik, SHiller aytganidek, shakl insonga butunisicha, mazmun – uning muayyan qismigagina ta'sir ko'rsatadi. Xaridor esa, eng avvalo inson.

Biroq, bu – dizaynda hamma narsa shakl bilan bog'liq ekan, degani emas. Unda ham san'atdagidek shakl va mazmun uyg'unligi asosiy omil hisoblanadi. Bunday uyg'unlikka birdan erishish qiyin, u bir necha texnikaviy bosqichlarning hosilasi sifatida vujudga keladi. Masalan, «Zinger» rusumli tikuv dastgohi XX asr davomida rivojlanib, dastlabki qo'pol ko'rinishidan «xohlasang ham, xohlamasang ham ishlaging keladigan» darajada go'zallashib, noziklashib, insonni o'zida ishlashga chaqirib turadigan mashinaga aylandi. YOki o'zimizdagi «Daewoo» korporatsiyasi bilan hamkorlikda ishlab chiqarilayotgan «Matiz» avtomobiliga e'tibor qiling. U dizayn nuqtai nazaridan o'zidan avvalgi kichik mashinalardan, xususan, «Tiko»dan

keskin farqlanadi. Uning yoʻlda engil borishi kishida xuddi suzib ketayotgandek tassurot uygʻotadi, asosiy chiroqlari

(faralari) ana shu taassurotingizga mos: ulkan baliqning koʻzlariga oʻxshaydi, oldindagi pastki ikki chiroq esa, sizga bodomqovoq – SHarq goʻzallariga yarashib turadigan qiyiq koʻzlarni eslatadi. Bunda avtomobilning tashqi koʻrinishi bilan mohiyati nihoyatda muvaffaqiyatli moslashtirilgan: «Matiz» – baliqdek silliq olgʻa intiladigan, «epchil», goʻzal, SHarqda ishlangan, sharqona mashina.

Qisqasi, bugungi kunda biz dizayn tufayli atrofimizdagi texnikaviy olamni odamiylashtirib, oʻzimizga, estetik didimizga moslashtirib borishga erishdik va erishmoqdamiz; hozir qalamimizdan tortib, kompyuterimizgacha, mashinamizdan tortib, koʻylagimizgacha – hammasi bizni har jihatdan qoniqtirishga qaratilgan.

Dizaynning tub ildizi, mohiyat nuqtai nazaridan, koʻrgazmali amaliy sanʼatga (xalq amaliy sanʼatiga) borib taqaladi: u ham, bu ham foydalilik, manfaatlilik xususiyatiga ega, yaʼni ular maqsadga muvofiqlikka emas, maqsadga xizmat qiladi. Lekin xalq amaliy sanʼatiga asos boʻlgan hunar, aytib oʻtganimizdek, sanʼatga aylanishi mumkin, dizayn esa, – dizaynligicha qoladi. Sababi shuki, hunarmand-usta har bir ashyoga, deydik, uzukka, qumgʻonga, xontaxtaga yoki naqshin qutichaga oʻz dunyosini, xaridorga mos ruhni singdiradi, yaʼni hunarmand-usta yasagan oʻnta mis laganda ustaning oʻn xil ruhiy holatini, kechinmalarini ilgʻash mumkin. Dizaynda esa, oʻn minglab yoki yuz minglab ashyolarga zamonaviy texnika vositasida dizaynchi-injenerning bir galgi ruhiy dunyosi singdiriladi. Keyinroq ular modernizatsiya qilinishi mumkin, lekin unda ham yana bir xillik avvalgisidan boshqacharoq namoyon boʻladi, usta esa, doimo yangi narsa yasaydi va mana shu yangilik rangbaranglik, individuallik hunar mahsulini sanʼat darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi. Bundan tashqari hunarmand har bir tovarni butunisicha badiiy-ashyoviy yaxlitlik sifatida olib qaraydi va ishlab chiqaradi. YAʼni unda mazmun ham shakl ham bir ruhiy dunyo va «bir qoʻlning» mehnati. Dizaynda esa, ashyolar

«turli qoʻl» ishlagan qismlarni bir mutaxassisning – dizaynning yaxlitlashtirishi natijasida oʻzini butunisicha namoyon qiladi. SHu sababli, hunarmandning mahsuloti – sanʼat, dizaynning ishi nosanʼat estetik faoliyat hisoblanadi. SHunga qaramay, dizayn va dizaynning ijodiy mehnati Er yuzida tobora koʻpayib borayotgan inson zotining zamonaviy iqtisodiy-maishiy hamda estetik ehtiyojini, maʼnaviy talablarini qondirishi bilan muhim hamda eʼtiborga loyiq. Texnika estetikasi esa, dizayn nazariyasi sifatida estetikaning oʻziga xos turi, usiz bugungi estetika fanini toʻliq tasavvur qilib boʻlmaydi.

Keyingi ikki asrdan ortiq vaqt mobaynida estetikani faqat sanʼat falsafasi sifatida talqin qilish haqiqatga zid ekani maʼlum boʻlib qoldi. CHunki asta-sekin «sanʼat estetikasi» yonida yana boshqa «estetikalar» paydo boʻla boshladi. Ularning baʼzilarini estetik faoliyat, estetik soha kabi atamalar bilan nomlashga urinib koʻrdik. Biroq bunday yondashuv doimo nazariy chalkashliklarga olib keldi, hozir ham oʻshanday manzarani koʻrish mumkin. Masalan, estetik faoliyat deganimizda sanʼatni tushunamiz, boringki, unga dizaynni ham qoʻshish mumkin. Lekin tabiatni yoki sportni estetik faoliyat deb aytolmaymiz, ularga taalluqli nazariyalarni estetika sohasi deyish ham qiyin. Chunki mohiyatan ular estetik faoliyat emas, balki estetik xususiyatlar namoyon boʻladigan voqelik va ular borasidagi nazariyalarni estetikaning qismlari deb atash ham ularga nisbatan toʻgʻri emas; bunday atama bilan biz estetika tarixi, estetika nazariyasi, estetik madaniyat singari fanning «katta-kichik» boʻlimlarini nazarda tutamiz.

Ana shunday har xilliklar koʻpgina adabiyotlarda, hatto estetika lugʻatida ham tez-tez uchrab turadi⁵⁶. Ulardan qutulish maqsadida biz estetikaning ikki qatordan iborat turlarga boʻlgan holda tasniflashtirishni maqsadga muvofiq deb oʻylaymiz. Birinchi qatorni estetikaning eng miqyosli turi – sanʼat estetikasi, ikkinchi qatorni esa, qolgan barcha, nosanʼat estetik obʼektga asoslangan estetik

⁵⁶ Қаранг: Эстетика. Словарь. С. 35, 276, 421.

nazariyalar tashkil etadi. Ular – tabiat estetikasi, turmush estetikasi, mehnat estetikasi, texnika estetikasi va sport estetikasi. San’at estetikasini alohida, keyingi boblarda ko‘rib chiqishimizni nazarda tutib, hozir nosan’at ob’ektlar estetikasi qatoridagi estetik nazariyalar turlarini qisqacha nazardan o‘tkazamiz.

Tabiat haqida gap ketganda, «tabiatni asrash», hatto «tabiatni qutqarish» degan so‘zlarni tez-tez eshitamiz. Xo‘sh, tabiatni kimdan asrash va qutqarish kerak? Odamdan, jamiyatdan. Demak, odam, markschilar ta’riflaganidek, tabiatning bir qismi emas, uni odam bir-birini bo‘ysundirganidek bo‘ysundirishi, «olamni tubdan o‘zgartirishi» mumkin emas. Aks holda, oxir-oxibat insoniyat, hayvonot va nabotot dunyosi halokatga mahkum etilishi muqarrar.

Keyingi bir asr mobaynida inson tafakkurining qudrati, fan-texnika taraqqiyoti jahonning deyarli barcha sivilizatsiyalashgan mintaqalarida landshaftning (er yuzi manzarasining) o‘zgarishiga, buzilishiga olib keldi. Masalan, birgina suv omborlarini olib ko‘raylik. Hozirgi paytda minglab kvadrat kilometr takrorlanmas landshaft suv ostida qolib ketdi. Vaholanki, landshaft hayvonlar, qushlar, o‘simliklar, suv, tuproq kabi qit’aviy xazinalarning uyg‘unligidir. Biz esa, tabiatga bo‘lgan xudbinlarcha munosabatimiz, unga qornimizni to‘ydiradigan, hayotimizni farovon qiladigan vosita deb qarashimiz tufayli ana shu uyg‘unlikni muntazam ravishda buzib kelmoqdamiz.

Biz tabiatni nutqlarimizda, she’rlarimizda, maqolalarimizda «Ona-tabiat» deb ataymiz. Darhaqiqat, tobimiz qochsa, shifokorlar bizga bahavo, shaffof suvli tabiat qo‘ynida joylashgan oromgohlarga borishni, kimsasiz daryo bo‘ylaridagi butazorlar orasida chodir qurib, bir muddat tashvishlardan forig‘ yashashni tavsiya etadilar. SHahar shovqinlaridan, mehnatdan, axborotlar siquvidan charchaganimizda, jamoa bilan yoki oilaviy tarzda shanba yo yakshanba kuni tabiat qo‘yniga chiqib dam olamiz. Toliqsak, doim «onamiz» qo‘yniga intilamiz, ona-tabiat bizni davolaydi, go‘zalligi bilan hayratlantiradi, ruhlantiradi. Lekin bir-ikki kundan so‘ng yana hammasini unutamiz, tag‘in tabiatga bir xizmatkordek qaraymiz. Nega shunday? CHunki biz uni tushunmaymiz, uni bilmaymiz. SHu sababli biror bir odamning yaxshi yoki yomonligiga asl sabablar nimaligini, uning mohiyatini bilmaganimiz, tushunmaganimiz uchun «falonchining tabiati o‘zi shunaqa», yoki muayyan hayvon yoxud o‘simlikning sir-sanoatidan bexabarligimiz tufayli uni «tabiatan o‘zi shunday» deyish bilan muammoga nuqta qo‘yamiz. Zero, tabiat olami kubromi (katta olammi), olami sug‘romi (kichik olammi), ya’ni, odammi, u – sirli, uni lozim darajada tushunmaymiz va bilmaymiz. Har qancha ekologiyaga e’tibor qilmaylik, uni fan sifatida zo‘r berib o‘qitmaylik, baribir tabiatni tushunishimiz qiyin, zotan ekologiya tabiatni asrashni, qutqarishni, boyitishni targ‘ib qiladi. Biroq ularning hammasiga faqat estetika yordamida, uning ekologiya bilan hamkorligi orqali erishish mumkin. CHunki estetika insonga tabiatni sevishtni, uning go‘zalligiga beg‘araz munosabatda bo‘lishni o‘rgatadi, ya’ni, tabiatni faqat odamlar uchun yaratilgan deb emas, uni jamiyatdan tashqaridagi umumolammiy mustaqil qadriyat sifatida idrok etishni taqozo qiladi.

Ha, tabiat go‘zallik va ulug‘vorlik manbai, lekin faqat inson uchungina shunday emas. Masalan, bulbul tunda, odamlar uxlaganda sayraydi, namozshomgul va ba’zi boshqa gullar faqat qorong‘u tushayotgan paytdan boshlab ochiladi. Demak, hayvonlarni, o‘tloqlarni, daraxtlarni, daryolarni, tog‘larni faqat «biz uchun» deb emas, «biz uchun ham» deb tushunishimiz lozim.

Buyuk Kant tabiatni axloqiylik bilan bog‘laydi: «Kimmiki bevosita tabiat go‘zalligi qiziqtirsa, bu uning fikrlash tarzida, yo‘q deganda, axloqiylikka, ezgulikka qobiliyati mavjudligidan dalolat beradi», – deydi u.⁵⁷ Ammo Hegelning, tabiatda ideal yo‘q, shu sababli u ikkinchi darajali go‘zallik turi, degan fikri estetikada hukmronlik qilib keldi, ayniqsa, bu fikr tabiatni «bo‘ysundirishni» targ‘ib qilgan markschilikning tegirmoniga suv quydi. Natijada uzoq

⁵⁷ Кант И. Сочинения в 6 т. Т. 5. М., «Мысль», 1966. С.314.

yillar mobaynida tabiat estetikasiga e'tibor qaratilmadi. Biz me'moriy obidalarni asrash, tiklash haqida qayg'urdik, ularni estetik qadriyatlar deb e'lon qildik, lekin landshaft estetikasini chetga chiqarib qo'ydik. Hozirgi kunda shu narsa aniq bo'ldiki, tabiatni eng ulug' va mangu estetik qadriyat deb bilmaslik borib turgan estetik savodsizlikdir. Aniqrog'i, bugun tabiatsiz estetikani tasavvur qilish mumkin emas.

Buning sababi, birinchidan, tabiatni nosan'at estetik ob'ekt sifatida to'g'ridan-to'g'ri idrok eta olsak (bunga keyinroq bafurja to'xtalamiz), ikkinchidan, u san'at uchun insondan keyin eng boy material, manba; san'at vositasida in'ikos ettirilgan tabiat estetik qadriyat sifatida ma'naviyatimizni boyitib yashaydi. San'atda aks etgan tabiat o'zining g'oyaviy-badiiyligi, abadiylikning o'chmas lahzasi, takrorlanmas go'zallik yoki ulug'vorlik, ba'zan esa, fojiviylik sifatida bizni doimiy rom etishi bilan ajralib turadi. Nosan'at estetik ob'ekt sifatida esa, tabiat faqat go'zallik va ulug'vorlikni ifodalaydi, g'oyaviy-badiiy urg'uga ega emas, hissiyotlarimizga san'atdagidek kuchli ta'sir ko'rsatolmaydi, ammo san'atda landshaftning butun go'zalligini aks ettirish imkoni yo'q. Masalan, o'tloqdagi giyohlar ranginligining o'rnini hech bir rassom bo'yog'i bosa olmaydi, ranglarning barchasini aks ettiraman desa, rassomning rangtasviri bir-biri bilan nouyg'un olachalpoq ranglar yig'indisidan iborat bo'lib qoladi, san'at asariga aylanmaydi. Rassom bizga faqat o'tloqning bir parchasini, o'zi «tanlab olgan» qisminigina, «tanlangan» ranglarnigina ko'rsatishi mumkin. YOki musiqa san'atiga aylangan tabiatni, deylik, Sayfi Jalilning dutorda ijro etilgan «To'rg'ay» kuyini bir-ikki, boringki, o'n-o'n besh marta eshitsangiz, huzur qilasiz, estetik zavq olasiz, biroq uni har kuni tinglasangiz, u kuy qanchalik buyuk san'at asari bo'lmasin, joningizga tegadi. Jonli to'rg'ayning sayraganini esa, yillar davomida har kuni eshitsangiz ham, har gal zavq olasiz. SHu sababli estetikada tabiatni ham nosan'at, ham san'atga aylangan estetik ob'ekt sifatida ikki yoqlama ilmiy yondashuv orqali o'rganish maqsadga muvofiq.

San'atga aylangan estetik ob'ekt sifatida tabiat deyarli barcha san'at turlarida va janrlarida o'z aksini topadi. Boshqacharoq aytganda, tabiatni «o'rganish», «tushunish» barcha san'at turlariga xos. Masalan, badiiy adabiyotda hikoyadan – romangacha, she'rdan – dostongacha tabiat manzarasi tasvirlanmaydigan biror janrni topish mumkin emas. O'rik daraxtining to'rt fasldagi holati, ko'klamdagi gullagan, yozda barg yozib, meva qilgan, kuzdagi oltin rangiga kirgan, qishda yalang'och, shoxlari nayzaga o'xshagan ko'rinishlari badiiy adabiyotda ham, rassomlikda ham o'z ifodasini topgan. O'zbek xalq kuyi «CHO'li iroq»da fojiviylikni, Betxovenning «Oydin sonati»sida inson qalbi evrilishlarining, xayolga cho'mgan quvonchning ifodasini ilg'aymiz. Me'morlikda yaproqlarning peshtoqlardagi xandasaviy jilvasi, haykaltaroshlikdagi go'zal kiyikning tasviri deysizmi, xullas, tabiat barcha san'at turlarida badiiy asarni go'zallashtirib, ulug'vorlashtirib turuvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, tabiat estetikasini «ekologik estetika» doirasiga tiqib qo'yish mumkin emas, uni texnika yoki mehnat estetikasidan keyin turadi, degan gaplar asossiz. U bugungi kunda san'atdan keyingi eng qamrovli tadqiqot ob'ektiga ega bo'lgan, muhimlardan muhimroq estetik nazariya turidir, uning «hurmatini joyiga qo'yish» vaqti allaqachon kelgan.

Ko'rib o'tganimiz – tabiat estetikasi bizni hozir avvalgi davrlarga qaraganda ancha olisdan o'rab turgan biologik muhitning hayotimizni go'zallashtirishdagi, umuman, estetiklashtirishdagi ahamiyatini tadqiq etsa, uni insonni «tabiiylashtirish» vositasi sifatida olib qarasa, texnika estetikasi, aksincha, bugungi kunda bizga eng yaqin bo'lgan noosferani – texnikaviy muhitni muntazam «insoniylashtirib» borish muammolarini o'rganadi.

Inson doimiy ravishda ravnaq topib boradigan mavjudot, uzoq davom etgan insoniy taraqqiyotning mahsuli, ya'ni, tosh asridagi va hozirgi odam, garchand ikkalasi ham odam deb atalsa-da, bir-biridan farq qiladi. Zamonaviy odam aqlan, axloqan nisbatan yuksak darajaga ko'tarilgan, jismonan esa, – go'zallashgan. Texnikani ana shu go'zallashgan inson yaratgan. SHu o'rinda imom G'azzoliyning inson va uning ijodiga nisbatan aytgan: «YAratilgan yaratganiga

o'xshaydi", degan so'zlarini yana bir bor eslaylik. Alloh insonni yaratib, uni o'ziga o'xshashini istasa, inson ham o'z ijodi mahsulining o'ziga o'xshash bo'lishini xohlaydi. Texnika inson ijodining mahsuli sifatida inson qanchalik nozik, qanchalik aqlli, qanchalik go'zal bo'lsa, shunga qarab o'zgarib boradi.

SHuni alohida ta'kidlash lozimki, so'nggi ikki asr mobaynida, ayniqsa, XX asrda inson tafakkuri, uning jisman va axloqan taraqqiyotidan ilgarilab ketdi. CHunki tafakkur, vujud va axloqdan farqli o'laroq, narsalarga aylanish xususiyatiga ega. Narsaga aylangan tafakkur tinimsiz ravishda yangi, o'zidan yuksakroq narsaga aylanadigan tafakkurni taqozo etadi, u esa, o'z navbatida yana yangi narsani yaratadi va shu tarzda tafakkur olg'a qarab boraveradi. Bu, biz, odatda, hisobga olmaydigan qonuniyat. CHunki tafakkurning nima ekani, u qanday qilib moddiy jarayonlarni o'zgartirishi hozircha noma'lum, vaholanki u biologik hodisa emas. «Tafakkur energiya shakli emas, – deydi akademik V.I.Vernadskiy. – Qanday qilib u moddiy jarayonlarni o'zgartira oladi? Bu savolga ilm hozircha javob topgan emas»⁵⁸. Nima bo'lganda ham, tafakkurning ravnaqqa qarab taraqqiy qilib borishi isbot talab qilmaydigan haqiqat. Ana shu ravnaqning sur'ati biz yaratgan texnika vositalarini tezkorlik bilan o'zgarib, qulaylashib, go'zallashib borishini ta'minlab kelmoqda. Bunda badiiy-texnik yoki estetik faoliyat hisoblanmish dizaynning roli katta.

Dizayn (inglizchada loyiha, chizma degani) XX asrning boshlarida «xunuk buyum yaxshi sotilmaydi» degan iqtisodiy talab asosida G'arbdagi sanoat ishlab chiqarishiga kirib keldi. Gap shundaki, inson bilan texnikaning eskicha shaklidagi o'zaro aloqasi endilikda yaxshi samara bermay qo'ygan edi. Unda inson texnologik rejimga moslashgan holda, tezlik, aniqlik, mustahkamlik kabi texnologik mezonlar asosida ishlaydigan ishchi sifatida baholanardi. Bu nafaqat insonparvarlik, balki texnikaviy ravnaq nuqtai nazaridan ham nomaqbul edi. SHu bois texnikani insoniylashtirish zaruriyati tug'ildi. Endi ishchi yo xizmatchining shaxsiy qiziqishi, ijodiylik kasb etgani holda, faqat mehnat natijasi bilan cheklanmasdan, mehnat jarayoni va uning mazmuniga ko'chib o'tishi lozim bo'lib qoldi. Bu – mehnatning estetik tabiat kasb etishi va insoniylashuvi demakdir. SHunday qilib, texnikani va ishlab chiqarish muhitini insoniylashtirish mehnatni faqat zaruriyat deb emas, balki ehtiyoj darajasida tushunishga olib keldi; texnikani insoniylashtirish muhitni insonga moslashtirishi barobarida, uni estetik tarzda tashkil etishni ham o'z ichiga oladigan bo'ldi.

Dizaynning zaruriyatga aylanishi nafaqat zamonaviy ilmiy-texnikaviy ravnaqqa, balki ommaviy ishlab chiqarish va umummadaniyat darajasining yuksakligiga ham bog'liq. Bunday sharoitda xaridor o'zining erkin tanlov imkoniyati bilan ishlab chiqarish taklif qilgan mahsulotni rad etishi va o'z ehtiyojiga javob beradigan tovarni yuqori baholashi mumkin. YA'ni, xaridor o'z didiga mos narsani tanlaydi; xarid jarayoni «boriga baraka» tarzidagi tavakkalchilik holatiga emas, balki tovarga faol munosabat shakliga aylanadi. Ana shunday munosabatga loyiq bo'lishi uchun tovarning shakli muhim ahamiyatga molik. Tabiiyki, birinchi navbatda go'zal va ulug'vor ko'rinishga ega narsalargina jamiyatning e'tiborini qozonadi. SHunda tovarning umummezonga javob beradigan estetik qadriyat sifatida qabul qilinishi ro'y beradi va u ishlab chiqarishning xaridorga, xaridorning esa, ishlab chiqarishga estetik ta'sirini ta'minlaydi.

SHuni unutmaslik lozimki, har qanday konstruksiyachi-injener dizayner bo'lolmaydi. Injener-konstruktor, deylik, mashinani loyihalashtirar ekan, dastlab uning motoridan tortib, kuzovigacha bo'lgan qismlari loyihasini chizadi va shundan keyingina ularni bir-biri bilan bog'lab yaxlit mashina shakliga keltiradi. Natijada har bir qism alohida «o'z hayotiga» ega bo'ladi. YA'ni, mashina zamonaviylashtirilganida (modernizatsiya qilinganida) muayyan detallarni so'nggi loyiha asosida, alohida-alohida almashtirish jarayoni ro'y beradi. Dizaynchi-injener esa, mashinani go'zallik va ulug'vorlik qonuniyatlariga asoslanib, birdaniga muayyan yaxlitlik tarzida tasavvur

⁵⁸ Вернадский В.И. Начало и вечность жизни. М., «Советская Россия», 1989. С. 185.

qiladi. Bu yaxlitlik konstruksiyaga bo‘ysunsa-da, o‘zini badiiy ijod sifatida namoyon etadi. SHunday qilib, konstruktor-injener mazmuni, dizaynchi-injener shaklni yaratadi, ya’ni birinchi mutaxassis – texnik, ikkinchisi – estetik. Ikkala faoliyatning uyg‘unligi tufayli zamonaviy xaridor talabiga javob beradigan mashina vujudga keladi va unda, istaymizmi-istamaymizmi, estetik ko‘rinish yaxlitlik sifatida ustuvorlikka, xaridorgirlik ahamiyatiga ega bo‘ladi. Zotan, eslaylik, Shiller aytganidek, shakl insonga butunisicha, mazmun – uning muayyan qismigagina ta’sir ko‘rsatadi. Xaridor esa, eng avvalo inson.

Biroq, bu – dizaynda hamma narsa shakl bilan bog‘liq ekan, degani emas. Unda ham san’atdagidek shakl va mazmun uyg‘unligi asosiy omil hisoblanadi. Bunday uyg‘unlikka birdan erishish qiyin, u bir necha texnikaviy bosqichlarning hosilasi sifatida vujudga keladi. Masalan, «Zinger» rusumli tikuv dastgohi XX asr davomida rivojlanib, dastlabki qo‘pol ko‘rinishidan «xohlasang ham, xohlamasang ham ishlaging keladigan» darajada go‘zallashib, noziklashib, insonni o‘zida ishlashga chaqirib turadigan mashinaga aylandi. Yoki o‘zimizdagi «Daewoo» korporatsiyasi bilan hamkorlikda ishlab chiqarilayotgan «Matiz» avtomobiliga e’tibor qiling. U dizayn nuqtai nazaridan o‘zidan avvalgi kichik mashinalardan, xususan, «Tiko»dan keskin farqlanadi. Uning yo‘lda engil borishi kishida xuddi suzib ketayotgandek tassurot uyg‘otadi, asosiy chiroqlari (faralari) ana shu taassurotingizga mos: ulkan baliqning ko‘zlariga o‘xshaydi, oldindagi pastki ikki chiroq esa, sizga bodomqovoq – SHarq go‘zallariga yarashib turadigan qiyiq ko‘zlarni eslatadi. Bunda avtomobilning tashqi ko‘rinishi bilan mohiyati nihoyatda muvaffaqiyatli moslashtirilgan: «Matiz» – baliqdek silliq olg‘a intiladigan, «epchil», go‘zal, SHarqda ishlangan, sharqona mashina.

Qisqasi, bugungi kunda biz dizayn tufayli atrofimizdagi texnikaviy olamni odamiylashtirib, o‘zimizga, estetik didimizga moslashtirib borishga erishdik va erishmoqdamiz; hozir qalamimizdan tortib, kompyuterimizgacha, mashinamizdan tortib, ko‘ylagimizgacha – hammasi bizni har jihatdan qoniqtirishga qaratilgan.

Dizaynning tub ildizi, mohiyat nuqtai nazaridan, ko‘rgazmali amaliy san’atga (xalq amaliy san’atiga) borib taqaladi: u ham, bu ham foydalilik, manfaatlilik xususiyatiga ega, ya’ni ular maqsadga muvofiqlikka emas, maqsadga xizmat qiladi. Lekin xalq amaliy san’atiga asos bo‘lgan hunar, aytib o‘tganimizdek, san’atga aylanishi mumkin, dizayn esa, – dizaynligicha qoladi. Sababi shuki, hunarmand-usta har bir ashyoga, deydik, uzukka, qumg‘onga, xontaxtaga yoki naqshin qutichaga o‘z dunyosini, xaridorga mos ruhni singdiradi, ya’ni hunarmand-usta yasagan o‘nta mis laganda ustaning o‘n xil ruhiy holatini, kechinmalarini ilg‘ash mumkin. Dizaynda esa, o‘n minglab yoki yuz minglab ashyolarga zamonaviy texnika vositasida dizaynchi-injenerning bir galgi ruhiy dunyosi singdiriladi. Keyinroq ular modernizatsiya qilinishi mumkin, lekin unda ham yana bir xillik avvalgisidan boshqacharoq namoyon bo‘ladi, usta esa, doimo yangi narsa yasaydi va mana shu yangilik rangbaranglik, individuallik hunar mahsulini san’at darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi. Bundan tashqari hunarmand har bir tovarni butunisicha badiiy-ashyoviy yaxlitlik sifatida olib qaraydi va ishlab chiqaradi. YA’ni unda mazmun ham shakl ham bir ruhiy dunyo va «bir qo‘lning» mehnati. Dizaynda esa, ashyolar «turli qo‘l» ishlagan qismlarni bir mutaxassisning – dizaynning yaxlitlashtirishi natijasida o‘zini butunisicha namoyon qiladi. SHu sababli, hunarmandning mahsuloti – san’at, dizaynning ishi nosan’at estetik faoliyat hisoblanadi. SHunga qaramay, dizayn va dizaynning ijodiy mehnati Er yuzida tobora ko‘payib borayotgan inson zotining zamonaviy iqtisodiy-maishiy hamda estetik ehtiyojini, ma’naviy talablarini qondirishi bilan muhim hamda e’tiborga loyiq. Texnika estetikasi esa, dizayn nazariyasi sifatida estetikaning o‘ziga xos turi, usiz bugungi estetika fanini to‘liq tasavvur qilib bo‘lmaydi.

San’at – estetik faoliyatning o‘ziga xos turi, sehri ma’naviy ko‘zgu. Sehri shundaki, san’at asarini idrok etayotgan odam unda ham shu asarni yaratgan inson dunyosini, ham o‘z dunyosini qadriyatlar prizmasi orqali ko‘radi; o‘zining qandayligini va qaerdaligini, yutuqlarini va nuqsonlarini, aqlini va hissiyotlarini aniqlashtirib oladi. Uning estetik mohiyati makon va

zamondagi voqelik vositasida go‘zallik, ulug‘vorlik, fojeaviylik, kulgililik, xunuklik, tubanlik v.b. estetik xususiyatlarni in‘ikos ettirishi hamda ularni baholashi bilan belgilanadi. San‘at qadriyatlarining qadrlanishini va qadrsizlangan qadriyatlarni ko‘rsatib beradi, bir odam yoki bir necha odam timsolida odam bilan olamning yaxlit, umumlashgan qiyofasini yaratadi, ularning uyg‘unligini ta‘minlaydi. U kishini yashashga o‘rgatadi, go‘zallikka da‘vat etadi, ma‘naviy yuksaltiradi. SHu sababli insoniyat tarixida san‘atsiz yashab o‘tilgan birorta ham davr yo‘q.

Faylasuf-nafosatshunoslar o‘rtasida san‘atning kelib chiqishi muhim muammolardan bo‘lib kelgan. San‘atning kelib chiqishi deganda ko‘pchilik g‘orlarning tosh davrlariga ibtidoiy davrlarda chizilgan ov manzalari va ov hayvonlarining tasvirini nazarda tutadi. Vaholanki gap bu erda san‘atning qanday paydo bo‘lganligi emas, balki nimadan paydo bo‘lganligi to‘g‘risida borishi kerak. Ba‘zilar uni taqliddan, bosh: erotik hissiyotlardan, kimlardir o‘yindan, kimdir mehnatdan kelib chiqqan deb hisoblaydilar. Bunday nazariyalar va konsepsiyalar anchagina, lekin ular orasidagi ikkitasining tarafdorlari ko‘pchilikni tashkil etadi. Ulardan biri – insonni hayvonlik darajasidan odamlilik pog‘onasiga ko‘targan narsa mehnat, san‘at ham mehnatdan, insonning olamni o‘zgartirishga bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqqan, san‘at faqat ijtimoiy hodisa degan moddiyatchilar ilgari surgan qarash. Ikkinchisi – san‘at insonga berilgan ilohiy zavqning, ma‘naviy olamning o‘yin orqali namoyon bo‘lishi, degan ma‘naviyatchilar nazariyasi. Biz ana shu ikkinchi qarash tarafdorimiz. Buning sababi shuki, mehnat, qanchalik qadrlamaylik, qanchalik sharaflamaylik, u – majburiyat bilan bog‘liq, maqsadga yo‘naltirilgan ijtimoiy hodisa, o‘yin esa har qanday majburiyatdan yiroq, maqsadga muvofiqlik bilan shartlanadigan individualijtimoiy hodisa. Demak, mehnat –zaruriyat, o‘yin – erkinlik. Inson mohiyatan erkin va erkinlikka intilib yashaydigan mavjudot sifatida o‘z erkinligini eng avvalo o‘yinda namoyon qiladi. O‘yinsiz insonning yashashi mumkin emas, usiz inson hayoti jahannam. Bu o‘rinda yana bir bor SHillerning mashhur fikrini keltirish o‘rinli: «Inson faqat tom ma‘noda inson bo‘lgandagina o‘ynaydi va o‘ynayotgan paytdagina to‘liq insonga aylanadi.

O‘yin nazariyasining XX asrda eng yirik namoyandasi niderlandlik faylasuf – nafosatshunos YOxon Huyzinga o‘zining «Homo ludens» (O‘ynayotgan odam) asarida o‘yin umumbashariy madaniyat vujudga kelishining va taraqqiy topishining sharti degan g‘oyani ilgari suradi. SHopenhauer uchun «ixtiyor atamasi qanday ahamiyatga ega bo‘lsa, Huyzinga uchun «o‘yin» tushunchasi shunday qamrovli, o‘yin hayvonot olamida ham, insoniyat jamiyatida ham ibtidolar ibtidosi: «Huquq, go‘zallik, haqiqat, ezgulik, ruh, Xudo singari deyarli barcha mavhum tushunchalarni inkor etish mumkin, - deb yozadi faylasuf. – Jiddiylikni inkor etsa bo‘ladi. O‘yinni esa – yo‘q». Boshqa bir o‘rinda to‘g‘ridan-to‘g‘ri «o‘yin erkindir, o‘yin erkinlikdir», degan fikrini bildiradi.

SHuni aytish kerakki, hayvonot olamidagi o‘yinning insoniyat jamiyatidagi o‘yindan farqi bor. Insonning o‘yini esa, ma‘naviy hodisa, to‘g‘rirog‘i, ijtimoiylashgan ma‘naviyat, u eng avvalo estetik ehtiyojni qondirishga qaratilgan. O‘yinning inson hayotidagi barcha sohalarda ishtirok etishini, uning rang-barangligi, qamrovligi, universalligini va erkinlik bilan bog‘liqligini o‘zbek tilidagi «o‘yini o‘zagidan yasalgan so‘zlarining ko‘pma‘noliligida, ham ko‘rishimiz mumkin. SHu o‘zakdan yasalgan so‘z va iboralardan bir nechasini keltiramiz: shaxmat o‘yini; so‘z o‘yini; «siyosatchining» o‘yini, aktyor o‘yini; «o‘rtaga, chiqib o‘ynab ketdi», «yuragi o‘ynab ketdi», «ko‘zi o‘ynab ketdi»; «dorbozlar yaxshi o‘yin ko‘rsatadi»; «Salim kechagi to‘yda toza o‘yin ko‘rsatdi». v.h.

Ma‘lumki, hech qanday o‘yin jarayoni bir kishi ishtirokida ma‘noga ega bo‘lmaydi, u o‘yin emas. O‘yinning, o‘yin bo‘lishi uchun kamida ikki odam kerak. CHunki unda inson o‘zini, biror bir sohadagi mahoratini boshqalarga ko‘rsatadi, o‘z imkoniyatlarini o‘zgalarga namoyish etadi. Demak, o‘yin-jamoaviylik bilan o‘yin; bir o‘zi uchun o‘ynagan odam esa, odatda aqlan ozgan

hisoblanadi. San'at ham shunday: u yo o'quvchiga, yo tinglovchiga, yo tomoshabinga mo'ljallangan bo'ladi, bu – san'atning yashash sharti.

O'yin beg'arazlikni talab qiladi, g'arazli manfaat aralashdimi, demak, o'yin – yo'qqa chiqadi, hatto, yuzaki qaraganda, maqsadga yo'naltirilgan sport o'yinlarida ham muhimi hisob emas, o'yin ko'rsatish. Masalan, «Paxtakor» yutqazsa ham, lekin yaxshi o'yin ko'rsatdi, yigitlar baraka topishsin!» yoki «Hisob 3 : 1 bo'lgani bilan, afsuski, o'yin yaxshi bo'lmadi», degan tomoshabinlarning gaplariga e'tibor qiling. Unda o'yindagi hisobdan emas, o'yinning o'yinligidan qoniqish hosil qilish, ya'ni manfaat emas, beg'arazlik birinchi o'rinda turganini ko'ramiz.

Bundan tashqari, o'yinning inson uchun yana bir zaruriy jihati, unda odam real hayotda topolmagan narsasini topadi, bir muddat bo'lsa-da tasavvurdagi o'zi uchun o'ylab topgan yangi reallikdagidan go'zalroq, ulug'vorroq hayotda yashaydi. Ana shunday o'yin – badiiy asarning shaklida ham, mazmunida ham erkin va beg'araz ifoda topadi. Ijodkor o'yin qoidalariga – badiiy asar talablariga bo'ysunishi shart, uning biror-bir narsani me'yoridan ortiq asar hujayrasiga tiqishtirishi o'yinni – asarni buzadi. SHunday qilib, san'at o'yinning ijtimoiylashgan shakli – tasavvur o'yini, tafakkur o'yini, so'z o'yini, rang o'yini, ohang o'yini va tavush o'yini.

Unda insonning barcha a'zolari yagona hissiy-intellektual yaxlitlik sifatida o'ynaydi. Mehnat san'atning estetik faoliyat ekani bilan bog'liq, ya'ni o'yinga tayyorgarlik va uni amalga oshirish jarayoni mehnatni, ijodiy mehnatni taqozo etadi, u iste'dod bilan yonma-yon faoliyat ko'rsatadi.

San'atning xususiyatlari va tamoyillari

Ma'joziylik xususiyati. Boshqacha qilib aytganda, narsa-hodisalar yoki so'ziboralarining ko'chma ma'nolarda, ko'p ma'noli tarzda qo'llanilishi san'atning san'atligini belgilab beradi. Majoziylik, keng ma'noda olganda, badiiy qiyofo yaratish, umumlashtirish, ramziylik, o'xshatish, sifatlash, jonlantirish, istiora, kinoya singari badiiy vosita va usullarni o'z ichiga oladi. Misol uchun, daryo. U aslida biologik hodisa sifatida bitta narsani anglatadi: manbaidan to quyilish joyigacha doimiy oqib turadigan katta suv. san'atda esa u – inson umri, hayot beruvchi manba, insonning kengligi v.h. Badiiy asarda u pishqiradi, o'ynoqlaydi, yuguradi, hikoya so'ylab beradi, ertak aytib beradi v.b. sifatlar bilan jonlanadi, odamiylashtiriladi. Majoziylik hususiyati, xullas, san'atning yashash shartlaridan biri, u yo'q joyda – san'at ham yo'q.

Demokratik xususiyati. San'atning demokratik xususiyati ham uning yashash shartlaridan biri. Bu xususiyat eng avvalo erkinlik bilan bog'liq. Ijodkor fikr erkinligi, so'z erkinligi, g'oya erkinligi, mavzu erkinligi, uslub erkinligi, rang erkinligi v.b. ijodiy erkinliklar tizimiga ega bo'lsagina, ulardan o'z o'rnida foydalana olsagina, uning asarini san'at namunasi deb atash mumkin. Ijodkorga, siyosiy-mafkuraviy zo'ravonlik qilish, uni majburlash, qo'rqitish orqali ta'sir ko'rsatish kabi hodisalar san'at uchun o'lim demakdir. Faqat ijod emas, badiiy asarni estetik idrok etish jarayoni ham erkin bo'lishi kerak, bunda ham majburiylik, zo'ravonlik mumkin emas. Zero, har qanday san'at asari erkin xohish-ixtiyor bilan idrok etilgandagina, u yashab qolish imkoniga ega bo'ladi. Bu masalaning bir tomoni, ikkinchi tomoni - san'atni yaratuvchilar orasidagi demokratiya bilan bog'liq.

Ijtimoiylik xususiyati. Ijtimoiylik ham san'atning muhim xususiyatlaridan hisoblanadi. Har bir san'at asari o'z davrning dolzarb muammolarini, etakchi g'oyalarini, muayyan mafkurani ko'tarib chiqmasligi mumkin emas. Faqat ular go'zallik, ulug'vorlik, kulgililik, ezgulik, ideal kabi estetik va axloqiy qadriyatlar bilan uyg'un tarzda idrok etuvchiga etkazib beriladi. Zero san'at asarida asosiy «voqealar» markazida turuvchi badiiy qiyofo biz asar qahramoni – qahramon deb atashimiz ham shundan: ijtimoiylik yo'q joyda qahramonlikning mavjud bo'lishi mumkin emas. San'atning bu xususiyati uning zamonaviylik, mafkuraviylik, hozirjavoblik, dolzarblik singari

tamoyillari va sifatлари bilan bog‘liq. Ayni paytda san‘atning individuallashtirish xususiyati ham mavjud.

Tarixiylik xususiyati. Har bir haqiqiy san‘at asari, vaqt nuqtai nazaridan zamonaviy yoki tarixiylikdan qat‘i nazar, u – tarix, badiiylashtirilgan tarix. Masalan, Abulqosim Firdavsiyning «SHohnoma» asari X-XI asrlarda yaratilgan, milodgacha va miloddan keyingi dastlabki davrlardagi Eron ijtimoiy-siyosiy hayotidan olib yozilgan tarix, faqat badiiylashtirilgan, umumlashtirilgan tarix. Ayni paytda «SHohnoma»ning yaratilishi bilan bog‘liq tarix ham mavjud. «SHohnoma» o‘z ibtidosidan tarixiy asar sifatida qabul qilinadi. Tarixiylikning yana bir boshqa jihati borki, unda asar dastavval zamonaviy san‘at namunasi sifatida namoyon bo‘ladi va keyinchalik u o‘z davrining badiiy qiyofalar vositasida yaratilgan tarixiga aylanib qoladi.

Milliy va umumbashariylik xususiyati. Bu o‘rinda biz, e‘tibor qilsangiz, milliylikni umumbashariylik bilan birga, ajralmagan holda keltiryapmiz. Gap shundaki, ularni boshqa barcha sohalarida alohida-alohida olib qarash mumkin. Faqat san‘atda emas, san‘atda ular dialektik yaxlitlikda namoyon bo‘ladi. YA‘ni haqiqiy milliy qadriyatga aylangan badiiy asargina asl umuminsoniylikni va aksincha, haqiqiy umumbashariy qadriyatga aylangan asargina tom ma‘nodagi milliylikni o‘zida mujassam etadi. CHunki inson ravnaq topib, taraqqiy qilishi uchun milliylikdan umuminsoniylikka qarab borishi kerak, tarixda ham doimo shunday bo‘lib kelgan.

Inson esa san‘atning badiiy tadqiqot ob‘ekti. SHu sababli milliy mahdudlikni targ‘ib etgan yoki hech qanday milliy ildizga ega bo‘lmagan «umuman» insonni, milliy-mintaqaviy hududlardan tashqaridagi «muallaq» odamni tasvirlagan badiiy asar hech qachon san‘at darajasiga ko‘tarila olmaydi.

Originallik (yangilik)-ijodiylik tamoyili. Har bir ma‘naviy hodisada bo‘lganidek, san‘atda ham uning asosini tashkil etadigan, tamal toshi vazifasini o‘taydigan tamoyillar mavjud. Ulardan birinchisi - san‘atning yangilik (originallik) yoxud ijodiylik tamoyili. CHunki ijod mahsuli, ijod qilishi – kashf etish, shu kungacha mavjud bo‘lmagan narsani yaratish demakdir. Bunday yangilik muayyan san‘at asarining shakl, mazmun, uslub v.b. jihatlari bilan o‘zidan avvalgi asarlarini takrorlamasligini, o‘sha asarlar bilan yonma-yon qo‘yganda, ulardan ijobiy o‘ziga xosligi tufayli ajralib turishini taqozo etadi.

Haqqoniylik tamoyili. U san‘at asarida in‘ikos etayotgan inson xatti-harakatlarining, ilg‘or g‘oyalarning, badiiy usullarning, butun ifodaviy-tasviriy vositalarning bir-biri bilan uyg‘un, maqsadga muvofiq tarzda berilishini ta‘minlaydi. Zero umumiylikni – xususiylikda aks ettirish, makon, zamon va inson yaxlitligini badiiy qiyofalarga ko‘chirish san‘atkor uchun eng murakkab ish. Bunda iste‘dod, xayolot, tasavvur va mahorat katta rol o‘ynaydi. Asardagi har bir epizod, har bir rang, har bir misra, har bir tovush idrok etuvchini ishontirishi, unda shubha uyg‘otmasligi kerak. San‘atkor uni, qadimgi yunonlar ta‘biri bilan aytganda, «go‘zal yolg‘onga» ishontirishi, ro‘y bermagan, lekin ro‘y berishi mumkin bo‘lgan voqelikni ro‘y bergan deb idrok etishga «majbur qilishi» lozim. SHu sababli haqqoniylikni faqat real hayotga yaqinlik – hayotiylik bilan izohlash uni jo‘nlashtirish demakdir. Haqqoniylik tamoyiliga amal qilinmasa, asarlar juda oz muddat yashaydi, haqqoniylikning yo‘qligi sxematizm va soxtalikni barqaror etadi.

Xalqchilik tamoyili. San‘at asari xalq uchun yaratiladi. Lekin xalq degani, bu – aholi emas, aholining fikrlaydigan, milliy qadriyatlarga befarq qaramaydigan, afkor, tinglay olish, tomosha qila bilish va o‘qish qobiliyatiga ega qismi. Asardagi xalqchilik ana shu ko‘pchilikning shodligu qayg‘usini, dardlarini, intilishlarini, muammolarini qay darajada tushunarli tarzda ifodalay olishi bilan belgilanadi. Xaqiqiy san‘at asari «qoralar» (omma) uchun ham, «saralar» (elita) uchun ham yaratilmaydi, tabaqaviylik, mahalliychilik, millatchilik singari salbiy yo‘nalmalardan yiroq bo‘ladi, boshqacha qilib aytganda, podsholar haqidagi asarni – fuqarolar, fuqarolar haqidagi asarni - podsholar tushunganida, unday asarni xalqchil deyish mumkin. Masalan, Navoiyning «Farhod va SHirin», «Sab‘ai sayyor» dostonlari podsholaru malikalar

haqida, lekin xalqqa tushunarli. Chunki ular xalqning vakillari sifatida badiiy qiyofaga ega qahramonlardir. Yoki Sulaymon Yudakovning «Maysaraning ishi» operasi xalq orasida shuhrat qozongani hech kimga sir emas. Bu asar orqali, bizda yosirabroq qaraladigan, opera san'ati ham ruhimizga singib ketdi. Xalqchilikda muhimi – san'atkor tomonidan xalq ruhini anglay bilish va uni in'ikos ettira olish, millatni millat qilgan qadriyatlar mohiyatini badiiy qiyofalar orqali aks ettirish. Xalqchilik tamoyilining yana bir muhim jihati shuki, san'at asari u – tarixiy, zamonaviy, – xalqning orzu-ideallarini ifodalashi, ya'ni kechani yoki bugunni emas, ertani kuylashi lozim, xalqdan ortda qolmasligi, u bilan yonma-yon ham turmasligi, balki undan va zamondan bir qadam oldin yurishi kerak. **San'atning asosiy vazifalari**

Biz imkon qadar tahlildan o'tkazgan san'atning xususiyatlari va tamoyillari ma'lum ma'noda uning asosiy vazifalarini ham belgilab beradi. Endi ana shu vazifalarni qisqacha ko'rib o'tishga harakat qilamiz.

Insoniylashtirish - san'atning dolzarb vazifasi. U san'atning deyarli barcha asosiy xususiyatlarini va o'ziga xosligini namoyon etadi. Zero, har bir san'at asari markazida inson turadi. Insoniylashtirish vazifasini san'at ham bevosita, ham bilvosita amalga oshiradi. Bevosita deganimizda, insonning badiiy qiyofalar shaklida in'ikos ettirilishini nazarda tutamiz. YA'ni qahramonlarning shakli-shamoyili, fe'l-atvori va xatti-harakatlari asarda taqdim etilayotgan zamonaviy yoki tarixiy voqelikni insoniylashtiradi, ularda inson ishtirokini ta'minlaydi. Bilvosita insoniylashtirish esa, birinchidan, san'atkor vositasida ro'y beradi. Bunda to'g'ridan-to'g'ri inson qiyofasi tasvirlanmagan esa-da, asar hujayrasiga singdirilgan inson ruhi uni ichdan nurlantirib, ranginlantirib turadi.

San'atning insoniylashtirish vazifasi bu bilan cheklanmaydi. U yana o'z badiiy qiyofalari, manzaralari, rangi, ohangi v.h. bilan idrok etuvchi qalbini yumshatadi, uni muruvvatli, shafqatli, diyonatli bo'lishga davat etadi. YA'ni o'zining forig'lashtirish qudrati bilan odamdagi hayvoniy xislatlarni yo'qotishga va uni insoniylashtirishga xizmat qiladi.

Forig'lantirish - san'atning asosiy vazifasi. Forig'lantirish nima ekanini, uni dastlab Arastu san'atga nisbatan qo'llaganini biz avvalgi boblar orqali yaxshi bilamiz. Qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, san'atning bu vazifasi muayyan badiiy asarni idrok etish mobaynida ro'y beradi. Uni shartli ravishda uch qismga ajratish mumkin. Dastavval haqiqiy san'at asari inson qalbini ochadi, kalit vazifasini o'taydi. Keyin uni tozalaydi – poklaydigan ma'naviy modda vazifasini o'taydi. Undan so'ng, uchinchi galda, ochilgan va barcha mayda, g'arazli, salbiy hislardan tozalangan qalbni yuksak tuyg'ular, ulug'vor intilishlar, buyuk orzular bilan to'ldiradi, o'zingiz hali yaxshi ilg'ab etmagan, ma'naviyatga bo'lgan ichki bir botiniy-ruhiy tashnalikni qondiradi. San'atning «ruh ozig'i» deb atalishi ham shundan. Aynan ana shu vazifa san'atdagi boshqa barcha vazifalarning amalga oshuvini ta'minlaydi, forig'lantirish vazifasini bajarmagan asar – san'at asari emas.

Bilimli, ma'rifatli qilish - san'atning muhim vazifasi. Insonni bilimli, ma'rifatli qilish ham san'atning asosiy vazifalaridan. Uni, odatda ma'rifiy – evristik vazifa deb atashadi. Har qanday haqiqiy san'at asari insonga turli xil bilim beradi, uni birvarakay ko'p sohalar bo'yicha ma'rifatli qiladi. M., Jyul Vernning «O'n besh yoshli kapitan» romanini o'qir ekansiz, siz dengiz haqida, kemalar, qayiqlar, elkanlar, kit ovi, Afrika qit'asining o'ziga xosliklari u erdagi qabilalalarning odatlari, qul savdosi v.b. to'g'risida ma'lumot olasiz. YA'ni bir asar orqali bir yo'la geografik, navigatsion, etnografik, tarixiy v.h. ilmlardan xabardor bo'lasiz. To'g'ri, bu bilimlaringiz mazkur fanlarni maxsus o'rganganlik – mutaxassislik darajasida bo'lmasa ham, lekin siz bundan buyon o'zingizga va mintaqangizga xos bo'lmagan ijtimoiy hodisalar to'g'risida yaxshigina ma'rifatli kishi hisoblanasiz. Agar bordi-yu Jyul Vernning asosiy asarlarining barchasini o'qib chiqsangiz, siz har qanday geograf olim bilan bahslashasiz. Umrda biror-bir mamlakatga sayohat qilmagan bu yozuvchining badiiy asarlari uning ko'pgina mamlakatlar geografiya jamiyatlari faxriy a'zosi

etib saylanishiga, hatto o‘zining ham geografiyadan ilmiy ishlar qilishiga sabab bo‘ldi, ko‘pdan-ko‘p olimlarning ilmiy kashfiyotlariga turtki berdi.

Tarbiyaviylik - san‘at uchun ustuvor vazifa. Tarbiyachi sifatida san‘at inson hissiyotlariga ta‘sir qiladi, estetik kechinmalar uyg‘otadi va shu orqali bizda ezgulikdan yovuzlikni farqlay bilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Bu jarayon ikki yoqlama ta‘sir tufayli ro‘y beradi. Birinchisi – bevosita, ikkinchisi– bilvosita. Birinchisi – to‘g‘ridan-to‘g‘ri didaktik usul orqali amalga oshiriladigan tarbiya. Bunda san‘at asarining o‘zi, shakli va mazmuni bilan, butunisicha nasihat ruhidagi tarbiyaga qaratilgan bo‘ladi. Misol tariqasida SHayx Sa‘diyning «Guliston», Ahmad YUgnakiyning «Hibbat ul-haqoyiq» pandnomalarini, Maxtumqulining she‘rlarini, Ezopning masallarini keltirish mumkin. San‘at tarbiyaviyligining ikkinchi, bilvosita tomoni real hayot tajribasi sifatida asardan idrok etuvchi o‘ziga «yuqtirgan», ya‘ni qalb prizmasidan o‘tkazib, o‘zi uchun zarur deb qabul qilgan axloqiy-estetik qadriyatlar bilan bog‘liq.

Bunda san‘at asari ijtimoiylashgan badiiyat, undagi qahramon g‘oyaviy-badiiy yaxlitlik tarzida tarbiyaviy rol o‘ynaydi.

Ijtimoiy aloqachilik (kommunikativlik) faoliyati - san‘atning o‘ziga xos vazifasi. Haqiqiy san‘at asari idrok etuvchini muayyan makonda va zamonda «birga olib yuradi», biz uchun yangi bo‘lgan voqelik bilan «tanishtiradi», hozirgi zamon odamini boshqa bir zamonga, boshqa tarixiy voqealar joyiga, boshqa mintaletetga, boshqa mintaqaga «olib boradi», M., SHEkspirning «Romeo va Juletta» asari orqali O‘rta asrlar Italiyasidagi voqealar bilan bog‘lanamiz. Zamonaviy san‘at asarida ham shunday holatni ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari, san‘at ijodkor va jamiyat, ijodkor va asar, asar va uni estetik idrok etuvchi orasidagi uch yoqlama aloqani ham amalga oshiradi.

Huzurbaxshlik - san‘atning ijtimoiy vazifasi. Biz yuqorida san‘atning kelib chiqishini o‘yin bilan bog‘lagan edik. SHunday ekan, huzurbaxshlik vazifasini uning tabiiy burchi deb atash mumkin. CHunki o‘yin «bir maza qilish», bir muddat zavqqa berilib, huzur olish uchun kerak. San‘atda ham, u ilk bor bunyodga kelgan paytidan boshlab, huzurbaxshlik asosiy vazifa hisoblangan. Biroq, taraqqiyot davomida insonning, qo‘polroq bo‘lsa ham, Arastu ta‘biri bilan aytganda, «ijtimoiy hayvon»ligi ustuvorlik kasb etib borgani sayin, bu vazifaga juda ko‘p hollarda etarli e‘tibor berilmaydi: g‘oyaviylik, mafkuraviylik, zamonaviylik, dolzarblik kabi ijtimoiy «yuk»lar «san‘at elkasiga» me‘yoridan ortiq yuklanadi. Natijada sa‘at bunday og‘ir yuk ostida ezilib qoladi va huzurbaxshlik vazifasini kerakli darajada bajara olmaydi. Bundan na zamon, na mafkura, na g‘oya, na san‘atkor, na san‘at asari foyda ko‘radi. CHunki bularning hammasi asarni idrok etuvchiga xuzurbaxshlik orqali etib boradi. Huzurbaxshlik yo‘qolgan joyda san‘atning o‘zi yo‘qoladi. U bir marta o‘qiladigan, bir marta ko‘riladigan, bir marta tinglanadigan, g‘oyaviyligi bilan badiiyligi orasida Xitoy devori ko‘tarilgan soxtalik namunasiga aylanadi. Zero, huzurbaxshlik vazifasi san‘atning g‘oyaviy-badiiy yaxlitligini ta‘minlashi barobarida uni ajdoddan avlodga asrab etkazishni ham o‘z bo‘yniga oladi.

San‘at turlari

San‘at – estetik tadqiqot ob‘ektining umumiy nomi, mushtarak tushuncha. Xususiy tushuncha sifatida u voqelikni go‘zallik va xunuklik, ulug‘vorlik va tubanlik kabi qadriyatlar va aksilqadriyatlar orqali muayyan xil, tur hamda janrlar doirasida in‘ikos ettiradigan badiiy ijod mahsulini anglatadi. SHu bois san‘atni xil, tur va janrlarga bo‘lib, estetik tadqiq etish odat tusiga aylangan. Biroq ana shu «bo‘lib o‘rganish», ya‘ni tasniflashtirish, turkumlashtirish bir qarashda osondek ko‘rinsa-da, aslida estetikadagi murakkab va chalkashliklarga to‘la muammo sanaladi. Bu borada o‘nlab nuqtai nazarlar bor.

Tasniflashtirish avvalo san‘atni xillashdan boshlanadi. San‘at an‘anaviy tarzda uch xilga bo‘lib kelinadi: 1. Epos. 2. Lirika. 3. Drama.

«Epos» atamasi qadimgi yunonchadan olingan bo‘lib, so‘z, hikoya, qissa ma‘nolarini anglatadi. Unda muallifning o‘zi aralashmagan holda voqeanavislik qilishi, ya‘ni ijodkorsub‘ektdan voqelik-ob‘ekt alohidalik tabiatiga egaligi eng muhim belgi hisoblanadi.

“Lirika” eposdan ko‘pincha qat‘iy syujet chiziqlariga ega emasligi, voqelikni ob‘ektda emas, sub‘ektda berilishi, bevosita muallifning «aralashuvi» bilan shartlanganligi tufayli ajralib turadi. Ayni paytda ko‘lam nuqtai nazaridan ham uni farqlash mumkin; lirikadagi voqelik muallifning hissiyotlari prizmasidan o‘tib, idrok etuvchiga etib boradi; unda hajm eposdagidek katta ham bo‘lishi mumkin, lekin miqyos, ko‘lam sub‘ektlashtirilgan ob‘ekt tarzida, sub‘ektning bir qismi sifatida nisbatan torayadi va kichrayadi.

“Drama” (yunonchada-harakat degani) sahnada ijro etishga mo‘ljallangan, matni qatnashuvchilarning dialog va monologlari asosiga qurilgan, voqelikdagi hayotiy qaramaqarshiliklarni zididiyat holati (konflikt) orqali ifodalaydigan, san‘atning nisbatan «sof» adabiy xili. Dramada lirikadagi sub‘ektivlashish hodisasi yo‘q, eposdagi voqeanavislikni ham uchratmaymiz: hamma narsani ishtirok etuvchilarning xatti-harakatlari va nutqlari hal qiladi. SHuningdek, unda eposdagi «og‘ir karvonlikni», lirikadagi «oniy kayfiyatni» ham ko‘rmaymiz: qahramonlar taqdiri dinamik tarzda rivojlanib boradigan fojeaviy azob-uqubatlar, og‘ir ko‘rgiliklar yoki tanqidiy kulgi vositasidagi echim bilan nihoya topadi.

YUqoridagi fikrlarimiz san‘atni xillash bilan bog‘liq qarashlar edi. Endigi mulohazalarimiz san‘at turlari xususida bo‘ladi.

Mazkur mulohazalarni hisobga olgan holda, biz, san‘atning mavjudlik shartidan, ya‘ni uning ma‘naviy borliq sifatida namoyon bo‘lish holatidan kelib chiqib, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan makon (me‘morlik, haykaltaroshlik v.h.), zamon (badiiy adabiyot, musiqa v.h.) va makon-zamon (teatr, sirk v.h.) bo‘yicha tasniflashtirishni ma‘qul deb hisoblaymiz. Biroq san‘at tarixiy hodisa ekanini, u qadimdan tadrijiy rivojlanib kelganini, taraqqiyoti mobaynida o‘zgarishlarga uchraganini va ma‘lum bir tarixiy davrda muayyan san‘at turi faol, etakchi bo‘lganini nazarda tutib, ayni paytda yuqoridagi birgina turkumlashtirish hamma tomonni qamrab olomasligini hisobga olib, masalaga tarixiylik tamoyili asosida yondashuvni ham maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. SHundan kelib chiqqan holda, biz taklif etayotgan tasnif san‘at turlarini uch turkumga bo‘lib o‘rganishni taqozo qiladi. Bular:

1. Arxaik - endilikda tarixga aylangan, hozirga paytda real hayotda amalda bo‘lmagan.
2. An‘anaviy - qadimdan hozirgi kungacha o‘z o‘rnini va ahamiyatini yo‘qotmay kelayotgan.
3. Zamonaviy – ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida vujudga kelgan «texnikaviy», yangi san‘at turlari.

Ushbu tasnifga ko‘ra, arxaik san‘at turlari –an‘anaviy san‘at turlari – badiiy adabiyot, baxshilik, me‘morlik, ko‘rgazmali amaliy san‘at, haykaltaroshlik, rangtasvir, grafika, musiqa, teatr, raqs, qo‘shiqchilik, estrada, sirk va askiyani; zamonaviy san‘at turlari – fotosan‘at (badiiy suratlashlik), kino, televideniye o‘z ichiga oladi.

Mazkur ikki yo‘nalishdagi turkumlashtirish ma‘lum ma‘noda san‘at turlarini tasniflashtirishni estetik boshqotirmaga aylanib ketishdan saqlashga xizmat qiladi, deb o‘ylaymiz.

Arxaik san‘at turlari. Bu san‘at turlariga asosan badihago‘ylik va xattotlikni kiritish mumkin.

Badihago‘ylik. Bu san‘at turi asosan lirik yoki didaktik she‘rlarni o‘z ichiga oladi. Badihago‘ylarni ba‘zan maddohlar deb ham atashgan. U asosan SHarqda vujudga kelgan va taraqqiy topgan. Uni g‘arb adabiyotidagi improvizatsiya yoki eksrompt san‘atkorlar bilan chalkashtirish kerak emas. CHunki ular muayyan san‘at turi ichidagi hozirjavoblik, xolos.

Badihago'ylik – og'zaki ijod qiluvchi san'atkor.

Xattotlik. YOzma adbiyotning keng yoyilishi bir tomondan, badihago'ylik ravnaqiga chek qo'ygan bo'lsa, ikkinchi tomondan yangi san'at turi xattotlikni vujudga keltirdi. Xattotlik Xitoy, YAponiya, Suriya va musulmon mintaqasida va Ovro'pada keng yoyildi, dastlab unga qimmatbaho kitoblarni chiroyli yozuv bilan ko'chirib ko'paytirish xunari sifatida qaralgan. Keyinchalik u mustaqil san'at turiga aylandi. Xattotlik quroli sifatida musulmon SHarqida qamish qalam, Budha SHarqida - mo'yqalam, Ovro'pada - patqalam qo'llanilgan.

An'anaviy san'at turlari. Avval aytganimizdek, barcha san'at turlari dastlab vujudga kelganida, ularda bevosita manfaatdorlik, fidoyilik jihatlari ustuvor bo'lgan, hunar sifatida qabul qilingan: yuqoridagi badihago'ylik ham, xattotlik ham tekinga bajarilmagan. Keyinchalik ularda estetik xususiyatlar, xususan, go'zallik asosiy maqsadga aylangan. An'anaviy san'at turlarining ba'zilarida ana shu ikki tomon baravar, bevosita tarzda saqlanib qolgan. Bunday san'at turlari sirasiga me'morlik va ko'rgazmali san'at kiradi.

Me'morlik. Bu san'at turining paydo bo'lishi insonning turar joyga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan va odamning estetik tabiati uni tobora go'zallashtirib borishni talab etgan. Keyinchalik bu talab o'limdan keyingi "turar joyga" maqbaralarga tadbiiq etilgan. Undan so'ng hukumdorlar saroyilari, devonxonalar turli rasmiy va norasmiy xizmat binolari, ibodatxonalar ham ana shu go'zallik qonuniga binoan qurilgan. Ispaniyadagi Al-Humro masjidi, Olmoniyadagi Kyoln jomesi, Xivadagi Nurillavoy saroyi va boshqalar shular jumlasidan.

Me'morlik – mavjudligi makon bilan shartlangan san'at turi. Unda hajm, makonni egallash xususiyati birinchi o'rinda turadi, deyishadi, aslida "xajm" emas, mahobat atamasini qo'llash maqsadga muvofiq, zero mahobat ulug'vorlik ifoda topgan hajmdir. Me'morlikning san'at sifatidagi estetik mohiyati uning kulgililik xususiyatini inkor qilishi va ulug'vorlik xususiyatini barqaror etishi bilan bog'liq, hech bir san'at turida ulug'vorlik bu qadar o'zini yaqqol namoyon qilmaydi.

Ko'rgazmali-amaliy san'at. Ko'rgazmali-amaliy san'at qadimdan, mehnat qurollari, hunarmandchilikning rivojlanib borishi bilan kundalik turmush ehtiyoji uchun qo'llaniladigan ash'yolarni bezash, me'morlik inshootlarini turli naqshlar va koshinlar vositasida go'zallashtirish orqali estetik telablarga javob berib keladi. Aynan ana shu san'at turida hunarmandchilikning san'atga aylanishi ro'y beradi. M., aytib o'tganimizdek, XVIII-XIX asrlardagi Buxoro-Qo'qon uslubida naqshlangan go'zal mis qumg'onlar dastlab faqat o'zining muayyan maqsadga xizmat qilishi bilan diqqatga sazovor edi. Lekin hozirgi paytda ular har biri betakror san'at namunasi, misgar ustaning san'atkorlik mahorati tajassum topgan ma'naviy qadriyat tarzida idrok etiladi. YOki yog'och o'ymakorligini olaylik, uni biz hozirgi paytda hunar emas, san'at mahsuli tarzida qabul qilamiz.

Haykaltaroshlik-monumental san'at. Eng qadimgi, ibtidoiy davrlardan boshlab hozirgacha haykaltaroshlik o'z maqomini yo'qotmay kelayotgan san'at turlaridan biri. Bu san'atning asosida faqat oniy, bir lahzalik san'at tasviri yotadi. Haykaltarosh tomonidan ana shu eng muhim harakatini topish hamda unga mos nur va soyani tanlash yuksak isde'dodni talab qiladi.

Haykaltaroshlik monumental san'at deyiladi. CHunki ko'pincha u katta hajmli haykallar yoki majmularni o'z ichiga oladi. Ayni paytda uning kichik hajmdagi va har biri o'ziga xos bo'lgan holda muayyan yuzalikda shakllar uyg'unligini tashkil etadigan ko'rinishlari ham mavjud. Haykaltaroshlikning birinchi hiliga alohida makonni egallagan va har hil rakkursda tomosha qilish mumkin bulgan asarlar kiradi.

Istiqoldan so'ng mamlakatimizda monumental san'atning milliy g'urur va iftixor tuyg'usini shakllantirishdagi ahamiyati, uning ma'naviyatimizning yuksalishidagi o'rni masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada Prezidentimiz Islom Karimovning "YUksak ma'naviyat - engilmas kuch" asarining "Vatanimiz taraqqiyotining mustahkam poydevori" deb nomlangan bobida

Sohibqiron Amir Temur bobomizning siymosini har tomonlama to‘liq va haqqoniy aks ettirish uchun bergan tavsiyalarini alohida qayd etish mumkin. Jumladan, “1993 yili Toshkent shahridagi Amir Temur xiyoboniga o‘rnatiladigan haykalni ilk bor muhokama qilganimiz esimda, - deb hotirlaydi Prezidentimiz, - Haykaltaroshlar taqdim etgan variantda Sohibqiron qo‘liga nayza tutgan holda tasvirlangan edi. Men bunga e‘tiroz bildirib, «Sohibqiron bobomiz qo‘lida nayza emas, o‘tning jilovini tutib turgani ma‘qul, - degan fikrni bildirdim. Buning ramziy ma‘nosi bor. CHunki, saltanatda nayza ko‘targan odamlar ko‘p bo‘lgan, ammo jilov Amir Temurning qo‘lida bo‘lgan. Bu mustahkam davlat tizimini qo‘lda mahkam tutib turishni anglatadi. SHu bilan birga, buyuk ajdodimizning ikkinchi ko‘lini baland ko‘tarib, dunyodagi barcha insonlarga tinchlik-omonlik, baxtu saodat tilayotgan asnoda aks ettirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Qolaversa, xalqimizda har bir ish bismil-loh aytib, o‘ng qo‘l, o‘ng oyoqdan boshlanadi. Bu haykadda esa ot nima uchundir chap oyoqdan odim tashlayapti».Muhokama ishtirokchilari bu fikrga qo‘shilishdi va haykaltaroshlar bildirilgan fikrlar asosida yangi variantni yaratishdi.”

Ana shunday izlanish va tajribalar asosida keyinchalik Farg‘ona shahrida - Ahmad Farg‘oniy, Urganchda - Muhammad Muso Xorazmiy va Jaloliddin Manguberdi, Navoiy shahrida - Alisher Navoiy, poytaxtimizda - G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor va Zulfiya singari allomalarimiz, yozuvchi va shoirlarimiz haykallarini, Mustaqillik va Xotira maydonlarida zamonaviy monumental san‘atimizning noyob namunasi sifatida tan olingan Mustaqillik va ezgulik monumentini, Motamsaro ona haykalini, Termiz shahrida Alpomish, Qarshi shahrida esa «El-yurt tayanchi» va boshqa o‘nlab monumental san‘at asarlari barpo etildi.

Baxshilik san‘ati. Odatda baxshilikni estetikada san‘at turiga kiritish qabul qilinmagan va xalq og‘zaki adabiy ijodi sifatida badiiy adabiyotning xili deb hisoblab kelinadi. Aslida “bunday kamsitish”ning sababi o‘zbek estetikasida shu paytgacha ovro‘paga, to‘g‘rirog‘i, ruslarga taqlidning nihoyatda kuchli bo‘lganida. SHunday qilib, biz uni to‘laqonli san‘at turi deb bilamiz va buni isbotlashga harakat qilamiz.

Baxshilik san‘ati asosan SHarq xalqlarida mavjud, kelib chiqishi qadimgi Hindiston bilan bog‘liq, sanskritchadagi “bhikshu” (qalandar, darvesh) so‘ziga borib taqaladi. Keyinchalik, “baxshi”, “baxsha”, “baxshi”, va boshqa shakllarda SHarq xalqlarining ko‘pchiligida ustoz, ma‘rifatchi degan ma‘nolarda qo‘llanilgan. G‘arbda uni faqat qadimgi yunonlar madaniyatida ko‘rishimiz mumkin.

Xalq dostonlaridagi tasvirlar, majozilik ko‘p hollarda mubolag‘aga va alliteratsiyaga asoslanadi, natijada badiiy qiyofa afsonaviylashtirilgan, mo‘jizaviylashtirilgan tarzda gavdalaniriladi. Masalan, “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlaridagi bahodirlardan biri – Hasan Ko‘lbar bir to‘yning oshini eb to‘ymaydi, murtining ichiga kalamushlar in qurib tashlagan v.h.

Rassomlik san‘ati. Bu san‘at turi ham qadimdan mavjud, uning dastlabki namunalarini qadimgi tosh asridagi g‘orlar devoriga ishlangan rasmlarda ko‘rish mumkin. Ularda asosan ov hayvonlari va inson tasviri berilgan.

Rangtasvir voqelikning san‘atkor tanlagan nuqtai nazardan mo‘yqalam va bo‘yoqlar vositasida muayyan tekis materialga rasm tarzida tushirishdan iborat. Unda rassomning uslubi, bo‘yoq tanlashdagi mahorati, nur va soyalar o‘yini yangicha kompozitsion yondashuv kabi san‘atkor iste‘dodini belgilaydigan jihatlar muhim ahamiyatga ega.

Musiqqa san‘ati. Agar rassomlik san‘atida, deylik uning manzara janridagi Levitanning mashhur “Qarag‘ayzor” asari ko‘z oldimizda muayyan ma‘noda tugallangan rangtasvir sifatida namoyon bo‘lsa, musiqa asari, masalan, Betxovenning “Oydin sonata”si yoki Hoji Abdulazizning “Guluzorim” kuyi ohanglar vositasida tinglash jarayonida chizilayotgan rangtasviridir. YA’ni rangtasvir badiiy mazmundagi markazni in‘ikos ettirgan holda ibtido bilan intihonni tasavvurimizga havola qilsa, musiqada ibtido, markaz va intiho asarning o‘zida mujassam bo‘ladi. SHu bois rassomlik san‘atini ranglar musiqasi, musiqani esa tovushlar tasviri deyish mumkin. Ayni

paytda musiqa rassomlikdagi yoki badiiy adabiyotdagi aniq yo muayyan tasvirlash imkoniga ega emas, lekin u ohangdor tovush orqali inson qalbiga kuchli ta'sir ko'rsatish, uning ruhini qisqa vaqt ichida o'zgartirish qudratiga ega. Bu jihatdan unga teng keladigan san'at turi yo'q. SHu sababli musiqadagi "musiqiylik" tushunchasi barcha san'at turlari uchun yuksak mahorat ma'nosini anglatadi. M., she'riyatdagi musiqiylik, nasrdagi musiqiylik, me'morlik – qotib qolgan musiqa, ranglar musiqasi v.h.

Raqs san'ati. Bu san'at turi Ovro'pada xoreografiya deb ataladi va raqsning barcha turlarini o'z ichiga oladi. Raqs qo'l va oyoq harakatlariga asoslanadi, lekin bu harakatlar ritm, muqom va badanning plastik egiluvchanligi vositasida shiorona xayolot parvozini ifodalaydi. Bu vositalarning hammasi musiqa yordamida (juda bo'lmaganda bir musiqiy asbob ishtirokida) umumiy bir uyg'unlikni tashkil etadi, ana shu uyg'unlik raqsning san'at sifatidagi mohiyatini anglatadi. Raqsning ham o'z ichki turlari ko'p, diniy-falsafiy raqslar, mehnat raqslari yoki kasbiy raqslar, sof o'yindan iborat raqslar, insoniy kayfiyatni anglatadigan raqslar, maxsus ssenariy (libretto) asosida sahnalashtiriladigan va uzoq vaqt davom etadigan raqslar v.h.

Raqs san'ati, yuqorida aytganimizdek, folklorning uzviy qismi tarzidagi va sahnaviy – teatrlashtirilgan ko'rinishlarga egaligi bilan birga, mintaqaviy-mahalliylik xususiyatiga ham ega. Masalan, o'zbek raqsida uch yo'nalish mavjud: Toshkent-Farg'ona, Xorazm va Buxoro yo'llari (ba'zan usullari ham deyiladi). Ular bir-biridan ifodaviy usullarning o'ziga xosligi bilan farqlanadi, ayni paytda har bir raqqosa yoki raqqosning o'z uslubi bor.

Teatr san'ati. Insoniyat ma'naviy hayotida teatr san'ati juda qadamdan o'z o'rnini yo'qotmay keladi. Bundan bir necha ming yillar avval qadimgi Hindiston, qadimgi Xitoy va qadimgi YUnonistonda dastlab teatr bir kishilik sahnadan iborat bo'lgan, keyinchalik ikki kishilik sahnadan, undan keyingina jamoviy san'at turiga aylangan. YA'ni spektakl jamoaviy ijod mahsuli – rejissyor, dramaturg, aktyor va rassomning ijodiy izlanishlari natijasi o'laroq yuzaga keladi. Ayni paytda unda bir necha san'at turi omuxta tarzda namoyon bo'ladi: me'morlik, rassomlik (dekoratsiya), musiqa va notiqlik san'atining hamkorligi spektaklning sahnaviy asosini, dinamik tarzda rivojlanib boradigan dramatism esa uning badiiy – estetik mohiyatini belgilab beradi.

Teatr san'atining o'ziga xos jihati shundaki, unda sahna asari tomoshabin oldida yaratiladi, o'sha rejissyor, sahnaga qo'ygan o'sha aktyorlar o'ynagan bugungi spektakl kechagidan farq qiladi. Bu sahna san'atining doimiy ijodiylikini ko'rsatadi, bugungi ijroga aktyor nimanidir qo'shadi yoki undan olib tashlaydi. Bu uning ruhi, ijodiy kayfiyati, ikki yoki uch kunlik o'sishi bilan bog'liq.

Sirk san'ati. Sirk eng qadimgi an'anaviy san'at turlaridan biri. U SHarqda vujudga kelgan va dorbozlik san'ati deb ham atalgan, ko'chma tomosha sifatida xalq orasida shuhrat qozongan. Unda dorda langar bilan yurishdan tashqari, dorboz havo gimnastikachisi (chig'iriqda) vazifasini ham bajargan. Pastda albatta nog'ora dorbozning harakatlariga mos ohangda yangrab turgan. Ayni paytda pastda qiziqchi, ko'zboylog'ich, akrobat (besuyak), ayiq o'ynatuvchi ishtirok etgan, ba'zan askiyadan ham foydalanilgan.

Sirk insonning nafaqat o'z a'zolari va hissiyotlari, balki hayvonlar, o'yin asbobi bo'lmish narsalar, makon, tomoshabinlar hissiyotlari, atrof-muhit ustidan, kengroq ma'noda olganda, dunyo ustidan cheksiz hukumronligini namoyish etishi bilan bizni doimo xavotirdan hayratga aylandiradigan estetik idrok etish jarayonini boshdan kechirishimizni ta'minlaydi. Zero sirk «sof estetik» san'at, unda bevosita manfaatdorlikni uchratmaymiz. Umuman, sirk musobaqa degan tushunchani inkor etadi.

Sirkning yana bir o'ziga xos xususiyati, unda doimiy masxaraboz-qiziqchining ishtirok etishi, ya'ni kulgilik xususiyatining doimiy mavjud bo'lishi bilan belgilanadi. Sirk san'atida vorisiylik birinchi navbatda oilaviy san'atkorlik, qolaversa ustoz-shogirdlik an'analari hukumron. Umuman olganda, sirk san'ati millatni, ayniqsa yoshlarni mo'jizaviylikdan hayratlanib,

kulgililikdan forig‘lanib-jismonan baquvat, epchil, o‘z ruhi a‘zoi badani ustidan hukumronlik qila oladigan, katta tabiatining bir qismi bo‘lmish hayvonlar tabiatidan xabardor shaxs sifatida kamol topishida muhim ahamiyatga ega.

Estrada san‘ati. San‘at turi sifatida estrada omuxtalik tabiatiga ega, unda teatr, musiqa, sirk, askiya unsurlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, drama va komediyaning kichik shakllari, intermediyalar, akrobatika, pontomima, janglyorlik, qo‘shiq, badiiy o‘qish v.b. janrlar muvaffaqiyatli ijro etiladi. Unda zamonaviy muammolarning ko‘ngil ochish usullari va kulgi vositasida ifodasini, xilma-xil tanqid yo‘llarini ko‘rish mumkin. Falsafiylik, ijtimoiy-siyosiy mavzular estradada qisqa, lo‘nda, qiziqarli tarzda ochib beriladi. Estrada, sahnaviy san‘at bo‘lsada, teatrdan aynan ana shu «engilligi», «ko‘ptomonlamaligi» bilan farq qiladi. Mashhur rus estrada aktyori E.Petrosyan shuni nazarda tutgan holda, bu san‘at turini «san‘atdagi jurnalistika» deb ataydi.

Zamonaviy san‘at turlari. Texnikaviy yutuqlar asosida vujudga kelgan zamonaviy san‘at turlari insonning har qanday qulay sharoitdan yangi san‘at turi yoki asarlarini yaratish uchun foydalanishini ko‘rsatadi, insondagi san‘atga bo‘lgan azaliy va abadiy intilishidan dalolat beradi. Bir paytlar, o‘ta ratsional, san‘at bilan sig‘ishmaydigan, qo‘pol deb hisoblangan texnikadan hozirgi paytda inson ildizi noratsionallikka borib taqaladigan badiiy qiyofa yaratish uchun foydalanmoqda. SHuning natijasi o‘laroq, keyingi bir yarim asr ichida bir necha zamonaviy (texnikaviy) san‘at turlari paydo bo‘ldi va rivojlandi.

Fotosan‘at. XIX asrning 20-30-yillarida fransuzlar J.Nens, L.Dager, ingliz U.Tolbot tomonidan shahar manzaralari, mevalarning rassomlik san‘atidagi ko‘rinishlarini optika va kimyo yordamida suratga ko‘chirish amalga oshiriladi. Uni dastlab «fotogeniya», «fotogenik san‘at» deb, keyinroq esa, uni rassomlik san‘atidagi rangtasvir va grafikaga yaqinligi nazarda tutib, «fotografiya» degan nom bilan atashdi. Muhimi shundaki, suratga tushirishni badiylashtirish, fototexnika asosida san‘at asari yaratish boshlandi. Ayni paytda, endi rangtasvirning kuni bitdi, degan, shoshib aytilgan fikrlar ham o‘rtaga tashlandi.

Badiiy suratkashlikning, ya‘ni nurtasvirning rangtasvirdan farqi va eng muhim belgisi – bu uning hujjatlilik xususiyati, undagi har bir suratga olingan hodisa real asosga ega. Rassom o‘zi tanlagan syujet tasvirida tasavvur va xayolotga keng o‘rin beradi, fotosan‘atkorda bu imkoniyat yo‘q, u tasvir ob‘ektini real, hayotdagi holatida qanday bo‘lsa, shunday suratga tushiradi. Lekin u ob‘ektning «yalt» etgan jonli ko‘rinishini topa bilishi va o‘sha jonlilikni saqlab qoladigan nuqtadan turib ijod qilishi, ba‘zan ob‘ektning ishiga aralashishi, uni muayyan ruhiy yoki manzaraviy holatga kelishi uchun ko‘maklashishi kerak bo‘ladi. Biroq u rassomning erkin aralashuvi imkoniga ega emas. SHu bois biz fotosan‘atda eng yuksak darajadagi jonlilikni ko‘ramiz, tom ma‘nodagi real borliqning qo‘shig‘ini tinglaymiz.

Fotosan‘atda montaj katta ahamiyatga ega. Montaj orqali badiiy qiyofa yaratish imkoni nihoyatda keng. Fan va texnikaning ravnaqi tufayli u «mo‘‘jizaviy» darajaga ko‘tarildi.

Kino. Eng miqyosli zamonaviy san‘at turi hisoblanadi. Bugungi kunda u hamma erda «hoziru nozir». Uni kinoteatrlarda jamoaviy, televidenie va videomagnitafon orqali esa oilaviy yoki individual tomosha qilish mumkin. Hozirgi paytda kino o‘zining dastlabki «harakatdagi fotografiya» holatidan shu qadar uzoqlashib ketganki, endi uning ovozsiz davridagi montaj dramaturgiyasiga suyanib qolgan san‘at sifatida tasavvur ham qilish qiyin. Hozir aktyorlar yaratgan, murakkab psixologizmga asoslangan badiiy qiyofalar, adabiy ssenariy zaminida ekranlashtirilgan real hayotni badiiy aks ettiradigan davomli, ko‘pchizikli syujet birinchi o‘rinda turadi. Kinoda teatrdagidek dinamik dramatism hamda uning asosini tashkil etgan harakat, harakat va yana harakat (bunda fikriy harakat ham nazardan qochirilmasligi lozim) asarning moyasini tashkil etadi. Biroq kino, teatrdan farqli ravishda, kadrlar orqali zamondan-zamonga «sakrab» o‘tish imkoniga ega, biroq bu «sakrash», agar film rejissurasi puxta bo‘lsa, tomoshabinga

sezilmaydi, u hozirgi voqealarning ibtidosi, sababchisi – avval bo‘lib o‘tgan voqealar ekanini his qilib turadi. Chunki o‘tgan voqealarning eng muhim, qahramonlar taqdirini belgilaydigan holatlari kadrlarda bugungi voqealar bilan tabiiy ulanib ketadi, ya‘ni kecha – bugunga, bugun – kechaga o‘tib turishi ekran imkoniyati doirasidagi «oddiy gap», kino san‘ati usullaridan biri. Sahnada esa bunday imkoniyat yo‘q, unda mazkur holatlar tomoshabinga to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki dekoratsiya va musiqa o‘zgarishlari yordamida aktyorlar monologlarida, ba‘zan diologlarida nutq (so‘z) orqaligina shartli ravishda etkazib beriladi.

Televidenie. Agar estrada «san‘atdagi jurnalistika» bo‘lsa, televideniye «jurnalistikadagi san‘at» deyishimiz mumkin. Hozir uni faqat ommaviy axborot vositasi va san‘at targ‘ibotini texnikaning eng yangi yutuqlari asosida amalga oshiruvchi zamonaviy omil sifatida olib qarash uni kamsatishdan boshqa narsa emas. To‘g‘ri, telejurnalistika mavjud va uni inkor etish aqlga to‘g‘ri kelmaydi. Lekin ayni paytda ana shu real hayot real voqealar va real odamlar ishtirokidagi «jurnalistik» syujetlarning san‘at darajasiga ko‘tarilganini, ularning estetik ahamiyat kasb etganini yaqqol ko‘ramiz. M., Farhod Bobojonning «Bir o‘lkaki...» turkumidagi ko‘rsatuvlarini olaylik. Ularni oddiy jurnalistik televizion reportaj deyish mumkinmi?! Bu ko‘rsatuvlarning deyarli har biri o‘ziga xos film, shunday filmki, oldiga oddiy «hujjatli» degan sifatlashni qo‘yish nohaqlik. Zamonaviy shaharsozlik estetikasi

San‘atshunoslikda «shahar atrofi dizayni», «shahar muhiti dizayni», «shaharni badiiy bezatish» va «shahar dizayni» tushunchalari ishlatiladi. Ular mohiyatan aynan tushunchalardir, shuning uchun «shahar dizayni» deganda biz shahar ichini, inshootlari va maydonchalarini, aholidan oladigan istirohat maskanlarini, kishilar nigohini, diqqatini tortadigan madaniy, maishiy muassasalar atrofini badiiy-estetik bezatish san‘atini, loyihalashtirishni nazarda tutamiz. Uning asosiy retsipienti shahar kishisidir.

«SHahar dizayni» tushunchasi o‘tgan asrning o‘rtalarida paydo bo‘lgan va u kishilar, ayniqsa iste’molchilar to‘planadigan joylarni, vitrinalarni informatsiya tarqatish funksiyasini bajaradigan tumbalar reklamalar, ko‘rsatkich va afishalarni nazarda tutgan. Dizaynshunos V.L. Glazichevning fikriga ko‘ra, yuqoridagi oddiy bezaklar o‘rniga 50- yillarga kelib bil-bord, aylanma vitrinalar, savdo-sotiq o‘choqlariga ulanib ketgan kiosklar, ko‘p qavatli uylar oldida xalq amaliy san‘ati namunalari bilan bezatilgan maydonchalar paydo bo‘ladi [1]. Natijada kishilarning badiiy-estetik didini shakllantirishga, inshootlar, ko‘p qavatli uylar, istirohat maskanlarini dizayn qonunlariga muvofiq badiiy bezatishga ehtiyoj tug‘iladi. SHahar kishisining serharakatligi, seyntnot, psixologik ta’sirlarning ortib borayotgani, butun badiiy-estetik izlanishlarda va san‘at asarlari yaratishda bo‘lgani kabi shahar dizayni oldiga ham qator talablar qo‘yadi.

Birinchi talab shunda ediki, shahar dizayni mavjud inshootlar kompleksini, kishilarning ko‘zi tushadigan joylarni badiiy-estetik go‘zal, betakror va o‘ziga xos mohiyatli qilishi lozim. Qad ko‘tarayotgan inshootlar sonining oshishi bilan ularning tashqi ko‘rinishiga, badiiy-estetik jixatlariga talab ham ko‘paydi, ya‘ni o‘tgan davrda an’anaga aylangan temir-beton inshootlarni qurishga badiiy-estetik ko‘rinish, bezash lozim bo‘ladi. Masalan, 60- 70 yillarda Toshkentda (ayniqsa Chilonzor tumanida) “xрущевка” nomini olgan temir- beton uylarda deyarli hech qanday badiiy- estetika mohiyat ko‘zga tashlanmaydi. Zerikarli, qo‘ng‘ir rangli beton-uylar ham shaharsozlikda dizayn belgilari shakllanmaganidan dalolat beradi. Mustaqillik yillarida zerikarli ko‘rinishdagi temir-beton inshootlarning birinchi qavatini zamonaviy shisha, mramor, plastika, alyubond va rang-barang vitrinalar bilan bezatish an’anaga aylandi. Bugun ushbu binolar dizaynida asekko (devorga rasm chizish uslubi) freska, vitraj, bakkar (xrustal bilan bezatish uslubi), rang-tasvir, grafika, glintika (toshga o‘yish san‘ati), gobelen, izrazets, inkrustatsiya bilan

birga o'zbek xalq amaliy san'ati – naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, ganch o'ymakorligi va boshqalardan foydalanilayotganini ko'ramiz.

Ikkinchi talab serharakat shahar kishisining vaqtini tejash hamda ma'lum bir voqealar, hodisalar haqida ta'surot uyg'otish, fikr shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan [2]. O'sha davrda hukmron bo'lgan kommunistik mafkura ko'chalar, maydonlar va binolarga turli shiorlar, plakatlar ilishni an'anaga aylantirgan. Ularda asosiy e'tibor shriftga, ya'ni shior mazmuniga mos keluvchi shriftdan foydalanishga qaratilgan. SHiorlar ko'pincha qizil alvonga uzoqdan ko'zga tashlanuvchi kesma shriftlar bilan yozilgan. 70-yillarga kelib katta ko'chalarda, korxonalar maydonchalar, istirohat maskanlari va ma'muriy idoralar oldida katta plakatlar, temir konstruksiyalar yoki oq mramor bilan qoplangan stendlar, mozaika pannolar o'rnatish keng tarqaladi. Mazkur stend va pannolarni hozirgacha Toshkent shahrida uchratish mumkin.

Shuni qayd etishimiz kerakki, mazkur plakat, stend va pannolar asosan ideologik vazifani bajargan, ularda shaharning badiiy-estetik obrazini yaratish, san'at asarlarini dizayn talablariga muvofiq loyihalashtirish, bezatish nazarda tutilmagan.

Uchinchi talab shahar – inson konsepsiyasi yuzaga kelgani bilan bog'liqdir. O'sha davrda o'tkazilgan maxsus tadqiqotlar ko'rsatadiki, shahar shunchaki makon, kishilar ishlaydigan va istiqomat qiladigan muhitgina emas, u insonning dunyoqarashi, badiiy-estetik didi va hayotiy idealini shakllantiradigan ijtimoiy-tarbiyaviy omildir. SHahar muhiti, undagi tarixiy-madaniy an'analar, turmush tarzi, arxitektura, ko'chalar va istirohat maskanlari insonda ma'lum etnostereotiplarni shakllantiradi. Mazkur tadqiqotlarda shaharni loyihalashtirishga dizayn san'ati nuqtanazaridan yondashish lozim, degan fikr ilgari suriladi. To'g'ri, ularda hali «shahar dizayni» degan ibora ishlatilmaydi, ammo tadqiqotchilar shahar muhitini badiiy-estetik g'oyalar va asarlar bilan bezatish konsepsiyasini ilgari suradilar. Masalan, S.B. Bazazyansning fikriga ko'ra, shahar muhiti, ko'chalar, inshoot va maydonlar musavvirga rang-barang san'at turlaridan foydalanishga imkon beradi, shuning uchun «har bir ijodkor shahar muhitini badiiy-estetik ta'sir ob'ekti, shahar kishisini esa retsipient» sifatida qabul qilishi mumkin.

Shu bilan birga shahar muhitini etnomadaniy belgilersiz tasavvur etish ham yuqoridagi izlanishlarda ko'zga tashlanadi. SHaharni badiiy-estetik bezatishda o'ziga xoslik, betakrorlik, etnomadaniy an'analarga muvofiqlikni izlash emas, balki nasl- nasabsiz, milliy belgisiz «sotsialistik shaxs» va «sotsialistik san'at» yaratishga intilish ustun turadi.

SHubhasiz, yuqoridagi uchta fundamental ahamiyatga ega talab shahar dizayni haqida tasavvurlar uyg'otdi, shahar-inson aloqalarini badiiy-estetik mohiyat bilan boyitishga etakladi. Toshkentda Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomchilik va dizayn institutining ochilishi O'zbekistonda dizayn san'atini alohida ilm-fan, ijodiy faoliyat sifatida o'rganish imkonini berdi.

Respublikamizda dizayn haqidagi qarashlar endi shakllanmoqda, «shahar dizayni» tushunchasi ham endi qo'llanilmoqda. Bu borada olib borayotgan ilmiy izlanishlarimiz bizni quyidagi fikrlarni bildirishga undaydi.

Shahar dizayni shaharsozlik, arxitektura, shahar infrastrukturasini va landshaftining tarkibiy qismi sifatida qaralishi, quriladigan har bir inshoot, shakllantiriladigan infrastruktura esa badiiy-estetik mohiyatga betakror, rang-barang, qiziqarli ko'rinishiga ega bo'lishi lozim. Buning, uchun shaharsozlar, arxitektorlar dizaynerlar bilan ijodiy hamkorlik o'rnatishi darkor.

Shahar dizayni rang-barang sohalalar bilan bog‘liq ijodiy faoliyat turidir. U arxitektura, yo‘l transporti, savdo-sotiq, madaniy- maishiy xizmatlar uyushtirish, kommunikatsiya, mebelshunoslik, ijtimoiy boshqarish va tabiiy ravishda, san‘atning barcha janrlarini, turlarini bilishni talab etadi. Shuning uchun «SHahar dizayni» kursini ishlab chiqish va mutaxassislar tayyorlash jarayoniga joriy etish maqsadga muvofiqdir. Shahar dizayni atrof-muhitga shahar dizayn inson triadasi sifatida yondashishga undaydi. Mazkur konsepsiya markazida shahar va inson manfaatlarini o‘zining ijodiy faoliyatida uyg‘unlashtiruvchi mutaxassis – dizayner turadi. Aynan ushbu mutaxassis insonda ijtimoiy muhitdan, undagi badiiy-estetik va etnomadaniy qadriyatlardan to‘la qoniqish hissini uyg‘otadi, o‘z shahrini sevib, uni yanada go‘zal qilib, yaratib yashashga undaydi. SHahar dizaynida zamonaviy, g‘arbona va an‘anaviy, sharqona san‘at janrlarini, turlarini uyg‘unlashtirish imkoni kattadir. Ushbu janrlarni, turlarni sintezlashtirish mutaxassisni erkin, keng izlanishlarga undaydi va uning asarlarini ommalashtiradi, hayotiy qiladi. Demak, shahar dizayni badiiy-estetik ijodni ijtimoiy hayotga, amaliyotga yaqinlashtiradi, izlanishlarga pragmatik yo‘nalish beradi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.:“O‘zbekiston”, 2014. 24 b
2. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli [Farmoni](#).
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
5. Karimov I.A. Asarlar to‘plami. 1-24 jildlar.- T.: O‘zbekiston 1996-2016.
6. Karimov I. A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. 2 nashr –T.:Ma‘naviyat, 2016 176-b.
7. Abdulla Sher. Estetika. Darslik. – T.: O‘zbekiston, 2016. 192 b.
8. Abdulla Sher, Husanov B, Umarov E. Estetika. T. O‘ZMU, 2008. 178 b
9. Umarov E. Estetika. T. O‘ZMU, 2004. 172 b

Seminar mashg'ulotlari

18-MAVZU. ESTETIKANING ZAMONAVIY MUAMMOLARI

Reja:

1. Estetik tarbiyaning turlari va yo'nalishlari.
2. Mehnat-turmush estetikasining muhim omili. Insonning tabiiy, axloqiy va estetik didining mutanosibligi.
3. "Ommaviy madaniyat"ning yoshlar estetik didiga ta'siri.
4. Sport va uning ma'naviy-estetik jihatlari. Voqe'likka estetik munosabatni milliy va umumbashariy ahamiyati.
5. Olamni estetik anglashda texnologiyalarning roli. Reklamanning estetik jihatlari va g'ayriestetik holatlar

Tayanch iboralar: Tarbiya, estetik tarbiya, tarbiya vositalari, estetik tarbiyaga tahdidlar, ommaviy madaniyat, reklama, estetik did, mehnat.

Estetik tarbiyaning barcha vositalari shaxsning voqelikka estetik munosabatini ravnaq toptirishga xizmat qiladigan tarbiyaviy faoliyat bo'lib, u o'ziga xos ta'sirchanlik, tug'yoniylik kuchiga ega. Busiz inson bilish ko'lamining vujudga kelishi mumkin emas. Shuningdek, inson badiiy tafakkur qilish qobiliyatini o'stirish ayni paytda estetik tarbiya vositalarining muhim vazifasi sanaladi. Shunga ko'ra, estetik tarbiya vositalari ikki xil xususiyati bilan ajralib turadi. Birinchidan, ular voqelikda sodir bo'layotgan hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlarni insonga tushunarli tarzda yetkazib beradi. Ikkinchidan, zamonaviy fanlarning estetik hususiyatlarni hissiy idrok qilishning faol, tajribalar asosida yetkazib berishi bilan diqqatga sazovordir. Shunga ko'ra, estetik tarbiyaning asosiy vositalari tarkibiga - san'at, informatsion texnologiyalar, tabiat, mehnat, sport kabi sohalarni kiritish mumkin.

San'at - estetik tarbiyaning muhim vositasi. Bugungi kunda jamiyatimizda inson faoliyatini boshqarib borishdan ko'ra, ushbu jarayonni insonning o'zi tashkil etishi kerakligi bot-bot uqtirilmogda. Bu jarayonda san'at mohiyatan shaxsning xis-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan muhim vosita sifatida insonni doimo o'ziga jalb etib kelgan. San'at insonning ehtiroslar va tuyg'ular olamiga singib borib ularni yig'latadi, kuldiradi, o'ylashga majbur qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak san'at barcha davrlarda insonga hamroh bo'lib kelgan. Ma'lumki, ehtiroslar, tuyg'ular, kechinmalar insonning tirikligidan dalolat beradi. Chunonchi, ijobiy fazilatlar, badiiy-estetik ideallar inson hayotining mazmuniga ko'rk bag'ishlaydi. Tarbiyada ayniqsa, axloqiy va estetik tarbiyada hayotning mazmuni va maqsadi muhim ahamiyat kasb etadi. Gohida maqsad mavhum tushunchaga aylanib shaxsning tabiatiga mutlaqo zid bo'lgan holatlarni keltirib chiqaradi. Pirovardida inson bunday maqsadlarning ta'siridan zarar ko'radi. San'at shu ma'noda zamonaviy insonni estetik jihatdan tarbiyalashdagi asosiy vositaki, u insonning estetik tuyg'ularini maqsadli, ijobiy tomonga yo'naltiradi, uning kelajakda buyuk ishlarni amalga oshirishiga ko'mak beradi. Biroq, tuyg'ulari xali shakllanib ulgurmagani, estetik didi risoladagidek darajaga ko'tarilmagan odam mavjud hayotiy qiyinchilik va

Seminar mashg'ulotlari

tashvishlar qarshisida ojizlik qiladi va natijada yot g'oyalar ta'siriga tushib qoladi. Ana shunday salbiy holatlarning paydo bo'lmasligi uchun ham san'at o'zini tobora insonga yaqinlashtirib boradi. Chinakam san'at insonni bu xolatdan qutqarishga qodir bo'lgan estetik tarbi vositasidir. Shuningdek, shaxsning estetik tarbiyasini san'at vositasida amalga oshirishning afzal tomonini ikki xususiyat bilan ifodalash mumkin. Birinchidan, san'at ijtimoiy anglashning boshqa shakllariga qaraganda insonga birmuncha yaqinroq hamda tezroq ta'sir ko'rsata olish imkoniga ega. Ikkinchidan, san'at insonni estetik jihatdan kamolotga yetkazish jarayoniga muayyan mafkuraviy mazmun bag'ishlashi bilan birga inson ma'naviy qadriyatlarini ro'yobga chiqarishda yaqindan yordam ko'rsatadi. San'at o'zining estetik bisotini to'laligicha namoyon qilishi uchun ham tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog'lanadi. Chunonchi, inson tafakkurini go'zallashtirish estetikaning tadqiqot obekti hisoblansa, estetik tarbiyaning predmeti esa ma'naviy dunyoni inson tomonidan estetik anglash bilan belgilanadi. Ma'lumki, fuqarolarda yuksak did va idealni shakllantirish estetik tarbiyaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bu vazifaning zalvorli yukini avval ham, hozir ham va bundan keyin ham chinakam san'at, adabiyot va ma'rifat ko'tarishiga shubha yo'q. Shuni aytish lozimki, so'nggi yillarga kelib san'at va madaniyatga jamiyat hayotini o'zgartiruvchi, unga xizmat qiluvchi, fikrlar almashinuvini ta'minlovchi hamda estetik ahamiyat kasb etuvchi murakkab ijtimoiy jarayon sifatida munosabat bildirilayotganligi diqqatga sazovor. Negaki, turli-tuman madaniy-ma'rifiy tadbirlar, rang-barang ko'rik-tanlovlar, san'at bayramlari va festivallarini o'tkazilshi o'z navbatida kishilarni tayyor ma'naviy «mahsulotning iste'molchisi»ga aylanib qolishidan saqlaydi. Shuningdek, san'atning inson estetik tafakkurini yuksaltirishdagi ahamiyati yana shu bilan izohlanadiki, san'at avvalo; voqelikni badiiy qiyofalar yordamida aks ettiradi, o'zida moddiylik va ma'naviylikning estetik mazmunini namoyon qiladi, ijtimoiy hayotga yangicha ko'rk bag'ishlaydi, ularni qaytadan tashkil etadi va o'zgartiradi. Ana shunga ko'ra, insonning bilimlilik tomoni san'atning ko'rinishlarini namoyon ettirish holatlarini amalga oshiradi. Mazkur xolatlar natijasida estetik tarbiyaviylik hususiyati o'z ifodasini topadi. Demak, ko'rinib turibdiki, san'at voqelikka estetik munosabatning kengqamrovli sohasi bo'lib, u insonni nafosatli hamda badiiy didini shakllantirishda muhim vosita vazifasini bajaradi. San'atning tarbiyaviy-g'oyaviy funksiyasi hayot haqiqatlarini qaytadan tiklash orqali namoyon bo'ladi. Estetik haqiqatning o'zi esa hayotni badiiy ijod qonunlari bilan aks ettirishi natijasida vujudga keladi.

Informatsion texnologiyalar - estetik tarbiyaning global vositasi. Bir paytlar tabiiy va texnika bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari talabalariga "Sizning ideallaringiz asosan qaysi sohalarda aks etadi?", degan savolga ularning ko'pchiligi san'at, adabiyot va ma'rifat sohasida ko'proq aks etadi, degan javob berishgani ham fikrlarimizni isbotlaydi. Biroq, endilikda estetik tarbiyaning shunday vositalari mavjudki, uning ma'naviy jarayonlarga ko'rsatayotgan global ta'siriga befarq bo'lish aslo mumkin emas. Ana shunday ta'sirlardan biri - bu elektron axborot

Seminar mashg'ulotlari

vositalardir. Bu borada “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida qayd etib o'tilganidek, “Bugungi kunda ular bir vaqtning o'zida ham axborot maydoni, ham ijtimoiysiyosiy, ma'naviy-ma'rifiy minbar, shu bilan birga, insonga madaniy, badiiy-estetik oziq beradigan va hordiq chiqaradigan makon vazifasini bajarmoqda.” Aytish mumkinki, axborot va kommunikatsiya texnologiyasi bugungi kunda insoniy va iqtisodiy taraqqiyotning muhim vositasiga aylanishi natijasida odamlarning turmush tarzini, o'zaro aloqasini xatto tashqi ko'rinishini ham tubdan o'zgarishiga olib keldi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 50 millionli auditoriyani radio 38 yilda, televidenie 13 yilda, internet esa bor-yo'g'i 4 yilda egallab olar ekan. Shunisi hayratlanarliki, 1998 yilda internetdan 143 million kishi foydalangan bo'lsa, 2001 yilda ularning soni 700 millionga yetgan. Bugungi kunga kelib esa internetdan foydalanayotganlar 1,5 mlrddan oshib ketdi. Bu borada uyali telefon xizmatini aytmasa ham bo'ladi... Biroq, elektron axborot vositalari qanday xususiyatga egaki, uning ta'sir doirasi bunchalik tez yoyilmoqda? Bu borada mutaxassislarning fikriga ko'ra, avvalo: - narxining arzonligi; - asosiy mahsulot – bilim, axborot, moda va imidj; - yangi iqtisodiyot - u axborotga ega bo'lishni xoxlaydigan odamlarga imtiyoz bag'ishlaydi; - chinakam global xarakterga ega ekanligi. Ahamiyat berilsa, yuqorida ko'rsatib o'tilgan xususiyatlarning barchasi yoshlarning manfaatiga, tuyg'ulariga va dunyoqarishiga mos keladi. Bu xususiyatning barchasi birgina internetda jamlaganligiga e'tibor beradigan bo'lsak, yoshlarning estetik tarbiyasidagi o'zgarishga bo'ladigan ta'sir san'at va adabiyotdanda ko'lamliroq ekanligiga shubha qilmasa ham bo'ladi. **Mahalla - estetik tarbiyaning muhim vositasi.** Mahallaning shaxs estetik tarbiyasiga ta'siri nihoyatda katta. Modomiki, mahalla jamiyat ichidagi kichkina jamiyat bo'lib, u bugun shaxsning ijtimoiy–siyosiy faolligini oshirishga, uning ijtimoiy–huquqiy madaniyatini shakllantirishga ko'mak beruvchi makon sifatida ham yuksak ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mahalla shaxs nafosatli tarbiyasiga yaqindan ta'sir ko'rsata olishi bilan boshqa omillardan ajralib turadi. Shu jihatdan mahalla o'z navbatida o'z oldigan qo'ygan ezgu maqsadlarni bajarishi bilan zamonaviy insonni nafosatli jihatdan tarbiyalaydi. Chunonchi mahalla; - o'ziga qarashli hududning tozaligi, obodligi, ko'rkamligini hamda fuqarolarning hamjihatligini ta'minlashi bilan; - turmush nafosati va muomala estetikani shakllantirib, insonlar qalbida ijobiy tuyg'ular, yaxshi orzularni namoyon ettirishi bilan; - mahalliychilik va millatchilik singari salbiy holatlarga yo'l qo'ymasligi hamda qo'shnichilik madaniyatini kamol toptirishi bilan; - san'at, madaniyat, ma'rifat arboblari, ilm ahllari ishtirokida bo'ladigan rang-barang mavzulardagi ma'ruzalarni, suhbatlarni uyushtira olishi bilan; - isrofgarchilikka, dabdababozlikka yo'l qo'ymagan holda urf-odatlar, an'analar, marosimlar, tantanali shodiyonalarni tartibli, chiroyli o'tishini ta'minlashi va hokazo shu kabilar bilan inson estetika tafakkurini shakllantirishda birlamchi maskan bo'lib hisoblanadi. **Tabiat - estetik tarbiyaning zaruriy**

Seminar mashg'ulotlari

vositasi. Shuni maxsus ta'kidlash kerakki, zamonaviy inson tarbiyasini estetik jihatdan kamol toptirishda oila qanchalik ustuvor omil bo'lib hisoblansa, bu jarayonda tabiat ham undan kam ahamiyat kasb etmaydi. Chunki tabiat bilan ongli tarzda murosa qilmaslik shaxsni nafosatli jihatdan mukammal bo'lib yetishishiga monelik ko'rsatadi. Shuning uchun inson va tabiat o'rtasidagi munosabat inqiroz va halokat yoqasiga kelib qolgan hozirgi vaqtda bu muammoni chetlab o'tish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Ma'lumki, inson o'zining ma'naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida azaldan tabiat bilan hamkorlik qilib kelgan. Tabiatdagi go'zalliklardan bahramand bo'lishlari barobarida uni nafosatli tarzda o'zlashtirishga, inchunun, mavjud hunukliklarni bartaraf qilishga harakat qiladi. Biroq, keyingi bir necha o'n yillik jahon maamlakatlarining atrof muhit sohasidagi harakatlarini tanqidiy taxlil etish davri bo'ldi. Sanoatlashtirish inqilobi inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatni abadiy abadiy buzib qo'yganini insonicht tobora anglab bormoqda. XXI asr o'rtalariga kelib inson faoliyati yerdagi yashash imkoniyatlarining asosiy shartlarini buzib yuborishi xavfi yana ham aniqroq namoyon bo'lmoqda. Bugunga kelib eng jiddiy o'zgarish yer atmosferasida yuz berayotganligi barchamizga ayon. Bu ayniqsa, karbonat angidrid va azot okisi singari “parnik” gazlariga taalluqlidir... Bu xolning insoniyatga qanday ta'sir ko'rsatishini ilgaridan aytib berish qiyin, chunki global iqlim g'oyatda murakkab tizimdir. Masalan, yuz minglab yillar barqaror bo'lib kelgan va millionlab odamlarning taqdirini xal etgan shamollar – yo'nalishini, yog'inlar miqdorini o'zgartirish mumkin. Balki orollar va past qirg'oq hududlarida yashovchilarga havf– hatar tug'dirib dengizlardagi suvning sathi ko'tarilishi mumkin. Aholi haddan tashqari ko'payib ketgan va borgan sari kuchliroq tazyiq sezayotgan sayyoramizning aslida busiz ham muammolari bor, Ushbu qo'shimcha ta'sirlar ochlik va boshqa halokatlarni keltirib chiqarishi mumkinligi esdan chiqarmaslik kerak. Afsuski, aksariyat xollarda shaxsning tabiat bilan bo'ladigan munosabati estetik jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi hamda uning estetik «no'noqligi» bois ular o'rtasida katta bo'shliq yuzaga keldi; bu bo'shliq insoniyat boshiga misli ko'rilmagan talofotlarni solishi mumkin. Ushbu muammoni bartaraf etish pirovardida inson ehtiyoji uchun zarur bo'lgan ko'plab tabiiy–moddiy boyliklarni tejab qolishga, atrof–muhit musaffoligini ta'minlashga, o'simlik va hayvonot olamini asrab qolishga va eng asosiysi inson genofondining yo'q bo'lib ketish havfining oldini oladi. ***Mehnatning estetik tarbiya vositasi sifatidagi ahamiyati.*** Mehnat ham moddiy, hamda ma'naviy go'zalliklar yaratish bilan estetik tarbiyaning muhim vositasiga aylanadi. Bu jarayon ijtimoiy–foydali mehnatning badiiylik bilan aloqasi ta'sirida vujudga keladi. Mazkur munosabat pirovardida mehnat vositalarining insonga keltiradigan zararini kamaytiradi. qolaversa, mehnatga ijodiy yondashuv jamiyat ma'naviy qiyofasini belgilovchi omil hisoblanadi. O'zbekistonda barpo etilayotgan jamiyatning iqtisodiy asosi–ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotidir. Ushbu jarayonda eng muhim va dolzarb vazifa insonlarda

Seminar mashg'ulotlari

mehnatga bo'lgan yangicha tuyg'uni shakllantirishdan iborat. Tashabbuskorlik va tadbirkorlikni rag'batlantirish, odamlarda mulkka egalik xisssiyotini tarbiyalash o'z navbatida mehnatga bo'lgan munosabat orqali rivojlanib boradi. Negaki, odamlarda ko'p ukladli, turli mulk tizimlarini barpo etishga bo'lgan rag'bat tarbiyasi insonni bir tomonlama fikrlashdan, boqimandachilik kayfiyatlaridan halos qilib, tashabbuskorlik va tadbirkorlikni, odamning o'z kuchi va salohiyatiga suyanishini kuchaytiradi, mehnatga hurmat, sadoqat va fidoiylilik tuyg'ularini shakllantiradi. Bu pirovardida xalq turmush darajasining o'sishiga olib keladi. Mehnatga bo'lgan yangicha munosabat o'zining ana shunday hususiyatlariga ega ekanligi bilan nafosatli tarbiyaning muhim vositasi bo'lib sanaladi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari inson estetik tarbiyasiga yaqindan ta'sir qiluvchi qudratli va faol kuchdir. Ayniqsa, televidenie shaxs hamda ommani estetik dunyoqarashini shakllantirishda, ularni nafosatli jihatdan tarbiyalashda yuksak ahamiyat kasb etadi. Rang–barang mavzulardagi ko'rsatuvlar badiiy va hujjatli filmlar, ijtimoiy–ma'naviy mazmundagi reklamalar, telemarafonlar nafosatli tarbiyani maqsadli yo'naltirishda, insonlar tafakkurida go'zallikka bo'lgan yangicha munosabatni shakllantirishda salmoqli ahamiyat kasb etadi. ***Sport – estetik tarbiyaning zamonaviy vositasi.*** Sport estetik tarbiya vositasi sifatida zamonaviy insonni kamol toptirishda alohida e'tiborga ega. Hozirda sportni rivojlantirish mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad avlodni jismonan baquvvat, sog'lom, vatanning jasur himoyachisi qilib tarbiyalashdir. Hozirda yurtimizda sportni rivojlantirishga doir ko'plab dasturlar ishlab chiqilgan va ular jamiyat munosabatlaridan amalda ishtirok qilmoqdalar. Keyingi kunlarda O'zbekiston ko'plab sport turlari bo'yicha jahon musobaqalarni uyushtiruvchi va o'tkazuvchi mamlakat sifatida jahon hamjamiyatida ko'zga ko'rinib bormoqda. Ana shularning barchasi muayyan ma'noda inson nafosatli dunyoqarashini, tafakkurini sog'lomlashtirishiga qaratilgan. Bir so'z bilan aytganda, sport estetik tarbiyaning muhim vositasi sifatida «Farzandlari sog'lom yurtning kelajagi porloq bo'ladi» - degan maqsadni amalga oshirishga muhim hissa qo'shadi. Bugungi kunda milliy g'oya va milliy mafkura hayotiy ehtiyoj darajasiga ko'tarildi. Shunday ekan, har bir inson jamiyatda o'z o'rnini bilishi, o'zini jamiyatning ajralmas qismi deb his qilishi lozim. Endilikda mafkura dunyosida paydo bo'ladigan bo'shliq pirovardida jamiyat, inson va mamlakat uchun naqadar katta xavf solishini anglamoqdamiz. Tarbiyaning estetik shakli esa mazkur jarayonlarda yosh avlodni go'zallik haqidagi tuyg'ularini, tabiatga bo'lgan munosabatini, badiiy adabiyotga qiziqishini, jamiyat ma'naviy rivojidadagi yangicha qarashlarni go'zallik va ulug'vorlik asosida tarbiyalashdek dolzarb vazifani amalga oshirishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Estetik tarbiya juda keng ko'lamga ega bo'lib, insonni bir butun shaxs sifatida namoyon qiladi. Shuning uchun har qaysi davr, tuzum, jamiyat estetik tarbiyaga ehtiyoj sezadi. Biroq, bu jarayon pedagoglar zimmasiga juda katta vazifa yuklaydi. Ayniqsa, bugungi kunda

Seminar mashg'ulotlari

oliy ta'lim muassasasida katta ehtiyojga aylanmoqda. Biroq, ko'pgina oliy ta'lim muassasalarida bu fanga nihoyatda jo'n va primitiv yondoshuv mavjudligini alohida e'tirof etish zurur. Fanning maqsadini noto'g'ri tushunish mavjud. Estetik tarbiya ma'naviy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida inson ma'naviy va jismoniy olamining uyg'un tarzda rivojlanishiga ulkan xissa qo'shadi. Estetik tarbiyada insonning tashqi ko'rinishi, uning jamoat orasida o'zini tutishi, jismoniy baquvvat bo'lishi ham katta ahamiyatga ega. Shubhasiz, yuksak did ma'lum darajada kishining estetik tarbiya ko'rganidan dalolat beradi. Xulosa qilib aytganda, ma'naviyatni yuksaltirishda estetik tarbiyaning zaruriyatini quyidagicha izoxlash mumkin. - globallashtirish jarayonida inson tabiatida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni optimallashtiradi; - ma'naviy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida mavjud tahdidlarga qarshi inson go'zalligini har tomonlama uyg'un rivojlanishini ta'minlaydi; - estetik tarbiyaning asosida insonning hayotga bo'lgan ijodiy munosabati yotadi, bu ijodiylik fetish estetikaning avj olishiga monelik qiladi; - insonning estetik didini tarbiyalash orqali uning g'ayriestetik jarayonlarga munosabati shakllanadi.

“Ommaviy madaniyat”ning èshlar estetik didiga ta'siri.

Milliy ma'naviyatga ta'sir o'tkazuvchi tashqi tahdidlar ayni paytda estetik tarbiya jarayoniga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa ijtimoiy-ma'naviy munosabatlar tizimida estetik tarbiyani maqsadli yo'naltirishni taqazo etmoqda. Ta'kidlash o'rinliki, estetika niqobi ostida turli xil ko'rinishdagi “sog'lom turmush tarzi targ'ibotchilari”, “ko'ngilochar” va “musaffo tuyg'u” baxsh etuvchi saytlar talaygina. Eng dahshatlisi keyingi paytlarda internet tarmog'ida vampirizm estetikasi va uning targ'iboti bilan bog'liq saytlarning ko'payib borayotganligi tashvishlanarli xoldir. Bu targ'ibot saytlarni oddiygina qidiruv buyrug'i orqali topish mushkul emas. Bunday tahdidlarga qarshi go'zal qadriyatlarni dunyoga tanitish, xalqimizning boy va betakror estetik dunyosini aks ettiradigan personajlarni yaratish orqali kurashishni zamon talab etmoqdaki, bu yoshlarni ma'naviy jihatdan yuksaltirishda estetik tarbiyaga zaruriyat mavjudligidan dalolat beradi. Bu estetik tarbiyaga nisbatan tahdidlarning birinchi jihati. Estetik tarbiyaga tahdidning ikkinchi jihati insonning tashqi va ichki ko'rinishidagi bog'liqlikni o'rganishga bo'lgan zaruriyat bilan belgilanadi. Bu ilm bugungi kunda biologiya va tibbiyotda fizionomiya nomi bilan mashhur. Vaholangki, o'tmishda bu sohaga jiddiy e'tibor berilib, qator risolalar yaratilgan.

Jumladan, olmon mumtoz faylasufi I.Kant bu ilmga “ichki olamni o'rganuvchi ilm” deb ta'rif bergan bo'lsa, sharq allomalari bu borada “Risoi fil farosa” (X asr), “Farosatnoma” (XYI asr) kabi asarlarni yozib qoldirganlar. Odatda, farosat tushunchasi estetik baxo bilan belgilanadi. u ranjish, nomunosib xolat, ko'ngilga xush yoqmagan ishlar qilganda munosabat bildiramiz.

Seminar mashg'ulotlari

Shuning uchun bo'lsa kerak, kamdan kam xollarda “farosatli kishi, farosati bor, farosatli” degan so'zlarni ishlatamiz. Biroq, did, fahm, farosat kabi tushunchalar aynan estetika ilmiga tegishli bo'lib, fahm - haqiqatga, farosat – ezgulikka, did – go'zallikka munosabat orqali namoyon bo'ladi.

Har uchchala hodisaning asosida ham qobiliyat yotadi. Shu ma'noda fahm – aqliy, farosat – axloqiy, did – estetik qobiliyatni yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, estetik did va farosat murakkab tarbiya jarayonini taqozo etadi. Chunki u ham aqliy, ham axloqiy, ham hissiy tarbiya uyg'unlashgan umumiylikdan iboratdir. “Xo'sh, bu ilmning estetik tarbiyaga nima daxli bor?” - degan savol tug'ilishi tabiiydir. Dahli shundaki, aynan didsizlik va farosatsizlik insonning asl qiyofasini bilishga, uning niyatini anglashga monelik qiladi. Zero, har qanday chiroyli ko'ringan, istarali bo'lishga intilgan, muomalali inson har doim ham go'zal ishlarni qilavermasligini fahm, farosat, did



yordamida ajratib olishimizga to'g'ri keladi.

Inson ma'naviyatining yuksalishi uning fazilati bilan bog'liq ekan, bu jarayon albatta, estetik tarbiyaga ehtiyoj sezadi. Bir paytlar AQShda kishilarning ijtimoiy xolati bilan jinoyatchilik o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilgan. Yevropada esa kishi tug'ilganida vujudida jinoyatga moyil xarakter yoki belgilar bo'ladimi? - degan mavzuda izlanishlar bo'lgan. Hozirda ham hunuk ko'rinishli insonlar yomon bo'ladi, deb

ishonuvchilar uchrab turadi. Farosat

ilmining bu nazariyasiga ishonish 1920 yillarda Germaniyada haddan tashqari kuchayib ketadi. Misol uchun 1929 yil Dusseldorf shahrida amalga oshirilgan jinoyatlar aholini dahshatga soladi.

Politsiya gumon qilgan kishini e'lon qilganida, hech kim ajablanmaydi ham: 21 yoshli aqli zaif Xans Shtausberg. Lekin xuddi shunday bir jinoyat yana qaytarilgandan keyin “Dusseldorfning haqiqiy qonxo'ri” qo'lga olinadi. U ochiq yuzli, juda beozor ko'ringan, hech kimda shubha uyg'otmaydigan Piter Kurten bo'lgan. Shuning uchun ham fiziologik jihatdan yomonlikka moyil shaxs estetik tarbiya ta'sirida xulqini o'zgartirib, go'zal axloqli kishiga aylanishi mumkin. Shuning uchun o'zida mavjud yomon xislatlarni yaxshi tomonga o'zgartirgan va ma'naviy kamolotga erishgan kishi haqida faqat yuziga qarab hukm chiqarish adolatdan emas. Shu o'rinda estetik tarbiyaga tahdidning uchinchi jihati haqida fikr bildirish va bu borada alohida ta'kidlash shart bo'lgan bir necha mulohazalar bor. Ular orasida insonning estetik tarbiyasiga ta'sir etishning psixologik jihatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Buni ong osti hodisasi orqali izoxlash mumkin.

Seminar mashg'ulotlari

1. Sezgilar. Aytish mumkin, mana shu 5 ta sezgi ilg'amagan narsani ong osti ilg'ash qobiliyatiga ega. Uzluksiz jarayonni tuyg'ular hotiraga uzluksiz yozadi. Ammo biz ularning hammasini ajrata olmaymiz. Zero kamalakda millionlab, balki cheksiz miqdordagi rang bo'lishiga qaramay bizlar ulardan faqatgina 7 tasinigina ajrata olamiz xolos. **2. Kuzatish.** Bu borada reklama va uning estetik tabiatini misol qilib ko'rsatish mumkin. Shuning uchun ham mahsulot reklamalari odamlar gavjum bo'ladigan joylar (bozorlar, ko'chalar va hokazo)ga o'rnatiladiki, bunda bevosita kuzatish muhim omilga aylanishi bejiz emas. Ayni paytda mahsulotga bo'lgan qiziqish reklamada ko'rsatilgan shaxsga ixlos tufayli ortadi. **3. Tashviqot.** Ongosti tashviqotga tabiiy xolda eshitilmaydigan ovozlar orqali ta'sir qilishni kiritish mumkin. Supermarket, kafe-bar, bozor hamda ko'ngilochar maskanlarda qo'yiladigan musiqalarda ham haridorlarni chorlash maqsadi ko'zlanadi. **4. Yashirin kadr orqali ta'sir qilish.** Insonning ong osti xislariga yashirin ta'sir qilish xususan 25-kadr ko'pchilik davlatlar tomonidan ta'qib ostiga olingan. Mutaxassislarning fikricha bu turdagi tashviqot har doim ham yaxshi yo'lda ishlatilavermasdan, aksar shum niyatli insonlarga qo'l kelishi mumkin. Misol uchun kino yoki seriallarda, "Agar bir insonga davomli ravishda "Qo'shningni o'ldir!" shaklidagi yashirin kadr bilan ta'sir qilinsa, u hech ikkilanmasdan qotillikka qo'l urishi mumkin ekanligini tibbiyot psixologiyasi isbotlab berdi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan 4 ta jihatga e'tiborsizlik bugungi kunda tashvishli va tahdidli hodisa sifatida e'tirof etilayotgan "ommaviy madaniyat"ni avj olishiga olib keladi. Bu borada birinchi

Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarlarlarida "Tabiiyki "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi"- degan purma'no hikmat bor. Endi ikki og'iz so'z "ommaviy madaniyat" haqida. Uning kelib chiqishi, ta'siri, tahdidi borasida mazkur anjuman ishtirokchilarining




Seminar mashg'ulotlari

barchasi habardor, desam yanglishmagan bo'laman. Lekin, bir narsaga g'oyatda tahdidli, u ham bo'lsa, ommaviy madaniyat insonni “qiyofasiz” oqimning bir qismiga aylantirib qo'yishidir. Bu illat aksariyat xollarda haqiqat, go'zallik, ezgulik singari muqaddas tushunchalarni umumiste'molchilik ehtiyoji bilan bog'lab, iste'mol va tovar sifatida haridorgir bo'lishiga qaratilgan maqsadni targ'ib qiladi. Bu esa pirovardida “bozor adabiyoti”, “bozor san'ati” degan ma'naviyatga tahdid soluvchi

hodisalarning “gullab-yashnashi” uchun imkon yaratadi. Bugun turli arzonbaho ishqiy yoki detektiv sarguzastlarning bozori chaqqon. Didsiz, saviyasiz, “millati”ning tayini yo'q “badiiy” filmlar ham ko'payib ketgan. “Bozor san'ati” deganda, birinchi navbatda, anashunaqa filmlar va bayram sahnalarida qarsillatib aytiladigan yangroq ashulalar esga tushadi. XXI asr ommaviy madaniyati zamonaviy qiyofada go'yo rivojlangan madaniy dunyoga integratsiyalashish niqoblari ostida namoyon bo'lmoqda. Bu niqoblar ostidagi salbiy xolatlar va ular shakllantirish mumkin bo'lgan illatlar bilan umuminsoniy qadriyatlar orasidagi keskin tafovutni anglay bilish zamon talabidir. Ommaviy madaniyat eng avvalo, milliy axloqqa zarba berib, jamiyatning g'oyaviy tizimini izdan chiqarishi bilan hatarli ekanligini ham to'g'ri tushunish kerak. Bu havfxatarga qarshi qat'iy tura oladigan shaxsni shakllantirishda tarbiyaning barcha ko'rinishlarini uyg'un xolda olib borish shart. Estetik tarbiya aynan shu maqsad yo'lida yosh avlodni milliylikka zid bo'lmagan estetik ideal timsolida, yuksak didli qilib tarbiyalash bilan dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Xo'sh “ommaviy madaniyat”ning illat sifatida qanday namoyon bo'lishi mumkin? 1. “Ommaviy madaniyat” namoyondalarining amallari o'zlari uchun har taraflama manfaatdorlikka asoslangan: ular “noyob san'at” namunalari-g'oyalarini nafaqat targ'ib qiladi, balki pullaydi ham. 2. Faqat bugunni, yana ham aniqrog'i hozirni ko'radi va tan oladi. 3. Umuminsoniy madaniyatni bo'ysindirish va o'z ta'sir doirasiga tortish kabi tuban maqsadlarni amalga oshirishga harakat qiladi. 4. U odamzodning fikrlashiga tish-tirnog'i bilan qarshi. Andozalashgan axborot-u mahsulotlar qurshovida qolgan odamlarning o'zi ham bora-bora bir o'lchamga tushadi: hammaning yurish-turishi, o'y-kechinmasi, fikrlash tarzi, bari bir xil. 5. Shaxsning ijtimoiylashuviga imkon bermaydi. U voqea jarayonlarga loqayd, befarq avlodni shakllantiradi.

Seminar mashg'ulotlari

6. “Ommaviy madaniyat” o'z navbatida mafkuraviy, informatsion, iqtisodiy qadriyatlardan foydalangan xolda “ma'rifatparast”lik g'oyalari asosida o'ziga xos muomala va muloqot madaniyatini ham targ'ib qiladi. Buni biz bugungi kunda yoshlar orasida ko'rishishdagi “boshni boshqa



suqishtirish”, imo-ishora, o'zaro muloqotning “kurakda turmaydigan so'zlar”ga tayanilishi orqali ko'rib guvohi bo'lmoqdamiz.

“Ommaviy madaniyat”ning asl maqsadi har kuyga solish mumkin bo'lgan olomni shakllantirish bo'lgani bois, u ma'naviy oziq beradigan, badiiy yuksak, o'quvchini mushohadaga undab, tasavvur olamini kengayishiga xizmat qiladigan asarlarni yaqiniga yo'latmaydi. Shuning uchun “ommaviy

madaniyat” namunalari badiiy-estetik qiymatga

ega emas. Ommaviy madaniyat xoh G'arb hox Sharq bo'lsin uning ma'naviy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. U yildan yilga inson shaxsiga, uning estetik tafakkuriga juda katta kuch bilan daxl qiluvchi hodisaga aylanib bormoqda. Bu ayniqsa, estetik tarbiyaning eng muhim vositasi bo'lgan san'at orqali jamoatchilikka ta'sir etmoqda. Bu hodisa san'atda behayo filmlar, shahvoniy romanlar, tuturuqsiz musiqalar ko'rinishida namoyon bo'lib, ularning asosida fahsh, zo'ravonlik, shafqatsizlik hamda zo'ravonlik kabi axloqiy illatlar yotishini bugungi kunda jamiyatimizning ziyoli qatlami tushunib yetmoqda. Bu borada XX-asrning 70 yillarida amerikalik bir qator sotsiologlar, faylasuflar, san'atshunoslar “ommaviy madaniyat”ning ijtimoiy taraqqiyotga, ayniqsa umumadaniy jarayonlarga ta'siri haqida bir qator tadqiqotlarni olib borgan edilar.

Xususan, sotsiolog CH.Reych o'zining “Gullayotgan Amerika” kitobida “Isyonkor yoshlar o'zlarining shaxsiy “madaniyat”larini yaratmoqdalar, bu madaniyatning asosini kiyim, musiqa va narkotiklar tashkil etmoqda. Yosh “isyonkorlar” madaniyatning ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liq falsafiy, axloqiy, estetik ahamiyatidan hamda muomala va muloqot madaniyatidan yuz o'girgan xolda o'zlariga mos qadriyatlarni yaratmoqdalar va ularni himoya qilmoqdalar. Bu kabi “yangi odam” uchun mazkur qadriyatning asosi – bu o'zini mavjud tizimdan tashqarida xis qilishga bo'lgan layoqatidir.”-, degan fikrni bayon etgan edi.

Mehnat- turmush estetikasining muhim omili.

Mehnat – insonning aqliy yoki jismoniy kuchi bilan amalga oshiriladigan maqsadli faoliyat. U kundalik ma'naviy va moddiy jihatdan odamzot hayotini farovonlashtirish, ma'naviy hamda moddiy qadriyatlarni yaratish vositasi. Mehnatda inson, ayni paytda, ham aqliy ham jismoniy tomondan tarbiyalanib, ma'naviy yuksalib boradi. Biroq mehnat og'ir majburiyatga aylangan joyda uning bu xususiyatlari yo'qoladi. SHu sababli, mehnat har jihatdan yuksak samara borishi uchun erkin bo'lishi, mehnat jarayoni ijodiy va qiziqarli kechishi lozim. Zotan o'ziga yoqqan, erkin mehnat turini bajarayotgan kishilarning «Bu ishni men o'ynab qilib qo'yaman» qabilidagi gaplari, erkin mehnatni o'yinga qiyoslashlari bejiz emas. O'yin – san'atning asosi ekanini nazarda tutsak, bu bilan o'z kasbini, ishini sevgan odamlar uni ijod darajasiga ko'tarishga harakat qilayotganini ko'ramiz. Zotan sevmuq – erkinlik, ijod esa, erkinlik mevasi. Mehnat erkinligini, unga erkin munosabatni shakllantirish hamma zamonlarda ham muhim masala bo'lib kelgan. Og'ir mehnatni engillashtirish, erkinlashtirish maqsadida inson qadimdan uni badiiyashtirishga, estetiklashtirishga intilgan. Bunga halq og'zaki ijodidagi mehnat turlariga bag'ishlangan qo'shiqlar yaxshi misoldir. Ular mehnat jarayonining qiziqarli, «ichdan» bo'lmasa ham, «tashdan» go'zal, musiqiy, badiiy bo'lib ko'rinishiga xizmat qilgan.

Hozirgi paytda mehnat jarayonining ham «ichdan», ham «tashdan» go'zal bo'lishini ta'minlashni uyg'un tarzda amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etgan. Bunda yana dizaynning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta'kidlash lozim.

Mehnat estetikasida dizaynga bo'lgan talab ko'pyoqlamalik tabiatiga ega. Unda faqat texnikaviy go'zallik emas, botunisicha texnologik jarayon va ishlab chiqarish joyi – makon go'zalligi ham dizayn qonun-qoidalariga bo'ysunishi: inson – texnika – makon tizimining estetiklashishi ro'y beradi.

Mehnat bilan nafosatning o'zaro aloqasi to'g'risida ukrainalik estetik olim D.YU. Kucheryuk diqqatga sazovar fikrlar bildiradi: «Mehnatning mazmuni aynan o'zini qadriyat sifatida namoyon qilishi bilan belgilanadi, – deb yozadi u. – Nafosat ham mehnatning mazmuniy jihatiga aloqador»⁵⁹. Bunga misol tariqasida u inson o'z ruhiy-fiziologik quvvatining mehnat jarayonini boshqarish mahoratiga egaligidan ruhlanihini va butun vujudi bilan estetik quvonchni his etishini ta'kidlab o'tadi. Darhaqiqat, bunday holatda insonning ijodiy munosabati, ruhiy ko'tarinkiligi mehnat bilan estetikaning uyg'unlashib ketishiga olib keladi, nafosat mehnat jarayonini jonlantiradigan hodisaga, uni go'zallashtiradigan qudratga aylanadi. Buning uchun inson – texnika – makon tizimida, ya'ni, dastgohlardan tortib, devoru imoratlargacha, gultuvakdan tortib, darpardalargacha bo'lgan muhitda dizaynerning ijodiy yondashuvi lozim; bunda ranglar nafosati ham alohida rol o'ynaydi.

Nima uchundir biz, mehnat estetikasi deganda, ko'pincha faqat jismoniy-moddiy mehnat jarayonlaridagi nafosatni tushunamiz va asosan uni zo'r berib tadqiq etishga urinamiz. Vaholanki, ma'naviy-aqliy sohalardagi mehnat ham jiddiy e'tiborga, estetik tahlilga loyiq. Masalan, teatr san'atidagi mehnatni olib ko'raylik. Ulug' rejissyorimiz Mannon Uyg'ur yangi spektaklni tayyorlashda «o'zi ham tinmagan, boshqalarni ham tindirmagan». Repetitsiya paytida tushlikka chiqishga vaqt topolmaganidan unga uyidan ovqat olib kelishgan. Spektakldan so'ng tunlari tahlil bilan shug'ullangan, teatr san'atining muhim masalalariga doir qoidalarini qog'ozga tushirgan. Buyuk fransuz yozuvchisi Balzakning esa, kuniga 14-16 soatlab ishlagani hammaga ma'lum. Mehnat tufayligina san'atkor o'z iste'dodini namoyon qila oladi, ayni paytda ana shu «o'zini qiynash»dan u butun borlig'i bilan quvonch hissini tuyadi. Badiiy ijod estetik faoliyat sifatida san'atkor uchun doimo «shirin azob», «go'zal a'mol» – estetik zavq manbai.

Fanda ham mehnatning o'rni, u olimga beradigan estetik zavq, quvonch san'atdagidan kam emas. Ilmiy mehnat tabiatan estetik kechinmalarga boy, chunki unda bilimga bo'lgan ishtiyoqni, ijod hissini va insonning hayratlanish qobiliyatini namoyon qiluvchi botiniy kuch mavjud. To'g'ri, bir

⁵⁹ Кучерюк Д.Ю. Эстетика труда. Киев, «Виша школа», 1989. С. 276.

Seminar mashg'ulotlari

paytlar fan hissiyotga berilmasdan, sovuqqon va holisona haqiqatni bilishga asoslanadi, degan fikr hukmron edi, bunga sabab qilib, bunday qarashning majoziy tafakkurdan yiroqligi ko'rsatilardi. Hozirgi paytda uning aksi isbot talab qilmaydigan haqiqatga aylangan. Zotan, fan tarixi unda ikki sifatni – axloqiyshaxsiy va estetik ibtidoning mavjudligini ta'kidlab turadi. Buni V.A. Engelnart shunday ifodalaydi: «Ijod... – san'atning mohiyati. U xuddi shu darajada fanning ham mohiyatidir. Har ikki holatda insonning yaratish, ya'ni o'zligini namoyon qilish qobiliyati muhim. Ilmiy kashfiyot, xuddi san'at kabi, ijodkorning muayyan xususiyatlarini o'zida saqlab qoladi va keyingi hayoti davomida butun insoniyat boyligiga aylanadi»⁶⁰. Zotan ijodiy mehnatni o'z hayotining ma'nosi deb bilgan ilm fidoyisigina haqiqiy olimdir.

Hozirgi kunda san'atkor va olimning ijodiy mehnati faqat ichki, hissiyotlar bilan aloqador shaklda emas, balki tashqi – texnika nuqtai nazaridan ham estetiklashgan. Chunonchi, bugungi yozuvchi o'z mehnat jarayonini kompyutersiz, diktofonsiz tasavvur qilolmaydi, rassomlar, qo'shiqchilar va boshqalar kompyutpr texnologiyasidan foydalanadilar, elektron cholg'u asboblari ham ma'lum ma'noda texnikaning estetiklashuvidan dalolat beradi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin, barcha hodisalarda dizayner tomonidan mukammallashtirilgan go'zallik ijodkorning ma'naviy-ruhiy ko'makchisiga aylanganini ko'ramiz.

Mehnat estetikasi texnika estetikasi kabi atrof-muhitni go'zallashtirish tizimi bilan bog'liq. Korxonada hovlisidagi yashil olam, favvora, daraxtlar, haykallarning uyg'unligi, imoratlar peshtoqlari va devorlarida aks etgan ko'rgazmali amaliy san'at namunalari, binolar ichining yuksak did bilan bezatilishi – hammasi inson mehnatini go'zallashtirishga, mehnat jarayonining estetik zavq bilan amalga oshuvini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu taxlit, mehnat estetikasi mehnat jarayonidagi nafosatni faqat sanoat ishlab chiqarishi bilan chegaralamaydi, dizayndan keng foydalangan holda, o'zini atrof-muhitni go'zallashtirish tizimidagi asosiy omillardan biri sifatida namoyon etadi va texnika estetikasi bilan doimiy hamkorlikda ish olib boradi.

Mehnat – insonning aqliy yoki jismoniy kuchi bilan amalga oshiriladigan maqsadli faoliyat. U kundalik ma'naviy va moddiy jihatdan odamzot hayotini farovonlashtirish, ma'naviy hamda moddiy qadriyatlarni yaratish vositasi. Mehnatda inson, ayni paytda, ham aqliy ham jismoniy tomondan tarbiyalanib, ma'naviy yuksalib boradi. Biroq mehnat og'ir majburiyatga aylangan joyda uning bu xususiyatlari yo'qoladi. SHu sababli, mehnat har jihatdan yuksak samara borishi uchun erkin bo'lishi, mehnat jarayoni ijodiy va qiziqarli kechishi lozim. Zotan o'ziga yoqqan, erkin mehnat turini bajarayotgan kishilarning «Bu ishni men o'ynab qilib qo'yaman» qabilidagi gaplari, erkin mehnatni o'yinga qiyoslashlari bejiz emas. O'yin – san'atning asosi ekanini nazarda tutsak, bu bilan o'z kasbini, ishini sevgan odamlar uni ijod darajasiga ko'tarishga harakat qilayotganini ko'ramiz. Zotan sevmok – erkinlik, ijod esa, erkinlik mevasi. Mehnat erkinligini, unga erkin munosabatni shakllantirish hamma zamonlarda ham muhim masala bo'lib kelgan. Og'ir mehnatni engillashtirish, erkinlashtirish maqsadida inson qadimdan uni badiiyashtirishga, estetiklashtirishga intilgan. Bunga halq og'zaki ijodidagi mehnat turlariga bag'ishlangan qo'shiqlar yaxshi misoldir. Ular mehnat jarayonining qiziqarli, «ichdan» bo'lmasa ham, «tashdan» go'zal, musiqiy, badiiy bo'lib ko'rinishiga xizmat qilgan.

Hozirgi paytda mehnat jarayonining ham «ichdan», ham «tashdan» go'zal bo'lishini ta'minlashni uyg'un tarzda amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etgan. Bunda yana dizaynning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta'kidlash lozim.

Mehnat estetikasida dizaynga bo'lgan talab ko'pyoqlamalik tabiatiga ega. Unda faqat texnikaviy go'zallik emas, botunisicha texnologik jarayon va ishlab chiqarish joyi – makon go'zalligi ham dizayn qonun-qoidalariga bo'ysunishi: inson – texnika – makon tizimining estetiklashishi ro'y beradi.

⁶⁰ Энгельгарт В.А. Познание явлений жизни. М., 1984. С.276.

Seminar mashg'ulotlari

Mehnat bilan nafosatning o'zaro aloqasi to'g'risida ukrainalik estetik olim D.YU. Kucheryuk diqqatga sazovar fikrlar bildiradi: «Mehnatning mazmuni aynan o'zini qadriyat sifatida namoyon qilishi bilan belgilanadi, – deb yozadi u. – Nafosat ham mehnatning mazmuniy jihatiga aloqador»⁶¹. Bunga misol tariqasida u inson o'z ruhiy-fiziologik quvvatining mehnat jarayonini boshqarish mahoratiga egaligidan ruhlanishini va butun vujudi bilan estetik quvonchni his etishini ta'kidlab o'tadi. Darhaqiqat, bunday holatda insonning ijodiy munosabati, ruhiy ko'tarinkiligi mehnat bilan estetikaning uyg'unlashib ketishiga olib keladi, nafosat mehnat jarayonini jonlantiradigan hodisaga, uni go'zallashtiradigan qudratga aylanadi. Buning uchun inson – texnika – makon tizimida, ya'ni, dastgohlardan tortib, devoru imoratlargacha, gultuvakdan tortib, darpardalargacha bo'lgan muhitda dizaynning ijodiy yondashuvi lozim; bunda ranglar nafosati ham alohida rol o'ynaydi.

Nima uchundir biz, mehnat estetikasi deganda, ko'pincha faqat jismoniy-moddiy mehnat jarayonlaridagi nafosatni tushunamiz va asosan uni zo'r berib tadqiq etishga urinamiz. Vaholanki, ma'naviy-aqliy sohalaridagi mehnat ham jiddiy e'tiborga, estetik tahlilga loyiq. Masalan, teatr san'atidagi mehnatni olib ko'raylik. Ulug' rejissyorimiz Mannon Uyg'ur yangi spektaklni tayyorlashda «o'zi ham tinmagan, boshqalarni ham tindirmagan». Repetitsiya paytida tushlikka chiqishga vaqt topolmaganidan unga uyidan ovqat olib kelishgan. Spektakldan so'ng tunlari tahlil bilan shug'ullangan, teatr san'atining muhim masalalariga doir qoidalarini qog'ozga tushirgan. Buyuk fransuz yozuvchisi Balzakning esa, kuniga 14-16 soatlab ishlagani hammaga ma'lum. Mehnat tufayligina san'atkor o'z iste'dodini namoyon qila oladi, ayni paytda ana shu «o'zini qiynash»dan u butun borlig'i bilan quvonch hissini tuyadi. Badiiy ijod estetik faoliyat sifatida san'atkor uchun doimo «shirin azob», «go'zal a'mol» – estetik zavq manbai.

Fanda ham mehnatning o'rni, u olinga beradigan estetik zavq, quvonch san'atdigidan kam emas. Ilmiy mehnat tabiatan estetik kechinmalarga boy, chunki unda bilimga bo'lgan ishtiyoqni, ijod hissini va insonning hayratlanish qobiliyatini namoyon qiluvchi botiniy kuch mavjud. To'g'ri, bir paytlar fan hissiyotga berilmasdan, sovuqqon va holisona haqiqatni bilishga asoslanadi, degan fikr hukmron edi, bunga sabab qilib, bunday qarashning majoziy tafakkurdan yiroqligi ko'rsatilardi. Hozirgi paytda uning aksi isbot talab qilmaydigan haqiqatga aylangan. Zotan, fan tarixi unda ikki sifatni – axloqiyshaxsiy va estetik ibtidoning mavjudligini ta'kidlab turadi. Buni V.A. Engelgart shunday ifodalaydi: «Ijod... – san'atning mohiyati. U xuddi shu darajada fanning ham mohiyatidir. Har ikki holatda insonning yaratish, ya'ni o'zligini namoyon qilish qobiliyati muhim. Ilmiy kashfiyot, xuddi san'at kabi, ijodkorning muayyan xususiyatlarini o'zida saqlab qoladi va keyingi hayoti davomida butun insoniyat boyligiga aylanadi»⁶². Zotan ijodiy mehnatni o'z hayotining ma'nosi deb bilgan ilm fidoyisigina haqiqiy olimdir.

Hozirgi kunda san'atkor va olimning ijodiy mehnati faqat ichki, hissiyotlar bilan aloqador shaklda emas, balki tashqi – texnika nuqtai nazaridan ham estetiklashgan. CHunonchi, bugungi yozuvchi o'z mehnat jarayonini kompyutersiz, diktofonsiz tasavvur qilolmaydi, rassomlar, qo'shiqchilar va boshqalar kompyutpr texnologiyasidan foydalanadilar, elektron cholg'u asboblari ham ma'lum ma'noda texnikaning estetiklashuvidan dalolat beradi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin, barcha hodisalarda dizayner tomonidan mukammallashtirilgan go'zallik ijodkorning ma'naviy-ruhiy ko'makchisiga aylanganini ko'ramiz.

Mehnat estetikasi texnika estetikasi kabi atrof-muhitni go'zallashtirish tizimi bilan bog'liq. Korxonada hovlisidagi yashil olam, favvora, daraxtlar, haykallarning uyg'unligi, imoratlar peshtoqlari va devorlarida aks etgan ko'rgazmali amaliy san'at namunalari, binolar ichining yuksak did bilan bezatilishi – hammasi inson mehnatini go'zallashtirishga, mehnat jarayonining estetik zavq bilan amalga oshuvini ta'minlashga xizmat qiladi.

⁶¹ Кучерюк Д.Ю. Эстетика труда. Киев, «Виша школа», 1989. С. 276.

⁶² Энгельгарт В.А. Познание явлений жизни. М., 1984. С.276.

Seminar mashg'ulotlari

SHu taxlit, mehnat estetikasi mehnat jarayonidagi nafasatni faqat sanoat ishlab chiqarishi bilan chegaralamaydi, dizayndan keng foydalangan holda, o'zini atrof-muhitni go'zallashtirish tizmidagi asosiy omillardan biri sifatida namoyon etadi va texnika estetikasi bilan doimiy hamkorlikda ish olib boradi.

Turmush estetikasi deganda biz insonning voqelikka keng qamrovli estetik munosabatini tushunamiz. U hozirgi paytda o'z ichiga kiyinishidan tortib, xulqiy go'zallikkacha, oilaviy an'analardan tortib, oilaviy makongacha bo'lgan «estetik doirani» o'z ichiga oladi. Turmush estetikasida eng muhimi, odamlarning narsalar dunyosiga, go'zallik va ulug'vorlik orqali qarashlari, estetik didga, ijtimoiy ideallarga o'ziga xos munosabatlari namoyon bo'ladi, pirovard natijada u turmush madaniyatining yuksalishiga xizmat qiladi.

Birinchi navbatda turmush estetikasi insonning xulqiy go'zallik qonunqoidalariga rioya qilib yashashini taqozo etadi. Xulqiy go'zallik esa, oilada jamoat joylarida o'zni tutishni, boshqalar bilan muloqotda, kasbiy munosabatlarda muomala odobi va etiket nuqtai nazaridan yondashuvni, o'zaro suhbatlarda ham so'z vositasida (verbal), ham noverbal jihatlarning go'zal bo'lishini ta'minlaydigan ma'naviy hodisadir. Uni estetika va axloqshunoslik kesishgan nuqta, go'zallikning axloqiylikda, axloqiylikning go'zallikda namoyon bo'lish sharti, desak yanglishmaymiz.

YUqorida aytib o'tganimizdek, turmush estetikasining qamrovi keng, uning aloqalari kundalik turmushning estetik muammolari doirasidagina qolib ketmaydi, balki tabiat estetikasi, texnika estetikasi, atrof-muhitni go'zallashtirish tizimi va estetik tarbiya singari miqyosli ijtimoiy ma'naviy hodisalar bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshadi.

Turmush estetikasida moda alohida ahamiyatga ega. Ma'lumki, moda deganda tashqi madaniyat shakllarining vaqti-vaqti bilan qisman o'zgarish va takrorlanib turshini tushunamiz. Bunday takrorlanishlar va o'zgarishlar iqtisodiy, ma'naviy, axloqiy, estetik omillar kabi ijtimoiy asosga ega bo'ladi. Modani asosiy ko'pchilik e'tirof etadi, u o'zini faqat kiyinishda emas, ishlab chiqarishda ham, siyosatda ham, san'atda ham, fanda ham, hatto mafkurada ham namoyon qila oladi. U ijtimoiy-estetik mezon sifatida baholash xususiyatiga ega va shu bilan odamlarga nima kerakligini belgilab beradigan hukmron didga aylanadi. Moda bunda odamlarning yashash tarzidan (stilidan) kelib chiqib, doimiy ravishda o'zgarib boradigan hayot mazmuniga mos shaklni taklif etadi. Qisqasi, moda muayyan ma'noda jamiyat yashash tarzining o'ziga xos shakli, zamonaviy usuli sifatida estetik tahlilni taqozo qiladi. Zotan, u umumestetik didning darajasi va o'ziga xosliklarini zamon ko'zgisida aks ettirish xususiyatiga ega. SHu jihatdan u, yuqorida aytib o'tganimizdek, o'zgaruvchanlik tabiatiga ega, urf bo'lgan narsalar, bir davr, hatto bir yil mobaynida modadan chiqib ketishi mumkin. Masalan, o'tgan asrning elliginchi yillarida erkak va ayollar tagcharmiga maxsus g'arch qo'yilgan etiklar, tuflilar kiyishardi, yurganda «g'arch-g'urch» qilardi. Hozir esa, iloji boricha tovush chiqarmaydigan, yumshoq poyafzal urf bo'lgan, ya'ni modada. YOki oltmishinchi yillarda bir oz demokratik o'zgarishlar ro'y berishi tufayli qatag'on qilinganlar haqidagi asarlar, xususan, Habib No'monning «YOshlikda bergan ko'ngil» qissasi urf bo'ldi, hozir esa, Tohir Malikning «SHaytanat» romani modada. Bunday holatni «xit» bo'lgan qo'shiqlarga va ular ijrochilariga ham tatbiq etish mumkin.

Ana shunday xususiyatlari bilan moda kishilar estetik tarbiyasiga ta'sir o'tkazadi. Biroq bu ta'sir doim ham ijobiy bo'lavermaydi. Hozirgi, globallashuv jarayonlari qizg'in ketayotgan davrda, bir mintaqadan ikkinchi mintaqaga modaning "ko'chishi" ko'pincha salbiy xususiyatga ega. Masalan, biri birining aksi bo'lgan ikki hodisadagi modani olib ko'raylik. Biri – hijob. U aslida sahroga serob arab mamlakatlarida og'iz-burunni, ko'zni, umuman, butun badanni qum zarralaridan asrash maqsadida kiyiladigan libos, keyinchalik u islomiy talabga moslashtirilgan. Bizda esa, uning vazifasini mintaqaviy fasllarimizga mos keladigan ro'mol turlari (qishki, bahorgi, yozgi, kuzgi) bajaradi. Bir paytlardagi paranji hozir modadan chiqib ketgan, qimmatbaho, zarrin (islomda bunday matolar man etilishiga qaramay), buning ustiga sintetik materialdan tikilgan havo o'tkazmaydigan hijob bizning keskin-qit'aviy yozimizda badanni yondirib yuboradi, gigienik nuqtai nazardan zararli.

Seminar mashg'ulotlari

Ikkinchisi – hozir qizlarimizning nihoyatda tor jinsi shim va bel bilan kindikni ochib turadigan kalta kofta kiyishi modada. YOz chillasida shim kiyib, serchang ko'chalarimizda badanning yarmini ochib yurish ham gigiena, ham sharqona odob va mintaqaviy axloq bilan sig'ishmaydigan holat. Bunday hodisalar yuksak did bilan modaga amal qilish emas, balki ko'r-ko'rona modaparastlik, modaning ketidan quvish, turmush nafosatini jo'nlashtirish sifatida baholanishi lozim. Ana shunday hodisalarda turmush estetikasining tahlillari, nazariy xulosalari asqotadi.

Reklamaning estetik jihatlari va g'ayriestetik holatlar

So'nggi paytlarda turmush estetikasini reklamasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. U tobora ommaviylashib, ommaviy axborot vositalari orqali hayotning turli jabhalariga kirib bormoqda. Reklama mamlakat aholisining barcha qatlamlariga mo'ljallangan. U insonning mayl-istagini, didini, ehtiyojini, qiziqishlarini, voqea-hodisalarga munosabatini shakllantirib, ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatish kuchiga ega. Reklamada go'zallik, ulug'vorlik, mo'jizaviylik va kulgililik kabi estetik xususiyatlar in'ikos etadi. SHu bois reklama ijodkori – dizayner ko'pincha rassomlik san'atidan xabardor mutaxassis bo'ladi. U ijodkor sifatida betartib suvrat, matnlar, sarlavhalar va bo'shliqdan tartibli xilmaxillikni yaratadi. Ana shu tartib reklama go'zalligini ta'minlaydi, tomoshabinga, o'quvchiga quvonch bag'ishlaydi. Reklamada muayyan narsa-hodisaning badiiy qiyofasi yaratiladi, ko'pincha mashhur yirik asardan yoki voqeadan «kichik asar» – ta'sirchan epizodlar bunyod etiladi, shundan kelib chiqib, unda axloqiyestetik ibtido katta o'rin egallaydi. Badiiy qiyofaning mavjudligi esa, reklamani san'atga yaqinlashtiradi, uni muayyan ma'noda badiiy yaxlitlik darajasiga ko'taradi. Undagi mubolag'a usuli, lahzalik hayrat uyg'otgani holda, kishini reklama qilinayotgan narsa-hodisaning mohiyatiga, foydalili xususiyatiga sezdirmay olib kiradi.

Reklamada rang estetikasi alohida ahamiyatga ega. SHu nuqtai nazardan qaraganda, tashqi reklamalar atrof-muhitni go'zallashtirish tamoyillari asosida joylantiriladi va shaharlarimizga kunduzi ham, tunda ham o'ziga xos chiroy bag'ishlab turadi. Ayniqsa, tungi reklamalarda nurdan foydalanish ko'pincha san'atkorona mahorat bilan amalga oshiriladi.

Reklama, agar faqat foyda, sof iqtisodiy-ma'naviy jihatlar ko'zlab ish tutsa, oddiy dallollik vositasiga aylanishi mumkin. Bunday hollarda tomoshabin diqqatini tortishga o'ta urinish oqibatida behayo tasvirlar vujudga keladi. Vaholanki, u iqtisodiyotga asoslangan keng qamrovli ma'naviy hodisa, odamlar orasidagi ijtimoiy muloqot shakllaridan biridir. SHu bois reklama estetikasiga alohida e'tibor berish, unga aholi estetik didini, turmush darajasini yuksaltirishga xizmat qiladigan vosita sifatida qarash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridandir.

Sport va uning ma'naviy-estetik jihatlari.

Sport estetikasi sport sohasidagi estetik qonuniyatlarni o'rganadi, sportning estetik mazmunini, uning jamiyat madaniyatidagi o'rnini, sport bilan san'atning o'zaro aloqadorligini tadqiq etadi, inson jismoniy kamolotining ma'naviy-estetik jihatlarini tahlildan o'tkazadi.

Ma'lumki, sport va jismoniy tarbiya deyarli doimo yonma-yon tilga olinsada, ular bir-biridan jiddiy farq qiladi. Jismoniy tarbiya asosan inson salomatligini ta'minlashga qaratilgan jamiyatning turli yoshdagi barcha tabaqalari ixtiyoriy tarzda «o'zi uchun» shug'ullanadigan, ommaviylik tabiatiga ega mashqlar yoki mashq majmularidan iborat. Sport esa, uning qaysi sohasida bo'lmasin, mutaxassis ustozlar nazorati ostida maxsus tayyorgarlik ko'rgan odamlarning, asosan yoshlarning yakkama-yakka yoki jamoaviy tarzda bellashuvini o'z ichiga oladi. Jismoniy tarbiya qay ko'rinishda bo'lmasin, (individualmi, jamoaviymi), bellashuvni rad etadi va insonga turli mashq shakllaridan xohlaganini tanlash imkonini beradi. Sportda musobaqa birinchi o'rinda turadi va unda muayyan mashqlar majburiy tarzda bajariladi. Lekin bu majburiylik sportning ma'lum bir turi doirasida sportchiga erkin harakat qilish imkonini beradi, ya'ni sportda ijodiy yondashuv taqiqlanmaydi, balki qo'llabquvvatlanadi. Masalan, badiiy gimnastika musobaqalarida har bir sportchi o'zi tanlagan mashqni, o'zi tanlagan kuy jo'rligida bajaradi, lekin sportning ushbu turiga doir qonun-qoidalardan

Seminar mashg'ulotlari

chetga chiqolmaydi. SHunday qilib, jismoniy tarbiyani sportga qo'shib yuborish yoki ularni aynanlashtirish mumkin emas. Sportning boshqa ko'pchilik turlarida esa, barcha sportchilar bir xil mashqni bajaradilar, lekin ularni bir-biridan farqlantirib turadigan, musobaqa ruhini saqlab, uni so'ndirmaydigan narsa, bu – har bir sportchining bir xildagi mashq ijrosiga ijodiy, o'ziga xos yondashuvdir. Bunda sportchining o'z a'zoi badani ustidan hukmronlik qilishi va shu hukmronlikni egiluvchan go'zallik, epcillik, ulug'vor xatti-harakatlar shaklida tomoshabinga taqdim etishini taqozo qiladi, xullas, sport inson tanasi go'zalligining namoyishi sifatida diqqatga sazovor.

Sportga qadimgi yunonlar, bundan bir necha ming yillar avval ana shunday nuqtai nazardan yondashganlar. Lekin, afsuski, keyinchalik musobaqa omili go'zallikni chetga surib, uni g'oliblik va mag'lublik bilan baholanadigan ehtirosli o'yinga, qimorning o'ziga xos turiga aylantirib qo'ydi (qadimgi Rumodagi gladiatorlar bahsi, keyinchalik ot poygasiga pul tikishlar v.h.k.).

Hozirgi paytda sport jahon bo'ylab juda keng yoyilgan madaniy soha sifatida tan olinadi. Ayniqsa, buni O'zbekiston misolida yaqqol ko'rish mumkin. Bizda mustaqillik sharofati bilan sportga milliy madaniyatning uzviy qismi sifatida qarash shakllandi, uning hamma turi bo'yicha musobaqalar o'tkazish odat tusiga kirdi, o'zbek kurashi esa, umumbashariy sport turiga aylandi. Madaniyat bilan birgalikdagi vazirlik maqomini oldi. Bularning deyarli barchasi respublikamiz Prezidenti Islom Karimov tashabbusi va nazorati ostida amalga oshirildi. SHu tufayli bugun O'zbekiston sport diyoriga, inson jismoniy go'zalligini jahonga namoyish etayotgan mamlakatlardan biriga aylandi.

Sport estetikasidagi eng muhim muammo, bu uning san'at bilan o'xshashligida. SHundan kelib chiqib, zamonaviy sportni (juda bo'lmaganda, uning ba'zi turlarini) o'ziga xos san'at sifatida talqin qilish keng yoyilgan. Rene Mehyu, Morin Kovich, Benjamin Lou singari g'arb olimlari va ko'plab mashhur sportchilar sportni san'at sifatida qabul qilish mumkin degan fikrni o'rta tashlaydilar. Lekin haqiqatan ham sport san'atmi, ularni aynanlashtirish mumkinmi? Bu savolga to'g'ridan-to'g'ri javob berish qiyin. SHu bois sportning kelib chiqishi va mohiyatiga e'tibor qilib ko'raylik.

Ma'lumki, o'yinni Qadimgi yunon faylasuflari estetik tabiatga ega ekanini ta'kidlab, uni san'at bilan tenglashtirganlar, SHiller esa, ko'rib o'tganimizdek, badiiy faoliyatni o'yinning eng yuksak shakli deb hisoblaydi. Sport esa, eng avvalo o'yin. Undan inson ikki tomonlama estetik zavq oladi: o'yinchi-sportchi va tomoshabin-tarafkash sifatida. bunda tomoshabin san'atni idrok etayotgandek sportchi bilan uyg'unlashib, uning xatti-harakatlariga qo'shilib ketadi, ayni paytda o'zi sportchi emasligini, ya'ni estetik masofani his qilib turadi. Bu borada B.Lou o'zining «Sport go'zalligi» degan kitobida F.Kinonning quyidagi fikrlarini keltiradi: «Teatr, – deb yozadi F.Kinon, – tomoshabinga suyanib rivojlanadigan san'at turi... Sport musobaqalarida tomoshabinlar o'zlarini xuddi spektakl tomoshosidagidek tutadilar: ular yuksak mahorat egalariga qarsak chaladilar va yomon o'yin ko'rsatganga nisbatan salbiy munosabatlarini yashirmaydilar. Sportda ham, teatrdam ham biz «o'yin» haqida gapiramiz»⁶³. Boshqa bir o'rinda B.Lou H.Slyusherning «Sport va ekzistensiya» kitobidagi quyidagi satrlarga e'tiborni qaratadi: «Sport – toki haqiqiy sport ekan, u estetik fazilat va nafislikka erisha oladi. U sportchi uchun chuqur ma'noga boy holat... sport botiniy yaxlitlikni va yuksak darajadagi hissiy ko'tarinkilikni talab qiladi, – deb yozadi H.Slyusher sportchi his etadigan estetik zavq haqida»².

San'at bilan sportning yana bir o'xshash tomoni shundaki, har ikkalasi ham biror bir moddiy ehtiyojni qondirmaydi, bevosita maqsad emas, maqsadga muvofiqlik tarzida voqe bo'ladi, ularning umumiy jihati, mavjudligini oqlaydigan asosiy narsa, bu – odamlarga estetik zavq berish xususiyati. Ayni paytda san'atda ham, sportda ham o'yin ijtimoiylik kasb etmasligi mumkin emas, sportchi san'atkor kabi g'oyaviy-mafkuraviy maylparastlik tabiatiga ega. San'atkor vatanparvarlik, millatparvarlik g'oyalarini bilvosita – badiiy asari orqali ilgari sursa, sportchi o'z jismoniy xatti-harakatlari bilan musobaqalarda vatan bayrog'ini ko'tarishga, «millatni uyaltirib qo'ymaslikka»

⁶³ Лоу Б. Красота спорта. М., «Радуга», 1984. С.92. ²
Ўша манба. С. 177.

Seminar mashg'ulotlari

intiladi, ya'ni bevosita va tabiiy ravishda mafkuraviy vazifani amalga oshiradi. Demak, san'at ham, sport ham shunchaki zavq berish va o'z iste'dodidan zavqlanish bilangina chegaralanib qolmaydigan ijtimoiy-ma'naviy hodisalardir. Biroq ana shu mafkuraviylik mafkurabozlikka aylansa, ya'ni ijodkor mafkura uchun axloqiylikdan chekina, san'atda haqiqiy badiiy asar yaratishning iloji bo'lmaganidek, sport musobaqasida ham g'irromlik yo'li bilan, «bir amallab» yutib chiqib, haqiqiy g'alabaga erishish mumkin emas, zero, haqiqiy g'alaba tomoshabinning bahosi bilan belgilanadi. Masalan, futbol maydonida raqibi yiqilib, o'rnidan tura olmayotganini ko'rgan futbolchi o'zi qulay vaziyatda bo'lsa ham, to'pni maydon tashqarisiga chiqarib yuboradi, raqib o'rnidan turib, hakam to'pni o'yinga kiritishga ruxsat berganida yiqilgan raqibning o'zi yoki komandadoshi uni yana maydon tashqarisiga chiqarib, to'p egallash navbatini ixtiyoriy tarzda raqib komandaga beradi. Bu – har ikkala komanda o'yinchilarining jo'mardligini, «haqiqiy yigitlar» ekanini, ularning faqat jismoniy emas, balki axloqiy jihatdan ham etukligini ko'rsatadi, tomoshabin hech qachon ularning birortasini to'pni raqibiga berib qo'ydi deb ayblamaydi, afsus chekmaydi, aksincha, xursand bo'ladi, namoyish qilingan mardlikdan zavqlanadi.

Qadimgi yunonlar san'atni «go'zal yolg'on» deb ataganlar, darhaqiqat, san'atkor bizga «bo'lmaganni bo'lgan qilib» ko'rsatadi, bizni chiroyli aldaydi. Sportning ko'pgina turlarida ham shunaqangi chiroyli aldovni tomosha qilib zavqlanamiz. Masalan, boyagi futbolga qaytaylik: hujumchi ro'parasidagi raqibini, futbol tili bilan aytganda, «chiroyli fintlar» bilan aldab o'tganida biz haqiqiy san'atni ko'ramiz. Hatto reportaj olib borayotgan jurnalist qoyil qolganidan «Go'zal! Bag'oyat go'zal!» demay iloji yo'q. Sportning badiiy gimnastika, sinxron suzish, suvga sakrash kabi turlari raqs san'atidan qolishmaydi, figurali uchish esa, o'ziga xos muz ustidagi balet, unda va badiiy gimnastikada musiqa san'ati ham ishtirok etadi. Sport jismoniy go'zallikni xulqiy go'zallik va go'zal xatti-harakatlar vositasida ma'naviy go'zallikka aylantirishdir. Shu ma'noda sportchi ham artist. Mohir sportchi o'zini bir muddatga jonli haykalga aylantira oladi.

Shular bilan bir qatorda sport san'at uchun material bo'lib xizmat qiladi. bunga o'zimiz guvohmiz: biz sport mavzuidagi rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik namunalarini ko'p ko'rganmiz, hikoya va qissalarni o'qiganmiz. Biroq, bularning hammasi sportni san'at deb qabul qilishimiz uchun etarli asos bo'lolmaydi. Buni sport estetikasi borasida jiddiy tadqiqotlar olib borgan, yuqorida nomi zikr etilgan B.Lou shunday ta'riflaydi: «Inson badanining – tabiiy shakldagi go'zallik ekanini, sportchi qiyofasi ideal badan tuzilishini o'zida mujassam etishini e'tirof qilar ekanmiz, sportdagi go'zallikni san'atdan ko'ra, tabiatga taalluqli deyishimiz mumkin, zero, sportdagi go'zallik ko'p hollarda tasodifiylik xususiyatiga ega».

B.Lou aynan mana shu o'rinda haqiqatga yaqin keladi, deb o'ylaymiz: sportda san'at unsurlari mavjud, lekin u butunisicha olganda, san'at emas. Ya'ni, sport estetik ko'rinishlarga ega, estetik zavq uyg'ota oladigan nosan'at soha. Sport estetikasi uning ana shu xususiyatlarini tadqiq etadi.

Shunday qilib, biz bir bob mobaynida estetik nazariyalarning nosan'at ob'ektlar bilan bog'liq asosiy turlarini imkon qadar ko'rib chiqdik. Endi navbat san'at estetikasiga.

Seminar mashg'ulotlari

1-mavzu. Falsafa fanining predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli

Muhokama uchun savollar

- 1.Falsafa atamasining mohiyati va mazmuni. 2.Falsafa fanining ob'yekti, predmeti, funksiyalari va baxs mavzulari va asosiy muammolari.
- 3.Dunyoqarash tushunchasi, uning mohiyati va tarixiy shakllari.
- 4.Afsonaviy dunyoqarash va uning o'ziga xos xususiyatlari.
- 5.Diniy va falsafiy dunyoqarash o'rtasidagi umumiy va asosiy farq nimalardan iborat?
- 6.Falsafiy dunyoqarashning mazmuni va yo'nalishlari.
- 7.Falsafiy dunyoqarashning yangilanish jarayoni va yoshlar tarbiyasi.
- 8.Qadimgi Sharq va Antik dunyo falsafasi.

Topshiriq №1



“Tezkor- so'rov savolari”

1. Siz «Falsafa» tushunchasining mohiyatini qanday tushunasiz?
2. Falsafaning bahs mavzusi nimada?
3. Falsafaning mantiqiy-gnoseologik funksiyasi deganda nimani tushunasiz?
4. Falsafaning umuminsoniyligi deganda nimani tushunasiz?
5. Dunyoqarash nima?
6. Sizningcha falsafiy dunyoqarashning g'oyaviy ildizlari nimalarda namoyon bo'ladi?
7. Siz dinning dunyoqarash tizimidagi o'rni va ahamiyatini qanday ta'riflaysiz?
8. Falsafiy dunyoqarashning vazifalari nimalardan iborat deb o'ylaysiz?
9. Mifologik dunyoqarash nima, uning mazmuni va ahamiyati?
- 10.Qadimgi Sharq va G'arb falsafasining umumiyligi va farqi?

Topshiriq №2

«Loyiha» texnologiyasining asosi bo'lmish ketma-ketlik nazariyasiga asoslanib jadvalsxemalarni mazmuniga qarab to'ldirish

Seminar mashg'ulotlari



1.3. Testlar

1. «Ontologiya» atamasi qaysi so'zdan olingan?

A. Yunoncha «ontos» -borliq, «logos» -so'z, ta'limot.

B. Lotincha «ontos» -borliq, «logos» -so'z, ta'limot.

C. Arabchadan olingan. D.

To'g'ri javob yo'q.

2. O'rta asr falsafasi negizida nima yotadi? A. Kosmotsentrizm.

B. Antropotsentrizm.

C. Teotsentrizm.

D. Geliotsentrizm.

Seminar mashg'ulotlari

3. Ratsionalizm nima? A.
Empirik bilish.
B. Aqliy bilish.
C. Intuitiv bilish.
D. Nazariy bilish.

4. Zardushtiylik dinining negizida nima yotadi? A. Yakka xudoni tan olish.
B. Narigi dunyo g'am-g'ussasi bilan yashash.
C. Yaxshilik va yomonlik kuchlari o'rtasidagi murosasiz kurashni tan olish va yaxshilikning g'alabasiga ishonish.
D. Insonning qudratli kuch ekanligini tan olish.

5. Antik davr falsafasining namoyandalarini aniqlang. A.
Suqrot, Anaksimandr, Aflotun, Arastu.
B. Kant, Geraklit, Ibn Sino, Demokrit.
C. Epikur, Beruniy, Farobiy, Anaksimn.
D. Feyerbax, Gegel, Fales, Yum, Yassaviy.

6. «Falsafa» atamasini birinchi bo'lib qaysi faylasuf o'z asarida qo'llagan? A. Aristotel.
B. Pifagor.
C. Suqrot.
D. Platon.

7. Tarixan dunyoqarashning shakllari bu?
A. Mif, fan, ov
B. Mif, din, falsafa, fan
C. Din, san'at, mehnat
D. Fan, falsafa, ov

8. Antik falsafaning asosiy savoli? A.
Inson nima?
B. Hayot yashashga arziydimi?
C. Dunyo nimadan yaratilgan?
D. Xudoning borligini qanday asoslash mumkin?

9. Falsafaning qaysi funksiyasi yetakchi o'rinni egallaydi?
A. Dunyoqarash funksiyasi
B. Gnoseologik funksiyasi
C. Ontologik funksiyasi
D. Tarbiyaviy funksiyasi

10. Falsafaning predmeti bu?
A. Olamning yaxlit birligi
B. Borliq
C. Inson
D. Fan

Seminar mashg'ulotlari

2-Mavzu. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: Sharq falsafasi

Muhokama uchun savollar

1. Qadimgi Sharq va Antik dunyo falsafasi.
2. Qadimgi Bobil va Misrda ilk falsafiy qarashlarning paydo bo'lishi.
3. Qadimgi Markaziy Osiyoda diniy falsafiy qarashlarning vujudga kelishi.
4. Qadimgi Hindistonda va Xitoyda paydo bo'lgan falsafiy ta'limotlar va maktablar.
5. "Qur'oni karim" –arab islom falsafasining nazariy asosi.
6. IX-XII asrlarda markaziy Osiyo hududida falsafiy fikrlarning shakllanishi.
7. M. Xorazmiyning tabiiy ilmiy va falsafiy qarashlari.
8. Al-Forobiyning falsafiy qarashlari.
9. Al-Beruniyning tabiiy ilmiy va falsafiy qarashlari.
10. Ibn-Sinoning tabiiy ilmiy va falsafiy qarashlari.
11. Amir Temurning ijtimoiy-falsafiy qarashlar. 12. XX-XXI asr o'zbek falsafasi.

1.1. Topshiriqlar

2. Siz «Falsafa» tushunchasining mohiyatini qanday tushunasiz?
3. Falsafaning bahs mavzusi nimada?
4. Falsafaning mantiqiy-gnoseologik funksiyasi deganda nimani tushunasiz?
5. Falsafaning umuminsoniyligi deganda nimani tushunasiz?
6. Dunyoqarash nima?
7. Sizningcha falsafiy dunyoqarashning g'oyaviy ildizlari nimalarda namoyon bo'ladi?
8. Siz dinning dunyoqarash tizimidagi o'rni va ahamiyatini qanday ta'riflaysiz?
9. Falsafiy dunyoqarashning vazifalari nimalardan iborat deb o'ylaysiz?
10. Mifologik dunyoqarash nima, uning mazmuni va ahamiyati? 11. Qadimgi Sharq va G'arb falsafasining umumiyliigi va farqi?

Topshiriq №2

Falsafa fani rivojiga hissa qo'shgan mutafakkirlar

KAZUS (Ajurli arra pedagogik texnologiyasi asosida)

<p>1. Buyuk mutafakkir jamiyat rivojida mehnat takqsimotining rolining ta'kidlaydi va birinchi ma'lum stratifikatsiya nazariyasini ta'riflaydi.</p> <p>2. U yaratgan ijtimoiy strukturada bosh element sifatida barqaror va normal faoliyat ko'rsatayotgan davlatning asosi hisoblanuvchi o'rta sinf amal qiladi. davlat shakllarini boshqaruvning uch to'g'ri va uch noto'g'ri shakllariga</p>	<p>1. 2. Abu Rayxon Beruniy</p> <p>3. 4. Platon</p> <p>5. Aristotel</p> <p>6. Al-Moturidiy</p> <p>7. 8. Abu Nasr Forobiy</p> <p>9. Imom Buxoriy Bahouddin Naqshband Ibn Sino Yusuf Xos Xojib</p>
---	---

Seminar mashg'ulotlari

ajratib, davlat qurilishining ilk tasniflaridan birini taklif qiladi	
--	--

3. Insonning hamma amallari oldindan uning taqdiriga g'zib qo'yilgan, shu bois u o'zi qilayotgan ishlarga ma'sul emas, degan nuqtai nazarini ham, qadariylarning, Olloh inson faoliyatlari va amallarining himoyachisi emas, degan nuqtai nazarini ham tanqid qilib, inson yaxshi va g'mon amallarni o'z erkiga ko'ra tanlashi va bu yo'lda Ollohning madadini olishi nazariyasini ilgari suradi

4. U o'zining «Fozil odamlar shahri» asarida insondagi insoniylik mohiyati o'zlikni anglashdan boshlanishi, fozil shaxs voqea va xodisalarning mohiyatini idrok eta bilishini, mohiyatga intilish xaqni tanish ekanligini, insonga berilgan ruh aqlni rivojlantirishga, unga quvvat bag'ishlashga ma'sul ilohiy kuch ekanligini, aql esa inson tomonidan narsalarni mohiyatan tanlab farqlashga ko'mak berishini asoslab berdi.

5. dunyoning rang-barangligini tushuntirish uchun Aristotelning shakl va materiya haqidagi ta'limotidan foydalangan. U jonning umrboqiyiligi haqidagi masalada Platon fikriga qo'shilmagan, chunki, uning paydo bo'lishi va o'limi tananing paydo bo'lishi va o'limi bilan bir vaqtda yuz beradi, deb hisoblagan.

6. Olamning barqaror amal qilishi jamiyat va tabiatning o'z-o'zini idora qilish, mustaqil boshqarish xususiyatining ishga tushishi va harakatlanishi bilan izohlanadi, deb hisoblaydi. Xamma narsaning yuz berishida taqdiri azalning roli, ilohiy hukmning mutloqlashuvi g'oyasiga qarshi chiqib, dunyo kamoloti uchun jamiyat a'zolarining erkin faoliyatiga ham katta ehtiyoj borligini asoslab beradi

7. XI asrda yaratilgan «Qutadg'u bilig» asari ham ijtimoiy qarashlarga boy. Bu kitob axloq-odob ta'lim va tarbiya hamda ma'naviy kamolotning yo'l-yo'riqlarini, usullarini, chora-

Seminar mashg'ulotlari

tadbirlarini mujassamlashtirib, o'zida jam qilgan buyuk qomusiy asardir

8. Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi ishonchli manba sanalmish "Sahihi Buxoriy" nomli hadislar to'plamini tuzgan 60 mingga yaqin hadis to'plagan ulug' alloma

9. naqshbandiya tariqatining asoschisidir. Bu ta'limotning mohiyati «Dil — ba yoru dast — ba kor» shiorida yaqqol ifodasini topgan. Inson Oллоh inoyati natijasi bo'lib, bu dunyoni unutilib qo'ymasligi lozim, uning qalbi doimo Oллоhda, qo'li esa mehnatda bo'lmog'i lozim. U tasavvufning barcha tariqatlari singari shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat maqomlarini e'tirof etadi

Testlar

1. Falsafiy tafakkur Qadimgi Sharq va G'arbda ijtimoiy ongning dastlabki shakli sifatida qanday ko'rinishda vujudga kelgan?

- A. Mifologiya B. Ontologik
V. Gnoseologik G. Dialektika

2. Mifologiyada dastlab qanday masalalar qo'yilgan?

- A. Dunyo qanday vujudga kelgan va u qanday rivojlanadi? Hayot va o'lim nima?
B. Nega tug'ildik va nimaga o'lamiz
V. Biz kimmiz, nega tug'ildik
G. Unday nazariya bo'lmagan

3. Antik davrda falsafa rivojlangan shaharlarni belgilang?

- A) Ioniya, Sitsiliya, Afina B. Makedoniya, Samarqand, Buxoro
V) Buxoro, Toshkent G. Xiva, Toshkent

4. Sharq va G'arb falsafasi nimaga qarab rivojlangan?

- A. Umuminsoniy qadriyatlarga B. Davlatlarga qarab
V. Mehnat taqsimotiga qarab G. Qurollarning takomillashuviga qarab

5. Markaziy Osiyoda ma'naviy-falsafiy merosning eng qadimgisi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Avesto B. Talmut
V. Injil G. Qur'oni Karim

Seminar mashg'ulotlari

3-Mavzu. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: G'arb falsafasi Muhokama uchun savollar

1. Yangi va eng yangi davr falsafasining o'ziga xos xususiyatlari nimada? 2. «Nemis mumtoz falsafasi» deyilganda qanday falsafani tushunasiz?
3. Nemis mumtoz falsafasiga qanday xususiyatlar xos ?
4. I. Kantni nega nemis mumtoz falsafasining asoschisi deymiz?
5. F. Gegelning nemis mumtoz falsafasidagi o'rnini qanday?
6. Gegelning dialektik metodi va idealistik sistemasi deyilganda nimani tushunasiz ?
7. F. Bekon – Yangi davr falsafasi asoschisi.
8. R. Dekartning bilish haqidagi ta'limoti.
9. T. Gobbsning ijtimoiy va falsafiy qarashlari.
10. Siyentistik tendensiyaning mohiyati nima.
11. Yangi davr falsafasida faylasuflarni qiziqtirgan asosiy masalasi nima?
12. Falsafa va fan mutanosibliigi.
13. XX asrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, va madaniy-ma'naviy hayotda qanday o'zgarishlar yuz berdi?
15. XX –XXI asr falsafasining qanday umumiy xususiyatlari mavjud?
16. XX-XXI asr falsafasiga xos qanday falsafiy oqimlar va falsafiy maktablarni bilasiz?
17. XX asr falsafasida neopozitivizm falsafiy oqimining mohiyati nimadan iborat?

1.2. Topshiriqlar

1 -O'quv topshiriq:

«Blits-so'rov» savollarining jadvali savol-javob vaqtida to'ldiriladi

№	Savollar	Javoblar
1.	Yangi davr G'arb va Sharq falsafasidagi asosiy muammolar. F. Bekon va T. Gobbsning falsafiy qarashlari	
2.	Kantning dunyoni falsafiy anglash haqidagi ta'limoti.	
3.	XVIII asr yevropa falsafasining ma'rifiy xususiyatlari	
4.	F. Nitshening falsafiy qarashlari.	
5.	I. Karimov- O'zbekistonda istiqloq davri falsafasining asoschisi.	
6.	Fenomenologiya falsafasi va uning nazariy manbalari.	
7.	Pragmatizm falsafasi.	
8.	Z. Freydning ruhiy-tahlil falsafasi	
9.	Ekzistensializm falsafasi: Xaydeger, Sartr, Kamyu	
10.	Hozirgi zamon falsafasidagi vorislik va yangilanish jarayoni	

2-topshiriq

O'quv topshiriq:

T – sxema

O'rta asrlarda SHarqda va yevropada shakllangan falsafiy ta'limotlar mazmuni va mutaffakkirlarning nomini belgilang.

Gnostika, apologetika, patristika, realizm, nominalizm, dualizm, sxolastika, Pyer Abelyar ta'limoti, Foma Akvinskiy, Vilyam Okkam, Rodjer Bekon, Xorazmiy, Forobiy, Imom alBuxoriy, Beruniy, Ibn Rushd, Al-Kindiy, Ar-Roziy, al-Farg'oni, G'azzoliy

Seminar mashg'ulotlari

Diniy	Ilmiy

1.3. Testlar

1. G'arbiy yevropa Uyg'onish davri falsafasining asosiy xususiyati nimada?

- A. bu falsafa asosiy e'tiborni inson muammosiga oid masalalarga qaratadi;
- B. fan va texnika rivoji uchun diniy goyaviy to'siqlarni olib tashladi;
- C. xristian dini ta'siri doirasidan chiqib ketdi;
- D. ularning xammasi to'g'ri;

2. XX asr tarixga qanday asr bo'lib kiradi?

- A. jahon urushlari asri bo'lib kiradi;
- B. termoyadro urush xavf-xatari asri bo'lib kiradi;
- C. milliy-ozodlik harakatlari asri bo'lib kiradi; D. ogohlantirish asri bo'lib kiradi.

3. Germenevtika» so'zining ma'nosi nima?

- A. «A», «B», «C» bandlari to'g'ri
- B. Talqin qilish san'ati
- C. Tushuntirish falsafasi
- D. Tushunish falsafi

4. Germenevtikaga kim asos solgan?

- A. F. Shleyermaxer
- B. K. Yung
- C. K. Popper
- D. J. Berkli

5. Postpozitivizm oqimining yirik vakillari kimlar?

- A. Karl Popper, Jorj Soros
- B. Anri Avenarius, Bertran Rassel
- C. M. Sheler, G. Plesner, A. Gelen
- D. F. Nitsshe, O. Shpengler, A. Bergson, A. Shopengauer

6. Eng yangi G'arb falsafasi ko'pgina oqimlarning o'z dunyoqarashlarida qo'llagan uslublari qaysi bandeda to'g'ri ko'rsatilgan:

- A. Irratsionalizm
- B. Ratsionalizm
- C. Materializm
- D. Ruhiiy tahlil

7. Ekzistensializm tarafdorlarining eng yirik vakillari qaysi javobda ko'rsatilgan?

- A. Kamyu, Sartr
- B. Fixte, Gol'bax
- C. Baxtin, Sartr
- D. Kant, Gegel'

Seminar mashg'ulotlari

8. Ssiyentizm quyidagi fikrlardan qaysi birini ilgari surgan?
A. Fan yutuqlarini tan oladi va ijobiy baholaydi
B. Falsafani dunyoqarash deb bilish
C. Falsafani fan deb bilish
D. Falsafani fan darajasiga tushirish va dunyoqarash masalasini olib tashlash
9. Yangi davr falsafasida faylasuflarni qiziqtirgan asosiy masala nima edi?
A. Substansiya va uning xossalari
B. Borliq masalasi
C. Inson masalasi
D. Makon va zamon
10. Pozivitizimda bilimlar nechaga bo'linadi?
A. Soxta va haqiqiy bilim
B. Kundalik va ijtimoiy bilim
C. Eski va yangi bilim
D. Bilimlar ajratilmaydi

4-Mavzu. Borliq – falsafaning fundamental kategoriyasi

Muhokama uchun savollar

1. Ontologiya qanday ta'limot?
2. Borliq tushunchasi nimani ifodalaydi?
3. Borliqning qanday turlarini bilasiz?
4. Materiya tushunchasi to'g'risida nimalarni bilasiz?
5. Harakat va uning asosiy shakllari to'g'risida so'zlab bering
6. Fazo va vaqt nima?
7. Qanday koidalar borliq kategoriyasining mazmunini ochib beradi?
8. Ontologiya qanday ta'limotlar bilan aloqada?
9. Falsafa tarixida borlik muammosiga qanday yondoshuvlar mavjud?
10. Yunon olimlarining fikricha borlik
11. Shark mutafakkirlarining fikricha borliq
12. Borliqning qanday shakllari mavjud?
13. Substansiya tushunchasining mohiyatini izohlang
14. Falsafa tarixida substansiya haqida qanday qarashlar mavjud?
15. In'ikos nima?
16. Hozirgi davrda materiyaning nechta tarkibiy darajasi farqlanadi?
17. Harakat nima?
18. Falsafa tarixida harakat haqida qanday tasavvurlar mavjud?
19. Hozirgi zamon falsafasida «Harakat» tushunchasi qanday izohlanadi?
20. Individuallashgan ma'naviy borliq – bu nima ?

Insert usulida jadvalni to'ldirish.

Insert qoidasi. 1. Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing: V – bilaman

Seminar mashg'ulotlari

- + - men uchun yangi ma'lumot - -
 men bilgan ma'lumotni inkor qiladi
 ? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.
 2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

Mavzu savollari	V	-	+	?
Borliq tushunchasining mohiyati va ma'nosi, borliq haqidagi tarixiy kontseptsiyalar.				
Borliqning shakllari va namoyon bo'lish xususiyatlari.				
Materiya tushunchasi, uning xususiyatlari va namoyon bo'lish shakllari haqida zamonaviy qarashlar				
Harakat - materiyaning namoyon bo'lish shaklidir				

1.2. Topshiriqlar

1 -O'quv topshiriq:

«Blits-so'rov» savollarining jadvali savol-javob vaqtida to'ldiriladi

№	Savollar	Javoblar
1.	Ijtimoiy makon va ijtimoiy vaqt tushunchalarining mazmuni	
2.	Noosfera tushunchasi va uning falsafa va fan uchun ahamiyati	
3.	Virtual borliq muammosi	
4.	Harakat tushunchasi. Harakat turlari	
5.	Ma'naviy borliqning o'ziga xos xususiyatlari	
6.	Ijtimoiy borliqning o'ziga xos xususiyatlari	
7.	Borliqning shakllari	
8.	Hayotning paydo bo'lishi haqida diniy ta'limot	
9.	Tabiat tushunchasining falsafiy mazmuni	
10.	Fazo va vaqt tushunchalari	

2 topshiriq

- 1.Topshiriq - Borliqning falsafiy tahlil (krossvord tayyorlash)
- 2.Topshiriq- Ontologiya falsafiy fan sifatida (Aristotelning borliq haqidagi ta'limoti tahlili)
- 3.Topshiriq –Hozirgi davrda materiya konsepsiyasiga munosabat

1.3. Testlar

- 1.Dunyo moddiy jixatdan bir butun deganda nima tushuniladi?
 A.Olam moddiy jixatdan bir butundir
 B.Xamma narsalarning kelib chiqishi bir demakdir
 C.Barcha jismlar doimiy xarakatda va taraqqiyotda
 D.Bordan yo'q bo'lmaydi, yo'qdan bor bo'lmaydi
2. Borliq necha shaklda namoyon bo'ladi?

Seminar mashg'ulotlari

- A.4 ta shaklda
- B.7 ta shaklda
- C.9 ta shaklda
- D.5ta shaklda

3. Taraqqiyot nima?

- A.u oldinlama xarakat bo'lib, narsa va xodisaning yangi yuqori sifatga o'tishidir
- B.u xarakatning bir turi
- C.taraqqiyot rivojlanish demakdir
- D.taraqqiyot inson omiliga bogliq

4. Materiya qanday kurinishlarga ega?

- A.Materiya modda va maydon kurinishlariga ega
- B.Materiya qattiq kurinishga ega
- C.Materiyani kurish mumkin emas
- D.Materiya atom kurinishiga ega

5. Xarakatning ilmiy-falsafiy mazmuni kaysi javobda tugri kursatilgan?

- A.Olamda sodir bulayotgan xar kanday uzgarish;
- B.Rivojlanish va usish;
- C.Oldinga ketish, kamayish va orkaga kaytish, yemirilish;
- D.Narsalarning fazodagi ixtiyoriy joy almashtirishi.

6.Fazo kategoriyasining falsafiy ma'nosi kaysi javobda tugri kursatilgan?

- A.Narsa va xodisalarning kulami, uzaro joylashishi tartibini bildiradigan kategoriya;
- B.Ichida turli yulduz va sayyoralarni kamrab olgan bushlik
- C. Predmetlar, narsalarning egallagan xajmini bildiradi;
- D. Predmetlar, narsalarning uzok-yakin, baland-past, unгда-chapda kabi xolatlarda joylashishinibildiradi.

7.Taraqqiyot qayerda yuz beradi?

- A.Taraqqiyot –tabiat, jamiyat va inson tafakkurida yuz beradi.
- B.Taraqqiyot tirik va notirik tabiatda yuz beradi;
- C.Tarakkiyot fakat tabiatda yuz beradi;
- D.Tarakkiyot fakat inson tafakkurida yuz beradi;

8.Substansiyaning ikki turga farqlanishi qanday ta'limotning kelib chiqishiga asos bo'ldi? A.Dualizm

- B.Monizm
- C.Deizm
- D.Tomizm

9. "Avesto"da birlamchi substansiya nima deb atalgan?

- A.Olov
- B.Suv
- C.Havo
- D.Er

10.Relyatsion so'zining ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A.Nisbiy

Seminar mashg'ulotlari

- B.Ijobiy
- C.Salbiy
- D.Barcha javoblar to'g'ri

5-Mavzu. Olamning universal aloqalari va rivojlanish. Falsafaning qonun va kategoriyalari

Muhokama uchun savollar

- 1.Dialektika nima?
- 2.Falsafada qonun va qonuniyat deganda nimani tushunasiz?
- 3.Dialektikaning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
- 4.Taraqqiyot va uning shakllari nima?
- 5.Umumiy aloqadorlik va o'zaro ta'sir iqtisodiy hayotda qanday ko'rinadi?
- 6.Dialektikaning asosiy qonunlari nimalar?
- 7.Dialektikaning asosiy kategoriyalari qanday tizimlashadi?
8. Dialektikaning muqobillari va ularning o'zaro ta'siri
- 9.Sakrashlarning qanday shakllari mavjud?
- 10.Dialektika va sinergetika: o'zaro aloqadorligi va farqi?
- 11.Kategoriya tushunchasi va uning tasnifi
- 12.Mohiyat va hodisa o'rtasidagi dialektik aloqa? 13.Sabab va oqibat o'rtasida murakkab dialektik o'zaro aloqa?
- 14.Falsafa kategoriyalarining ijtimoiy ahamiyati
- 15.Tabiat va jamiyat qonunlarining qanday xususiyatlari bor?
- 16.Olamdagi ayniyat va ziddiyat holatlariga misollar keltira olasizmi?
- 17.Miqdor va sifat nima ? Me'yor-chi?
- 18.Inkor nima? Inkorni inkor-chi?
- 19.Nima uchun ziddiyat tushunchasi dialektikada bosh tushuncha hisoblanadi?
- 20.Mazmun va shakl, mohiyat va hodisa kategoriyalarining o'xshashligi va farqi nimada?

1.2. Topshiriqlar

1 -O'quv topshiriq:

«Blits-so'rov» savollarining jadvali savol-javob vaqtida to'ldiriladi

№	Savollar	Javoblar
1.	Falsafada qonun tushunchasi.	
2.	Tabiat qonunlari va jamiyat qonunlari.	
3.	Qonun va qonuniyat.	
4.	Dialektikaning asosiy qonunlari.	
5.	Inkorni inkor qonuni.	
6.	Rivojlanish, Taraqqiyot va tanazzul.	
7.	Vorislik tushunchasi.	
8.	Sakrash tushunchasi, sakrash turlar	
9.	Miqdor va sifatning o'zaro o'tish qonuni.	
10.	Dialektik ziddiyatlilik qonuni.	

Seminar mashg'ulotlari

O'quv topshiriq:

“Tushunarli uslub”ning tushunchalar taxlili varog'iga dialektik qonun doirasidagi tushunchalarning taxlilini bajaring. Talabalar tushunchalarning mazmun va moxiyati jixatidan qaysi qonun turiga mansubligini aniqlab belgilaydi.

№	Tushunchalar qaysi qonun turiga mansub	Miqdor va sifat o'zgarishlarining o'zaro o'tishi	Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi	Inkorni inkor
1.	Bog'lanishlar			
2.	Ayniyat			
3.	Ziddiyat			
4.	Taraqqiyot			
5.	Qarama-qarshilik			
6.	Mavjudlik			
7.	miqdor			
8.	Sifat			
9.	Me'yor			
10.	Tadrijiylik			
11.	Uzluksizlik			
12.	Xarakat			
13.	Takrorlanish			
14.	vorislik			

1.3. Testlar

1. Ayniyat nima?

- A. ayniyat narsa va xodisalardagi o'xshashlikdir;
- B. ayniyat narsa va xodisalarga xos xususiyatdir;
- C. ayniyat tafovutni inkor etuvchi xolatdir;
- D. ayniyat tafovut laxzasini o'zida jo etgan xolatdir;

2. Nega inkorni inkor qonuni deyiladi?

- A.narsa rivojining 2-bosqichida taraqqiyot sodir bo'lgani sababli shunday deyiladi;
- B.inkor kategoriyasidan bu qonunni farqlash uchun shunday deyiladi;
- C.voqealikda inkor to'la bo'lmagani uchun shunday deyiladi;
- D.inkor bir chiziqli bo'lgani sababli shunday deyiladi;

3. Ziddiyatlar qanday ko'rinishlarga ega?

- A.ziddiyat xamma narsada o'z ko'rinishiga ega;
- B.ziddiyat jamiyat va insonlar orasidagi munosabat ko'rinishiga ega;
- C.ziddiyat ichki va tashqi, asosiy va noasosiy,bosh va bosh bo'lmagan antogonistik va noantogonistik ko'rinishlarga ega;
- D.ziddiyat konflikt ko'rinishiga ega;

4. Me'yor deganda nimani anglaysiz?

- A.me'yor narsa va xodisaga xos xususiyatlardir;

Seminar mashg'ulotlari

- B.me'yor narsa va xodisalar o'z sifatini saqlab qoladigan miqdoriy chegaradir;
- C.me'yor narsa va xodisa o'lchovidir;
- D.me'yor narsaning bir sifat xolatidan boshqa sig'a o'tishidir;

5. Falsafa qonunlari nechta tamoyilga tayanadi?

- A. 3 ta tamoyilga
- B. 4 ta tamoyilga
- C. 7 ta tamoyilga
- D. 5 ta tamoyilga

6. Taraqqiyot nima?

- A. u harakatning bir turi
- B. taraqqiyot rivojlanish demakdir
- C. taraqqiyot inson omiliga bogliq
- D. u oldinma harakat bo'lib, narsa va xodisaning yangi yuqori sifatga o'tishidir

7. Falsafa fanining juft kategoriyalari nimani ifodalaydi?

- A. ular olamdagi ziddiyatli xolatlar ifodasidir;
- B. falsafa fanining juft kategoriyalari qarama-qarshiliklar ifodasidir;
- C. falsafa fanining juft kategoriyasi narsalardagi ichki aloqadorliklar ifodasidir;
- D. falsafaning juft kategoriyalari olamdagi ziddiyatli va sababli boglanishlar ifodasidir;

8. Falsafa fanining juft kategoriyalari nechta turkumga ajratiladi?

- A. 10 ta;
- B. 4 ta;
- C. 3 ta;
- D. 7 ta.

9. Fazo kategoriyasining falsafiy ma'nosi kaysi javobda tugri kursatilgan?

- A.Ichida turli yulduz va sayyoralarni kamrab olgan bushlik;
- B.Narsa va xodisalarning kulami, uzaro joylashishi tartibini bildiradigan kategoriya;
- C.Predmetlar, narsalarning egallagan xajmini bildiradi;
- D.Predmetlar, narsalarning uzok-yakin, baland-past, ungda-chapda kabi xolatlarda joylashishini bildiradi.

10.Kategoriya nima?

- A.Vokelik va bilish xodisalarining eng umumiy va muxim xossalarini, sababli boglanishlari, munosabatlarini ifodalaydi;
- B.Real olamdagi xodisalarning umumiy xossalarini aks ettiradi;
- C.Voqealik va bilish xodisalarining belgilarini, munosabatlarini rivojlantiradi;
- D.Tafakkur olamiga xos umumiy belgilar, ifodasidir.

11.Qaysilar falsafa fanining kategoriyalari?

- A.borliq, materiya, bilish, uslub, tamoyil, ong, fazo va vaqt, miqdor, ekologiya, tabiat, xarakat
- B.Sifat, me'yor, xossa, ayniyat, miqdor, borliq, materiya, fazo va vaqt, tafovut, qarama-qarshilik, ziddiyat, inkor, vorislik
- C.Materiya, sifat, miqdor, tafovut, inson, xaqiqat, bilish, uslub, tamoyil, inkor, vorislik
- D.Ziddiyat, qarama-qarshilik, me'yor, xossa, borliq, olam, tabiat, voqealik, imkoniyat, vorislik

Seminar mashg'ulotlari

6-Mavzu. Bilish nazariyasi: asosiy muammolari va yo'nalishlari

Muhokama uchun savollar

- 1.Falsafada ong muammosi.
- 2.Ong shakllar
- 3.Bilish tushunchasi. Falsafada bilish muammosi. 4.Bilishning ob'yekti, sub'yekti va predmeti masalalari.
- 5.Hissiy bilish va uning shakllari.
- 6.Mantiqiy bilish va uning shakllari.
- 7.Bilishning shakllari va ularning mohiyati.
- 8.Bilishning darajalari va bosqichlari.
- 9.Ilmiy bilish va uning shakllari.
- 10.Haqiqat tushunchasi.
- 11.Haqiqatning ob'yektivligi, konkretligi, nisbiyligi va absolyutligi.
- 12.Haqiqatning mezoni haqidagi qarashlar.
- 13.Qadimgi Sharq falsafasida ong va bilish haqidagi qarashlar.
- 14.F.Akvinskiyning bilish haqidagi qarashlari.
- 15.I.Kantning bilish nazariyasi. («Narsa o'zida» tushunchasining mazmuni).
- 16.Bekonning induktiv ilmiy bilish metodi.
- 17.O'zbekistonda ilm-fan Taraqqiyoti va uning istiqbollari masalasi.
- 18.Metod va metodologiya tushunchasi.
- 19.Dialektikaning muqobil yo'nalishlari. (Eklektika, sofistika, metafizika, tanqidiy reflektorlik).
- 20.Metafizika-falsafiy metod sifatida.
- 21.Germenevtika –metodining o'ziga xosligi.
- 22.Sinergetika –o'z-o'zini tashkil etish metodi.

1.2. Topshiriqlar


1 -O'quv topshiriq:

«Blits-so'rov» savollarining jadvali savol-javob vaqtida to'ldiriladi


№	Savollar	Javoblar
1.	Ong kategoriyasining falsafiy mazmuni	
2.	Ong muammosining boshqa fanlar tomonidan o'rganilishi	
3.	Hissiy va aqliy bilishning roli haqida Forobiy fikrlarini aytib bering?	
4.	In'ikos tushunchasi va uning shakllari	
5.	Ijtimoiy ong mohiyati va uning shakllari	
6.	Bilish jarayonining bosqichlari.	
7.	Haqiqat tushunchasi. Nisbiy va mutloq haqiqatlar. Haqiqatni aniqlash mezoni.	
8.	Ilmiy bilish va uning o'ziga xos xususiyatlari	
9.	Ilmiy bilish strukturasi	
10.	Ilmiy bilishning yullari va usullari nimalardan iborat	

Topshiriq. Bilish nazariyasidan klaster tuzish

Seminar mashg'ulotlari



Bilish nazariyasi



1.3. Testlar 1.Ong nima?

- A.Yuksak darajada tashkil topgan materiya
- B.Inson miyasining mahsuli
- C.In'ikosning oliy ruhiy shakli
- D.Barcha javoblar to'g'ri

2. Ongning tarkibiy unsurlariga nimalar kiradi?

- A.Sezgi, idrok, tasavvur
- B.Tushuncha, hukm, idrok, tasavvur
- C.Sezgi, idrok, tasavvur, fikr, his-hayajon, iroda
- D.Iroda, bilish, his qilish

3. Ijtimoiy ong shakllarini ko'rsating?

- A.Diniy, falsafiy, siyosiy, huquqiy
- B.Ijtimoiy, axloqiy, ruhiy, ma'naviy

Seminar mashg'ulotlari

C.Siyosiy, matematik, fizik, ximik, estetik
D.Siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik va diniy

4. Ong sohalarini ko'rsating?

- A.Ilmiy, nazariy va eksperiment
- B)Kundalik va nazariy
- C)Tarbiyaviy, axloqiy va nazariy
- D)Ilmiy va empiric

5. Ong insonni nimaga chorlaydi?

- A.Ong insonni o'z-o'zini anglashga chorlaydi
- B.Insonni o'zligidan yiroqlashishga olib keladi
- C.Insonni turli xil faoliyatga undaydi
- D.Ong voqe'likni analiz qiladi

6. Ongni tarixiy shakllanishir va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.

- A.Hissiyot, bilim va aql
- B.Til, mehnat va nutq
- C.Ijod, nazariya va bilim
- D.Ong o'z-o'zidan tarqqiy etaveradi

7. Individual ong bilan ijtimoiy ong farqi nimada?

- A.Ikkalasi ham umumiy mazmun-mohiyatga ega
- B.Falsafada buning ahamiyati yo'q
- C.Biri yakkalikni ikkinchisi umumiylikni ifodalaydi
- D.Hech qanaqa farq yo'q

8.Amaliyot nima?

- A. amaliyot kishilarning maqsadga muvofiq, ishlab chiqarish faoliyatidir.
- B. amaliyot kishilarning moddiy va ma'naviy faoliyatidir.
- C. amaliyot bilimlar va tajriba majmuasidir.
- D. amaliyot kishilarning xar qanday moddiy faoliyatidir.

9. Hissiy bilishning shakllarini aytib bering. A.

- sezgi va idrok.
- B. tasavvur va xukm.
- C. sezgi, idrok, tasavvur, xukm.
- D. sezgi, idrok, tasavvur

10. Ilmiy bilishning nazariy darajasi uslublarini aniqlang. A.

- induksiya, deduksiya, idellashtirish, abstraksiya.
- B. modellashtirish, mavxumlik va aniqlik, analogiya.
- C.abstraksiya, induksiya va deduksiya. Analogiya, ideallashtirish, modellashtirish,
- D. sistemali yondashish. Mavxumlik va aniqlik, tarixiylik va mantiqiylik, klassifikatsiya, kuzatish, tajriba, solishtirish.

11. Bilish ob'yekti deganda nimani tushunasiz?

Seminar mashg'ulotlari

- A. bilish ob'yekti faqat ob'yektiv reallikdir.
- B. bilish ob'yekti butun borliqdir.
- C. bilish ob'yekti tafakkurdagi timsol (obraz)dir.
- D. bilish ob'yekti bilishga qaratilgan narsalar xolos.

12. Haqiqatga berilgan qaysi ta'rif to'g'ri?

- A. haqiqat insonga bogliq bo'lmagan olam xaqidagi bilimlar majmuidir.
- B. haqiqat ob'yektiv voqealikka mos keluvchi, amaliyotda sinalgan bilimdir.
- C. haqiqat bilimlarning ziddiyatsizligidir.
- D. u bilimlarning samaradorligi, foydaliligidir.

13. Qaysi shakllar xissiy bilish bosqichiga tegishli? A.

- idrok.
- B.iroda.
- C. xukm.
- D.intuitsiya.

14. Ob'yektiv haqiqat nima?

- A. ob'yektiv xaqiqat - o'zaro kelishuv va shartnomaning natijasidir.
- B. ob'yektiv xaqiqat – voqealikni to'g'ri aks ettiruvchi bilim.
- C. ob'yektiv xaqiqat – bizning mutloq bilimlarimizdir.
- D. ob'yektiv xaqiqat – tajribani oddiy va iqtisodiy tarzda ta'riflashdir.

15. Qaysi uslub ilmiy bilishning empirik darajasida qo'llaniladi?

- A. aksiomatik
- B. kuzatish.
- C. sintez.
- D. analogiya.

16. Qaysi uslub ilmiy bilishning nazariy darajasida qo'llaniladi?

- A. o'lchash.
- B. eksperiment.
- C. taqqoslash.
- D. formallashtirish.

17. Ilmiy bilish nimadan boshlanadi?

- A. ilmiy bilish ilm olishdan boshlanadi;
- B. ilmiy bilish o'zlikni anglashdan boshlanadi;
- C. ilmiy bilish ilmiy muammoni anglashdan boshlanadi;
- D. ilmiy

18. Forobiy bilishning qanday shakllarini ko'rsatib o'tadi?

- A. Hissiy va oqilona
- B. Xotira va tasavvur
- C. Aqliy va irratsional
- D. Aqliy va idrok

Seminar mashg'ulotlari

19. Borliqni anglashning g'oyalarda ifodalash nima deyiladi?

- A. Appersepsiya
- B. Fatalizm
- C. Persepsiya
- D. Formalizm

20. "Metod" so'zining ma'nosi?

- A. Yunoncha keng ma'noda ko'l, ijodiy faoliyatning har qanday shakli
- B. Yunoncha anglab yetish, tubiga yetmoq
- C. Lotincha o'ylamoq, aqlni charxlamoq
- D. Inglizcha, so'zlamok, gapirmok

7-Mavzu. Tarixiy jarayonda jamiyatning madaniy va ma'naviy qadriyatlari. Jamiyat va tarix falsafasi

1. Jamiyat tushunchasi.
2. Jamiyatning mohiyati, kelibchiqishi va Taraqqiyoti to'g'risidagi diniy va hozirgi sotsiologik qarashlar.
3. Jamiyatni moddiy hayoti. Ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari tushunchalari, ularning o'zaro aloqadorligi.
4. Jamiyatning siyosiy hayoti. 5. Jamiyatning ma'naviy hayoti.
6. Ijtimoiy Taraqqiyot va uning mezonlari.
7. Jamiyatning falsafiy tahlili.
8. Jamiyatning siyosiy tizimi.
9. Jamiyatning falsafiy tahlili. 10. Ma'naviyat va uning jamiyat hayotidagi o'rni.
11. Temur tuzuklarida davlat qurilishi masalasi.
14. Jamiyatning ijtimoiy hayoti. Jamiyat ijtimoiy birliklar tizimi sifatida. 15. Jamiyatning sinfiy tarkibi. O'rta mulkdorlar sinfi.
16. Jamiyat Taraqqiyoti-tarixiy jarayon sifatida.
17. Sivilizatsiya nima?
18. Madaniyat nima?
19. Jamiyat evolyutsiyasi borasida manbalar
20. Jamiyatga formatsion va sivilizatsion yondashuvlar?

1.2. Topshiriqlar

«Blits-so'rov» savollarining jadvali savol-javob vaqtida to'ldiriladi

1 -O'quv topshiriq

№	Savollar	Javoblar
1	Jamiyat tushunchasi. Jamiyatning mohiyati, kelib chiqishi va Taraqqiyoti to'g'risidagi diniy va hozirgi sotsiologik qarashlar	
2	Jamiyatni moddiy hayoti. Ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari tushunchalari, ularning o'zaro aloqadorligi.	
3	Jamiyatning siyosiy hayoti.	
4	Jamiyatning ma'naviy hayoti	

Seminar mashg'ulotlari

5.	Jamiyat ijtimoiy birliklar tizimi sifatida.	
6.	Jamiyatda tarixiy-etnik birliklar. Millat va milliy munosabatlar.	
7.	Jamiyatning sinfiy tarkibi. O'rta mulkdorlar sinfi.	
8.	Jamiyatning siyosiy tizimi	
9.	Jamiyat Taraqqiyoti-tarixiy jarayon sifatida. Progress, regress.	
10.	Jamiyat Taraqqiyoti jarayonida inson omilining ortib borishi.	

2-topshiriq

1-guruh Jamiyat, fukarolik jamiyati, jamiyatning iqtisodiy hayoti, jamiyatning ijtimoiy hayoti, jamiyatning siyosiy hayoti tushunchalarining mazmunini yoriting. «Jamiyat» so'ziga klaster tuzing.
2-guruh Jamiyatning mohiyati, kelib chiqishi va taraqqiyoti to'g'risidagi diniy va hozirgi sotsiologik qarashlarni bayon eting «Davlat» so'ziga klaster tuzing
3-guruh Jamiyatning sinfiy tarkibi nima «Millat» tushunchasiga klaster tuzing

1.3. Testlar

1. Tarixiy jarayonlarning sub'yekti kimlar?

A.tarixiy jarayonlar sub'yekti ja'miki odamlar;

B.tarixiy jarayonlarning sub'yekti o'z sotsial qiyofasiga ega bo'lgan xalq ommasidir;

C.tarixiy jarayonlar sub'yekti tarixiy shaxslardir;

D.tarixiy jarayonlar o'z ichki qonunlari bilan boradi.

2. Shaxs nima?

A. shaxs jamiyatdagi faol insonlardir;

B. shaxs tarixiy jarayonlarni u yoki bu tomonga og'dirib yuboradigan kishilardir;

C. shaxs betakror xususiyati tufayli individuallikdir;

D.shaxs muayyan sotsial birlik manfaatlarini to'laroq anglab, jamoani ma'lum maqsad yo'lida uyushtira oladigan insondir.

3. Jamiyat nima?

A.jamiyat odamlarning tarixiy uyushmasi;

B.jamiyat o'zini-o'zi tashkilovchi va boshqaruvchi tizim;

C.jamiyat ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar majmuasi;

D.jamiyat odamlarning shartnoma asosida birlashgan uyushmasi.

4. Har qaysi davlat va millat nimasi bilan kuchli?

A.harbiy saloxiyoti bilan;

B.er osti va yer usti boyligi bilan;

C.yuksak ishlab chiqarish saloxiyoti bilan;

Seminar mashg'ulotlari

D.yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan.

5. Hozirgi paytda bizning jamiyatimiz qayoqqa qarab xarakat qilmoqda? A.sotsializmni yangilashga tomon.

B.kapitalizm tomon.

C.mulkchilik turli shakllariga ega bo'lgan fuqarolik jamiyatiga.

D.texnologik sivilizatsiya tomon.

6.Jamiyatni ma'naviy kichik tizimini vujudga kelishi nimalar bilan belgilanadi?

A.Har xil ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlar bilan

B.Ijtimoiy va moddiy ehtiyojlar bilan

C.Mulkiy ehtiyojlar bilan D.To'g'ri

javob yo'q.

7.Kommunikatsiya nima?

A.G'oyalar, qarashlar. Baholar, almashinuvini nazarda tutadigan ma'naviy muloqot turi

B.Yangi bilimni aks ettiradigan axborot turi

C.Axborotni idrok etuvchi shaxs yoki guruh xulq-atvorini o'zgartiradigan xabar D.Hamma

javoblar to'g'ri

8.Jamiyatdagi ta'lim va tarbiya muassasalarining tarmoqlangan tizimini ko'rsating?

A.Hamma javoblar to'g'ri

B.Oliy o'quv yurtlari

C.Bolalar maktabgacha muassasalari

D.Maktab ta'limining turli muayyan shakllari

9.Shaxs jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab oluvchi o'ta serqirra hodisa bu - ...

A.Madaniyat

B.Ma'naviyat

C.Qadriyat.

D.To'g'ri javob yo'q

10."Demokratiya" so'zining ma'nosi?

A.Xalq hokimiyati

B.Fikrlar ko'pligi

C.Davlat hokimiyati

D.Faqat A va B javoblar to'g'ri

11.Jamiyatda siyosiy munosabatlarni tartibga soluvchi davlat va siyosiy tashkilotlar, institutlar va muassasalar majmui bu-...

A.Siyosiy tizim

B.Axloqiy tizim

C.Konfederatsiya

D.Monarxiya

12.Ijtimoiy ongning darajalariga nima deyiladi?

A.Kundalik va nazariy ong

Seminar mashg'ulotlari

- B.Kundalik va amaliy ong
- C.Amaliy ong
- D.Amaliy va nazariy ong

8-Mavzu. Falsafiy antropologiya (Inson falsafasi) Muhokama uchun savollar

- 1.Inson tushunchasining falsafiy tahlili.
- 2.Insonning biologik-fiziologik, ijtimoiy ruhiy birligi masalasi.
- 3.Insonning kelib chiqishi haqidagi Ch.Darvin va V.Bextereva nazariyalari
- 4.Falsafiy antropologiya qachon vujudga kelgan va u nimani o'rganadi?
- 5.Inson – falsafaning ob'yekti.
- 6.Falsafiy antropologiyaning shakllanishi va rivojlanishi.
- 7.Falsafada inson tabiati mushohadasi. 8.Insonning tabiiy, psixologik, til va faoliyat borlig'i, ular o'rtasidagi munosabat.
- 9.Inson hayotining ma'nosi. Inson oliy qadriyat sifatida. 10.Insonning umri, o'limi va manguligi.
- 11.Falsafa hayotning mazmunini anglashda yordam berishi mumkinmi?

1.2. Topshiriqlar

«Blits-so'rov» savollarining jadvali savol-javob vaqtida to'ldiriladi

№	Savollar	Javoblar
1	Totalitar va demokratik tizimlarda inson maqomi.	
2	Inson ijodi va san'at simbolizmi	
3	Inson va virtual voqelik.	
4	Go'zallik tuyg'usining biologik asoslari.	
5.	Avesto asosida insonga munosabatni belgilash	
6.	Emansipatsiya tushunchasi.	
7	Inson eng oliy qadriyat	
8	Fundamentalizm tushunchasining tahlili.	
9.	Feyerbaxning antropologizmi.	
10	Ekzistensializm falsafasi	

1.3. Testlar

1. Quyidagi so'zlar muallifi kim: «Inson o'zini dunyodan oldinroq va ko'proq biladi, ayni shu sababli u dunyoni o'zidan keyin va o'zi orqali anglab yetadi...»?

- A.N.A.Berdyayev
- B.V.Solovyev
- C.V.Kuznetsov
- D.A.Chumakov

2. «Inson-mashina» asarining muallifi kim?

- A.J.Lametri
- B.Dj.Berkl
- C.Spinoza
- D.Berkli

Seminar mashg'ulotlari

3. Insonning paydo bo'lishi haqidagi evolyutsion konsepsiya asoschisi kim?
A.Ch.Darvin
B.K.Linney
D.Ch.Pirs
D.A.Eynshteyn
4. Insonni o'rganishning introvertiv yondashuvi vakillari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?
A.M.SHeler, A.Gelen, K.Lorens
B.N.A.Berdyayev, A.Gelen, K.Lorens
C.S.L.Frank, L. P.Karsavin, S.N.Bulgakov
D.N.O.Loskiy, L. P.Karsavin, S.N.Bulgako
5. Falsafa tarixida inson haqidagi qarashlarni «antropologik materializm» sifatida baholagan faylasuf kim?
A.L.Feyerbax
B.I.Kant
C.V.Gegel
D.F.Nitsshe
6. Quyidagi so'zlar muallifi kim: "Odamlar o'zlarining xos xususiyatlariga va tabiiy ehtiyojlariga ko'ra jamiyat tuzadilar. Ularning harakat va fe'llarini dastavval bora-bora odatlarga aylanadigan tabiiy qobiliyatlar belgilaydi".
A.Farobiy
B.Beruniy
C.Navoiy
D.Ibn Sino
7. Quyida keltirilgan fikrlardan qaysi biri antik davrda Del'fidagi Apollon ibodatxonasiga kiraverishda ustunga o'yib yozilgan?
A. O'z-o'zingni anglash
B. Boshqalarni biluvchi –oqil, o'zini biluvchi –donishmanddir
C. Kimki o'zini bilsa, u o'z Allohni ham bilgaydir
D. Inson barcha narsalar mezonidir
8. Quyidagi so'zlar muallifi kim: «Inson barcha narsalar mezonidir»?
A.Protagor
B.Aflotun
C.Lao-TSzi
D.Suqrot
9. Sharq mutafakkiri kim jahon fanida birinchi marta inson va tabiat, odam va olam o'rtasidagi munosabatlarni dunyoviy fan nuqtai nazaridan o'rganadi?
A.Beruniy
B. Ibn Sino
C. Farobiy

Seminar mashg'ulotlari

D. Navoiy

10. Falsafa tarixida insonni "tabiat xalturasi" deb atagan faylasuf?

A. A.Shopengauer

B. K.Linney

C. P.T.de Sharden

D. A.Eynshteyn

11. Insonni o'rganishga doir asosiy yondashuvlar?

A. Ekstravertiv va introvertiv

B. Reduksiya

C. Kontrreduksiya

D. Sistemali yondashuv

12. Insonning ong, jon, ruhiyat, instinktlar, nuqsonlar, fazilatlar kabi muhim xususiyatlarini tahlil etib, uni «ichdan» tushunish, anglab yetishninazarda tutadigan falsafiy qarash?

A. Introvertiv

B. Ekstravertiv

C. Sotsiologizatorlik

D. Biologizatorlik

13. Insonni o'rganishning ekstravertiv yondashuvi vakillari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?

A. N.A.Berdyaev, S.N.Bulgakov, S.L.Frank, N.O.Losskiy

B. N.A.Berdyaev, A.Gelen, K.Lorens, M.S.Heller

C. S.L.Frank, L. P.Karsavin, S.N.Bulgakov, K.Lorens

D. N.O.Losskiy, L. P.Karsavin, S.N.Bulgakov, A.Gelen

14. Insonning yetuk organizmi taxminanqancha hujayradan iborat ekanligi aniqlangan?

A. 50000 milliard

B. 110000 million

C. 200 milliard

D. 30000 milliard

15. Inson mohiyatini tahlil qilish go'yoki «sirtidan» amalga oshiriladigan, buning natijasida diqqat markazidan uning ijtimoiy va tabiiy mohiyatio'rin oladigan falsafiy qarashni aniqlang? A.

Ekstravertiv

B. Introvertiv

C. Kontrreduksiya

D. Sistemali yondashuv

16. Qadimgi hind falsafasiga qanday falsafiy qarash xos?

A. Antropotsentrizm

B. Teotsentrizm

C. Okkultizm

D. Shamanizm

Seminar mashg'ulotlari

17. Insonning ichki dunyosini birinchi o'ringa qo'yish qaysi falsafiy konsepsiyaga xos deb xisoblaniladi? A. antropotsentrizm
B. Teotsentrizm
C. Kosmotsentrizm
D. Ssiyentrizm
18. Quyida keltirilgan mualliflardan qaysi biri o'z asarida inson haqida fundamental fan yaratish lozimligi qayd etiladi va uni falsafiy bilish dasturi taklif qilinadi? A. M. Sheler
B. D. Yum
C. J.J. Russo
D. R. Chellen
19. "Individ" tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni aniqlang?
A. muayyan insonning umumiy obrazi
B. Muayyan o'ziga xos xususiyatlar
C. Ijtimoiy mavjudot
D. Muayyan insonning umumiy obrazi va xususiyatlari
20. Qaysi falsafiy konsepsiya tarafdorlari insonni uning tabiiy, biologik asosidan kelib chiqib tushuntirishga harakat qiladi A. Biologizatorlik konsepsiya
B. Sotsiologizatorlik konsepsiyasi
C. Ekzistensializm konsepsiyasi
D. Kosmotsentrizm konsepsiyasi

9-mavzu. Globallashuv va global muammolarning falsafiy jihatlari Muhokama uchun savollar

1. Falsafa va hozirgi zamon.
2. Globallashuv hodisasi.
3. Umumbashariy muammolar, ularning asosiy yo'nalish va namoyon bo'lish xususiyatlari.
4. O'zbekiston va global muammolar.
5. Respublikamiz tabiati va uni asrab-avaylash muammolari.
6. Umumbashariy muammolarni urganishning tarbiyaviy ahamiyati.
7. Global muammolarning mohiyati.
8. Muammolarning turli darajalari.
9. Umumbashariy muammolarning vujudga kelish sabablari nimada?
10. Ilmiy-texnika taraqqiyoti va uning sotsial oqibatlari nimalarda namoyon bo'lmoqda?
11. Umumbashariy muammolarda demografik omilning o'rni qanday?
12. «Demografik portlash» tushunchasi haqida nima deya olasiz?
13. Global jarayonlarning shakllanish tarixi
14. Global muammolarni yechishda falsaning o'rni
15. Rim klubi haqida nima bilasiz?


1.2. Topshiriqlar

«Blits-so'rov» savollarining jadvali savol-javob vaqtida to'ldiriladi

No	Savollar	Javoblar
----	----------	----------

Seminar mashg'ulotlari

1	Globallashuv – XXI asr dunyo hamjamiyatining ijtimoiysiyosiy hayotidagi asosiy xususiyat sifatida.	
2	Axborot sohasida globallashuv. Zamonaviy bosqichda ommaviy axborot globallashuvining ma'nosi va asosiy xususiyatlari.	
3	Axborot makoni globallashuvi sharoitida milliy xavfsizlik masalalari.	
4	Internet global xalqaro ommaviy kommunikatsiya vositasi (OAK) sifatida.	
5.	Globallashuvning ijobiy natijalari.	
6.	Globallashuvning salbiy oqibatlari	
7	Global jarayonlarning shakllanish tarixi	
8	Globallashuv hodisasi va globalistika	
9.	Globallashuv: axborot xuruji va ommaviy madaniyat	
10	Falsafa va hozirgi dunyoning globallashuvi	



2 -O'quv topshiriq

- 1.O'zbekiston sharoitida globallashuv jarayonlari va ularning mazmun hamda mohiyatining falsafiy tahlillari.
2. O'zbekistonda globallashuv jarayonining milliy ma'naviyat va ahloqiy qadriyatlardagi o'ziga xosliklari.

1.3. Testlar

1. Globalistika mustaqil ilmiy yo'nalish va ijtimoiy amaliyot jabhasi sifatida nechanchi yillardan shakllanish boshladi? A.1960-yillarning oxirlaridan
B.1950-yillarning oxirlaridan
C.1970- yillarning oxirlaridan
D.1980-yillarning oxirlaridan
- 2.Globallashuvning vujudga kelishiga asos bo'lgan yirik sabablarni toping?
A.Hayotning barcha sohasidagi integratsiyalashuv
B.Fan va texnika kashfiyotlari
C.Falsafada yangi ta'limotlarning vujudga kelishi

Seminar mashg'ulotlari

D.Odam sonining keskin o'sishi

3. Ikkinchi jahon urushidan so'ng yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy holat, bugungi kunda global muammolarni bataraf qiluvchi qaysi asosiy hamkorlikning vujudga kelishiga sabab bo'ldi?

A.BMT

B.YUNESKO

C.EHHT

D.MDH

4.Hozirgi zamonda "jahon fuqarosi" deb hisoblovchi odamlarning paydo bo'lishiga nima sabab bo'ldi?

A.Serqirra globallashuv

B.Ekologik globallashuv

V.Siyosiy globallashuv

G.Madaniy globallashuv

5. "Tarix kurtaklari va uning maqsadi" asari muallifi kim?"

A.K.Yaspers

B.Yu.Xabermas

V.M.Xaydegger

G.G.Gadamer

Mavzu: Mantiq ilmining predmeti, asosiy qonunlari. Tushuncha tafakkur shakli sifatida. Reja:

1. Mantiq fanining predmeti va ahamiyati.

2. Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari

3.To'g'ri muhokama yuritishning mantiqiy tamoyillari: fikrning aniqligi, izchilligi va etarli asosga ega bo'lishi.

4.Mantiq ilmining fanlar tizimidagi o'rni.

5.Tushunchalarning shakllanish va qo'llanishi.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarda mantiq fanining tadqiqot metodlari ularning klassifikatsiyasi va metodlardan foydalanishni shakllantirish.

O'quv faoliyatining natijasi: Mantiq fanining tuzilishi va tadqiqot metodlari haqida dastlabki bilimlar berish hamda mazkur jihatlar inson shaxsini o'rganish ob'ekti ekanligi asoslab berildi.

Seminar mashg'ulotlari

Tayanch iboralar: Predmet belgisi, predmetlar sinfi, tushuncha, tushunchaning mazmuni, tushunchaning xajmi, tushunchaning turlari, tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar, tushunchani chegaralash, tushunchani umumlashtirish, tariflash, tasniflash, tushunchani bo'lish.

1-o'quv topshiriq “Tushunchalar tahlili” organayzerini to'ldiring

1-guruh

Muhim muammoning echimini topishga yordam beradi va “Tushunchalar tahlili” usuli orqali muammo hal qilinadi.

Tushunchalar	Mazmuni
Mantiq fani	
Mantiq fani va pedagogika	
Mantiq fani va sotsiologiya	
Mantiq fani va tilshunoslik fanlar	

2-guruh

Tushunchalar	Mazmuni
Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari	
Mantiq ilmining fanlar tizimidagi o'рни	
Tushunchalarning shakllanish va qo'llanishi	

1-o'quv topshiriq T-chizma grafik organayzerlari

Hozirgi zamon Mantiq ilmining ilmiy tadqiqot metodlariga doir muammoli masalalarni echimini topishga yordam beradi va “T-chizma” usuli orqali muammo hal qilinadi.

1)

Kuzatish metodining afzalligi	Kuzatish metodining kamchiliklari

2)

Eksperiment metodining afzalliklari	Eksperiment metodining kamchiliklari

3)

Suhbat metodining afzalliklari	Suhbat metodining kamchiliklari

4)

Seminar mashg'ulotlari

So'rovnoma metodining afzalliklari	Surovnoma metodining kamchiliklari

5)

Sotsiometriya metodining afzalliklari	Sotsiometriya metodining kamchiliklari

Mavzu: Mulohaza. Xulosa chiqarish. Argumentlash va bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari.

Reja:

1. Mulohaza tafakkur shakli. Oddiy va murakkab mulog'azalar vaularning turlari. Tushuncha, uning mazmuni va hajmi.
2. Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi.
3. Asosiy muhokama yuritish shartlari.
4. Argementlash nazarisining asosiy tushunchalari

O'quv mashg'ulotining maqsadi: mulohaza tushunchasi, mulohaza tafakkur shaklining rivojlanish bosqichlari, oddiy va murakkab mulog'azalar, shaxs va uning qiziqishlari, professiografiyaning mohiyati haqidagi bilimlarni shakllantirish.

O'quv faoliyatining natijasi: Talabalarga kasb tushunchasi, psixikaning rivojlanish bosqichlari, kasblarni psixologik tizimlash, shaxs va uning qiziqishlari, argementlash nazarisi haqida dastlabki bilimlar berish hamda mazkur jihatlar mantiq fanini o'rganish ob'ekti ekanligi asoslab berildi.

Tayanch iboralar: Hukm, sub'ekt, predikat, bog'lovchi, kvantor, oddiy hukm, murakkab hukm, modal hukmlar, mantiqiy kvadrat. Xulosa chiqarish, deduktiv xulosa chiqarish, sillogizm, entimema, polisillogizm, epixeyrema, induktiv xulosa chiqarish, to'liq induksiya, to'liqsiz induksiya, ommabop induksiya, ilmiy induksiya, ilmiy induksiya metodlari, statistik umumlashtirish, analogiya, xususiyatlar analogiyasi, munosabat analogiyasi, modellashtirish, argumentlash, ishonch-e'tiqod, isbotlash, rad etish, baxs yuritish, munozara, polemika, paralogizm, sofizm, mantiqiy paradoks.

Seminar mashg'ulotlari

Tarqatma materialning taxminiy nusxasi FSMU texnologiyasi

F	Fikringizni bayon eting.
S	Fikringizni bayoniga biror sabab ko'rsating.
M	Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.
U	Fikringizni umumlashtiring.

Ushbu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, egallangan bilimlarni tahlil qilishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

1-guruh

Savol	Oddiy va murakkab muloxazalar va ularning turlari qanday izohlaysiz?
F-fikringizni bayon eting	
S-Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
M-ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
U- fikringizni umumlashtiring	

2-guruh

Savol	Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi nimalarda ko'rinadi?
F-fikringizni bayon eting	
S-Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
M-ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
U- fikringizni umumlashtiring	

Seminar mashg'ulotlari

13-mavzu. "Etika" fanining predmeti va jamiyat hayotidagi ahamiyati Taqqoslash tablitsasi.

Ahloqlilik bilan ahloqsizlikni taqqoslang:

ahloqiylik	ahloqsizlik
<ol style="list-style-type: none">1. adolat2. vijdon3. ma'suliyat4. sahovat5. mehr-muruvvat6. xalollik7. to'g'riso'zlik8. poklik9. ezgulik10. havas11. altruizm12. mehnatsevarlik	<p>adolatsizlik</p> <p>vijdonsizlik</p> <p>ma'suliyatsizlik</p> <p>oqibatsiz</p> <p>muruvvatsizlik</p> <p>xarom</p> <p>yolg'onchilik</p> <p>nopoklik</p> <p>yovuzlik</p> <p>hasad egoizm</p>
	<p>dangasalik</p>

Testlar

1. Axloq tuzilmasi – bu:

- A. Axloqiy anglash
- V. Axloqiy xis etish
- S. Axloqiy munosabat
- D. axloqiy sevgi
- E) To'g'ri javob A, V, S

2. A. Avloniy tarbiyani uchga bo'lgan edi. Ular ...

Seminar mashg'ulotlari

- A. Badantarbiya
- V. Fikr tarbiyasi
- S. ahloq tarbiyasi
- D. San'at tarbiyasi
- E. To'g'ri javob A, V, S

3. «Insonlarga eng muxim ziyoda sharaf, baland daraja beruvchi tarbiya deganda Avloniy qaysi tarbiyani nazarda tutgan edi?

- A. Ahloq tarbiyasini
- V. Estetik tarbiyani
- S. Badan tarbiyani
- D. Fikr tarbiyasini
- E. To'g'ri javob V, S, D

4. Mamlakatimizda 2001 yil bu...

- A. oila yili
- V. sog'lom avlod yili
- S. mexr muxabbat
- D. onalar va bolalar yili
- E. to'g'ri javob berilmagan

5. Ahloqiy madaniyatning eng muhim unsurlaridan biri bu...

- A. Muomala odobi
- V. Eslab turish
- S. Rasmiy muomala odobi
- D. Etiket
- E. to'g'ri javob S, D

6. «Gippokrat qasami» qaysi soha xodimlarini kasbiy odobi va qonunlarning majmuasi hisoblanadi?

- A. Texnika sohasining
 - V. Tabobat sohasining
 - S. Ilm sohasining
 - D. Siyosat sohasining
 - E. Kulolchilik sohasining
- 7. Xalqaro miqyosda kabul qilingan muomala qonun qoidalari?**

- A. Etika
- V. Etikos
- S. Etiket
- D. Etnos
- E. Etnografiya

8. Axloqiy komillikka erishish nimani egallashdan boshlanadi?

- A. Did bilan kiyinish odobini
- V. Did bilan gapirish odobini
- S. SHariatni egallashdan
- D. Muomala odobini egallashdan
- E. Salomlashishni o'rniga qo'yishdan

10. Muomala odobi qanday talablarni bajarishni taqoza etadi?

- A. Boshqa kishilarni kadr qimmatini joyiga qo'yishni
- V. Boshqa kishilarni izzatini joyiga qo'yishdan

Seminar mashg'ulotlari

S. An'anaviy ahloqiy me'yorlar talabini bajarish
D. Ilmiy bilimlardan oqilona foydalanmaslikni
E. To'g'ri javob A, V, S **11. «Turkiy guliston yoxud ahlok» asari yozilgan sanani toping?**

- A. 1913 y
- V. 1915 y
- S. 1910 y
- D. 1917
- E. 1922

12. 1914 yilda yozilgan «Oila yoki alla boshqarish tartiblari» kitobining muallifi kim?

- A. Furqat
- V. Anbar Otin
- S. X. X. Niyoziy
- D.A. Avloniy E.
- A. Fitrat

13. Imom G'azzoliy oltinchi sezgi yoki ikkinchi yurak, yurak ichidagi yurak deganda nimani nazarda tutgan?

- A. Tasavvufni
- V. Aqlni
- S. Idrokni
- D. Faxmlashni

E. Xayolni **14. Qaysi axloqiy mezon qadriyatlar orasidagi nisbatni belgilaydi?**

- A. Yaxshilik
- V. Yovuzlik
- S. Ezgulik
- D. Adolat
- E. Huquq

15. Zero dunyodagi xamma narsa – xodisalar kabi muxabbat ham nimaga muhtoj?

- A. Insonga
- V. Go'zallikka
- S. Parvarishga
- D. Munosabatga
- E. Yolg'onga

Seminar mashg'ulotlari

Mavzu: Estetika predmeti, maqsad va vazifalari

Reja:

1. “Estetika” tushunchasi.
2. Estetika faning ob’ekti, predmeti va funksiyalari. 3. Estetika kategoriyalarning o‘zaro aloqadorligi.

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: estetika, dizayn xususiyatlari haqidagi bilimlarni shakllantirish.

O‘quv faoliyatining natijasi: Talabalarga estetika xususiyatlari haqida dastlabki bilimlar berish hamda mazkur jihatlar estetika fanini o‘rganish ob’ekti ekanligi asoslab beriladi.

Estetika haqida tushuncha

Estetika yoxud nafosatshunoslik eng qadimgi fanlardan biri. Uning tarixi ikki yarim-uch ming yillik vaqtni o‘z ichiga oladi. Biroq u o‘zining hozirgi nomini XYIII asrda olgan. Ungacha bu fanning asosiy muammosi bo‘lmish go‘zallik va san‘at haqidagi mulohazalar har xil san‘at turlariga bag‘ishlangan risolalarda, falsafa hamda ilohiyot borasidagi asarlarda o‘z aksini topgan edi. «Estetika» atamasini birinchi bo‘lib buyuk olmon faylasufi Aleksandr Baumgarten (1714–1762) ilmiy muomalaga kiritgan. Bunda u boshqa bir ulug‘ olmon faylasufi G. Laybnits (1646–1716) ta’limotidan kelib chiqqan holda munosabat bildirgan edi.

Laybnits inson ma’naviy olamini uch sohaga: aql – idrok, iroda-ixtiyor, his-tuyg‘uga bo‘ladi va ularning har birini alohida falsafiy jihatdan o‘rganish lozimligini ta’kidlaydi. Baumgartengacha aql-idrokni o‘rganadigan fan – mantiqning, iroda-ixtiyorni o‘rganuvchi fan – Axloqshunoslikning (etika) falsafiy fanlar tizimida ko‘pdan buyon o‘z o‘rni bor edi. Biroq his-tuyg‘uni o‘rganadigan fan falsafiy maqomda o‘z nomiga ega emasdi. Baumgartenning bu boradagi xizmati shundaki, u «his qilish», «sezish», «his etiladigan» singari ma’nolarni anglatuvchi yunoncha aisthetikos – «oyestetikos» so‘zidan «estetika» (olmoncha «estetik» – «estetik») iborasini olib, ana shu bo‘shliqni to‘ldirdi.

1-o‘quv topshiriq 3x4 organayzerini to‘ldiring

Mavzuning asosiy mazmunini ochib berishga yordam beradi va “3x4” texnologiyasi orqali talabalarni mavzu yuzasidan tushuncha, tasavvurlari aniqlanadi.

Estetika –bu

Estetikaning mezoniy tushunchalari

Go'zallik, ko'rganimizdek, nafosatning bosh, etakchi xususiyati hisoblanadi. SHu bois u estetikaning mezoniy tushunchalaridan biri sifatida tadqiq va talqin etiladi. Zero, go'zallikning ishtirokisiz yuqoridagi xususiyatlarning birortasi estetik tabiatiga ega bo'lolmaydi. Masalan, ulug'vorlikni olaylik. U asosan hajmga, miqyosga, miqdorga asoslanadi: Buxorodagi Arslonxon minorasi yoxud Minorai Kalon ulug'vorligi bilan kishini hayratga soladi. Unga tikilar ekansiz, qalbingizni nafosat zavqi qamrab oladi. Lekin xuddi shunday balandlikdagi kimyoviy korxonada mo'rkonidan zavqlanolsiz. Yoki yonbag'irdan turib, toqqa tikilsangiz, estetik zavq tuyasiz, ammo xuddi shunday balandlikdagi shahar chetida o'sib chiqqan Axlat «tog'i»ga qarab zavqlanolsiz. Chunki Arslonxon minorasi me'morlik san'ati asari sifatida go'zallik qonuniyatlari asosida bunyod etilgan; tog' esa, tabiat yaratgan ulug'vor go'zallik. Zavod mo'rkonida ham, Axlat «tog'»ida ham hajm, miqdor bor-u, lekin bir narsa – go'zallik etishmaydi. Minora bilan tog'dagi hajmni mahobatga aylantiruvchi unsur, bu – go'zallik. Fojiaiviylik xususiyatida ham go'zallikning ishtirokini ko'rish mumkin. Misol sifatida Lev Tolstoyning «Urush va tinchlik» romanidagi Austrlitsda bo'lib o'tgan rus va fransuz qo'shinlari to'qnashuvidan so'ng, jang maydonida yarador bo'lib yotgan knyaz Andrey Bolkonskiyni eslaylik: bir qo'lida bayroq dastasini mahkam siqib, ko'm-ko'k maysada moviy osmonga qarab yotgan, oppoq mundirli botir yigit – bayroqdor zobitning tepasiga kelgan Napoleon uni o'lgan deb o'ylab, bu manzaradan hayratlanib: «Mana bu – go'zal o'lim!», deydi. Bu o'rinda asar qahramonining o'limi – fojiaiviylik, o'limning qahramonlikka aylanishi – ulug'vorlik; fojiaiviylik bilan ulug'vorlik xususiyatlarining omuxtalashuvi natijasida esa, go'zal manzara, qayg'uli va ulug'vor go'zallik vujudga kelgan. SHuning uchun ham Napoleonning hayrotomuz xitobi bejiz emas. Ayni paytda go'zallik yuqorida keltirilgan estetik xususiyatlar va tushunchalarning «mustaqilligiga» daxl qilmaydi, faqat ularning hujayrasida u yoki bu darajadagi unsur sifatida ishtirok etadi. Demak, estetikaning asosiy tadqiqot ob'ekti – go'zallik, biroq, birinchi galdagi vazifasi ana shu go'zallikni aks ettirish hisoblanadigan san'at ham o'z navbatida nafosatshunoslikning keng qamrovli tadqiqot ob'ekti hisoblanadi.

1-o'quv topshiriq

“Muammo” organayzerini to'ldiring

Estetikaning mezoniy tushunchalariga doir muammoli masalalarni echimini topishga yordam beradi va “Muammo” usuli orqali muammo hal qilinadi.

Muammoning turi	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni echish yo'llari va sizning harakatingiz
Aleksandr Baumgarten ilmiy muomalaga kiritgan. Bunda u boshqa bir ulug' olmon faylasufi G. Laybnits ta'limotidan kelib		

Seminar mashg'ulotlari

chiqqan holda munosabat borasidagi nazariyalaridagi o'shashlik va farqli jihatlar nimalardan iborat?		
--	--	--

1-o'quv topshiriq FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini bahs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o'rgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi. F-fikringizni bayon eting
S-Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating
M-ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring
U- fikringizni umumlashtiring

1-guruh

Savol	Estetikaning inson hayotidagi o'rni nimalardan iborat?
F-fikringizni bayon eting	
S-Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
M-ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
U- fikringizni umumlashtiring	

2-guruh

Savol	Estetika inson faoliyatini ta'minlovchi omil ekanligini asoslang?
F-fikringizni bayon eting	
S-Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
M-ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
U- fikringizni umumlashtiring	

Jonlantirish uchun savollar:

Estetikaning mohiyatini izohlang?
Estetikaning asosini nima tashkil qiladi?
Estetikaning mezoniy tushunchalari ko'rsating?
Go'zallik mazmuni nimalarda ko'rinadi?
Jahon estetikasida go'zallik nazariyalari xususida nimalarni ayta olamiz?

18-Mavzu: Tabiat va texnogen sivilizatsiya estetikasi. Estetikaning zamonaviy muammolari.

1. Tabiat estetikasi. Texnika estetikasi.
2. Sport estetikasi. Xalq amaliy san'ati va dizayn.
3. Estetik idrok etish San'at asarini estetik idrok etish
4. Estetik tarbiya

O'quv mashg'ulotining maqsadi: tabiat estetikasi, texnika estetikasi, sport estetikasining tasnifi haqidagi bilimlarni shakllantirish.

O'quv faoliyatining natijasi : talabalarga Xalq amaliy san'ati va dizayn, estetik idrok etish, san'at asarini estetik idrok etish, estetik tarbiya tasnifi haqida dastlabki ma'lumotlar zahirasi berish hamda mazkur jihatlar estetika sohasining o'rganish ob'ekti ekanligini asoslab berildi.

**1-o'quv topshiriq 3x4
organayzerini to'ldiring**

Mavzuning asosiy mazmunini ochib berishga yordam beradi va "3x4" texnologiyasi orqali talabalarni mavzu yuzasidan tushuncha, tasavvurlari aniqlanadi.

Tabiat estetikasi—bu

Tabiat estetikasi

Tabiat haqida gap ketganda, «tabiatni asrash», hatto «tabiatni qutqarish» degan so'zlarni tez-tez eshitamiz. Xo'sh, tabiatni kimdan asrash va qutqarish kerak? Odamdan, jamiyatdan. Demak, odam, markschilar ta'riflaganidek, tabiatning bir qismi emas, uni odam bir-birini bo'ysundirganidek bo'ysundirishi, «olamni tubdan o'zgartirishi» mumkin emas. Aks holda, oxir-oqibat insoniyat, hayvonot va nabotot dunyosi halokatga mahkum etilishi muqarrar.

Seminar mashg'ulotlari

Keyingi bir asr mobaynida inson tafakkurining qudrati, fan-texnika taraqqiyoti jahonning deyarli barcha sivilizatsiyalashgan mintaqalarida landshaftning (er yuzi manzarasining) o'zgarishiga, buzilishiga olib keldi. Masalan, birgina suv omborlarini olib ko'raylik. Hozirgi paytda minglab kvadrat kilometr takrorlanmas landshaft suv ostida qolib ketdi. Vaholanki, landshaft hayvonlar, qushlar, o'simliklar, suv, tuproq kabi qit'aviy xazinalarning uyg'unligidir. Biz esa, tabiatga bo'lgan xudbinlarcha munosabatimiz, unga qornimizni to'ydiradigan, hayotimizni farovon qiladigan vosita deb qarashimiz tufayli ana shu uyg'unlikni muntazam ravishda buzib kelmoqdamiz.

1-o'quv topshiriq "Muammo" organayzerini to'ldiring

Tabiat estetikasiga doir muammoli masalalarni echimini topishga yordam beradi va "Muammo" usuli orqali muammo hal qilinadi.

Muammoning turi	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni echish yo'llari va sizning harakatingiz
Tabiat estetikasida ekologik jarayonini yuzaga kelish mexanizmi nimadan iborat ekanligini tushuntiring?		

1-o'quv topshiriq FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini bahs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o'rgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi. F-fikringizni bayon eting
S-Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating
M-ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring
U- fikringizni umumlashtiring

1-guruh

Savol	Tabiat estetikasining inson hayotidagi o'rni nimalardan iborat?
F-fikringizni bayon eting	
S-Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
M-ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
U- fikringizni umumlashtiring	

2-guruh

Savol	Tabiat estetikasi insonning turmush tarzi bilan bog'liqmi?
F-fikringizni bayon eting	
S-Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
M-ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
U- fikringizni umumlashtiring	

Seminar mashg'ulotlari

Jonlantirish uchun savollar:

Tabiat estetikasi tushunchasining mohiyatini ko'rsating?

Tabiat estetikasi ekologik asoslarini ko'rsating?

Sa'nat estetikasining murakkabligi nimalardan ko'rinadi?

Sport estetikasida kuzatish va kuzatuvchanlikning mohiyati nimalarda ko'rinadi?

Mehnat estetikasining tasnifini izohlang?

Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

1.Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing: V-bilaman

+ – men uchun yangi ma'lumot

– – men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot 2.Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

№	Mavzu savollari	V	–	+	?

Glossariy

Glossariy

Atamalar			Izoh
O'zbek tilida	Ingliz tilida	Rus tilida	
1-mavzu. Falsafa fanining predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli			
Materializm	Materialism	Материализм	olamning asosida materiya, ya'ni moddiy narsalar yotishini e'tirof etadigan, moddiylikni ustuvor deb biladigan ta'limot
Idealizm	Idealism	Идеализм	moddiylikni inkor etib, olamning asosida ruh yoki g'oyalar yotadi, dunyoning mavjudligi va rivojlanib borishida g'oyalar muhim, belgilovchidir deb ta'kidlovchi falsafiy qarash, ta'limot bo'lib, materializmning aksidir
Falsafa	Philosophy	Философия	(yunon. — <i>philo</i> — sevaman va <i>sophia</i> — dono-lik) — donolikni sevaman ma'nosini anglatadi. F. voqelikdagi barcha narsa va hodisalarning eng umumiy aloqadorligi va rivojlanish qonuniyatlarini, ularning tub mohiyatini bilishga qaratilgan fandir.
Monizm	Monism	Монизм	(yunoncha — <i>monos</i> , ya'ni yakka ma'nosini anglatadi) — olamning asosi yakayu-yagona sababga, bitta asosga ega deb ta'lim beradigan falsafiy ta'limotdir
Dualizm	Dualism	Дуализм	(lotin tilida <i>dua</i> , ya'ni ikki degan ma'noni ifodalaydi) — olamning asosida ikkita asos, ya'ni modda va materiya bilan birga ruh va g'oya, ya'ni ideya yotadi deb qarash.
Plyuralizm	Pluralism	Плюрализм	(lotin tilida <i>plyural</i> , ya'ni ko'plik degan ma'noni anglatadi) — olamning asosida ko'p narsa va ideyalar yotadi deb e'tirof etadigan ta'limotdir
2-mavzu. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: Sharq falsafasi			

Glossariy

Avesto	Avesta	Авеста	e.o. VII asrda yaratilgan bo'lib, Avesto so'zi «Upasta», ya'ni qonun-qoidalar, me'yoriy asoslar ma'nosini anglatadi. Avesto asarida ifodalangan monoteistik diniy-falsafiy kategoriyalar va tushunchalar, dunyoni diniy talqin etish usullari keyingi davrlarda insoniyat hayotiga kirib kelgan va takomillashgan konfessiyalarda mustahkam o'rin olib keladi.
Kubroviya	Kubroviya	Кубравия	Kubraviya tariqatining asoschisi

			Najmiddin Kubrodir. Kubraviya tariqatining mohiyati o'nta usulda mujassamlashgan. Bular — tangriga o'z xohishi bilan yuzlashish, zuhd fi dunyo — har qanday lazzatdan o'zini tiyish, tavakkul — Ollohga e'tiqodi pokligi uchun barcha narsalardan voz kechish, qanoat, uzlat — xilvatni ixtiyor qilish, mulozamat az-zikr — uzluksiz zikr, tavajjuh — Haqqa muhabbat qo'yish, sabr — nafs balosidan ozod bo'lish, muroqaba — tafakkurga g'arq bo'lish, rizo — tangri xushnudligini qozonishdan iborat.
Yassaviya	Yassaviya	Яссавия	Yassaviya tariqatining asoschisi Xoja Ahmad Yassaviydir. Unda ilohiy ishq, Haq vasliga etishish, uning ishqida parvona bo'lish, undan boshqa narsaga ko'ngil qo'ymaslik haqida fikr yuritilgan. Yassaviy riyozat, chilla, zikrga alohida ahamiyat berib, hayotining aksariyatini chillaxonada o'tkazgan.
Naqshbandiya	Naqshbandiya	Нақшбандия	Bahouddin Naqshband naqshbandiya tariqatining asoschisidir. Bu ta'limotning mohiyati «Dil — ba yoru dast — ba kor» shiorida yaqqol ifodasini topgan. Inson Olloh inoyati natijasi bo'lib, bu dunyoni unutib qo'ymasligi lozim, uning qalbi doimo Ollohda, qo'li esa mehnatda bo'lmog'i lozim. U tasavvufning barcha tariqatlari singari shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat maqomlarini e'tirof etadi

Glossariy

Kalom	Kalom	Калам	oʻrta asrlar musulmon adabiyotida xar kanday diniy va falsafiy mavzularda mushohada yuritishda (hatto xristianlik — nasroniylik va yaxudiylik iloxiyoti xaqidagi fikrlarni ham uz ichiga oluvchi), keng maʼnoda qoʻllaniladigan istiloh. boʻlib, oʻzining maxsus maʼnosida (ilm-al-kalom), islom akidalarida obroʻli diniy fikr aytganlarga qarab emas, balki aql asosiga tayanib, xukm chiqarish, degan mazmuni bildiradi.
Konfutsiylik	Confucianism	Конфуцианство	Konfutsiy (Kun Szi, milodgacha 551—479 yillar) — mazkur taʼlimotning asoschisi boʻlib, qarashlari uning izdoshlari tomonidan yozilgan «Lun yuy» nomli falsafiy kitobda bayon
			etilgan. K.lar taʼlimotida «chjun», «i» {burchga sadoqat), «syao» (ehtimom) va boshka gʻoyalarni ifoda etuvchi «jen», (insonparvarlik karashlari tizimi, markaziy oʻrinni egallaydi
Panteizm	Panteizm	Пантеизм	(yunon. <i>pan</i> — xamma, <i>theos</i> — xudo) — tarixan shakllangan falsafiy taʼlimot boʻlib, u xudo bilan tabiat birbiriga tamoman mos boʻlib tushadi, ular aynan birdir, ularni bir-biriga qarama-qarshi qoʻyish, falsafiy tafakkur rivojiga putur etkazadi deb daʼvo qiladi.
Buddizm	Buddhism	Буддизм	diniy-falsafiy taʼlimot bulib, vujudga kelishiga koʻra, dastlabki dunyoviy dinlardan (xristianlik va islom kabi) biridir. B.ning asoschisi xind shaxzodasi Sidxartxa GautamaBuddadir. B.ning asosiy -gʻoyasi — boshqa shaklga kirish, xalos boʻlish va nirvanaga etishishdir.
3-mavzu. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: Gʻarb falsafasi			
Agnostitsizm	Agnosticism	Агностицизм	yunon. <i>agnosis</i> — a — inkor, <i>gnosis</i> — bilish, bilishni inkor etish. nomaʼlum) — falsafiy taʼlimot boʻlib, moddiy tizimlar, tabiat va jamiyat qonuniyatlari mohiyatini bilish imkoniyatlarini rad etib, bilimni voqealikka muvofiqligini isbotlash mumkin emas, deb hisoblaydi.

Glossariy

Geotsentrizm	Geocentrism	Геоцентризм	(yunon. <i>geep</i> va lotin. <i>centrum</i> mar-kaz soʻzlaridan olingan). Ptolomeyning geotsentrik nazariyasiga koʻra, Er butun cheksiz Koinotning markazi hisoblanadi. Uygʻonish davrining yirik olimi, ilmiy astronomiyaning asoschisi Nikolay Kopernik geliotsentrik nazariyani ilmiy jixatdan asoslab berdi.
Irratsionalizm	Irratsionalizm	Иррационализм	(lotincha-ongsizlik, nomaʼlumlik (aqlsizlik) maʼnosini bildiradi), ongsizlik afzalligini olamning va bilish jarayonining asosiy xususiyati deb hisoblovchi falsafiy taʼlimot.
Pozivitizm	Pozivitizm	Позивитизм	(lotincha ijobiy) – falsafiy tafakkurning Gʻarb mamlakatlarida keng tarqalgan koʻrinishi boʻlib, uning diqqat markazida falsafa va fan munosabati muammosi turadi. XIX asrning 30-40 yillarida Fransiyada eski falsafiy anʼanalardan uzil-kesil voz kechish va yangi ilmiy falsafa yaratish zarurligi
			toʻgʻrisida O.Kont bahs-munozaralar yuritadi va pozivitizm falsafasiga asos soladi.
Ratsionalizm	Rationalism	Рационализм	(lotincha moyillik) gnoseologiya va prakseologiyadagi yoʻnalish boʻlib, inson aqlining bilish jarayonida ham, inson faoliyatida ham hissiy (sezgi, idrok, tasavvur) bilish shakllariga nisbatan ustuvorligini tan oladi.
Skpetitsizm	Skpetitsizm	Скпетитизм	(yunoncha –muhokama qilish, taqdim qiluvchi) falsafiy oqim boʻlib, shubhani tafakkurning tamoyili sifatida taʼkidlaydi, haqiqatning ishonchligiga shubha bildiradi.
Ssientizm	Stsientizm	Сциентизм	(lotincha bilim, fan) falsafiy dunyoqarashning bir turi boʻlib, uning asosida ilmiy bilim madaniyatning eng oliy qadriyati, degan tasavvur yotadi.
Sensualizm	Sensualism	Сенсуализм	(fran. <i>sensualisme</i> , lotin. <i>sensus</i> — sezgi, xis-tuygu, idrok, xissiyot) bilimning mohiyati va paydo bulishini organuvchi falsafiy yunalishlardan bulib, bu taʼlimotga kura, bilimlarning anikligi, haqqoniyligi faqat sezgilarga asoslanadi.

Glossariy

			Sensualizm empirizmning ajralmas unsuridir.
Feyerbax Lyudvig	Feyerbax Ludwig	Фейербах Людвиг	olmon klassik falsafasining yirik namoyandasi. U Bavariyada tanikdi olmon xukuqshunosi Anselm Feyerbax oilasida tavallud topgan. F.ning asosiy asarlari: «Gegel falsafasining tankidiga doir», «Xristianlikning mohiyati», «Kelajak falsafasining asoslari», «Falsafa isloxiga doir tezislar»
4-mavzu. Borliq – falsafaning fundamental kategoriyasi			
Borliq	Existence	Существование	falsafiy tushuncha o'zida butun mavjudotni, uning o'tmishi, hozirgi davri va kelajagini ham qamrab oladi. Borliq o'ziga ham ob'ektiv ham sub'ektiv reallikni, shuningdek mavjud bo'ladigan olamlarni qamrab oladi.
Vaqt	Time	Время	borliqning asosiy yashash shakllaridan biri bo'lib, u voqea va hodisalarning ro'y berish ketma-ketligi va izchilligi tartibini, davomiyligini ifodalaydi
Voqelik	Reality	Реальность	(lotin so'zidan olingan bo'lib, haqiqiy mavjud reallik ma'nosini bildiradi). Voqelik mavjud narsalarga taalluqli, ularning mavjudligi dalilisbotni talab etmaydi. Voqelik bo'lishi mumkin bo'lgan narsalarni oldindan
			sezish, ko'rish, his qilish tarzida namoyon bo'ladi
Zamon va makon	Time and space	Время и пространство	olam mavjudligining asosiy shakllari
In'ikos	Perception	Восприятие	aks ettirish demakdir. Falsafiy ma'noda esa in'ikos, bu — ob'ektlarning o'zaro ta'siri natijasida modda, energiya va axborot almashish jarayonidir.

Glossariy

Substansiya	Substance	Вещество	- (lotin. <i>Substansia</i> — mohiyat) — Kadingi Yunoniston, Hindiston, Xitoy falsafiy tafakkuri tarixida butun mavjudotning bosh asosini ifodalovchi tushuncha. Bu bosh asos muayyan ashyolar va hodisalarning paydo bo'lishi va yo'q bulishi shart-sharoitlarni belgilaydi.
Olam	Universe	Вселенная	borliqning odam nazarda tutgan unsurlardan tashkil topgan odam tomonidan bilingan, anglangan qismi.
Harakat	Motion	Движение	moddiy, ruhiy va ma'naviy borliqning mavjudlik shakllaridan biri, uning muhim atributi. Eng umumiy tarzda harakat umuman, o'zgarishdan, ob'ektlarning o'zaro ta'siridan iborat.
5-mavzu: Olamning universal aloqalari va rivojlanish. Falsafaning qonun va kategoriyalari			
Fazo	Space	Пространство	borliqning asosiy mavjudlik shakllaridan biri bo'lib, u ob'ektlarning o'zaro joylashish tartibi, ko'lami, hajmi, o'lchamlari, ob'ektni tashkil etuvchi nuqtalarning o'zaro joylashish vaziyati kabi xususiyatlarini ifoda etadi.
Daraja	Level	Уровень	narsa va hodisalarning qanday bosqichda uyushganligi va rivojlanganligining kursatkichi.
Qonun	Law	Закон	muayyan shart-sharoitida voqealar rivojining xususiyati va yo'nalishini belgilaydigan, ma'lum bir qat'iy natijani taqozo etadigan, tevarakatrofdagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy, nisbiy barqaror munosabatlarni ifodalash uchun ishlatiladigan falsafiy kategoriya.
Miqdor	Quantity	Количество	moddiy tizimlardagi o'zgarishlarning majmuasi bo'lib, bu o'zgarishlar aynan uning mohiyatini o'zgartirishga teng emas.
Mohiyat	Cause	Причина	narsalarning ichki mazmunini tashkil etuvchi jihat. Mohiyat tashqi aloqadorlikdan yashiringan hodisadir.
Xaos	CHaos	Хаос	qadimgi yunon afsonalariga kura, nihoyasiz, dastlabki massa, tartibsizlik
			uyushmasi.

Glossariy

Dualizm	Dualism	Дуализм	- (lotin. <i>duo</i> — ikki) falsafiy ta'limot. Unga ko'ra ikki qarama-qarshi asosning doimiy mavjuddigini e'tirof etish, o'rtasida doimiy kurash mavjudligini tan olish xosdir.
6-mavzu. Bilish nazariyasi: asosiy muammolari va yo'nalishlari			
Dialektika	Dialectic	Диалектический	(yunon. <i>dialektika</i>) — rivojlanish tugrisidagi falsafiy ta'limot bulib, u ontologik xamda mantiqiy tushuncha sifatida tushuniladi
Dogmatizm	Dogmatism	Догматизм	yunon. <i>dogma</i> — fikr, muloxdza, ta'limot, qaror) tushunchasini qadimgi yunon skeptiklari Pirron va Zenon falsafaga kiritganlar. Ular har qanday falsafani dogmatik deb atashgan, chunki ularning ta'limotlari muayyan fikrni, mulohazani qayd etadi.
Eklektika	Eklektika	Эклектика	– (yunoncha) –bir-biriga aloqasi bo'lmagan narsalarni bir-biriga qo'shish, tanlash, degan ma'noni beradi
Bilish usuli	Learning method	Метод обучения	bilish jarayonining tamoyili, qonunqoidasi, talablar tizimi. Usul va vositasi.
Kuzatish	Observation	Наблюдение	bilishning narsa va hodisalar xossalari va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganishda qo'llaniladigan hissiy usuli.
Ong	Consciousness	Сознание	falsafadagi markaziy kategoriyalardan biri bulib, ko'p qirrali va murakkab bo'lganligi tufayli falsafa, psixologiya, psixiatriya, fiziologiya, kibernetika, informatika singari turli fanlarning o'rganish ob'ekti hisoblanadi
Xotira	Memory	Память	tasavvur va tushunchalarni xissiyotdan so'ng saqlanib qolishi, boshqacha aytganda, bu tasavvurlar, obrazlar saqlanadigan joydir.
Tafakkur	Reflect	Отражать	ob'ektiv olam in'kosining oliy shakli, tushunchalar, nazariyalar va h.k.larda narsa va hodisalarning muhim bog'lanish va aloqalarini aks ettirish, yangi nazariya, g'oyalar yaratish, bo'lajak jarayonlarni bashorat qilish kabilarda namoyon bo'ladigan faol jarayondir.
7-mavzu: Tarixiy jarayonda jamiyatning madaniy va ma'naviy qadriyatlari. Jamiyat va tarix falsafasi.			

Glossariy

Ijtimoiy falsafa	Social philosophy	Социальная философия	falsafa fanining tarkibiy qismi. Jamiyat, uning strukturasi va taraqqiyoti qonuniyatlarini yaxlit tizim sifatida undagi hodisa va jarayonlarni
			o'rganuvchi fan.
Madaniyat	Culture	Культура	(« <i>kultura</i> ») atamasidan olingan bulib, parvarish qilish, ishlov berish ma'nosini bildiradi
Volyuntarizm	Volyuntarizm	Волюнтаризм	(lotincha iroda) irodani – borliqning eng oliy ko'rinishi, tamoyili deb qarovchi falsafiy oqim.
Sivilizatsiya	civilization	цивилизация	jamiyat erishgan moddiy va ma'naviy daraja, uning faqat insonga xos sun'iy olamni moddiy va ma'naviy jihatdan takomillashtirishdagi muvaffaqiyatlari ko'rsatkichi.
Millat	nation	нация	- (lotin. <i>natio</i> — millat) til, ma'naviyat, milliy o'zlikni anglash ruxiyati, urfodatlar, an'analar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan xududda yashovchi, iqtisodiy aloqalar bilan bog'langan, shuningdek, odatda o'z davlatiga ega bulgan xamda mustaqil sub'ekt sifatida o'ziga xos moddiy va ma'naviy boyliklarni ifodalovchi kishilarning ijtimoiy barqaror birligi
8-mavzu: Falsafiy antropologiya (Inson falsafasi)			
Odam	Human	Человек	Insoning biologik turga mavjudligi
Shaxs	Person	Личность	Ijtimoiy muhit ta'sirida odamning shakllanishi
Inson	Person	Человек	jismoniy tanaga ega bo'lgan individ, jonli mavjudot, ya'ni odam, o'z shaxsiga ega, ijtimoiy faoliyat ko'rsatadigan, fikrlaydigan va o'z fikrini nutq orqali bayon qiladigan, ongga va tilga ega bo'lgan, jismoniy va ma'naviy qobiliyatlar sohibi - ijtimoiy zot tushuniladi.

Glossariy

Antropotsentrizm	Antropotsentrizm	Антропоцентризм	(yunoncha-inson,-markaz), Bu tasavvurga ko'ra, inson – koinot markazi bo'lib, u olamdagi barcha voqea-hodisalar o'zgarishining tub maqsadidir
Antropogenez	Antropogenez	Антропогенез	{yunon. antropos va genesis — inson, kelib chikish) insonning kelib chikish va rivojlanish jarayoni
Qadriyat	Value	Значение	voqelikdagi muayyan xodisalarning umumbashariy, umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy axyamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan falsafiy va aksiologik tushuncha.

9-mavzu: Globallashuv va global muammolarning falsafiy jihatlari

Globalashuv	Globalization	Глобализация	jamiyat hayotining turli jabhalarida butun Er sayyorasi uchun yagona bo'lgan tuzilmalar, aloqalar va munosabatlarning shakllanishi, universallashtirish jarayonidir
Bashorat	Prophecy	Прогноз	kelajak haqidagi, ya'ni hali amalda mavjud bo'lmagan, lekin rivojlanishning kutilayotgan rivojini belgilovchi ob'ektiv va sub'ektiv omillar ko'rinishida hozirgi zamonda potensial mavjud bo'lgan hodisalar va jarayonlar haqidagi bilim
Korrupsiya	Corruption	коррупция	lotin tilidagi “corruptio” so'zidan olingan bulib, mazmuni “buzish, sotib olish” ma'nosini beradi va uning grammatik bir ildizli ma'nosi yana “korroziya” suzi ya'ni “chirish” yoki “zanglash” degan mazmuni ham beradi. Shundan kelib chiqib bu so'zni ijtimoiy ko'rinishi hokimiyatni buzish, chiritish orqali sotib olish” degan ma'noni beradi
Demografik portlash	population explosion	демографический взрыв	ijtimoiy-tarixiy tarakkiyotning qisqa bir davrida, muayyan mintaqa yoki mamlakatda va shuningdek, butun er yuzida tabiiy tug'ilish xisobiga aholi miqdorining nihoyatda tez ko'payishini anglatadi

Glossariy

Prognozlash	Forecasting	Прогнозирование	biror-bir xodisaning istiqbollarini maxsus ilmiy tadqiq etish. O'z predmetiga ko'ra tabiiy - ilmiy va prognozlash jarayonini tafovutlash qabul qilingan
10-mavzu. Mantiq ilmining predmeti, asosiy qonunlari. Tushuncha tafakkur shakli sifatida			
Ayniyat qonuni	The principle of equality	Принцип равенства	ma'lum bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ayni bir fikr, ayni bir muhokama doirasida ayni bir vaqtda o'z-o'ziga tengligini ifodalaydi
Predikat	Predikat	Предикат	hukmning kesimi va ikkinchi tushunchasi
Sillogizm	Sillogism	СилЛОГИЗМ	ikki yoki undan ortiq asoslardan yangi xulosa chiqarish
Etarli asos qonuni	Adequate fundamental law	Адекватный фундаментальный закон	fikrlashning isbotli, ishonarli bo'lishini talab etuvchi mantiqiy qonun
Logika	Logica	Логика	grekcha "logike" so'zidan olingan bo'lib "so'z", "fikir", "qonuniyat" ma'nolarini anglatadi. Arabcha "mantiq" so'ziga mazmunan mos keladi
Norma	Norma	Норма	amalga oshirilish zarur bo'lgan yoki
(me'yoriy qoida)			istisno qilinadigan hatti-harakatlarni bildiradi
11-Mavzu. Mulohaza. Xulosa chiqarish			
Hukm	Judgment	вердикт	predmetga ma'lum bir xossaning, munosabatning xosligi yoki xos emasligini ifodalovchi tafakkur shakli
Hukmlarning modalligi	-	-	hukmlarda predikatning sub'ektga tegishli yoki tegishli emasligi haqidagi fikr qat'iy, kuchli (zaruriy) yoki qat'iy bo'lmagan, kuchsiz (ehtimol) tasdiq yoki inkor shaklda ifodalanuvchi fikr
Tushuncha	The concept	Концепция	buyumlarning umumiy va muhim belgilarni inson ongida yaxlit aks ettiruvchi tafakkur shakli
Deduktiv xulosa chiqarish	Deductive conclusions	Дедуктивные выводы	umumiy predmetlarning mohiyatini o'rganish orqali uning yakka, xususiy jihati haqida xulosa chiqarish
Induktiv xulosa chiqarish	Индуктивные выводы	Inductive conclusions	yakka, xususiy predmetlar mohiyatini o'rganish orqali umumiy xulosa chiqarish.

Glossariy

Nozidlik qonuni	Закон	Law	ayni bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan, ikki o‘zaro bir-birini istisno qiluvchi (qarama-qarshi yoki zid) fikr bir vaqtda va bir xil nisbatda birdaniga chin bo‘lishi mumkin emasligini, hech bo‘lmaganda ulardan biri albatta xato bo‘lishini ifodalaydi
12-Mavzu. Argumentlash va bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari			
Argumentlar	Variable	Переменные	tezisning chinligini asoslash uchun keltirilgan hukmlar
Nazariya	Theory	Теория	ma’lum predmet sohasiga oid tushunchalar, qonunlar, gipotezalar, g‘oyalarni sistemaga solib, u haqida yaxlit tasavvur hosil qiladigan, yangi fundamental umumlashmalar yaratishga olib keladigan, shu sohadagi hodisalarni tushuntirish, oldindan ko‘rish imkonini beradigan ishonchli bilim.
Muammo	The problem	Проблема	javobi bevosita mavjud bilimda bo‘lmagan va echish usuli noma’lum bo‘lgan savol
Gipoteza	Hypothesis	Гипотеза	o‘rganilayotgan hodisaning sabablari va xususiyatlarini tushuntiradigan asosli taxmin tarzidagi bilim shakli
Javob	Reply	ответ	predmet haqidagi avvalgi bilimni qo‘yilgan savolga muvofiq holda aniqlashtiradigan, to‘ldiradigan yangi hukm (mulohazadan) iborat
Entimema	Entimema	Энтимема	asoslardan biri yoki xulosasi qoldirilib ifoda etilgan sillogizm

13-mavzu. “Etika” fanining predmeti va jamiyat hayotidagi ahamiyati			
Axloq	Ethics	Поведение	(arab. xulqning ko‘pligi; lot. moralis — xulq-atvor) — ijtimoiy ong shakllaridan biri, ma’naviy hayot hodisasi, ma’naviyat sohasiga oid tushuncha. Kishilarning tarixan tarkib topgan xulqatvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o‘zaro, shuningdek, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi barqaror, muayyan norma va qoidalar yig‘indisi.

Glossariy

Baxt	Happiness	Счастье	ma'naviy axloqiy tushuncha. Kishi o'z faoliyati natijalaridan hayotda qo'lga kiritilgan yutuqlaridan to'la qoniqish, yashash tarzidan mamnunlik, muayyan maqsadga etganlik, orzu-umidning ushalishi, bearmonlik holati sifatida namoyon bo'ladi
Burch		Обязанность	jamiyat, davlat va shaxslarga nisbatan muayyan individdagi munosabat, ular oldidagi majburiyat
Oila	Family	Семья	kishilik jamiyatining ijtimoiy poydevoridir. Unda jismonan sog'lom, ma'nan barkamol, axloqan pok va yuksak madaniyatli insonni voyaga etkaziladi. Oila hayotining asosiy maqsadi aholini qayta tiklash va bolalar tarbiyasidir
Ezgulik va yovuzlik	Humanism and evil	Гуманизм и зло	ma'naviy axloqiy tushunchalar orasidagi eng muhim juftliklaridir. Ezgulik insonni faoliyatning asl mohiyatini anglatadi – Tangri irodasining inson qalbidagi tajassumi sifatida namoyon bo'ladi
Gedonizm	Hedonism	Гедонизм	(yunon. <i>hedone</i> – huzur-halovat, rohatlanish) etika nazariyasidagi axloqiy talablarni asoslash tamoyili bo'lib, unga ko'ra huzur-halovat keltiruvchi va azob uqubatdan qutqazuvchi narsa <i>yaxshilik</i> deb, azob-uqubat keltiruvchi narsa esa <i>yomonlik</i> deb ta'rif qilinadi.
14-Mavzu. Nikoh va oilaning axloqiy asoslari, uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni			
Oila	Family	Семья	"oila" so'zi (familia) dastlabki mulk egasiga bo'ysunadigan shaxslar (bu shaxslar mulkining bir qismi hisoblangan; mulk egasining o'z bolalari, xotini, asir, sotib olingan yoki meros bo'lib o'tgan qullar ham hisobga kirgan) majmuini bildirgan
Nikoh	Marriage	Брак	Arabcha so'z bo'lib "Er - xotinlikning
			yuridik (huquqiy) ravishda rasmiylashtirilgan oilaviy ittifoqi

Glossariy

Axloqiy qadriyatlar	Moral values	Моральные ценности	kishilarning xulq-atvorida asrlar davomida shakllangan o‘zaro munosabatlar, yurish-turish qoidalari: xushxulqlik, xushmuomalalik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, halollik, pokizalik, ezgulik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik
Diyonat			(arab. dindorlik, to‘g‘rilik, insof) Xudodan qo‘rqish, gunoh qilmaslik, savob ishlarni amalga oshirish, imonli e‘tiqodli, sofdil va mard bo‘lish, diniy qonun-qoidalarga qattiq rioya etish, dindorlik, taqvodorlik, vijdon, insoflilik.
Kasbiy odob	Professionalism	Профессиональная этика	jamiyat tomonidan qabul qilingan ahloq qoidalarini kishilarning ixtisoslariga nisbatan amalda tatbiq qiluvchi aniq kasbiy burch, sha‘n, or-nomus, qadrqimmat kabi xatti-harakatlarning majmui, umumiy axloqning kishilar kasb-koridagi o‘ziga xos ko‘rinishidir
15-mavzu. Axloqiy madaniyat va qadriyatlar			
Axloqiy madaniyat	Ethical culture	Этическая культура	axloqiy tarbiyaga doir asarlar, qarashlar, g‘oyalar, ko‘nikmalar va ularga amal qilinishi
Axloqiy tafakkur	Ethical thinking	Этическое мышление	axloq masalalariga bag‘ishlangan fikrlar, qarashlar g‘oyalar, har bir insonning axloqiy me‘yorlar va qadriyatlarni anglash, ilmiy mushohada qilish jarayoni
Bioetika	Bioethics	Биоэтика	hozirgi zamon etikasining muhim yo‘nalishlaridan biri. B. inson hayotini eng oliy axloqiy qadriyat sifatida qaraydi, shu bilan birga, inson hayotini saqlash muammosini – yaxshilik va yomonlikni farqlashning muhim mezoni, deb hisoblaydi
Mahalla	-	-	(arab tilidan, ma‘nosi – jamoat, joy, makon, qishnichilik) – O‘rta Osiyo, xususan O‘zbekiston qududida X asrlardan boshlab mavjud bilganligi to‘g‘risida tarixiy manbalar guvohlik beradi

Glossariy

Oila madaniyati	Family culture	Семейная культура	jamiyatning muhim ijtimoiy instituti bo'lgan oilaning to'laqonli va mukammal faoliyat yuritishi uchun uning a'zolari (er va xotin, ota-ona va farzandlar) o'rtasida birgalikda hayot kechirish va zarur munosabatlar o'rnatish ko'nikmalarining majmuasi
------------------------	-----------------------	--------------------------	--

16-mavzu. Estetikaning predmeti, maqsadi va vazifalari			
Garmoniya	Garmonia	Гармония	(yun. Harmonia - aloqa, uyg'unlik) - ma'lum tizim elementlari, tarkibiy qismlari rivojlanishining muayyan davrida o'zaro muvofiq, mutanosib,uzviy bog'liqlik va aloqadorlik holatini anglatuvchi tushuncha.
Go'zallik	Beauty	Красота	estetika kategoriyasi bo'lib, narsa hodisalarning nafisligi va nafosatini ijtimoiy ma'naviy jihatdan baholovchi mezon, ijtimoiy ma'naviy hayotda biron bir narsa yoki kishiga xos xususiyatlarning shaklan va mazmunan uyg'unligini anglatadigan, turli shakllarda namoyon bo'ladigan va insonda yoqimli tuyg'u, zavq, kuchli hayrat hissini hosil qiladigan tushuncha
San'at	Art	Искусство	ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shakli. San'at inson mehnati,aql idroki, shuuri bilan yaratilgan ijod mahsulotidir.
Ulug'vorlik	-	Слава	tabiat, jamiyat, inson va uning faoliyati mahsulotlarida namoyon bo'ladigan ma'naviy ahloqiy tushuncha. Ulug'vorlik belgisiga ega bo'lgan barcha narsa va hodisalarga xos umumiylik me'yoriy barkamollikdir
Fojiaviylik	-		voqelikning eng muhim, chuqur ziddiyat va to'vnashuvlari hayot va o'lim,ozodlik va mutelik, aql va tuyg'u, qonun va burch shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarni o'ziga xos tarzda ifoda etuvchi falsafiy tushuncha.
17-mavzu. Tabiat va texnogen sivilizatsiya estetikasi			

Glossariy

Estetik did	-	-	voqea hodisalarning estetik sifatlarini idrok etish va baholash jarayonida olinadigan qoniqiy yoki qoniqmaslik tuyg'usi, estetik mezon
Estetik ong	Aesthetic	Эстетический сознание	olamni estetik anglash, dunyoga inson munosabatining sub'ektiv tomoni. U ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida axloqiy ong, siyosiy ong, huquqiy ong, diniy ong, falsafiy ong kabi ijtimoiy hodisalar bilan bir qatorda turadi
San'at falsafasi	Art philosophy	Философия искусства	san'at bu fanning yagona tadqiqot ob'ekti emas. Hozirgi paytda texnika estetikasi va uning amaliyotdagi sohasi dizayn, atrof-muhitni go'zallashtirish, tabiatdagi nafosat borasidagi
			muammolar bilan ham shu fanimiz shug'ullanadi.
Nafosat	Gradient	Грация	bir tomonlama, real voqelikni, ikkinchi tomondan ilmiy tushunchani anglatadi. U real voqelik sifatida inson hayotining barcha sohalarini nurlantirib turuvchi qamrovli ma'naviy hodisa, tushuncha sifatida esa estetika faniga oid yuzlab, ehtimol, minglab atamalarni o'z ichiga olgan eng yirik istiloh, ovro'pacha ta'rifda-metakategoriya
Estetik munosabat	Aesthetic attitude	Эстетическое отношение	sub'ekt bilan ob'ekt o'rtasidagi o'zaro harakat va o'zaro ta'sirning maxsus turini anglatuvchi falsafiy tushuncha
18-mavzu. Estetikaning zamonaviy muammolari			
Estetik tarbiya	Aesthetic education	Эстетическое образование	jamiyatda ma'naviy muhitni paydo qilishga ko'mak beruvchi muhim unsur bo'lib, u inson didini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi hamda ana shu orqali insonni jamiyat munosabatlariga yaqinlashtiruvchi kuchdir
Turmush estetikasi	Life aesthetic	Эстетическая жизнь	insonning aqliy yoki jismoniy kuchi bilan amalga oshiriladigan maqsadli faoliyat
Reklama	Advertising	Реклама	insonning mayl-istagini, didini, ehtiyojini, qiziqishlarini, voqea-hodisalarga munosabatini shakllantirib, ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatish kuchiga ega. Reklamada go'zallik, ulug'vorlik, mo'jizaviylik va kulgilik kabi estetik xususiyatlar in'ikos etadi.

Glossariy

Badiiy ijod	Artistic Creation	Художественно е творчество	adabiyot va san'at fenomeni, ilhom bilan bog'liq ma'naviy hodisalardan biri, estetik ijod shakli
--------------------	------------------------------	---------------------------------------	--

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta'lim talabaning bajaradigan ilmiy izlanishi bo'lib, "Falsafa" fanini o'rganishda fanning biror bir mavzusini to'laroq o'zlashtiradi va mavzu belgilangan shaklda bajariladi. Mustaqil ishni bajarishdan maqsad, talabaning o'qishi davomida olgan bilimini mustahkamlash, chuqurlashtirish va umumlashtirishdan iboratdir.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni: talabalar mustaqil ishlari mavzulari kelgusida fanni yuqori darajada o'zlashtirishlariga, dunyoqarashida, mustaqil fikrga ega bo'lishlarida, tabiatga estetik jihatdan munosabatda bo'lishida katta ahamiyatga ega.

Talabaning amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishi, oraliq nazoratlarda, yakuniy nazoratda va boshqa mustaqil shug'ulanishini o'z ichiga oladi.

Mavzuni yoritish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlarining asosiy mazmuni talabalarga yetkazilishi, ularning mavzuga oid qismlaridan ko'chirmalar tarqatma material sifatida o'rganilishi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlarni o'rganishda axborot tizimlaridan foydalanish mumkin. Shuningdek, qo'shimcha ravishda internet saytlari ma'lumotlaridan samarali foydalanish, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar bo'yicha yangi ma'lumotlarni olib foydalanishlari lozim.

Mustaqil ta'limni tashkil etish orqali fan mazmunini boyitish va uning ma'lumotlarini yangilab borishda axborot resurslaridan foydalanishni yo'lga qo'yish; fanning mazmunini yanada takomillashtirish maqsadida tavsiya etilgan chet el adabiyotlari ma'lumotlaridan foydalanish va fanni chuqurroq o'rganish; talabalar fanni mukammal o'zlashtirish maqsadida mazkur fanga oid ma'lumotlarni hal qilish yo'llarini izlab topish va muammolarni maqolalar orqali yoritishlar ham kiradi.

II. Mustaqil ta'limning bajarilishi

Talaba mustaqil ta'limni bajarish jarayonida turli manbalardan axborot yig'ishi va ularni jamlashi, yozma ravishda o'zining fikrini bayon etishi, auditoriya oldida o'zining ravon nutqi bilan chiqishi orqali nutq madaniyatini shakllantirib boradi, so'z boyligining oshiradi, dunyoqarashi, fikrlashining kengayadi. Talaba kutubxonalarda faqat ilmiy adabiyotlar bilan cheklanmasdan, balki O'zbekiston Respublikasi OAK jurnallari va matbuot materiallaridan, internet saytlaridan foydalanishni bilishi lozim.

Referat tayyorlash. Talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo'lgan biror mavzu bo'yicha referat tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan (monografiyalar, ilmiy, uslubiy maqolalar, Internetdan olingan ma'lumotlar, elektron kutubxona materiallari va h.k.) foydalanib ma'lumotlar yig'adi, tahlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo'yicha imkon darajasida to'liq, keng ma'lumot berishga harakat qiladi. Zarur hollarda o'qituvchidan maslahat va ko'rsatmalar oladi.

Ko'rgazmali vositalar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, musiqiy asar, kichik badiiy asar va h.k.) tayyorlash topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga topshirish ham mumkin.

Mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish topshiriladi.

Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali jarayonlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi. Maslahat paytlarida bajarilgan ishlarning qo'yilgan vazifa va talablarga javob berish darajasi nazorat qilinadi (qayta ishlab kelish, aniqlashtirish yoki to'ldirish taklif etilishi mumkin).

Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash. Talabaga biron bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi tanlashi ham mumkin) ilmiy (referativ) xarakterda maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli ma'lumotlar to'playdi, tahlil

338

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

qiladi, zarurlarini ajratib olib, tartibga soladi, shaxsiy tajribasi va bilimi, ilmiy natijalariga asoslangan holda qo'shimchalar, izohlar kiritadi, o'z nuqtai-nazarini bayon etadi va asoslaydi. Bunda talaba o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi.

- Referat reja asosida va talab darajasida tayyorlangan bo'lib, har bir reja bo'yicha talaba o'z fikr mulohazalarini bayon etishi shart;
- Mavzuni yoritishda keltirilgan ma'lumotlar aniq va to'liqligiga ishonch hosil qilish uchun manbasi ko'rsatilishi shart;
- Referat tarzda (kompyuterda) yoziladigan bo'lsa (A4 format qog'oz, chap 3sm, yuqori 2sm, past 2,5 sm, o'ng 1,5sm va 14 shriftida yozilishi kerak) 14-16 betdan va taqdimot ko'rinishida 12-15 slyddan iborat bo'lishi kerak, tarqatma materiallar esa 10-12 tadan kam bo'lmasligi lozim

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Falsafiy dunyoqarashning o'z-o'zini anglashdagi roli.
2. Insoning ma'naviy kamolotida falsafiy dunyoqarashning roli
3. Bilim inson ma'naviy kamoloti omili.
4. Tarix falsafasi va falsafa tarixi uyg'unligi.
5. Globallashuv sharoitida antropologik inqirozning oldini olishning zaruriyati.
6. Ontologik va munosabatdosh kategoriyalarning uyg'unligi.
7. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasi.
8. Diniy madaniy an'analarning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri.
9. Oila va oilaviy qadriyatlar ma'naviy madaniyatning bosh omili.
10. Sharq va G'arb falsafasida inson masalasi.
11. Jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy tizimi.
12. Falsafa qonun va kategoriyalarining ijtimoiy jarayonlar dialektikasidagi roli.
13. O'zbekistonda korrupsiyaga oid qonunlar va qarorlar tasnifi, korrupsiyaga qarshi kurashning ahamiyati.
14. Hukmning tarkibi va xususiyatlari.
15. Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi.
16. Bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari.
17. Buyuk mutafakkirlar etika kategoriyalari haqida.
18. Estetik tarbiyaning turlari va yo'nalishlari.
19. Oila nomusi va sha'nini saqlashda ota-ona va farzandlar mas'uliyati.
20. Milliy ma'naviyatimizda nikoh va oilaga doir axloqiy qadriyatlar.

Falsafa fanidan nazorat savollari

1. Falsafaning baxs mavzulari va asosiy muammolari.
2. Falsafaning milliy va umuminsoniy tamoyillari.
3. «Dunyoqarash» tushunchasi, uning mohiyati va tarixiy shakllari.
4. Falsafiy dunyoqarashning mazmuni va yo'nalishlari.
5. Afsonaviy dunyoqarashning mazmuni va mohiyati.
6. Diniy dunyoqarash va uning mazmuni.
7. Falsafiy dunyoqarashning tamoyillari.
8. Fanlar tizimi, unda falsafaning o'rni va ahamiyati.
9. Ijtimoiy taraqqiyot va falsafiy tafakkur.
10. O'zbekiston xududidagi eng qadimgi falsafiy qarashlar.
11. Qadimgi Sharq falsafasi va uning milliy yo'nalishlari.
12. Antik dunyo va Yunoniston falsafasi.
13. Qadimgi hind falsafasi.
14. Qadimgi Xitoy falsafasi.
15. O'zbekistondagi ilk O'rta asrlar falsafasi.
16. Islom dini va falsafasi.
17. Tasavvuf falsafasi va uning oqimlari.
18. Dunyoviy bilimlar va falsafiy tafakkur rivoji. A.N.Farobiy, A.R.Beruniy, Ibn Sinolarning falsafiy qarashlari.
19. Amir Temurning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. «Temur tuzuklari»da falsafiy fikrlarning berilishi
20. Alisher Navoiyning falsafiy qarashlari. Alisher Navoiy asarlarida jamiyat bilan inson munosabati, insonparvarlik va komil inson g'oyasi.
21. O'rta asrlar Yevropa falsafasi. Xristian dini va uni davlat mafkurasiga aylanishi, o'rta asr falsafasi, gnostika, apologetika, patristika, realizm, nominalizm.
22. Yevropada uyg'onish davri va unda falsafiy tafakkur takomili. ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va falsafa, G.Galiley, N.Kopernik, J.Bruno ularning falsafiy qarashlari.
23. XVII-XIX asr Yevropa falsafasidagi oqimlar va falsafiy maktablar. ingliz falsafasi-Tomas Gobbs, Jon Lokk; Fransuz falsafasi – R.Dekart, Lametri, Gelvetsiy, Didro, Golbax, Russo; Nemis falsafasi – I.Kant, Gejel.
24. XVI-XX asr boshlarigacha O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy tafakkur. amirlik va xonliklar davri falsafasi, millatning g'oyaviy tarqoqligi va mafkuraviy tanazzul oqibatlari, jadidchilik.
25. Jadidchilik: mustaqillik uchun kurash g'oyalari. jadidchilik xarakati uning falsafasi, M.Bexbudiy, A.Avloniy, A.Fitrat, Munavvarqori falsafiy qarashlar. I.Gaspirinskiy.
26. Olamning mohiyatini anglash jarayonida insonning o'rni.
27. Borliq va uning mavjudlik shakllari.
28. Materiya va uning xarakat shakllari.
29. Borliq haqidagi konsepsiyalar.
30. Tabiat, uning tuzilishi va rivojlanishi. tabiat borligining struktura darajalari, birlamchi va ikkilamchi tabiat, organik va anorganik tabiat, tabiy va sun'iy muxit.
31. Tabiat va jamiyat, ularning o'zaro aloqasi. inson tabiati, inson tabiatining qismi ekanligi.
32. Tabiatni falsafiy tushunishning ahamiyati va ekologik tarbiya. tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabat, koevolyutsiya jarayoni, noosfera va biosfera, «ekologik ong», «ekologik tarbiya».
33. Dialektika ta'limoti va uning moxyati. qadimgi va o'rta asrlar sharq falsafasi va dialektika, dialektika muqobillari, rivojlanish: progress va regress.

Taraqqiyot falsafasi va uning mohiyati. dialektika-ta'limot sifatida, dialektik qonunlar va tushunchalar.

34. Qonun tushunchasi, uning mohiyati va falsafiy talqini. o'zgarish va taraqqiyot jarayoni, takrorlanish tamoyillar, qonun tushunchasi, turlari, dialektik qonunlar.
35. Voqelik va o'zgarish jarayonida ayniyat va ziddiyat dialektikasi. qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, ayniyat, qarama-qarshilik, ziddiyatlar turlari.
36. Mavjudlik tushunchasi va uning miqdor va sifat voqeligi tarzida namoyon bo'lishi. miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'zaro o'tishi qonuni, miqdor, sifat, me'yor, sakrash taraqqiyotda tadrijiylik tamoyili.
37. Voqelikni eng umumiy aloqadorligini aks ettiruvchi kategoriyalar. yakkalik, umumiylik, xususiylik, mohiyat, xodisa, qonun.
38. Voqelikni mazmunini aks ettiruvchi kategoriyalar. mazmun, element, struktura, butun, kism.
39. Voqelikni sababiyatini aks ettiruvchi kategoriyalar. sababiyat, sabab, oqibat, zaruriyat, tasodif, imkoniyat, voqelik.
40. Yoshlar ongida milliy tafakkurni shakllantirishda falsafiy kategoriyalarning ahamiyati. falsafada aloxidalik va umumiylik, hozirgi davr va dialektik inkor, rivojlanishning zaruriyati qonuniyatlarini, demokratik imkoniyatlar.
41. XX asr diniy falsafasi (Tomizm va neotomizm). Arastu, Platon, platonizm, katolik cherkovi, Avgustin, Foma Akvinskiy.
42. Voqelikni aks ettirishning tadrijiy bosqichlari. in'ikos, jonsiz va jonli tabiat, biologik in'ikos, xissiy bilish, sezish, idrok, tasavvur.
43. Abstrakt tafakkur – dunyoni anglashning yuqori bosqichidir. tushunchalar, xukm, xulosalar, induktiv, deduktiv metodlar.
44. Bilish va fan, ularning bog'liqligi. ilm, bilimlar, oddiy va ilmiy bilimlar, tajriba, eksperiment, mantiqiy bilimlar.
45. «Sharqona demokratiya» tushunchasining mohiyati. milliy o'ziga xoslik tarixi, psixologiyasi, milliy qadriyatlarini, katta yoshdagilarga xurmat, xashar, maxalla.
46. Bozor munosabatlariga utish – demokratik va erkin fuqarolik jamiyatini qurishning asosiy shartidir.
shaxs, shaxs erkinligi, erkinlikning iqtisodiy asoslari, mafkuraviy rang-baranglik, ko'p partiyaviylikning joriy etilishi.
47. Milliy istiqloq g'oyasi tushunchasi. g'oya, istiqloq, mafkura, g'oyalarning tarixiy tiplari, sinfiy mafkura, milliy mafkura, diniy mafkura.
48. Ong va ruxiyatning ijtimoiy-tarixiy mohiyati. ong, ongni ilmiy va diniy tushunish, ong xarakatlari, in'ikos, ong va miya, ong va ruxiyat.
49. O'z-o'zini anglash, uning shakllari. ong, bilim, anglash, o'z-o'zini anglash, ong va axborot, gnoseologiya, ontologiya va ijtimoiy ong taxlili, insonni kamol topishi.
50. Hozirgi davrda ong va dunyoqarashda tub o'zgarishlarni amalga oshirish zaruriyati. dunyoni anglash, in'ikos, ong, o'z-o'zini anglash, «informatson portlash».
51. Ijtimoiy ong tushunchasi, uning mazmuni, tarkibiy qismlari. ong va uning ijtimoiy jixati, ijtimoiy ong tarkibiy qismlari va shakllari.
52. Axborot dunyosining globallasuvi va inson ongi imkoniyatlarining kengayishi. ong va axborot, ong va til, ong va ruxiyat, axborot dunyosining globallasuvi, ilm-fan taraqqiyoti va ong.
53. Bilish va bilim – ularning falsafiy taxlili. gnoseologiya, bilish, bilish darajasi, bosqichlari va turlari, bilish va bilim.

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI
Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar

54. Bilishning ob'yekti va sub'yekti. Inson bilishining asosiy bosqichlari. bilish, xissiy va aqliy bilish, bilish ob'yekti va sub'yekti.
55. Inson tabiati va mohiyati. inson, shaxs, individ, ontologiya, inson – biologik mavjudot, inson ijtimoiy mavjudot.
56. O'zbekiston mustaqilligi va insonning qadr-qimmatini. inson faolligi, inson qadri, shaxs erkinligi, burch, inson ehtiyojlari, manfaatlar, inson xuquqi.
57. Jamiyat tushunchasining mohiyati va mazmuni. jamiyat, diniy va ilmiy yondashuv, omillar, tamoyillar, jamiyatning moddiy va ma'naviy xayoti.
58. Jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi turli nazariyalar. jamiyatning vujudga kelishi, diniy va ilmiy yondashuvlar, barqarorlik, taraqqiyotning o'zbek modeli.
59. Silivizatsiyalashgan jamiyatni barpo etish va b arkamol insonni shakllantirish. jamiyat va oila, jamiyatni boshqarish, davlatning jamiyat xayotidagi o'rni, jamiyat soxalari, jamiyat tuzilishi, fuqarolik jamiyat.
60. Madaniyat tushunchasi va uning taxlili. «madaniyat», mohiyati, mazmuni, funksiyalari, turlari, madaniyatda milliylik va umuminsoniylik.
61. Fuqarolik jamiyatida shaxs erkinligi. shaxs, shaxs erkinligi, erkinlik va zaruriyat, siyosiy va xuquqiy erkinlik, siyosiy tashkilotlar.
62. Ilmiy bilishning mohiyati va usullari. bilish, ilm, bilim, metod, nazariya, metodologiya, ilmiy bilish usullari.
63. Haqiqat tushunchasi, uning shakllari. haqiqat, nisbiy va absalyut haqiqat, bilish va haqiqat.
64. Inson- falsafaning bosh mavzusi sifatida. inson, shaxs, individ, antropologiya, inson tabiati va mohiyati, erkinlik va inson.
65. Haqiqat, (baxo, qadriyat) va ularning bilish jarayoniga ta'siri. bilish va haqiqat, haqiqat mezonlari va baxo, haqiqat va qadriyat
66. «Madaniyat» va «sivilizatsiya» tushunchalarining mohiyati va mazmuni. madaniyat, sivilizatsiya ularning uzaro bog'liqligi, madaniyat va sivilizatsiyaning asosiy tamoyillari sivilizatsiyaviy yondashuv.
67. Sivilizatsiyaning tarixiy shakllari va hozirgi davrdagi xususiyatlari. Sharq, G'arb, hozirgi zamon, xududiy sivilizatsiyalar, ularning xususiyatlari, madaniyat va sivilizatsiya.
68. «Qadriyatlar» tushunchasi va uning tarixiy ildizlari. «aksiologiya», tarixiy ildizlari, tamoyillari, Sobiq Ittifoqda qadriyatlarga munosabat, mustaqillik va qadriyatlar.
69. Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida qadriyatlarga munosabat. qadriyatlar tizimi, qadrlash tamoyillari, qadrlash mezonlari, mustaqillik va qadriyat, qadriyatlar va ijtimoiy jarayon.
70. «Qadriyat» kategoriyasi, uning asosiy shakllari. qadriyat, qadr, baxo, qadriyatning ob'yekti va sub'yekti, tamoyillari, qadriyatlar tizimi, namoyon bo'lishi.
71. Qadriyatlarining jamiyat va inson xayotidagi o'rni. qadriyatlar va ijtimoiy jarayon, mustaqillik va qadriyat, qadriyatlar tizimi, inson qadri, yoshlar va qadrlash tamoyillari.
72. Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi davri va umumbashariy muammolar. umuminsoniy, mintaqaviy va maxalliy muammolar tushunchalari, umumbashariy muammolarning kelib chiqish sabablari, ularni bartaraf etish yo'llari.
73. Jaxon XXI asrda: kelajak va inson taqdiri. insoniyat va kelajak, fan-texnika taraqqiyoti va uning sotsial oqibatlari, inson manfaatlari, ilmiy bashorat usullari.

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI

Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar

74. O'zbekistonda tabiat, jamiyat va insonni asrash. mintaqaviy va maxalliy muammolar, ekologik tanazzul, ekologiya, demografiya, demografik portlash.
75. O'zbekistonning jaxon sivilizatsiyasiga qushilish yo'lining falsafiy – metodologik muammolari. jaxon sivilizatsiyasi, jaxon xamkorligi, iqtisodiy rivojlanish, mulk, mexnat taqsimoti.
76. Xozirgi zamon falsafiy muammolarining mazmuni va mohiyati. tafakkur uslubi, globallashtirish, umumlashtirish, xayotdan norozilik, kelajakni ta'minlash.
77. Mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikni, davlatimizning hududiy yaxlitligini, fuqarolarimizning tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash – taraqqiyotimizning asosiy shartidir. millatlararo va dinlararo totuvlik, korrupsiya, millatchilik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik.
78. Inson huquqlari va erkinliklarini, so'z va matbuot erkinligini, oshkoralikni ta'minlash – demokratik tamoyillarning amaliy ifodasidir. ommaviy axborot, matbuot, radio-televideniye, «to'rtinchi hokimiyat» jamoatchilik fikri, siyosiy, faollik, ko'ppartiyaviylik, demokratik parlamentarizm.
79. Inson omili – islohotlarimizning bosh yo'nalishidir. ijtimoiy infratuzilma, ta'lim, sog'liqni saqlash, demografik va milliy xususiyatlar, ma'naviyat, axloq-odob, ma'rifat, din, xalq farovonligi, o'zbek modeli.

Etika, estetika, mantiq

1. Dastlabki axloqiy qonun qoidalar, tamoyillar. Ahloqiy qarashlar tarixi
2. Etikaning boshqa ijtimoiy fanlar bilan birligi va tafovutlari
3. Etikaning axamiyati xamda vazifalari
4. Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov
5. Axloq tuzilmasi
6. Etikaning umumiy tushunchalari
7. Etika fanining tamoyillari
8. Etika fanida me'yorlar va ularning amaliy axamiyati 1. Oila dastlabki axloqiy tarbiya maskani
9. Fuqarolik jamiyatini va davlatning axloqiy mohiyati
10. Axloqiy madaniyat va kasbiy odob masalasi
11. Estetika fanining predmeti, maqsad va vazifalari
12. Estetikani boshqa ijtimoiy fanlar bilan uzviy aloqadorligi
13. Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan mutafakkirlar ijodida estetik qarashlar. Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Ulugbek, Umar Xayyom, Alisher Navoiy va boshqalar ijodlarida uning aks etishi
14. Nemis marifatparvarligi estetikasi
15. Estetik ong va estetik faoliyat haqida tushuncha
16. Estetik ong turlari
17. Estetik ideal tushunchasi
18. Estetikaning asosiy kategoriyalari
19. Badiiy ijod turlarining xilma-xilligi 13. Badiiy adabiyotda uslub va yunalishlar

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI
Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar

20. Makon san'atining o'ziga xos jihatlari.
21. Tomosha-qorishma san'at turlari va ularning o'ziga xosligi
22. Mantiq fani baxs mavzusi va vazifalari
23. Olamni bilish murakkab ruhiy jarayon sifatida
24. Mantiq fikrlarning tarixiy rivojlanish bosqichlari va unda O'rta Osiyolik mutafakkirlarning o'rni
25. Mantiq qonunlari-to'g'ri fikr yuritishning asosiy tamoyillari sifatida
26. Mantiqiy usullar
27. Tushuncha-mantiqiy tafakkur shakli sifatida. Tushunchalarni turlari
28. Tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar
29. Tushunchalar o'rtasida mantiqiy amallar
30. Mushoxada-tafakkur shakli sifatida, sodda mushoxada, uni tuzilishi va turlari
31. Murakkab mushoxada, uni tuzilishi va turlari
32. Mushoxadalarda terminlarning bo'linishi
33. Xulosa chiqarishning mohiyati va tuzulishi
34. Deduktiv xulosa chiqarish
35. Sillogizm figuralari va moduslari
36. Induktiv xulosa chiqarish. To'liq va to'liqsiz induksiya
37. Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish va uni bilish jarayonidagi o'rni
38. Isbotlash tushunchasining mohiyati, xususiyatlari va tarkibi
39. Millatparvarlik tamoyili
40. Vijdon tushunchasi
41. Jo'mardlik tamoyili
42. Erklarparvarlik tamoyili
43. Nikoh va uning mohiyatan ahloqiy munosabat ekanligi
44. Umuminsoniy axloqiy qadriyatlar
45. Tinchliksevarlik tamoyili
46. Biologik etika muammosi
47. O'lim jazosi axloqiy jihatdan eng katta yovuzlikdir
48. Axloqiy mintaqaviylik va milliylik
49. Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov
50. Muhabbat axloqiy mo'jiza
51. Axloqiy xatti-xarakatlar
52. Axloqiy ong
53. Axloqiy hissiyot
54. Vatanparvarlik tamoyili
55. Burch tushunchasi
56. Adolat tushunchasi
57. Dastlabki axloqiy qonun-qoidalar
58. Baxt tushunchasi
59. Maxalla-mexr-muruvvat maskani
60. Oilada farzand tarbiyasi
61. Kasbiy odob tushunchasi
62. Etiket tushunchasi
63. Ideal tushunchasi
64. Muomala odobi
65. Yaxshilik va yomonlik
66. Axloqiy tarbiyaning zamonaviy vositalari

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI
Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar

67. San'at - axloqiy tarbiyaning eng kuchli vositasidir
68. Muxabbat va nafrat
69. Ezgulik va yovuzlik
70. Axloqiy tarbiyaning ananaviy vositalari
71. San'at ijtimoiy ong formasi sifatida
72. Estetikaning asosiy kategoriyalari. Ulug'vorlik va pastkashlik
73. Estetika fanining predmeti va vazifalari
74. Mehnat va ishlab chiqarish jarayonida estetik tarbiya
75. Teatr sintatik san'at turi sifatida. Mehnatkashlarni estetik tarbiyalashda uning ahamiyati
76. San'atda badiiy (ijodiy) metod, uning ijtimoiy mohiyati
77. San'atda milliylik va baynalminallik dialektikasi
78. San'atda shakl va mazmun dialektikasi
79. Xulq - atvor estetikasi
80. Nafosatshunoslik va axloqshunoslikning o'xshashlik va farqli tomonlari
81. Estetika kategoriyalari. Komiklik (xajviylik)
82. Estetik ongning mohiyati va xususiyatlari
83. O'zbekiston adabiyoti va san'atining erishgan muvaffaqiyatlari
84. Estetik ongning mohiyati va uning turlari
85. Estetik tarbiya va tabiat
86. Estetikaning asosiy kategoriyalari. Go'zallik va xunuklik
87. San'atda metod, yo'nalish va uslublar
88. San'at turlarini klassifikatsiyasi
89. Yoshlarga estetik tarbiya berishda badiiy adabiyot va musiqaning ahamiyati
90. Tabiatning estetik xususiyatlari
91. San'atning ijtimoiy xayotdagi o'rni va roli
92. Xaykaltaroshlik va grafika san'ati
93. San'atda voqealikni xaqqoniy va yorqin aks ettirishning ahamiyati
94. Turmush estetikasi va uning hozirgi sharoitdagi ahvoli
95. San'at tarixiy taraqqiyotining qonuniyatlari
96. Mustaqillik sharoitida yoshlarni estetik tarbiyalashning vazifalari
97. San'atning asosiy vazifalari va uni borliqni bilishdagi roli
98. Memorchilik san'ati
99. Mehnat, ishlab chiqarish va texnika estetikasi
100. A.Baumgarten xayoti, asarlari va uning estetika fani rivojida tutgan o'rni
101. Estetik tarbiyada ekologiya va mehnat muammolarining hal etilishi
102. San'atda realizm metodi
103. Estetik ideal va uning mohiyati
104. Estetik faoliyat
105. Estetik tarbiyalashda televideniyaning roli
106. Musiqa san'ati va uning insonga ta'siri
107. Kino san'ati va estetik tarbiya
108. O'rta Osiyo mutafakkirlarining estetik qarashlari
109. Temuriylar davrida estetik qarashlari
110. Badiiy adabiyot va uning inson estetik tarbiyasiga tasiri
111. Mantiq fanining bahs mavzusi va vazifalari
112. Mantiqiy fikrlarning tarixiy rivojlanish bosqichlari va unda O'rta Osiyolikmutafakkirlarning o'rni
113. Mantiq qonunlarining fikrlash jarayonidagi o'rni

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI
Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar

114. Tushuncha - mantiqiy tafakkur shakli
115. Tushunchalar hosil qilishning mantiqiy usullari
116. Tushunchalarning mohiyati va turlari
117. Tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar
118. Tushunchalar ustida mantiqiy amallar
119. Mushohada - mantiqiy bilish shakli sifatida. Mushohadaning tuzilishi
120. Sodda va murakkab mushohada hamda ularning asosiy turlari
121. Mushohadalar orasidagi munosabatlar
122. Xulosa chiqarishning mohiyati. Xulosaning tuzilishi
123. Yoshlarda tafakkurlash madaniyatini shakllantirish masalalari
124. Mantiq fanining fikrlash madaniyatini o'stirishdagi, mustaqil, erkin fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdagi ahamiyati

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI
Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI
Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar

O'quv portfoliosi

Hozirgi kunda oliy ta'limda foydalanilayotgan talabalar bilimni baholash test reyting tizimiga asoslangan bo'lib, talaba bilimni baholashda asosiy hal qiluvchi shaxs fan o'qituvchisi hisoblanadi. Albatta reyting tizimining o'ziga xos ijobiy tomonlari ko'p. Lekin, shu bilan bir qatorda kamchiliklardan ham xolis emas. Ushbu kamchiliklarga asosan quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- ✓ talaba bilimi, uquvi va malakasi bir tomonlama, ya'ni faqat fan o'qituvchisi tomonidan baholanadi;
- ✓ baholashda talabaning faqat muayyan fan bo'yicha bilimi hisobga olinadi;
- ✓ talabaning umumiy va kasbiy nutq madaniyatini shakllanishiga to'sqinlik qiladi;
- ✓ bo'lajak kadrda kasbiy kompetentlikni shakllanganlik darajasini to'liq aniqlash imkoniyati cheklangan;
- ✓ oliy o'quv yurtidagi o'quv davri yakuni bo'yicha aniqlangan umumiy ball ish beruvchilarga tayyorlangan kadrning sifati to'g'risida to'liq xulosa bermaydi;
- ✓ talabaning umumiy reyting balini aniqlashda uning boshqa sohalarda erishgan yutuqlarini hisobga olish imkoniyati kam;
- ✓ bitiruvchiga tayyor kadr sifatida o'z-o'ziga ishonch, o'z imkoniyatlari, qobiliyatlari va kasbiy kompetentlikga tayyorligi to'g'risida o'zi xulosa chiqarishiga asos yaratmaydi;
- ✓ talabada refleksiya qobiliyatini hosil bo'lishiga to'liq sharoit yaratmaydi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, xalqaro ta'lim tizimidagi innovatsion o'zgarishlar, rivojlangan davlatlar ta'lim tizimidagi ijobiy, zamonaviy pedagogik texnologiyalarga tayangan holda talabalarda umummadaniy, umumkasbiy va kasbiy kompetentlikni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv, o'quv- uslubiy, ilmiy va o'qishdan tashqari faoliyat natijalarini to'g'ri baholashga yo'naltirilgan nazorat qilish va baholashning innovatsion shakllaridan foydalanish «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadiga muvofiq hisoblanadi.

Talabaning oliy o'quv yurtidagi barcha turdagi faoliyatlarini nazorat qilish va baholashning innovatsion texnologiyalaridan biri sifatida «Talaba portfoliosi» etakchi o'rin egallaydi. Ushbu

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI

Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar

texnologiya ayniqsa rivojlangan g'arb davlatlari oliy ta'lim tizimida keyingi yillarda keng qo'llanilmoqda. Rossiyada esa 2003 yildan e'tiboran ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, jumladan boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, kasbiy ta'lim va oliy ta'limda joriy etilgan.

«Portfolio» faoliyatning turli yo'nalishlari bo'yicha talabaning shaxsiy yutuqlarini tasdiqlovchi hujjatlar majmuidir. Portfolioni yaratish talabaning ijodiy faoliyati hisoblanib, unga turli xil soha (o'quv, ilmiy—izlanish, sport, ijodiy, ijtimoiy va b.) bo'yicha faoliyat natijalari oliy o'quv yurtida o'qish jarayoni davrida talaba tomonidan kiritiladi.

Portfolioni yaratishdan asosiy maqsad talabaning oliy o'quv yurtidagi o'qish jarayoni davrida erishgan yutuqlari to'g'risidagi daliliy hujjatlarni to'plash va saqlashdan iborat. Portfolio nafaqat talabaning ta'lim sohasidagi faoliyati natijalarini o'zi tomonidan baholashning samarali shakli bo'lib qolmasdan, quyidagilarga imkoniyat tug'diradi:

- ✓ ta'lim sohasidagi yutuqlarni dalillashtiradi;
- ✓ ish raqobati bo'yicha tajriba ortdiradi;
- ✓ kasbiy kompetentlikni rivojlantirish uchun mustaqil ta'limni amalga oshiradi;
- ✓ o'zining kasbiy kompetentlik darajasini ob'ektiv baholash
- ✓ malakasini rivojlantiradi;
- ✓ bo'lajak mutaxassisning raqobatbardoshligini oshiradi.

Respublikamiz oliy ta'lim tizimida ushbu texnologiyaning qo'llanilishi amaldagi talaba bilimini baholashning test reyting tizimini inkor etmaydi, aksincha uni to'ldiradi. Rivojlantiruvchi ta'limga, insonparvar pedagogika nuqtai nazaridan shaxsga yo'naltirilgan ta'limga o'tishga, talabalarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish bo'yicha refleksiya hosil qilishga sharoit yaratadi.

Portfolio talabaning turli sohalardagi faoliyati, jumladan o'quv-tarbiyaviy, ijodiy, ijtimoiy, kommunikativ va boshqalar bo'yicha erishgan natijalari sifatini baholash imkonini beradi.

Portfolioning asosiy maqsadi - talabaning ta'lim jarayonidagi faoliyati bo'yicha hisobot taqdim etish, uning alohida erishgan ta'lim natijalarini yaqqol tasavvur qilish, ta'lim tizimida o'z-o'zini rivojlantirishini ta'minlash, qobiliyatlarini namoyish etish hamda bilim va malakalarini amalda qo'llashga o'rgatishdan iborat.

Portfolio asosida talaba erishgan yutuqlar va bilim olish jarayoni natijalarini sifat jihatidan va soniy baholash mumkin.

Portfolio nafaqat baholashning zamonaviy samarali shakli, balki quyidagi muhim pedagogik vazifalarni echishda foydalanuvchi texnologiya hamdir:

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI

Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar

- ✓ talabaning yuqori o'quv mazmunini qo'llab-quvvatlash;
- ✓ talabaning faolligi va mustaqilligini rag'batlantirish, ta'lim olish va mustaqil ta'lim olishni kengaytirish;
- ✓ reflektiv bilim va o'z-o'zini ob'ektiv baholash faoliyatini rivojlantirish;
- ✓ mustaqil o'qish malakasini, shaxsiy o'quv faoliyati maqsadini belgilash, rejalashtirish va tashkil etish qobiliyatini shakllantirish;
- ✓ talabaning individual ta'limiga ko'mak berish; ✓ bilimlarni ijobiy umumlashtirish uchun qo'shimcha ✓ sharoitlar va imkoniyatlar yaratish.

Portfolioni yuritilishi talabaning bilim olish faolligini, o'zining maqsad va imkoniyatlarini bilish darajasini oshiradi. Talabada o'z bilim va imkoniyatlarini, iqtidorini baholash va u asosida maqsadni to'g'ri va aniq belgilash, kelajakni o'ziga ishonib rejalashtirish, olgan bilimlarini hayotda amalda qo'llashga ishonish hissi paydo bo'ladi.

Talaba portfoliosini yaratishdan maqsad portfolio talabaning ma'lum fan bo'yicha barcha ishlarini to'liq yoritishi kerak. U o'z ichiga fan bo'yicha barcha turdagi topshiriqlar, loyihalar, ma'ruzalar, yozma ishlarni qamrab olishi, talabaning ushbu fan bo'yicha muvaffaqiyatlarini, fanga munosabatini, fanni o'zlashtirishi va tushunishini, muammoli topshiriqlarni bajarish va kommunikativ qobiliyatini, uning kelajakda ushbu fan bo'yicha intilishlari va o'zlashtirishini, o'zlashtirish usullarini ko'rsatib berishi zarur. Aniqlik va nutq, fikrni bayon qilish madaniyati «portfolio» sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Portfolioni yaratishda asosan quyidagilarga ahamiyat berish talab etiladi:

- talabaning mustaqil fikrlashi;
- «portfolio» yaratishning vaqt oralig'ini belgilash (semestr, o'quv yili yoki butun o'quv jarayoni bo'yicha);
- fan bo'yicha erishilgan bilimlarning o'zaro bog'liqligi va asoslanganligi;
- taklif etilgan ishlar (loyihalar, mustaqil ishlar, referatlar va b.) bo'yicha talabaning o'z bahosi;
- muammollarni hal etish jarayoni, yo'llari.

«Talaba portfoliosi» - talabaning bilish jarayonidagi ijodiy mehnati natijalarini o'zi tomonidan ob'ektiv baholash instrumenti, shaxsiy faoliyati refleksiyaqidir. U hujjatlar to'plami sifatida quyidagilarni o'z ichiga oladi:

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI

Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar

- ✓ talabaga «portfolio»ga joylashtirish uchun materiallar tanlash bo'yicha topshiriqlar, ko'rsatmalar;
- ✓ talabaning ijodiy faoliyatlari bilan jiddiy tanishib borish, portfelga joylashtirilgan faoliyat turlarini baholash omillari va mezonlari;
- ✓ portfolioni ob'ektiv baholash uchun ekspertlar guruhi anketasi.

Bunday «portfolio»ni an'anaviy usulda yoki elektron shaklda ta'lim muassasi saytida, oddiy Word formatida yaratish mumkin.

Talaba o'z xohishiga ko'ra yoki o'qituvchi topshirig'i asosida o'zining turli ijodiy sohalardagi mustaqil ishlarini ma'lum ketma-ketlik asosida o'z portfoliosiga joylashtiradi. Materiallar bir semestr bo'yicha, o'quv yili bo'yicha yoki butun o'quv yillari bo'yicha olinishi mumkin. «Portfolio» yoki undagi alohida ishlar talaba tomonidan oldindan izohlanadi, ya'ni nima uchun u aynan ushbu faoliyat turini tanladi, bu faoliyat turi bo'yicha u qanday natijalarga erishdi yoki erisha olmadi, o'qituvchining ushbu ish bo'yicha bergan bahosidan rozimi, ushbu ish natijalari bo'yicha qanday xulosalarga ega. Albatta har qanday bunday ish yo'l qo'yilgan xatolarni asosli ravishda tahlil qilishni talab etadi. Uqituvchi alohida talabaga yoki talabalar guruhiga o'z fani bo'yicha shunday «portfolio» yaratishni taklif qilishi va uning tarkibini ko'rsatib berishi mumkin. Bunday «portfolio»ning asosiy maqsadi talabaning o'z faoliyatini fikrlab, asoslab va aniq dalillar asosida baholash qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir. Belgilangan vaqt o'tgach (semestr yoki o'quv yili) yoki aniq hajmdagi ishlar tugagach, talabaning xohishi bilan ushbu dastur yoki loyiha bo'yicha talaba o'z portfoliosini taqdimot qilishi mumkin. Dastlab taqdimotni kichik guruhda, keyin esa katta auditoriyada tashkil etish lozim. Agar «portfolio» elektron shaklda yaratilgan bo'lsa, talaba o'z hamkorlariga (talabalarga) yoki o'qituvchiga o'z parolini oshkor qilib, ushbu «portfolio» sahifalariga kirishiga ruxsat beradi va taqdimot tugagach parolni o'zgartiradi. Talaba faoliyatini, ya'ni «portfolio» mazmunini baholash uchun o'qituvchi maxsus ekspertlar belgilaydi. Materiallarni mashg'ulot davrida muhokama qilish mumkin bo'ladi. Agar buning uchun alohida vaqt, o'quv soati ajratilmagan bo'lsa off-line telekonferensiya rejimida yoki darsdan tashqari vaqtda ta'lim muassasi sayti forumida amalga oshirish mumkin. Bunday forumda talaba o'zi tanlagan yoki o'qituvchi tomonidan taklif etilgan bilim sohasi bo'yicha butun kuchini berganligini, uning o'z faoliyatiga bergan bahosi o'qituvchi va ekspertlar guruhi tomonidan berilgan bahoga mos yoki mos emasligini isbotlashi zarur. U baholarni qaysi jihatdan to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini ko'rsatishi va o'zining kelajakdagi ushbu bilim sohasidagi ijodiy faoliyati rejalari bilan xulosalashi lozim.

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI

Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar

Agar talabalar o'qituvchining o'ziga nisbatan yaxshi, ochiq va samimiy munosabatda ekanliklarini his qilishsa, albatta o'z fikrlari, tajribalari va kuzatish natijalari bilan o'rtoqlashadilar. Chunki, har qanday talaba yoki shaxs o'z ijodiy mehnati natijalari bo'yicha boshqalar fikriga bee'tibor bo'lishmaydi. Faqat shu yo'l bilangina shaxsni kamol toptirish, o'stirish mumkin. Agar talabada bunday ishonch bo'lmasa, ochiq muloqat yuzaga kelmaydi.

Talaba yuqorida ko'rsatilgan «portfolio»ni yuritganda ham odatdagidek sukut saqlaydi.

Talabalarni bunday texnologiya asosida tarbiyalash va ularga ta'lim berish rivojlangan davlatlarda allaqachon o'z o'rnini topgan, chunki Internet bu texnologiyani joriy etish uchun bir qancha qulayliklarni yarata oladi.

«Talaba portfoliosi» nafaqat akademik o'zlashtirish, balki talabaning kommunikativ muvaffaqiyatlari, muomula madaniyati, sport va jamoat ishlaridagi faolligi bo'yicha ham yuritilishi mumkin. Bunday «portfolio» muhokamasida (taqdimotida) ota-onalarni ham faol ishtirok etishlarini ta'minlash yanada yaxshi natijalarga olib keladi. Ota-onalar o'z farzandlari faoliyati natijalarini baholashlari uchun o'qituvchi tomonidan yoki ekspert guruh tomonidan taklif etilgan baholash mezonlari va parametrlaridan foydalanishlari mumkin.

Bunday «portfolio» muallifining o'z fikrlari va o'z-o'zini baholash natijalari muhokamasida ushbu texnologiya prinsiplari va baholash mezonlarini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Aniq bilim sohasidagi faoliyat bo'yicha o'z-o'zini baholash natijalari quyidagi omillar bilan asoslanadi:

- ✓ ma'lum fan sohasi bo'yicha bilimlarni o'quv dasturiga mos kelishi;
- ✓ bilish jarayonida talabaning mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyati, o'z qarorlarining oqibatlarini bilish darajasi;
- ✓ talabaning kommunikativ qobiliyatlarini xususiyatlari (bahslarda qatnashish, o'z qarorlarini asoslay olishi, materiallarni ravon va sodda tilda tushuntirib bera olishi).

2. Tizimli va muntazam o'z monitoringini olib borishi. Talaba biror fan bo'yicha o'z yutuqlarini nazorat qilib borishni maqsad qilib olsa, u ushbu fan bo'yicha muhim deb hisoblagan bilimlarini tizimiy ravishda «portfolio»ga joylashtirib boradi. Uning vazifasi- ushbu ishlarni diqqat bilan tahlil qilib borish, kerakli o'zgartirishlar kiritish, unga tushuntirishlar berish, o'z-o'zini baholash bo'yicha qisqa hisobot tayyorlash, ya'ni ushbu bilim sohasi bo'yicha u nimalarni o'zlashtirdi, nimalarni o'zlashtira olmadi yoki

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI

Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar

tushunmadi, kelajakda nimalarga e'tibor qaratishi lozim. Shuningdek u bu erda o'z bilimlariga o'qituvchi, ekspertlar va ota-onasi tomonidan qo'ygan baholarga ham fikrini bildirishi mumkin.

3. «Portfolio» materiallari tarkibi, barcha yozma tushuntirishlarning mantiqiyli va aniqligi.
4. «Portfolio»da keltirilgan materiallarni to'liqligi va mazmunan tugallanganligi.
5. «Portfolio»ni tartib bilan va estetik jihatdan did bilan yaratilganligi.
6. «Talaba portfoliosi» taqdimotini ko'rgazmali, yaqqol va asoslangan holda bo'lishi.

Talaba portfoliosining komponentlari

Portfolio tarkibi talabaning semestr yoki o'quv yili davomidagi mustaqil ishlaridan iborat bo'lmog'i lozim. Talaba ushbu «portfolio» orqali anjumanlarda chiqish qilib, o'zining mustaqil fikrlashga, fan bo'yicha olgan bilimlarini ijodiy amalda tadbiiq etishga qodirligini namoyish etgan holda, o'z-o'ziga ushbu bilim doirasi bo'yicha shaxsan bahosini beradi. Bu talabaga o'z yutuqlari, olgan bilimlari va ijodiy ishlarini mustaqil tahlil qilish va unga o'z bahosini berish, uni o'qituvchi yoki hamkorlari bilan baham ko'rish imkonini yaratadi.

Bunday «portfolio» tarkibi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- ✓ tituli;
- ✓ mazmuni;
- ✓ har bir materialning qisqacha mazmuni va talaba uchun tushunchalar;
- ✓ nima uchun ushbu material yoki bilim sohasi olinganlik sababi;
- ✓ portfolio o'qituvchi va talabaning o'zi tomonidan qanday baholanganligi;
- ✓ fan bo'yicha yutuqlari tarixi;
- ✓ «portfolio»ni yaratish muddati va taqdimot vaqti.

Muallifga «portfolio»ni yaratishda to'liq erkinlik beriladi.

Talabaning dunyoqarashlari, fikrlarining mantiqiyli, nutq va bayon etish madaniyati, o'z fikrini isbotlay olishi kabi omillar uning faoliyatini baholashda asosiy mezonlardan biri sifatida foydalaniladi. Ayrim hollarda o'qituvchi «portfolio» tarkibiga o'z talablarini qo'yishi ham mumkin.

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI

Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar

Portfolio tarkibi quyidagi materiallardan iborat bo'lishi mumkin:

Titul varaqa - «portfolio»ni nomi, talaba f.i.sh., fanning nomi, «portfolio»ni yuritish davri (semestr yoki o'quv yili), boshlanish va tugash sanasi, o'qituvchi f.i.sh.

«Portfolio» tarkibi:

✓ fan bo'yicha talabaning erishgan yutuqlari (shaxsiy faoliyat natijalari tahlili, nimani o'zlashtirish oson, nima qiyin kechyapdi, ushbu qiyinchiliklar mohiyati nimada va b);

✓ yozuvlar, ma'ruzalar, uy vazifalari (fanning turli bo'limlari bo'yicha kamida 8 ta topshiriq beriladi, albatta bunda mustaqil fikrlash qobiliyati, fikrlarning originalligi hisobga olinadi, talaba bitta muammo yoki topshiriq echimining turli xil yo'llarini ko'rsatishi zarur; ✓ nazorat va mustaqil ishlar (kamida 3 ta mavzu bo'yicha 5-6 ta mustaqil ish);

✓ testlar;

✓ axborot texnologiyalaridan foydalanish (axborot texnologiyalari foydalanilgan kamida 2 ta misol, dasturiy material);

✓ guruhli loyihalar (talaba ishtirok etgan har bir loyiha batafsil yoziladi);

✓ sizning sevimli ishingiz;

✓ talaba faoliyati bo'yicha baholar (o'qituvchi va ekspertlar bahosi).

Portfolio bo'yicha izohlar. Taqdimotga tavsiya etilayotgan «Portfolio» materiallari puxta o'ylangan, «portfolio»da keltirilgan barcha materiallar bo'yicha muallifning shaxsiy fikrlari yoritilgan bo'lishi zarur. U talabaning ushbu fan bo'yicha olgan bilimlari, bo'sh tomonlari, kelajakdagi rejalarining to'liq mazmunini ko'rsatishi lozim.

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI

Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar

Talaba portfoliosining turlari

1. Hujjatlar portfoliosi - ta'lim sohasidagi shaxsiy yutuqlar uchun berilgan sertifikatlangan hujjatlar to'plami (sinov daftarchasi, diplomlar, sertifikatlar, guvohnomalar va b.) Bu ma'lumotlar portfolioni sifat va soniy jihatdan ob'ektiv baholash imkonini beradi.

Materiallar jadval ko'rinishida bosqichlarga bo'linib, ball hisobida baholangan holda beriladi. Hujjatlar yoki ularning nusxalari ilova sifatida keltirilishi mumkin.

Ushbu variantning afzalliklari: YAkuniy ball tizimi portfolioni talabaning ta'lim faoliyati bo'yicha reytingini aniqlashning asosiy mexanizmi, talaba umumiy reytingining asosiy tashkil etuvchisiga aylantiradi.

Cheklanishlari, kamchiliklari: bunday tipdagi portfolio faqat talaba faoliyati natijalari to'g'risida ma'lumot beradi. U talabaning shaxsiy rivojlanish jarayonini, uning turli sohalar bo'yicha ijodiy faolligini, o'qish uslubini va qiziqishlarini aniqlash imkonini bermaydi.

1-jadval

«Hujjatlar portfoliosi»ning namunaviy tarkibi sxemasi va undagi materiallarni baholash mezonlari

Faoliyat sohalari	Komponentlar	Natijalar (ballar)
Blok A Olimpiadalar	Viloyat: g'olib, shahar: g'olib, tuman: g'olib, OO'Yu: g'olib	5 4 3 2 1
Blok B Boshqa sertifikatlar	Qo'shimcha ta'lim tizimi muassasalari, OO'YU, jamoat fondlari, madaniy-ta'lim fondlarining tadbirlari va tanlovlari g'olibi. Fanlar bo'yicha kurslar ishtirokchisi, OO'YU yoki oliy o'quv yurtlaridagi ilmiy jamiyatlar a'zosi va b.	5 4 3 2 1

2.«Ishlar portfoliosi» - talabaning turli, jumladan ijodiy, loyihaviy, ilmiy-izlanish va boshqa sohalardagi ishlari, uning o'quv va ijodiy faoliyatining asosiy shakl va yo'nalishlari, ilmiy anjumanlar, tanlovlar, o'quv oromgohlari, turli kurslardagi ishtiroki, turli amaliyotlar, sport va badiiy sohalardagi muvaffaqiyatlari aks etadi. Bunday portfolio talabaning ijodiy kitobi

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI

Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar

sifatida yuritiladi va talabanning turli sohalardagi ishlarining namunalari matn ko'rinishida, elektron versiyalar, rasmlar, video yozuvlar shaklida ilova qilinadi.

Afzalliklari: Bunday tipdagi portfolio talabanning o'quv va ijodiy faolligi dinamikasi, uning qiziqish yo'nalishi, kasbga tayyorgarlik xarakteri to'g'risida keng tasavvur beradi.

Cheklanishlari, kamchiliklari: Portfolioning sifat jihatidan baholanishi yakuniy attestatsiya natijalarini to'ldiradi, lekin talabanning umumiy ta'lim reytingida asosiy tashkil etuvchi bo'lib hisoblanmaydi.

«Ishlar portfoliosi»ni to'ldirishning namunaviy varianti

✓ **Loyiha ishlari.** Loyihaning mavzusi, qisqa mazmuni hamda ilova sifatida rasmlar, ishning bosma yoki elektron variantlardagi matnlari keltiriladi.

✓ **Tadqiqot ishlari va referatlar.** Referat mavzusi, hajmi (necha bet), illyustratsiyalar va b.

✓ **Texnik ijod.** Model, maket, asboblar. Aniq ishlar va ularning mazmuni (tuzilishi, ish prinsipi, texnik tavsifi) bayon etiladi.

✓ **Ijodiy faollikning boshqa shakllari.**

✓ **Elektiv kurs va fakultetlardagi ishtiroki.** Kurs nomi, muddati va o'qish shakli ko'rsatiladi.

✓ **Turli xil amaliyotlar.** Mehnat, ijtimoiy, til o'rganish, pedagogik, malakaviy va b. Amaliyot nomi, joyi va davri yoziladi.

✓ **Qo'shimcha ta'lim muassasalari va turli xil o'quv kurslaridagi mashg'ulotlar.**

Ta'lim muassasasi yoki tashkilot nomi, o'qish muddati va natijalari keltiriladi.

✓ **Olimpiada va tanlovdagi ishtiroki.** Tadbir nomi, o'tkazilgan vaqti va talabanning natijasi qayd etiladi.

✓ **Ilmiy anjuman, seminarlardagi ishtiroki.** Tadbir mavzusi, tadbirni o'tkazgan tashkilot, o'quv muassasasi nomi va talaba ishtiroki shakli.

✓ **Sport bo'yicha natijalari.** Sport musabaqalaridagi ishtiroki, sport razryadining mavjudligi.

✓ **Boshqa faoliyat turlari.**

3. Taqrizlar portfoliosi. Talabanning turli sohadagi faoliyati bo'yicha o'qituvchi, otaonasi, kursdoshlari, qo'shimcha ta'lim tizimi xodimlari va boshqa shaxslarning xulosalari, taqrizlari hamda talabanning faoliyati va uning natijalari bo'yicha o'z tahlillaridan iborat bo'ladi.

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI

Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar

Afzalliklari: Bu portfolio talabani o'quv-tarbiyaviy va kelajakdagi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni anglash darajasini kuchaytiradi hamda o'z-o'zini baholash mexanizmini yaratib beradi.

Cheklanishlari, kamchiliklari: To'plangan materiallarni bir shaklga keltirish va hisobga olishning murakkabligi.

Taqrizlar portfoliosining namunaviy tarkibi:

- ✓ bajarilgan ishlar sifati bo'yicha taqrizlar;
- ✓ qo'shimcha ta'lim muassasasining ijodiy guruhlaridagi ishlari, ilmiy-amaliy anjumanlardagi chiqishlari bo'yicha taqrizlar.
- ✓ talabanning o'z faoliyati bo'yicha xulosalari, baholari;
- ✓ keyingi faoliyati yoki keyingi bosqichdagi o'qishni qanday tashkil etish bo'yicha talabanning o'z xulosalari;
- ✓ amaliyotlar bo'yicha tavsiya xatlar;
- ✓ boshqa sohalar bo'yicha taqriz va xulosalar.

Yuqorida taklif etilgan portfolio modellarini tahlil qilgan va chuqur o'rgangan holda murakkab portfolio, ya'ni barcha modellarni birgalikdagi shaklida yoki oddiy, ushbu portfolioning bittasini yuritish mumkin.

Amalda portfolioning quyidagi turlaridan foydalanish mumkin:

4.«Portfolio-kollektor». Bu portfolio talaba muallif bo'lmagan materiallardan iborat bo'ladi. Bunga o'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan adabiyotlar, qo'llanma va ko'rsatmalar, elektron o'quv adabiyotlari, o'quv-vizual materiallar, maqolalar, lug'atlar yoki talabanning o'zi mustaqil topgan adabiyotlar hamda boshqa o'quv materiallari kiradi.

5.«Jarayon portfoliosi» talaba tomonidan o'quv, uslubiy, ilmiy-izlanish, ijodiy, axborot va ijtimoiy loyihalarni bajarish jarayonida erishgan bilimi va malakalarini mustaqil qo'llash malakasini namoyish qiladi. Portfolio talabanning loyihalash jarayonidagi barcha bosqichlarni: muammoni aniqlash, loyihani ishlab chiqish, loyiha bo'yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkil etish, texnologik bosqich (loyihani amalga oshirish), yakuniy bosqich, taqdimot va loyihani baholashni o'z ichiga olishi kerak.

6.«Ko'rsatkichlar portfoliosi» talabanning biror bir soha bo'yicha mahoratini va ko'rsatkichlarini jamlash hamda ko'rsatish maqsadida yaratiladi. Unga talabanning o'zi yoki ustoz tomonidan tanlagan eng yaxshi ijodiy ishlaridan namunalar qo'yiladi.

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI

Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar

7.«Baholash portfoliosi» talabaning olgan bilimlari va malakasini nazorat qilish maqsadida tuziladi va u turli xil nazorat materiallaridan: nazorat ishlari, testlar, sxemalar, krossvordlar va boshqa topshiriqlardan iborat bo'ladi. Baholash portfoliosi o'qituvchi tomonidan mustaqil tuziladi va uni rejalashtirilgan, maqsadga yo'naltirilgan natijaga erishish uchun o'z vaqtida talabalarga taqdim etishi talab etiladi.

8.«Yutuqlar portfoliosi» talabaning o'quv-tarbiyaviy jarayondagi eng yaxshi ishlari va yutuqlarini ko'rsatuvchi hujjatlardan tashkil topadi. Bu portfolioga talaba o'z xohishi bilan o'zining eng yaxshi loyihalarini, olgan tashakkurnomalari, maqto'v yorliqlari, diplomlari, taqrizlar va o'z faoliyatini namoyish qiluvchi rasmlarni kiritishi mumkin.

9.«Talabaning elektron portfoliosi» - **e-Portfolio**. Keyinga vaqtlarda rivojlangan davlatlarida **e-Portfolio** deb nomlanuvchi «Talabaning elektron portfoliosi» keng qo'llanilmoqda. Bu oddiy Word formatidagi papka bo'lmasdan, maxsus multimedia tizimida yaratilgan «portfolio» hisoblanadi. Talaba uni osonlik bilan to'ldirishi, tahlil qilishi, yangi materiallarni joylashtirishi, o'zi tanlagan axborotlarni boshqarishi mumkin.

e-Portfolioning uch xil shakli tavsiya etiladi:

- ✓ **Rivojlantirish portfoliosi- *developmental*** (rivojlanishning xususiy kompetensiyasi).
- ✓ **Erishgan yutuqlar portfoliosi - *assessment***.
- ✓ **Namoyish portfoliosi – *showcase***.

Rivojlantirish portfoliosi (*developmental*) - shaxsiy yutuqlar va kamchiliklar refleksiyasi uchun qo'llaniladi. Bu bosqichda talaba va o'qituvchi o'rtasida o'zaro aloqa, munosabat, ta'sir asosiy rol o'ynaydi.

Erishgan yutuqlar portfoliosi (*assessment*) - talabaning fan bo'yicha erishgan yutuqlari va bilimni aniq va to'g'ri baholash uchun xizmat qiladi.

Namoyish portfoliosi (*showcase*) - o'quv kursini yakunida yaratiladi va talabaning olgan bilimlarini (tayyor kadr sifatida) potensial ish beruvchiga taqdim qilish yoki o'qishni davom ettirishga tavsiya etish maqsadida tashkil etiladi. Bu turli ko'rinishdagi ***Curriculum Vitae*** hisoblanadi.

e-Portfolio yuqorida keltirilgan uch variantning birgalikdagi ko'rinishida ham bo'lishi mumkin. Bunda multimedia axborotlardan ham foydalaniladi. **e-Portfolio** talabaning o'zlashtirishi va turli sohalardagi erishgan yutuqlari

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI

Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar

monitoringini yuritishning prinsiplari yangi, refleksiya asoslangan vositasi bo'lib, talaba bilimi natijalarini ball tizimida emas, balki sifat jihatdan baholash imkonini beradi. **ePortfolioni** yaratish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgan, masalan *Angel* qobig'i.

«**On-line-portfolio**» turli ko'rinishda bo'lishi mumkin. Masalan:

- kursning umumiy saytida buning uchun maxsus ajratilgan bir qancha hujjatlar va materiallarni yuklash orqali talaba tomonidan tuzilishi mumkin;
- talabaning shaxsiy veb-varag'ini yaratish orqali tuzilishi va unga o'quv kursi bo'yicha o'z tushunchalari asosidagi hisobotlar kiritilishi mumkin.

Talaba portfoliosini baholash mezonlari

Talaba o'z-o'zini baholashda o'z faoliyatiga tanqid nuqtai nazaridan qarashi, nima uchun aynan ushbu bo'lim yoki mavzularni tanlaganligini o'zi mantiqan bilishi, bu uning ushbu fan bo'yicha umumiy bilimida qanday rol o'ynashi mumkinligini ifoda etishi kerak. «Portfolio» yaratishdagi eng murakkab masala - taqdimotga loyiq materiallarni tanlash, ushbu materiallarga tushunarli tilda, ravon, mantiqan mazmunga boy va qisqa izoh yozish hisoblanadi. Materiallarni to'g'ri tanlash, ularga izoh yozish hamda uni ob'ektiv baholashda quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

Talaba faoliyati bo'yicha savollar:

- ✓ Portfolioga material tanlashda siz qanday ishlarni amalga oshirdingiz?
- ✓ Nimaga erishdingiz, nimalarda qiynaldingiz?
- ✓ Portfolioda siz qiynalgan biror material bormi?
- ✓ Sizda portfolio yaratish bo'yicha mos namuna bormi? ✓ Axborotlarni qanday tashkil qildingiz?
- ✓ Muammolarni qaytadan yoritish olasizmi (topshiriqni yanada oddiyroq so'zlar bilan)?
- ✓ Qaysi so'zlar, iboralar bu erda ahamiyatliroq bo'ldi, nima uchun?
- ✓ Muammoni qayta yoritish qanchalik ratsional bo'ldi?
- ✓ Bu masala, muammo qanday savollarni keltirib chiqarishi mumkin?
- ✓ Siz ushbu savollarga yaqinroq savollar tuza olasizmi?
- ✓ Ushbu masalani yoki muammoni hal etishda siz uchun nimalar eng qiyin kechdi?

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI

Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar

- ✓ Ushbu masalani, muammoni echish bilan siz qanday yangi bilimlarga erishdingiz?
- ✓ Hayotda ushbu masala, muammogo o'xshash holatlar bo'lishi mumkinmi?
- ✓ Siz tavsiya etgan javob ushbu muammo echimining yagona yo'limi? ✓ Guruhiy ishlashga qanday munosabat bildirasiz?
- ✓ Mashg'ulotda sizga nimalar yoqadi, nimalar yoqmaydi?
- ✓ Ushbu masala sizning fan bo'yicha bilimlaringizni yanada ortdirishda foydali bo'ladimi?
- ✓ Ota-onalar yoki taqrizchilarga savollar bera olasizmi?
- ✓ «Portfolio»dan sizning birinchi taasurotingiz qanday?

O'qituvchi faoliyati bo'yicha savollar:

- ✓ Talabaning «portfolio» materiallarini taqdimot qilishida sizni nimalar hayron qoldirdi, siz kutmagan holatlar bormi?
- ✓ O'z ishingizdan faxrlanish hissi bormi?
- ✓ O'z talabangizga kelajakda yordam berish uchun nimalar qilmoqchisiz?
- ✓ «Portfolio» materiali qanchalik aniq va mantiqan to'g'ri tashkil etilgan?
- ✓ «Talaba» o'z portfoliosini qanchalik mustaqil yaratdi?
- ✓ «Portfolio»ni tuzishda sizdan tez-tez maslahat oldimi?
- ✓ «Portfolio»ni tuzishda o'zi mustaqil qanday materiallar va texnologiyalardan foydalangan?

Talaba portfoliosini taqrizchi tomonidan baholashda yuqorida keltirilgan savollardan asos sifatida foydalanish mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, talaba portfoliosini yaratishning turli xil yo'llari va usullari mavjud. U albatta ta'lim yo'nalishi yoki fanning xususiyatiga hamda portfolioning davomiyligiga (boshlanish va tugash vaqtiga) bog'liq bo'ladi.

Eng muhim va asosiy maqsad, talabani o'zining shaxsiy ishlarini, yutuq va kamchiliklarini o'zi ob'ektiv tahlil qila olishga, imkoniyat va qobiliyatlarini ko'ra olishga, qiyinchiliklarni engish va yanada yuqoriroq yutuqlarga erishish yo'llarini mustaqil aniqlay olishga o'rgatishdan iborat. Bunday holda talabaning o'quv jarayondagi o'z faoliyatiga mas'uliyati yanada ongli ravishda kechadi. Bu erda ota-onalar va xolis taqrizchilarning faol ishtirok etishlari juda muhim hisoblanadi. Natijada talabaning ma'lum soha bo'yicha ta'lim olishdagi ob'ektiv rivojlanishi o'qituvchiga ham, talabaning o'ziga ham yaqqol namoyon

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI
Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar

bo'ladi. Talabanning fan bo'yicha bilimini, qobiliyatini, intilishlarini va kelajakdagi rejalarini xolisona va to'g'ri baholash sharoiti yaratiladi. Talabada o'ziga ishonch yuzaga keladi.

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI
Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLII VA O'RTA MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

FAKULTET

KURS, GURUH

TALABASINING O'QUV

P O R T F O L I O S I

(namuna)

Boshlanish sanasi 201__ yil “ ____ ” _____

Tamom bo'lish sanasi 201__ yil “ ____ ” _____

Toshkent - 201__ yil

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI
Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar

1.PORTFOLIO EGASI TO'G'RISIDA MA'LUMOTLAR

Familiyasi _____

Ismi _____

RASM

Sharifi _____

Tug'ilgan yili _____

Tug'ilgan joyi _____

Yashash manzili _____

Aloqa telefoni _____

Elektron pochta _____

Fakultet nomi _____

Kurs _____ guruh _____

M.O'. **Fakultet dekani** _____

imzo

f.i.sh.

QISQACHA BIBLIOGRAFIK MA'LUMOT*

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI
Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar

Shaxsiy faoliyat natijalari tahlili: _____

Nimani o'zlashtirish oson kechyapti: _____

Nimani o'zlashtirish qiyin kechyapti: _____

Qiyinchiliklar mohiyati nimada: _____

—

—

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI
Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar

*Fanning turli bo'limlari bo'yicha kamida 8 ta topshiriq beriladi, albatta bunda mustaqil fikrlash qobiliyati, fikrlarning originalligi hisobga olinadi, talaba bitta muammo yoki topshiriq echimining turli xil yo'llarini ko'rsatishi zarur.

NAZORAT VA MUSTAQIL ISHLAR*

Fan bo'yicha mazmuni	Mustaqil ta'limga oid bo'lim va mavzulari	Mustaqil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar
Falsafa fanining predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli	Falsafiy dunyoqarashning o'z-o'zini anglashdagi roli.	Referat, taqdimot tayyorlash
Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: Sharq falsafasi	Insoning ma'naviy kamolotida falsafiy dunyoqarashning roli	Referat, taqdimot tayyorlash
Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: G'arb falsafasi	Nemis mumtoz falsafasi va uning o'ziga xos xususiyati	Referat, taqdimot tayyorlash
Borliq – falsafaning fundamental kategoriyasi	Ontologik va munosabatdosh kategoriyalarning uyg'unligi.	Referat, taqdimot tayyorlash
Olamning universal aloqalari va rivojlanish. Falsafaning qonun va kategoriyalari	Falsafa qonun va kategoriyalarining ijtimoiy jarayonlar dialektikasidagi roli.	Referat, taqdimot tayyorlash
Bilish nazariyasi: asosiy muammolari va yo'nalishlari	Bilim inson ma'naviy kamoloti omili.	Referat, taqdimot tayyorlash
Tarixiy jarayonda jamiyatning madaniy va ma'naviy qadriyatlarini. Jamiyat va tarix falsafasi	Jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy tizimi.	Referat, taqdimot tayyorlash
Falsafiy antropologiya (Inson falsafasi)	Sharq va G'arb falsafasida inson masalasi.	Referat, taqdimot tayyorlash
Globalashuv va global muammolarning falsafiy jihatlarini	Globalashuv sharoitida antropologik inqirozning oldini olishning zaruriyati.	Referat, taqdimot tayyorlash
Mantiq ilmining predmeti, asosiy qonunlari	Bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari.	Referat, taqdimot tayyorlash
Mulohaza.Xulosa chiqarish	Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi.	Referat, taqdimot tayyorlash

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI
Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar

Argumentlash va bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari	Hukmning tarkibi va xususiyatlari.	Referat, taqdimot tayyorlash
“Etika” fanining predmeti va jamiyat hayotidagi ahamiyati	Buyuk mutafakkirlar etika kategoriyalari haqida	Referat, taqdimot tayyorlash
Nikoh va oilaning axloqiy asoslari, uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni	Oila nomusi va sha'nini saqlashda ota-ona va farzandlar mas'uliyati.	Referat, taqdimot tayyorlash
Axloqiy madaniyat va qadriyatlar	Milliy ma'naviyatimizda nikoh va oilaga doir axloqiy qadriyatlar.	Referat, taqdimot tayyorlash
Estetikaning predmeti, maqsadi va vazifalari	Ulug'vorlik kategoriyasining falsafiy mohiyati	Referat, taqdimot tayyorlash
Tabiat va texnogen sivilizatsiya estetikasi	Jamiyat rivojida tabiatga estetik munosabatning shakllanishi	Referat, taqdimot tayyorlash
Estetikaning zamonaviy muammolari	Estetik tarbiyaning turlari va yo'nalishlari.	Referat, taqdimot tayyorlash
3-semestr bo'yicha		

*Kamida 3 ta mavzu bo'yicha 5-6 ta mustaqil ish tayyorlanadi

TESTLAR

- birdan-bir to'g'ri javobi bo'lgan yopiq topshiriqlar;
- bir necha to'g'ri javoblari nazarda tutilgan yopiq topshiriqlar;
- bitta so'z (yoki so'zlar) tushirib qoldirilgan gapdan tashkil topgan ochiq topshiriqlar;
- to'g'ri ketma-ketlikni aniqlash uchun topshiriqlar;
- o'zaro bog'liqlikni (muvofiqlikni) aniqlovchi topshiriqlar;
- ayrim fanlar bo'yicha bilimlarning chuqurligini aniqlash bo'yicha topshiriqlari;
- qarama-qarshi munosabatlarni aniqlash testlari;
- chizmalar va sxemalarni tushunishga qaratilgan topshiriqlar;
- shakllar nisbatini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar;
- olingan axborotni o'zlashtirish darajasini aniqlash topshiriqlari;

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI
Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI
Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar

26-30 ball "a'lo"	Fanga oid nazariy bilimlarni to'la o'zlashtira olish. Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Tasavvurga ega bo'lish.
22-25 ball "yaxshi"	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
17-21 ball "qoniqarli"	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Ma'lum bir tasavvurga ega bo'lish.

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI
Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar



0-16 ball "qoniqarsiz"	Fan bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni bilmaslik
---	---

Fan o'qituvchisi _____
imzo f.i.sh.

Kafedra mudiri _____
imzo f.i.sh.

TARQATMA MATERIALLAR

TARQATMA MATERIALLAR



ҚадимгидунёШарқваҒарбфалсафаси муаммоларидаги фарқлар

Шарқ

Ғарб

<p>Асосий эътибор инсон муаммосига қаратилади;</p> <p>Инсон муаммоси амалиёт, мантиқ, ахлоқ, сиёсат ва одамларнинг ҳаёт фаолияти, ҳуқуқ муаммолари ўрганилади. турмуш тарзи нуқтаи-назаридан Ғарбда инсонга руҳий борлиқ ўрганилади. Инсоннинг ўзлиги, мурожаат этилмайди,</p> <p>турли ёшдаги одамларга, балки борлиқ ва билишнинг шунингдек, жамиятдаги тамайиллари сифатида</p> <p>ижтимоий ҳолати турлича бўлганларнинг амалий фаолияти билан боғлиқДиндан ажралишга ҳаракат қилади. муаммолар ўрганилади. кўпроқ илмий методологияга таянади.</p> <p>Дин билан ўзаро алоқадорликда Фалсафий оқим фалсафа сифатида ҳам, дин сифатида ҳам намоён бирига айланмади. конфуцийчилик, зардўштийлик).</p> <p>Шарқда ўзига хос фалсафий (Инь – аёллик, Янь-эркаклик асоси, Ци – уларнинг бирикмаси, Сансара – жоннинг қайта гавдаланиши, Аристотелнинг “Категориялар” ёвузлик). китобида келтирилган.</p>	<p>Натурфалсафа, онтология, гносеология, методология, эстетика,</p> <p>ёки одоб-ахлоқи орқали одоб-ахлоқи, ҳукмдорларга, умумий</p> <p>ёндашилади.</p> <p>Қадимги Ғарб фалсафий таълимотларининг ривожланади. бирортаси кенг тарқалган динлардан бўлади (брахманизм, индуизм, Ғарбда фалсафий категориялар аппарати моҳият, миқдор, ўрин, жой, категориялар аппарати мавжуд</p> <p>билан белгиланади. Дастлаб улар ҳақида</p>
--	---

Қадимги Ҳиндистон фалсафаси

Қадимги Ҳиндистон фалсафасини давраштираш

Веда аври (мил. авв. XV - VI асрлар). Ведалар ("билимлар") – диний-фалсафий ёзмалар (трактатлар), Ҳиндистонга милoddан аввалги XV асрдан сўнг Ўрта Осиё, Волга атрофи, Эрондан келган арий қабилалари томонидан яратилган. Қадимги Ҳиндистон фалсафасини ўрганувчилар ведаларнинг охириги хулосавий қисмлари – упанишадалар (санскритдан ўқитувчи оёғи остида ўтириш) - билан жуда қизиқишади. Упанишадаларда ведаларнинг фалсафий талқини берилади.

Ведаларнинг таркибий қисмлари

- "муқаддас ёзув", диний мадҳиялар ("самхитлар");
- маросимларнинг таърифи ("брахманлар"), брахманлар томонидан ёзилган ва улар томонидан диний маросимларни ўтказишда фойдаланилган;
- ўрмон қаландарлари китоблари ("араньяклар");
- ведаларга фалсафий шарҳлар ("упанишадалар").

Эпикавр (мил. авв. VI - II асрлар), бу даврнинг энг машҳур манбалари – икки поэма "Махабхарата" ва "Рамайна" эпослари, уларда даврнинг кўплаб фалсафий масалалари ўз ёифодасини топган

Сутралар аври (мил. авв. II а. – мил. VII а.) – қисқа фалсафий ёзмалар даври, уларда алоҳида масалалар кўриб чиқилган (м-н, "намасутра" ва б.) – қадимги Ҳиндистон фалсафасига яқун ясайди.

Кейинчалик (ўрта асрларда) Ҳиндистон фалсафасида Гаутама-Будда – буддизм таълимоти етакчи ўринни эгаллади. XVIII – XX асрларда Ҳиндистон фалсафаси европа фалсафаси ютуқлари билан бойиди, айниқса инглиз фалсафаси ютуқлари билан

Қадимги Шарқ фалсафаси

Хусусияти

Белгиси

Шарқ фалсафасининг ўзига хос хусусиятларидан бири дунёвий, мантиққа асосланган билимларнинг диний мифологик қарашлар билан аралашган ҳолда намоён бўлишидадир.

Қадимги шарқ фалсафасининг ўзига хос белгиларидан яна бири унда яқка шахсларнинг индивидуал фикрларига нисбатан умумжамоа манфаатларини акс эттирувчи умумжамоа руҳининг устуворлик қилишидир. Истеъдодли шахслар ана шу руҳнинг ажойиб ифодаловчилари бўлиб, тарих саҳнасига кўтарилганлар.

Қадимги Ҳиндистон фалсафаси






Веда"лар тўртта тўпладан иборат бўлиб, булар "Ригведа" "Самаведа" "Яжураведа" "Адхарваведа" деб аталади. Уларнинг фалсафий шарҳлари, фалсафий мушоҳадага қисмлари "Упанишад"лар деб номланди.

Қадимги ҳинд фалсафий мактаблари икки гуруҳга бўлиниб, улар Астика ва Настика деб аталади.

Астика гуруҳига кирувчи фалсафий мактаблар Веданта, Санхья, Йога, Вайшешика, Ньяя ва Миманса мактаблари "Веда"нинг илоҳийлигини тан олишади ва бу ёзма ёдгорликни ҳақиқатнинг ягона манбаси деб билишади.

Настика гуруҳига кирувчи мактаблар сифатида Чорвака, Локаята, буддизм, жайнизм мактаблари қайд қилинади.

16

Қадимги Хитой фалсафаси

Эраמידан олдинги VI-III асрлар да Хитойда асосан олти фалсафий таълимот (мактаб) шаклланган : конфуцийчилик , даосизм , моизм , легизмлар ва бошқалар .

Конфуцийчилик таълимоти бўйича ҳар бир ижтимоий қатламнинг ахлоқ нормалари мавжуд бўлиб , уни ўзгартириш мантиққа зиддир . Масалан бошқарувчилар тоифасига кирган кишилар ахлоқ нормаларини иқтисодий кам таъминланган ижтимоий қатлам ахлоқ қоидаларига қараб ишлаб чиқиш мумкин эмас . Ахлоқ мезонлари кишиларнинг жамиятдаги мавқеларига , иқтисодий таъминланганлик даражасига қараб ўзгариб , такомиллашиб борувчи ижтимоий жараёндир .

Асосий фалсафий доктриналар

Хитой фалсафасининг даврлари ва ўзига хослиги

Хитой фалсафаси

Хитой фалсафасининг ривожланиш даврлари.

Хитой фалсафасида ўз аксини топган Олам ва борликнинг хитойча қуришнинг ўзига хос хусусиятлари

- мил. авв. VII а. – мил. III а. – қадимги миллий фалсафий мактабларнинг вужудга келиши ва ривожланиши;
- III - XIX аа. – Хиндистондан буддизмнинг кириб келиши ва миллий фалсафий мактабларга таъсири;
- Хитойни мавжуд оламнинг маркази сифатида қабул қилиш;
- алоҳида ходисалар, тарихни циклик (айланма) жараен сифатида тушуниш;
- Ер ва Осмон олдида Ерда космик цикларнинг тугри амалга ошиши учун жавобгарлик сезиш;
- инсон, табиат ва коинот бир бутунлик сифатида қабул қилиш;
- онгнинг консервативлиги, утмишга йуналганлик, узгаришлардан қурқиш;
- XX а. – ҳозирги давр – хитой жамятининг епиклигига чек қуйилиши, хитой фалсафасининг гарб ва жаҳон фалсафаси ютуқлари билан бойиши.
- жамоадан алоҳида бир шахснинг ажратилмаслиги;
- табиат офатлари билан курашда алоҳида шахснинг кучсизлигини англаш; жамоавий (оммавий) меҳнат шаклларига ургу бериш (Буюк Хитой девори қурилиши, дамбалар қурилиши, каналлар қазилиши, сув тошқинлари билан кураш, ирригацион дехқончилик ва б.); шундан – ташкил қилувчи куч-давлат-олдида хурмат ва қурқув;
- инсон, жамят ва давлатни бутун бир бирлик сифатида қабул қилиш; жамятда вертикал муносабатларнинг (хокимият буйсуниш), субординация, бошлиқларга буйсуниш, императорни давлатни бирлаштирувчи буюк куч сифатида тан олинishi, давлатни эса-жамятни бирлаштирувчи куч сифатида тан олиш, император шахси, хоқимияти ва мансабининг худолаштирилишининг тарқалиши;
- узаро муносабатларда конформизм, тинчлик ва ҳаракатсизликка мойиллик билдириш;
- ҳаётни авваломбор рухнинг танадаги ҳаёти сифатида қабул қилиш, нариги дунедаги ҳаётни ердаги ҳаётдан устун қуйиш, ҳар бир инсоннинг ердаги ҳаётини имкон даражасида узайтириш (утлар, жисмоний машқлар ердамида, тугри ҳаёт тарзи олиб бориш, оламга тугри муносабатда булиш);
- ташқи кучларни реал деб тан олинishi, улганларни тирикдек қабул қилиш;
- ота-оналарга, қатталарга хурмат, аждодлар ва руҳларга ("шэнларга") эҳтиром.

Даосизм - Хитойнинг қадимий фалсафий таълимоти



Даосизм – Хитойнинг қадимий фалсафий таълимоти, оламнинг тузилиши ва мавжудлиги (яшаши)ни тушунтиришга ва инсон, табиат, коинот юриши керак булган йулни топишга ҳаракат қилади. Бу таълимот асосчиси Лао Цзи (Кекса Устоз) – мил. авв VI – V аа. яшаган. Асосий манбалари - "Даоцзин" ва «Дэцзин» фалсафий ёзмалар (трактатлар), биргаликда «Даодэцзин» деб номланади.

Даосизм фалсафасининг асосий ғоялари

- Оламда ҳамма нарса узаро боглик, ҳа бир нарса ва ҳодиса бошқа бир нарса ва ҳодиса билан боглик;
- Оламни ташкил этувчи материя ягонадир; табиатда материянинг айланмаси мавжуд («ҳамма нарса ердан чиқади ва ерга қиради»), яъни бугунги инсон кеча оламдаги бошқа бир формада булган - тош, дарахт, ҳайвон қисмлари, ва инсон улгимдан сунг унинг аъзолари бошқа бир ҳаёт формаси ва ходисалар учун қурилиш материали булиб хизмат қилади;
- Оламдаги тартиб, табиат қонунлари, тарих узгармайди, шунинг учун инсон ҳаётининг асосий тамойили – тинчлик ва ҳаракатсизлик ("у-вэй");
- Император муқаддас шахс, фақат у худолар ва юқори кучлар билан маънавий алоқада була олади; император шахси орқали Хитой ва бутун инсониятга «Дэ»-тетиклантирувчи куч ва нёъмат утади; инсон императорга қанча яқин булса, шунча қуп «Дэ» унга императордан утади;
- "Дао"ни англаш ва "Дэ"ни олиш учун даосизмнинг барча қонунларига тулик амал қилиш керак, "Дао" билан бирлашиб, императорга буйсуниш ва унга яқин булиш;
- Бахт ва ҳақиқатга олиб борадиган йул – хирс ва истақлардан озод булиш.

Асосий тушунчалар

"Дао" – иккита маънога эга: биринчидан, бу инсон ва табиат уз ривожланишида утгиши керак булган йул, оламнинг борлигини таъминлаб берувчи умумбашарий қонун; иккинчидан, бу бутун олам яралган субстанция, энергетик бушлик булган биринчи борлик.

"Дэ" – тепадан берилуви нёъмат; биринчи борлик «Дао»ни оламга айлантирган энергия.

Қадимги юнон фалсафасининг ривожланиш давлари

Эллинизм даври (мелоддан аввалги VI-II аср) полис инқироzi ва юнонлар ҳуқумронлиги ва Искандар Зулқайнар ва унинг авлодлари бошчилигидаги Осиё ва Африкада йирик давлатчиликнинг ташкил қилиниши даври



24



Фалес (эрамиздан олдинги 624 -547 йиллар), у Милет шаҳрида истиқомат қилг ан.



Дунёнинг асосида сув ётади , ҳамма нарса сувдан келиб чиқади ва яна сувга айланади .


Анаксимен (эрамиздан олдинги 588 -525 йиллар) хавони ҳамма нарсанинг асоси деб тушунган .



Хаво қуюқлашса сув , янада қуюқлашса ер , тош ва бошқа моддий жисмлар вужудга келади , агар хаво сийраклашса олов вужудга келади , деб ишонтиришга ҳаракат қилган .



25







Ўрта асрлар Шарқ ва Ғарб фалсафаси вужудга келиши ва ривожланишининг умумий белгилари :

Дин Ғарбда ҳам, Шарқда ҳам феодал жамиятнинг ҳукмрон мафқураси ҳисобланган

Муқаддас китоб ақидалари фалсафий муло ҳазаларнинг таянч нуқтасига айланган . Билим эмас , балки эътиқод , фан эмас , балки дин афзал қўрилган

Теоцентризм , яъни Худога , унинг моҳиятига дунёнинг биринчи сабаби ва биринчи асоси сифатида ёндашиш ўрта асрлар фалсафасига хос хусусиятдир

Буддизм фалсафаси асосий эътиборни борлиқнинг ўткинчилиги ва йўқлиқнинг ҳақиқийлиги , жоннинг боқийлиги ва абадий маънавий дунёни англаб етиш йўлида ўзликни камолотга етказиш орқали унинг ўз шакл-шамойилини ўзгартириши муаммоларини ўрганишга қаратган .
Конфуцийчилик феодал тузумни оқлаш учун буддизм ва даосизмнинг идеалистик ва даосизм гъларини ўзлаштирган ; одамлар ўзларининг «ёмон» ниятларини жиловлаб , тақдирга бўйсундилари лозим .
Ҳокимиятга бўйсуниш , уни ардоқлаш ва ҳурмат қилишни талаб этувчи «Осмон қонуни» ҳақидаги таълимот конфуцийчиликда энг муҳим таълимотга айланган .
Европа феодализми шароитида христиан дини ҳукмронлик қилган . У ўзининг одамлар ақли ва қалбини назорат қилиш марказлаштирилган тизимини кўп сонли тарқоқ феодал давлатларга қарши қўйган .

52

Ўрта асрлар Европасида фалсафий тафаккурнинг ривожланиш хусусиятлари

Ғарб ва Шарқ фалсафий тафаккури XVI асргача ҳар бири ўз йўлида ривожланган: араб Шарқда ва Испаниянинг араблар истило қилган қисмида фалсафага диннинг таъсири Европа ва Шарқий Осиёдагидан камроқ бўлган. Бу даврда араб фани ривожланишда Европа фанидан анча илдамлаб кетган



Европа фалсафасида материализм ўрта асрларда Шарқдагидек кенг тарқалмаган ва маданиятга кучли таъсир кўрсатмаган.



Илк ўрта асрларда фалсафий тафаккур ривожланишининг асосий шакллари апологетика ва патристика бўлган

Апологетика ортидан «черков оталари»нинг фалсафий таълимоти – патристика (лот. *pater* – ота) пайдо бўлган. Патристиканинг энг ёрқин вакили Гиппон (Шимолий Африка)даги епископ *Авлик Августин* (354-430)дир. У ўрта асрлар фалсафасига шунингдек фалсафий ижоднинг кейинги даврлардаги кўпгина вакилларига кучли таъсир кўрсатган.

Схоластика (юнон. *schole* – мактаб) – мактаб таълимида ҳукмронлик қилган ва илоҳиётга тўла боғлиқ бўлган ўрта асрлар христиан фалсафаси.
XI асрда схоластик фалсафа доирасида *номинализм* ва *реализм* ўртасида кураш авж олган

53





TARQATMA MATERIALLAR

ЯНГИ ДАВР ФАЛСАФАСИНИНГ ТАБИЙ -ИЛМИЙ АСОСЛАРИ

XVII асрдан бошлаб табиатшунослик жадал суръатлар - да ривожланади . Денгизларда кемаларнинг юриш эҳтиёжлари астрономиянинг ривожланишини , шаҳарсозлик , кemasозлик , ҳарбий иш – математика ва механиканинг ривожланишини белгилайди .

2


ЯНГИ ДАВР ҒАРБ ВА ШАРҚ ФАЛСАФАСИНИНГ АСОСИЙ МУАММОЛАРИ

Янги давр , аввало XVII аср фалсафасида онто - логия , яъни борлиқ ва субстанция ҳақидаги таъ - лимотга катта эътибор берилади (айниқса ҳара - кат , макон ва замон тўғрисида сўз юритилганда) .

Фан ва фалсафанинг вазифаси – инсоннинг табиат устидан ҳукмрон - лигини кучайтиришга , ин - сон соғлиғи ва гўзаллигига кўмаклашиш ҳодисалар - нинг сабабларини , улар - нинг муҳим кучларини ўрганиш зарурлиги анг - лаб етилишига олиб келган . Шу сабабли субс - танция ва унинг хосса - лари муаммолари Янги даврнинг деярли барча файласуфларини кизиқтирган .


4

TARQATMA MATERIALLAR



TARQATMA MATERIALLAR

Немис классик фалсафаси XVIII аср охири ва XIX асрнинг биринчи ярмида кенг ёйилди.



Асосий намоёндалар

Иммануил Кант (1724-1804) немис классик фалсафасининг асосчиси

Асосий ғоялари

□Қуёш тизимининг хосил бўлишини табиий сабабларга таяниб, Ньютон қонунлари асосида тушунтириб берди – борлиқ зарядланган моддий зарраларнинг ҳаракатланаётган туманлигидан келиб чиққан деб тушунтирди;

□Билиш чекланган;


□Инсон имкониятларини ва атрофимиздаги воқеа ҳамда жисмларнинг ички моҳиятини англаб бўлмайди «нарсаларнинг ўзи»;

□Ҳофалар тўғрисидаги таълимот яратди – фалсафада асосланадиган асосий ва умумий тушунчалар;


□Ахлоқий қонунни шакллантирди («тоифали императив»);

□Урушнинг иқтисодий самарасизлиги ва унинг ҳуқуқий таъқиқланишига асосланиб келгусидаги «ниҳоясиз дунё» ғоясини яратди.

45



Георг Гегель
(1770 -1831) –
фалсафасининг асосий
ғоялари



Фридрих Шеллинг
(1775 -1854) –
фалсафасининг асосий
ғоялари

□Борлиқ ва тафаккурни айнанлаштирди ;

□Онга боғлиқ бўлмаган ва барча борлиқ , моддий дунёнинг дастлабки асоси бўлиши мутлақ ғоя таълимотини яратди , шу билан , Ғарбнинг қатор давлатларида кенг тарқалган объектив идеализм концепциясини атрофлича асослаб берди ;



□Гегельнинг фалсафага қўшган асосий хиссаси диалектикани ишлаб чиққанлигидадир – умумий ривожланиш таълимоти , унинг асосий қонуниятлари ва тамойиллари

□Объектив идеализм нуқтаи назаридан табиатнинг моҳиятини чуқур асослаб берди ;


□Эркинлик ва ҳуқуқий тузум азалдан табиатда мавжуддир деган ғояни ишлаб чиқди .

46


374




ЭСТЕТИКА ФАНИНИНГ ПРЕДМЕТИ




ЭСТЕТИКАНИНГ КАТЕГОРИЯЛАРИ




**ЭСТЕТИК ФАОЛИЯТНИНГ ТАРКИБИ ЭСТЕТИК ОНГНИНГ
АСОСИЙ УНСУРЛАРИ**



ФОЖИАВИЙЛИК ТУШУНЧАСИ







КУЛГИЛИЛИК ТУШУНЧАСИ




**БАДИЙ АСАРНИ ЭСТЕТИК ИДРОК ЭТИШНИНГ
ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ**







ЭСТЕТИК ТАРБИЯ ОМИЛЛАРИ



ТОМОША-ҚОРИШМА САНЪАТ ТУРЛАРИ




МАНТИҚНИНГ ПРЕДМЕТИ



TARQATMA MATERIALLAR



TARQATMA MATERIALLAR



TESTLAR

1.«Falsafa» soʻzining lugʻaviy maʼnosi toʻgʻri koʻrsatilgan javobni belgilang?

- + Yunoncha, phileo – sevaman va sophia – donolik
- Yunoncha, phileo – sevaman va sophia – bilish
- Lotincha, philo – sevaman va sophi – donishmandlik
- Lotincha, phileo – sevaman va sophia – donolik

2.«Falsafa» atamasini birinchi boʻlib qaysi faylasuf oʻz asarida qoʻllagan? –

- Aristotel
- + Pifagor
- Suqrot
- Platon

3.Arxeolog olimlarning fikriga koʻra tik oyoqda yuruvchi “homo erectus” odam taxminan qachon vujudga kelgan?

- 5 mln avval
- 3,5 mln avval
- + 1,5 mln avval
- 2 mln yil avval

4.Quyidagi javoblardan qaysi birida dunyoqarashning nisbatan muhim funksiyasi koʻrsatilgan?

- Bilish funksiyasi
- Qadriyatlarga munosabati
- + A, V, E ja voblar toʻgʻri
- Xulq atvorni belgilash

5. Dunyoqarashning tuzilishi qanday?

- + Dunyoni sezish, idrok etish, tushunish
- Dunyoni tasavvur qilish – Axloqni yuksaltirish
- Barcha javob toʻgʻri

6.Dunyoni sezish bu?

- + Bu oʻz ini qurshagan dunyoni sezgilar yordamida hissiy idrok etish
- Faqat obʼektlarni anglash
- Inson oʻzini tushunish
- Aql yordamida tushunish

7.Faqat insonga xos xususiyatni aniqlang?

- + Dunyoni tushunish
- Harakat qilish
- Dunyoni sezish (qisman)
- Barcha javoblar notoʻgʻri

8.Tarixan dunyoqarashning shakllari bu?

- + Mif, din, falsafa, fan
- Mif, fan, ov

- Din, san’at, mehnat
- Fan, falsafa, ov

9. Mif atamasi qanday ma’nolarni anglatadi? +

Ri voyat, afsona

- San’at, voqea
- O‘yin, san’at
- Afsona, urush

10. Miflar nimalar orqali ifodalanadi?

+ Rivoyat, ertaklar –

Ertaklar, qo‘shiq

- Mehnat, ov
- Qo‘shiq, kuy

11. Quyidagilarning qaysi biri dinning funksiyasi emas?

+ Farovonlik funksiyasi

- Tartibga solish funksiyasi
- Kommunikativ funksiyasi
- Dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi

12. Fetishizm bu?

+ U yoki bu mo‘jizakor predmetning odamlar hayotida ta’sir ko‘rsatishiga sig‘inish

- Odamlarga sig‘inish
- Ruxlar va tabiat kuchlariga sig‘inish
- Bulutlarga sig‘inish

13. Magiya bu?

+ Ilohiy kuchlarga sig‘inish

- Hayvonlarga sig‘inish
- Odamlarga sig‘inish
- Yomg‘irga sig‘inish

14. Neolitik inqilobi bu?

+ In son chorvachilik va ziroatchilik bilan shug‘ullanish

- Inson ovchilik va termachilikka o‘tishi
- San’atning vujudga kelishi
- Dinning vujudga kelishi

15. Monoteizm bu?

+ Yakka xudolik

- Ko‘p xudolik – Xudosizlik
- Ruhlarga sig‘inish

16. Iudaizm qachon vujudga kelgan?

- Mil. av VII asrda
- Mil. av IX asrda

- + Mil.av XI asrda
- Mil.av V asrda

17. Dunyoqarashning qaysi shakllari e'tiqod va tuyg'ularga tayangan?

- + Mifologik va diniy dunyoqarash
- Falsafiy dunyoqarash
- Ilmiy dunyoqarash
- Kundalik dunyoqarash

18. Falsafiy dunyoqarash dunyoni nimalarga tayangan holda tushuntiradi? +
Aql va bilimlarda

- Tuyg'ularda
- E'tiqodda
- Sezgilarda

19. Falsafa nima birinchi o'rinda turadi?

- + Savol, masala
- Obraz
- Aniq, javob
- Dalillar

20. Falsafaning predmeti bu?

- Olamning yaxlit birligi
- + Borliq
- Inson
- Fan

21. Kosmotsentrizmning asosiy xususiyati nimadan iborat?

- + Kosmos va tabiatni anglashni
- Erni tadqiq etishni
- Odamni tadqiq etishni
- Hayotni anglashni

22. 17-18-asrlarda falsafa fanlar bilan birlashib uning tadqiqotlar markazida

- + Bilish va ilmiy metodlar o'rin oldi
- Globallashuv o'rin oldi
- O'zlikni anglash oldi
- To'g'ri javob yuq

23. Quyidagilardan qaysi biri dialektik bilimlar sohasiga tegishli?

- + Rivojlanish va o'zgarishlar haqidagi ta'limot
- Axloq haqidagi ta'limot
- Hayot haqidagi ta'limot
- Qonunlar va usullarni o'rganuvchi fan

24. Tafakkur qonunlari va usullari haqidagi fan bu?

- + Mantiq

- Dialektika – Etika
- Tarix

25. Materialistlar deb qaysi toifadagi kishilarni aytish mumkin?

- + Olamni azaldan, moddiy deb, ong bu materiyaning mahsuli deyuvchilar
- Ongni birinchi o‘ringa qo‘yuvchilar
- Olamning markaziga madaniyatni qo‘yuvchilar
- To‘g‘ri javob yuq

26. Quyidagi qatorlardan kimlar sub’ektiv idealistlar hisoblanadi?

- + Berkli, Yum, Fixte
- Dekart, F. Bekon
- Gegel, Berdyaev
- Platon, Dekart

27. Mexanistik materializm tarafdorlari kimlar?

- + Golbax, Lametri, P. Gassendi
- Gegel, Kant
- Fixte, Yum
- Berkli, Bekon

28. Antik falsafaning asosiy savoli? +
Dunyonimadan yaratilgan?

- Hayot yashashga arziydimi?
- Inson nima?
- Xudoning borligini qanday asoslash mumkin?

29. Ekzistensializm tarafdorlarining eng yirik vakillari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? +
Kamyu, Sartr

- Fixte, Golbax
- Baxtin, Sartr
- Kant, Gegel

30. Gnoseologik optimizm ta’limoti qanday qarashni ilgari suradi?

- + Du nyoni anglash va bilish mumkin
- Dunyoni bilib bo‘lmaydi
- Dunyoni bilish mumkin, lekin shubha bilan qarash kerak
- Hamma javob to‘g‘ri

“Mantiq” fanidan testlar

1. Formal mantiq nimani o‘rganadi?

- a) tafakkurning vujudga kelishini;
- b) tafakkur taraqqiyotini;
- v) to‘g‘ri tafakkur shakllari va qonunlarini*
- g) fikrning konkret mazmuni;

2. Tafakkur shakli nima?

- a) fikrning mazmunini tashkil etuvchi elementlarning bog‘lanish usuli*

- b) firkning yaqqol iqodalanishi;
- v) fikrning tilda gavdalanishi;
- g) til va tafakkurning bir - biriga to'la mos kelishi;

3. Fikr qachon to'g'ri qurilgan deb hisoblanadi?

- a) aniq ma'nasiga ega bo'lsa;
- b) izchil bo'lsa;
- v) etarli asosga ega bo'lsa;
- g) b, v, g hollari mavjud bo'lsa

4. Tafakkur qonuni nima?

- a) fikr yuritish qoidalari yig'indisi;
- b) fikr yuritish usuli;
- v) fikrlash elementlari o'rtasidagi ichki zaruriy aloqadorlik*
- g) fikrlash shakli;

5. Sinonim va omonimlardan noto'g'ri foydalanish, masalan, "Vatan", "o'lka" so'zlari ifoda qiluvchi tushunchalarning mazmunini barcha hollarda bir - biriga tenglashtirish yoki "xukm" so'zi ifoda qiluvchi tushunchalarning (xukm - sud chiqargan qaror, hukm - tafakkur shakl) mazmunini farq qilmaslik muhokama yuritishda fikrning aniq ifoda qilinmasligiga olib keladi. Bunday hollarda tafakkurning qaysi qonuni talablari buzilgan bo'ladi? a) ayniyat qonunining talabi buzilgan*

- b) ziddiyat qonunining talabi buzilgan;
- v) uchinchi mustasno qonunining talabi buzilgan;
- g) etarli asos qonunining talabi buzilgan;

6. Amaliy mashg'ulotlarda talaba o'qituvchidan, - "Qilmagan ish uchun jazolab bo'ladimi?", - deb so'radi. O'qituvchi, - "Yo'q, jazolab bo'lmaydi", deb javob beradi. Talaba, - "Unday bo'lsa meni jazolamang, uyga vazifani qilmadim", - deydi. YUritilgan muhokamada tafakkurning qaysi qonun talablari buziladi? a) ayniyat qonunining*

- b) ziddiyat qonunining;
- v) uchinchi mustasno qonunining;
- g) etarli asos qonunining;

7. "Mazmunsiz fikr" tushunchasida ziddiyat qonuni talabiga rioya qilinganmi? a)

- rioya qilingan;
- b) rioya qilinmagan*
- v) ba'zida rioya qilinishi mumkin;
- g) ba'zida rioya qilinmaydi;

8. Afandi xotiniga "Qatiq keltir! Yozning issig'ida oshqozon uchun qattiqdan foydaliroq narsa yo'q!", - dedi. Xotini - "Uyda qattiq yo'q edi", - deb javob beradi. Shunda Afandi, - "Bo'lmagani ham yaxshi; aslida u zararli", - debdi. Afandining xotini shunda, - "Qiziq odam ekansiz, qattiq dam foydali, dam foydasiz deysiz. Qaysi biriga ishonsa bo'ladi?" - deb so'radi. Afandi, - "Agar uyda qattiq bo'lsa birinchisi, bo'lmasa ikkinchasi to'g'ri", - deb javob beribdi.

Mazkur latifada tafakkurning qaysi qonuni talabi buzilgan? a)

- ayniyat qonunining talabi;
- b) ziddiyat qonunining talabi*
- v) uchinchi mustasno qonunining talabi;
- g) etarli asos qonunining talabi;

9. Afndining chap yon qo'shnisi Afandining o'ng yon qo'shnisi bilan bo'lib o'tgan munozarani gapirib berib, Afandidan kim haq ekanligini so'rabdi. Afandi shunda, - "Albatta siz haqsiz", - deb javob beribdi. Birpasdan keyin o'ng yon qo'shnisi kelib u ham chap yon qo'shnisi bilan bo'lib o'tgan baxsining tafsilotini gapirib berib kim haqligini so'rabdi. SHunda Afandi unga ham - "Albatta siz haqsiz" - deb javob beribdi. Bu hangomani kuzatib turgan xotini, "Juda qiziq odatingiz borda, axir u qo'shniga ham, bu qo'shniga ham "Siz haqsiz" deb javob berdingiz, tutirig'ingiz qolmabdi-ku, umuman", - debdi. SHunda Afandi xotiniga qarab, - "Xotin, sen ham haqsan", - degan ekan.

Bu erda Afandi mantiqning qaysi qonuni talabiga amal qilmadi? a)

ayniyat qonunining talablari;

b) ziddiyat qonunining talablari;

v) uchinchi mustasno qonunining talablari*

g) etarli asos qonunining talablari;

10. "Yoki - yoki" formulasi tafakkurning qaysi qonunini ifodalaydi?

a) ayniyat qonunini;

b) ziddiyat qonunini;

v) uchinchi mustasno qonunini*

g) etarli asos qonunini;

11. "Kurs ishida mavzuning asosiy mazmuni ochilmagan, lekin to'plangan materiallarni hisobga olgan holda uni yaxshi bahoga loyiq deb hisoblash mumkin". Bu mulohazada etarli asos qonuni talablarga rioya qilinganmi? a) qisman rioya qilingan;

b) rioya qilinmagan;

v) rioya qilingan*

g) a, b, v hollarda;

12. "Talaba qizarib ketdi, demak u ayibdor". Bu muhokamada etarli asos qonunining talabi buzilganmi? a) buzilgan*

b) buzilmagan;

v) noma'lum;

g) qisman buzilgan;

13. Savol "Mutaxassisligingiz kim?". Javob "O'rindoshlik asosida ishlayapman". Savolga berilgan javobda ayniyat qonuni talabiga rioya qilinganmi? a) rioya qilingan;

b) qisman rioya qilingan;

v) rioya qilinmagan*

g) noma'lum

14. Sofistlarni mantiq qonunining talabini buzishda ayblab, Arastu quyidagilarni yozgan edi: "Kim barcha fikrlarni chin deb bilsa, bu bilan u o'zining chin fikriga qarama - qarshi bo'lgan fikrni ham chin deb hisoblagan bo'ladi". Bu erda Arastu tafakkurning qaysi qonuni talabining buzilganini nazarda tutgan?

a) ayniyat qonunining talabi buzilganligini;

b) ziddiyat qonunining talabi buzilganligini*

v) uchinchi mustasno qonunining talabi buzilganligini;

g) etarli asos qonunining talabi buzilganligini;

15. Tilsiz fikr yuritib bo‘ladimi?

- a) bo‘ladi;
- b) bo‘lmaydi*
- v) ba’zi hollarda bo‘ladi;
- g) b va v hollarda;

16. Tushunchalarda nimalar aks ettirilgan?

- a) faqat predmetning umumiy belgilari;
- b) faqat predmetning individual belgilari;
- v) predmetning umumiy va muhim belgilari*
- g) predmetning barcha belgilari;

17. Tushunchada predmet qanday hollarda aks ettiriladi?

- a) predmetning yaqqol obrazli shaklida;
- b) abstraktlashgan holda*
- v) tasavvur shaklida;
- g) sezgi yoki idrok qilish shaklida;

18. Tushuncha miyada bevosita hosil bo‘lishi mumkinmi?

- a) mumkin;
- b) ba’zida mumkin*
- v) mumkin emas;
- g) ba’zida mumkin emas

19. Tushunchaning mazmunini nimalar tashkil etadi?

- a) predmetning muhim va umumiy belgilari haqidagi axborotlar*
- b) predmetning muhim va nomuhim belgilari haqidagi axborotlar;
- v) predmetning mavjud belgilari haqidagi axborotlar;
- g) faqat predmetning bevosita namoyon bo‘lgan belgilari haqidagi axborotlar.

20. Tushunchaning hajmida nima ifoda qilinadi?

- a) predmetning egallab turgan joyi
- b) tushunchada aks ettirilgan predmetlar yig‘indisi*
- v) miqdor jihatdan aniq bo‘lgan predmetlar;
- g) tushuncha aks ettirilgan predmetlar mohiyati.

«ETIKA» FANIDAN TESTLAR

1. Axloq deganda nimani tushunasiz?

- a) Axloq xudoning insonga bergan in’omi;
- b) Axloq kishining turli xil kayfiyatlari;
- v) Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri, insonning yurishturish qoidalari va hulq-atvori normalari;
- g) Axloq yaxshilik va yomonlikning o‘lchov mezon.

2. Axloq ko‘proq qaysi fanlar bilan bog‘liq?

- a) Tarix va siyosatshunoslik fanlari bilan;
- b) Pedagogika va huquqshunoslik fanlari bilan;
- v) Sotsial - psixologiya va iqtisodiyot fanlari bilan;
- g) San’at va adabiyot fanlari bilan.

3. Axloqning ijtimoiy hayotdagi roli nimadan iborat?
- a) Odamga omad va baxt-saodat keltiradi;
 - b) Kishini hato qilmaslikka undaydi;
 - v) Insonni ma'naviy kamolatga etkazadi, jamiyatni ma'lum muvozanatda saqlab turishga imkon beradi;
 - g) Kishining o'z nafsini tiya bilishini va insofli bo'lishini ta'minlaydi.
4. Axloqning tarkibiy tuzilishini izohlang?
- a) Kishining kechinmalari, his-tuyg'ularning yig'indisi;
 - b) Axloqiy amaliyot va psixologik xususiyatlarni o'z ichiga oladi;
 - v) Axloqiy ong, axloqiy normalar, axloqiy faoliyat va axloqiy munosabatlar;
 - g) Axloqiy baho va axloqiy mezon.
5. Axloqning tabiiy manbaalari nimalardan iborat?
- a) Axloq tug'ma xarakterga ega, inson tug'ilishi bilan unga in'om etiladi;
 - b) Axloqning negizida shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar yotadi;
 - v) Axloq kishining aql-zakovatiga bog'liq;
 - g) Axloq ota-onadan o'tadigan genetik meros.
6. Axloqning ijtimoiy manbalari nimalardan iborat?
- a) Axloq siyosiy ustqurmaning mahsuli;
 - b) Axloq jamiyatning tuzumi orqali belgilanadi;
 - v) Axloq sotsial muhit va jamoatchilik fikri orqali shakllanadi;
 - g) Axloq tarbiya xarakteriga bog'liq holda namoyon bo'ladi.
7. Axloqning ma'naviy manbalari nimadan iborat?
- a) Axloq xudoning irodasiga bog'liq;
 - b) Axloq hayotiy tajribalar davomida takomillashadi;
 - v) Axloq ilm-ma'rifat orqali shakllanadi, kishining hayot mazmuni va hayot maqsadini qanday tushunishiga bog'liq;
 - g) Axloq kishining ijtimoiy faolligi, intilishlari va epchilligining mahsulidir.
8. Axloqiy norma -qoidalar qachon paydo bo'lgan?
- a) Odamzod urug'ining paydo bo'lishi bilan;
 - b) Inson jamiyati yuzaga kelishi bilan;
 - v) Iqtisodiy tuzum inqirozi davrida;
 - g) Quldorlik tuzumi shakllangandan keyin.
9. Eng qadimgi axloqiy ta'limotlar qayerda yuzaga kelgan?
- a) Misrda, Hindiston va Xitoy mamlakatlarida;
 - b) Qadimgi Yunonistonda va Rimda;
 - v) Evropa mamlakatlaridan Angliya va Fransiyada;
 - g) Amerika Qo'shma Shtatlarida.
10. Eng qadimgi taniqli axloqshunos mutafakkirlarni aniqlang.
- a) Fales, Anaxsimandr, Geraklit;
 - b) Aristotel, Suqrot, Epikur;
 - v) Demokrit, Amaksimen, Lukretsiy;
 - g) Gelvetsiy, Spinoza, Kant.

11. Axloqshunoslik bo'yicha birinchi darslikni kim yozgan? a)
Geraklit;
b) Aristotel;
v) Demokrit;
g) Epikur.
12. «Axloq - bu baxt-saodatga erishish yo'llarini o'rgatuvchi fandır» degan fikrning muallifini aniqlang?
a) Geraklit;
b) Demokrit;
v) Aristotel;
g) Epikur.
13. Axloqning asosida shaxsiy manfaat yotadi - degan fikrni kim birinchi bor ilgari surgan? a)
Golbax, Gelvetsiy;
b) Alisher Navoiy, Farobiy;
v) Platon, Gegel;
g) Kant, Feyerbax.
14. Axloqiy taraqqiyot g'oyasiga kim asos solgan?
a) Gegel;
b) Kant;
v) Ibn Sino;
g) Jomiy.
15. Burch kategoriyasi ustida kim ko'proq ish olib borgan? a)
Kant;
b) Spinoza;
v) Feyerbax;
g) Marks.
16. Axloqning asosida sevgi va muhabbat yotadi - degan fikrning muallifini aniqlang. a)
Feyerbax;
b) Suqrot;
v) Platon;
g) Sa'diy Sheroziy.
17. Eng qadimgi axloqiy ta'limotlar qanday yozma manbada ifoda etilgan? a)
Qur'onda;
b) Avestoda;
v) O'rxun-Enisey yozuvlarida;
g) Farobiy risolalarida.
18. Eng qadimgi xalqlarning o'z Vatani va o'z xalqiga muhabbat fazilatlarini ifodalaydigan og'zaki ijodiyot namunalarini aniqlang. a) Go'ro'g'li dostoni;
b) Alpomish dostoni;
v) To'maris va Shiroq afsonalari;

g) Qirq qiz dostoni.

19. «Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodtaga erishuv yo‘llari haqida» risolalarining muallifini aniqlang.

- a) Al Kindiy;
- b) Al Roziy;
- v) Al Farobiy;
- g) Al Beruniy.

20. «Sevgi haqida risola» nomli kitobning muallifi kim?

- a) Beruniy;
- b) Xorazmiy.
- v) Ibn Sino.
- g) Umar Xayyom.

“ESTETIKA” FANIDAN TESTLAR

1. Tarixda «estetika» atamasini kim tatbiq qilgan?

- a) Baumgarten
- b) Bualo
- v) Bergson.
- g) Suqrot.

2. Estetika -

- a) Go‘zallik va voqelikni estetik o‘zlashtirish qonuniyatlari haqidagi fan;
- b) Voqelikdagi estetiklikning mohiyati, estetik faoliyatning umumiy qonunlari va estetik ongning o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi fan;
- v) go‘zallik qonunlari va estetik ong qonunlariga doir ijod to‘g‘risidagi fan; g) nafosatshunoslik.

3. Estetika tarixida kim estetik tarbiya nazariyasining dastlabki loyihasini yaratgan? a)

- Geraklit
- b) Platon
- v) Pifagor
- g) Arastu.

4. Faylasuflardan qaysi biri san‘at odamning hayvonlarga taqlid qilishi negizida vujudga kelgan, deb hisoblagan? a) Geraklit

- b) Demokrit
- v) Sokrat
- g) Epikur.

5. Faylasuflardan qaysi biri go‘zallikni maqsadga muvofiqlik bilan bir xil narsa deb hisoblagan?

- a) Platon
- b) Aristotel
- v) Sokrat
- g) Fales.

6. Faylasuflardan qaysi biri san‘at bilishga oid qimmatga ega emas, u yolg‘on va chinakamiga haqiqiy dunyoni bilishga to‘sqinlik qiladi, deb hisoblagan? a) Platon

- b) Demokrit

- v) Geraklit
- g) Aristotel.

7. Faylasuflardan qaysi biri ijodiy ishlash erishib bo'lmaydigan holat deb hisoblagani uchun badiiy an'analarni o'rganish, malaka va ko'nikmalar orttirish, san'atda muayyan qobiliyatlarni ishlab chiqish zaruriyatini inkor qilgan? a) Demokrit

- b) Geraklit
- v) Platon
- g) Epikur.

8. Estetika tarixida kim odamga maxsus tanlab olingan musiqa orqali ta'sir qilish yo'li bilan uning qalbini zararli ehtirolar (qahr-g'azab, qo'rquv, rashq)dan xoli qilish nazariyasini ishlab chiqqan?

- a) Pifagorchilar
- b) Aristotel
- v) Platon
- g) Demokrit.

9. Kalokagatiya -

- a) Bu - inson go'zalligining sharti bo'lgan tashqi va ichki jihatlarning uyg'unligi;
- b) Bu - inson go'zalligining sharti bo'lgan ma'naviylik va go'zallikning uyg'unligi;
- v) Bu - inson go'zalligining sharti bo'lgan etik va estetik jihatlarning uyg'unligi;
- g) Bu - inson go'zallikning sharti bo'lgan estetik mohiyati.

10. Estetiklikning mohiyati, uni voqelikda va san'atda bilishning asosiy tamoyillari, odamlarning estetik va badiiy faoliyatining tabiati va muhim roli haqidagi tushunchalar tizimi nima deb ataladi?

- a) estetik qarashlar;
- b) estetik nazariya;
- v) estetik ideallar;
- g) estetik tushuncha.

11. Voqelikdagi va san'atdagi estetiklik haqidagi g'oyalar, fikrlar, hukmlar yig'indisi nima deb ataladi?

- a) estetik qarashlar;
- b) estetik ideallar;
- v) estetik nazariyalar;
- g) estetik g'oyalar.

12. Hayotning estetik mukammalligi va mukammal inson haqidagi tasavvur nimadan iborat? a) estetik baho;

- b) estetik ideal;
- v) estetik did;
- g) estetik his.

13. Tabiat, jamiyat hodisalari, inson mehnati mahsullari, san'at asarlarining mukammalligi haqidagi o'ziga xos hukm qanday ataladi? a) estetik did;

- b) estetik baho;
- v) estetik his;
- g) estetik ideal.

14. Antik dunyo estetikasining qanday atamasi san'atning odamga qiladigan poklovchi ta'sirini ifodalash uchun xizmat qiladi? a) kvantifikatsiya;

b) kalokagatiya;

v) katarsis;

g) teatr.

15. Estetikada odamzod jamiyatining dunyoni go'zallik qonunlari bo'yicha o'zlashtirishi tarixini aks ettiradigan fundamental tushunchalar nimalar? a) estetik ideallar;

b) estetik baholar;

v) estetik kategoriyalar;

g) estetik hislar.

16. Badiiy makonni yaratishning muayyan davr odamlarining uning tuzilishi haqidagi tasavvurlarini aks ettiradigan va hukmron badiiy uslubga muvofiq keladigan usuli nima deb ataladi?

a) perfomens;

b) istiqbol;

v) plastika;

g) g'oya.

17. Estetika tarixida kim go'zallikni uyg'unlik, yaxlitlik, mukammallik sifatida tushungan? a)

Demokrit;

b) Platon;

v) Aristotel;

g) Suqrot.

18. Qanday yo'nalish vakillari go'zallikning ma'naviylik bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlashgan?

a) Klassitsizm;

b) Uyg'onish;

v) Ma'rifatchilik;

g) Madaniyatlik.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.:“O'zbekiston”, 2014. 24 b
2. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
5. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-24 jildlar.- T.: O'zbekiston 1996-2016.
6. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. 2 nashr –T.:Ma'naviyat, 2016 176-b.
7. Abdulla Sher. Estetika. Darslik. – T.: O'zbekiston, 2016. 192 b.
8. Abdulla Sher, Husanov B, Umarov E. Estetika. T. O'ZMU, 2008. 178 b
9. Umarov E. Estetika. T. O'ZMU, 2004. 172 b